

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT KAFEDRASI



**“YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT
STRATEGIYASI ASOSIDA HISOB-TAHLIL VA AUDIT
TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA USTUVOR
YO‘NALISHLAR”**

**MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2023-yil 5-dekabr

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida hisob-tahlil va audit tizimini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to‘plami. –T.: TDIU 2023. 581 b.

Ushbu to‘plam “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi asosida hisob-tahlil va audit tizimini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlar” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumani “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilab berilgan mazkur dolzarb vazifalarning ilmiy-amaliy jihatlarini muhokama qilish asosida bu borada ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Ushbu anjumanda respublikamizda mavjud oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining soliqlar va soliqqa tortish, iqtisodiyot, moliya, investitsiyalar, kichik biznes iqtisodiyoti va real sektor tarmoqlari iqtisodiyoti sohasida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan xodimlar hamda sohaning yetuk mutaxassisleri ishtirok etdi.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va keltirilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o‘zlari mas‘uldirlar.

Mas‘ul muharrir: i.f.d., prof. N.Sh. Xajimuratov

Tahrir hay‘ati:

i.f.d., prof. B.I. Isroilov

i.f.d., prof. B.A. Xasanov

i.f.d., prof. R.D. Dusmuratov

i.f.d., prof. B.Y. Menglikulov

Katta o‘qituvchi U.H. Abdug‘aniyev

Tashkiliy guruh a‘zolari:

B.Tashboyev

M. Sayfullayev

E. Tulovov

S. Omanov

A. Xotamov

A. Botirov

S. Ovlayev

D. Normuminova

©TDIU, 2023

KIRISH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliyaviy tahlil va audit” kafedrasidan tomonidan 2023-yilning 5-dekabr kuni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida hisob-tahlil va audit tizimini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi. Barchamizga ma’lumki, keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda ulkan demokratik o‘zgarishlar hamda yuqori iqtisodiy imkoniyatlarga erishib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar asosida mamlakatimizda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasida ham samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad sifatida biznes subyektlarida xarajatlarni kamaytirish va tannarxini pasaytirish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini yaratish, biznes subyektlarining barqarorlikka erishishini ta’minlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6300-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son “O‘zbekiston respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-sentabrdagi 538-son “Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hisob-tahlil va auditni takomillashtirish orqali mamlakatda biznes subyektlarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy munosabatlarini optimallashtirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida hisob-tahlil va audit tizimini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlar” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilab berilgan dolzarb vazifalarning ilmiy-amaliy jihatlarini muhokama qilish asosida bu borada ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Ushbu konferensiyada xorijiy davlatlar va respublikamizda mavjud oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining buxgalteriya hisobi, biznes tahlil, audit, moliyaviy nazorat sohalarida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan xodimlar hamda sohaning yetuk mutaxassisleri ishtirok etdi.

Konferensiyaning ma’ruza tezislari to‘plamida xorijiy va respublikaning bir qator oliy ta’lim muassasalarining yetakchi professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar va soha mutaxassislarining 170 dan ortiq ilmiy maqolalari hamda ma’ruza tezislari taqdim etilgan bo‘lib, ularning eng saralari mazkur to‘plamda chop etildi.

Konferensiya yakuni bo'yicha qaror qabul qilinib, muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli davlat boshqaruv organlari va mutasaddi tashkilotlarga taqdim etildi hamda xulosa va tavsiyalar tayyorlandi. Konferensiya natijasida olingan xulosa va tavsiyalar milliy iqtisodiyotda hisob-tahlil va auditni takomillashtirish orqali respublikamiz biznes subyektlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash istiqbollari hamda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada hissa qo'shishiga ishonamiz.

MUNDARIJA

I SHO‘BA

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Dusmuratov R.D., Davletov I.R.	Biznesni tugatishning normativ-huquqiy ta’minotini takomillashtirish.....	12
Maxmudov A.N.	Yengilsanoat korxonalarida mahsulot tannarxini aniqlash usullarini takomillashtirish.....	15
Алмардонов М.И.	Миллий иқтисодий тартибга инвестицияларни жалб қилишда эркин иқтисодий зоналарнинг аҳамияти.....	19
Нуралиева Н.М., Бекирова Д.О., Исраилов Э.М., Сарбагышова А.Э., Супатаева Г.Т., Койчуманова И.Т.	Необходимость применения управленческого учета в аграрном секторе Кыргызской Республики.....	23
Ташназаров С.Н.	Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишдаги тажрибалар ва жадаллаштириш омили.....	32
Исраилов М.И., Зенина Е.В.	Организационно-методологические аспекты цифровизации при формировании стратегического управленческого учета.....	37
Таджибаева Ш.А.	Анализ ликвидности и платежеспособности бухгалтерского баланса банков в условиях цифровой экономики.....	40
Исманов И.Н., Казимова М.З.	Рақамли иқтисодий шароитида мххс асосида кичик бизнес корхоналарида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш масалалари.....	44
Кудбиев Д., Тешабаев Д.Б.	Особенности учета основных средств в соответствии с МСФО.....	46
Қодиров Б.Қ.	Бевосита ва билвосита солиққа тортиш ҳисобини такомиллаштириш масалалари.....	49
Norbekov D.E.	Xalq ta’lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag’lar hisobining nazariy-uslubiy masalalari.....	51
Очилов Ф.Ш.	Бухгалтерия ҳисобида молиявий мажбуриятларни тан олиш ва баҳолаш тартибини такомиллаштириш.....	54
Очилов Ф.Ш.	Мажбуриятларни таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари.....	58
Пашаходжаева Д.Ж., Охунжанова М.Х.	Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга интиграциялашуви шароитида корхоналарда фойда солиғи бўйича ҳисобланган кўрсаткичларнинг аудиторлик таҳлилининг аҳамияти.....	61
Pardayeva Sh.A.	Хо‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish.....	66
Qurbonov Z.N., To‘lamurodova S.	Nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish.....	68
Pulatova M.B., Nizomidinova M.O.	Maktabgacha ta’lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning ahamiyati.....	70
Кундузова К.И., Азимжонова З.Ш.	Зарубежного опыта при переходе банковского сектора на МСФО.....	73
Махкамбаев А.Т.	Ҳисоб сиёсатининг бухгалтерия ҳисобида тутган ўрни.....	75
Abdukadirov B.A.	Raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining o‘rni va ahamiyati.....	77
Egamberdiyeva S.R.	Agrar sohada buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	79
Eshpulatova Z.B.	The first application of international financial reporting standards in the Republic of Uzbekistan.....	82

Abdukadirov B.A., Ergashev M.U.	Current status and prospects of the introduction of artificial intelligence technologies.....	84
Kozimjonov A., To‘lanova G.D.	Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar hisobini tashkil etish masalalari.....	87
Тангишов М.	Особенности банковского учета в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности (МСФО): тенденции и влияние на эффективность банка.....	90
Гафурова А.Ф.	Управление расходами с помощью совершенствования бухгалтерского учёта.....	92
Yuldashev B.T.	Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar sarflanishi hisobi va amaliyotini takomillashtirish.....	94
Yuldashev B.T.	Budjet muassasalari tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasi hisobini takomillashtirish.....	97
Akhunova Sh.N., Askarov F.R.	Analyzing the prospects of aligning blockchain technology with international accounting standards in Uzbekistan.....	101
Tulovov E.T.	Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning xususiyatlari.....	103
Алиев Ш.А.	Рақамли иқтисодиёт шароитида асосий воситалар ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш йўналишлари.....	107
Маннапова Р.А.	Умумий овқатланиш корхоналарида бошқарув ҳисоби моделини яратиш омиллари.....	110
Исломов А.Б.	Бухгалтерия аутсорсинг хизмати ривожланишининг назарий-услубий асослари.....	112
Мирсодикова Д.Д.	Последствия технологии блокчейн для бухгалтерского учета и аудита.....	119
Ахметова С.	Особенности текущего учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции.....	121
Muzrapova Sh.S.	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.....	129
Sattorov T.T.	Consolidated financial statements.....	133
Нормўминова Д., Овлаев С.Т	Дебиторлик қарзлари таҳлилини такомиллаштириш.....	135
Камолова Ф.К.	Учет дебиторской задолженности согласно МСФО.....	137
Qodirov S.I.	Buxgalteriya hisobida bulutli texnologiyalardan foydalanish masalalari.....	140
Шарипова Ш.А., Астанова Ф.А.	Совершенствование бухгалтерского учета в Республике Узбекистан на основе международных стандартов.....	145
Eshankulov A.A.	Consolidated in economic subjects legal basis and prospects regulating financial reporting.....	147
Eshankulov A.A.	Consolidated in joint stock companies principal objectives of financial reporting and improving the form of preparation.....	151
Мамажонов Л.А.	Харажатлар ва уларни ҳисобга олишнинг назарий масалалари.....	154
Qudbiyev N.T.	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq ijara munosabatlarini hisobga olish amaliyoti.....	157
Нурниёзов Ф.А.	Электр энергиясини аҳолига етказишдаги вазифалари ва унинг ҳисоби.....	160
Тешабаев Д.Б., Рахмонов О.Н.	Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида молиявий ҳисоботларни шакллантиришнинг ўзига хослиги.....	162
Rasulova Sh.X., Abdullayeva M.M.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	164

Ibragimova Z.Z., Zaynobiddinova M.N.	IFRSga muvofiq asosiy vositalarni bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish masalalari.....	166
Yusupova M.B.	Biologik aktivlar hisobini tashkil qilishda xalqaro standartlar qoidalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	169
Turg'unov M.M., Xomidov M.X.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini rivojlantirish masalalari.....	172
Muxamadjonova D.A., Abdusalimov X.A.	Raqamli texnologiyalarga muvofiq buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari.....	175
Xotamov A.X.	Innovatsion rivojlanish sharoitida to'qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblash usullarini takomillashtirish.....	177
Ботиров Л.Б.	Рақамли иқтисодиёт шароитида виночилик саноати корхоналарида бухгалтерия ҳисобини ташкил этишнинг назарий асослари.....	180
Xasanova N.T.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida muhimlik tushunchasi va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	183
Икрамова Х.Р.	Особенности учета затрат на масложировом производстве.....	189
Курбонова Ш.А.	Молиявий ҳисоб ва ҳисоботни МҲХС асосида ташкил этиш шароитида асосий воситалар таркиби ва динамикаси таҳлили.....	192
Axmadaliyeva Z.A., To'liqinova N.Q.	MHXS bo'yicha investitsiya mulkini hisobga olish xususiyatlari.....	195
Hamroyeva S.H.	Digital economy: the new reality of sustainable development during the pandemic.....	197
Эрматова С.	Организация бюджета и улучшение учета внебюджетных средств.....	199
Umirova G.Sh.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning zarurligi.....	205
Djumayeva G.A.	MHXS asosida xarajatlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari.....	208
Xolmuradov M.A.	Mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari samaradorligini takomillashtirish masalalari.....	211
Djumayeva G.	Qimmatli qog'ozlar hisobini takomillashtirish.....	214
Misirov A., Usmanov Sh.Sh.	Eksport-import operatsiyalari hisobini takomillashtirish yo'llari.....	216
Abdijalilova D., To'lamurodova S.	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim etishda axborot texnologiyalarining o'rni.....	223
Jo'raev A.B.	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni takomillashtirish.....	226
Abdijalilova D., Sattorov Sh.S.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida budjet tashkilotlarida mehnat va unga haq to'lash hisobini tashkil etishda axborot texnologiyalarni o'rni.....	228
Xoliqova D.B.	Milliy moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning ayrim masalalari.....	230
Tolipova M.R.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Safarova N.G.	Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	235
Axmadjanova M.A.	Turizm sohasida bugalteriya hisobini shakllantirish va yuritishning ustuvor masalalari.....	238
Shamsitdinova X.M.	O'zbekistonda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tish: taraqqiyot va muammolar sharhi.....	242
Jamolova X.	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish zarurati va muamolari.....	244
Tuychieva O.N.	Korxonada ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda hisob-tahlil tizimini takomillashtirish.....	247
Maxkamboyev A.T.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari..	251

II SHO‘BA

YANGI O‘ZBEKISTONDA BIZNES-TAHLILNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Davlatova G.M., Yusupova O.D.	Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy rivojlanish omili sifatida.....	253
Temirqulov A.A., Zakirova S.O‘.	Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning soliq siyosati.....	255
Abdullayev A.M.	Impact of digital transformation on business analysis in Uzbekistan.....	257
Шарипова З.Б.	Ўзбекистонда корхоналарнинг молиявий аҳволини баҳолаш ва иқтисодий ночорлик белгиларини аниқлаш амалиёти.....	261
Хамдамов О.Н.	Акциядорлик жамиятларида LOGIT-моделли орқали банкротликни прогноз қилиш имкониятлари.....	264
Алишева П.К., Астанова С.У., Мамытова К.К.	Проблемы малого и среднего бизнеса в условиях ЕАЭС в Кыргызской Республики.....	266
Рахимов А.У., Исроилов Б.И.	Олий таълимда мутахассислик фанларни ўқитиш муаммолари.....	274
Самиева К.Т., Жусупов Б.Ж.	Совершенствование учета и анализа краткосрочных обязательств предприятия и пути их снижения на примере ооо “Байкол – Курулуш”.....	278
Тожибоева Ш.А.	Суғурта ташкилотларида молиявий натижалар аудитида тахлилий амаллардан фойдаланиш.....	284
Тожибоева Ш.А.	Иқтисодий салоҳият тахлилида айланма маблағлар ҳолатини баҳолаш.....	287
Usmonov B.	Kapital aktivlaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.....	290
Гафурова Д.Р.	Перспективы развития бизнес-анализа в вузовской деятельности.....	291
Махкамбойев К.А.	Biznes subyektlarining iqtisodiy salohiyat ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha qiyyosiy reytingini aniqlash.....	294
Shodiyev E.T., Rasulova N.Yu.	Mehmonxona tashkilotlarini strategik tahlili.....	296
Foziljonov I.S.	Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital byudejitini tuzish amaliyoti.....	298
Yakubova Yu.	The role of financial data disclosure of heritage tourism objects and its impact on destination branding research.....	301
Ашуров З.А.	Бенчмаркинг корхонани ривожлантиришда бизнес-таҳлилнинг замонавий ва илғор усули сифатида.....	303
Pyosov A.A.	Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida biznes-tahlilning ahamiyati.....	305
Tashbaev B.	Rentabellik ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari.....	307
Atabayeva Z.A., Ne‘matov.F.Y	Noaniqlik va xavf omillarini hisobga olgan holda investitsiya loyihalarining samaradorligini ta‘minlash masalalari.....	311
Tuganbekova N.	Prospects for the development of innovative small and medium-sized businesses in the Republic of Uzbekistan.....	314
Axunova M.X.	Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida biznesni rivojlantirish istiqbollari.....	316
Музаффарова К.З.	Қашқадарё вилояти иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этишининг тахлили.....	318
Досмуратова Ш.К.	Ҳовуз балиқчилигида бизнес-жараёнларни режалаштиришининг назарий масалалари.....	321
Khurramov J.R.	The primary aspects of financial management of non-state universities in Uzbekistan.....	327

Юсупова Ф.З.	Корхона ва ташкилотларда даромадлар тушунчасининг иқтисодий мазмуни.....	329
Миртурсунова Д.А.	Развитие бизнес-анализа в банковской сфере.....	332
Халмурзаева Н.Ф.	Интеграция бизнес-анализа в сферу образования: оптимизация и повышение эффективности услуги.....	334
Шокирова Г.М.	Исследование бренда и сбор информации в интернет-маркетинге.....	337
Alimqulov H.B.	Soliq xavfsizligi tizimining elementlari tahlili.....	339
Eshboyev Sh.A.	Tijorat banklarida kredit qo'yilmalarining tarkibi tahlili va ularni boshqarishdagi risklar.....	341
Rashidov U.R.	Logistika xarajatlarining mohiyati va ularni optimallashtirish usullari.....	343
Abdumurotov Sh.Sh.	Yangi O'zbekistonda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari..	348
Karimov E.G.	Power Bi in financial analysis.....	352
Ҳакимов Х.А.	Бюджет-солиқ ва пул-кредит сиёсатини мувофиқлаштиришда монетар қоидалардан фойдаланиш.....	354
Тошпулатов Ф.Б.	Ички аудит жараёнида таҳлил амалларидан фойдаланишнинг амалий жиҳатлари.....	360
Sultanova N.I.	Mikromoliyalash mexanizmini innovatsion rivojlantirishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	363
Каримова Н.С.	Пахта-тўқимачилик кластерларини ривожлантиришнинг устувор вазибалари.....	366
Сарманов О.А.	Божхона тўловлари таҳлилин ташкил этишнинг айрим масалалари..	368
Файзиев У.Ш.	Использование финансовых инструментов, как критерий улучшения финансового состояния предприятий.....	372
Файзиев У.Ш.	Содержание финансовой устойчивости и финансового состояния.....	378
Dadaboyev Sh.X.	Qurilish tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar tahlili.....	381
Эргашев С.С.	Саноат корхоналарининг ресурс салоҳиятини баҳолаш усулларини такомиллаштириш.....	383
Раҳмонова М.Д.	Перспективы развития управления проектами.....	388
Махкамов С.С., Пусов А.А.	Biznes tahlilni amalga oshirish va rivojlantirish istiqbollari.....	392
Muratov A.T.	The development of financial markets is an important factor of the country's economy.....	394
Boboqulova Sh.	Korxonada iqtisodiy barqarorlikni shakllantirish mezonlari.....	396
O'rinboyeva M.D., Nazarova L.T.	Biznes tahlili - korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil sifatida.....	399
Boboqulova Sh.I.	Raqamli texnologiyalar orqali tashkilotlarning moliyaviy munosabatlarini yaxshilash yo'llari.....	400
Sodiqov S.S.	Moliyaviy holat tahlili korxonalarining moliyaviy faoliyatini baholashda muhim vosita sifatida.....	404
Foziljonova M.F.	Korxonada pul oqimlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.....	407
Rasulov M.H.	An in-depth analysis of cost of capital and optimization of capital structure in way of traditional theory and ppp theory.....	410

III SHO'BA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Тулаходжаева М.М.	Становление, развитие и перспективы совершенствования аудиторской деятельности в Узбекистане.....	413
Ҳажимуратов Н.Ш.	Молиявий ҳисобот аудитида қўлланилувчи усул ва амаллар тавсифи.....	417

Ахмеджанов К.Б.	Аудиторлик текширувларини ўтказишда хорижий давлатлар тажрибаси.....	424
Менгликулов Б.Ю.	Чорвачиликда биологик активлар аудитини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг айрим жиҳатлари.....	428
Исраилов М.И., Ерназарова З.А.	Стратегический аудит в государственном секторе.....	433
Xodjayeva M.X.	Iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida O‘zbekistonda auditorlik tekshiruvlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari.....	436
Maxmudov A.N., Sodiqov S.S.	Korxonalar moliyaviy holati auditini takomillashtirish.....	439
To‘raev A.N., Parmanova Z.A.	Korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarining moliyaviy natijalar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	442
Abduvaxidov F.T.	Auditorlik tekshiruvda dalillar to‘plash.....	445
Xodjayeva M.X., Makhmudova R.	Development trends of auditing activities in Uzbekistan.....	449
Тўраев А.Н., Холпўлотов Р.Ў.	Молиявий мажбуриятлар аудитини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш.....	453
Norbekov D.E.	Accounting for extra-budgetary funds in general secondary education.....	455
Temirov M.X.	Tashkilotlarda ichki audit tizimini joriy etishning istiqbollari.....	458
Shanasirova N.A.	Improving financial control in corporations in the context of digitalization.	461
Abduvaxidov F.T.	Auditorlik tekshiruvda muhimlik darajasini aniqlashning ahamiyati.....	463
Shanasirova N.A., Shakhobitdinov F.B.	The affect of artificial intelligence on external auditors in accounting firms.....	467
Ermatov A.A.	Korporativ boshqaruv korxonalarida ichki auditni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish.....	470
Абдуллаев Х.Н.	Курилиш соҳасида аудит тизимини такомиллаштириш масалалари...	472
Бахадиров А.К.	Использование существенности при планировании аудита согласно междурядным стандартам аудита в Республики Узбекистан.....	474
Nazarov A.O.	Bojxona auditini takomillashtirish istiqbollari.....	476
Tulovov E.T.	Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditning tashkiliy jihatlari.....	478
Атамуродов С.Я.	Аудит денежных потоков: рентабельность, изучение и эффективность.....	481
Lutfullayev Sh.Q.	Bojxona auditini – bojxona ma’muriyatchiligini rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida.....	486
Aliyev Sh.A.	Innovatsion iqtisodiyot sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida asosiy vositalar auditini o‘tkazish yo‘nalishlari.....	490
Mamtaliyev N.M.	Ichki audit – korxonalarining foydasini maksimallashtirish omili sifatida....	493
Rajaboev Sh.Sh.	Main objectives of audit activity.....	495
Mexmonaliyev U.E., Sobirov I.B.	Zamonaviy sharoitlarda korxonaning ichki nazorat tizimini takomillashtirish usullari.....	496
Jo‘rayev D.X.	Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki auditini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirish.....	498
Мустафоев А.М., Имонов А.А.	Ўзбекистон иқтисодий тараққиётида инновацион фаолиятда аудиторлик текширувининг аҳамияти.....	501
Misirov X.M.	Xizmat ko‘rsatish sohaslarida ichki audit o‘tkazishini takmonlashtirish.....	505
Xasanova N.T.	Innovatsion rivojlanish sharoitida audit tizimida muhimlik tushunchasi va uning iqtisodiy mazmun-mohiyati.....	510
Музрапова Ш.С., Рахматов О.М.	Инвестицион мулк ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш.....	513

Bekniyazova E.Y.	Debitorlik qarzlarning auditini takomillashtirish.....	517
Karimova N.	Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlar auditini takomillashtirish.....	520
Туйинов Б.И.	Олий таълим муассасаларида ички аудитни такомиллаштириш.....	522
Abdishukurova Z.B.	The role of environmental audit and its development in the Republic of Uzbekistan.....	524

IV SHO‘BA
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA OLIY AUDIT ORGANLARINING XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISH YO‘NALISHLARI

Исраилов М.И., Ерназарова З.А.	Стратегический аудит в государственном секторе.....	527
Илхамов Ш.И.	Ички молиявий назорат тизимининг муаммолари.....	530
G‘aniyev Sh., Вахронov J.	Davlat sektorida ichki auditning xorij tajribasi.....	534
Xamidova Z., Ismoilova M.	O‘zbekiston Respublikasi byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatining tashkil etilishi.....	536
Rahmonov N.M., Xamidova M.A.	O‘zbekiston Respublikasi hududida auditning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish tadbirlari.....	539
Yuldashev B.T.	Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar sarflanishi hisobi va amaliyotini takomillashtirish.....	541
Абдужалилова Д.А.	Применение информационных технологий в совершенствовании расходов и их учет в финансовой самостоятельной государственной высшей образовательной учреждениях.....	545
Досмуратова Ш.К.	Ховуз баликчилигида бизнес-жараёнларни режалаштиришнинг назарий масалалари.....	548
Rahimjonov K.I.	O‘zbekiston Respublikasida davlat haridlari tizimidagi muammolar, qonunbuzilishlar va amaldagi holatining tahlili.....	554
Амонова М.А.	Агроиктисодиётда мойли экинлар дони ишлаб чиқариш соҳасининг ўрни ва аҳамияти.....	556
Mustafayev S.A.	Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va uni qishloq xo‘jaligiga faol jalb qilish yo‘llari.....	560
Жалолитдинов М.	Вазирлик ва идораларда ички аудит хизматларини ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари.....	564
Содиқова Д.	Товар-моддий захиралар аудитини халқаро стандартлар асосида ташкил этиш йўналишлари.....	567
Вахавутдинова U.N.	O‘zbekiston Respublikasi g‘aznachiligi va davlat moliyaviy nazoratini o‘rnatish.....	569
Narbekova G.D.	Xalq ta‘lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘larning dolzarbligi va zarurati.....	571
Albekov O.A.	Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish istiqbollari.....	573
Ergasheva M.B.	Scientific and theoretical approaches to the concept of innovation.....	577

I SHO‘BA

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

BIZNESNI TUGATISHNING NORMATIV-HUQUQIY TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

R.D.Dusmurotov

*TDIU, Moliyaviy tahlil va audit kafedrasi professori, i.f.d.,
«O‘zbekiston Oliy ta’limi a’lochisi»,*

I.R.Davletov

TDIU, Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Hozirgi vaqtga kelib inqirozga qarshi boshqaruvning kuzatuv tartib-taomili, moratoriy, sud boshqaruvi, sud sanatsiyasi, sudgacha sanatsiya, tashqi boshqaruv, tugatish ishlari yoki bankrot-korxonalarni tugatish kabi turlari keng qo‘llanilmoqda. Korxonalarining to‘lovga qobiliyatsizligi va u bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 12 aprelda qabul qilingan O‘RQ-763-son «To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida»gi qonuni (keyingi o‘rinlarda –763-son O‘RQ) bilan tartibga solinadi.

Xususan, mazkur qonunning 3-moddasiga muvofiq: «to‘lovga qobiliyatsizlik - sud tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi» [1]. Ushbu moddada «bankrot — sudning qaroriga asosan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan va o‘ziga nisbatan tugatishga doir ish yuritish yoki mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llaniladigan qarzdor» [1] deb ta’riflangan. Shuningdek, «Tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili — kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirish, qarzdorning majburiyatlardan ozod etilganligini hamda tugatilganligini e’lon qilish maqsadida sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan tartib-taomil, bundan jismoniy shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi ishlar mustasno» [1].

Korxonada yoxud uning ta’sischilari (ishtirokchilari) qaroriga asosan, yoxud sud qarori bo‘yicha, yoxud uni ro‘yxatga olgan organning qaroriga muvofiq tugatilishi mumkin. Xususan, yuridik shaxslarni tugatish holatlari O‘zR FKning 53-moddasida belgilangan [2].

Shuningdek, O‘zR FKning 57-moddasiga muvofiq: «Yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi» [2].

Demak, tugatish – bu korxonaning huquq va majburiyatlarini boshqa sub’ekt(lar)ga o‘tkazmasdan, faoliyatini butunlay to‘xtatish.

O‘zbekiston Respublikasining 13 aprel 2016 y. O‘RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining (keyingi o‘rinlarda – 404-son O‘RQ) 27-moddasiga muvofiq:

«Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni tugatish chog‘ida yakuniy moliyaviy hisobot tuziladi.

Tugatish bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish, tugatish balansini va hisobotni tuzish, aktivlar qiymatini aniqlash yuzasidan javobgarlik tugatish komissiyasining (tugatuvchining) zimmasiga yuklatiladi.

Umidsiz qarzarlar va zararlar tugatish balansiga kiritilmaydi.

Tugatish balansida majburiyatlar uni tuzish sanasida hisoblangan foizlari bilan aks ettiriladi»[3].

Sharhlangan manbalarga tayanib, tugatish balansini (keyingi o‘rinlarda-TB) tuziladigan vaziyatlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- korxonaning fuqarolik huquqiy munosabatlar subyekti sifatida faoliyatini to‘xtatish (oddiy shirkat shartnomasining yakunlanishi);

- yuridik shaxsning uning ta‘sischilari (ishtirokchilari) yoki ta‘sis hujjatlariga muvofiq vakolat berilgan organ, yoki sud qarori bilan tugatilishi.

- yuridik shaxs ixtiyoriy yoki iqtisodiy nochorligi tufayli majburiy (bankrotlik, davlat organlarining qaroriga ko‘ra majburiy tugatish, boshqa holatlar bo‘yicha) tugatilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlardan har birida tuziladigan balans(lar), davriy balansga nisbatan quyidagi xususiyatlarga ega:

TB ham, har qanday yakuniy balans kabi, inventar balans hisoblanadi, ya‘ni inventarizatsiya ma‘lumotlariga asosan tuziladi. Chunki yuridik shaxsni tugatish chog‘ida inventarizatsiya o‘tkazish majburiyligi bevosita 763-son O‘RQning 147-moddasida ko‘rsatilgan: «Tugatishga doir ish yuritish jarayonida tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini inventarizatsiya qiladi va uning qiymatini belgilaydi»[1];

TBda kontrar (kontr-aktiv, kontr-passiv) schetlarning (0200, 0500, 2980, 4900, 8600, 9040, 9050), taqsimlovchi schetlarning (2500, 3100, 8900 va sh.k.) va boshqa tartibga soluvchi schetlarning qoldiqlarini aks ettirilmaslik maqsadga muvofiq. Bu korxonaning faoliyati uzluksizligi printsiplining amal qilmasligi, ya‘ni uning ma‘lum davrdan keyin tugatilishi bilan bog‘liq;

TBni aktivi 404-son O‘RQning 17-moddasida belgilanganidan farq qiladigan (boshqacha) usullar bilan baholanadi. Chunki tugatish jarayonida moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar - korxonaning ta‘sischilari, hamkorlari, kreditorlari va boshqalar uchun faoliyatning to‘xtatilishi oqibatida, haqiqatga eng yaqin moliyaviy holat ko‘rsatilishi lozim;

Qoidaga ko‘ra, TBda aktiv va passiv moddalari boshqacha tarzda guruhlanadi. Ya‘ni, bu guruhlash mol-mulklarning haqiqiy likvidlik darajasiga va kreditorlarning talablarini qondirish bo‘yicha qonun yoki boshqa normativ hujjatlarda (korxonaning ustavi, ta‘sis shartnomasi va h.) belgilangan tartibga mos kelishi lozim.

Ta‘kidlash joizki, korxonaning tugatish ishi debitorlik qarzlarini undirish, mol-mulklarni inventarizatsiya qilish, qayta baholash, taqsimlash va kreditorlik qarzlarini so‘ndirish hamda boshqalar bilan bog‘liq uzoq davom etadigan jarayondir. Shuningdek, bu jarayonda, ya‘ni tugatish balansini tuzish chog‘ida, O‘RQ-404-son qonunining 3-moddasida belgilangan, korxonaning faoliyatining **uzluksizligi printsiplini** qo‘llanilmaydi. Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda ushbu printsiplni amalda qo‘llashning imkonsizligi oqibatida buxgalteriya **hisobi va hisoboti**

metodologiyasida ham o'zgarishlar kelib chiqadi. Masalan, tugatilayotgan korxonaning mol-mulklarini baholashda imkon qadar haqiqiy bozor qiymatini aniqlash vazifasi qo'yiladi. Bu vazifani hal etish esa, kreditorlar va korxonalar mulkdorlari oldidagi majburiyatlarni so'ndirish imkoniyati to'g'risidagi axborotlarning shakllantirilishini ta'minlaydi.

TBlarining natijalari dastlabki (DTB), oraliq (OTB) va yakuniy tugatish balansi (YaTB)da aks ettirib borilishi zarur.

DTB, OTB va YaTBlari yuridik shaxsning ta'sischi (ishtirokchilari) yoki yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror chiqargan organ (tugatuvchi) tomonidan tasdiqlanishi lozim. TBlarining ushbu turlarini tuzish uchun normativ hujjatlarda maxsus shakllar ko'zda tutilmagan. Shu boisdan, fikrimizcha, «DTB», «OTB», «YaTB» maxsus shakllarini va tuzish qoidalarini ishlab chiqish hamda normativ hujjat (yoki tavsiyanoma) sifatida tasdiqlash zarur. Bunday normativ hujjat (yoki tavsiyanoma) tugatish bilan bog'liq munosabatalarning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirib, sifati hamda samaradorligini oshiradi.

TBlarining shakllarini esa, O'zR MVning 07.02.2002 y. «Moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 31-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Buxgalteriya balansi (1-shakl) asosida ishlab chiqilishini tavsiya etamiz. Shu bilan birga, TBlarini tuzish qoidalarini ham ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Yuridik shaxslarni ro'yxatga oladigan yagona davlat reestri (YuShYaDR)ga korxonani tugatish to'g'risida yozuv kiritilgan yilning 1 yanvaridan, bunday yozuv amalga oshirilgan sanagacha bo'lgan davr tugatilayotgan yuridik shaxs uchun so'nggi hisobot yili bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tugatilayotgan korxonaga nisbatan **uzluksizligi printsipli** amal qilmaganligi bois, uning mol-mulklarini baholashda alohida (maxsus) qo'llaniladi. Xususan, OTBda mol-mulklar joriy hisobdagi yoki tiklash bahosida emas, balki uni tuzish paytidagi har bir aktivning sotish mumkin bo'lgan bahosi bo'yicha aks ettiriladi.

Shunday qilib, yuridik shaxslarni tugatishning normativ-huquqiy ta'minotini hamda amaliyotni tadqiq qilish natijalari shuni ko'rsatdiki:

DTB; OTB va YaTBning namunaviy shakllarini hamda ularni to'ldirish qoidalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

OTBni quyidagicha ta'riflashni taklif qilamiz:

Oraliq tugatish balansi korxonaning tugatilish chog'idagi mulkiy va moliyaviy ahvolini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimidan iborat bo'lib, real tugatish massasini, kreditorlar tomonidan talab qilingan va qilinmayotgan qarzlarning hamda xususiy kapital qiymatini aks ettiradi.

OTBning tugatish massasi va passivini shakllantirish algoritmini taklif qilamiz. (Eslatma: *OTBlari necha marotaba tuzilishi mumkin. Bu tugatish davrining davomiyligi, mulkdor va kreditorlarning axborotlarga bo'lgan ehtiyoji hamda boshqa sabablarga bog'liq*):

- hisobot davri uchun tuzilgan buxgalteriya balansi asosida, hisobot davridan keyingi operatsiyalarni ham hisobga olgan holda DTBni tuzish;
- OTBning tashkiliy-uslubiy ta'minoti va tugatish massasini shakllantirish

hamda unga kreditorlar talablarini aniqlash;

– OTBning passivini shakllantirish va tugatish massasi hisobidan kreditorlarning talablarini qondirish;

– YaTBni tuzish, korxonani YuShYaDRdan chiqarish va hujjatlarni arxivga topshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

*O'zbekiston Respublikasining qonuni «To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida»,
<https://lex.uz/docs/5957612>*

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/docs/111189>

*O'zbekiston Respublikasining qonuni «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»,
<https://lex.uz/docs/2931253>*

O'zR MV 07.02.2002 y. 31-buyrug'i «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida», <https://lex.uz/docs/821320>

YENGIL SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

A.N.Maxmudov,

Toshkent davlat iqtisodiyot univertseti

“Moliyaviy taxlil va audit” kafedrasida

dotsenti, i.f.d.

Hozirgi vaqtda tannarxning vazifasi faqat mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash emas, balki bozor sharoitida tashkilotga ma'lum foyda keltirishi mumkin bo'lgan shunday tannarxni aniqlashdir. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiy sharoitda mahsulot va xizmatlar tannarxini hisoblash nafaqat joriy vazifalarga, balki ko'proq darajada korxonaning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi strategiyasini amalga oshirishga qaratilishi kerak.

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini yengil sanoat sohasining o'ziga xos xususiyatlariga qarab hisoblash usullarini tahlil qilishda ushbu sohadagi korxonalar buyurtma usulidan foydalanishlari aniqlandi, buning kamchiliklari operatsion tizimning yetishmasligi hisoblanadi. Bunda xarajatlarning shakllanishini nazorat qilish, xarajatlarni hisoblashda mavjud atrof-muhit sharoitlarini, bozor o'rnini va raqobatdosh ustunliklarni hisobga olishga imkon bermaydi.

Mahsulotlarni yaratish va xizmatlar ko'rsatish jarayonini nazorat qilish, raqobatchilarning harakatlariga o'z vaqtida javob berish, iste'molchilarning xohish-istaklarini hisobga olish va korxonani boshqarishning strategik vazifalarini hal qilish imkonini beradigan tizimning yo'qligi bunga misol bo'ladi. Ushbu maqolada target-kosting va kayzen-kosting tamoyillari asosida ishlab chiqilgan goal-kosting metodologiyasidan foydalangan holda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida mahsulotlar tannarxini hisobga olish va elementlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirish taklif etilgan. Mavjud usullardan farqli o'laroq, goal-kosting sohada jadal rivojlanayotgan sanoat integratsiyalashuviga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Goal-

kosting metodologiyasidan foydalangan holda tarmoqda mahsulot tannarxini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich. *O'rganilayotgan* mahsulot va xizmatlarning bozordagi raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida mahsulot va xizmatlarning marketing tahlilini o'tkazish.

2-bosqich. Mahsulotlar, xizmatlar konsepsiyasini ishlab chiqish, shu jumladan, ushbu konsepsiyani maqsadli iste'molchilar guruhida sinab ko'rish va bozorga kirish uchun marketing strategiyasini aniqlash.

3-bosqich. 1-bosqichda va 2-bosqichda olingan ma'lumotlar asosida mumkin bo'lgan (maqsadli) sotish narxini aniqlash.

Maqsadli narxni hisoblash uchun asos ichki va tashqi narx omillari hisoblanadi. Birinchi guruh omillarga ishlab chiqilayotgan mahsulot yoki xizmatning sifati, tabiati va xususiyatlari kiradi. Narxlarni shakllantirishning tashqi omillari orasida sohadagi mahsulot va xizmatlarga umumiy xarid talabi, ushbu sohadagi raqobatdosh mahsulot va xizmatlar sifati, boshqa ishtirokchilar tomonidan e'lon qilingan raqobatdosh mahsulot va xizmatlar narxlari mavjudligi kiradi.

4-bosqich. Maqsadli foydani o'rnatish, ya'ni, korxonaga egalarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo'lgan foyda miqdori.

5-bosqich. (1) formula bo'yicha mahsulot, xizmatlarning maqsadli tannarxini aniqlash:

$$\mathbf{Maqsadli\ xarajat = Maqsadli\ narx - Maqsadli\ foyda\ (1)}$$

6-bosqich. Rejalashtirish bosqichida standart (smeta) xarajatlarni aniqlash, uning davomida mahsulot va xizmatlarni loyihalash amalga oshiriladi.

7-bosqich. Xarajatlar smetasini tuzish va standart tannarxning maqsaddan chetlanishlarini aniqlash.

8-bosqich. Hisoblangan xarajatlarning barcha moddalarini ularni maqsadli tannarxga "olib kelish" uchun tahlil qilish. Kayzen muammolarini bayon qilish va yechish.

Rejalashtirish bosqichida qilingan barcha sa'y-harakatlarga qaramay, taxminiy xarajat mahsulot va xizmatlarni yaratish bosqichida maqsadli tannarxdan oshib keta boshlaydi. Bunday vaziyatda har bir xarajat moddasining mahsulot tannarxiga ta'sirini aniqlash va kayzen vazifalarini belgilash uchun smeta xarajatlarini tahlil qilish amalga oshiriladi, mahsulotlarni yaratish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida alohida xarajat moddalari va umuman asosiy xarajatlarni maqsadli kamaytirish kerak bo'ladi.

Buning uchun har bir buyurtma doirasida har bir xarajat moddasiga nisbatan smeta (normativ) tannarx, maqsadli tannarx va kayzen topshirig'ining o'lchami ko'rsatkichlarini ko'rsatadigan kayzen topshiriqlari kartalari ochiladi.

Karta kayzen muammosini hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tavsiflaydi, mahsulotni yaratish va xizmatlarni ko'rsatish natijasida yuzaga keladigan haqiqiy xarajatlarni aks ettiradi, haqiqiy tannarxning maqsadli ko'rsatkichdan chetga chiqish ko'rsatkichini taqdim etadi.

Mavjud usullardan farqli o'laroq, ushbu standartga muvofiq axborot texnologiyalari daromadlarini hisobga olish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: ma'lum bir vaqtning o'zida tan olish va ma'lum vaqt oralig'ida tan olish (1-jadval).

To‘qimachilik va tikuv -trikotaj sohasida mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan olingan daromadlarni tan olish tartibi

<i>faoliyat sohalari</i>	<i>Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)</i>	<i>Daromadni tan olish tartibi</i>
Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va sinovdan o‘tkazish.	Trikotaj kiyim–kechaklarini ishlab chiqarish va sotish.	Bir vaqtning o‘zida (vaqtning ma’lum bir nuqtasida), aktivni nazorat qilish xaridorga o‘tkazilganda Muayyan vaqt davomida (agar xaridor bilan tuzilgan shartnomada yaratilayotgan mahsulot ta’minoti qisman mustaqil komponentlar tomonidan uzatilganligi ko‘rsatilgan bo‘lsa)
	Yangi turdagi mahsulot texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish xizmatlari	Shartnoma muddati uchun
To‘qimachilik va tikuv-trikotaj texnologiyalari sohasida yangi mahsulotlarni joriy etish.	Tarmoq xodimlarini malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xizmatlari.	Shartnoma muddati uchun
Tarmoqdagi ishlab chiqarish tizimini modernizatsiyalashda investitsiyalarni jalb qilish.	Zamonaviy trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish va jaxon bozorlarida o‘rin egallash, Internet marketing tizimlaridan foydalanish xizmatlari.	Shartnoma muddati uchun
To‘qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlarini eksport va import qilish. Tizimga innovatsion texnologiyalarni joriy etish.	Yangi mahsulot va reklama xizmatlari .	Bir vaqtning o‘zida (vaqtning ma’lum bir nuqtasida), aktiv (xizmat) ustidan nazorat xaridorga o‘tkazilganda
	Tarmoq tizimida internet marketing xizmatlarini joriy etish. Trikotaj mahsulotlari bozorini kengaytirish va o‘rnini belgilash choralari ko‘rish.	Bir vaqtning o‘zida (vaqtning ma’lum bir nuqtasida) aktivni nazorat qilish xaridorga o‘tkazilganda Vaqt o‘tishi bilan (agar xaridor bilan tuzilgan shartnomada yaratilgan ma’lumotlar bazalari qisman mustaqil komponentlar tomonidan uzatilganligi ko‘rsatilgan bo‘lsa)

9-bosqich. Mahsulotlar, xizmatlarning haqiqiy tannarxini hisoblash.

Agar mahsulot va xizmatlarning haqiqiy tannarxini hisoblashda tengsizlik (2) to‘g‘ri bo‘lsa, u holda kayzen muammosi hal etilmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Agar mahsulot va xizmatlarning haqiqiy tannarxini hisoblashda tengsizlik (3) to'g'ri bo'lsa, u holda kayzen muammosi hal qilingan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

10-bosqich. Haqiqiy va maqsadli daromadlar, haqiqiy va maqsadli tannarx va ularning chetlanishlarini hisobga olishda aks ettirish.

Target-kosting, kayzen-kosting va buyurtma usuli tamoyillariga asoslangan goal-kosting metodologiyasi butunlay korxonaga yoki uning alohida bo'linmalari faoliyatini tashqi tomondan katta investitsiyalarni jalb qilmasdan, ichki zaxiralardan foydalangan holda yaxshilashga qaratilgan.

Maqsadli xarajatlarning afzalligi - xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash va joriy faoliyatni amalga oshirishda ham, kelajak rejalarini qurishda ham xarajatlarni boshqarish qobiliyatiga asoslanadi.

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda shuni qayd etish lozimki, trikotaj va tikuv sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish, xarajatlarni tizimli tartibda taqsimlash va tasniflash jarayonlarini buxgalteriya hisobi, tahlili va auditining xalqaro standartlari asosida hisob yuritishni ta'minlashi lozim. Ammo, mahsulot tayyorlash jarayonida bevosita qatnashmaydigan ayrim xarajatlar borki, ular hisobini yuritish bo'yicha masalalar o'z yechimini to'liq topmagan.

Bizning ta'kidlashimizcha to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasida mahsulot va xizmatlar tannarxini hisobga olish va tannarxini hisoblashning nazariy va uslubiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha bayon etilgan xulosa va takliflar hamda ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar ma'lum darajada axborotni shakllantirish muammolarini hal qiladi hamda boshqaruv hisobotini asoslash va sifatini oshirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Yengil sanoat mahsulotlari bozorida qattiq raqobat mavjud bo'lgan korxonalarining muvaffaqiyatli ishlashiga yordam beradi, shuningdek, korxonaga faoliyatini operativ va strategik boshqarishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 13 aprel. www.lex.uz

O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 yildagi O'RQ-677-son "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

Fetisova O.A. Axborot texnologiyalari sohasida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga olish va tannarxini hisoblashning tarmoqqa xos xususiyatlari / M.A. Gorodilov, O.A. Fetisov // A.S. nomidagi Leningrad davlat universitetining axborotnomasi. Pushkin. Iqtisodiyot seriyasi. 2015. V. 6. 1-son. 65–75-betlar. (0,6 p.l. / 0,3 p.l.).

B.A.Xasanov, K.T.Nurmanov, R.B.Xasanova. "Zamonaviy boshqaruv hisobi." LESSON-PRESS", 2021.412 b.

B.A.Xasanov va boshqalar. Amaliy boshqaruv hisobi. "Iqtisodiyot". 2020. 274b

Maxmudov A.N. Xarajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent. LESSON-PRESS", 2022. 196 b.

МИЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИМИЗГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

М.И.Алмардонов

ORIENTAL университети профессори и.ф.д.

Миллий иқтисодиётимизни трансформациялаш жараёнида мамлакатнинг иқтисодий тармоқларига инвестицияларни фаол жалб этиш республикаизнинг ривожланишида муҳим аҳамият касб этиб келмоқда. Шу боис мамлакат иқтисодиётини, инвестиция фаолиятини янада юксалтириш борасида жаҳон тажрибасида муваффақиятли ўрин эгаллаган эркин иқтисодий зона (ЭИЗ)лар фаолиятини такомиллаштириш бугунги кунда иқтисодий ривожланиш, инвестицияларни жалб қилишнинг муҳим йўналишларидан бирига айланиб бормоқда.

Мамлакатимизда эркин иқтисодий ҳудудларни ташкил этиш ва ривожлантиришдан асосий мақсад нафақат янги иш ўринларини яратиш балки ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланганлик даражасини ошириш бўйича муаммоларни ҳал қилишни ўз ичига олади, миллий иқтисодиётни халқаро бозорга интеграциялашган ҳолда замонавий юқори технологияли, импорт ўрнини босувчи ва ташқи бозорларда рақобатбардош маҳсулотларни малакали мутахассислар томонидан замонавий технологияларда ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш ва қувватларни ошириш ҳисобланади. Хусусан, давлатимиз раҳбари Ш. Мирзиёев «Тадбиркорлар жуда катта умид билан эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарида қийин масала бўлган инфратузилмани ҳал бўлишини кутиб ўтирибди. Шунинг учун Ўзбекистон тарихида биринчи марта зоналарга 1,6 трлн. пул ажратилди. Бу – йўл инфратузилмаси, электр энергия, газ ва сув таъминоти, умуман, нимаки лозим бўлса ўша масалаларни жой-жойига қўйиш бўйича чоратадбирларни кўриш керак. Албатта, жойлардаги иқтисодий зоналарда инфратузилмалар йўқлиги табиий. Алоҳида ишчи гуруҳ тузиб, ҳар бир иқтисодий зона бўйича йўл харитасини тузиш керак. Шошилмасдан, бир ой кечиксак ҳам барча соҳада сифат, сифат, яна бир бор сифатга эътибор қаратиш керак... 206 та туман ва шаҳарларимиз бўйича импорт ҳажми қанча ва локализация масаласи нима қилишимиз керак деган саволга жавоб йўқ¹», - дея таъкидлаб ўтдилар.

Ж.Умирзоқовнинг фикрича, “махсус иқтисодий зона мамлакат ёки муайян минтақа ҳудудида ва унга нисбатан анклав тарзда жойлашган алоҳида ажратилган ҳудуд бўлиб, иқтисодиётга инвестицияларни жалб этиш, тадбиркорлик лойиҳаларини қўллаб-қувватлашга қаратилган молиявий- иқтисодий ва маъмурий имтиёзлар қўлланиладиган махсус тартиботли ҳудуд²” ҳисобланади. Бундан ташқари С.Бозаровнинг тадқиқотларида “эркин иқтисодий зона – давлатнинг

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/4308> 2021 йил 27 апрель Президент Шавкат Мирзиёев эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарида амалга оширилаётган инвестиция лойиҳалари муҳокамаси юзасидан ўтказилган йиғилишдаги маърузаси

² Умирзоқов Ж.А. Махсус иқтисодий зоналарда инвестицион фаолликни ошириш истикболлари. И.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Т., 2022. – 55-б

иқтисодий ва жўғрофий жиҳатдан қулай ҳудудда ташкил этиладиган, мамлакат иқтисодиётини комплекс тарзда ривожлантирадиган ва унинг жаҳон иқтисодиётига интеграциялашувини таъминлайдиган, алоҳида имтиёзлар мажмуини ўз ичига олган режимга эга бўлган ҳамда чет эл элементи билан мураккаблашган турли ҳуқуқий муносабатлар амалга ошириладиган махсус ажратилган ҳудуд³” сифатида таърифланган. Хорижий ва республикамиз иқтисодчи олимлари томонидан билдирилган фикрларда, асосан, эркин иқтисодий зоналарнинг географик жиҳатдан жойлашувининг алоҳида эканлигига кўпроқ эътибор қаратилган. Аммо ушбу ҳудудларнинг инвестиция муҳитини ривожлантиришдаги аҳамияти эътибордан четда қолган. Шу сабабли айтиш мумкинки, “эркин иқтисодий зона мамлакат ҳудудда тадбиркорлик салоҳиятини ривожлантириш, иқтисодиётни либераллаштириш, инвестициялар оқимини фаоллаштириш ва қулай инвестиция муҳитини яратиш мақсадида имтиёзли режимлар амал қилувчи махсус ажратилган ҳудуддир”.

Юқорида келтирилган алгоритмга мувофиқ белгиланган мезонларга жавоб бермайдиган мажбуриятлар молиявий ҳисоботларда тан олинмайди.

Бухгалтерия ҳисобида терминологиянинг яхлитлигини таъминлаш, шунингдек, баҳоланган мажбуриятларнинг асосий функциясини амалга ошириш ва молиявий ҳисоботларнинг мазмунини тўлиқроқ ёритиб бериш учун биз куйидагиларни амалга ошириш зарур деб ҳисоблаймиз:

1) норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда «келгуси давр харажатлари учун резервлар»ни «баҳоланган мажбуриятлар» деб ўзгартириш;

2) молиявий ҳисоботдаги баҳоланган мажбуриятлар суммаларини тегишли аниқ мажбуриятлар билан боғлаш.

Аммо, молиявий ҳисобот шакллари ва бухгалтерия ҳисобини юритиш бўйича ҳисоб сиёсатини ишлаб чиқувчи бухгалтерлар амалда назарий зарурат ва амалий эҳтиёжлар ўртасида оқилона муросани топишга интилиб, мажбуриятларнинг бир эмас, балки бир нечта гуруҳларидан фойдаланишга ҳаракат қилишади. Улар кўпинча субординатор таснифлардан фойдаланган ҳолда бухгалтерия ҳисоби ишларини ташкил этишади. Мазкур таснифлар бухгалтерия ҳисобининг ишчи счётлар режасида ўз аксини топади.



1-расм. Бухгалтерия ҳисобида молиявий мажбуриятларни тан олиш алгоритми¹⁴


¹⁴ муаллиф ишланмаси

Бухгалтерия балансининг ҳозирги амалдаги шаклида мажбуриятлар куйидаги гуруҳлар билан ифодаланади:

- Қисқа ва узоқ муддатли қарз мажбуриятлари;
- Кредиторлик қарзлари;
- Алоҳида бўлинмаларга ажратмалар;
- Фоиз тўлашни талаб қилувчи мажбуриятлар;
- Кечиктирилган мажбуриятлар;
- Кечиктирилган даромадлар;
- Бошқа мажбуриятлар.

Юқоридаги мажбуриятлар хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳисоботларида мажбуриятларни ёритиб беришнинг асосий кўрсаткичлари ҳисобланади.

Молиявий мажбуриятларнинг амортизацияланган қийматини ҳисоблаш алгоритми 2-расмда келтирилган.



2-расм.Молиявий мажбуриятларнинг амортизацияланган қийматини ҳисоблаш алгоритми¹⁵

Фикримизча, молиявий мажбуриятларни бухгалтерия ҳисобида таснифлаш ҳамда баҳолаш орқали молиявий ҳисоботларда мажбуриятлар суммаларининг ишончли ҳамда ҳаққоний акс эттирилишига эришилади. Шунингдек, ҳисобот даврида даромад ва харажатларнинг мувофиқлиги принципига тўлиқ риоя этилиши таъминланади. Бугунги кунда бухгалтерия ҳисобида молиявий

¹⁵ муаллиф ишланмаси

мажбуриятларни баҳолаш масаласи ҳам энг долзарб муаммолардан биридир. Ушбу мунозарали муаммонинг ечими сифатида ҳар бир молиявий инструментнинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тарихий, ҳаққоний ва амортизацияланган қийматдан фойдаланган ҳолда молиявий мажбуриятлар қийматини баҳолаш мумкин бўлади.

Таъкидлаш жоизки, молиявий ҳисоботда молиявий мажбуриятларни амортизация қилинган қийматда акс эттириш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Молиявий мажбуриятларни баҳолашда амортизацияланган қийматни ҳисоблаш кетма-кетлиги асосида бухгалтерия ҳисобини тўғри юритиш ҳамда молиявий мажбуриятларни молиявий ҳисоботларда ишончли ва ҳаққоний акс эттириш имконияти яратилади. Молиявий мажбуриятларни бухгалтерия ҳисобида тан олиш алгоритмини амалиётда қўллаш хўжалик юритувчи субъектларнинг бухгалтерия ҳисобини юритишда бир қатор энгилликларни келтириб чиқаради. Жумладан, аксарият мажбуриятларни молиявий ҳисоботларда акс эттириш зарурлиги ёки акс эттириш заруриятининг мавжуд эмаслигига аниқлик киритишда мазкур алгоритм амалий кўрсатма бўлиб хизмат қилади. Бухгалтерия ҳисобида тан олинган мажбуриятлар миқдорини ёки қийматини баҳолаш жараёнлари муайян қийинчиликлар ҳамда номувофиқликларни келтириб чиқараётганлигини инобатга олган ҳолда ҳисоб ҳужжатларида ва молиявий ҳисоботларда молиявий мажбуриятларни амортизацияланган қиймат орқали ҳисоблаш алгоритмини амалиётда қўллаш натижасида бухгалтерия хизмати ходимларининг бажарадиган ишлари ҳажмининг камайишига эришилади. Мазкур алгоритм молиявий мажбуриятларнинг бухгалтерия ҳисобида тўғри ва ҳаққоний қийматда юритилишига замин яратади.

МАЖБУРИЯТЛАРНИ ТАСНИФЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ф.Ш.Очилов

Тошкент молия институти доценти, PhD


Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲҲС) кенг тарқалган молиявий ҳисобот тизимидир. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви кўпгина мамлакатларда МҲҲСларни қўллаш ва мазкур стандартларни доимий равишда такомиллаштириш заруратини келтириб чиқармоқда. Ўзбекистон Республикасида бухгалтерия ҳисобини ислоҳ қилиш бўйича уни МҲҲС талабларига яқинлаштиришга қаратилган кўплаб чора-тадбирлар амалга оширилмоқда, хўжалик юритувчи субъектларнинг консолидацияланган ҳисоботлари МҲҲС талаблари доирасида тузилмоқда, бир қатор халқаро стандартлар мамлакатимиз амалиётида бевосита қўлланилмоқда.

Молиявий мажбуриятлар ҳисобини такомиллаштириш зарурияти хўжалик юритувчи субъектлар томонидан ўз фаолиятида фойдаланиладиган молиявий инструментларни тан олиш, баҳолаш ва уларга доир ахборотларни молиявий ҳисоботларда акс эттиришнинг мураккаблиги билан бевосита боғлиқдир. Ҳозирги

вақтда молиявий мажбуриятлар хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини молиялаштириш манбалари таркибида катта улушни эгаллайди. Шу сабабли, молиявий мажбуриятларни бухгалтерия ҳисобида таснифлаш, баҳолаш ҳамда тан олиш тартибини халқаро стандартларга мослаштириш бўйича тадқиқот ишларини олиб бориш бугунги кундаги долзарб масалалардан биридир.

мажбуриятлар бошқа хўжалик юритувчи субъектга активларнинг ўтказилиши, ишлар бажариб берилиши, хизматлар кўрсатилиши ёки ҳисоб-китоб рақамидан пул тўлаб берилиши билан сўндирилиши мумкин дейилганида, бу мажбуриятлар қарздор корхона томонидан кечиб юборилиши мумкин эмаслиги назарда тутилади. Мажбуриятларнинг ўз вақтида тўланмаслиги турли салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Масалан, ҳақдор корхона қарздор корхонадан ўз ҳақини талаб қилиб, судга мурожаат қилиши мумкин. Бунинг натижасида қарздор корхона судда ютқазиб қўйиши ҳамда суд билан боғлиқ харажатларни, қарз суммасини, ўз вақтида тўланмаганлиги учун жарима суммасини ва етказилган маънавий зарарни қоплаб беришига тўғри келади. Бу ҳолат корхонага катта зарар етказиб, молиявий аҳволининг ёмонлашишига сабаб бўлади. Шунинг учун хўжалик юритувчи субъектлардан иқтисодий муносабатларда маҳсулот етказиб бериш, хизмат кўрсатиш, ишлар бажариш ёки пул тўлови орқали қарзларни ўз вақтида қоплаб бериши, яъни тўлов интизомига риоя этиши талаб қилинади.

Мажбуриятлар таркибида молиявий мажбуриятлар муҳим ўрин тутади. молиявий мажбуриятларни аниқлаш ва уларнинг алоҳида элементларини молиявий ҳисоботларда акс эттириш учун улар камида учта мезон бўйича таснифланиши керак лозим (1-расм).



1-расм. Молиявий мажбуриятларнинг таснифланиши¹⁶

¹⁶ муаллиф ишланмаси

Илмий ва қонунчилик нуқтаи назаридан «мажбурият» тушунчасининг талқинларини таҳлил қилиш асосида мажбуриятнинг иқтисодий тоифасини аниқлайдиган қуйидаги асосий хусусиятларга эътибор қаратиш зарур:

- мажбуриятни бажариш бўйича жавобгарликнинг мавжудлиги;
- хўжалик юритувчи субъект фаолиятининг шартлилиги;
- хўжалик юритувчи субъектнинг иқтисодий фойдасининг пасайиши;
- хўжалик юритувчи субъект иқтисодий фаолиятининг бошқа томонлар

олдидаги мажбуриятларнинг бажарилишини кутиш.

Маълумки, бозорда ресурсларни етказиб берувчилар ва истеъмолчилар мавжуд. Бир томон ресурсларни етказиб бериш имкониятига эга бўлган пайтда, иккинчи томон эса уларга эҳтиёж сезганда, ресурслар истеъмолчидан уларнинг етказиб берувчилари олдидаги мажбуриятларни шакллантириш имконияти пайдо бўлади. Сўнгра, ресурсларни етказиб беришнинг муҳим шартлари (вақт ва нарх) келишиб олинади ва ресурс истеъмолчиси учун уларнинг етказиб берувчиси олдида мажбурият пайдо бўлади.

Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий мажбуриятларнинг юзага келиши юқорида келтирилган мезонлардан бирининг тўлиқ бажарилиши натижасида рўй беради. Молиявий мажбуриятларни таснифлашдан асосий мақсад келгуси молия-хўжалик фаолиятида содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларни молиявий ҳисоботларда тўғри ва ҳаққоний акс эттиришдир.

2-расмда молиявий ҳисоботларда мавжуд мажбуриятлар таснифи келтирилган.



2-расм. Молиявий ҳисоботлардаги мавжуд мажбуриятлар таснифи¹⁷

¹⁷ муаллиф ишланмаси

Маълумки, бухгалтерия ҳисобида мажбуриятлар, одатда, юридик жавобгарлик асосида юзага келади. Юридик жавобгарлик – шартнома шартларидан ёки қонунчилик асосида вужудга келадиган жавобгарлик ҳисобланади. Мажбуриятлар юзага келиши учун муайян жавобгарлик юклайдиган ҳодисанинг содир бўлиши талаб этилади.

Жавобгарлик юклайдиган ҳодисанинг содир бўлишида конструктив жавобгарлик ҳам юзага келиши мумкин. Конструктив жавобгарлик мавжуд амалиёт ёки одатдаги бизнес-жараёнлардан келиб чиқадиган ҳамда хўжалик юритувчи субъектнинг учинчи шахслар олдида вужудга келадиган аниқ жавобгарлигидир.

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИ ШАРОИТИДА ҚОРХОНАЛАРДА ФОЙДА СОЛИҒИ БЎЙИЧА ҲИСОБЛАНГАН КЎРСАТКИЧЛАРНИНГ АУДИТОРЛИК ТАҲЛИЛИНИНГ АҲАМИЯТИ

Д.Ж.Пашаходжаева

*Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси доценти, PhD*

М.Х.Охунжанова

*Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти магистранти*

Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини чуқур таҳлил қилиш бўйича аудиторлик ташкилотлари олдида қўйилган ушбу вазифалар, бир томондан, аудит ва таҳлилнинг ўзаро узвийлигидан дарак берса, иккинчи томондан, аудит ва таҳлил фанлари ҳамда улар амалиётида янги йўналиш ҳисобланган аудиторлик таҳлилининг назарий, методологик ва ташкилий асосларини яратишдек муҳим масалаларни ҳал қилишни зарурат қилиб қўймоқда.

Фойда солиғи суммаси (**Фсс**) солиққа тортиладиган базани (**Фсб**) солиқ ставкасига (**Сс**) га кўпайтириш орқали топилади, яъни у қуйидаги оддий математик модель кўринишигаэга (1-расм):



1-расм. Фойда солиғи суммасини аниқлаш модели

Рақамли иқтисодиёт шароитида фойда солиғи бўйича ҳисобланган кўрсаткичларнинг аудиторлик таҳлили фойда солиғини ҳисоблашга асос бўладиган кўрсаткичлар тўлиқ текширувдан ўтказилгандан сўнг амалга оширилади. Ушбу босқичда ўтказиладиган аудиторлик таҳлилининг энг асосий натижалари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

*фойда солиғи суммасининг ҳаққонийлигини таъминлаш;

*фойда солиғининг ўзгаришига таъсир қилувчи омилларни аниқлаш ва улар таъсир кучини, яъни операцион ричаг даражасини динамик ва статик жиҳатдан баҳолаш;

*фойда солиғи бўйича дебиторлик ва кредиторлик қарзларининг ҳисоб ва ҳисоботда тўғри акс этирилганлигини аниқлаш;

1-расмдан кўриниб турибдики, Фойда солиғи суммасининг реаллиги иккита омилни тўғри қўлланилганлигига боғлиқ: (1) солиққа тортиладиган базага (Фсб) ва (2) солиқ ставкасига (Сс).

Аудиторлик таҳлилида ушбу иккита омилни қўллаган ҳолда корхона томонидан ҳамда аудитор томонидан топилган Фойда солиғи суммалари ўзаро таққосланади ва улар бўйича йўл қўйилган четланиш аниқланади. Ушбу таҳлилий муолажа натижалари куйидаги жадвал кўринишида расмийлаштирилади (1-жадвал).

1-жадвал

«БАХТ»* АЖда 2022 йил фойда солиғи ҳисоб-китобидаги четланишлар

№	Кўрсаткичлар	Шартли белгиси	Корхона маълумоти бўйича	Аудит текшируви бўйича	Четланиш, кўп(+), кам (-)
1	Солиққа тортиладиган база, минг сўм	Фсб	3817969.9	3755714.9	62255
2	Солиқ ставкаси, %	Сс	12	12	-
3	Фойда солиғи суммаси, минг сўм	Фсс	458156.4	450685	7471.4

* тижорат сири нуқтаи назаридан изланувчи томонидан корхона номи ўзгартирилди

Жадвалдан кўриниб турибдики, фойда солиғи суммаси таҳлил қилинган «БАХТ» АЖда 7471.4 минг сўмга кўп ҳисобланган. Бу фақат солиққа тортиладиган база суммасининг нотўғри топилганлиги эвазига юз берган.

Энди фойда солиғини ҳисоблашга асос бўлувчи барча кўрсаткичлар ҳамда солиққа тортиладиган базанинг фойда солиғи суммасига таъсир кучини, яъни операцион ричаг даражасини аниқлашга ҳаракат қиламиз. Бунда, операцион ричаг деганда ҳар бир кўрсаткичнинг пировард натижа бўлган Фойда солиғи суммасидан неча марта катта эканлиги тушунилади. Ёки бошқача айтганда, ҳар бир кўрсаткич Фойда солиғи суммасини қанча марта оширишга ёки камайтиришга таъсир қилганлигини билдиради. Ушбу ҳисоб-китобларни қилиш ва ҳар бир кўрсаткичнинг Фойда солиғи суммасига таъсир доирасини аниқлаш учун дастлаб 1-жадвалда келтирилган маълумотлар асосида 2021 йил ва 2022 йилда эришилган натижаларнинг Фойда солиғи суммасига нисбатини марталарда аниқлаймиз (2-жадвалга қаранг).

2-жадвалдан кўриниб турибдики, 2022 йилда ҳам, 2021 йилда ҳам солиққа тортиладиган базанинг суммаси фойда солиғи суммасига нисбатан мос равишда марта 7.14 марта, 8.3 марта кўп бўлган. Бу ҳар иккала йилда ҳам фойда солиғини

ставкаси ҳар хил бўлганини ҳамда ушбу омил фойда солиғи суммасига таъсир этмаганлигини билдиради.

Бу ҳар иккала йилда ҳам фойда солиғини ставкаси ҳар хил бўлганини ҳамда ушбу омил фойда солиғи суммасига таъсир этмаганлигини билдиради. Демак, бу ерда фойда солиғига солиққа тортиладиган базага таъсир қилувчи кўрсаткичлар (омиллар) асосий ролни ўйнайди. Ушбу кўрсаткичлар (омиллар)нинг фойда солиғи суммасига таъсирида солиқга тортилгунга қадар фойда кўрсаткичига таъсир қилувчи кўрсаткичларнинг роли жами 1.19 барабарлик (марталик) нисбатда 2021 йилда жами 1,19 мартани ташкил қилган (132.3-104.0-29.4+5.3+0.002-3.04), қолган 7.14 барабари эса солиққа тортиладиган базага таъсир қилувчи кўрсаткичларга (омилларга) тегишли бўлган. Ушбу кўрсаткичлар ичида асосий ролни солиқ солиш базасига қайта қўшиладиган харажатлар ўйнаган (12 барабар).

2-жадвал

**«БАХТ» АЖда 2021-2022 йилларда молиявий натижалар
кўрсаткичлари суммаларининг фойда солиғи суммасига нисбати**

№	Кўрсаткичлар	Сумма, минг сўм		Фойда солиғи суммасига нисбати, марталарда	
		2021 йил	2022 йил	2021 йил	2022 йил
1	Сотишдан тушган соф тушум	31240747	37267874	+132.3	+82.7
2	Сотилган маҳсулотлар таннари	24545682	36982606	-104	-82.1
3.	Сотишдан олинган фойда (зарар)	6695065	285268	+28.4	+0.6
4	Давр харажатлари	6949151	4436326	-29.4	-9.8
5	Бошқа операцион даромадлар	1253402	5146080	+5.3	+11.4
6	Асосий фаолиятдан олинган фойда (зарар)	999316	995022	+4.2	+2.2
7	Молиявий фаолият даромадлари	558	30914	+0.002	+0.07
8	Молиявий фаолият харажатлари	717914	560108	-3.04	-1.24
9	Умумхўжалик фаолиятидан фойда (зарар)	281960	465828	+1.19	+1.03
10	Фавқулодда фойда	-	-	-	-
11	Фавқулодда зарар	-	-	-	-
12	Солиқ тўлангунча фойда (зарар)	281960	465828	+1.19	+1.03
13	Солиқ солиш базасига қайта қўшиладиган харажатлар	1429588.8	3315251.9	+6.05	+7.36
14	Келгуси даврларда солиқ базасидан чегириладиган ҳисобот давр харажатлари	-	25365	-	+0.06
15	Солиқ базасидан ҳисобот даврида чегириладиган харажатлар	25000	-	-0.11	-
16	Тўлов манбаида солиқ олинган даромадлар	-	-	-	-
17	Имтиёзлар	-	-	-	-
18	Солиққа тортиладиган база	1686548.8	3755714.9	+7.14	+8.3
19	Фойда солиғи суммаси	236116.8	450685.8	X	X

Жадвалдан кўриниб турибдики, 2022 йилда эришилган молиявий натижаларнинг фойда солиғи суммасига таъсирида солиқ тортилгунга қадар фойда

кўрсаткичига таъсир қилувчи кўрсаткичларнинг роли жами 1.03 барабарлик (марталиқ) нисбатда ижобий томонга 1,03 мартага ўзгарган ва бу қуйидагилардан ташкил топган (82.7-82.1-9.8+11.4+0.07-1.24).

Фойда солиғи суммасига таққосланаётган даврлар бўйича алоҳида омилларнинг таъсир кучидаги ўзгаришларни аниқлаш учун қуйидаги жадвални тузишни мақсадга мувофиқ, деб биламиз (3-жадвал).

3-жадвал

«БАХТ» АЖда 2021-2022 йилларда фойда солиғи суммасига бевосита ва билвосита таъсир қилувчи омиллар таъсир кучидаги ўзгаришлар

№	Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2021 йилда	2022 йилда	Фарқ, (+,-)
1	Солиққа тортиладиган база	Минг сўм	1686548.8	3755714.9	+2069166.1
2.	Фойда солиғи суммаси	Минг сўм	236116.8	450685.8	+214569
3	Солиққа тортиладиган базанинг Фойда солиғи суммасига таъсир кучи (1қ.:2қ)	марта	7.14	8.3	+1.16
4	Шундан солиққа тортиладиган база элементларининг таъсир кучи		+7.14	+8.3	+1.16
4.1	Солиққа тортиладиган базага қайта қўшиладиган харажатларнинг таъсир кучи	марта	+6.05	+7.36	+1.31
4.2	Олинган дивиденд ва фоизларнинг таъсир кучи	марта	-	-	-
4.3	Келгуси даврларда солиқ базасидан чегириладиган ҳисобот давр харажатлари	марта	-	+0.06	+0.06
4.4	Солиқ базасидан ҳисобот даврида чегириладиган харажатлар	марта	-0.11	-	-0.11
4.5	Солиқ имтиёзларининг таъсир кучи	марта	-	-	-
5	Солиқ тўлагунга қадар фойда (зарарлар) элементларининг таъсир кучи. Шундан:	марта	+1.19	+1.03	-0.16
5.1	Соф тушумнинг таъсир кучи	марта	+132.3	+82.7	-49.6
5.2	Сотиш таннархининг таъсир кучи	марта	-104	-82.1	-21.9
5.3	Давр харажатларининг таъсир кучи	марта	+28.4	+0.6	-27.8
5.4	Бошқа операцион даромадларнинг таъсир кучи	марта	-29.4	-9.8	-19.6
5.5	Молиявий фаолиятга доир даромадларнинг таъсир кучи	марта	+0.002	+0.07	0.068
5.6	Молиявий фаолиятга доир харажатларнинг таъсир кучи	марта	-3.04	-1.24	-1.8

Солиққа тортиладиган базанинг фойда солиғига нисбатан таъсири 8.3 мартани ташкил этган ва у қуйидагилардан ташкил топган (1.03+7.36+0.06), яъни солиқ тўлангунча фойда солиғи суммасини 1.03 мартага ошишишига, солиқ солиш базасига қайта қўшиладиган харажатлар фойда солиғи суммасини 7.36 мартага ошишига, Келгуси даврларда солиқ базасидан чегириладиган ҳисобот давр харажатлари пайдо бўлиши 0.06 мартага ошишига сабаб бўлган.

3-жадвалдан кўриниб турибдики, 2021 йилда 2022 йилга нисбатан фойда солиғи суммаси 214569 минг сўмга кўпайган.

Солиқ суммасини камайишига солиққача фойдага таъсир қилувчи кўрсаткичлардаги ўзгаришлар таъсири 0.16 мартага пасайган. Бунга қуйидагилар таъсир кўрсатган:

*соф тушумдаги ўзгаришлар таъсири 49.6 мартага ошган (салбий);

*сотиш таннархидаги ўзгаришлар таъсири 21.9 мартага камайган (ижобий);

*давр харажатларидаги ўзгаришлар таъсири 27.8 мартага камайган (ижобий);

* бошқа операцион даромадлардаги ўзгаришлар таъсири 19.6 мартага пасайган (салбий);

*молиявий фаолиятга доир даромадлардаги ўзгаришлар таъсири 0,06 мартага ошган (ижобий);

*молиявий фаолиятга доир харажатлардаги ўзгаришлар таъсири 1.8 мартага камайган (ижобий).

Солиқ суммасини камайишига унга бевосита ва билвосита таъсир қилувчи омилларнинг таъсир кучидаги ўзгаришлар ҳам таъсир қилган. Чунончи, солиққа тортиш базасига бевосита таъсир ўтказадиган кўрсаткичлардаги ўзгаришлар таъсири 1.16 мартага ошган, шундан:*солиқ солиш базасига қайта қўшиладиган харажатлардаги ўзгаришлар таъсири 1.31 мартага ошган;

*олинган дивиденд ва фоиз суммаларидаги ўзгаришлар таъсири 0.

Кўриниб турибдики, 2022 йилда Фойда солиғи суммасини вужудга акелишида солиқ солиш базасига қайта қўшиладиган харажатларнинг таъсир кучи янада ошган, ўтган йилга нисбатан у 1.31 мартага кўпайган. Бундай ҳолатни, албатта, ижобий деб бўлмайди. Чунки, у корхонада даромадлар ва харажатлар мослигини таъминлашда ҳар бир сўмлик қилинаётган харажатни тегишлича самара бермаётганлигини кўрсатади.

Ушбу тавсияларни амалиётга жорий этилиши натижасида корхоналарда даромадлар, харажатлар, инвестицион чегирмалар ва имтиёзларнинг фойда солиғига таъсир доирасини солиқ органлари томонидан баҳолаш, шунингдек фойда солиғи ва унга негатив таъсир қилувчи омиллар бўйича солиқ тўловчиларга тегишли солиқ маслаҳатларини бериш имкониятлари пайдо бўлади.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA XARAJATLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

SH.A.Pardayeva

*Toshkent moliya instituti, “Bank hisobi va audit”
kafedrasi dotsenti, PhD*

Yurtimizda so‘ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar xususan iqtisodiyotni raqamlashtirish va yangi investitsiyalarni jalb etish bularni barchasi Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadidagi ustuvor harakatlardan biridir.

Bilamizki tadbirkorlik subyektlari ayniqsa ishlab chiqarish sohalari bo‘lsa turli xil davlat soliqlar, ish haqi kabilardan tashqari turli xil xarajatlarni amalga oshiradi. Bunda korxonalar rentabellik ko‘rsatkichlarini me‘yorda ushlab turish, mehnat resuslariga munosib ish haqi to‘lash, yangi ishchi o‘rinlarini yaratish maqsadida korxonani yiriklashuvi uchun investitsiyalar jalb etish ko‘p mehnat, sarmoya va tajribani talab etadi. Shu bilan birga, mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarishda strategik yondashuvga e‘tiborning kuchayishi jahon bozorini egallash imkonini yaratib bermoqda.

Hozirgi vaqtda korxonalarda xarajatlarni hisobga olish, tahlil qilish va nazorat qilish muammosi ancha o‘sdi, ya‘ni xarajatlarni boshqarish muammosi. Xarajatlarni boshqarish masalasi dolzarbdir, chunki bugungi kunda raqobatchilardan barqaror ustunlikka erishish mumkin, agar boshqa ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxi past bo‘lsa.

Xarajatlarni boshqarishga bo‘lgan ehtiyoj ularning korxonalar iqtisodiyotida tutgan o‘rni, ya‘ni ularning korxonalar foydasini shakllantirishda bevosita ishtiroki bilan belgilanadi. Bu foyda, natijada korxonaning raqobatbardoshligi va hayotiyligining asosiy sharti bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun korxonalarning aksariyati uchun asosiy vazifa – ma‘lum bir foyda darajasini (qisqa muddatda) ushlab turish va rentabellik salohiyatini (uzoq muddatda) saqlab qolishdir.

Korxonalar yo‘qotishlari bu davlat yo‘qotishlariga teng bo‘lishi mumkin. Shu sabab har bir jarayonni puxtalik bilan ishlab chiqish va yurg‘izish katta ahamiyatga ega. Sarmoyalarni to‘g‘ri baholab ularni kerakli sohalarga yo‘naltirish korxonalar boshqaruvchilari maqsadlaridan biridir.

Xarajat - bu moddiy resuslarni sotib olishga qilingan sarflar bo‘lib, daromadlar va xarajatlarning kontsepsiyasiga ko‘ra, o‘sha davrning o‘zida daromad keltirishi kerak.

Ishlab chiqarish xarajatlari – deb mahsulotni tayyorlash uchun moddiylashtirilgan mehnat sarflarining pul shaklidagi ifodasiga aytiladi.[2]

Bilamizki, xarajatlarning bu korxonalar moliyaviy resuslarining real yoki taxmin qilingan xarajatlari va korxonada ishlab chiqarish xarajatlari korxonalar faoliyati uchun muhim rol o‘ynaydi, chunki mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari qancha kam bo‘lsa korxonalar foydasi va rentabelligi shuncha oshadi.

Korxonada xarajatlarni boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga mo‘ljallangan:

- asosiy boshqaruv funksiyalari uchun xarajatlarni aniqlash;


- korxonaning ishlab chiqarish birliklari uchun xarajatlarni hisoblash;
- mahsulot birligi uchun zarur xarajatlarni hisoblash;
- biznes qarorlarini tanlash va qabul qilishda xarajatlarni baholashga imkon beradigan ma'lumot bazasini tayyorlash;
- xarajatlarni o'lchash va nazorat qilishning texnik usullari va vositalarini aniqlash;
- korxonada sharoitlariga mos keladigan xarajatlarni boshqarish tizimini tanlash.

Xarajatlarni boshqarish vazifalari har tomonlama ko'rib chiqilishi kerak. Faqatgina ushbu yondashuv o'z samarasini berib, korxonaning iqtisodiy samaradorligini keskin oshirishga yordam beradi.

Korxonada xarajatlarni boshqarish har qanday obyektning boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha funksiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi, ya'ni yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ularning bajarilishini nazorat qilish. Xarajatlarni boshqarish funksiyalari boshqaruv siklining elementlari orqali amalga oshiriladi: prognozlash va rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va tartibga solish, amalga oshirishni faollashtirish va rag'batlantirish, buxgalteriya hisobi va tahlil.

Xarajatlarni boshqarish o'z-o'zidan maqsad emas, lekin korxonada muayyan iqtisodiy natijaga erishishi, ish samaradorligini oshirish uchun mutlaqo zarurdir.

Xarajatlarni boshqarish funksiyalari ishlab chiqarish bilan bog'liq, ya'ni ma'lum bir ishlab chiqarish, iqtisodiy, texnik yoki boshqa natijaga erishish uchun avval xarajatlarni qoplashingiz kerak. Shuning uchun xarajatlarni boshqarishning maqsadi korxonaning ko'zlangan natijalariga eng iqtisodiy usulda erishishdir .



1-rasm.2018-2021 yilga qadar MChJ “Kolor Pak” yillik moliyaviy natijalar xarajalar, daromadlar va foyda ko'rsatkichlari (mahsulotlarni sotishdan sof tushumga nisbatan).

O'zbekiston Respublikasida mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.1999 yildagi 54-

son (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25-dekabrda 567-sonli qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan) bilan chiqarilgan bo‘lib u hozirgi davrga qadar O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq hamda daromadlar va xarajatlarni buxgalteriyada hisobga olishning yagona uslubiyotini ta‘minlash bo‘yicha qonuniy hujjat hisoblanadi[1]. O‘zbekistonda mavjud barcha xo‘jalik subyektlari shu qonunga asoslangan holda o‘z buxgalteriya hisobotlarini olib boradilar va davlat soliq inspeksiyalariga taqdim etadilar MChJ “Kolor Pak” ham bundan mustasno emas.

Yuqoridagi diagrammada MChJ “Kolor Pak” korxonasini 4 yillik moliyaviy ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, unda korxonada mahsulot sotuvi tushumi, xarajatlar va yil yakunida keltirilgan yillik sof foyda ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Undan ko‘rinib turibdiki korxonada pandemiya davrida ham undan oldigi yilga nisbatan 315% ga o‘shishni ko‘rsatgan va sof foyda 7 085 788 ming so‘mni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich ya‘ni korxonada sof foydasi har yili korxonada tomonidan yangi uskunalari olib kelinishiga qaramasdan kamida 3 barobarga o‘sgan bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilganidek 2021 yili MChJ “O‘qituvchi nashriyot uyi”ga investitsiya kiritilishiga erishildi. Boshqarish mexanizmi yaxshi sozlangan bo‘lsa, xarajatlarni va mahsulot tannaxsini pasaytirish imkonini yaratadi. Poligrafiya sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarda bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari va tannaxsini pasaytirishga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

“Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.1999 yildagi 54-son. <https://lex.uz/>

Pardayev A.X. Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi /darslik/ -T “Tafakkur” nashriyoti 2014-396-bet

NOMODDIY AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

*Z.N.Qurbonov, i.f.d.,
S.To‘lamurodova, talaba*

Dunyo mamlakatlarida ilmiy-texnik salohiyat yuqori sur‘atlarda rivojlanayotgan bir davrda mazkur ilmiy-texnik salohiyatning tarkibiy qismi hisoblangan nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish, xizmatlar sohasiga joriy etish darajasi o‘shib bormoqda. Mamlakatlarda innovatsion faoliyatni baholovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bu ilmiy-texnik salohiyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyo miqyosida nazar soladigan bo‘lsak rivojlangan mamlakatlarda, yangi dasturlar kun sayin rivojlanib bormoqda va bu albatta o‘z o‘rnida mamlakatni YaIM ga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shunday ekan, biz ham O‘zbekistonda buxgalteriya tizimida yangi dasturlarni rivojlantirishga o‘z e’tiborimizni qaratishimiz kerak, deb o‘ylayman. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida o‘zida yangi dasturlarni yaratsa, ish samaradorligini va sifatlilik darajasini oshirish uchun, bu albatta korxonaning ham mamlakatning ham iqtisodiy tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday, dasturiy ta‘minotlar yaratilgandan keyin uning nazoratini ham mamlakat miqyosida yo‘lga qo‘yish kerak. Bu esa buxgalteriya siyosatida nomoddiy

aktivlar deb atalgan va yillar davomida har bir mamlakat o'z siyosatidan kelib chiqib bu nomoddiy aktivlarni nazoratini yo'lga qo'ygan.

Pisa universiteti daktarantlari Silvia Ferramosca, Marko Allegrini yozgan "Gudvillning qadrsizlanishi yoki amortizatsiyasi? Gudvill buxgalteriya hisobi bo'yicha CFO tushunchalarining tahlili" maqolasida shunaqa deyilgan

Gudvillning buxgalteriya hisobiga munosabati va Xalqaro Buxgalteriya Hisobi Standartlari Kengashi (IASB) va Moliyaviy Buxgalteriya Standartlari Kengashi (FASB) tomonidan Gudvillni hisobga olishni takomillashtirish bo'yicha izlanishlar atrofida davom etayotgan bahs-munozaralarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot 352 bosh moliya direktori (CFO) ning global namunasini o'rganadi. amortizatsiya modeli bilan solishtirganda, faqat Gudvillning qadrsizlanishiga asoslangan yondashuvni qabul qilish haqidagi tasavvurlarini tushunish. Respondentlarning yarmidan ko'pi buxgalteriya hisobining muqobil to'g'irlash usullari ko'proq foydali ma'lumot berishi mumkinligiga rozi. Biroq, deyarli uchdan ikki qismi amortizatsiya jarayonidan ko'ra, Gudvillning qadrsizlanishi testini afzal ko'radi.

Gudvill haqida yozilgan Muxlisa Utkir qizi Amrullayeva Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi yozgan tezisida buxgalteriya hisobida yuritilishining milliy standartlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish uslubiyatini takomillashtirish masalalari va gudvillni buxgalteriya hisobiga olishda yangi metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan ekan men ham shu qarashlarga yondoshib Gudvillni bazi o'zgarishlar kiritishga taklif bermiqchi edim.

Gudvill bu kompaniyaning aktivi sifatida baholanishi va maxsus hisob varaqqa kiritilishi mumkin bo'lgan uning nufuzi (imidji), ishbilarmonlik nomi, aloqalari, mijozlari va kadrlari; mustaqil bozor qiymatiga ega emas va asosan boshqa firma bilan qamrab olinganda yoki qo'shib ketganda ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida yuritish tartibi 7- son BHMS ning 9-bobiga ko'ra Gudvill Korxonaning bozor qiymati korxonada tomonidan kelgusida olinish ehtimoli mavjud bo'lgan iqtisodiy naf bozori bahosini aks ettiradi. Korxonaning bozor qiymati bilan identifikatsiya qilinadigan aktivlarning balans qiymati o'rtasidagi farq istalgan paytda o'z ichiga korxonaning qiymatiga ta'sir etuvchi bir qator omillarni olishi mumkin. Biroq bunday farq ushbu paytda korxonada nazorat qilayotgan aniq aktivlarning qiymatini ifodalaymaydi. Korxonada faoliyat olib borilish davomida yaratilgan Gudvill bu aktiv sifatida tan olinmaydi. Qachonki boshqa bir korxonani sotib olganda yoki qo'shib yuborilganda yuzaga keladi. Buxgalteriya hisobining 7- sonli BHMS ning 7-bobiga ko'ra muddati belgilanmagan nomoddiy aktivlarga 5 yil davomida eskirish hisoblash tadbiri etilgan. Xalqaro standartlarning IAS 38-intangible Assets da ham nomoddiy aktivlar bizning standartdan qisman farq qiladi. Foydalanish muddatiga qarab nomoddiy aktivlarning tasnifi. Nomoddiy aktivlar quyidagicha tasniflanadi: IAS 38.88

Cheksiz muddatli: aktivning korxonada uchun sof pul tushumlarini keltirib chiqarishi kutilayotgan davr uchun oldindan ko'rilishi mumkin bo'lgan chegara yo'q.

Cheklangan umr: korxonada uchun cheklangan foyda davri. Gudvill esa bizning milliy standartimizda qanday bo'lsa shunday keltirib o'tilgan lekin har yili Gudvill qadrsizlanishga tekshirib boriladi deyilgan.

Yaqin kelajakda buxgalteriyaning takomillashib xalqaro standartlarga o'tishi kutilmoqda shunday ekan. Biz ham asta-sekinlik bilan buxgalteriya standartlarimizni xalqaro standartlarga moslab shunga ko'nikma hosil qilib borish kerak deb o'ylayman va shuning uchun men shu takliflarni bermoqchiman, nomoddiy aktivlar tarkibida bo'lgan Gudvillga har yili qadirsizlanishga tekshirib borishimiz kerak chunki har bir korxonada bor uning sotib olganda vujudga kelgan obrusi qadirsizlanishi mumkin. Lekin shu qadirsizlanish keyinchalik yana obrusini oshishidan teklansa faqatgina qadirsizlangan summagacha ko'tara olishimiz mumkin negaki biz uni faqat o'sha summada balansga kirim qilib Gudvill tan olganmiz shu sababli uni narxini undanda oshirib qo'ya olmaymiz oshirib qo'ysak u ichki yaratilgan Gudvill kabi bo'lib qoladi. 7-sonli BHMS ning 7-bobiga ko'ra muddati belgilanmagan nomoddiy aktivlarga 5 yil davomida eskirish hisoblash tadbiriq etilgan. Men o'ylaymanki shunga ham qisman o'zgartirish kiritish kerak deb, qanday o'zgarish deganda bunday nomoddiy aktivlarni ham qadirsizlantirish kerak chunki biz uni foydali xizmat muddatini bilmaganimizdan keyin uni yilma-yil qadirsizlanishga tekshirib balansdan chiqarishimiz kerak. B u yerda men beradigan asosiy taklifim bu nomoddiy aktivlarga qadirsizlanish atamasini qo'shish va shu qadirsizlanishni nomoddiy aktivlarga tadbiriq etish.

Xalqaro amalyotda nomoddiy aktivlar biznesdagi muvofaqiyatning muhim kaliti sifatida e'tirof etilmoqda. Shunday ekan shu o'zgarishlarni tadbiriq eta olsak qisman bo'lsa, ham nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtira olamiz va bu albatta, buxgalteriyani rivojlantirish qadamlardan biri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

https://www.researchgate.net/publication/350137735_Impairment_or_amortization_of_Gudvill_An_analysis_of_CFO_perceptions_of_Gudvill_accounting

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti(7-sonli BHMS) "Nomoddiy aktivlar"

<http://lex.uz/docs/627308>

<https://www.iasplus.com/en/standards/ias/ias38>

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI

M.B.Pulatova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD.,

M.O.Nizomidinova

Toshkent shahri Puchon universiteti Ta'lim muassalarini boshqarishning magistranti

Ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashda maktabgacha ta'lim va uni rivojlantirish jarayonlariga e'tibor qaratish alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng islohatlar amalga oshirilayotganligi, jumladan mazkur islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatli ta'lim sohasini kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda aholi sonining ortishi hisobiga ta'lim xizmatlarini bo'lgan extiyojni ham oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu masalaga doir qator vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8

maydagi PQ-4312-son [Qarori](#) bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi»da belgilangan bo‘lib, bu borada maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug‘ilishning o‘sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turish, moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta’lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta’minlash, moliyaviy nazorat, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan budget qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi¹⁸. Bu esa o‘z navbatida bu sahada amalga olishirilishi kerak bo‘lgan vazifalar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimiga o‘zgarishlar bo‘lagini faktlar orqali ko‘rishimiz mumkin. Byudjet xarajatlarini 2022 йил 49,7 % ini ijtimoiy soha xarajatlari tashkil etib, shundan Ta’limga amalga oshirilgan xarajatlarning 66 % i umumiy ta’limga, 20 % i maktabgacha ta’limga va 14 % i kadrlar tayyorlashga yo‘naltirildi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishiga amalga oshirilgan xarajatlar 2021 yilga nisbatan 2 166,9 mlrd sumga oshgan holda 10 151,9 mlrd sumga ijro etildi. Xarajatlarning oshishiga ish haqi miqdorlarining oshirilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlari ijrosi sabab bo‘ldi. 2022 yilda maktabgacha ta’lim muassasalari rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarning qisqartirilishi hisobiga yangi muassasalar qurish va kapital ta’mirlash xarajatlariga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirildi¹⁹. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida maktabgacha ta’lim byudjetdan moliyalashtirish usuli sezilarli ekanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda ham olib borilayot ta’lim sohasidagi islohatlar ham o‘z natijasini bermoqda. Davlat statistika qo‘mitasi malumotlariga ko‘ra respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari (davlat, oilaviy, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari inobatga olinmagan) faoliyat yuritmoqda. Tadqiqotlar asosida qayt etish mumkin, maktabgacha ta’lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini zamon va makon jihatdan o‘zgarib bormoqda. Yuqoridagi faktlar 2023-yilgacha bo‘lgan vaqtda keskin o‘zgarish bo‘lmoqda. Yani, maktabgacha ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha quyidagi natijlarga erisha oldi yani yetti yil mobaynida maktabgacha ta’lim muassasalar sonining ortganini raqamlar orqali ko‘rishimiz mumkin.(1-rasm)


2023-yilning 1-avgust holatiga ko‘ra, respublikada jami 30 792 ta bog‘cha faoliyat ko‘rsatyapti. Shundan davlatga qarashli MTMLari soni 6 734 ta, nodavlat bog‘chalar 24 058 tani tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 2017-yilda mamlakatda 5 211 ta bog‘cha bo‘lgan. 2018-yilda bu raqam 7104 taga, 2019-yilda 13 530 taga, 2020-yilda 18 254 taga yetgan. 2021-yilga kelib bog‘chalar soni keskin ko‘paygan va 27 609 tani tashkil etgan. 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 29 420 tagacha ortgan. Ma’lum qilinishicha, agentlikka

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi

¹⁹ Fuqarolar uchun budget: 2022 yil ijrosi

²⁰ <https://daryo.uz/2023/08/16/davlat-bogchalar-i-kopmi-yoki-xususiy-ozbekistondagi-mttlar-soni-malum-qilindi>

2023-yilning 1- yarim yilligida tadbirkorlar tomonidan bog‘chalar ochish masalasida 5 486 ta arizalar kelib tushgan. Shundan 2 089 ta loyiha ma’qullangan, 1 846 ta loyihalar bilan bitim imzolangan.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim muassalarining 2023- yil 1-avgustgacha o'zgarishlar soni.²⁰

Natijada 59 072 ta yangi quvvat, 4 615 ta yangi ishchi o‘rin yaratildi. 2023-yilning 1-avgust holatiga ko‘ra, respublikada jami 30 792 ta bog‘cha faoliyat ko‘rsatyapti. Shundan davlatga qarashli MTMLari soni 6 734 ta, nodavlat bog‘chalar 24 058 tani tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 2017-yilda mamlakatda 5 211 ta bog‘cha bo‘lgan. 2018-yilda bu raqam 7104 taga, 2019-yilda 13 530 taga, 2020-yilda 18 254 taga yetgan. 2021-yilga kelib bog‘chalar soni keskin ko‘paygan va 27 609 tani tashkil etgan. 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 29 420 tagacha ortgan. Ma’lum qilinishicha, agentlikka 2023-yilning 1- yarim yilligida tadbirkorlar tomonidan bog‘chalar ochish masalasida 5 486 ta arizalar kelib tushgan. Shundan 2 089 ta loyiha ma’qullangan, 1 846 ta loyihalar bilan bitim imzolangan. Natijada 59 072 ta yangi quvvat, 4 615 ta yangi ishchi o‘rin yaratildi.

“Yarim yil mobaynida quvvati 41 920 nafar bolani qamrab olgan 1 310 ta oilaviy MTMLar o‘z faoliyatini boshladi”, — deyiladi manba ma’lumotida.

Shuningdek, bu 6 oy ichida respublikadagi 740 ming nafarga yaqin tarbiyalanuvchilarni qamrab olgan 21 mingdan ortiq nodavlat (jumladan, oilaviy MTM) maktabgacha ta’lim tizmlariga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 1,2 trillion so‘m miqdorda subsidiyalar ajratilganini ham ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o‘quv dasturlari asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga munosib bilim berish ushbu tizimni moliyaviy mablag‘ bilan ta'minlashni samarali tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasasining moliyaviy mablag‘lari uning tasarrufida bo‘ladi va ulardan qonunchilik va ta'lim muassasasining ustavidagi vazifalariga muvofiq foydalaniladi. Davlat ta'lim muassasasining moddiy vositalari, binolari, inshootlari va asbob-uskunolari uning

xo'jalik tasarrufida bo'ladi hamda ulardan ustavidagi vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.

Fuqarolar uchun budget: 2022 yil ijrosi

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 17-dekabrda O'RQ-130-sonli Qonuni tahririda — 2007-y., 50-51-son, 509-modda)

<https://daryo.uz/2023/08/16/davlat-bogchalari-kopmi-yoki-xususiy-ozbekistondagi-mttlar-soni-malum-qilindi>

ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПРИ ПЕРЕХОДЕ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА НА МСФО

К.И.Кундузова

Ферганский политехнический институт

к.э.н., доцент кафедры «Бухгалтерский учет и аудит»,

З.Ш.Азимжонов

Ферганский политехнический институт, студент

Особенно в банковской системе, в частности, в системе, содержащей точную и полную информацию о банковских активах (фондах) - бухгалтерский учет также требует организации и ведения финансовой отчетности в соответствии с требованиями МСФО.

Международная практика около четверти центральных банков мира применяют МСФО, и еще примерно четверть обращается к МСФО за дальнейшими рекомендациями в тех случаях, когда их местные стандарты не дают достаточных рекомендаций. Учитывая различные мандаты и типы политических операций, проводимых центральными банками, также существуют значительные различия в практике, стиле и объеме раскрытия финансовой информации как в первичной отчетности, так и в примечаниях. По своей природе центральные банки уникальны в своей юрисдикции и поэтому не всегда располагают местной практикой и примерами, которым они могут следовать. Хотя крупнейшие бухгалтерские фирмы разработали типовые формы раскрытия информации, предназначенные для коммерческих банков, они часто не совсем подходят для центрального банка.

Применение МСФО в разных центральных банках отличается в зависимости от мандата центрального банка и возможностей специалистов по бухгалтерскому учету в конкретной юрисдикции. Анализ международной практики, такой как тот, который был проведен при подготовке этих типовых отчетов, может помочь ответить на вопросы, касающиеся структуры самих отчетов, а также организации раскрытия информации в примечаниях. Как следствие, каждый центральный банк, придерживающийся МСФО, в значительной степени разработал свою собственную информацию, лишь ограниченно ссылаясь на другие [4].

В 2020 году примерно 50 центральных банков соблюдали требования МСФО при составлении своей внешней финансовой отчетности. Независимость центрального банка позволяет центральному банку корректировать свою политику и действия так, как он считает необходимым для достижения целей, предусмотренных его мандатом.

Однако центральные банки не действуют в вакууме и должны, в определенных пределах, быть прозрачными в отношении своих операций и действенности для повышения их авторитета и эффективности. Такая прозрачность является неотъемлемым компонентом подотчетности центрального банка. Ожидается, что центральные банки будут объяснять и оправдывать свои действия и давать отчет о решениях, принятых при исполнении их обязанностей, и об использовании вверенных им ресурсов.

МВФ подчеркнул необходимость надлежащих механизмов прозрачности центрального банка в качестве одного из разумных принципов денежно-кредитной политики, позволяющих обеспечить надлежащую публичную подотчетность центрального банка за выполнение его целей. Прозрачность в раскрытии информации должна быть сопоставлена с конфиденциальностью — она не может быть неразборчивой или чрезмерной, поскольку существует множество видов деятельности центрального банка, в которых существуют законные потребности в конфиденциальности. Центральному банку необходимо адаптировать раскрытие финансовой информации таким образом, чтобы лучше информировать читателя о своих операциях, финансовых последствиях этих операций и рисках, связанных с их проведением.

Обеспечение вхождения банковских структур в Узбекистане в число банковских систем стран с развитой мировой экономикой и непосредственное применение достижений мировой практики в этой сфере к деятельности банковской системы, разработка и внедрение в банковскую практику концептуальных и специфических основ составления финансовой отчетности банков в мировой банковской системе послужат толчком к развитию и укреплению банков.

Основываясь на вышеизложенных взглядах, были сделаны следующие теоретические выводы с целью полного внедрения в практику международных стандартов финансовой отчетности в коммерческих банках и дальнейшего ее совершенствования:

- Необходимо продолжить процесс согласования системы бухгалтерского учета в коммерческих банках с международными стандартами финансовой отчетности;

- Организовать коммуникацию коммерческих банков с зарубежными странами на международном межбанковском уровне и максимально упростить формы финансовой отчетности в них, чтобы они могли расширить свою деятельность при переходе на МСФО.

Организация и ведение существующего бухгалтерского учета в коммерческих банках в соответствии с требованиями международного стандарта, по нашему мнению, должны осуществляться следующим образом:

прежде всего, согласование бухгалтерского учета и финансовой отчетности путем преобразования с положениями МСФО;

во-вторых, провести процедуру ведения бухгалтерского учета и составления финансовой отчетности по предварительному учету по МСФО (параллельно с МСФО).

Путем преобразования может быть удобно адаптироваться к МСФО, но не хватает квалифицированных специалистов. А второй способ проще, но требует много работы. По нашему мнению, на начальном этапе следует рассмотреть следующие вопросы:

1. Изучение общих требований к отчетности по МСФО;
2. Проведение сравнительного анализа между МСФО и НСБУ и разработка соответствующих выводов;
3. МСФО (IFRS) 1 изучение требований стандарта под названием "представление финансовой отчетности";
4. Составление учетной политики на основе МСФО.

В заключение можно сказать, что в ближайшем будущем существующая система бухгалтерского учета в коммерческих банках Республики, несомненно, станет усовершенствованной системой бухгалтерского учета, способной полностью соответствовать требованиям Международных стандартов финансовой отчетности.

Список использованной литературы:

Закон Республики Узбекистан “О банках и банковской деятельности” (новая редакция) от 05.11.2019 г. № ЗРУ-580

Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности” от 24.02.2020 г. № ПП-4611.

Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 328-333.

Axmadoxunova, X. O. (2021). O 'zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishning roli va ahamiyati. Scientific progress, 2(8), 257-261.

ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИДА ТУТГАН ЎРНИ

А.Т. Махкамбоев

*Тошкент давлат иқтисодийот университети
“Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси доценти*

Ҳисоб сиёсатининг роли ўз фаолиятининг энг мақбул йўналишини ташкил этиш ва бухгалтерия ҳисобида акс эттиришни таъминлашдан иборат. Ҳисоб сиёсатини шакллантириш тўғри бошқарув қарорларини қабул қилиш учун зарур ҳисобланади, чунки оқилона ишлаб чиқилган ҳисоб сиёсати хўжалик юритувчи субъект фаолиятини бошқариш ва унинг фаолиятида ўз мақсадларига эришишнинг муҳим воситаларидан бири саналади.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва иқтисодий адабиётларда ҳисоб сиёсатининг моҳиятини очиб беришга оид кўплаб қарашлар мавжуд.

«Ҳисоб сиёсати, ҳисоб баҳоларидаги ўзгаришлар ва хатолар» номли 8-сон БҲХСга биноан “ҳисоб сиёсати ташкилот томонидан молиявий ҳисоботни тайёрлашда ва тақдим этишда қўлланадиган муайян тамойиллар, асослар, умумқабул қилинган шартлар, қоидалар ва амалий ёндашувлардир”²⁰.

«Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот» номли 1-сон БҲМСга кўра “ҳисоб сиёсати хўжалик юритувчи субъектнинг раҳбари бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисобот тузиш учун қўллайдиган усуллари, уларнинг принцип ва асослари билан биргаликдаги жамламаси”²¹.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 77-моддасига мувофиқ, «ҳисоб сиёсатини шакллантиришда солиқ тўловчи томонидан солиқ солиш мақсадларида танланган ҳисоб юритиш усуллари тегишли ҳисоб сиёсати тасдиқланган йилдан кейинги йилнинг 1 январидан эътиборан қўлланилади»²².

Бухгалтерия ҳисоби усулларига икки ёқлама ёзув орқали бухгалтерия сўтларидан фойдаланиш, операцияларни ҳужжатларда расмийлаштириш, маҳсулот таннархини калькуляция қилиш, активлар қийматини баҳолаш, инвентаризация ўтказиш, ҳужжатлар айланмасини ташкил этиш, бухгалтерия ҳисоби регистрлари тизими ва маълумотларни қайта ишлаш ва бошқалар киради.

И.ф.н., доцент Ф.Т.Абдувахидовнинг кичик тадбиркорлик субъектларида ҳисоб сиёсатини такомиллаштиришга оид тадқиқотлар олиб бориб, ҳисоб сиёсатига қуйидагича таърифни бериб ўтган “ҳисоб сиёсати – хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобини тартибга солувчи қонуний ва меъёрий ҳужжатларда рухсат этилган усуллардан танлаб олинган ҳамда муқобил усуллар кўзда тутилмаган ёки мутлақо мавжуд бўлмаган ҳолларда эса, профессионал мулоҳазага асосланган ҳолда қонунчиликка зид бўлмаган усулларни ишлаб чиқиш тушунилади”²³.

Д.Луговский ва М.Кутер таъкидлашича, ҳисоб сиёсати хўжалик юритувчи субъектлар томонидан тузилиши мажбурий бўлган ҳужжат бўлиб, унга амал қилиш молиявий ҳисоботларнинг ишончилигига сезиларли даражада таъсир қилади²⁴.

Б.Эллиот ва Ж.Эллиот фикрича, “ҳисоб сиёсатидаги ўзгаришлар миқдори корхонанинг фаолият доирасига ва молиявий йил давомида содир бўлган ҳодисаларга боғлиқ бўлади”²⁵.

²⁰ IAS 8 Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors. www.ifrs.org

²¹ «Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот» номли 1-сон БҲМС

²² Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. <https://lex.uz/docs/4674902>

²³ Абдувахидов Ф.Т. Кичик тадбиркорлик субъектларида ҳисоб сиёсатини шакллантириш: 08.00.08: и.ф.н... дисс. автореферати/ Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси. – Т., 2005. –22 б.

²⁴ Denis Lugovsky, Mikhail Kuter. Accounting Policies, Accounting Estimates and Its Role in the Preparation of Fair Financial Statements in Digital Economy. Integrated Science in Digital Age (pp.165-176). DOI:[10.1007/978-3-030-22493-6_15](https://doi.org/10.1007/978-3-030-22493-6_15)

²⁵ Barry Elliott, Jamie Elliott. Financial accounting and reporting. Manual. 13th Edition. © Pearson Education Limited. 2009. Page 961.

Юқорида таъкидлаб ўтилган фикрлардан кўриниб турибдики, тадқиқотларда асосан ҳисоб сиёсатининг моҳиятига эътибор қаратилган. Бироқ ҳисоб сиёсати таркибий тузилиши масалаларига етарлича эътибор қаратилмаган.

Ҳисоб сиёсати молиявий, солиқ ва бошқарув ҳисоби жиҳатларини ўз ичига олиши мумкин. Таъкидлаш жоизки, ҳар қандай субъект томонидан тузиладиган ҳисоб сиёсати мамлакатнинг амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари талабларига асосланиши лозим. Солиқ ҳисоби мақсадлари учун ҳисоб сиёсати солиқ базасини ҳисоблашнинг мумкин бўлган вариантларини танлаш нуқтаи назаридан солиқ қонунчилиги томонидан берилган ҳуқуқларни акс эттиради.

Tadbirkorlik faoliyatidan qilinadigan xarajatlarni rejalashtirish va ishlatish ma'lum me'yorlar asosida amalga oshirilishi lozim. Jumladan: respublika xududida safar xizmatlari xarajatlarini qoplash me'yori; vakillik xarajatlari me'yori, reklama xarajatlari, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, avtomobil transportida yonilg'i moylovchi materiallar xarajatlari me'yori va boshqalar.

Tadbirkorlik faoliyatining faqat bitta turi mavjud bo'lgan OTMlarida (masalan, pulli ta'lim xizmati ko'rsatish) barcha xarajatlar bevosita hisoblanadi.

Bir nechta kalkulyatsiya ob'ektlari mavjud bo'lgan sharoitlarda bilvosita xarajatlar oldindan "Taqsimlanadigan xarajatlar" subschotida hisobga olinadi.

Xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etishda ma'lum belgilar bo'yicha iqtisodiy asoslangan tasnifni qo'llay olish zarur. Ular ichida eng asosiylari: xarajatlar tarkibi va iqtisodiy mazmuni, xarajatlarning mahsulot tayyorlash jarayonidagi o'rni va vazifasi, mahsulot tannarxiga kiritilishi usuli, ishlab chiqarish hajmiga nisbati va boshqalar. Shu munosabatda oliy o'quv yurtida ta'lim xarajatlarini tasniflash muammosini batafsil tahlil qilish va uning amaliy rivojlanishi yo'nalishlarini belgilash zarur.

Ta'lim xizmatlari tannarxini shakllantiruvchi muhim xarajatlar guruhini taklif etamiz. Ushbu tasnif 1-jadvalda keltirilgan.

Budget muassasasi xarajatlari hisobini iqtisodiy unsurlar va kalkulyatsiya moddolari bo'yicha (tarmoq hususiyatlaridan kelib chiqqan holda), tannarxga kiritilishi usuli bo'yicha (bevosita va yuklama), texnik-iqtisodiy omillar bilan aloqasi bo'yicha (shartli-doimiy va shartli-o'zgaruvchan (ustama)), me'yorlashtirish, limitlash va boshqa maqsadlarda tashkil etadi.

Xizmat hajmi birligining tannarxini kalkulyatsiyalash usuli va kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida ustama xarajatlarni taqsimlash bazasini tanlash muassasa tomonidan

mustaqil ravishda yoki ta'rischining funktsiya va vakolatlarini amalga oshiruvchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Muassasaning hisobot davri ichida amalga oshirilgan umumiy xo'jalik xarajatlari muassasa tomonidan tasdiqlangan hisob siyosatiga binoan ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga taqsimlanadi, taqsimlanmaydigan xarajatlar qismida esa, joriy moliyaviy yil xarajatlari o'sishiga taqsimlanadi.

1-jadval

Oliy o'quv yurtlari ta'lim xizmatlarining xarajatlari tasnifi³⁶

Tasnif belgilari	Xarajatlar bo'linmalari
Iqtisodiy unsurlar bo'yicha	Xarajatlarning iqtisodiy elementlari
Tannarx moddalari bo'yicha	Tannarx kalkulyatsiyasi moddalari
Xo'jalik jarayoni subyektlari bo'yicha	Mas'uliyat markazlari va paydo bo'lish joylari bo'yicha xarajatlar
Xarajatlarni kiritish ob'ektlari bo'yicha	Xarajatlarning kalkulyatsiya ob'ektlari
Texnik-iqtisodiy vazifasi bo'yicha	Asosiy va ustama xarajatlar
Hisob obyektlari xarajatlariga kiritish usuli bo'yicha	Bevosita va bilvosita-taqsimlanadigan xarajatlar
Iqtisodiy umumiylik (bir turda bo'lish)darajasi bo'yicha	Bir unsurli va kompleks xarajatlar
Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi darajasi bo'yicha	O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar
Paydo bo'lish sohasiga nisbati bo'yicha	Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari
Tannarxga kiritish usuliga bog'liqligi bo'yicha	Ma'lum davr xarajatlari va mahsulot birligining xarajatlari
Xarajatlash maqsadga muvofiqligi bo'yicha	Ishlab chiqariluvchi va ishlab chiqarilmaydigan

Budjet muassasasi tomonidan xizmatlarni ilgari surish jarayonida amalga oshirilgan xarajatlar summasi aylanma ortiqcha xarajatlariga kiritiladi. Xizmat ko'rsatish xarajatlari sintetik schot guruhining analitik kodiga ega bo'lgan schotda hisobga olinadi.

Budjet muassasasi ishining qay darajada ishonchli va aniq bo'lishi ta'lim xizmati yoki yo'nalishining hisoblab chiqilgan tannarxi hajmiga bog'liq bo'ladi, tannarx esa o'z navbatida bilvosita xarajatlar taqsimlanishining ma'lum bir usuli qo'llanilishining natijasiga aylanadi. Ta'lim xizmatining tannarxini hisoblab chiqish uchun bilvosita xarajatlar taqsimlanishi bazasini hisoblab chiqishning mavjud usulini ko'rib chiqish lozim. Ushbu usullarni qo'llab bitta talabani o'qitishning bitta shakli, mutahassislik yoki bitta kursning ta'lim xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilishni taklif etamiz.

Umuman olganda, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi aloqa to'g'ri aniqlanmasa yoki bilvosita yo'l bilan aniqlansa, daromadlar va xarajatlar soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda, daromadlar va xarajatlar teng o'lchamli tan olinishi tamoyili hisobga olingan holda taqsimlanadi.

Teng o'lchamlilik tamoyili ta'lim muassasasining mablag'larini ma'lum yo'qotishlarsiz sarflashga imkon bera olmaydi, masalan, ta'lim jarayonini rivojlantirishga bir vaqtning o'zida sarflanishi zarur bo'lgan moliyaviy qo'yilmalar zaruriyati paydo bo'lganda (masalan, kompyuter sinflarini sotib olish, qozonxonalarni

³⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

qayta jihozlantirish, ichki kichik stansiyalarda transformator jihozlarni almashtirish va boshqalar) to'planishi kerak bo'lgan katta mablag'lar summasi talab etiladi.

Daromadlar hisoblashning teng o'lchamli tamoyili aynan shunday bo'lishi kerak va yetishmayotgan summa to'planadi. Biroq to'plash jarayonida joriy davrda daromadlar va xarajatlar o'rtasida farq yuzaga keladi va uning natijasida foyda solig'i paydo bo'ladi va buning natijasida to'plangan summaning ma'lum qismi darhol yo'qolib qoladi. Bu kabi yo'qotishlarga yuz tutmaslik uchun daromadlar va xarajatlar smetasini shakllantirish usulini o'zgartirish zarur.

Ayni daromadlar va xarajatlarni hisoblab yozish tamoyili aniq shakllantirilgan smeta mavjud bo'lishi kerakligini taqozo etadi va unga nisbatan tegishli hisoblash amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hisobga olgan holda quyidagi harakatlar variantini taklif etamiz:

1. Budjetdan tashqari faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish zarur.

2. Daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish markazi tuzilishi kerak. (bo'lim, boshqarma, rejalashtirish guruhi).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2020 y., 10/20/2169-5/1123-son "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Yo'riqnoma, 306-band.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. "Xalq so'zi" 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)-soni.

"Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. 1999 yil 5 fevral № 54. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 2015 y., 9-son, 100-modda; 2016 y., 17-son, 176-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2020 y., 09/20/217/0426-son.

Mexmonov S.U. Budjet hisobi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. - 352 b.

BUDJET MUASSASALARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJASI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

B. T. Yuldashev

iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD)

Budjet muassasalarining tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasi hisobi bo'yicha yozuvlar tizimini daromadlar va xarajatlar qismida qayta ko'rib chiqish zarur. Moliyaviy natija "To'langan daromadlar" subschotining krediti bo'yicha ularga mos bo'lgan "To'langan xarajatlar" subschotining debetida shakllantirilgan to'lov qilingan xarajatlar taqqoslanishi orqali shakllanadi. Bunda xarajatlar summasi tegishli subschotlarning kreditidan daromadlar hisobi bo'yicha subschotlar debetiga o'tkaziladi.

Budjet muassasalarining tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasini "Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha smeta ijro etilishi natijasi" subschotida shakllantirishni taklif etamiz:

1-jadval yordamida hozirda mavjud bo‘lgan moliyaviy natijani shakllantirish tartibi va taklif etilayotgan tartibni solishtirish mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu tartib bajariladigan amallarni osonlashtiradi.

Foydani hisoblab chiqarish uchun biz o‘ziga hos ravishda operatsion yondoshuvni taklif etamiz. Bu yondoshuvga binoan foyda o‘zi paydo bo‘lishining manbalari tuzilmasida taqdim etiladi:

- pulli faoliyatdan olingan foyda;
- boshqa muomalalardan olingan foyda (sotishdan tashqari).

Bunday yondoshuvning yutuqli jihati foyda ko‘p maqsadlar jihatidan baholanishi mumkinligidir.

1-jadval

Moliyaviy natijani shakllantirishda subschotlar korrespondensiyasi[1]

Schot raqami	Mavjud tartib	Taklif etilayotgan tartib	Summa
	Subschotning nomi		
260	“Foyda (lar), zarar (lar)” subschotining krediti, subschotlarning debeti	“Tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha smeta ijro etilishining natijasi” subschotining krediti, subschotlarning debeti	
116	“Tadbirkorlik faoliyatidan olingan mablag‘lar”	To‘langan daromadlar”	Olingan daromadlarning sotilgan mahsulot, ishlar va xizmatlar, sotilmagan operatsiyalar bo‘yicha xarajatlardan ortib ketgan summasiga
115	“Chet el valyutasidagi mablag‘lar”		
120	“Kassa”		
262	“Hisobot davri daromadlari”		
263	“Kelgusi davrlar daromadlari”		
261,5	“Moddiy-texnik bazani saqlash (ta‘minlash) va rivojlantirish mablag‘lari”	“Muassasani rivojlantirish mablag‘lari”	Hisobot davrida qoplangan zarar summasiga
262	“Hisobot davri daromadlari”	“To‘langan daromadlar”	Olingan daromadlarning xarajatlardan ortib ketgan summasiga
160	“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar”		Hisoblangan soliqlar summasiga
178	“Moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy to‘lovlar mablag‘lari”		Foydadan shakllantirilgan moddiy rag‘batlantirish, ijtimoiy to‘lovlar mablag‘lari va moddiy-texnik bazani saqlash va rivojlantirish mablag‘lari smmasiga
261,5	“Moddiy-texnik bazani saqlash(ta‘minlash) va rivojlantirish mablag‘lari”		

Muassasaning sof foydasi budjetdan tashqari manbalar balansida qolmasligi kerak, foyda hisobida qilingan xarajatlarni farqlovchi belgi ostida aks ettirish, ya‘ni budjet manbalari bo‘yicha balansga kiritish lozim. Hozirgi vaqtda foydadan shakllantirilgan mablag‘lar budjetdan tashqari manbalar balansida qolib ketmoqda. Kuzatilayotgan

budjetdan tashqari mablag‘lar ustidan nazoratni kuchaytirish va muassasaning barcha mablag‘larini umumlashtirish tendensiyasini hisobga olgan holda tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda hisobidan qilingan xarajatlarni aks ettirishning biz tomonimizdan taklif etilgan varianti balansni farqlovchi belgilarsiz tuzishga o‘tishning oraliq bosqichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, tadbirkorlik faoliyatidan olingan foydani muassasaning budjet faoliyatiga qayta investitsiyalash zarur va uni budjet moliyalashtirilishining qo‘shimcha manbasi sifatida tushunish va shu sifatda ko‘rib chiqish mumkin.

Qayta investitsiyalangan summa budjet mablag‘lari balansida aks ettirilishi zarur. Buning uchun quyidagi amallar taklif etiladi:

1. Qayta investitsiyalanayotgan summa hajmidagi pul mablag‘larini budjetdan tashqari mablag‘lar shahsiy raqamidan budjet tomonidan qo‘shimcha moliyalashtirish shahsiy raqamiga o‘tkazish va bu amalni tegishli buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettirish.

2. “Muassasani rivojlantirish mablag‘lari” subschoti bo‘yicha saldoni qayta investitsiyalanayotgan summa hajmiga kichraytirish (ozaytirish) va shu amal bilan bir vaqtda buxgalteriya hisobining registrlarida qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari hajmini huddi shu hajmga ko‘paytirish. (2-jadval).

2-jadval

Foydani qayta investitsiyalash bo‘yicha taklif etilayotgan operatsiyalarni aks ettirishda subschotlar korrespondensiyasi³⁷[2]

Schot raqami	Subschotning nomlanishi	Farqlovchi belgi (1 – budjet / 2 – budjetdan tashqari)
Dt 233 Kt 116	“Budjetdan qo‘shimcha moliyalashtirish mablag‘lari” “Tadbirkorlik faoliyatidan olingan mablag‘lar”	1 2
Dt 261,5 Kt 117	“Muassasani rivojlantirish mablag‘lari” “Qo‘shimcha moliyalashtirish bo‘yicha hisob-kitoblar”	2 1

Ushbu muomala tadbirkorlik mablag‘lari turidan budjet mablag‘lari turiga o‘tkazishga imkon yaratadi, ya’ni tadbirkorlik faoliyatidan budjet faoliyatiga mablag‘larni qayta investitsiyalashga imkon yaratadi.

“Qayta investitsiyalash” tushunchasi budjet muassasalari tomonidan tadbirkorlik faoliyati yuritilishida ayrim turdagi muassasalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mahsus qonunlarda ko‘zga tashlanadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlarning barchasini to‘g‘ri bajarish uchun buxgalter o‘z faoliyatida hozirgi kunda talab etilayotgan “Hisob shaffofligi”ni ta’minlash uchun hisobning barcha turlarini bilish bilan bir qatorda iqtisodiy fanlar: rejalashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, me’yorlashtirish va kalkulyatsiyalash kabilarni ham yaxshi bilishi, bir so‘z bilan aytganda buxgalter-menejer bo‘lishi kerak.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobini yuritishda tashkilotning faoliyat turiga ko‘ra o‘ziga xosliklar mavjud. Ya’ni, hisob yuritish,

³⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

mablag‘lar kirimi, birlamchi hujjatlar tarkibi, xarajat yo‘nalishlari har bir soha tashkilotlari uchun individual hususiyatlarga ega. Budjetdan tashqari jamg‘arma mablag‘lari tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasida nazarda tutilgan maqsadlar uchun moliyalashtiriladi. Bunda, ortiqcha va maqsadsiz xarajatlarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun oliy ta‘lim muassasasi rahbarini moddiy rag‘batlantirish va Oliy ta‘lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hisobga olinishi lozim.

Bunda, amaliyotda mavjud muammoli masala shuki, ish joyida ovqatlanlik uchun xodimlardan tushadigan to‘lovlarni hisoblab chiqish bo‘yicha aniq metodika mavjud emas. Shu sababli ushbu turdagi tushumga ega bo‘lgan tashkilotlarda “xodimlar ovqat puli” turlicha tartibda hisoblanib kelinmoqda. 110-subshot mablag‘larining xarajati esa mos ravishda ushbu subshotning krediti va tegishli xarajat subshotlarining debetida qayd etiladi. Ish joyida ovqatlanlik uchun xodimlardan tushadigan to‘lovlar hisobini alohida yuritish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (3-sonli BHS) 85-bandiga muvofiq budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobot shakllari asosan yil boshiga budjetdan tashqari mablag‘lar qoldig‘i, yil (chorak) davomidagi budjetdan tashqari mablag‘lar xarakati, ya‘ni, tushumlar va xarajatlar hamda yil (chorak) yakuniga budjetdan tashqari mablag‘lar qoldig‘i ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim. Hisobot shakllarida yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar kengaytirilgan tarzda, turma-tur aks ettiriladi. Bunda asosiy e‘tibor budjetdan tashqari mablag‘lar xarakatiga qaratilishi lozim. Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlar ularning har bir turi bo‘yicha alohida satrlarda ko‘rsatilishi kerak. Xarajatlar esa, jamlanma hisobotdan tashqari qo‘shimcha shaklda ularning yoyilmasi bilan aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bilvosita xarajatlarning umumiy summasi (“Taqsimlanadigan xarajatlar” subshotining debet aylanmasi) hisoblab chiqilgan koeffitsientga proporsional tarzda taqsimlanadi va “Taqsimlanadigan xarajatlar” subshotning kreditidan 090-“Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar” subshotning (yoki boshqa tegishli subshotlarning) debetiga hisobdan chiqariladi. Shunday qilib, budjetdan tashqari mablag‘lar topish uchun tegishli xarajatlar schotlari taklif etildi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan foydani muassasaning budjet faoliyatiga qayta investitsiyalash zarur va uni budjet moliyalashtirilishining qo‘shimcha manbasi sifatida tushunish va shu sifatda ko‘rib chiqish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda hisobidan qilingan xarajatlarni aks ettirishning biz tomonimizdan taklif etilgan varianti balansni farqlovchi belgilersiz tuzishga o‘tishning oraliq bosqichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 1-modda, 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, O‘RQ-404-son. “Xalq so‘zi” 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)-soni.

“Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. 1999 yil 5 fevral

№ 54. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 2015 y., 9-son, 100-modda; 2016 y., 17-son, 176-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2020 y., 09/20/217/0426-son.

Mexmonov S.U. Budjet hisobi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. - 352 b.

ANALYZING THE PROSPECTS OF ALIGNING BLOCKCHAIN TECHNOLOGY WITH INTERNATIONAL ACCOUNTING STANDARDS IN UZBEKISTAN

SH.N.Akhunova

PhD in Economics, FerPI

F.R.Askarov

Master in Economics, FerPI, ACCA student

Research and Methodology:

1) *The analysis and synthesis method* is used to examine the employment rate, skills, qualifications, and utilization of internet and software in the field of accounting and auditing in Uzbekistan.

2) *Scientific abstraction, induction, and deduction* are utilized in research to compare similarities between different countries and analyze research outcomes from scientists.

3) *The abstract-logical approach* is utilized to theoretically generalize the research findings and formulate conclusions.

4) *Mathematical and statistical processing of research results* involves analyzing the collected data using various techniques such as ranking, scaling, registration, systematization, differentiation, grouping, and graphical representation to assess the prerequisites of blockchain implementation in accounting and auditing within Uzbekistan's digital economy era.

According to the results of January-April of the current year (2023), the volume of market services provided in the field of law and accounting amounted to 398.8 billion Uzbekistani soms, compared to the corresponding period in 2022, with a growth rate of 133.2%.

The majority of services provided in this field are concentrated in the city of Tashkent, which accounts for 79.2% or 315.7 billion soms of the total volume of these services.[1] Assuming that Uzbekistan has been witnessing a gradual increase in internet coverage and a rise in the number of IT specialists, albeit at a moderate pace, this signifies a noteworthy upward trend. Such progress is a significant milestone for the adoption of blockchain technology, as it indicates the country's steady efforts in expanding internet accessibility and cultivating a skilled IT workforce to support the implementation and utilization of blockchain solutions in financial sector. [2]

In the digital economy, accountants are required to have a strong familiarity with both hardware and software technologies. The adoption of blockchain, where ledger records are cryptographically secured across multiple nodes, significantly reduces the risk of hacking.[3] As a result, auditors may find fewer opportunities for traditional

sample checking, allowing them to allocate more time towards software analysis and verification. This shift in focus enables auditors to delve deeper into the intricacies of software systems, ensuring their reliability and compliance with established standards. So, blockchain has become an integral part of the syllabus offered by professional accounting bodies, as well as exam and learning providers. [4]

In accordance with the latest laws and regulations of the Uzbekistan government, the country is preparing to implement International Financial Reporting Standards (IFRS). [5] However, a straightforward implementation of IFRS without government intervention to prevent market failures through subsidies, such as covering tuition and exam fees, could potentially lead to frictional unemployment. On the other hand, the implementation of blockchain technologies in this field can have positive effects, such as reducing the shadow market. However, it should be noted that the rapid adoption of blockchain technology in this context would require significant financial investments. However, it should be noted that the implementation of blockchain would lead to a significant decrease in overall payments to third parties, such as transaction fees. Additionally, several articles and research studies suggest that the implementation of blockchain in accounting would bring about increased transparency for all stakeholders in a business. Furthermore, it could potentially reduce the need for extensive auditing processes. [6]

It should be noted that traditional bookkeeping, accounting, and auditing practices differ from those prescribed by International Financial Reporting Standards (IFRS) and International Accounting Standards (IAS). The current approach to financial reporting primarily caters to government entities, such as tax authorities, which can lead to the concealment of taxable incomes. However, IFRS and IAS prioritize different objectives, focusing on presenting financial information for various stakeholders, including shareholders and the general public. These standards aim to showcase the profitability of a business to potential shareholders, particularly in the context of initial public offerings (IPOs) or secondary public offerings (SPOs), thereby increasing the company's liquidity. While tax authorities are also taken into consideration, the specific circumstances and requirements may vary from situation to situation.

The readiness of Uzbekistan, in terms of its current professionals and mentality, to adopt not only IFRS, IAS, and auditing standards with blockchain technologies and reduce the shadow market, is a complex matter. It is important to consider that such transitions require a comprehensive approach and may need to be implemented gradually. Even in developed countries, the existence of a shadow market can pose challenges.[7] Uzbekistan would need to assess its existing infrastructure, regulatory framework, and level of professional preparedness to effectively adopt these changes.

Conclusion: In conclusion, the following steps can be considered for Uzbekistan's transition towards adopting IFRS, IAS, and blockchain technologies in accounting:

- The government should focus on training and developing more professionals in the field of accounting, providing scholarships and educational opportunities to enhance their skills.

➤ The implementation of blockchain should be done gradually, accompanied by comprehensive training programs and infrastructure improvements to ensure a smooth transition.

➤ Increasing awareness among stakeholders about the benefits of transparency in the modern digital economy is essential. This can be achieved through educational initiatives and communication strategies to foster understanding and support for the forthcoming changes.

By following these steps, Uzbekistan can make significant progress in aligning its accounting practices with international standards, leveraging blockchain technologies, and promoting transparency in its digital economy.

References:

<https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/40227-huquqshu2noslar-va-hisobchilar-xizmatiga-bo-lgan-talab-sezilarli-darajada-oshgan-3>

Akhunova, S. N., & Askarov, F. R. (2023). *THE PROSPECTS FOR UZBEKISTAN'S ECONOMIC PERFORMANCE IN THE DIGITAL ERA. Interpretation and researches*, 1(16).

Faccia, A., & Mosteanu, N. R. (2019). *Accounting and blockchain technology: from double-entry to triple-entry. The Business & Management Review*, 10(2), 108-116.

<https://www.accaglobal.com/gb/en/student/exam-support-resources/professional-exams-study-resources/strategic-business-leader/technical-articles/blockchain.html>

The decree (PQ) # 4611, of the President of the Republic of Uzbekistan, dated 24.02.2020.

Pascual Pedreño, E., Gelashvili, V., & Pascual Nebreda, L. (2021). *Blockchain and its application to accounting. Intangible Capital*, 17(1), 1-16.

Schneider, F. (2016). *Estimating the size of the shadow economies of highly-developed countries: Selected new results. CESifo DICE Report*, 14(4), 44-53.

QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI

E. T. Tulovov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy tahlil va audit” kafedrası
katta o‘qituvchisi*

Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat xususiyatlari ularda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil etishga bevosita bog‘liq. Qurilish tarmog‘ida ham faoliyatni tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, mazkur holat qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ishlari tashkil etishda o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Qurilish-pudrat tashkilotlari ish jarayonlarida smeta hujjatlari muhim o‘rin tutadi. Deyarli barcha qurilish obyektlarida smeta hujjatlaridan keng foydalaniladi.


Qurilish-pudrat tashkilotlarida ishlab chiqarish jarayoni murakkab. Bu yerda asosiy ishlab chiqarishdan tashqari yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xo‘jaliklari ham mavjud. Odatda, yordamchi ishlab chiqarish asosiy ishlab chiqarishning normal davom etishiga xizmat qiladi. Yordamchi ishlab chiqarishda muhim o‘rinni transport vositalari egallaydi. Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar ham turli xizmatlar

ko'rsatishi mumkin. Qurilish-pudrat tashkilotlarida mazkur turdagi xizmatlarga quruvchilarni ovqatlantirish xizmatlari kiradi.

O'zbekistonda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishga doir amaliy choralar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6119-sonli farmonida «shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, qurilish tarmog'i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish»³⁸ vazifasi belgilab berilgan. Bu esa qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini sohasiga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zero, qurilish-pudrat tashkilotlarida resurslardan oqilona foydalanish orqali faoliyat samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish davr talabidir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qurilish ishlari hajmi keskin oshib bormoqda va 1-rasmda qurilish ishlarining YaIMdagi ulushining o'zgarishi keltirilgan.

1-rasmdagi ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda qurilish ishlarining YaIMdagi ulushi oshib bormoqda. Xususan, 2017-yilda qurilish tarmog'ining YaIMdagi ulushi 5,7 %, 2021-yilda 6,7 %ni tashkil etgan.



1-rasm. Qurilish ishlarining YaIMdagi ulushining o'zgarishi³⁹

Qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishida buxgalteriya xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi biznes-jarayonlarni aks ettirib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini ifodalaydi va axborot ta'minoti orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

A.A. Karimov, F.R. Islomov va A.Z. Avlokulov tomonidan nashr etilgan darslikda buxgalteriya hisobi quyidagicha talqin etilgan: “Buxgalteriya hisobi – bu kundalik va

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi».

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

umumiy ma'lumotlar olish maqsadida korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat"⁴⁰.

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar fikriga ko'ra, "buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi to'liq va ishonarli axborotlarni shakllantirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarni u bilan ta'minlash, shuningdek, boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun axborotlardan samarali foydalanishdir"⁴¹.

K.B. O'razov va M.E. Po'latov tomonidan buxgalteriya hisobiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Buxgalteriya hisobi – bu iqtisodiyotning quyi bo'g'inini tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati, faoliyat natijalari, ularning mablag'lari (mulki, aktivlari), mablag'larning tashkil topish manbalari to'g'risidagi axborotlarni, asosan, pul o'lchov birligida qat'iy hujjatli asosda yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash hamda ularni ichki va tashqi foydalanuvchilar hukmiga tegishli shakl va mazmunda taqdim etish tizimidir"⁴².

AQSHlik iqtisodchi olim K.Jonikning fikricha, "buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini tahlil qilish, tasniflash, qayd etish, umumlashtirish va sharhlash jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi"⁴³.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati tovar-moddiy zaxiralardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlarni bartaraf etish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, foyda miqdorini oshirish va mahsulot tannaxini kamaytirishdan manfaatdordir. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Boshqaruv jarayonining bir qismi sifatida u quyidagilarga imkon beruvchi muhim ma'lumotlarni taqdim etadi (2-rasm).

Buxgalteriya xizmati xodimlari moliyaviy holatni aniqlash uchun buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi xususida chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Moliyaviy holatni dastlabki baholashda buxgalteriya balansi ma'lumotlariga tayaniladi.

Iqtisodiyotning globallashuvi va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish muhim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida jahon tajribasidan foydalanish shaffof va ishonchli axborotni shakllantirish imkonini beradi. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda to'plangan moliyaviy hisobotni tuzish tajribasini o'rganish lozim.

Boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi muhim rol o'ynaydi. Korxonah rahbariyati biznes jarayonlari va moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi haqiqiy xarajatlar, mahsulot tannaxi, foyda va boshqalar haqida xolis va to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Buxgalteriya hisobi korxonada bunday ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-sonli qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini keng qo'llash uchun huquqiy asos bo'ldi.

⁴⁰ Karimov A.A., Islomov F.R., Avlokulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Sharq" NMAK, 2004. – 592-b.


⁴¹ Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – 403-b.

⁴² O'razov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 558-b.

⁴³ Christine Jonick. Principles of Financial Accounting. Textbook. University of North Georgia Press. ISBN: 978-1-940771-15-1. United States of America, 2017. R 308.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda: u xalqaro standartlar talablariga javob berishi, axborotdan ichki va tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi, ish faoliyatini yaxshilash uchun zaxiralarni aniqlashi kerak. Buxgalteriya hisobini tashkil etishda, xususan, mamlakatimizda buxgalteriya hisobining jahon iqtisodiy amaliyoti bilan yaqinlashishi borasida tub o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish mexanizmlari takomillashmoqda.

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish yo‘nalishlari



2-rasm. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish yo‘nalishlari⁴⁴

Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi korxonada faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish hisoblanib, u ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan hisobotlarni tuzishga xizmat qiladi. Shuning uchun buxgalteriya hisobini, birinchi navbatda, axborot ta’minoti nuqtayi nazaridan takomillashtirish juda muhimdir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligi va moliyaviy hisobotda aks etgan axborotlar ishonchliligini oshirishdir.

⁴⁴ Muallif ishlanmasi.


РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР ҲИСОБИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ш.А.Алиев

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети
катта ўқитувчиси*

Товарлар, ишлар ва хизматлар ишлаб чиқариш эволюцияси жараёнида қўл меҳнати ундан фойдаланиш иқтисодий жиҳатдан фойдалироқ бўлган автоматлаштирилган ишлаб чиқариш билан алмаштирилди. Қўл меҳнатига бўлган эҳтиёжнинг пасайиш тенденцияси ишлаб чиқариш жараёнида асосий воситаларнинг ролини оширишга олиб келди. Ушбу жараённи уларнинг ўсиши ва яхшиланиши маҳсулот сифати ва рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим шарти, шунингдек ҳар қандай хўжалик юритувчи субъектнинг асосий мақсади – фойда олишнинг энг муҳим шарти бўлган асосий воситалар иштирокисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Дунёда ҳеч қандай абадий нарса йўқ ва бундан келиб чиқадики, асосий воситалар эскириш, бузилиш ва ишдан чиқиш хусусиятига эга. Ушбу турдаги эскириш жисмоний деб аталади. Юқори технологиялар даврида асосий воситаларнинг тез ўзгариши ва модернизацияси – маънавий эскириш ҳам мавжуд. Асосий воситаларни такомиллаштириш нафақат уларнинг ишлаб чиқариш ва технологик сифатларини яхшилаш, балки усқунанинг экологик тозалигини оширишдан иборат. Асосий воситаларни ишлаб чиқаришга яроқли ҳолатда сақлаш ва улардан фойдаланишнинг салбий оқибатларини камайтириш, биринчи навбатда, ушбу объектдан фойдали тарзда фойдаланиш муддатини аниқлашга боғлиқ.



1-расм. Асосий воситалар бухгалтерия ҳисоби самарадорлигини ошириш йўллари⁴⁵

⁴⁵ Муаллиф ишланмаси


Бухгалтерия балансида асосий воситалар бошланғич қиймати бўйича акс этирилади. Бошланғич қиймат асосий воситаларни сотиб олиш учун ҳақиқий харажатлар миқдори билан белгиланади, қайтариладиган солиқлар ва бюджетдан йиғимлар бундан мустасно. Асосий воситаларнинг бутун фойдаланиш муддати давомида қиймати эскириш ҳисоблаш воситасида ҳисобдан чиқарилади.

Эскириш - бу асосий воситаларнинг аста-секин эскириши ва уларнинг қийматини ишлаб чиқарилган маҳсулотга ўтказилишидир. Асосий воситалар бухгалтерия ҳисобини юритиш самарадорлигини ошириш учун хўжалик юритувчи субъект ушбу ишларни ташкил этиш ва модернизация қилиш чораларини ишлаб чиқиши мумкин. Бухгалтернинг оқилона фаолияти кўплаб омилларга боғлиқ, шунинг учун тадбирларни ишлаб чиқиш кўплаб йўналишларда амалга оширилади. 1-расмда асосий воситаларни ҳисобга олиш жараёнини такомиллаштириш бўйича бир қатор йўналишлар келтирилган.

Халқаро амалиёт бўйича хўжалик юритувчи субъектлар эскириш ҳисоблашнинг энг мос усулини танлаш ҳуқуқига эга. Эскиришнинг қуйидаги усуллари мавжуд:

- чизиқли усул,
- камайиб борадиган қолдиқ усули,
- фойдали тарзда фойдаланиш йиллари сонининг йиғиндиси бўйича қийматни ҳисобдан чиқариш усули,
- ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажмига мутаносиб равишда қийматни ҳисобдан чиқариш усули.


Бугунги кунда аксарият хўжалик юритувчи субъектлар бухгалтерия ҳисобининг автоматлаштирилган усулларида фойдаланадилар. Асосий воситалар бухгалтерия ҳисобининг самарадорлиги дастурий таъминотни тўғри танлаш, унинг бутлиги ва конфигурациясига боғлиқ. Хўжалик юритувчи субъектда автоматлаштирилган ҳисобини такомиллаштиришга қуйида келтирилган расмдаги ҳаракат воситалари асосида эришиш мумкин (2-расм).



2-расм. Хўжалик юритувчи субъектда автоматлаштирилган ҳисобини такомиллаштириш йўналишлари⁴⁶

Бухгалтерия ҳисобини автоматлаштириш билан бир қаторда асосий воситаларни ҳисобга олиш самарадорлигини оширишнинг асосий мезони бухгалтерия хизматини ташкил этишнинг назорати ва сифатини ошириш ҳисобланади.

⁴⁶ Муаллиф томонидан тизимлаштирилган



3-расм. Ишлаб чиқариш жараёнида асосий воситалар объектларини такомиллаштириш жиҳатлари⁴⁷

Кўплаб хўжалик юритувчи субъектлар учун ишлаб чиқариш жараёни асосий фаолият ҳисобланади. Асосий воситалар ушбу жараёнда бевосита иштирок этганлиги сабабли, хўжалик юритувчи субъект фаолиятининг молиявий натижаси бевосита уларнинг ҳолатига боғлиқ. Ишлаб чиқариш жараёнида асосий воситалар объектларини такомиллаштириш учун хўжалик юритувчи субъект қуйидагилардан фойдаланиши мумкин бўлади. (3-расм)

Хулоса сифатида шуни алоҳида таъкидлаш керакки, бухгалтерия ҳисоби жараёнида асосий воситалар хўжалик юритувчи субъект фаолиятида муҳим роль ўйнайди. Шунинг учун меҳнат воситаларини ҳисобга олишга кенг ёндашиш ҳамда улардан тўғри ва оптимал фойдаланиш билан янада кўпроқ даромад келтирадиган самарали восита сифатида кўриб чиқиш лозим. Юқорида санаб ўтилганларнинг барчаси хўжалик юритувчи субъектга асосий воситалардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ва ишлаб чиқариш харажатларини қисқартириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- «Асосий воситалар» номли 16-сонли Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти.
 Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2010. – 895 с.;
 Шулепина С.А. Развитие налогового учета амортизации основных средств для сельскохозяйственных организаций / Остроухова Н.С.,
 Ўразов К.Б. Бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи наشريёти, 2004-й
www.mf.uz
www.lex.uz

⁴⁷ Муаллиф томонидан тизимлаштирилган

УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ КОРХОНАЛАРИДА БОШҚАРУВ ҲИСОБИ МОДЕЛИНИ ЯРАТИШ ОМИЛЛАРИ

Р.А.Маннапова

Тошкент молия институти катта ўқитувчиси

Бугунги глобал шароитда мамлакатимизда бошқарув ҳисобининг илмий мақоми ва мазмуни ривожланишда давом этар экан, бу уни юритишнинг янги шакллари ва релевант ахборот ҳосил қилиш воситаларининг пайдо бўлишига олиб келмоқда. Ушбу жиҳатларга янги иқтисодийнинг турли жараёнлари (номоддий активларнинг оммалашуви, қўшимча қиймат таркибининг ўзгариши, ижтимоий-иқтисодий тизимлар ривожланишининг беқарор хусусияти, беқарорлик, фонд ва товар бозорларининг реал секторга катта таъсири ва б.), бошқарув тизимлари эътиборининг ҳисоб юритишнинг қўшилган қийматни шакллантириш ҳамда молиявий, инсон, интеллектуал, ишлаб чиқариш, табиий ва ижтимоий капитални ўзгартириш ҳисобидан пул оқимларини ҳосил қилиш механизмини очиб беришга йўналтирилган янги объекти сифатида иқтисодий субъектнинг бизнес-моделига қаратилганлиги катта таъсир кўрсатмоқда.

Шу муносабат билан бошқарув ҳисоби тизимининг унинг воситаларини шакллантирувчи элементларини ва тегишли ахборотларни ҳосил қилишга нисбатан муайян ёндашувларни тавсифлаш муҳим вазифа ҳисобланади. Шунингдек, уларни муайян иқтисодий субъектнинг индивидуал ўзига хослиги омиллари сифатида белгилаш мумкин, башарти ушбу омилларнинг таъсири ҳар бир муайян иқтисодий субъект учун унинг ўзига хослиги ва бозордаги вазиятни имкон қадар ҳисобга олувчи бошқарув ҳисоби таҳлилий ҳаракатлари ва усулларининг адаптив-селектив тўпламини ишлаб чиқиш заруратини келтириб чиқаради.

Хўжалик юритувчи субъектларда, хусусан умумий овқатланиш корхоналарида бошқарув ҳисоби воситаларини қўллаш амалиётини ўрганиш, шунингдек, иқтисодий субъектларни бошқариш учун таҳлилий ахборотни ҳосил қилиш масалалари негизида иқтисодий жараёнларнинг амалий жиҳатларини кўриб чиқиш, иқтисодий фаолиятнинг турли соҳаларидаги корхоналарда бошқарув ҳисобининг тизимли моҳиятини ҳосил қилувчи унинг элементларининг хилма-хиллиги ҳақидаги тасаввурларни шакллантириш имконини берди.

Бизнинг назаримизда, қабул қилинаётган бошқарув қарорларининг самарадорлиги кўп жиҳатдан бухгалтер-таҳлилчи томонидан иқтисодий субъект фаолиятининг индивидуал хусусиятлари қай даражада ҳисобга олинганлиги билан белгиланади. Шу муносабат билан ҳисоб-таҳлилий ҳаракатларни ўтказишга нисбатан ягона ёндашувларнинг қўлланилиши ҳар доим ҳам ўринли бўлавермайди ва кўпинча нотўғри бошқарув қарорларининг қабул қилинишига олиб келади. Индивидуал ёндашув иқтисодий субъект фаолиятининг ўзига хослигини белгилаб берувчи омилларни имкон қадар тўлиқ ҳисобга олишдан иборат.

Аввало, шунини таъкидлаш лозимки, бошқарув ҳисоби методологияси кўп жиҳатдан корхона ҳаётининг циклининг босқичига боғлиқ бўлиб, ривожланишнинг

муайян босқичида компания стратегиясини амалга ошириш воситаларининг табақалаштирилган мажмуасидан фойдаланишни назарда тутади.

Баъзи тадқиқотларда харажатларни ҳаётий циклнинг босқичлари бўйича таснифлашга катта эътибор қаратилди⁴⁸. Бошқарув ҳисоби методологиясини шакллантириш нуқтаи назаридан ҳаётий цикл концепциясининг мазмун-моҳиятини очиқ бериш мақсадида бошқарув ҳисоби усулларини институционал-эволюцион ёндашув доирасида қўллашнинг асосий хусусиятлари кўриб чиқилади ва тавсифланади. Бу эса ишлаб чиқариладиган маҳсулот ҳаётий циклининг турли босқичларига нисбатан, шунингдек иқтисодий субъектнинг ўз ҳаётий циклининг турли босқичларида ҳисоб юритиш ва таҳлилий ишларнинг ўзига хослигини аниқлаш имконини берди.

Бунинг натижасида қуйидаги хулосаларни шакллантириш мумкин ҳисобланади:

1) ҳаётий цикл босқичлари иқтисодий субъект харажатларининг даражаси, таркиби ва тузилишига кучли таъсир кўрсатади, уларнинг динамикаси, мақсади ва самарадорлик даражасини аниқлайди, бошқарув ҳисоби методологияси эса бундай табақалашга мослашмаган;

2) ҳаётий циклнинг босқичи назорат ва таҳлил қилиниши бошқарув ҳисоби тизимида иқтисодий субъектни бошқариш самарадорлигини оширишга ёрдам берадиган стратегик зоналарни аниқлайди;

3) бошқарув ҳисоби тизимида ахборотни ўз вақтида тақдим этиш тамойили товар ҳаётий циклининг турли босқичларида қўллаш учун бошқарув ҳисобининг услуб ва усулларини чегаралаш зарурлигини белгилайди. Институционал-эволюцион назарияни ўрганиш бошқарув қарорларини қабул қилиш тартибларига таъсир этувчи ташқи муҳит омилларини аниқлаш, ташқи бозор-конъюнктура ва макроиқтисодий триггерларга жавоб бериш алгоритмларини ишлаб чиқиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан, ҳаётий цикл назарияси стратегик бошқарув ҳисоби тизимида энг катта даражада таъсир қилади;

4) ташкилотнинг ҳаёт цикли, одатда, молиявий цикл билан юқори даражада мувозанатлашган. Бундан келиб чиқадики, молиявий циклга таъсир кўрсатган ҳолда макродаражадаги иқтисодий тизимлар ривожланишининг барқарорлиги ва мутаносиблигини бошқариш мумкин, бу замонавий иқтисодий фанининг марказий муаммоларидан бири ҳисобланади. Иқтисодий субъект ҳаётий циклнинг турли босқичларида ташқи омиллар молиявий циклга турлича таъсир кўрсатади. Шу муносабат билан бошқарув ҳисоби тизими ташкилий хусусдаги ички зиддиятларни ҳам, иқтисодий субъектнинг бир босқичдан иккинчи босқичга ўтганида ташқи омиллар билан тўқнашув натижасида юзага келадиган зиддиятларни ҳам бартараф этишга ёрдам бериши керак.

5) стратегик бошқарув муаммоларини ҳал қилишда портфелли таҳлил усуллари кенг қўлланилди.

Барча ушбу моделлар хоҳ у фирма, маҳсулот ёки иқтисодиётнинг алоҳида сектори бўлсин, турли даражадаги тизимлар ривожланишининг бир неча

⁴⁸ Райан, Б. Стратегический учет для руководителя / Б. Райан. – Москва : Аудит ; ЮНИТИ, 1998. – 615 с.

параметрларини уйғунлаштиришга асосланган. Шу муносабат билан хўжалик юритишнинг турли даражаларидаги циклик жараёнларнинг турли комбинацияларида намоён бўладиган хусусиятлар морфологик таҳлил қилинди. Бунда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратилади ҳамда улар юзасида қарорлар қабул қилинади:

- депрессив иқтисодий муҳитда тадбиркорликни ривожлантириш;
- турғун иқтисодиётда тадбиркорликни таназулга учраши;
- ривожланаётган иқтисодиётда тадбиркорликни ривожланиш тенденциялари;
- ривожланаётган иқтисодиётда тадбиркорликни пасайиши.

Мазкур жиҳат турли даражадаги циклларнинг ўзаро боғлиқлиги туфайли муҳим аҳамиятга эга. Шундай қилиб, мамлакат иқтисодиётидаги турғунлик жараёнлари алоҳида иқтисодий субъектлар фаолиятининг пасайишига олиб келиши тайин. Микродаражадаги циклик ўзгаришлар макроиқтисодий таҳлили ва мониторингининг уйғунлаштирилиши иқтисодиётдаги инқироз ҳолатининг фирманинг молиявий ҳолатига салбий таъсирини камайтириш мақсадида олдини олиш механизмини ишлаб чиқиш имконини беради. Алоҳида бизнес бирликларининг банкротлиги кўпинча бошқарувнинг қониқарсиз сифати билан эмас, балки фирма ривожланиш суръатларининг макродаражадаги иқтисодий тизимнинг ривожланиш суръатларига мос келмаслиги билан боғлиқ.

Ўз навбатида, тизимнинг макродаражадаги иқтисодий ўсиш босқичида менежерлар аҳолининг истеъмолнинг ўсиши, кредит ставкаларининг арзонлашуви, инвестициявий фаолликнинг ошиши, технологиялар ва асбоб-ускуналар оммабоплигининг ошишига мойиллигидан имкон қадар фойдаланишлари керак.

Иқтисодий субъектнинг стратегик мақсади ҳар қандай ташқи шароитда етарли миқдордаги қўшилган қийматни ҳосил қилиш имконини берадиган бизнес моделини ишлаб чиқишдан иборат. Шу муносабат билан биз томонимиздан иқтисодий субъект ва умуман давлат (иқтисодиёт сектори) ҳаётий цикли босқичларининг турли комбинацияларидаги ҳисоб-таҳлилий тизимнинг хусусиятларини яратиш мақсадга мувофиқ деган хулосага келинди.

БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТИ РИВОЖЛАНИШИНING НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

А.Б.Исломов

ЖХУ мустақил изланувчиси

Бугунги кунда жаҳоннинг деярли барча давлатларида бизнесни ташкил этиш ва юритишда аутсорсинг хизматларидан фойдаланмаслик натижасида бозор рақобатига дош бера олмаслигини намоён этмоқда, шунга кўра компаниялар аутсорсингни ўз фаолиятларининг самарадорлигини ошириш воситаси сифатида эътироф этишмоқдалар.

Бинобарин, самарадорлик, тежамкорлик ва бизнес хавфини камайтириш масалалари компаниялар ва бизнес эгалари учун тобора муҳим аҳамият касб

этнода. Бугунги кунда аутсорсинг ҳақиқатан ҳам компаниялар ва бизнес эгаларининг харажатларини тартибга солишга ва ҳатто солиқ базасини қонуний камайтиришга имкон беради. Иқтисодийнинг давом этаётган тикланиши ва асосий саноат тармоқларининг ривожланиши илғор технологияларга бўлган талабни ва бутун мамлакатда аутсорсингни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаши мумкин. Шулардан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, аутсорсинг - бу шавқатсиз бозорда омон қолиш масаласи ва илғор технологияларга кириш масаласи, шунингдек, харажатларни камайтириш ва ташкилий тузилмани соддалаштириш усули ҳамдир.

Илмий адабиётларда ушбу турдаги фаолиятнинг хусусиятларини тавсифлашда олимлар ва амалиётчилар турли ҳил тушунчалар билан талқин этадилар, шунинг учун ушбу фаолият ҳақидаги фикрлар ҳанузгача мунозаралидир. Дарҳақиқат, шартномада назарда тутилган аутсорсернинг бухгалтерия ҳисоби ва бошқа бухгалтерия фаолиятини юритиш моҳиятан муҳимдир. Компаниялар томонидан тақдим этиладиган барча хизматларни аутсорсинг сифатида таснифлаш шарт эмас.

Қатор олимлар, жумладан С.Ефимова, Т.Пешкова, Н.Коник, С.Рытик, С.И.Клементс, М.Г.Лабаджян, Ю.Л.Фадеевларнинг таъкидлашларича, бизнес-жараёнларни аутсорсинг қилиш умумий фаолиятда у учун асосий бўлмаган компаниянинг ҳар қандай муайян жараёнларини бошқа компанияга ўтказишни назарда тутаяди. Ишлаб чиқарувчи компаниялар учун, биринчи навбатда, аутсорсингга қуйидагилар ўтказилиши мумкин:

- кадрлар ва бошқарув хизматлари;
- бухгалтерия хизмати;
- маркетинг хизмати;
- реклама хизмати;
- логистика

А.Н.Шеянованинг фикрига кўра, аутсорсинг - бу компания мустақил равишда амалга ошириши мумкин бўлган компаниянинг асосий бўлмаган фаолиятини узоқ вақтга ўтказиш. Шунга асосланиб, компания аутсорсингга мурожаат қилиб, аутсорсинг компанияси шахсида қонуний мустақил қўшимча бўлинма олади.

Аутсорсинг институтининг эксперт фикрига кўра, бизнес жараёнлари аутсорсинги ўзини аутсорсингнинг ҳайратланарли даражада тез ривожланаётган тури сифатида намоён этади, айниқса молия ва бухгалтерия ҳисоби соҳасидаги аутсорсинг энг катта ўсишни таъкидлайди. Шунини таъкидлаш керакки, бухгалтерия ҳисоби аутсорсинги компания томонидан классик аутсорсинг сифатида ҳам, компаниялараро аутсорсинг сифатида ҳам қўлланилиши мумкин.

В.Дворцева ва В.О.Труниналарнинг тадқиқот натижалари шунини кўрсатадики, ҳар қандай жараёнларни ташқи аутсорсинг тизимидан фойдаланишда компания оладиган афзалликлар қуйидагилардан иборат:

- ходимларнинг иш ҳақи харажатларини камайтириш ва фаолиятни таъминлаш;

- аутсорсер компаниянинг муайян фаолият турларига ихтисослашуви, янги технологиялардан фойдаланиши билан боғлиқ бизнес жараёнлари сифатини ошириш.

Корхоналарнинг товар айланмасидан, мулкчилик шаклидан ва ҳатто фаолият туридан қатъи назар, тадбиркорлик амалиётида битта бизнес жараёни мавжуд бўлиб, бухгалтерия ҳисобсиз фаолиятларини амалга оширишнинг иложи йўқ, бирламчи ҳужжатларни тўплаш ва бериш, кундалик ҳисоботларни тузиш, юқори назорат қилувчи органларга тақдим этиш учун ҳужжатлар тўпламини шакллантириш жараёнлари бўлиб, уларни амалга ошириш баъзан кўп ходимлар ва молиявий ресурсларни талаб қилади. Шунинг учун штат жадвалида бухгалтерия бўлимининг камида иккита тўлиқ ҳуқуқли бўлинмаси бўлиши керак. Шунга кўра, ўрта корхоналар учун бухгалтерия ходимларининг сони, қоида тариқасида, маъмурий-бошқарув аппаратининг иш ҳақи фонди каби анча юқори бўлиши мумкин. Шунинг учун кичик ва ўрта корхоналар учун бухгалтерия хизматлари энг яхши аутсорсинг компаниялари ходимларига ишониб топширилади.

В.В.Панков, Е.В.Севастьянова ва А.Н.Шеяновалар бухгалтерия ҳисоби аутсорсингини бир нечта турлар билан тавсифлайдилар:

1. Қисман аутсорсинг - аудиторлик фирмаси фақат бир нечта аниқ функцияларни ўз зиммасига олади, масалан, қонун ҳужжатларида юзага келиши мумкин бўлган ўзгаришларни даврий кўриб чиқиш, хўжалик муомалаларини, шу жумладан ностандарт муомалаларни ҳисобга олиш усулларини ишлаб чиқиш, шунингдек, оддий бухгалтерия муомалаларини юритиш.

2. Вақтинчалик аутсорсинг - компания солиқ ва бухгалтерия ҳисобини нолдан ўрнатиш ёки бухгалтерия ҳисобини тиклаш учун ташқи пудратчини ёллаш. Кўпинча, бош бухгалтер компаниядан кетганидан кейин (декрет таътиллари, ишдан бўшаш ва бошқалар) бухгалтерия бўлими ўзига юкланган вазифаларни бажара олмайди. Бироз вақт ўтгач, ҳужжатлар ва ҳисоботлар яроқсиз ҳолга келади.

3. Шартли аутсорсинг - бу ҳолат компаниянинг асосий тузилмасидан ажратилган ва махсус юридик шахс вакили бўлган бухгалтерия хизмати билан тавсифланади. Одатда, бухгалтерия ходимлари иш ҳақидан тўлиқ иш ҳақиға ўтказилади. Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, ходимлар қанча ишлаган бўлса, шунча олади. Ушбу амалиёт орқали мунтазам бухгалтерия ҳисобининг барча афзалликлари сақланиб қолади, лекин хизматлар сифати ва уларнинг нархи бир неча баробар ортади. Шартли аутсорсинг йирик холдинглар учун мос келади.

IAS 36 ga muvofiq, aktivning balans summasi uning tiklanadigan miqdoridan oshib ketgan barcha hollarda buzilish yo'qotilishi tan olinishi kerak. Qayta tiklanadigan miqdor-bu sof sotish narxi va ishlatilayotgan qiymatning eng yuqori qiymati. Sof sotish narxi-bu bilimdon, tayyor tomonlar o'rtasida umumiy shartlarda amalga oshiriladigan, to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish xarajatlaridan kam bo'lgan bitim tuzilganda aktivni sotishdan olinadigan summa.

Qayta baholash qiymati (IFRS 16 muqobil yondashuv) bir aktiv uchun buxgalteriya qachon, tasarruf etish xarajatlari ahamiyatsiz bo'lsa, IFRS 36 ostida aktivlarning buzilishi qo'llanilishi mumkin emas; tasarruf etish xarajatlari muhim bo'lsa, u IFRS 36 amal qilish zarur.

Shunday qilib, ehtiyotkorlik prinsipi qo'llaniladi, unga ko'ra tashkilot aktivlarning haqiqiy qiymatini oshirib yuborolmaydi.

Har bir balans sanasida kompaniya aktivlarning mumkin bo'lgan buzilishini ko'rsatadigan har qanday belgilar mavjudligini baholashi kerak. Agar bunday ko'rsatkich aniqlansa, kompaniya aktivning tiklanadigan miqdorini taxmin qilishi kerak.

Agar aktiv tashkilotda belgilangan muddat xizmat qilsa, odatda metallolom yoki aktivning o'zi sotilishi mumkin. O'zbekiston amaliyotida ushbu aktivni amortizatsiya qilishda aktivni sotishdan olinadigan qiymat hisobga olinmaydi.

IFRS 16 ga muvofiq aktivning amortizatsiya qilingan summasi (amortizatsiya bazasi yoki hisobdan chiqariladigan xarajat) aktivning tugatish qiymatini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Tugatish qiymati-bu tashkilot aktivni tasarruf etish muddati tugagandan so'ng uni sotishdan olish kutayotgan pul miqdori, uni tasarruf etish xarajatlari ayirilgan holdai.

Biroq, amalda, aktivning tugatish qiymati ko'pincha ahamiyatsiz va shuning uchun amortizatsiya qilingan summani hisoblashda ahamiyatsiz bo'ladi. Bu holat ko'pchilik sanoat tarmoqlari uchun xosdir, qoida tariqasida, yaroqlilik muddatini o'tagan asosiy vositalarni tasarruf etish xarajatlari tashkilot aktiv uchun olishni rejalashtirgan naqd pul miqdoriga teng yoki unga yaqin bo'lganligi sababli tugatish qiymati nolga yaqindir. Bunday holda, bizning fikrimcha, IFRS bo'yicha hisobot berish uchun tugatish qiymatini chegirmasdan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati bo'yicha amortizatsiyani to'lash tavsiya etish lozim. Bu fakt IFRS bo'yicha hisob siyosatida aks ettirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobini takomilashtirish masalalari. Scientific progress, 3(3), 837-846.

Кудбиев, Д. (2022). Особенности Учета Основных Средств В Узбекистане. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 142-149.

Kudbiyev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 107-112.

BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI TASHKIL QILISHDA XALQARO STANDARTLAR QOIDALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

M.B. Yusupova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

O‘zbekistonda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashishga, raqamli va innovasion iqtisodiyotni rivojlantirishga, investisiyaviy muhitni yaxshilashga, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunida «Xalqaro standartlar bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi»⁶³ deb qayd etilishi respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) qo‘llanilishiga huquqiy asos bo‘ldi. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi va obyektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investisiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Agrar soha korxonalarini ham samarali faoliyat yuritishlari uchun ularda hisob-kitob ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi hamda boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan o‘z vaqtida va to‘liq hisob-kitoblar amalga oshirilishi talab etiladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarini boshqarishda asosiy axborot bazasi buxgalteriya hisobi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi moliyaviy hisobot ma‘lumotlaridan tashqari foydalanuvchilar hamda korxonaning ichki boshqaruvchilari obyektiv iqtisodiy qarorlar qabul qilishi va amaliyotga tatbiq etishi uchun zarur axborotga bo‘lgan talablarini ta‘minlashi lozim. Bu qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobini takomillashtirishni, ya‘ni uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da umumqabul qilingan talablar va prinsiplarga moslashtirishni taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos hisob obyektlaridan biri bu biologik aktivlardir. «Biologik aktivlar» respublikamiz iqtisodiyotiga, xususan buxgalteriya hisobi sohasiga kirib kelgan yangi kategoriyalardan biri bo‘lib, ular agrar soha korxonalarini balansida, umumiy aktivlar tarkibida sezilarli ulushni tashkil etadi. Shunday bo‘lsada, respublikamizda biologik aktivlar alohida hisob obyekti sifatida hisobi tashkil etilmagan.

«Biologik aktivlar» va ularning haqqoniy qiymatini aniqlash masalalariga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hamda iqtisodiy adabiyotlarda quyidagicha ta‘rif, yondashuv va fikr-mulohazalar bildirilgan.

41-son «Qishloq xo‘jaligi» BHXSda: «Biologik aktiv - bu tirik hayvon yoki o‘simlikdir». Shuningdek, «Biologik aktivlar guruhi - bu o‘xshash tirik hayvonlar yoki o‘simliklar umumlashmasidir»⁶⁴ deb ta‘rif berilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim U.V.Fastova aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda quyidagi uslubni taklif etadi: «qishloq xo‘jaligi ekinlarini yig‘ib olish vaqtida; ulardan chiqqan chiqindilarni o‘g‘itlar sifatida; shuningdek ishlab chiqarishdan olingan ozuqa

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”, 22- modda. 13.04.2016. <https://lex.uz/acts/-2931253>

⁶⁴ Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. 41-son «Qishloq xo‘jaligi», 2003. 2-b. <https://lex.uz/uz/docs/-1328111?ONDATE=22.07.2022%2000>

sifatida foydalanishda; ma'lum zotdagi hayvonlarni bir xil yosh va foydalanish yo'nalishida; va ko'p yillik ekinlar»⁶⁵.

Xorijlik soha mutaxassislari A.T.Makulov va N.A.Boyboltaevlar ta'kidlashicha, aktivni biologik aktiv sifatida tan olish uchun 41-son BHXSga quyidagi qo'shimcha mezonlarni kiritish lozim. «- aktiv korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilishi shart; -aktiv boshqa korxonalarga berilishi yoki ijaraga qabul qilinishi mumkin»⁶⁶.

Umuman olganda, haqqoniy qiymatni to'la ishonch bilan hisoblash imkoni bo'lmagan hollarda biologik aktivlar to'plangan amortizatsiya va ularning qadrsizlanishi bilan bog'liq yo'qotishlar summalari chegirib tashlangan holda tannarxi bo'yicha baholanishi lozim. Haqqoniy qiymatni ishonch bilan aniqlash imkoni vujudga kelganda biologik aktivni darhol haqqoniy qiymat bo'yicha baholash zarur. Fikrimizcha, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash va keyinchalik ularni shu qiymat bo'yicha tan olish uchun korxonada ayni vaqtda mavjud bo'lgan va imkon doirasidagi barcha resurslarni jalb qilishi lozim. Shunday qilib, respublikamizdagi amaldagi buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarda biologik aktivlarni alohida hisob kategoriyasi sifatida hisobda aks ettirish zaruriyati paydo bo'ldi, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda respublikada amalda bo'lgan buxgalteriya hisobi milliy standartlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda biologik aktivlarning iqtisodiy mazmuni to'liq ochib berilmagan va ular hisobini tashkil qilish bo'yicha talablar belgilanmagan. Bugungi kunda 41-son BHXSda belgilangan talablarni bajarish iqtisodiy faoliyatning dolzarb masalalarini yechishda muhim hisoblanadi. Bu esa, mamlakatimizda ham mazkur tarmoqning xususiyatlarini hisobga oluvchi talablar belgilangan buxgalteriya hisobining milliy standartlarini qabul qilish shart-sharoitlari paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va fermer xo'jaliklarida boshlang'ich va sintetik hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish dolzarb hisoblanadi.

Toshkent viloyati Qibray tumani «Yangi Toshkent konserva» MChJ⁶⁷ faoliyatida qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan hujjatlar va ulardagi to'lg'aziladigan rekvizitlar o'rganilganda, bugungi kun talabi darajasida axborot olish imkoniyati mavjud emasligi ma'lum bo'ldi. Shu boisdan, boshlang'ich hisob hujjatlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi va kerakli axborotlarni olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, quyidagi boshlang'ich hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar tayyorlanishiga sabab bo'ldi: «Urug'lik va ekish materiallarini sarflash dalolatnomasi», «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kelish kundaligi», «Daladan don va boshqa mahsulotlarni jo'natish

⁶⁵ Фастова Е.В. Учет биологических активов по справедливой стоимости в соответствии с МСФО 41 «Сельское хозяйство»// Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. -2007. -№1. -33-39 с.

⁶⁶ Макулова А.Т., Бойболтаева Н.А. Проблемы учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции в Республике Казахстан в соответствии с требованиями МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство». – Таврийский державний агротехнологический университет, 2014.

⁶⁷ Toshkent viloyati Qibray tumani «Yangi Toshkent konserva» MChJning 2021, 2022 yillardagi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti ma'lumotlari

reestri», «Bog‘dorchilik mahsulotlarini kirim qilish kundaligi», «O‘simlikchilik mahsulotlarini saralash va quritish dalolatnomasi».

Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish maqsadida birinchidan, biologik aktivlarni asosiy vositalar tarkibidan ajratgan holda alohida «Uzoq muddatli biologik aktivlar» hamda joriy aktivlar tarkibiga kiruvchi qismini «Joriy biologik aktivlar» sifatida hisobga olish va uning tarkibini belgilash lozim. Chunki, ishchi hayvonlar, meva beradigan ko‘p yillik o‘simliklar biologik aktiv hisoblansada, ularning hisobi 16-son «Asosiy vositalar» nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti⁶⁸ bilan tartibga solinadi.

Ikkinchidan, biologik aktivlarni hisobga olishda foydalanish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatining ishchi schyotlar ilovasiga quyidagi ishchi schyotlarni kiritgan holda shakllantirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-jadval).

Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi aktivlar qismi Uzoq muddatli aktivlar bo‘limidagi «Uzoq muddatli biologik aktivlar» schyotida quyidagilar hisobga olinadi: «O‘simliklar» schyotida, ko‘p yillik o‘simliklar, mevali va manzarali daraxtlar, yashil devorlar va boshqalar hisobga olinadi. «Hayvonlar» schyotida chorvachilikdagi biologik aktivlar, ya’ni hayvonlar hisobi yuritiladi. «Biologik aktivlarning eskirishi» schyotida biologik aktivlarga hisoblangan eskirish hisobga olinadi. «Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha rezerv» schyotida qadrsizlanish bo‘yicha rezerv hisobi yuritiladi. Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi aktivlar qismi Tovar-moddiy zaxiralar bo‘limidagi «Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti» schyotida quyidagilar hisobga olinadi: «O‘simliklar» (joriy) schyotida joriy davrda hisobga olinadigan o‘simliklar harakati hisobga olinadi, «Hayvonlar» (joriy) schyotida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi yuritiladi, «Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti» schyotida yig‘ishtirib olinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari harakati hisobga olinadi, «Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha rezerv» (joriy) schyotida biologik aktivlarning qadrsizlanishi hisobi yuritiladi.

1-jadval

Biologik aktivlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan schyotlar tizimi

Amaldagi 21-son BHMS bo‘yicha		Taklif*	
0100-Asosiy vositalar		Uzoq muddatli biologik aktivlar	
0170	Ishchi va mahsuldor hayvonlar		O‘simliklar
0180	Ko‘p yillik o‘simliklar		Hayvonlar
			Biologik aktivlarning eskirishi
			Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha rezerv
1100	- O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar	Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti	
			O‘simliklar (joriy)
1110,	O‘stirishdagi hayvonlar		Hayvonlar (joriy)
1120	Boquvdagi hayvonlar		
			Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti
			Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha rezerv (joriy)

⁶⁸ 16-son «Asosiy vositalar» nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti. <https://lex.uz/ru/docs/-5244709>

* schyotlar raqami xo‘jalik subyekti tomonidan ishlab chiqilgan ishchi schyotlar rejasiga muvofiq shakllantirilishi mumkin

Xulosa qilib aytganda, mazkur schyotlarning amaliyotda qo‘llanilishi natijasida, buxgalteriya hisobi yuritilishini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirish nuqtai-nazaridan yangi hisob obyektini sifatida biologik aktivlarni hisobga olish yo‘lga qo‘yiladi. Xususan, chorvachilikdagi va o‘simlikchilikdagi uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga olish, biologik aktivlarning eskirishi, biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha rezerv hisobi to‘g‘ri tashkil etiladi va foydalanuvchilar uchun batafsil axborot olish manbasi shakllantiriladi. Biologik aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha rezerv haqida aniq ma‘lumotlarning shakllanishini va u asosida to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”, 22- modda. 13.04.2016.
<https://lex.uz/acts/-2931253>

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. 41-son «Qishloq xo‘jaligi», 2003. 2-b.
<https://lex.uz/uz/docs/-1328111?ONDATE=22.07.2022%2000>

Фастова Е.В. Учет биологических активов по справедливой стоимости в соответствии с МСФО 41 «Сельское хозяйство»// Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. -2007. -№1. -33-39 с.

Макулова А.Т., Бойболтаева Н.А. Проблемы учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции в Республике Казахстан в соответствии с требованиями МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство». – Таврийский державный агротехнологический университет, 2014.

Toshkent viloyati Qibray tumani «Yangi Toshkent konserva» MChJning 2021 va 2022 yillardagi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma‘lumotlari

16-son «Asosiy vositalar» nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.
<https://lex.uz/ru/docs/-5244709>.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

***M.M.Turg‘unov,
M.X.Xomidov***

Farg‘ona politexnika instituti assistentlari

Bugungi kunda jahonda iqtisodiyotni jadavl rivojlantirish yo‘nalishlari orasida raqamli texnologiyalar asosida olib boorish dolzarb hisoblanadi. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar va ushbu resurslarga ega va tashkilotlar doirasida moddiy jihatdan to‘g‘ri boshqaruv va hisob siyosati zarur hisoblanadi. Buxgalteriya hisobinini yuritishda muayyan ma‘lumotlarni to‘plash orqali hamda to‘plangan ma‘lumotlarga asossan obyekt haqida zaruriy axborotlarga ega bo‘linadi. Demak, raqamli iqtisodiyotning g‘oyasi tayyor mahsulotni yoki xizmatni iste‘molchiga taqdim etish emas, balki ma‘lum bir so‘rov asosida mahsulotni qisman yoki to‘liq o‘zgartirish, tovarlarni ba‘zi bir takomillashtirilgan yoki qo‘shimcha qismlar bilan to‘ldirish orqali moslashtirish (moslashtirish) imkoniyati bilan yaratish vositasidir. Shunday qilib,

iste'molchi ishlab chiqaruvchiga aylanadi, chunki u iste'mol qilinadigan mahsulotni yaratish jarayonida to'liq ishtirok etadi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot modelida iste'molchi kerak bo'lganda va eng muhimi, kerak bo'lganda ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonida faqat kerakli miqdordagi resurslar iste'mol qilinadi, minimal vaqt sarflanadi.

Raqamli iqtisodiyotda kerak bo'lgandan ko'proq narsani ishlab chiqarish va zanjirdagi ortiqcha narsalarni targ'ib qilish mumkin emas, shu bilan uning narxini oshiradi, shuningdek, o'zlarini ishlab chiqaradigan mahsulotni yaratish zanjirining ortiqcha bo'g'inlari mumkin emas.

Keling, "raqamli iqtisodiyot" tushunchasining talqiniga murojaat qilaylik.

Ba'zi bir olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "raqamli iqtisodiyot alohida soha emas, aslida bu turmush tarzi, davlat boshqaruvi tizimini, iqtisodiyotni, biznesni, ijtimoiy sohani, butun jamiyatni rivojlantirish uchun yangi asosdir".

O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizligi va mustaqilligi, mahalliy kompaniyalarning raqobatini ta'minlashda quyidagilar muhim omil sifatida qaraladi:

- ilg'or yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni joriy etishda huquqiy to'siqlar mavjudligini aniqlash va oldini olish,
- raqamli iqtisodiyot uchun infratuzilmasini yaratish. Xususan, mamlakat aholisining umumiy iqtisodiy va raqamli savodxonligini ta'minlash, etarli miqdordagi mahalliy IT-kompaniyalarni tashkil etish muammolari mavjud.

Xalqaro hamjamiyatining ta'rifiga ko'ra, raqamli iqtisodiyot axborot va aloqa sohasidagi yangi umumiy maqsadli texnologiyalarning transformatsion ta'siri natijasidir. Ta'riflarni talqin qilish orqali raqamli iqtisodiyot ta'siri ostida transformatsiya sohasini belgilash mumkin.

Bunday holda, buxgalteriya metodologiyasi iqtisodiyotning yangi yo'nalishiga tizimli ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish zarur hisoblanadi. Xarajatlarni hisobga olish va jarayonlar va mahsulotlarni hisoblash metodologiyasini qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Muammoni hal qilish o'tmishdagi faoliyatni tahlil qilish va kelajakni rejalashtirish zarurati bilan bog'liq. Bu erda siz so'zlarni keltirishingiz mumkin.

Buxgalteriya tizimining eng muhim qismlaridan biri bu ikkita quyi tizimning axborot tarkibiy qismi – moliyaviy va boshqaruv hisobi. Korxonaning raqamli transformatsiya punktlarini tashkil etishga asoslangan nazorat funktsiyasidan informatsion funktsiyaga qayta yo'naltirish mavjud.

Yangi ko'rsatkichlarni, nafaqat yig'ish va qayta ishlash usullarini ishlab chiqish talab etiladi moliyaviy ma'lumotlar, shuningdek uning biznes va tashqi muhitning boshqa tomonlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan integratsiyalashuvining etarlliligi.

Ushbu muammoga bag'ishlangan adabiy va ilmiy manbalarning mazmunini tahlil qilib, nazariyani rivojlantirish va amaliyot amaliyotini takomillashtirish haqida bahslashish mumkin.

Ko'plab izlanuvchilar raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi va hisobot nazariyasini takomillashtirish nuqtai nazaridan transformatsiyaning asosiy yo'nalishlarini turlicha takidlaydilar. Jumladan: Intellektual inson kapitali, mijozlar

kapitali, ma'lumotlar bazasi, innovatsion mahsulotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va boshqalar buxgalteriya tizimiga moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarning kiritilishi kuzatilmoqda (mijozlar bazasining sifati, ijtimoiy javobgarlikning holati yoki amalga oshirilishi, iqtisodiy xavfsizlik xavflarining mavjudligi, darajasi energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanish va boshqalar). Bulutli texnologiyalar, ochiq texnologik platformalar, elektron ma'lumot-axborot tizimlari, xbrl elektron shaklida yagona xalqaro format va moliyaviy hisobot mazmunini yaratish kabi yangi axborot texnologiyalarining zamonaviy ishlanmalari amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar esa har bir tashkilotning ichki biznes jarayonlari va tashqi muhit holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ular birlashtirilgan milliy buxgalteriya tizimini yaratish imkoniyatini yaratadi va quyidagi afzalliklarni yaratadi.

- buxgalteriya hisobida tashkilot faoliyati sohasini aks ettirishni kengaytirish
- axborot sifati va samaradorligini oshirish
- yangi buxgalteriya ob'ektlari sonini aniqlash va ko'paytirish
- yangi buxgalteriya ob'ektlarini baholashning innovatsion usullarini ishlab chiqish
- buxgalteriya hisobining har xil turlarini birlashtirishga yondashuvlarni shakllantirish

- mahalliy va xorijiy ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi buxgalteriya faoliyati sohasidagi vakolatlarga, shuningdek tegishli sohalarga qiymat qo'shadi. Bu raqamli iqtisodiyotning rivojlanish omillari bilan ham, tavsiflovchi buxgalteriya metodologiyasining rolining oshishi va kasbiy hukmning tarqalishi bilan ham bog'liq. O'z navbatida, professional hukmlarning ob'ektivligi asosan vakolatning barcha tarkibiy qismlari — bilim, ko'nikma, qobiliyat darajasi bilan belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi sohasidagi vakolatlarni yanada rivojlantirish yo'nalishlari uning ilmiy tashkilotining neoklassik triadasining har bir sohasida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Nazariy sohada raqamli texnologiyalar buxgalteriya jarayonini amalga oshirish usullari, usullari va qoidalarini tushuntirib beradigan iqtisodiy munosabatlar qonuniyatlari to'g'risida yaxlit tasavvur beradigan rivojlangan bilim shakllari sifatida vakolatlarni rag'batlantiradi. Raqamli iqtisodiyotda nazariy tadqiqotlarni ajratish quyidagilarni o'zgartiradi ijodiy kompetentsiyada fikrlashning evristik imkoniyatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 03.07.2018 PQ-3832- sonli qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Raqamli "O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlar" to'g'risidagi farmoni 05.10.2020 PF-6079-son

R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva "Raqamli iqtisodiyot asoslari" o'quv qo'llanma Toshkent 2020 yil.

Токарев И.Н. (2003) Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях. 4-е изд., перераб. и доп. - М.: ИД ФБК-Пресс, 32 н.л.

Воробьева Л.П. (2001) Учет доходов и расходов в государственных образовательных учреждениях / Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. —

Москва.

Xasanboy o'g'li, X. M. (2023). Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 69-72.

Gaybullayeva G. M. (2022). Promotion and prospects of green economy in central asia. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(9), 156–161. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/2660>

Исроилов, X. 2023. Роль природного капитала в обеспечении экономической стабильности. *Общество и инновации*. 4, 4/S (май 2023), 50–55. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp50-55>.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA MUVOFIQ BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI

D.A.Muxamadjonova

Farg'ona politexnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti,

X.A.Abdusalimov

Farg'ona politexnika instituti talabasi

ERP (Enterprise Resources Planning) inglizchadan tarjima qilinganda korxonalar resurslarini rejalashtirish – bu korxonalar xodimlari tomonidan ushbu korxonadagi barcha resurslarni miqdor va qiymat jihatidan hisobga olish uchun foydalaniladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi. ERP tizimlari tufayli korxonaning barcha bo'limlari va xizmatlari avtomatlashtirilganligi va ularning o'zaro integratsiya qilinganligi iqtisodiy axborotlarni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar ombori bitta platformaga shakllantiriladi.

ERP tizimi korxonalar faoliyatning barcha sohalarini avtomatlashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan turli xil dasturiy modullardan iborat. Tizimning har bir ERP moduli ma'lum bir guruhning muammolarini yechishga qaratilgan, ya'ni: ishlab chiqarishni rejalashtirish, xaridlarni boshqarish, inventarizatsiyani boshqarish, xodimlarni boshqarish, logistika, marketing, marketingni boshqarish va boshqa turli xil vazifalar guruhlarida mavjud muammolarni yechishga va avtomatlashtirishga mo'ljallangan. ERP tizimining barcha dasturiy modullari va ularning bir biri bilan integratsiyasi quyidagi chizmada keltirilgan [1].

ERP dasturiy paketlarini korxonalarga tadbiiq etish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

- Samaradorlikni oshirish. Korxonalarda asosiy biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda avtomatlashtirish orqali har bir xodimga kamroq xarajat bilan ko'proq samaraga erishishga yordam beradi;

- Axborotlarning aniqligini ta'minlash. Turli xil ma'lumotlar omborlaridan xalos bo'lish, shuningdek, ishonchli ma'lumotlarning yagona bazasini tashkil qilish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlarni tezroq olish imkoniyatlarini yaratadi;

- Xavflarni kamaytirish. Muvofiqlik, ehtiyotkorlik tamoyili asosida xavflarni oldini olish orqali biznes shaffofligi va nazoratni amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi;

- IT jarayonlarini soddalashtirish. Barcha modullar uchun umumiy ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan ERP dasturiy paketidan foydalanish orqali korxonalarda IT muhitini soddalashtiradi va barcha xodimlar ishlashi uchun qulay mexanizmlar bilan ta'minlaydi [2];

- Tezlikni oshirish. Samarali operatsiyalar va real vaqtda ma'lumotlar bazasiga tezkor kirish, yangi imkoniyatlarni aniqlash hamda loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi;

- Hujjatlar aylanish tizimini takomillashtirish. ERP tizimining barcha modullari bir biri bilan integratsiyalashganligi korxonada hujjatlar aylanish tizimini oldingi dasturiy paketlarga nisbatan tezroq amalga oshirish imkoniyati beradi;

- MHXS lari asosida hisobot tayyorlash. ERP tizimining moliya va buxgalteriya muduli xalqaro standartlar talablari asosida tizimlashtirilganligi bir vaqtning o'zida moliyaviy hisobotlarni MHXSga asosan tayyorlash va ularni foydalanuvchilarga qulay yetkazish imkonini beradi.

Zamonaviy ERP tizimlaridan korxonalar amaliyotida foydalanishni turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. 1) Bulutli ERP tizimlaridan foydalanish orqali dasturiy yechim bulutda joylashtiriladi va obuna bo'lgan xizmat sifatida internet orqali yetkaziladi. Dasturiy ta'minot yetkazib beruvchisi esa muntazam texnik xizmat ko'rsatish, yangilashlar va xavfsizlikni ta'minlaydi. 2) Mahalliy ERP tizimi an'anaviy foydalanish modeli bo'lib, unda korxonada barcha jarayonlarni o'zi boshqaradi va dasturiy mahsulotlar korxonada mavjud ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladi. Shuningdek, dasturiy ta'minotni o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatishga korxonada xodimlarining o'zi javobgar bo'ladi. 3) Yuqoridagi ikki tizimning kombinatsiyalashuviga muhtoj bo'lgan korxonalar gibriddan foydalanadilar. Bunda korxonaning ayrim ma'lumotlari bulutda joylashtirilsa, qolganlari esa mahalliy ERP tizimi asosida joylashtiriladi.

SAP ERP bu moliya, ishlab chiqarish, HR, ta'minot zanjiri, xizmatlar va xaridlar va boshqa bo'limlar uchun yagona tizimda asosiy iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirishga yordam beradi. SAP ERP dasturiy paketlari tadbirkorlik subyektining hajmidan qat'iy nazar, muhim operatsiyalarni avtomatlashtirishga, avtomatlashtirishga tezda moslashishga yordam beradigan aqlli texnologiyalardan foydalaniladi, shuningdek, uzluksiz yangilanishlar orqali modullarni kengaytirishga, xarajatlarni kamaytirishga va yuqori samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Слеповичев Сергей Олегович. Методическое обеспечение анализа и сравнения возможностей автоматизированных систем экономического назначения.: Магистерская диссертация.: - Пенза.:2018.

Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 107-112.


INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

A.X.Xotamov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Hozirgi kungacha bo‘lgan davr mobaynida ko‘plab to‘qimachilikka ixtisoslashgan korxonalarining asosiy faoliyati xomashyodan to‘ tayyor mahsulotlar bo‘lgan ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmasdan, ko‘pincha yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlab, tayyor mahsulotlar ko‘rinishiga keltirishdan iborat bo‘lgan.

Tayyor mahsulotlarni tannarxini pasaytirish, aholiga arzon va sifatli iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlash maqsadida bir qancha sezilarli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulotlar tannarxini kamaytirish ularning nomenklaturasini kengaytirish masalasida klasterlarni tashkil etish masalasi bunga yaqqol misol bo‘ladi.



1-rasm. 2011 - “Ip-kalava mahsulotlarini ishlab chiqarish” ishchi schyotining boshqa schyotlar bilan korrespondensiyasi⁶⁹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi 14-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonida quyidagilar keltirib etilgan:

“Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va mas‘uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilarning manfaatdorligini ta‘minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida:

⁶⁹ Muallif ishlanmasi.

klasterlar bo'yicha Respublika komissiyasi tuzulib, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:


paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish uchun talabgorlarning arizalarini ko'rib chiqish;

paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini, jumladan klaster doirasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va olingan bank kreditlarining o'z vaqtida qaytarilishini tahlil qilib borish;

paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha Hukumatga takliflar kiritib borish;

investitsiya majburiyatlarini buzgan paxta-to'qimachilik klasteri faoliyatini tugatish bo'yicha tavsiyanoma berish"⁷⁰.

Adabiyotlarda kalaster tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Klaster bu xomashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizim"⁷¹.



2-rasm. 2012 - "Gazlama ishlab chiqarish" ishchi schyotining boshqa schyotlar bilan korrespondensiyasi⁷²

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, to'qimachilik tarmoqlarida bosqichli ishlab chiqarish jarayonlarini inobatga olgan holda har bir bosqichda qo'shilgan qiymatning yaratilishi va tashqi foydalanuvchilarga aniq va shaffof ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida quyidagi ishchi schyotlarni kiritishni taklif etamiz:

2011 - "Ip-kalava mahsulotlarini ishlab chiqarish" ishchi schyoti;


2012 - "Gazlama ishlab chiqarish" ishchi schyoti;

2013 - "Gazlamalarni bo'yash" ishchi schyoti.

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi 14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonida <https://lex.uz/docs/-5731033>

⁷¹ <https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627303540339-1f142bf1-6d22> internet ma'lumotlaridan foydalanilgan

⁷² Muallif ishlanmasi.



3-rasm. 2012 - “Gazlamani bo'yash” ishchi schyotining boshqa schyotlar bilan korrespondensiyasi⁷³

Yuqorida taklif etilgan 2012-“Gazlamani bo'yash” ishchi schyoti xarajat markazlari bo'yicha yarim tayyor gazlama mahsulotlarini bo'yash xarajatlarini hisobini yuritish va ishlab chiqarilgan tayyor gazlama mahsulotlarni tannarxini to'g'ri aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, to'qimachilik korxonalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarish jaryoni bir necha bosqichlaridan iborat bo'lib, har bir bosqich o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqalaridan farq qiladi. Shu sababli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarini bir ishchi schyotida yuritish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Yuqorida taklif etilgan ishchi schyotlarni kiritish taklifi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarini har bir xarajatlar markazi bo'yicha to'g'ri taqsimlab, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxini aniqlashga va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi 14-son “Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida” Farmonida <https://lex.uz/docs/5731033>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom” -T.: O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari, 1999.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi 677-son “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonuni www.lex.uz.

B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov “Buxgalteriya hisobi”. darslik – T.:

A.A. Karimov, J.E.Qurbanboyev, S.A.Jumanazarov “Buxgalteriya hisobi” darslik IQTISOD-MOLIYA nashriyoti 2019-yil.

⁷³ Muallif ishlanmasi.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ВИНОЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Л.Б.Ботиров

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

таянч докторанти


Бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодиёт субъектларида олиб борилаётган кенг қамровли ислохотлар натижасида ҳам ашё базаларини яратиш ҳамда ривожлантириш хусусан, рақобатбардош виночилик маҳсулотларни ишлаб чиқариш, экспорт салоҳиятини ошириш ҳамда ушбу соҳага хорижий инвестицияларни жалб қилиш каби муҳим ишлар амалга оширилди. Шунингдек қонунчиликда мазкур соҳа ривожини таъминлаб берувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинади.

Шу билан бирга, иқтисодиётда муҳим аҳамиятга эга бўлган виночилик саноати корхоналарида харажатларнинг ортиб кетаётганлиги рентабеллик даражасини оширишга ўзининг салбий таъсирини ўтказиб келмоқда.

Ўзбекистон Республикасида истеъмол товарлари ишлаб чиқариш саноати бугунги кунда ривожланишда давом этмоқда. Бироқ, истеъмол товарлари ишлаб чиқариш таркибида вино-ароқ ва пиво маҳсулотларининг салмоғини пасайиб бораётганлигини кўришимиз мумкин (1-расм).

Мазкур соҳада амалга оширилаётган чора-тадбирларни ишлаб чиқишда жаҳондаги бозор иқтисодиёт тамойиллари асосида ривожланган мамлакатларда тўпланган бой тажрибаларни ҳар томонлама ўрганиш, умумлаштириш ва улардан самарали фойдаланиш мамлакатимиз виночилик саноати корхоналари фаолиятини оқилона ташкил этиш, уларнинг иқтисодий самарадорлигини барқарор ошириш бўйича аниқ таклифлар, тавсиялар ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга тадбиқ этиш соҳанинг иқтисодий кўрсаткичлари ўсишига ижобий таъсир кўрсатиши муқаррардир. Юқоридаги маълумотлардан кўришиб турибдики, истеъмол товарлари ишлаб чиқариш таркибида вино саноати маҳсулотларининг улуши жуда паст даража, Шунингдек, мазкур товарларнинг йиллар кесимида улуши 2018 йилга нисбатан 2022 йилда 8 фоизга ошганлиги ижобий ҳолатдир. Лекин мазкур соҳада келгусида амалий чора-тадбирларни янада такомиллаштириш зарур эканлигини кўрсатмоқда. Виночилик саноати корхоналари маҳсулот таннархини ҳисоблашда хатоларга йўл қўядилар, оқибатда пировард маҳсулотнинг таннархи асосиз равишда ошиб кетади.

Асосий воситаларнинг бекор туриб қолиши ҳолатида харажатларни минималлаштириш учун асосий воситанинг ишлаш ҳисобини соатлар бўйича юритиш мумкин. Ушбу ҳолда ишлаб чиқариш цехи бошлиғи ҳар куни бекор туриб қолиш ва иш билан таъминланиш журналани юритиши ва бухгалтерияга ҳисобот даври учун йиғма маълумотнома тақдим этиши лозим. Ана шу маълумотнома асосида бухгалтерлар маҳсулот таннархини шакллантирадилар ва харажатлар таркибида бекор туриб қолишдаги харажатлар улушини аниқлайдилар.



1-расм. Истеъмол товарлари ишлаб чиқариш таркиби⁷⁴

Асосий воситалар билан таъминланиш фоизи қувватларни мақбул тарзда иш билан таъминлаш ва маҳсулотни ўртача бозор нархларида реализация қилишни ҳисобга олган ҳолда, давр харажатлари, молиявий фаолият харажатлари ва кредиторлар билан ҳисоб-китобларни қоплаш имконини берадиган фойда даражаси билан тузилган бизнес-режанинг кўрсаткичларидан келиб чиқиб ҳисобланади.

Юқорида таъкидлаб ўтилган масалаларнинг объектив ечимини ишлаб чиқишда иқтисодчи олимларимизнинг ўз фикр ва мулоҳазалари баён қилинган илмий мақола, рисола ҳамда илмий асарлари чоп қилинган. Харажатлар таҳлили, унинг ҳисоби ва аудити бўйича хорижлик иқтисодчи олимлар билан бир қаторда мамлакатимиз етакчи олимлари Н.Ю.Жўраев, А.К.Ибрагимов, А.А.Каримов, А.Х.Пардаев, Р.О.Холбеков, Б.Умиркулов ва бошқалар томонидан ҳам турли соҳаларда сифат муаммолари таҳлил қилинган.

Иқтисодчи олим Б.Умиркулов “хўжалик юритувчи субъектларга ўз ишлаб чиқариш фаолиятлари ва келажак истиқболли ривожланиш режаларини тузишда ва корxonани бошқаришда мустақиллик бериш лозим. Ҳозирги кун сайин ошиб бораётган рақобат шароитида корxonалар сифат жиҳатидан аниқ, тўғри ва албатта асосланган бошқарув қарорларини қабул қилишга имкон берувчи ахборотлар тизимига эга бўлишлари зарур. Бусиз бухгалтерлар фойдаланувчилар учун, бозор иқтисодиёти шароитида корxonанинг ривожланиш стратегияси ва фаолият юргизиш тактикаси учун зарур бўлган сифатни таъминлаш харажатлари ҳақидаги ахборотни тўла миқдорда етказиб бера олмайди”⁷⁵ деб таъкидлайди.

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган

⁷⁵ Умиркулов Б.Б. Маҳсулот (иш, хизмат)лар сифатини таъминлаш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. -Т.: “IMPRESS MEDIA” нашриёти, 2020 й.

Инновациялар иқтисодий самарадорлигини таъминлаш заруриятини ҳисобга олган ҳолда, яна бир Россиялик иқтисодчи М.И.Кутер инновацияни «харажатлар тежалишини ёки бундай тежаш учун шароит яратилишини таъминловчи янги маҳсулот ёки хизмат, ишлаб чиқариш услуги, ташкилий, молиявий, илмий-тадқиқот ва бошқа соҳалардаги янгилик» сифатида кўришган⁷⁶.

В.П.Пальчук шундай хулоса қилади: «ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш саноат корхоналари бухгалтерия ҳисоби жараёнининг энг мураккаб қисми бўлиб, у қуйидаги муҳим вазифаларнинг бажарилишини таъминлаши керак: харажатларни ишончли ва ўз вақтида акс эттириш; ишлаб чиқариш ресурсларидан фойдаланиш устидан оператив ўрнатиш; корхона бўлимлари ишининг натижаларини аниқлаш; тежамкорликни виночилик кучайтириш ва маҳсулот таннархини янада пасайтириш учун захираларни аниқлаш; ишлаб чиқаришга жорий этилаётган ташкилий-техник тадбирларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш»⁷⁷.

Ишлаб чиқариш харажатлари тўғрисидаги маълумотларни қайта ишлаш жараёни бухгалтерия ҳисобида кетма-кет бўладиган ўзаро боғлиқ иккита босқичдан иборат: ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва маҳсулот таннархини аниқлаш. Бухгалтерия ҳисоби тизимида виночилик саноати корхоналари учун харажатлар ҳисоби объектларини қуйидаги мезонларга кўра гуруҳлаш мақсадга мувофиқ: ишлаб чиқариш турлари бўйича - вино материаллари, виночилик маҳсулотларини уларнинг турлари кесимида ишлаб чиқариш; харажатларни юзага келиш жойларида: ишлаб чиқариш цехлари, участкалар, бригадалар; харажат моддаси бўйича (1-расм).

Харажатларни ҳисобга олиш тизимини яратиш кўп жиҳатдан технологик жараённи ташкил этиш хусусиятларига боғлиқ. Алкогол маҳсулотларни ишлаб чиқариш саноатнинг юқори моддий истеъмоли, узоқ ишлаб чиқариш даври, тугалланмаган ишлаб чиқариш ва технологик ишлаб чиқаришнинг алоҳида босқичлари натижасида олинган ярим тайёр маҳсулотларнинг мавжудлиги билан тавсифланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни 14.04.2016 йил ЎРҚ-404-сон. www.lex.uz

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 3 августдаги ПҚ-260-сон «2023–2026 йилларда узумчилик ва виночилик соҳасини янада ривожлантиришга қаратилган чоратадбирлар тўғрисида»ги Қарори. www.lex.uz

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги 677-сон «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги қонуни www.lex.uz.

Б.А.Хасанов, А.А.Хашимов, А.Б.Мухаметов, А.А.Абдувоҳидов «Бухгалтерия ҳисоби» дарслик – Т.:

А.А. Каримов, Ж.Э.Қурбанбоев, С.А.Жуманазаров «Бухгалтерия ҳисоби» дарслик ИҚТИСОД-МОЛИЯ нашриёти 2019 йил.

⁷⁶ Кутер М.И. Теория бухгалтерского учёта учебник. -М.: Ф и С, 2004 г.

⁷⁷ Пальчук В.П. Учет и калькулирование себестоимости продукции бродильных производств / В.П. Пальчук. – М.: Изд-во «Пищевая промышленность», 1980. – 129 с.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MUHIMLIK TUSHUNCHASI VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

N.T.Xasanova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti*

Muhimlik tushunchasi butun audit jarayoni uchun asos bo‘lib, auditor tomonidan quyidagi jarayonlarda qo‘llaniladi:

xavflarni baholash tartib-taomillarining tabiati, muddatlari va hajmini belgilashda;
jiddiy noto‘g‘ri ma'lumotlar xavfini aniqlash va baholashda;

yeterli darajada tegishli auditorlik dalillarini to‘plash uchun audit protseduralarining tabiati, muddati va hajmini aniqlashda;

aniqlangan noto‘g‘ri ma'lumotlarning auditga va agar mavjud bo‘lsa, tuzatilmagan noto‘g‘ri ma'lumotlarning moliyaviy hisobotga ta'sirini baholashda;

moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasida fikrni shakllantirishda

320-sonli “Auditorni rejalashtirish va o‘tkazishda muhimlik” ISA muhimlikni tushuntiradi: noto‘g‘ri ma'lumotlar, shu jumladan kamchiliklar, agar ular alohida yoki umumiy holda foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilishi mumkin bo‘lsa, muhim hisoblanadi. moliyaviy hisobotlar.

Muhimlik nafaqat moliyaviy hisobotdagi summalarga, balki miqdoriy bo‘lmagan oshkoralarga ham tegishli.

Masalan, moliyaviy hisobotning muhim sohasi uchun buxgalteriya siyosatining oshkor etilmasligi yoki etarli darajada oshkor qilinmasligi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchining iqtisodiy qaroriga ta'sir qilishi mumkin.

Moddiylik mutlaq tushuncha emas, balki nisbiy tushunchadir. Berilgan kattalikdagi noto‘g‘ri ma'lumot kichik kompaniya uchun muhim bo‘lishi mumkin, bir xil miqdordagi xato esa katta kompaniya uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin.

Misol uchun, shubhali qarzdorlar uchun zaxira yaratmaslik sababli bir so‘mlik tuzatilmagan noto‘g‘ri xatolik o‘n so‘m aylanmaga ega va bir so‘mlik sof foydaga ega bo‘lgan kompaniyaning moliyaviy hisobotlarida jiddiy noto‘g‘ri ko‘rsatilishiga olib keladi. Biroq, bir xil tuzatilmagan noto‘g‘ri ma'lumotlar aylanmasi ming so‘m bo‘lgan va foydasi besh yuz so‘m bo‘lgan kompaniyaning moliyaviy hisoboti uchun ahamiyatli bo‘lmaydi.

Jiddiylik (muhimlik) – ahamiyatsiz hisoblangan, ya'ni foydalanuvchilarni xato fikrda bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan, moliyaviy hisobvaraqlarda qayd etilishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri summaning eng ko‘p miqdoridir. (*Ilhamov 2011*)

Muhim bo‘lmagan (kichik) xatoliklarni auditor tomonidan tekshirilmasligiga sabab:

- bu xatoliklar juda kichik va inoliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar qaroriga har qanday vaziyatda ham jiddiy ta'sir etmaydi;

- kichik xatoliklarning sababini aniqlash va to‘g‘rilash uchun ko‘p vaqt va mablag‘ talab etiladi;

- bu xatolarainig sababini aniqlash va to'g'ri Jash uchun sarflangan vaqt natijasida mohiyaviy hisobotlarni topshirish muddatlari o'tib ketishi mumkin. (*Ahmedjanov va Yakubov 2010*)

Auditda jiddiylik, tavakkalchilik, biznes tavakkalchiligi va nazorat tavakkalchiligiga baxo berish. Ichki xo'jalik nazorat tizimi bilan tanishish va nazorat tavakkalchiligiga baho berish. (*Sanayev va Narziyev 2001*)

Muhimlik darajasi moliyaviy hisobotlarni qanchalik o'tkazib yuborish mumkinligi haqida ko'rsatma beradi. (*Manson va Zaman 2001*)

Boshqacha qilib aytganda, muhimlik darajasi auditorlar tomonidan moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga taqdim etilgan ishonch darajasini aks ettiradi. (*Cox va boshqalar 2013*)

Binobarin, muhimlik to'g'ridan-to'g'ri audit o'tkazish va keyingi fikrga bog'liq bo'lsa-da, muhimlik haqidagi ma'lumotlarning etishmasligi foydalanuvchilar (investorlar) va tartibga soluvchilarning auditorlarning muhimlikni qo'llashiga juda shubha bilan qarashlariga sabab bo'ldi. (*Tuttle va boshqalar, 2002*)

Tadqiqotda induksiya, deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash, eksperiment, adaptiv usullar, integratsion yondashuvlar, aktivlar qadrsizlanish hisobi va usullarini takomillashtirish masalalari bo'yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

Auditor summaning muhimligini baholashda quyidagi illyutiv omillarni hisobga olishi mumkin:

(i) noto'g'ri ma'lumotlarning tendentsiyalarga, ayniqsa rentabellik tendentsiyalariga potentsial ta'siri;

(ii) zararni foydaga yoki aksincha o'zgartiruvchi noto'g'ri ma'lumot (masalan, shubhali savdo debitorlik qarzlari bo'yicha zaxirani hisobga olish soliqni zararga aylantirishdan oldin marjinal foyda keltirishi mumkin);

(iii) noto'g'ri ma'lumotlarning korxonaning qarz kovenantlariga (masalan, joriy koefitsient), boshqa shartnoma kelishuvlariga va me'yoriy qoidalarga rioya qilishiga mumkin bo'lgan ta'siri;

(iv) qonun yoki tartibga soluvchi hisobot talablarining mavjudligi (masalan, MSMED qonuni, 2006 yilda qamrab olingan tomonlarga to'lanadigan foizlar va ularni oshkor qilish);

(v) asosiy boshqaruv xodimlarining o'zgaruvchan maoshi yoki kompensatsiyasiga ta'sir qiluvchi noto'g'ri ma'lumot (masalan, maqsadli aylanma yoki soliqdan oldingi sof foyda bo'yicha talablarni qondirish orqali);

(vi) noto'g'ri ma'lumot bilan bog'liq holatlarning sezgirligi (masalan, noto'g'ri ma'lumotlar firibgarlik yoki mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlar bilan bog'liqligini ko'rib chiqing);

(vii) moliyaviy hisobotning noto'g'ri ko'rsatilgan moddasining ahamiyati;

(viii) noto'g'ri ma'lumotlarga nisbatan rahbariyatning motivatsiyasi, masalan:

(a) daromadlarni "boshqarish" uchun qasddan noto'g'ri ma'lumotlar;

(b) buxgalteriya hisobini ishlab chiqish va to'plashda rahbariyat tomonidan mumkin bo'lgan noto'g'ri ko'rsatkichlar;

Muhimlikni hisoblash shunchaki firma ko'rsatmalariga yoki asosiy qoidaga amal qilish emas. Masalan, auditorlik guruhi muhimlikni istisno moddalarni hisobga olmaganda soliqqa tortilgunga qadar tuzatilgan foydaning 5% sifatida hisoblaydi. Garchi firma auditorlik guruhining tanlovini cheklovchi muhimlik bo'yicha ko'rsatmalarga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, muhimlikni tanlash hali ham jiddiy professional mulohazani talab qiladi.

Misol uchun, qanday qilib topshiriq guruhi 5% to'g'ri va sof daromad to'g'ri asos ekanligiga qaror qildi?

Umumiy muhimlikni aniqlashda:

- Auditor korxonaga bilan bog'liq bo'lgan va noto'g'ri ma'lumotlarning hajmi va tabiati yoki ikkalasining kombinatsiyasi ta'sir ko'rsatadigan holatlarni hisobga olgan holda xulosalar chiqaradi;

- Moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun muhim bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar har bir foydalanuvchi (masalan, bank, obligatsiya egasi yoki aktsiyador) emas, balki guruh sifatida foydalanuvchilarning umumiy moliyaviy ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi.

Quyida keltirilgan jadvalda amliyotda ko'p uchraydigan muhimlik keltirib o'tilgan.(1-rasm)

Umumiy muhimlik. Umumiy audit strategiyasini ishlab chiqishda auditor butun moliyaviy hisobotning muhimligini aniqlaydi. Bu chegara bo'lib, undan yuqori bo'lsa, moliyaviy hisobot jiddiy noto'g'ri ko'rsatilishi mumkin. Bu "butun moliyaviy hisobot uchun muhimlik" yoki oddiygina umumiy muhimlik deb ataladi.



1-rasm. Muhimlik turlari⁷⁸

Samaradorlik muhimligi. Mazkur muhimlik umumiy muhimlikdan kamroq miqdorda belgilanadi va umumiy moliyaviy hisobot uchun tuzatilmagan va

⁷⁸ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

aniqlanmagan noto'g'ri ma'lumotlarning muhim bo'lishi xavfini kamaytirish uchun "xavfsizlik buferi" vazifasini bajaradi. Faoliyatning muhimligi auditorga muayyan risklarni baholashga (umumiy muhimlikni o'zgartirmasdan) javob berishga va tuzatilmagan va aniqlanmagan noto'g'ri ma'lumotlar yig'indisi umumiy muhimlikdan oshib ketish ehtimolini tegishli darajada past darajaga tushirishga imkon beradi.

Maxsus muhimlik. Muayyan muhimlik operatsiyalar sinflari, hisob qoldiqlari yoki oshkor qilish uchun belgilanadi, bunda umumiy ahamiyatlilikdan kamroq miqdorda noto'g'ri ma'lumotlar foydalanuvchilarning moliyaviy hisobotlar asosida qabul qilingan iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilishi mumkin. (Masalan; potentsial investorlar daromadga qiziqishi mumkin)

Ishlashning o'ziga xos muhimligi. Faoliyatning o'ziga xos ahamiyatliligi ko'rsatkichlarning muhimligi bilan bir xil tushunchadir, bundan tashqari u umumiy muhimlik bilan emas, balki muayyan muhimlik bilan bog'liq holda belgilanadi.

Umumiy muhimlik, moliyaviy hisobotda tuzatilmagan taqdirda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi tomonidan qabul qilingan iqtisodiy qarorlarga ta'sir ko'rsatmaydigan noto'g'ri ma'lumotlarning maksimal miqdori to'g'risidagi auditorning professional fikriga asoslanadi. Agar tuzatilmagan noto'g'ri ma'lumotlarning miqdori alohida yoki jami audit uchun belgilangan umumiy muhimlikdan yuqori bo'lsa, bu moliyaviy hisobotda jiddiy noto'g'ri ko'rsatilganligini anglatadi.

Umumiy muhimlik miqdori auditning yakuniy muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi baholanadigan omillardan biridir.

Umumiy muhimlikni aniqlashning uchta bosqichi mavjud:

- i.** Tegishli me'zonni tanlash;
- ii.** Tanlangan me'zon uchun tegishli moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash;
- iii.** Tanlangan me'zonga qo'llanilishi kerak bo'lgan foizni aniqlash;

Umumiy ahamiyatlilik guruh sifatida turli foydalanuvchilarning umumiy moliyaviy ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlariga asoslanadi va shuning uchun ehtiyojlari har xil bo'lishi mumkin bo'lgan aniq individual foydalanuvchilarga noto'g'ri ma'lumotlarning mumkin bo'lgan ta'siri hisobga olinmaydi.

Ayni vaqtda mamlakatimizni yanada isloh qilishimiz hamda rivojlantirishimiz uchun har bir sohada yangiliklar qilishimiz darkor. Darhaqiqat mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy tomonlama rivojlantirish, uni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini ta'minlashda mustahkam poydevor vazifasini bajarishi hech kimga sir emas. Shunday ekan mamlakatimizni yanada rivojlantirishimiz uchun jahon tajribasidan samarali foydalanishimiz va shu bilan birgalikda amalda to'g'ri qo'llay bilishimiz lozim. Qisqa davr mobaynida O'zbekistonning savdo, investitsiya, energetika, transport, kommunikatsiya, madaniy gumanitar almashinuv, turizm kabi deyarli barcha sohalarda juda jadal ishlar qilinmoqda hamda rivojlantirilmoqda.

Bugungi kunda turli sohalorida, shuningdek, buxgalteriya hisobida ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora jadal rivojlanib bormoqda, bu esa har qanday ob'ektni boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa o'z novbatida buxgalteriya hisobi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va ishni tezlashtirish orqali tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi⁸⁰.

Dunyo iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi hamda uning xususiyatlari korxonaga faoliyatining professional yondashuvini talab qiladi.

Zamonaviy jamiyatda axborotni qayta ishlash texnologiyasining asosiy texnik vositasi bu-shaxsiy kompyuterdir⁸¹. Ko'proq tashkilotlarda buxgalteriya hisobi

⁸⁰Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.

⁸¹ Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.

ma'lumotni qulay saqlash, hujjatlar va hisobotlarni yaratish, buxgalteriya ma'lumotlarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy mahsulotlar yordamida amalga oshiriladi. Ular buxgalterlarga bir — biriga bog'liq bo'lgan buxgalteriya bo'limlarini boshqarishga imkoniyat beradi va rahbar xodimlar dolzarb ma'lumotlarga kirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin bo'ladi.


Buxgalteriya hisobi avtomatlashishi buxgalterlarning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi hamda axborotni qo'lda qayta ishlashga nisbatan quyidagi afzalliklarni beradi:


- asosiy hujjatlardagi rekvizitlarni avtomatik to'ldirish;
- katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlash;
- analitik ma'lumotlarni idrok qilish uchun qulay bo'lgan shaklda taqdim etish (diagrammalar, grafikalar, jadvallar);
- hisobot registrlarini shakllantirish (hisob-kitob-to'lov bayonnomalari, aylanma-balans varaqalari, kassa kitobi);
- qog'oz tashuvchilar sonini kamaytirish;
- boshqaruv va bo'ysunuvchilar, tashkilot bo'linmalari o'rtasida darhol ma'lumot almashish;
- arifmetik xatolarni istisno qilish;
- nazorat qiluvchi davlat organlari va banklar bilan onlayn muloqot;
- qonunchilikni o'zgartirishga tezkor javob berish qobiliyati.⁸²

Bugungi kunda buxgalteriya dasturlarini yetkazib berishda yetakchi kompaniya 1C firmasi hisoblanadi. Firmanig mahsuloti "1C: Buxgalteriya hisobi" tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya siyosatining parametrlarini sozlash, dastlabki hujjatlarni yaratish, hisobotlarni tuzish hamda tashkilotlarda buxgalteriya hisobi talablariga muvofiq kataloglarni sozlash imkonini beradi.⁸³

Eng mashhur raqamli texnologiyalardan biri bulutli texnologiyalar hisoblanadi. Bulutli texnologiyalar Internet xizmati sifatida xotira yoki hisoblash kuchi kabi kompyuter resurslarini taqdim etadi. Ushbu texnologiyadan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tashkilotlar qimmatbaho texnikani sotib olishlari, uni ta'mirlash uchun mutaxassislarni yollashlari hamda maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatishlari shart emas. Bulut xizmatlaridan foydalanish uchun Internetga kirishning o'zi yetarli. Bulut texnologiyalarining eng oddiy namunasi virtual xotira hisoblanadi, masalan, Yandex disk, Drop-Box, Google-drive va hokazo.

Bulut texnologiyalar quyidagi bir qancha xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli makon yoki ijara uchun taqdim etilgan hisoblash kuchi hisoblanadi:

 foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan funksiyalarni (ulanish tezligi, xotira miqdori, hisoblash kuchi, shuningdek, bulutni ijaraga olgan vaqtni) mustaqil tanlash qobiliyati.

 har qanday qurilma orqali bulut texnologiyasidan foydalanish imkoniyati.

⁸²Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. **Volume 2 | ISSUE 8 | 2021. ISSN: 2181-1601** www.scientificprogress.uz.

⁸³ Бочкова, С. В. Исследование применимости цифровых информационных технологий в сфере бухгалтерского учета / С. В. Бочкова // Развитие цифровой экономики в условиях деглобализации и рецессии. — 2019. — С. 634-656.

- ✚ texnik mahsulot yetkazib beruvchi bilan muntazam aloqa talab etmasligi.
- ✚ foydalanuvchi faqat foydalanadigan xizmatlar to‘plami uchungina to‘laydi.

Bulut texnologiyalari yordamida siz barcha an’anaviy buxgalteriya vazifalarini amalga oshirishingiz mumkin bo‘ladi: moliyaviy, boshqaruv, soliq hisobini elektron shaklda saqlash va statistik hisobotlarni tuzish, dastlabki hisob-kitoblarni tuzish, soliqlar va sug‘urta badallarini hisoblashni amalga oshirish.

1C firmasi bulut texnologiyasidan foydalanishning to‘rtta usulini taqdim etadi: tashkilot ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan bulut, xolding uchun bulut, mijoz bilan ishlash uchun bulut hamda dasturiy ta‘minotni o‘rnatmasdan Internet orqali ishlash uchun 1 CFresh texnologiyasidir.

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot texnologiyalari, bulutli dasturiy ta‘minotni ahamiyatining yanada oshishi tabiiydir. Shubhasiz, iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta’sir ko‘rsatib boradi. Iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o‘rin tutishini bildiradi. Shu o‘rinda iqtisodiy taraqqiyotning misoli sifatida buxgalteriya hisobida "bulutli texnologiyalar" dan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rib chiqamiz. (1-jadval).

1-jadval

Buxgalteriya hisobida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish



Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot zamonaviy buxgalterning imkoniyatlarinikengaytirmoqda, buxgalteriya hisobi sifati va tezkorligini oshiradi, turli xil hisob-kitoblarni integratsiyalashning zamonaviy innovatsion yondashuvlarini shakllantirib boradi. Shaxsiy kompyuterlar va maxsus buxgalteriya dasturlari yordamida qog‘oz ishini avtomatlashtirilgan hisob bilan almashtirish buxgalterni muntazam ishdan ozod qilishshu bilan birgalikda ularning ish natijalarini sifatini, tezkorligini yaxshilash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.

Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.

Durdona Adashboy qizi Razzaqova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. www.scientificprogress.uz. 2021

Бочкова, С. В. Исследование применимости цифровых информационных технологий в сфере бухгалтерского учета / С. В. Бочкова // Развитие цифровой экономики в условиях деглобализации и рецессии. — 2019. — С. 634-65

MHXS ASOSIDA XARAJATLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

G.A.Djumayeva

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tashkil qilish xorij kapital bozorlaridan qulay foydalanish, xorijiy investorlar orasida ishonchning ortishi, hisobotlarning tushunarligini ta'minlab berishga imkon yaratadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini mamlakatlar hisob tizimida qo'llanishi jahon bozoriga chiqish bilan birgalikda yuqori salohiyatli investorlarni jalb qilishning omillaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari sub'ektning moliyaviy barqarorligini baholashda ularning nafaqat foydali bo'lishi, balki boshqaruv qarorlari qabul qilishda samarali hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari asosida shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, MHXSga o'tish buxgalteriya hisobining ob'yektlari hisoblangan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, texnik, texnologik, shuningdek metodologik va boshqa masalalarni hal qilishni taqozo etadi [1]. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'z faoliyatlarini olib borishida albatta turli ko'rinishdagi xarajatlarni amalga oshiradi. Xo'jalik sub'yektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ularning bir maromda faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishida xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etilishi muhimdir. Ularda boshqaruv hisobida qarorlar qabul qilinishida xarajatlar va tannarx eng muhim ko'rsatkich hisoblanib, MHXS asosida xarajatlarni tan olish, ular hisobini takomillashtirish barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovar sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Xarajatlar hisobini respublikamizda quyidagi olimlar Jumaniyozov K.K., Hasanov B.A., Pardayev A.X.,

Urazov K.B., Tashnazarov S.N., Xashimov A.A. o'zlarining ilmiy izlanishlarida, asarlarida bayon etganlar.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarorining qabul qilinishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-sonli buyrug'i qabul qilindi. Yuqoridagilarga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnlari belgilangan tartiblarga muvofiq tan olinadi[2,3,4].

Xarajatlar va xarajatlarni hisobga olishga ta'sir qiluvchi milliy standartlarni qo'llanilishi, majburiy bo'lgan hisobni yuritish me'yorlari va qoidalariga asoslanadi. Milliy standartlar buxgalteriya fikrining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, amaliyotni cheklaydi va muayyan voqealarni aks ettirishda professional mulohazalardan to'liq foydalanishga imkon bermaydi.

Xalqaro standartlar tizimi bo'yicha xarajatlarni tan olish va hisobga olish qoidalarini belgilaydigan standart mavjud emas. Bundan ko'rinib turibdiki xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda xarajatlarni tan olish va ularning hisobi uchun maxsus standartlar ishlab chiqilmagan.

O'zbekistonda xarajatlarni hisobga olish alohida nizom bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 54-sonli qarori. Avtomobil transporti korxonalarini xarajatlari hisobini tashkil qilish mazkur nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro buxgalteriya amaliyotida xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha asosiy talablar "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish tamoyillari"da (tamoyillarda) belgilangan bo'lib, ular o'z-o'zidan standartlar emas. Shunga qaramay, aynan ushbu hujjat moliyaviy hisobot sifatiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi va xalqaro standartlar bilan bevosita tartibga solinmagan holatlarda qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda xarajatlarning ayrim turlarini hisobga olish masalalari aktivlar va majburiyatlarning ayrim turlarini, faoliyat turlari va yo'nalishlarini hisobga olishni tartibga soluvchi ko'pgina standartlar bilan hal qilinadi, xususan, xarajatlarni hisobga olish va tayyor mahsulot tannarxi MHXS (IAS) 2-"Zaxiralarda ko'rib chiqiladi. Shartnomalarni bajarish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish MHXS 11-"Qurilish shartnomalari" bilan tartibga solinadi. Asosiy vositalarni, shu jumladan amortizatsiya bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish tamoyillarini belgilaydigan asosiy standart BHXS (IAS) 16-"Asosiy vositalar"dir. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, shuningdek nomoddiy aktivlarning eskirishi bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish

BHXS (IAS) 38-"Nomoddiy aktivlar" bilan tartibga solinadi. Xodimlarning joriy daromadlarini hisobga olish tartibini belgilaydigan asosiy standart MHXS (IAS) 19-"Xodimlarning daromadlari"dir. Qarz bo'yicha xarajatlarini hisobga olish tamoyillari MHXS (IAS) 23-"Qarzlarni bo'yicha xarajatlari" tomonidan belgilanadi. Lizing, ijara to'lovlarini hisobga olish tartibini belgilaydigan asosiy standart MHXS (IFRS) 16-"Ijara" va hokazo.

MHXSga muvofiq, xarajatlar kompaniya o'z faoliyatini to'xtatish yoki sezilarli darajada kamaytirish niyatida emasligini hisobga olgan holda, naqd pul to'lanishidan qat'i nazar, ular sodir bo'lgan davrda tan olinadi va hisobotda qayd qilinadi. Bundan tashqari, MHXSga muvofiq, xarajatlar ular tegishli bo'lgan hisobot davrida birlamchi hujjatlar, masalan, schyot-fakturalar bo'lmasa ham, xarajatlar sifatida tan olinishi kerak. Milliy standartlarda oxirgi shart yozilmagan.

Xalqaro standartlarda xarajatlarning majburiy tasnifi belgilanmagan. Tashkilotlar buxgalteriya siyosatida o'z tanlovlarini belgilab, xarajatlarni taqsimlash tamoyilini mustaqil ravishda tanlaydilar.

So'nggi paytlarda me'yoriy hujjatlarda va ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda buxgalteriya hisobining yagona tizimi, shu jumladan moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi kontseptsiyasini ishlab chiqish masalasi tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Bu bu, birinchi navbatda, MHXSga muvofiq milliy buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini isloh qilish bilan bog'liq.

Xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tan olish va hisobini yuritish bo'yicha berilgan tavsiyalar:

- buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari va tamoyillari asosida hisob siyosatini shakllantirish;
- amaldagi qonunchilik talablarini tahlil qilgan holda hisob siyosatini shakllantirishda, xarajatlarni hisobga olishda usullarni tanlash;
- xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar rejasi va undan foydalanish bo'yicha ko'rsatma ishlab chiqish;
- xarajatlarni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida tan olishda professional mulohazaga tayanish.

Xarajatlar korxonani rivojlantirishning maqbul strategiyasini tanlashga ta'sir qiluvchi va bugungi kunda va kelajakda maqsadli natijani shakllantirishni ta'minlaydigan toifalardan biridir. Shu munosabat bilan, xarajatlarni hisobga olish tizimi ichki va tashqi foydalanuvchilarga ham orqaga qarab, ham kelajakdagi xarajatlar to'g'risida ma'lumot berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 13.04.2016

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizom

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2022 yil 10 noyabrda "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-sonli buyrug'i

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom 05.02.1999

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

M.A.Xolmuradov

Toshkent amaliy fanlar universiteti assistenti

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligida "tijorat banklarining aktivlari - kredit, mikrokredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, hisoblangan foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulki, bo'lib-bo'lib sotilgan mol-mulk, balansdan tashqari buyumlar (qaytarib bo'lmaydigan)) kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) va boshqa barcha talablar, hisoblangan foizlardan tashqari. Aktivlar bilan bog'liq munosabatlarning mavjudligi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni keltirib chiqaradi.

Bizning fikrimizcha, bank aktivlari samaradorligini oshirish nafaqat bank tizimini, balki butun iqtisodiyotni rivojlantirish masalasidir. Ushbu jarayonda tijorat banklarida aktivlar samaradorligining pasayishi vakillik hisobvaraqlarida resurslarning etishmasligiga, bankning moliya bozoridagi mavqeining pasayishiga, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchsizligi va noroziligining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Banklardagi aktivlarning buzilish darajasining oshishi iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ishsizlikning ko'payishiga olib keladi. Bundan tashqari, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozning bank amaliyotiga salbiy ta'siri ma'lum bir mamlakat yoki mintaqa bilan cheklanib qolmay, balki butun jahon iqtisodiyotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuning uchun bizning tadqiqotlarimiz doirasida bank operatsiyalari samaradorligining uslubiy asosining quyidagi muhim yo'nalishlari aniqlandi:

1. Bankning faol operatsiyalari samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar, talablar va ko'rsatkichlarni aniqlashtirish;
2. Tizimlashtirish, bankning faol operatsiyalari samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi muammoli jihatlar va omillarni baholash va ularni bartaraf etish yo'llari;
3. Ijtimoiy-iqtisodiy asoslarni ta'kidlab, bankning makro va mikro darajadagi faol operatsiyalari samaradorligini ta'minlashning ahamiyati;
4. Bankning faol operatsiyalari samaradorligini ta'minlashning asosiy tamoyillarini aniqlash va ularni amalga oshirish shartlarini aniqlash;
5. Bank sohasidagi xorijiy tajribani o'rganish orqali bank operatsiyalari samaradorligini baholash choralari, usullari va vositalari va yondashuvlarini tizimlashtirish.

Tadqiqotimiz davomida bank operatsiyalari samaradorligining uslubiy asoslarining umumiy jihatlarini o'rganish, "bank aktivlari" va "bank aktivlari operatsiyalari" ni bank operatsiyalari samaradorligini aniqlashning asosiy mezonlari sifatida tasniflash, "bank aktivlari samaradorligi" tushunchasini aniqlashtirish maqsadga muvofiq edi". Shu munosabat bilan mamlakat iqtisodchilari tijorat banklari aktivlarining xususiyatlari, likvidlik va tavakkalchilik darajasi, shuningdek daromadlari bo'yicha guruhlariga bo'linadi. [1]

Bizning fikrimizcha, ushbu masalalarni hal qilishga individual yondashuv tijorat banklari aktivlarining real qiymatini aniqlashga va muammoli aktivlar hajmini kamaytirishning kompleks mexanizmini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xususan, bugungi kunda banklar amaliyotida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida stress testlari orqali bankning moliyaviy holatini baholashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu usul likvidlik darajasi, operatsion faoliyat, bozor qiymati, boshqaruv va xatarlarni baholash tizimi kabi omillarning aktivlar samaradorligiga sezilarli ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Xalqaro bank aktivlari samaradorligidagi turli xil nomutanosibliklar xalqaro bank sektoridagi inqirozga va xalqaro iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, bir qator rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishiga, ishsizlikning o'sishiga va banklarning bankrotligiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro miqyosda bank tizimining mexanizmlarini o'rganish, xalqaro bank aktivlarini shakllantirish va taqsimlash tamoyillarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Shu munosabat bilan O'zbekistonning ichki moliya bozorini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mahalliy bozor sig'imi kichik va mahalliy kapital bozori rivojlanmagan va mamlakatda xususiy sektorning spekulativ qarzlarini ta'minlash uchun faol bozor mavjud emas. Hukumat ishtirokining yuqori darajasi, huquqni muhofaza qilish organlarida shaffoflik va tengsizlikning yo'qligi tufayli bank tizimiga va mamlakatga sarmoya kiritish xavfi yuqori. Aholining xarid qobiliyatining pastligi majburiyatlarni jalb qilish va bank mahsulotlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Xalqaro talablarga, shu jumladan muvofiqlik tizimi, moliyaviy hisobot va korporativ boshqaruv standartlariga muvofiqlik darajasi past. O'zbekistonda kreditlash amaliyoti va andarrayting standartlari jahon standartlaridan orqada qolmoqda. Davlat ko'pincha kreditlash qarorlarini qabul qilish jarayoniga aralashadi. Markaziy bank tizimning shaffofligini oshirishga qaror qildi, shu jumladan tariflarni pasaytirish va bir qator bank xizmatlari uchun komissiyalarni bekor qilish bo'yicha tavsiyalar. Moliya institutlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga, omonatlarni kafolatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan yangi standartlarni joriy etish.

Bank tizimining investitsiyalarga ta'sirini kamaytirish va ularning jozibadorligini oshirish maqsadida pul-kredit siyosatini liberallashtirish va inflyatsiyaga yo'naltirishni takomillashtirish. Yana bir muammo-banklar va davlat idoralari o'rtasida mahsulotlar bo'yicha hamkorlikning yo'qligi.[2]

Ushbu jarayonlarni takomillashtirish bir qator omillarga asoslanadi: jahon tajribasidagi mavjud modellardan (davlat sektori ishtirokining yuqori darajasi) rivojlanish institutlari orqali moliyaviy oqimlarni taqsimlashga bosqichma-bosqich o'tish, xususiylashtirish va bank tizimini yanada to'liq liberallashtirish. Rossiya tajribasini keltirish mumkin. Yaponiya va Singapurda xususiy va mustaqil banklar, shu jumladan davlat loyihalari rivojlanish institutlarida amalga oshiriladi. [3]

Taxlil va natijalari: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021 yilda mamlakatimizda bank hisobvaraqlariga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida deyarli 3 barobar, 4,3 marta oshgan.jismoniy shaxslar. Duetfastrukturaning rivojlanishi, bank xizmatlarining tarqalishi asta-sekin o'sib

bormoqda, ammo aholining katta qismi hali ham asosiy bank mahsulotlari bilan ta'minlanmagan.

Yuqoridagi vazifalarni hal qilish uchun zamonaviy dasturiy ta'minotdan samarali foydalangan holda bank mahsulotlari turlarini kengaytirish va aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish zarur. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda tijorat banklari bir necha yillardan buyon zamonaviy innovatsion dasturiy ta'minot va tizimdagi maxsus platformalar asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Darhaqiqat, mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasini yaxshilash uchun katta ma'lumotlar, ilg'or tahlillar va yangi texnologiyalardan foydalanadigan tashkilotlar kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti bo'lgan ishonch, shaffoflik va daromadni shakllantirish va rivojlantirishlari kerak. Bugungi kunda "bank xizmatlari bozorida zamonaviy FinTech va blockchain texnologiyalarining joriy etilishi moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi".[4]

Evropa axborot texnologiyalari korporatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, kelgusi 5 yil ichida bankning kelajagi uchun to'rta transformatsion muammo va imkoniyatlar mavjud, shu jumladan mijozlarning keng ehtiyojlarini qondirish; narxlarni optimallashtirish, bunda raqamli raqobat samaradorligi tufayli banklar va kredit uyushmalari nodavlat operatsiyalardan ajratish va aqlli avtomatlashtirishdan foydalanishni o'ylashlari kerak; yangi daromad oqimlarini yaratish; xavfsizlik va muvofiqlashtirish tizimlarining rivojlanishi ularni kamaytirishi mumkin xarajatlar va biznesning o'sishiga olib keladi. [5]

Xulosa: Chakana bank sohasidagi innovatsiyalar [6] hisobot, 2021 tijorat banklari endi iste'molchilar talabini qondirish uchun bulutli texnologiyalar, ilg'or tahlillar va yangi tarqatish alternativlari kabi bulutli texnologiyalardan foydalangan holda raqamlashtirish va innovatsion tashabbuslarni oshirishga e'tibor qaratishlari kerak. Bank sektoridagi innovatsion texnologiyalar kelajakda harakatlantiruvchi kuch bo'ladi, ular bozorda raqobatbardosh bo'lish va bozor ehtiyojlarini qondirish uchun o'zlarini qayta aniqlay oladilar. Axborot texnologiyalari korporatsiyasi texnologiyalarning biznesga ta'sirini va kelgusi besh yil ichida integratsiya vaqtini hisobga oladigan juda foydali Global bank texnologiyalari radarini ishlab chiqdi. Shuningdek, IBM (International Business Machines) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro biznes operatorlari bank sohasiga bulutli (gibrid bulut) hisoblari bilan kirishgan va aksariyat banklar an'anaviy IT, davlat va xususiy bulutlarning optimal aralashmasini qidirmoqdalar. Yana bir yo'nalish-bu ochiq platformali dasturiy ta'minot asosida bank xizmatlarini amalga oshirish. Banklar va API uyg'unligi va dasturiy ta'minot butun bank ekotizimini, mahsulot va xizmatlarni, kelajakdagi innovatsiyalar va mijozlar tajribasini shakllantirishda foydalaniladigan uzatish tarmoqlari xizmatlarining turlarini o'zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ombaba K.B Mwengei, (2014). Assessing the Factors Contributing to Non – Performance Loans in Kenyan Banks, European Journal of Business and Management 5 (32), 2014.;

<https://uzbekistan.2035.uz>

<https://thefinancialbrand.com>

<https://www.digitalbankingreport.com>

<https://www.edgeverve.com>

<http://www.classes.ru/dictionary-english-russian-scienceenru-term-78341.htm>.

QIMMATLI QOG‘OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

G.Djumayeva
SamISI, assistant

Butun dunyoda xalqaro savdo-sotiq, eksport va import operasialari hajmining oshishi, iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining globallashuv jarayoni jadallik bilan o‘tib borishi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning hisob va hisobotlarini integrasiyalashuviga olib kelmoqda. O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etilishi iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga, kengayishiga turtki bo‘ladi. Jahon bozoriga chiqish, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlarini xalqaro fond birjalarining listing tadbirlariga kiritish uchun, kotirovkalash uchun albatta korxonalaridan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslangan hisobot ma‘lumotlari talab etiladi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar iqtisodiyotning muhim elementi hisoblanib, ular yordamda investitsiya, to‘lov, hisob-kitob va masalalar hal qilinadi. Qimmatli qog‘ozlar iqtisodiy kategoriya sifatida ma‘lum bir tomondan pul xususiyatiga ega boshqaruv vositasi hisoblanadi. Respublikamizda moliya bozorini rivojlantirish borasida samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Moliya bozorining tarkibi hisoblangan qimmatli qog‘ozlar bozori (fond bozori)ni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Xususan, respublikamizda Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4611-son Qarorning qabul qilinishi zamirida buxgalteriya hisobotlarini bosqichma-bosqich Moliyaviy Hisobning Xalqaro Standartlari (MHXS) talablariga moslashtirish kerakligi ko‘rsatilgan. Bu albatta xorijiy investorlarni respublikamiz fond bozoriga kirib kelishini rag‘batlantiradi hamda bu boradagi moliyaviy instrumentlar aksiya, obligatsiya, veksell, depozit va jamg‘arma sertifikatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘g‘liq munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Investorlarni jalb qilishning asosiy shartlaridan biri ularni qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi ishonchli ma‘lumotlar bilan ta‘minlash hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar tannarx, likvidlik, rentabellik, muomala tezligi, investitsion salohiyat kabi iqtisodiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Qimmatli qog‘ozlarning O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunda quyidagi turlari ko‘rsatilgan: aksiyalar, obligatsiyalar g‘azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari, qimmatli qog‘ozlarning hosilalari, veksellar.⁸⁴ Qimmatli qog‘ozlarning asosiy xususiyati shundaki, uning fond bozorida oldi-sotdi predmeti bo‘lib xizmat qilishida ko‘rinadi, ya‘nikim qimmatli qog‘ozlar bozorda erkin yoki ba‘zi cheklovlar bilan muomalada bo‘lib, kapitalning bir emitentdan(investordan) boshqasiga o‘tkazishni taminlaydi. Qimmatli qog‘ozlarning iqtisodiy kategoriya sifatida ularni hisob va hisobotda aks etirishda quyidagi xususiyatlarini inobatga olish lozim:

- Qimmatli qog‘ozlar ustav kapitalga egalik huquqini bildiradi;
- Qimmatli qog‘oz egasi bilan emitent o‘rtasida kredit munosabatlari aks ettiriladi;

⁸⁴ O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun 2015 yil 03 iyun.

- Qimmatli qog'oz(aksiya) emitent daromadining bir qismini olish huquqini beradi;
- Aksiya egalari aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi;
- Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatining o'sishidan daromad olish imkoniyatini beradi;
- Qimmatli qog'ozlar kredit olishda garov funksiyasini bajara oladi;
- Qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsitsiya) korxonaga tugatilganda uning mulkidan ulush olish huquqini beradi.

Hozirgi kunda respublikamizda amalda bo'lgan hisobotlar foydalanuvchilar (investorlar)ning ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi, chunki hisob va hisobotlarga soliq hisobi nuqtai nazaridan yondashiladi.

MHXS ga o'tish bir tomondan iqtisodiyotga nafi tegadi, ya'ni xalqaro moliya tashkilotlari hisoblangan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarni kengaytirib, iqtisodiyotga chet el investitsiyasini jalb etadi, mamlakatning investitsiyaviy muhitini yaxshilaydi. Shu bilan bir qatorda hisob ishlarini xalqaro darajaga ko'tarishda MHXS muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan MHXS lari asosida hisob yuritishdan davlat manfaatdor; o'z mablag'larining sarflanishi ustidan nazorat olib borishi, to'g'ri va ob'yektiv, shaffof ma'lumotlarga hech qanday qo'shimcha xarajatlarsiz ega bo'lishidan investor va ta'sischi manfaatdor, aks holda ular yana qo'shimcha mablag' sarflab hisobotlarni transformatsiya qildirish xarajatlarini amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Va nihoyat, MHXSlari asosida tuzilgan hisobot ma'lumotlaridan foydalanish korxonaga boshqaruvida ob'yektiv menejmentlik qarorlarini, strategik rejalar qabul qilinishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar korxonalar MHXS lari asosida hisob va hisobot yuritishi quyidagilarni ta'minlaydi:

- korxonalar faoliyatidagi ma'lumotlarning ochiqligi, aniqligi, shaffofligi va konkretlashgan axborotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi;
- xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning investitsion jozibadorligini oshiradi;
- boshqaruv qarorlarining ob'yektiv, real qabul qilinishiga olib keladi;
- korxonaga faoliyatini tahlil qilishda imkoniyatlar kengayishiga yordam beradi;
- moliyalashtirishning raqobatbardosh resurslarini topishda yordam beradi.

Shuningdek, korxonalarining hisob siyosatida qimmatli qog'ozlar aktiv sifatida ularning kirimi, harakati, chiqib ketishi(sotilishi) tartibi yetarlicha yoritilishi hamda MHXS va BHMSga asosan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning baholanishi qaysi baholarda yuritilishi, qayta baholanishi hisob siyosatida ko'rsatilishi lozim.

Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini fond bozorida savdo faoliyatini rag'batlantirish va kengaytirishga yo'naltirish lozim. MHXS asosidagi hisobotlari ularning jahon bozoriga chiqishiga, respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalariga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga, investorlar

ko‘lamining kengayishiga va fond bozorining rivojlanishiga, shuningdek, kadrlar malakasini hamda hisob va hisobotlarni xarqaro talab darajasida yuritilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun 2015 yil 03 iyun.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun 2016 yil 13 aprel.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.

C.Н.Ташназаров “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари” Тошкент “IQTISOD-MOLIYA” 2019.

<http://www.lex.uz> -O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.

<http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

<http://www.norma.uz>

<http://mdl.ifrs.academy>

<http://spmost.ru>

www.ifrs-professional.com

EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

A.Misirov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

«Buxgalteriya hisobi» kafedrasi stajyor assistenti,

Sh.Sh.Usmanov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Jahon moliyaviy inqiroz sharoitida eksport-import operatsiyalarni, ya’ni tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish jahon bozorining aktiv ishtirokchisi hamda sub’ektning bosh maqsadidir. Bu bevosita korxonalar, firma mahsulotlarining jahon bozoriga chiqishi va uni band etishi, o‘z xaridorini topishida korxonalar istiqbolini belgilashi, faoliyati natijaviyligini o‘stirishning muhim omili sifatida qaraladi. Hozirgi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda eksport-import operatsiyalari hisobini yuritishda qator noaniqliklar mavjud va ularni hal etish jahon moliyaviy inqirozi sharoitida hozirgi kunning aktual masalalaridan hisoblanadi.

Hisob-tahliliy sistemaning asosiy elementi hisoblangan hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning buxgalteriya hisobi va soliq hisobini yuritish tamoyillarini shakllantirishi lozim. Amaliyotda eksport-import operatsiyalari bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar buxgalteriya va soliq hisobi uchun hisob siyosati buyruqlarida muhim jihatlarni konkretlashtirmaydilar. Xususan, hisob siyosati buyruqlarida eksport va import tovarlari qiymatini shakllantirish hamda hisobdan chiqarish tamoyillari ochib berilmaydi.

24.02.2020 yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁸⁵gi O‘zbekiston Respublikasi

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Prezidentning qarori eksport-import operatsiyalar bilan hisob-kitoblarni yangi pog'onaga chiqish vazifalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga kiritilayotgan tovarlar tannarxini shakllantirish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda to'liqligicha ochib berilmaydi. Eng yaxshi vaziyatda bu korxonalarining birinchi tartibdagi standart subschyotlardan foydalanib, hisob variantlarini ko'rib chiqishdir. Bizning fikrimizcha, bu moment hisob siyosatida to'liqroq aks ettirilishi hamda buxgalteriya va soliq hisobida import tovarlari tannarxini shakllantirish tartibini batafsil ochib berishi lozim.

O'rganilayotgan ob'ektlar hisob siyosatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, har bir hisob siyosatida tovar-moddiy zaxiralarning xaqiqatdagi tannarxini shakllantirishning standart shakli keltirilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bosh buxgalterlari hisob siyosati tuzish va tasdiqlashda hisob siyosatining korxonaga uchun muhim tashkiliy xujjatligiga ahamiyat bermasdan, tayyor shablonlardan foydalanadilar.

Bunday yondashuv ob'ektiv tarzda ikita printsipliy havfni tug'diradi. Birinchidan, korxonada boshqaruv ob'ektlarining "xilma-xilligi" sababli noaniq, qarama-qarshi, ya'ni sifatsiz qonunchilikni yuzaga kelishi, turli maqsadlar uchun bir xil turdagi terminologiyalar va tushunchalardan foydalanish riski oshib ketadi va albatta, buyruqlarning bajarilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ikkinchidan, individual, ya'ni "har bir iste'molchi ostida" ma'lumotlar sistemasini yaratishga sarf-xarajatlar yuki keskin oshib ketadi va buning oqibatida ratsionallik tamoyiliga muvofiq qonun chiqaruvchini u yoki bu jabhada talablarini to'liq bajarmaslikka, foydalanuvchilarni kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlanmaslikka olib keladi.

Hisob sistemasi sifatida olingan boshqaruv ob'ektlariga nisbatan "tafovutlar bo'yicha boshqaruv" tamoyilini qo'llash yuzaga kelgan hisob amaliyotida muqobil yo'l hisoblanadi. Bu hamma iste'molchilarning informatsion talabini maksimal darajada ob'ektiv ta'minlaydigan va u asosida alohida informatsion sistema yaratadigan asosiy sistemani tanlashni anglatadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisob siyosati hisob jarayonining – uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarini o'z ichiga oladi. Uslubiy qismida xo'jalik sub'ektlarining aktivlar va majburiyatlarini baholash usullarini, turli aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash usullarini qo'llash va boshqalar ko'rsatiladi. Texnik qismida sintetik va analitik hisob schyotlari asosida yuqoridagi usullarni hisob registrlarida qanday amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Tashkiliy qismida korxonada buxgalteriya xizmatini tashkil qilish shakli va uning boshqa strukturaviy bo'linmalar hamda ishlab chiqarish, moliyaviy xizmatlari o'rtasida o'zaro munosabatlari ko'rsatiladi.

Agarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashkiliy va uslubiy qismlarini shablon asosida shakllantirilsa, mos ravishda texnik qismi ham standart kshrinishga ega bo'ladi. Tovar-moddiy zaxiralarga nisbatan ko'p variantli tarzda hisob siyosatini shakllantirish muhim ma'no kasb etadi va bu import operatsiyalari ma'lumotlarini aks ettirishda hisob siyosatining uslubiy va texnik qismlari yaratishda to'liqroq sistemali yondashuvni ta'minlaydi.

Ko'p hollarda, tashqi savdo shartnomalari bo'yicha eksportyor uchun mahsulotni (tovarni) yuborish (ortib yuborish) bilan egalik huquqini sotuvchiga o'tish vaqti to'g'ri

kelmaydi. Shuning uchun, yuborilgan (ortib yuborilgan) tovar moddiy zaxiralari 2970 “Yo‘ldagi tovarlar” schyotida aks ettirilib, eksportyor balansida turishi lozim.

Eksport qilinadigan mahsulotlarning (tovarlar) etkazib berilishi savdo invoysi (schyot-faktura), xalqaro transport xujjatlari, bojxona yuk deklaratsiyasi va boshqa xujjatlar bilan xujjatlashtiriladi. Bunda eksportyor mulkni xaridorga berishi (ortib yuborish) summasiga:

Debet 2970 “Yo‘ldagi tovarlar” schyoti

Kredit 2910 “Ombordagi tovarlar” schyoti yoki 2810 “Ombordagi tayyor mahsulot” schyoti kabi buxgalteriya yozuvi o‘tqaziladi.

Mahsulotni eksportga to‘g‘ridan-to‘g‘ri etkazib berishda ortib yuborilgan mulkning hozirgi davrdagi joylashgan joyini buxgalteriyada aks ettirish mumkin emas. Yuk etkazib berish bo‘yicha davlatlararo kelishuvga ega bo‘lmagan davlatlarga mahsulotlar (tovarlar) eksport qilishda sotuvchi ularni butun etkazib berish yo‘lidagi joylashgan joyini nazorat qilish uchun 2970 schyoti tarkibida quyidagi alohida analitik schyotlarni ochish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- “Yo‘ldagi eksport qilingan tovarlar O‘zbekistonda”;
- “Eksport qilingan tovarlar O‘zbekistondagi bojxona omborlarida”;
- “Eksport qilingan tovarlar xorijdagi omborlarda”;
- “Yo‘ldagi eksport qilingan tovarlar xorijda”.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda bu yo‘sinda hisobni tashkil qilish korxonada tovar-moddiy zaxiralari bo‘yicha analitik hisobning yuqori darajada tashkil qilinganligidan dalolat beradi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ko‘plab xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlarining pastligi korxonalar faoliyati uzluksizligi ta‘minlay olmaydi. Shu maqsadda korxonalarda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bitimlar hisob-kitobi akkreditiv hisob-kitob shaklida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq eksport-import operatsiyalari bo‘yicha xorijiy valyutada hisob-kitoblarni tugatish muddatiga qarab, pul mablag‘larini zaxiralash talabi belgilangan. Bu hol shartnoma bo‘limlari operatsiyalari va ularni amalga oshirish muddatlarining analitik hisobini tashkil qilishni talab etadi. Uzoq muddatli shartnomalarni tuzishda ularni amalga oshirishda alohida bosqichlar bo‘limida analitik hisobni tashkil qilish zarur.

Ayniqsa, jahon moliyaviy inqiroz sharoitida shartnoma summasining noaniqligi eksport-import operatsiyalari hisobini tashkil etishda jiddiy ravishda qiyinlashtiradi. Bu hol auksion, birja va boshqa shu turdagi savdolar natijasida tovarlarni sotish va sotib olish xolatlarida yuzaga keladi. Bunday xolatlarida buxgalteriya hisobida tovarlar partiyasining xaqiqatdagi narxlari va mo‘ljallangan (taxminiy), shartnomada ko‘rsatilgan narxlar o‘rtasida tafovutlar hisobini yuritish lozim.

Eksport tushumini qonunchilikda belgilangan qismini majburiy sotishni amalga oshiradigan eksportyor korxonalar bu operatsiyalarni o‘z muddatida amalga oshirilishini nazorat qilishlari hamda sotilishi majburiy emas valyuta mablag‘lari tushumini asoslovchi xujjatlarni vakolatli bankga o‘z vaqtida taqdim qilishlari lozim.

Xorijiy valyuta sotib olishda importyor korxonalar bankga asoslovchi xujjatlarni taqdim qilishga majbur, soʻngra import shartnomalari toʻlovlarini amalga oshirish maqsadida bu mablagʻlarni belgilangan muddatda oʻtkazishni nazorat qilishlari lozim.

Xalqaro savdo operatsiyalarida akkreditiv hisob-kitob shakli keng tarqalgan hamda ushbu shakl importyorlar va eksportyorlar riskini sezilarli darajada kamaytiradi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ushbu risklarning kamayishi korxonaning qator tahliliy koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir qilib, korxonaga barqarorligini taʼminlaydi. Biroq hisob-kitobning ushbu shaklini tanlash bank xizmatlari toʻlovlari boʻyicha qoʻshimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Bu turdagi shartnomalarni tuzishda xoʻjalik yurituvchi subʼektlar akkreditiv qoʻyish bilan bogʻliq xarajatlarni xorijiy sherik korxonaga hisobiga qoplashga xarakat qilishlari zarur.

3.04.2020 yilda roʻyxatdan oʻtgan, roʻyxat raqami 3229-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar toʻgʻrisida”⁸⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori bilan 7-bob. Akkreditivlar boʻyicha hisob-kitoblar tartibga solinadi. Shuningdek, akkreditiv bilan hisoblashish tartibi "Xujjatlar akkreditiv bilan hisoblashishning umumiy qoidasi va tartibi" (Jahon savdo palatasi №400) bilan oʻrnatilgan.

Ushbu hisoblashish tartibida toʻlovchining iltimosi va koʻrsatmasiga asosan (bank-emitent) quyidagi muomalalarni amalga oshiradi:

1. olingan yoki olinadigan tovarlarning qiymatini uchinchi shaxsga pulda yoki oʻtqaziladigan vasiqa (veksel)da toʻlashi;

2. boshqa bankka ushbu muomalalarni amalga oshirish huquqini berishi mumkin.

Ushbu shakllardagi hisoblashishlar quyidagi tartibda sodir boʻladi:

Isteʼmolchi (importchi) sotuvchi (eksportchi) tovarlarning tayyorligi toʻgʻrisidagi xabarni olgandan keyin oʻzining bankiga eksportchining bankida kontraktida koʻrsatilgan summada akkreditiv ochish uchun ariza beradi. Ushbu arizada summani toʻlash uchun zarur boʻlgan xujjatlar koʻrsatiladi va istemolchining banki sotuvchiga xizmat qiladigan bankda tegishli summa boʻyicha belgilangan muddatda akkreditiv ochadi. Sotuvchi (eksportchi) tovarlarni joʻnatgandan keyin oʻzining bankiga kontraktida koʻrsatilgan xujjatlarni topshirib tegishli summani akkreditivdan oladi va ushbu muomalani sotuvchining banki istemolchining bankiga tegishli xujjatlar bilan etkazadi. Akkreditivlar xorijda ochilganda ularning analitik hisobi akkreditivlar, davlatlar, aniq turlari va valyuta kodlari boʻyicha yuritishi maqsadga muvofiq.

5510-«Akkreditivlar» hisobvaraqida akkreditivlarda turgan mablagʻlar xarakati hisobga olinadn. Akkreditiv shaklida hisob-kitob qilish tartibi Markaziy bank qoidalarida belgilab qoʻyilgan.

Akkreditiv bankning shartli pul majburiyatnomasi boʻlib, bank bu xujjatni mijozning topshirigʻiga koʻra shartnoma boʻyicha uning kontragentiga beradi. Bu shartnomaga koʻra akkreditiv ochgan bank (emitent bank) mahsulot etkazib beruvchiga pul toʻlashi yoxud shunday toʻlovlar oʻtkazish uchun boshqa bankka vakolat berishi

⁸⁶ 13.04.2020 Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 3229-sonli qarori “Oʻzbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar toʻgʻrisida”

mumkin. Bunda mijoz akkreditivda ko'zda tutilgan xujjatlarni taqdim etishi va akkreditivning boshqa talablarini bajarishi shart qilib qo'yiladi.

Akkreditivlarning quyidagi turlari ochilishi mumkin:

-qoplangan (deponentlangan) yoki qoplanmagan (kafolatlangan):

-qaytarib olinadigan yoki qaytarib olinmaydigan.

Agar akkreditiv ochilayotgan vaqtda emitent bank to'lovchining o'z mablag'larini yoki unga berilgan kreditni emitent bank majburiyatlari amal qiladigan butun muddatga «Akkreditivlar» degan alohida balans hisobvarag'iga qo'yish uchun mahsulot etkazib beruvchi banki (ijrochi bank) ixtiyoriga o'tkazsa, bu qoplangan (deponentlangan) akkreditiv hisoblanadn.

Banklar orasida korrespondentlik munosabatlari o'rnatilgan hollarda qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditiv ijrochi bankda unga emitent bankning ijrochi bankdagi hisobvarag'idan butun akkreditiv summasini chiqarib olish xuquqini berish yo'li bilan ochilishi mumkin.

Har bir akkreditivda u qaytarib olinadigan yoki qaytarib olinmaydigan shakldaligi aniq ko'rsatilishi kerak. Agar shunday ko'rsatma bo'lmasa, akkreditiv qaytarib olinadigan deb hisoblanadi.

Qaytarib olinmaydigan akkreditiv uning asosida pul oladigan mahsulot etkazib beruvchining roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Akkreditiv faqat bitta mahsulot etkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilish uchun ochilishi mumkin.

Akkreditiv amal qiladigan muddat va hisob-kitob qilish tartibi to'lovchi bilan mahsulot etkazib beruvchi o'rtasidagi shartnomada belgilab qo'yiladi. Shartnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur:

✓ emitent bank nomi;

✓ akkreditiv turi va uni ijro etish usuli;

✓ akkreditiv ochilgani to'g'risida mahsulot etkazib beruvchiga xabar qilish usuli;

✓ akkreditiv bo'yicha pul olish uchun mahsulot etkazib beruvchi taqdim etadigan xujjatlarning to'liq ruyxati va aniq tavsifi:

✓ tovar jo'natilgandan keyin xujjatlarni taqdim etish muddati hamda ularni rasmiylashtirishga doir talablar;

✓ boshqa zarur xujjatlar va shartlar.

Emitent kafolatlangan akkreditivlarni xaridor bilan kelishuvga ko'ra va boshqa bank bilan o'rnatilgan korrespondentlik munosabatlari shartlariga muvofiq ochadi. Mahsulot etkazib beruvchining banki bunday akkreditivlarni belgilangan tartibda ijro etadi.

Akkreditiv ochmoqchi bo'lgan to'lovchi o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka (emitent bankka) akkreditiv uchun elektron ariza beradi. Bu arizada to'lovchi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

✓ akkreditiv ochish uchun asos bo'lgan shartnoma raqami;

✓ akkreditiv amal qiladigan muddat (akkreditiv yopiladigan kun va oy);

✓ mahsulot etkazib beruvchining nomi;

✓ akkreditivni ijro etuvchi bank nomi;

✓ akkreditiv ijro etiladigan joy;

✓ akkreditiv bo'yicha to'lovlar o'tjazilishiga asos bo'ladigan xujjatlarning to'liq va aniq nomi, ularni taqdim etish muddati va rasmiylashtirish tartibi (to'liq batafsil ro'yxat arizaga ilova qilinishi mumkin);

✓ akkreditiv turi va unga doir zarur ma'lumotlar;

✓ akkreditiv qanday tovarlar yuklab jo'natish (xizmatlar ko'rsatish) uchun ochilayotgani, tovarlar yuklab jo'natish (xizmatlar ko'rsatish) muddati;

✓ akkreditiv summasi;

✓ akkreditivni amalga oshirish usuli.

Elektron to'lov xujjatini to'g'ri rasmiylashtirish uchun to'lovchilar mahsulot etkazib beruvchidan akkreditiv bo'yicha uning nomiga ochilgan hisobvaraqa raqamini aniqlab olishlari kerak.

Akkreditiv ochish to'g'risidagi ariza akkreditiv shartlarinn bajarish uchun to'lovchi bankiga zarur mikdordagi nusxalarda taqdim etiladi.

Bank muassasasiga kelib tushgan akkreditivlar hisobini yuritish uchun to'lovchi bankida «puli to'lanadigan akkreditivlar» degan balansdan tashqari hisobvaraqa ochiladi.

Ijroga qabul qilingan akkreditiv mahsus shakldagi daftarda ro'yxatga olinadi. Unda sana, tartib raqami, mahsulot etkazib beruvchining nomi, akkreditiv muddati va summa ko'rsatiladi. Akkreditivga o'tkazish daftarda ro'yxatga olingan tartib raqami beriladi.

Korxonalarda pul mablag'lari akkreditivga kiritilishi 5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i debetida hamda 5110-«Hisob-kitob schyoti», 5210-«Valyuta schyoti», 6810-«Qisqa muddatli kreditlar» hisobvaraqlari va shunga o'xshash boshqa hisobvaraqlarning kredit qismida aks ettiriladi.

5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i bo'yicha hisobga olingan akkreditivdagi mablag'lar ulardan foydalanilishiga qarab (bank bergan ko'chirmalarga muvofiq), odatda, 6010-«Mahsulot etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» hisobvarag'i debetiga o'tkazib boriladi. Akkreditivlardagi foydalanilmagan mablag'larni bank ular olingan hisobvaraqda tiklagandan keyin bu summalar 5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'i kreditida 5110-«Hisob-kitob schyoti» yoki 5210-«Valyuta schyoti» hisobvaraqlari bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

5510-«Akkreditivlar» hisobvarag'iga doir tahliliy hisob korxonaga ochgan har bir akkreditiv bo'yicha yuritiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish va aholi farovonligini yanada oshirishda iqtisodiy sub'ektlarning barcha resurslari bilan optimal darajada ta'minlanishi va eksport va import salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha mavjud muammolarni nazariy va amaliy jihatdan yoritib berish masalalari dolzarb hisoblanadi.

1. Xorij firmalari bilan hisoblashishni amalga oshirayotganda hisoblashish turlari va mol etkazib berish shartlariga amal qilinadi. Xorijdagi firmalar bilan hisoblashishning quyidagi shakllari amalga oshiriladi:

- akkreditiv usuli bilan hisoblashishlar;
- tijorat krediti bilan hisoblashishlar;
- o'tkazish vasiqa (veksel)lari (tratta) yordamida hisoblashishlar;
- ochiq schyotlar bilan hisoblashishlar.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda hisob yuritish tartibini engillashtirish maqsadida eksport-import operatsiyalari hisobini avtomatlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Bunda eksport-import operatsiyalari hisobini avtomatlashtirish bosqichlari ishlab chiqildi hamda mazkur operatsiyalarni avtomatlashtirish tizimi taklif etildi.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalari hisobini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Xo'jalik subyektlarida hisob yuritishning tashkiliy, texnik, uslubiy jihatlarini mujassasamlashtirgan hisob siyosatini ishlab chiqishda hisoblashuv muomalalarini aks ettirish uchun ishchi schyotlar rejasida majburiyatlar hisobi bo'yicha aloxida schetlarni shakllantirish;

- Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha konsignatsiya muomalalari hisobini yuritishni bazaviy tamoyillarni umumlashtiruvchi aloxida Buxgalteriya hisobi milliy standartini tasdiqlash va joriy etish;

- Xo'jalik subyektida tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalarini o'z vaqtida buxgalteriya xujjatlarida to'g'ri aks ettirish bo'yicha xujjatlar aynanishi grafigini tasdiqlab olish va boshqalar.

Mazkur keltirilgan takliflar amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalar mavjud korxonalarda eksport va import operatsiyalari hisobi va tahlilini takomillashtirishga xizmat qiladi va shu asosda, istiqbolda mamlakatimizning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining muntazam oshib borishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida";

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni, Yangi taxriri. 2016 yil 13 aprel;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4707-son « Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2022 y. PF-198-son «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.01.2020 yildagi 46-son «"O'ZBEKINVEST" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»;

13.04.2020 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 3229-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"

Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev.—Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 56 b;

Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b;

BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR, ULARNI TUZISH, TASDIQLASH HAMDA TAQDIM ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

D. Abdijalilova

Fiskal institute o'qituvchisi

S. To'lamurodova

Fiskal instituti talabasi

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida g'azna ijrosi joriy qilindi, byudjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarni moliyalashtirishning byudjetdan tashqari manbalariga alohida e'tibor qaratilmoqda, hisob va hisobot tizimi zamonaviy axborot tizimlari joriy qilindi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor munosabatlarini rivojlantirish talablariga javob bera oladigan hisob tizimini yaratish muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan va berayotgan tub o'zgarishlar, ularni miqdor jihatdan ifodalash va sifat jihatdan tavsiflash, nazorat va tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlar olishda asosan hisob tizimiga murojaat qilinadi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining hisob yuritish tizimi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibini bozor munosabatlari talablari asosida qayta ko'rib chiqish, rivojlantirish va takomillashtirib borish davlatimiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

Byudjet asosan soliqlar asosida moliyalashtiriladi va shu tushgan tushumlar byudjet tashkilotlariga taqasimlanadi, shunday ekan har bir davlat soliq tushumlarini to'liq va to'g'ri nazorat qilishi kerak. Biz 2021 va 2022 yildan davlat byudjetining soliqlardan qancha tushum qilinganini va byudjetdan qancha xarajat qilinganini yillarni taqqoslab ko'rib chiqamiz.

2022-yilda bilvosita soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlaridan past bo'lishiga asosan qo'shilgan qiymat solig'ini qoplab berish haqiqatda 19,3 trln so'mni tashkil etib, prognozga (12,5 trln so'm) nisbatan deyarli 1,6 baravar ko'p qaytarilgani sabab bo'lgan.

Mobil aloqa xizmatlari va polietillen uchun aksiz solig'i stavkasining pasayishi, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish hajmining pasayishi aksiz solig'i tushumlari prognozining bajarilishiga ta'sir ko'rsatgan.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlarning ulushi (31,9 foiz) biroz kamaydi, bilvosita soliqlar budjet daromadlarining 35,4 foizini tashkil etdi. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i 11,8 foizni, boshqa daromadlar esa jami daromadning 20,9 foizini tashkil etdi.

2022-yilda foyda solig'i tushumlari 37 trln 649,9 mlrd so'mni tashkil qildi, shundan jami tushumning 17 trln 393,7 mlrd so'm yoki 46 foizi oltin va mis qazib chiqaruvchi korxonalariga to'g'ri keldi. Foyda solig'i tushumlari 713 mlrd so'mga, yoki 2021-yilga nisbatan 1,9 foizga kamaygan.

2021 va 2022 -yillar byudjet daromadlari

Daromadlar	2021 yil	2022 yil
Jami	164 799,4	201 863,7
Bevosita soliqlar	58 930,3	64 447,1
Foyda solig'i	38 363,3	37 649,9
Aylanma soliq	1 649,4	2 512,7
Jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i	18 917,7	24 284,5
Bilvosita soliqlar	56 290,4	71 390,2
QQS	38 439,0	52 189,4
Aksiz	13 086,5	13 455,0
Bojxona boji	4 764,9	5 745,7
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	23 036,4	23 912,8
Mol-mulk solig'i	2 457,3	4 015,4
Yer solig'i	4 082,8	5 305,9
Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	15 811,9	13 887,4
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	684,4	704,1
Boshqa daromadlar	26 542,2	704,1

Foyda solig'i tushumlari kamayishiga asosiy sabab amortizatsiya ajratmalari normalari o'rtacha 2 baravar oshirilgani bo'lgan, buning natijasida 1,3 trln so'm mablag' xo'jalik subyektlari ixtiyorida qoldirilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari 2021-yilga nisbatan 5 trln 366,9 mlrd so'm yoki 28,4 foizga o'sib, 24 trln 284,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Bu soliq tushumlarining oshishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

- budjet sektoridagi eng kam ish haqi miqdorining 2021-yilga nisbatan o'rtacha 14,7 foizga o'sishi;
- Ishchi xodimlar sonining legalizatsiya hisobiga soliq to'lovchilar sonining 5 mln 18 ming nafargacha oshishi (2021-yilga nisbatan 215 mingga yoki 8 foizga ko'p);
- Mehnatga haq to'lash jamg'armasi miqdorining 156,9 trln so'mgacha oshishi (2021-yilga nisbatan 30,7 trln so'm yoki 25 foizga ko'p).

Aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha tushum 2021-yilga nisbatan 863,3 mlrd so'mga yoki 52,3 foizga oshgan va 2 trln 512,7 mlrd so'mni tashkil qilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i 2021-yilga nisbatan 13 trln 750,4 mlrd so'm yoki 35,8 foizga oshgan va 52 trln 189,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Aksiz solig'i tushumi 13 trln 455,0 mlrd so'mga yetdi va 2021-yilga nisbatan 368,5 mlrd so'm yoki 2,8 foizga oshdi. Bojxona bojlari bo'yicha tushumlar 5 trln 745,7 mlrd so'mni tashkil etdi (2021-yilga nisbatan 980,8 mlrd so'mga ko'p). Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushum 23 trln 912,8 mlrd so'm, 2021-yilga nisbatan 876,4 mlrd so'm ko'proq bo'ldi.

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari 2021-yilga nisbatan 1 trln 924,6 mlrd so'm, yoki 12,2 foizga kamaydi va 13 887,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy omil qimmatbaho va rangli metallar bo'yicha stavka 10 foizdan 7 foizga, oltin

bo'yicha davlat ulushiga ega korxonalar stavka 15 foizdan 10 foizga pasaytirilgani va soliqning unifikatsiya qilinishi bo'lgan. Bularning ortidan tushumlar 2,8 trln so'mga kamaygan.

Mol-mulk solig'i tushumlari 4 trln 15,4 mlrd so'mga yetgan va 2021-yilga nisbatan 1 trln 558,1 mlrd so'm, yoki 63,4 foizga oshgan. Tushumlar yuridik shaxslarda 2021-yilga nisbatan 2 barobarga, jismoniy shaxslarda 10,6 foizga oshgan. Yer solig'i tushumlari 2021-yilga nisbatan 1 trln 223,1 mlrd so'm, yoki 30 foizga oshgan va 5 trln 305,9 mlrd so'mni tashkil etgan.

Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 42 trln 113,7 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021-yilga nisbatan 58,7 foizga oshdi. Tushumlarning asosiy qismi davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar to'lagan dividendlar hisobiga to'g'ri kelgan — 27 trln 247,2 mlrd so'm.

2-jadval

2021 va 2022 -yillar byudjet xarajatlari

Xarajatlar	2021	2022	Farq(+/-)
Xarajatlar jami	188 257,1	236 692,0	48 434,9
Ijtimoiy xarajatlar	92 013,6	117 691,9	25 678,3
Iqtisodiy xarajatlar	21 169,7	34 090,9	12 921,2
Markazlashgan investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	29 900,1	27 807,0	-2 093,1
Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlari saqlash xarajatlari	8 479,2	11 468,6	2 989,4
Sud organlari saqlash xarajatlari	849,8	1 117,6	267,8
O'zni o'zi boshqarish organlarini saqlash hamda davlat tomonidan NNT larni qo'llab-quvvatlash xarajatlari	1 132,7	1 068,9	-63,8
O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining zahira jamg'armalari	1 401,8	1 811,0	409,2
Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish xarajatlari (foiz xarajatlari)	2 238,2	3 528,5	1 290,3
Boshqa xarajatlar	31 072,1	38 107,6	7 035,5

Bu ikki yil o'rtasidagi farqni birdan ko'rishini va pragnoz qila oladigan sun'iy intellektlarni yaratilsa bu nafaqat budjet tashkilotlari uchun balki soliqdan tushayotgan tushumni aniq ko'rsatishga yordam berdi va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga

katta yordam beradi. Jumladan, Data mining sohasini O‘zbekistonda ham rivojlantirib soliq hisobotlarini xalqaro hisobotlar bilan bog‘lab tuzishga xarakat qilsak bu mamlakatimizni xalqaro miqyosga chiqishini yanada tezlashtiradi. Sababi O‘zbekistonning iqtisodiy, tabiiy, iqlim imkoniyatlariga qiziqgan ko‘plab xorij mamlakatlarining yirik-yirik investeralari o‘zlarining mablag‘larini kiritishlari uchun bizning soliq siyosatimiz ular uchun muhim. Shu nuqtai nazardan shakllantirilayotgan soliq hisobotlari xalqaro hisobotlar bilan bog‘lab tuzilsa hisobotlarni o‘qiy olish osonlashadi va qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Davlat budgetining 2022-yil xarajatlari 2021-yilga nisbatan 48 trln 434,9 mlrd so‘mga oshib, 236 trln 692 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Hozirda O‘zbekistonda IT sohasini rivojlanishi byudjet sohasiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda va asta-sekinlik bilan raqamli tizimga o‘tmoqda. Biz bu tahlil orqali shuni ayta olamizki byudjetdagi xarajatlar sarfini tezkor raqamlashtirishga o‘tkazish va bu ma‘lumotlardan oddiy xalq ham to‘liq ko‘ra olishini ta‘minlash. Bu tizimni takomillashtirsak fuqorolarning davlatga bo‘lgan ishonchi ya‘nada ortadi. Hamda shu qilingan xarajatlar bo‘yicha hisobotlarni odam omillarisiz, byudjet daromadlari va xarajatlari yoritib boradigan sayt ochish va yillik hisobotlar to‘liq shunda ko‘rsatilishi taminlasak byudjetdagi pullarni to‘g‘ri yo‘naltirishni ta‘minlay olamiz. Moliya vazirligi ham shundagi axborotlardan foydalanib byudjet tashkilotlarini nazorat qilish.

Foydalanilgan adbiyotlar ro‘yxati:

<https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/budget-2022/>

https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/davlat_byudjeti_-_2023_asosiy_kursatkichlar

<https://www.spot.uz/oz/2023/11/01/state-budget-draft/>

Qo‘ziyev.I.N, G‘aniyev.S.H.V, Ramazonov.A.S “Byudjet hisobi va nazorati” kitobi

MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH

A.B.Jo‘raev

TDIU, Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot (2-son shakl) xo‘jalik yurituvchi subyektlarning muayyan hisobot davrida erishgan moliyaviy natijalarini hamda ularni shakllantiruvchi elementlarni, ham tizimli, ham mantiqiy tartib asosida aks ettirib beradi. Bu shaklda taqdim etilgan ma‘lumotlar turli foydalanuvchilar tomonidan belgilangan maqsadlarga ko‘ra foydalaniladi. Shu sababli moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot shaklidagi har bir ma‘lumot juda ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababli mazkur hisobotdagi ma‘lumotlar hisob tizimidagi ma‘lumotlar sifati bo‘yicha belgilangan barcha talablariga (BHMS, MHXS) javob berishi shart.

Biroq, o‘rganishlarimiz natijalaridan ma‘lum bo‘lmoqdaki ushbu hisobot shaklida ham takomillashtirilishi zarur bo‘lgan qator holatlar mavjudligi ayon bo‘lmoqda. Misol uchun, moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha qoidalarda “Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum” moddasi bo‘yicha (010-satr) mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko‘rsatiladi, bunda soliqlar

(qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari chegiriladi.

010-satr asosiy (operatsion) faoliyatdan daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlari (9000) ma‘lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi deb ko‘rsatma berilgan.

Ikkinchi rasmiy manbada esa “Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar” da (9000) - tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”;

9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”;

9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar”;

9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi”;

9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar”, deb ko‘rsatma yozilyapti .

Shu yerda ta’kidlash kerakki yuqoridagi ikki rasmiy manbada mahsulot sotishdan sof tushum bilan mahsulot sotishdan daromad bir xil tushuncha tarzida tushuntirish berilmoqda.

Biroq amaliy biznes faoliyatida bu ikki tushuncha turli hil iqtisodiy munosabatlarni ifodalashi bilan bir birlaridan farq qiladi. Tushum - sotilgan mahsulot uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan pul mablag‘i xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvarag‘lariga kelib tushsa va bu muomala tegishli hujjatlar bilan tasdiqlansa, ana shu holatdagina kelib tushgan pul mablag‘i mahsulot sotishdan yalpi tushum deb ataladi. Sotishdan yalpi tushumdan unga tegishli bo‘lgan soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari (agar mavjud bo‘lsa) chegirilgandan so‘ng qolgan summa - mahsulot sotilishidan sof tushum deb nomlanadi. Tayyor mahsulotni sotishdan daromad - xo‘jalik yurituvchi subyektda hisoblashish prinsipidan kelib chiqib sotildi deb hisoblangan, mazkur muomala tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatdagi mahsulot sotish hajmidagi qiymatdir. Mahsulotni sotishdan daromad tarkibida sotishdan soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari bo‘lmaydi. Ushbu ko‘rsatkichni hisobda qayd qilish yoki tan olish sotilgan mahsulot uchun to‘lanishi shart bo‘lgan pul mablag‘i oqimini qachon va qay tartibda sodir bo‘lishiga bog‘liq emas.

Aytilganlardan ma‘lum bo‘lmoqdaki mahsulot sotilishidan sof tushum hamda tayyor mahsulotni sotishdan daromad tushunchasi bir xil mazmun kasb etmaydi (Faqat, ayrim holatlarga istisno qilinadi).

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobotning “Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum” moddasiga (010-satr) tegishli o‘zgartirish kiritish zarur.

Bizning qarashimizcha o‘zgartirish nafaqat aks ettiriladigan munosabatni aniq ifodalab berishi kerak, balki u metodik jihatdan MHXS talablariga ham javob berishi zarur deb hisoblaymiz.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUDJET TASHKILOTLARIDA MEHNAT VA UNGA HAQ TO‘LASH HISOBINI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI

D.Abdujalilova

Fiskal instituti o‘qituvchisi,

SH.S.Sattorov

Fiskal instituti talabasi

Budjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to‘lashning amaldagi tizimi, xodimlarni mehnatiga haq to‘lashni avtomatlashtirilganligini va shu kunga qadar eng kam ish haqi miqdorlarni oshganligi va ularni UzASBO dasturida ishlatilishini joriy etilishi va mehnatga haq to‘lash schyotlarini joriy etilishi bugungi kundagi dolzarb masaladir. Budjet tashkilotiga reja asosida mehnat haqi fondi belgilanadi. Mehnat haqi fon-di rejadagi va hisobotdagi fondlarga bo‘linadi. Vaqtning muayyan davrida xodimlarga mehnat haqi to‘lash uchun budjet tashkilotining xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan pul mablag‘lari summasi mehnat haqining rejadagi fondi hisoblanadi. Muayyan davr uchun shtatdagi va shtatdan tashqaridagi xodimlarga haqi-qatda hisoblangan mehnat haqi summasi mehnat haqining hisobotdagi fondi hisoblanadi. Mehnat haqi qaysi vaqtga to‘lanayotganligi, miqdori va bajarilgan ishlarning sifatiga qarab asosiy va qo‘shimcha mehnat haqiga bo‘linadi.

Xodimlarning ishlagan vaqti uchun yoki bajargan ishlarining miqdori va sifati uchun to‘lovlar asosiy mehnat haqi hisoblanadi. Xodimlarga qonunda ko‘zda tutilgan ishlagan vaqti (ta‘til vaqti uchun to‘lov, davlat va jamoat vazifalarini bajargan davri uchun to‘lov, o‘smirlarga imtiyozli soatlari uchun to‘lov va boshqalar) uchun to‘lovlar qo‘shimcha mehnat haqi hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarida xodimlarning ish haqini hisoblashda tashkilotlarda UzASBO dasturi orqali avtomatlashtirilgan tarzda hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 17 dekabrda 105-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 22 dekabrda 2169-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 285-bandiga muvofiq, ish haqini hisoblab yozish uchun quyidagilar asosiy hujjatlar hisoblanadi: tashkilotning ishga qabul qilganlik, bo‘shatganlik va xodimlarni tasdiqlangan shtatlar jadvali hamda ish haqi stavkalariga muvofiq joydan-joyga ko‘chirish haqidagi buyruqlari, 421-shakldagi foydalanilgan ish vaqti hisobi, ish haqini hisoblash tabeli va boshqa hujjatlar. Tabellar tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan tayinlangan shaxslar tomonidan har oyda belgilangan shaklda yuritiladi. Tabellar butun tashkilot bo‘yicha yoki tuzilmaviy bo‘linmalar (bo‘limlar, bo‘linmalar, fakultetlar, laboratoriyalar va boshqalar)ga bo‘lingan holda yuritiladi. O‘yning oxirida tabel bo‘yicha ishlangan kunlarning umumiy miqdori, shuningdek, ortiqcha ishlangan soatlar aniqlanadi. Budjet tashkilotlarida ish haqi har oyda xodimlar mehnatiga haq to‘lash tizimi-vaqtbay, ish natijalariga ko‘ra yoki vaqtbay-ishbay bo‘lishiga qarab hisoblanadi.

Bunda quyidagi qoidalarga rioya etiladi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoevning tegishli farmoniga binoan, 2023 yil 1 maydan boshlab budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 7 foizga oshiriladi. Hujjat aholi turmush darajasini yaxshilash va fuqarolar daromadlarini izchil oshirishga qaratilgan chora tadbirlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida qabul qilindi.

2023 yil 1 maydan boshlab:

- mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori–980 ming so‘m miqdorida (oldin 920 ming so‘m);
- bazaviy hisoblash miqdori–330 ming so‘m miqdorida (oldin 300 ming so‘m) belgilandi.

Mehnatga haq to‘lashni ikkita shakli mavjud: ishbay va vaqtbay.

Mehnat haqini hisoblashning ishbay shaklida ish haqi –ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, sifati, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga ko‘ra asosiy va qo‘shimcha ish haqi tarkibi hisoblanadi.

Budjet tashkilot-larida xodimlarning ish haqini hisoblashni avtomatlashtirishni tashkil etish, yuritish va ularning harakatini hisobotlarda aks ettirish bilan bog‘liq amaliyotdagi holatlarni kuzatish mumkin.

Budjet tashkilotlarida «UzASBO» dasturini qo‘llashning quyidagi afzalliklarini aytib o‘tish mumkin:

- Me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga kiritiladigan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar dasturiy majmuada namoyon bo‘ladi:

- Foydalanuvchilarning kompyuteri nosoz holatga kelganida ma‘lumotlar yo‘qolmaydi va foydalanuvchi boshqa kompyuterdan dasturda ishlashda davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan 2169-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma».

Gulizahro, T., Shodiyor, X., Zulhumor, S., Feruza, B., & Mohinur, Y. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI. In "

Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 90-92).

Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In "

Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).

<https://lex.uz/docs/-4514781>

<https://lex.uz/docs/1714689>

MILLIY MOLIVAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

D.B.Xoliqova

TMI, II bosqich magistratura bo'limi talabasi

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash ustuvor maqsadlar qatorida belgilab olingan [1]. Iqtisodiyotning turli sohalari hamda tarmoqlarida yuqoridagi kabi maqsadlarga erishish yoki bu boradagi vazifalarni o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajarilishida xalqaro tajriba va amaliyotlardan maqbul foydalanishni talab etadi. Mazkur fikr to'la ma'noda hisob sohasiga ham tegishlidir.

Mikroiqtisodiyotdagi buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS ga (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) transformatsiya qilish, mazkur o'zgarish uchun institutsional asoslarni amalga oshirish, hozirgi davrda villiy hisob timidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu o'zgarishlar natijasida tarkib toptirilgan mexanizmlarni samarali ishlashi makroiqtisodiyotda investitsion muhitni yaxshilashga ijobiy ta'sir qiladi. Biznes tashkilotlari axborot tizimlarini milliy chegaradan chiqib xalqaro maydonlariga kirib borishini ta'minlaydi, yoki aksincha. Qisqa qilib aytganda milliy buxgalteriya hisob tizimi bilan xalqaro buxgalteriya hisobi tizimi uyg'unlashadi. Natijada mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti doirasi yanada kengayadi yoki xalqaro biznes maydoniga integratsiyalashadi. Demak, bu borada amalga oshiriladigan tadbirlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini MHXS ga transformatsiya qilish yoki unga uyg'unlashtirishda o'rganiladigan masalalar, ham miqdor, ham qamrov jihatdan katta hajmga ega. Shu sababli, biz, bu boradagi mavjud masalalarning barchasini bir tezis doirasida ko'rib chiqa olmaymiz. Tadqiqotimiz davomida o'rganilgan muammolarni yechimi bo'yicha ayrim qarashlarimizni fikrimizga misol tariqasida yoritib beramiz. Ya'ni, milliy iqtisodiyotimiz korxonalaridagi amalda bo'lgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar hamda tajribalar asosida takomillashtirilishi kerak bo'lgan muhim jihatlarini ko'rsatib o'tamiz.

Olib borilayotgan tadqiqot natijalari shu holatni ko'rsatmoqdaki BHMS (Buxgalteriya hisobi milliy standartlari) asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXS ga transformatsiya qilish yoki uyg'unlashtirish uchun, avvalo, ularning fundamental asoslariga keng ko'lamda e'tibor qaratish shart. Chunki, BHMS hamda MHXS ning fundamental asoslarida, garchand ko'p jihatdan o'xshashlik ta'minlangan bo'lsada, ulardagi ayrim ahamiyatli jihatlari bo'yicha farqlanishlar mavjudligi ham ayon bo'lmoqda. BHMS da esa mazkur yo'nalish bo'yicha amaldagi prinsiplar umumiy tavsif kasb etib, xususiy yo'nalishlar uchun tizimlashtirilmagan. Ushbu kamchilikni mavjudligi, avvalo, moliyaviy hisobotimizdagi axborotlarni sifatli bo'lishiga, bundan tashqari xalqaro maydonda axborotlardan foydalanuvchi mutaxassislarda milliy moliyaviy hisobotimizdagi axborotlarga bo'lgan ishonchga o'z ta'sirini ko'rsatishi

mumkin. Bu holat, mazkur masalani MHXS talabi va tartiblari asosida qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Misol uchun, standartlardagi moliyaviy hisobot axborotlariga sifat talablari bo‘yicha prinsiplarni ko‘rsatib o‘tish mumkin (1-jadval)

1-jadval

Moliyaviy hisobot axborotlarini sifat talablari bo‘yicha prinsiplari

Standartlar	Prinsiplar		
BHMS [6]	<ul style="list-style-type: none"> • Hisoblash. • Ikki yoqlama yozuv usulida hisob kitobni yuritish. • Uzluksizlik. • Xo‘jalik operatsiyalarini, aktivlar va passivlarni pul bilan baholash. • Ishonchlilik. • Ehtiyotkorlik. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mazmunining shakldan ustunligi. • Ko‘rsatkichlarning qiyosiyliigi. • Moliyaviy hisobotdagi betaraflik. • Hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi. • Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Tushunarlilik. • ahamiyatlilik. • Jiddiylik. • Haqqoniy va xolis taqdim. • Tugallanganlik. • Izchillik. • O‘z vaqtida taqdim etish.
BHXS, MHXS [3]	<p>1. Fundamental sifat xususiyatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o‘rinlilik; - muhimlik; - ishonchli taqdim etish. 	<p>2. Axborot foydaliligini oshiradigan sifat xususiyatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qiyoslanuvchanlik; - tekshiruvchanlik; - o‘z vaqtida taqdim etish; - tushunarlilik; - foydali moliyaviy hisobotning sarf-xarajatlar nuqtai nazaridan cheklovi. 	
GAAP [7]	<p>1. Asosiy sifatlar:</p> <p>a) O‘rinlilik:</p> <ul style="list-style-type: none"> - oldindan ko‘ra olish qiymati; - o‘tgan davrni baholash qiymati; - o‘z vaqtidalilik. 	<p>b) Ishonchlilik:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tekshirish imkoniyati mavjudligi; - haqqoniy aks ettirish; - xolislik. 	<p>2. Yordamchi sifatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - taqqoslanuvchanlik; - uzluksizlik.

1-jadval ma‘lumotlaridan ma‘lum bo‘lmoqdaki MHXS (yoki GAAR) da moliyaviy hisobot axborotlariga sifat talablari bo‘yicha prinsiplar aniq tizim asosida shakllantirilgan. Bundan tashqari, har bir alohida olingan prinsiplar shu yo‘nalishdagi munosabatlarni tartibga solib beradi. Tizimdagi prinsiplarni birgalikda amal qilishi esa moliyaviy hisobot axborotlarini yanada sifatli bo‘lishini ta‘minlaydi va belgilangan maqsadga erishiladi.

Yana bir muammoli jihat, ya‘ni moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (MHXS) hamda buxgalteriya balansida (BHMS) taqdim etiladigan ma‘lumotlar o‘rtasidagi farqlanishlarni mavjudligidir (2-jadval). Ta‘kidlash kerakki, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (MHXS) hamda buxgalteriya balansida (BHMS) taqdim etiladigan ma‘lumotlar o‘rtasida ko‘p jihatdan o‘xshashlik mavjud. Bu juda ham ijobiy holat. Biroq, bu ikki hisobot shaklida garchand oz sonli bo‘lsada shunday farqli jihatlar mavjudki, ularni borligi buxgalteriya balansi ma‘lumotlari, shu bilan birga boshqa milliy hisobot shakllaridagi ba‘zi bir ahamiyatli ma‘lumotlarga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot hamda buxgalteriya balansida taqdim etiladigan ma‘lumotlarni o‘zaro taqqoslash

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda (BHXS, MHXS) taqdim etiladigan ma‘lumotlar [2]	Buxgalteriya balansida (BHMS) aks ettirilishi lozim bo‘lgan axborotlar [4]
a) asosiy vositalar; b) investitsiya ko‘chmas mulki; v) nomoddiy aktivlar; g) moliyaviy aktivlar; d) ulushli qatnashish usuli bo‘yicha hisobga olingan investitsiyalar; e) biologik aktivlar; yo) zaxiralar; j) savdo va boshqa debitorlik qarzlari; z) pul mablag‘lari va pul mablag‘lari ekvivalentlari; i) sotishga mo‘ljallangan hisobdan chiqariladigan guruhlariga kiritilgan aktivlar jami; y) savdo va boshqa kreditorlik qarzlari; k) baholangan majburiyat; l) moliyaviy majburiyatlar; m) joriy soliq bo‘yicha majburiyatlar va aktivlar; n) kechiktirilgan soliq majburiyatlari va kechiktirilgan soliq aktivlari; o) sotish uchun mo‘ljallangan hisobdan chiqariladigan guruhlariga kiritilgan majburiyatlar; p) xususiy kapital tarkibida aks ettirilgan nazorat kuchiga ega bo‘lmagan ulushlar; r) bosh tashkilotning mulkdorlariga tegishli bo‘lgan, chiqarilgan kapital va rezervlar.	a) moddiy aktivlar; b) nomoddiy aktivlar; c) moliyaviy aktivlar; d) zaxiralar; e) debitorlik qarzi; f) pul mablag‘i va pul ekvivalentlari; g) kreditorlik qarzi; h) ajratmalar; i) foiz to‘lashni talab qiluvchi majburiyatlar; j) xususiy kapital va zaxiralar.

Misol uchun, aktivlarni qadrsizlanishini [5] milliy buxgalteriya hisob tizimimizda (BHMS) rasman mavjud emas. Bu esa, buxgalteriya balansida (BHMS) axborotlarni MHXS yoki xalqaro tajribalarga o‘xshash (Misol uchun GAAR) tarzda e‘lon qilishga jiddiy salbiy ta‘sir qilmoqda. Aktivlarni bir turi bo‘lgan asosiy vositalarni qadrsizlanishi hisobda e‘tiborga olinmasa ularning qiymatini adolatli baholab bo‘lmaydi. Bundan tashqari qadrsizlanish munosabatlari moliyaviy natijalarga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bu borada bildirgan fikrlarimizga xulosa qilib quyidagilarni aytib o‘tamiz. Mamlakatimiz iqtisodiyotini xalqaro bozorga tabora faol kirib borishi, xalqaro maydondagi mavjud munosabatlar, talablar hamda tartiblarga moslashishni zaruratga aylantirmoqda. Demak, amaldagi BHMS larini MHXS (BHXS) lariga imkon qadar to‘liq transformatsiya qilish davr talabidir.

Bu borada yuqorida aytib o‘tilgan kabi farqlanishlarni topib tezda bartaraf etish milliy hisob tizimidagi dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilinishi esa belgilangan strategik maqsadlarga erishishdagi muhim tadbirlardan biri bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'ZBEKISTON — 2030» STRATEGIYASI TO'G'RISIDA PF-158-son Farmoni, 2023 yil 11 sentyabr. (1-ilova II bo'lim 45-maqсад).

1-son BHXS: "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" (10 bet).

Moliyaviy hisobotning konseptual asosi. BHXS bo'yicha Kengash tomonidan 2010 yil sentyabrda chop etilgan.

1-son BHMS: "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" (77-band).

36-son BHXS: Aktivlarning qadrsizlanishi.

BHMS: "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos"

Donald E. Kieso, Jrry J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ASSONTING. John Wiley & Sons, USA. 2004. R. 46.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

M.R.Tolipova

Toshkent Moliya Instituti magistranti

Raqamli iqtisodiyot sharoiti davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinlarda – MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno ⁸⁷.

MHXS ga o'tishning afzalliklari

MHXS xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikda biznesni yanada samarali olib borishga yordam beradi, chunki har ikki tomon uchun ham tushunarli bo'lgan yagona moliyaviy hisobot tizimi mavjud bo'ladi. Bunday hisobot barcha manfaatdor tomonlar uchun juda ma'lumotli va foydalidir. Bundan tashqari, hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirilishi O'zbekiston kompaniyalarining tashqi bozorlarga chiqishi uchun imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, MHXS dan foydalanish resurslarni tejashga yordam beradi va tashqi bozorlarga investitsiyalarni jalb qilishda kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «MHXSga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4746047>

MHXSni joriy etishning eng asosiy muammolaridan biri – uslubiy kuzatuvning kamchiligi. MHXSni joriy etuvchilar uchun hujjatlarning butun to‘plami 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son qaror, o‘zbek tiliga tarjima qilingan MHXS standartlari va DSQning AVda 24.02.2020 yilda 3221-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qaroriga 13-ildavada keltirilgan soliq hisoboti shakllaridan iborat. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan talay savollarga javob berishi mumkin bo‘lgan uslubiy hujjatlar hanuz ishlab chiqilmagan. MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotni taqdim etishning tasdiqlangan muddatlari yo‘q, BHMSdan MHXSga transformatsiya qilishning algoritmi mavjud emas. Boshqa dolzarb muammo – korxonalarda foydalaniladigan hisobga olish dasturlarini sozlash. Ularsiz sifatli hisobga olishni ta‘minlash murakkab bo‘ladi. Mamlakatda qayta sozlashni amalga oshiradigan yoki buning uchun kerakli dasturni taklif qilishi mumkin bo‘lgan mutaxassislar bormikin. Bu ham gapirilishi kerak bo‘lgan, uni hal qilish lozim bo‘lgan muammodir.

MHXSga o‘tgan har bir korxonada, agar batafsil aytsak, MHXSga o‘tish muammolari individualdir.

MHXSga o‘tish rejasini tuzish murakkab va kompleks jarayon:

- hisobdagi asosiy operatsiyalarni (aktivlar va majburiyatlarni tan olish, daromadlar va xarajatlarni aks ettirish), shuningdek ularni hujjatlar bilan rasmiylashtirishni (shartnoma shartlari va hokazo) tahlil qilgan holda, hisob siyosatining muhim jihatlari haqida qaror qabul qilish zarur;

- MHXS bo‘yicha birinchi moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonida MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotda aks ettirilgan summalarga jiddiy ta‘sir qiladigan baholashdagi muhim taxminlar va noaniqliklar haqida qaror qabul qilish lozim. Xalqaro auditorlik tarmog‘i auditorlari mazkur axborotni alohida e‘tibor bilan tekshiradilar. Pirovardida hisobotni qayta tuzmaslik uchun uni oldindan auditor bilan kelishgan ma‘qul;

- o‘tishning amaliy jihatlari kelsak, dastlabki vaqtda ko‘proq MS Excelda BHMSdan MHXSga transformatsiya qilish usulidan foydalanish kerak bo‘ladi. Demak, transformatsiya modeli, hisobot shakllarini, shuningdek, transformatsiya tuzatishlari hisob-kitobi modellari va sho‘ba korxonalaridan ular uchun, shu jumladan ularning hisobotlarini konsolidatsiyalash uchun ma‘lumotlar yig‘ish shakllarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi;

- MHXSga o‘tish rejasiga ularni MHXSga o‘tishda boshqargan holda mutlaqo barcha sho‘ba va qaram jamiyatlarni kiritish lozim, sababi MHXSga asosan kompaniya faqat MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlashi shart;

- MHXS bo‘yicha tranzaksiya buxgalteriya hisobi uchun tegishli dasturiy ta‘minotni joriy etish lozim, bu kompaniya ichidagi hamda potensial uning tashqarisidagi ko‘plab ishtirokchilar (uslubiyatchilar, integratorlar va hokazo) bilan mustaqil hajmli va uzoq muddatli loyihani namoyon qiladi.

MHXSga o‘tishda hal qilish lozim bo‘lgan boshqa muammolar ham mavjud.

Umuman, bu ko‘p sonli ishtirokchilarni va amaliyotda birinchi marta MHXSga duch kelayotganlar uchun ko‘plab noma‘lumlar bilan ahamiyatli byudjetni jalb qilishni talab qiladigan murakkab va uzoq muddatli jarayondir.

Buxgalteriya hisobi tizimini mustahkamlangan tamoyillarga o'tkazish MHXSda iqtisodiyotning turdosh sohalarda (auditorlar, moliyachilar) buxgalteriya hisobi mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoniga o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. Buning uchun ta'lim dasturlari mazmunini monitoring qilish tizimini shakllantirish; shu jumladan qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlari amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

S. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: 2018. – 555 b.

M. Bonham. Generally accepted accounting practice under IFRS. Ernst & Young. USA, 2010.

A.A. Karimov, A.K. Ibragimov, N.K. Rizaev, N.M. Imamova – Halqaro moliyaviy hisobot standartlari / Darslik – T.: «MOLIYA», 2021 – 310 b.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fanidan o'quv-uslubiy majmua, Toshkent - 2019, Norbekov D.E., Ochilov I.K.

Xalqaro buxgalteriya hisobi fanidan o'quv-uslubiy majmua, Toshkent-2021, Tashmanov G'. Темперлева, А. С. Международные стандарты финансовой отчетности : (учеб. пособие)

<https://ifrs.academy/uz>

<https://www.mf.uz/uz>

<https://www.bss.uz>

<https://www.norma.uz>

www.lex.uz

<https://buxgalter.uz>

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

N.G. Safarova,
TDIU magistranti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4611-sonli qarorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish, xorijiy investorlarni zarur axborot bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan⁸⁸. Bundan tashqari ushbu qarorda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi hamda moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, bu harakatni yurtimizda xalqaro standartlarga o'tishdagi asosiy qadamlardan biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4611-sonli qarori

Hozirgi kunda bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 80 foizga, kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 95 foizga, xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 55 foizga yaqin bo'lishi kredit riskining darajasi yuqoriligidan hamda u to'g'risida ma'lumotlar tez va sifatli shakllanish zarurligidan dalolat beradi. Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z xizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart⁸⁹. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Shuningdek, tijorat banklari nafaqat sub'ektlarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan natijani buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilishni taqozo etadi.

Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralari jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Banklarda kreditlar hisobini tashkil qilishda buxgalteriya hisobida umumqabul qilingan tamoyillardan foydalaniladi:⁹⁰

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usuli yuritish;
- uzluksizlik;
- xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi;
- aniqlik;
- oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik);
- mazmunning shakldan ustunligi;
- ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Kredit operatsiyalarni hisobga olish uchun kredit hisobvaraqlaridan va balansdan tashqari hisobvaraqlaridan foydalaniladi. Bunda bir martalik va kredit liniyasidan foydalanilgan holda kredit operatsiyalari hisobga olinadi. Kredit olish uchun bankda xar bir kredit bo'yicha alohida kredit hisobvarag'i ochiladi. Mijoz kredit olish uchun bankga belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirilib topshiradi. Kredit komissiyasining qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilsa bank va kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Buxgalteriya hisobi vazifalarini tizimlashgan holda banklarda kreditlar hisobi vazifalari ham alohida guruhlandi:

- bankning kredit faoliyati asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha rejaning bajarilishini nazorat qilish;

⁸⁹ "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora– tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ– 3620 qarori

⁹⁰ Navro'zova K., Otamurodov X., Qurbonov R. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. Darslik TDIU, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2021.- 200 b.

- bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirishni o'z vaqtida va to'g'ri belgilash;
- bank kreditlarini tan olish va ularni hisobda aks ettirish to'g'riligini ta'minlash;
- bank kreditlari hisobini to'g'ri yuritish va moliyaviy hisobotlar tayyorlash uchun ma'lumot bilan ta'minlash;
- zamonaviy takomillashgan hisob tizimini tadbiq qilish, bank kreditlari ko'rsatkichlari uslubiyoti va moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish;
- bank faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o'tkazilgan tahlil va tezkor nazoratga zarur ishonchli va aniq ma'lumotlarni shakllantirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank kreditlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aniq hamda to'g'ri aks ettirish davrida aks ettiriladi. Kredit ajratilgandan so'ng kredit monitoringi o'tkazilishi ustidan nazoratni kuchaytirish. Berilgan kreditlarni monitoring qilish orqali kreditdan qanday maqsadda foydalanilayotganligi va qay darajada samaradorlikka erishilayotganligini aniqlash mumkin. Banklarda kreditni berish va undirish jarayoni yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni ommaga yetkazish. Yana shu yo'l bilan shubhali va umidsiz ssudalarning tasniflangan kredit hajmidagi salmog'ini qisqartirish. Banklarda yuqori likvidlikka ega bo'lgan garov obyektlaridan foydalanishni kuchaytirish. Kreditlarni undirishni kuchaytirish maqsadida bank xodimlari va mijoz o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish va mijoz o'rtasida doimiy ravishda ma'lumot olib turishni tashkil etish. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi yil o'sib bormoqda va bu mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda banklar o'zlariga katta xatarni ham olishmoqda. O'ylaymizki, bildirilgan takliflarimizni amaliyotga tadbiq etilishi, tom ma'noda tijorat banklarining kredit riski va bu orqali bankning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora– tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ– 3620 qarori.

“2022 – 2026– YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF– 165– son.

Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. O'quv qo'llanma TDIU, “MAXPRINT” MChJ, 2015.– 432 b.

Navro'zova K., Otamurodov X., Qurbonov R. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. Darslik TDIU, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021.- 200 b.

TURIZM SOHASIDA BUGALTERIYA HISOBINI SHAKLLANTIRISH VA YURITISHNING USTUVOR MASALALARI

M.A.Axmadjanova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Xalqaro turizm fakulteti 1-kurs magistratura talabasi

Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi. So'nggi yillar davomida boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 marta turizmdan keluvchi daromad 60 marta oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga etdi. Xususan, O'zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, xizmat ko'rsatish sohasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalar sifatida turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Katta salohiyatga ega bo'lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan. Hukumat uch oy muddatda ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi ob'ektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilasin⁹¹.

Ma'lumki, jahon amaliyotida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbasi va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, hozirgi kunda xizmat ko'rsatish tarmog'ining muhim tarkibiy qismi bo'lgan turizm sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy turizmning rivojlantirish istiqbollari, O'zbekistonda turizm industriyasining jahon bozoridagi mavqe'ini oshirishga ko'maklashadi. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi, yangidan - yangi mehmonxonalarining barpo etilayotganligi, ishchi o'rinlari sonining ko'payishi, malakali mutaxassislarining ortib borishi, turistlar oqimining yildan - yilga ko'payayotganligini ta'kidlab o'tishimiz joiz deb hisoblayman. Yurtimizda milliy turizmning o'rni katta, xorijiy turistlar hozirda asosan davlatlarning milliyligi va tarixiga qiziqishi ko'p. Albatta O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimalari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy.

⁹¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига МУРОЖААТНОМАСИ. 2020 йил. 24 январь

O‘zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko‘plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu mineral suv manbalardan 121 tasidan foydalanilmoqda. Qolgan resurslardan foydalanish darajasi kam bo‘lib ularni rivojlantirish chora tadbirlarini ishlab chiqishimiz kerak. O‘zbekistonda turizm bugalteriyasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun -bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotning mazmuni, o‘rni va ahamiyati;

-moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarni korxonaga faoliyatiga oid ma’lumotlar bilan ta’minlashdagi vazifalari;

-moliyaviy hisobotning tuzilishi va tarkibi;

-buxgalteriya balansi va uni tuzish uslubi;

-moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ko‘rsatkichlari va uni tuzish tartibi;

-asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobotning mazmuni va uni tuzish qoidalari;

-xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotning korxonaga faoliyatining samaradorligini oshirishdagi o‘rni va uni tuzish usullarini qo‘llash;

-pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning korxonaga moliya resurslarini boshqarishdagi ahamiyati va uni tuzishda milliy va xalqaro standartlarda qo‘llaniladigan usullarni va ularni amaliyotga qo‘llash;

-moliyaviy hisobotlarga izoh xatini tayyorlash;

- moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish va topshirish tartiblarini o‘rganishdan boshlab tartiblab olishi kerak. Bozor munosabatlari sharoitida korxonani samarali boshqarish uning xo‘jalik faoliyati, mablag‘laridan foydalanish, ularni tashkil etish manbalari to‘g‘risidagi iqtisodiy axborotlarni tezkorlik bilan olish va foydalanishni talab qiladi.

Bu boshqaruv xodimlaridan moliyaviy hisobotni o‘qiy olish, ya’ni hisobot har bir moddasining iqtisodiy mohiyatini tushunish, uning korxonaga faoliyatidagi rolini baholash usullarini, balans va hisobotning boshqa shakllari moddalari bilan aloqasini, u yoki bu modda bo‘yicha summalar o‘zgarishi tavsifini va ushbu o‘zgarishlar ahamiyatini baholash mahoratini bilishni talab etadi. Buxgalteriya ma’lumotlaridan bevosita manfaatdor bo‘lgan tashqi foydalanuvchilarga mavjud yoki kelajakdagi investorlar, banklar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar kiradi. Ular asosan buxgalteriya hisobotlarida mavjud ma’lumotlardan foydalanadilar. Shu ma’lumotlar asosida ular korxonaning istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlari va barqaror rivojlanishi haqida xulosalar chiqaradilar.

Buxgalteriya ma’lumotlaridan bilvosita manfaatdor bo‘lgan tashqi foydalanuvchilarga, davlat va mahalliy hokimiyat organlari; soliq va moliya organlari, davlat statistika organlari, auditorlik firmalari va boshqa foydalanuvchilar (fond birjalari, ilmiy maslahatchilar, xaridorlar va shunga o‘xshash foydalanuvchilar) kiradi.

Soliq va moliya organlari, boshqa tashqi foydalanuvchilardan farqli o‘laroq faqat hisobot ma’lumotlarinigina olishdan tashqari, respublika va mahalliy soliqlar, foydadan olinadigan soliqlarni, qo‘shilgan qiymatdan to‘lanadigan soliq, jismoniy shaxslardan ushlanadigan daromad solig‘i, aksiz va shunga o‘xshash boshqa soliqlarni to‘g‘ri to‘lanishini nazorat qilish maqsadida korxonaning boshqa hisob ma’lumotlarini ham

talab qilish huquqiga egadirlar. Hisob ma'lumotlari, nazorat qiluvchi tashkilotlar va yuqori turuvchi boshqaruv organlariga, ularning talabiga asosan, hamda shartnoma asosida tekshiruvni amalga oshirayotgan auditorlarga taqdim etiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, korxonalar ma'lumotlaridan foydalanuvchilar orasida, tashqi foydalanuvchilarning, investor, kreditor hamda mol yetkazib beruvchilar, kelajakdagi aksioner va xaridorlarning ahamiyati katta. Chunki, ularning korxonalar faoliyati haqida noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishi, ular orasidagi hamkorlikka putur yetishi va qiyin iqtisodiy sharoitning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Investor va kreditorlar korxonaga sarmoyalarning oqib kelishiga sabab bo'lsalar, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar, korxonani xom-ashyo bilan ta'minlashda va tayyor mahsulotlarni sotib olishda muhim o'rinni egallaydilar. Demak, tashqi muhit bilan korxonani bog'lab turuvchi bo'g'im bo'lib, moliyaviy hisobot hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotda taqdim etilgan ma'lumotlar, tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qoniqtirgan holda, korxonaning tijorat siriga va raqobatbardoshligiga zarar yetkazmasligi zarur.

Tashqi foydalanuvchilarni asosan quyidagi ko'rsatkichlar qiziqtiradi:

- korxonalar aktiv va passivlarining tarkibi;
- aktiv va passivlarning likvidligi;
- xususiy va qarzga olingan kapitalning ulushi;
- aktivlarning aylanish tezligi;
- barcha aktivlar va sotilgan mahsulotlarning rentabelligi;
- mulkdorlar ixtiyorida qoladigan sof foyda;
- hissadorlik jamiyatlarida to'langan dividendlar ulushi va hokazo.

Shunday qilib, buxgalteriya balansini tuzishdan oldingi hisob ishlarini to'g'ri amalga oshirish buxgalteriya balansini tuzish jarayonini yengillashtiradi va uning muvaffaqiyatli tugallanishini ta'minlaydi. Turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlari daromadi - bu maxalliy va xorijiy mijozlarga turli sayyohlik va mehmonxona xizmatlari, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari hamda shu kabi turli servis xizmatlarining puldagi ifodasidir. Turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlarida daromadlari ularni faoliyat turlari, soliqqa tortilishi bo'yicha hamda «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom» bo'yicha turli guruhlariga ajratish mumkin. Turizm va mehmonxona biznesi subyektlari daromadlari ularni faoliyat turlari bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- > Turizm faoliyatidan olingan daromadlar
- > Mehmonxona xizmatlaridan olingan daromadlar
- > Savdo faoliyatidan olingan daromadlar
- > Investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar
- > Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar
- > Boshqa umumxo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar

Mehmonxona xizmatlaridan olingan daromadlar bu bevosita maxalliy va xorijiy turistlarga dam olishlari, tunashlari uchun ko'rsatilgan mehmonxona xizmatlarining puldagi ifodasidir. Savdo faoliyatidan olingan daromadlar - bu turizm va mehmonxona biznesi subyektlarining turist bo'lmagan shaxslarga o'z savdo shaxobchalari orqali ko'rsatilgan savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari natijasida olingan daromadlari.

Investisiya faoliyatidan olingan daromadlar - bu turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlarining boshqa yuridik shaxlarga kiritgan investisiyalari natijasida olgan daromadlari. Turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlarida daromadlari «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamdamoliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida em Nizom» bo'yicha quyidagicha guruhlanadi:

- > Xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar;
- > Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;
- > Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar
- > Favqulotda daromadlar

Xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar – bu maxalliy va xorijiy mijozlarga turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlari nizomida ko'rsatilgan turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromadlarning puldagi ifodasidir. Xizmatlarni sotishdan olingan daromadlarni ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha tushimning ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi o'rtasidagi ijobiy farq tashkil etadi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar – bu turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlari tomonidan korxonada faoliyatida foydalanilmayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, material va tovarlar va shu kabi aktivlarning sotilishi natijasida hamda o'ndirilgan

peniya, jarima va burdsizliklar, qisqa muddatli ijaradan, kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarish, inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha aktivlarning kirim qilinishi natijasida olingan daromadlarning hamda olingan beg'araz moliyaviy yordamlarning puldagi ifodasi. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar bu turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlarining boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan olingan foizlari chet el valyutasi kurs farqlari bo'yicha daromadlari boshqa moliyaviy daromadlar. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni quyidagilar tashkil etadi:

- Foiz ko'rinishidagi daromadlar;
- Dividentlar ko'rinishidagi daromadlar;
- Royalti ko'rinishidagi daromadlar;
- Valyuta kursi (ijobiy farqi) dan olinadigan daromadlar;
- Uzoq muddatli ijaradan olinadigan daromadlar;
- Qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Ushbu daromadlarni foizlar va dividendlar hisoblanganligi to'g'risida avizo(xabarnoma)lar, shartnomalar, KKO, Bank ko'chirmasi, , schyot-faktura va shu kabi xujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Favqulotda daromadlar - bu turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlarining o'z faoliyatini amalga oshirishi davomida ko'zda tutilmagan, tasodifiy tarzda xodisa va voqealar natijasida ya'ni qonunning o'zgarishi natijasida korxonada qoldirilgan daromadlar, favqulotda xodisalarni bartaraf etishda aniqlangan ortiqcha aktivlarni kirim qilish natijasida olingan daromadlar. Turizm va mehmonxona biznesi sub'ektlarida daromadlar hisobining to'g'ri tashkil etilishi, daromadlarning to'g'ri hisoblanishiga, soliq to'lovlarining to'g'ri hisoblanishiga va o'z vaqtida to'lanishiga hamda turizm va mehmonxona biznesi subyektlarini samarali boshqaruviga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Котлер Ф. Дж. Боуэн. Дж. Мейкенз Маркетинг. Гостеприимство. Туризм. Учебник, второе издание. 14. Medlik, Dictionary of Travel, Tourism and Hospitality. Printed and bound in Great Britain by Biddles Ltd – 3rd ed, 2003.*
- Tuxliyev I.S., G.H. Qudratov, Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Toshkent – «Iqtisod - moliya» 2010.*
- Tuxliyev I.S., A.B.Bektemirov, Z.I.Usmanova. Turizmda strategik marketing Samarqand 2010 y. Kamilova F.K. – «Xalqaro turizm bozori» // O'quv qo'llanma, Toshkent. TDIU-2001*
- Восколович Н.А. Маркетинг туристских услуг: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 207 стр.*
- Ветитнев А.М. Интернет-маркетинг санаторно-курортных услуг: Учебное-методическое пособие. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 160 стр.*
- Дурович, А.П. Маркетинг гостиниц и ресторанов: Учебное пособие. 2- изд. — М.: Новое знание, 2006. — 632 стр.*
- Ефимова О.П. Экономика гостиниц и ресторанов: Учебное пособие.- 4-е изд. стер.- Минск: Новое знание,2008.392 стр.*

O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISH:TARAQQIYOT VA MUAMMOLAR SHARHI

X.M.Shamsitdinova

*Tashkent state university of economics
Faculty of finance and accounting, student*

Umumiy ma'lumot qismida O'zbekistonning iqtisodiy manzarasi va uning global biznes muhitidagi ahamiyati haqida umumiy ma'lumot berilgan. Unda moliyaviy hisobotning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va izchilligini ta'minlash, shu orqali investorlar ishonchini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda buxgalteriya hisobi standartlarining ahamiyati bayon etilgan.

Tadqiqot maqsadlari Ushbu bo'limda tadqiqotning aniq maqsadlari, jumladan, O'zbekistonning buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar bilan solishtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar duch kelayotgan muammolarni aniqlash va mamlakatning buxgalteriya hisobini uyg'unlashtirish borasidagi yutuqlarini baholash ko'rsatilgan.

Ma'lumotlarni to'plash Maqolada ma'lumotlarni to'plash usullari, masalan, buxgalterlar, moliyaviy ekspertlar va nazorat qiluvchi organlar bilan suhbatlar o'tkazish haqida batafsil ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, tahlil uchun rasmiy hujjatlar, buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnomalar va O'zbekiston kompaniyalarining moliyaviy hisobotlaridan foydalanish masalalari muhokama qilinishi mumkin.

Qiyosiy tahlil asosi Ushbu kichik bo'lim IMRAD metodologiyasini qiyosiy tahlil uchun asos sifatida taqdim etadi. U IMRAD tuzilmasining har bir komponentidan topilmalarni samarali taqdim etish uchun qanday ishlatilishini tushuntiradi.

Normativ-huquqiy baza va yaqinlashuv Natijalar bo'limida O'zbekistonning buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlari baholanadi, ularning xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (masalan, UFRS – Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) bilan qanchalik mos kelishi o'rganiladi. Ushbu qism yaqinlashuv va

divergensiya sohalarini ta'kidlab, mamlakatda faoliyat yuritayotgan investorlar va biznes uchun oqibatlarini muhokama qiladi.

Moliyaviy hisobot amaliyoti Ushbu kichik bo'limda O'zbekiston korporativ sektorida keng tarqalgan moliyaviy hisobot amaliyotlari tahlil qilinadi. U oshkor qilish, shaffoflik va buxgalteriya hisobining tan olingan tamoyillariga rioya qilish bilan bog'liq masalalarni o'rganadi.

Qiyinchiliklar va to'siqlar Maqolada O'zbekiston buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qabul qilish va joriy etishda duch keladigan muammolar aniqlangan. Ushbu qiyinchiliklarga institutsional to'siqlar, texnik tajribaning etishmasligi va manfaatdor tomonlarning qarshiligi kiradi.

Taraqqiyot va o'zgarishlar Muhokama bo'limida O'zbekistonning buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari tanqidiy tahlil qilinadi. U erishilgan har qanday muhim yutuqlarni ta'kidlaydi va bunday yutuqlarni qo'zg'atuvchi omillarni muhokama qiladi.

Tavsiyalar Olingan ma'lumotlarga asoslanib, ushbu bo'lim O'zbekistonda xalqaro buxgalteriya standartlarini qabul qilishni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar taklif qiladi. Takliflar siyosatni o'zgartirish, salohiyatni oshirish choralari va manfaatdor tomonlarni jalb qilish strategiyalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ishbilarmonlar va investorlar uchun ta'siri Maqolada tadqiqot natijalarining O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari va mamlakatda imkoniyatlar izlayotgan xorijiy investorlar uchun ta'sirini muhokama qilish bilan yakunlanadi. Unda buxgalteriya hisobi amaliyotini jahon standartlariga moslashtirishning mumkin bo'lgan afzalliklari va shaffof moliyaviy hisobotning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi roli ta'kidlangan.

Xulosa tadqiqotdan olingan asosiy fikrlarni umumlashtiradi va O'zbekistonning buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. U O'zbekistonda moliyaviy shaffoflikni oshirish va qulay investitsiya muhitini yaratish uchun siyosatchilar, nazorat qiluvchi organlar, biznes va buxgalteriya hamjamiyatini hamkorlikda harakat qilishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

"International Accounting" by Frederick D.S. Choi and Gary K. Meek.

"International Financial Reporting Standards (IFRS): An Introduction" by Abbas A. Mirza and Graham Holt.

"Harmonization vs. Standardization: A Detailed Review of International Accounting Concepts" by Alexander S. Litvinenko and Natalia V. Kalashnikova. (International Journal of Accounting and Financial Reporting, 2019).

"The Adoption of International Financial Reporting Standards in Emerging Economies: Impact on Financial Statement Quality" by Paul Pacter and Mary E. Barth. (International Journal of Accounting, 2019).

"The Globalization of Accounting Standards" by Kees Camfferman and Stephen A. Zeff. (Journal of Accounting Research, 2019).

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O‘TISH ZARURATI VA MUAMOLARI

X.Jamolova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya buxgalteriya hisobi “ fakulteti talabasi

Moliyaviy hisobotlar kompaniyaning ma'lum bir yildagi moliyaviy ishlarining aniq tasviridir. Ular kompaniyaning buxgalteriya tahlilchilari tomonidan tuzilgan moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda tayyorlanadi. Ular buxgalteriya hisobining belgilangan tamoyillariga rioya qilgan holda xabar qilinishi va barcha darajalarda muvofiq standartlashtirilishi kerak. Moliyaviy hisobotlar muntazam ravishda tuziladi. Ular kompaniyaning moliyaviy holati, rentabelligi va faoliyati to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish uchun ko'rsatiladigan yozma xulosadir. Demak aytish mumkinki, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda keng foydalanuvchilarga, ayniqsa butun dunyo bo'ylab diversifikatsiya va investitsiya imkoniyatlarini qidirayotgan investorlar uchun foydalidir. Moliyaviy hisobotlarning aynan bir standartlar asosida yuritilishi adolatli taqdimotni taminlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin buxgalteriya hisobi standartlari mamlakatlar bo'ylab turfa xilligi bazi bir muammolarga sabab bo'ladi. Ya'ni ular o'rtasida moliyaviy ma'lumotlarni solishtirishni va shaffofligini qiyinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro buxgalteriya standartlariga o'tish orqali kompaniyalar xalqaro bozorda salohiyatli investorlarni topish va ishonchli hamkorliklarni yo'lga qo'yish maqsadida MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlar tayyorlash mamlakatlar aro iqtisodiyotni barqarorlashtirish yo'lidagi muhim strategiyaga aylanib bormoqda.

Ayni damda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimini taraqqiy ettirish ilg'or maqsadlarga aylanib, barcha davlatlarda joriy qilinishi global bozorda axborot almashish muhitini yaratadi. Albatta bu orqali axborotlarning hisobdorligini, shaffofligini hamda iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda aniqlik darajalarini oshirishga erishish mumkin. Aytish joizki, MHXS amalda yuritilishi bozor likvidligini yaxshilashi, kapital taqsimotining takomillashishi, chet et valyutalarining milliy bozorga kirib kelishi, qimmatli qog'ozlar bozori ko'laminin kengayishi, milliy bozorga xalqaro maydondan investitsiyalarning kirib kelishiga katta yo'l ochadi. Takidlash kerakki, bu natijalarga erishish mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi va aholining farovon hayoti garovi ekan, MHXSlarini milliy bozorda samarali tatbiq etishning barcha chora-tadbirlarini amalga oshirish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini jahon miqyosida tatbiq etish, uning manfaatli jihatlari, dolzarbligi, ularning qo'llanilishi hamda tan olinishi borasida ko'pgina iqtisodchi olimlar va professorlar o'z fikr va mulohazalarini bildirishadi.

Yason Gordonning takidlaganki, MHXS xalqaro darajada tushunarli bo'lgan va taqqoslanadigan biznes masalalari uchun umumiy global moliyaviy tildir.⁹² Iqtisodchi olim MHXS butun dunyo bo'ylab moslashtirishning bir qancha afzalliklarini sanab o'tdi

1.Gordon, International financial reporting standarts – explained, 2022

: aksiyadorlar va tartibga soluvchilar uchun sifatli moliyaviy ma'lumotlar , yaxshilangan taqqoslanuvchanlik , natijalarning shaffofligini oshishi , global operatsiyalarni yaxshiroq boshqarish va kapital xarajatlarini kamaytirish .

Shu sababli , butun dunyo bo'ylab glaballashuv jarayonida yirik korporatsiyalar , moliyaviy tashkilotlar MHXSlari asosida ish yuritishmoqda , hamda MHXSlarini tan olib , unga tayanib hisobot tizimini yuritayotgan davlatlar ham tobora ko'payib boryapti . Hatto MHXS lari bugungi kunda butun jahon mamlakatlari aro qo'llaniladigan buxgalteriya hisobiting etaloni hisoblanadi . Dastlab MHXS 1973-yil iyun oyida o'n ta mamlakatlar vakili bo'lgan buxgalteriya organlari tomonidan tashkil etilgan . Hozirgi kunda 60 dan ortiq shunday standartlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Fikrimizcha, 90 ga yaqin davlat Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi tomonidan e'lon qilingan MXHSlarga to'liq mosligini va audit hisobotlarida bunday muvofiqlikni tan olishi, taxminan 120 davlat va hisobot beruvchi yurisdiksiyalar mahalliy listing kompaniyalari uchun MXHSlar bo'yicha hisobotlarni ishlab chiqishiga ruxsat berishi yoki talab qilishi ⁹³ bu mulohazani to'la qonli oqlaydi . Xususan Vatanimiz O'zbekistonda ham MHXSlarini keng targ'ib qilish borasida juda ko'p islohatlar olib borilmoqda . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish, xorijiy investorlarni zarur axborot bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari ushbu qarorda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi hamda moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishi nazarda tutilgan⁹⁴. Bundan tashqari AQSHning avtomobil kompaniyalari orasida eng yiriklaridan biri bo'lgan General Motors dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib , O'zbekistonda ham o'zining vakolatiga ega bo'lgan yagona avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya hisoblanadi . Ushbu kompaniyaning moliyaviy hisobotlar tizimi ham butunlay MHXSlariga asoslangan .

Emmanuel T. De Jorj ta'rif berishicha, MHXSning asosiy maqsadi – butun dunyo bo'ylab yagona standartlar orqali moliyaviy hisobotlarning solishtirilishini yaxshilash va yuqori sifatli buxgalteriya hisobini rag'batlantirish ekanligidir ⁹⁵. Shuningdek , MHXS maqsadi, dunyodagi barcha mamlakatlarning moliyaviy hisobotlarining eng

2. AICPA, IFRS FAQs, www.ifrs.com

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori, 26.11.2010 yil, // lex.uz

4.Emmanuel T. De George, A Review of the IFRS Adoption Literature, Review of Accounting Studies, Forthcoming, 24.09.2015, page 118

yaxshi jihatlarini inobatga olgan holda, ularni takomillashtirib hamma uchun maqbul bo'lgan moliyaviy hisobotlarning uni versal standartlarini yaratish va hayotga joriy qilish yo'llarini izlab topishdir. Bu maqsadni amalga oshirish orqali butun dunyo hamjamiyatida barcha mamlakatlar bo'ylab iqtisodiy barqarorlik hamda aholi farovonligini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi . Ya'ni bu yo'lda rivojlangan davlatlar bir-birining tajriba va ko'nikmalarini almashish , rivojlanayotgan davlatlar esa rivojlangan davlatlarni kuzatish va ularning strategik rivojlanish yo'llarini tahlil qilib , xulosa chiqarish orqali o'z ildam tarqqiyot qadamlarini tashlashi mumkin . Bu esa albatta global iqtisodiyotni mukammal darajaga yetaklaydi .

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish borasida jahon tajribasiga tayangan holda yurtimiz O'zbekistonda ham uni joriy qilish , bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko'riladigan manfaatlarni , foyda va afzalliklarni qolaversa bu yo'ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo'lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi . Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda ham MHXSlarini amalga tadbiiq etish yuqorida sanab o'tilgan ijobiy natijalarni beradi . Bundan tashqari so'nggi yillarda Yevropa hamda butun jahon tajribasida yuzaga kelayotgan ijobiy jihatlarini sanash mumkin.

-Shaffoflik xususiyati moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta'minlaydi . Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

-Kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli bozorlar bozorining mamlakat ichida shakllanishi savdolar ko'payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi . Bunda MHXS asosidagi hisobot ma'lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi .

-Iqtisodiy samaradorlik oshishi hamda hisobdorlik oshishi xususiyatlari investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o'rtasida moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi . Natijada investorlar o'z samoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi .

-Bozor likvidligi yaxshilanishi , kapital sarfining pasayishi , moliyaviy axborotlarning barafsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanligi oshadi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi .

Albatta mamlakatimizda MHXSlarini keng ko'lamda joriy etilishi iqtisodiyotni har tomonlama qo'llashi bilan birga ba'zi bir qiyinchiliklarga ham to'qnashish mumkin.

-Kadrlarning yetishmovchiligi . MHXS larini to'liq tizimli bajara oladigan kadrlarni tayyorlash uchun o'qitiladigan ACCA sertifikatlarining asosiy manbalari ingliz tilida ekanligi hamda bu katta mablag'ni talab etilishi bilan to'sqinlik qiladi .

-Soliq tizimi ham ham ba'zi bir o'rinlarda MHXS lariga o'tisga qarshiliklar ko'rsatadi .

-MHXSlarini mamlakat bo'ylab milliy standartlarga muvofiqlashtirish katta hajmdagi mehnat , moliyaviy va vaqt resurslarini talab qiladi .

- Dastlabki bosqichlarda MHXSlarini joriy qilishning iqtisodiy samarasini baholash bir muncha qiyin bo'ladi .

- Ko'pgina qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy hisob xalqaro standartlariga o'tishning afzalliklari kamchiliklari hamda o'tish jihatlarining dolzarbligini tahlil qilgan holda ushbu xulosalarni berish mumkinki :

-MHXSlarining afzalliklari butun bir kompaniyani rivojlanish tezligini oshirish , ishonchli hamkor hamda investorlar topish bilan ahamiyatli ekan , albatta kompaniyani chuqur o'rganib unga moliyaviy hisob xalqaro standartlarini qo'llash ,uning ahamiyati va zaruratini o'rganish , nazariy-uslubiy jihatlarini tadqiq qilish orqali moliyaviy hisob xalqaro jihatlarini qo'llash kerakligini ta'kidlash mumkin ;

-MHXSlarini mamlakat bo'ylab joriy qilishda soliq va mehnat qonunchiliklari , moliya , kredit tizimlarini hamda capital tizimlarini o'zaro bir-biriga bog'liqlikda , uyg'unligini ta'minlash kerak ;

-MHXSlarini mamlakat bo'ylab amalyotga tadbiq etishdagi eng muhim omillardan biri malakali kadrlardir . Kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratish , zarur resusrlar hamda manbalar bilan ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

Gordon, International financial reporting standarts – explained, 2022

AICPA, IFRS FAQs, www.ifrs.com

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori, 26.11.2010 yil, // lex.uz

Emmanuel T. De George, A Review of the IFRS Adoption Literature, Review of Accounting Studies, Forthcoming, 24.09.2015, page 118.

KORXONA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI BOSHQARISHDA HISOB –TAHLIL TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

O.N.Tuychieva

"Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti v.b.

Farg'ona politexnika instituti

Boshqaruv maqsadlari uchun hisob yuritish va tahliliy axborot tizimini shakllantirishda korxonada faoliyat segmentlarini boshqarish bo'yicha ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi muhimdir. Bunday ma'lumotlar qat'iy maqsadli xarakterga ega bo'lishi kerak. Boshqaruv nuqtai nazaridan korxonada faoliyatining quyidagi segmentlarini ajratish mumkin:

- ta'minot va xarid qilish faoliyatini boshqarish;
- ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish;
- moliyaviy faoliyatni boshqarish;
- tijorat faoliyatini boshqarish.

Shuni tan olish kerakki, ushbu segmentlash universal emas va amalda quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- muayyan korxonada faoliyatining ko‘lami;
- korxonada faoliyatining maqsadlari;
- ishlab chiqarishning tashkiliy, texnik va texnologik xususiyatlari;
- tashkiliy tuzilma va boshqalar.

Fikrimizcha, taqdim etilgan yondashuv to‘liqlik nuqtai nazaridan ham, murakkablik nuqtai nazaridan ham optimal hisoblanadi, chunki korxonada faoliyati turlariga muvofiq segmentlarga ajratish boshqarish me‘yorlariga javob beradi va ma‘lumotlarning ortiqcha yuklanishining oldini oladi.

Shubhasiz, korxonani boshqarish tizimini tahliliy ta‘minlash kompleks xarakterga ega bo‘lishi va boshqarishning quyidagi funksional tashkil etuvchilari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlarni shakllantirishning nazariy, uslubiy va tashkiliy masalalarini o‘rganishga asoslangan bo‘lishi kerak:

- moliyaviy buxgalteriya hisobi va tahliliy tizimi;
- boshqaruv buxgalteriya hisobi va tahliliy tizimi;
- soliq buxgalteriya hisobi va tahliliy tizimi [2]

Buxgalteriya hisobi va tahliliy qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy qismlari maqsadli ravishda ikki yo‘nalishga bo‘linadi:

1) kiruvchi ta‘minot komponentlari:

- boshqaruv buxgalteriya hisobi;
- boshqaruv hisoboti;
- moliyaviy buxgalteriya hisobi;
- buxgalteriya moliyaviy hisoboti;
- soliq hisobi;

2) funksional komponentlar:

- moliyaviy tahlil;
- boshqaruv tahlili;
- byudjetlashtirish;
- soliq tahlili;
- soliqni rejalashtirish.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ishonchli va oqilona oqimini shakllantirish dastlab buxgalteriya funksiyalarini qo‘llash doirasida amalga oshiriladi va tahlil funksiyasidan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi uchun zaxiralar turi hamda ularning miqdorini aniqlanadi [1]. Kiruvchi ta‘minot tarkibiy qismlarining maqsadi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati jarayonida shakllangan iqtisodiy ma‘lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va to‘plash, ular uchun zarur bo‘lgan formatlarda boshqaruvning barcha darajalari rahbarlari uchun kirish manbai sifatida ma‘lumot yaratishdir.

Axborotni boshlang‘ich resurs sifatida shakllantirishning kombinatsiyasi ko‘p qirrali bo‘lib, bu boshqaruv muammosini hal qilishning mazmuni bilan bog‘liq. Xususan, ma‘lum bir boshqaruv muammosini hal qilish uchun buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yetarli hisoblanadi. Boshqa muammoni hal qilish uchun buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va boshqaruv hisobi to‘g‘risidagi

ma'lumotlar talab qilinadi . Uchinchi holda, barcha kiruvchi komponentlar haqida ma'lumot kerak bo'radi.

Korxonani rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishning maqsadli yo'nalishini amalga oshirishda qo'llaniladigan baholash ko'rsatkichlari guruhining namunasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Boshqarishning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

Strategik yo'nalishlar	Natijaviylikning baholash ko'rsatkichlari	Samaradorlikning baholash ko'rsatkichlari
Ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasi	Ishlab chiqarish hajmi. Asosiy vositalarning qiymati. O'rnatilgan uskunalar soni. Amaldagi uskunalar soni. Ishlab chiqarish maydoni. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va boshqalar.	Ritm koeffitsienti. O'zgarish koeffitsienti. Mehnat unumdorligi. Uskunaga hisoblangan ehtiyoj va uning quvvat va uskunalar turlarining haqiqiy mavjudligi o'rtasidagi bog'liqlik. Asosiy vositalarning o'rtacha yoshi. Asosiy vositalarni yangilash tezligi. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti. Smenalik koeffitsienti va boshqalar.
Resurslarni jalb qilish strategiyasi	Moddiy resurslarga hisoblangan ehtiyoj. Mehnat resurslariga hisoblangan ehtiyoj va boshqalar.	Korxonani xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash koeffitsienti. Mahsulotlarning mehnat zichligi. Mahsulotlarning moddiy iste'moli. Mahsulotlarning kapital intensivligi va boshqalar.
Resurslarni tejash strategiyasi	Mahsulot ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari. Mehnat xarajatlari va boshqalar	Asosiy vositalarning nisbiy tejamkorligi. Materiallarning nisbiy tejamkorligi. Mehnat xarajatlarini nisbiy tejash va boshqalar.
Mahsulot sifati strategiyasi	Aniqlangan nuqsonlar tufayli sotilgan mahsulotlarni qaytarish soni. Ishlab chiqarish jarayonida rad etilgan mahsulotlarning narxi. Jarima to'langan nuqsonli mahsulotlarning narxi. Kafolatli ta'mirdan o'tgan mahsulotlarning narxi va boshqalar.	O'rtacha nav koeffitsienti. Sifat koeffitsienti. Sifatsiz mahsulotlar uchun jarimalar darajasi. Rad etilgan mahsulotlarning ulushi va boshqalar.

Dastlab, korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatini obyektiv aks ettiradigan va samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan baholash ko'rsatkichlarini aniqlash kerak. Ushbu ko'rsatkichlar guruhining muhimligi ularning asosida maqsadli yo'naltirilgan baholash ko'rsatkichlariga tuzatuvchi ta'sirlar ko'rsatish mumkinligi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishning tahliliy ta'minotini takomillashtirish maqsadli yo'naltirilgan baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va ularning axborot tarkibini aniqlashni ko'zda tutadi. Baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish jarayonining mumkin bo'lgan maksimal miqdoriy va sifatiy natijalarini ifodalaydi. Ularning asosida ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish strategiyasi shakllantiriladi, boshqaruv natijasi va samaradorligi baholanadi.

Boshqacha qilib aytganda, ular ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish maqsadiga belgilangan baholash ko'rsatkichlari qiymatlarini maqsadli o'zgartirish orqali erishishga imkon beradi.

Samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilangan baholash ko'rsatkichlaridan chetga chiqishining sabablarini aniqlashga yo'naltiriladi Samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlariga asosan kelajakda korxonaning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradigan baholash tizimidir.

Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash indikatorlarini tanlash boshqaruv subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Yuqori darajadagi rahbarlar tanlangan baholash ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish nuqtai nazaridan korxonaning strategiyasiga mos kelishini ta'minlashlari kerak. Baholash ko'rsatkichlari tizimining qiymatini saqlab qolish uchun, korxonaning natijalaridan kelib chiqib, uning rahbarlari muntazam ravishda ularni yangilab borishlari zarur. Maqsadli yo'naltirilgan baholash ko'rsatkichlariga erishishga boshqaruv ta'siri boshqaruv qarori shaklida amalga oshiriladi, uni ishlab chiqish va amalga oshirish boshqaruv jarayonini tashkil etadi. Maqsadga yo'naltirilgan baholash ko'rsatkichlari ularga erishish uchun boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni belgilaydi, deb ta'kidlash mumkin. Eng keng ko'lamli va mas'uliyatli soha-bu maqsadli yo'nalishning baholash ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisoblanadi. Agar rahbarlarga korxonaning faoliyatining aniq yo'nalishlari yetkazilsa, ular aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin.

Bunday yechimlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- yuqori sifatli mahsulotlarni ta'minlaydigan texnologiyalarni tanlash;
- mahsulotlarning ustuvor assortimentini miqdoriy va qiymat jihatidan aniqlash;
- ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash;
- yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- iste'mol sifatini yaxshilash bilan mahsulotlarni yangilash;
- kritik ishlab chiqarish hajmini hisoblash;
- konsentratsiya, ixtisoslashuv va ishlab chiqarishni joylashtirish darajasini baholash;
- korxonaning texnik qurollarini aniqlash;
- samarali ishlash uchun zarur bo'lgan barcha resurslarni ishlab chiqarish bo'linmalariga o'z vaqtida etkazib berish.

Yuqorida tavsiflangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish korxonaning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Кальницкая И.В. Совершенствование учетно-аналитического обеспечения управления производственной деятельностью организации // Международный бухгалтерский учет. 2014. №29 (323). URL:

Шешукова Т.Г. Учетно-аналитические и контрольные проблемы управления производственными и финансовыми ресурсами предприятия в условиях глобализации экономических процессов // Вестник ПГУ. Серия: Экономика. 2016. №2 (19).

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

A.T Maxkamboyev

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasida dotsenti*

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan iqtisodiyotning xar bir bo‘g‘inida albatta korxonalarni samarali boshqarish, unda yetarli bo‘lgan optimal qarorlarni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularni olib borayotgan faoliyati hamda mulkchilik shakli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, boshqaruv hisobini to‘g‘ri tashkil etish, yuritish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda xar bir faoliyat olib boryotgan tadbirkorlik sub’ektida boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog‘liq bir qancha muammolar mavjud. Bunga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qancha omillarni keltirishimiz mumkin. Juladan, xo‘jalik sub’ektlari boshqaruv hisobini amaliy joriy etish masalalari, ya’ni uni tashkil etish va yuritishga doir nazariy va uslubiy muammolari bilan ham bog‘liq. Bu bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, moliyaviy va boshqaruv hisobining u yoki bu jihatiga umumiy tarzda tadqiq qilish bilan cheklanganligini ko‘ramiz.

Turli xo‘jalik sub’ektlar o‘z hisobotlarini turli xildagi foydalanuvchilarga taqdim etadilar. Bu esa o‘z navbatida foydalanuvchilar talabiga ko‘ra ularga tushunarli bo‘lish shartlarini keltirib chiqaradi. Iqtisodchi olimlar I.Ochilov J.Qurbonboevlar foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida hisobotlar bir qancha turlarga bo‘linishini ta’kidlab o‘tganlar.

N.Yu.Juraev o‘zining ilmiy tadqiqotlari natijalarida quyidagi fikr-mulohazalarni alohida ta’kidlab o‘tgan: Moliyaviy hisobot moliyaviy va buxgalteriya hisobi, ya’ni moliyaviy hisob ma’lumotlari asosida tuziladi. Hisobot esa buxgalteriya hisobi va boshqa hisob (statistik, tezkor) ma’lumotlari asosida tuziladi.

Shuni e’tirof etish kerakki, mamlakatimizda hozirgi shakllangan iqtisodiyot butunlay yangi yo‘nalishda olib borilishini taqozo etmoqda. Bu esa ilgari iqtisodiyotga ham, xorijiy mamlakatlardagi o‘xshash sohalariga nisbatan ham o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘p. Aynan shu holat mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Boshqaruv hisobi – xo‘jalik sub’ektning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Korxonada faoliyatini to‘g‘ri boshqarish ko‘p jihatdan uning umumiy strukturasi, tuzilmalari, faoliyati bo‘yicha olinadigan operativ hisob va hisobot ma’lumotlarga bog‘liq. Boshqaruv hisobi esa aynan ichki imkoniyatlarni axtarib topish va turli daraja faoliyat olib boryotgan boshqaruvchi xodimlarni samarali faoliyatini ta’minlaydi.

Xozirgi sharoitda mamlakatimiz amaliyotiga nazar soladigan bo‘lsak, xar bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘zining yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar tuzib boradilar. Choraklik moliyaviy hisobot korxonada moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ma’lumotlari bilan bevosita qiziquvchilar uchun buxgalteriya axborotlarini tegishli sub’ektlarga yetkazib berish vositalari hisoblanadi.

Korxonada faoliyatini to'g'ri va aniq boshqarishda bir qancha qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy albatta. Boshqaruvga qo'yilgan talablarga javob bera oladigan hisob tizimi ham bir qancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu esa boshqaruvning maqsadi, bo'lib o'tgan, bo'layotgan va kutilayotgan tadbirlar va jarayonlardan tashkil topadi. Maqsaddan kelib chiqqan holda, boshqaruv hisobi tizimi elementlari tarkibi o'zgarib boradi. Shunga qaramay xo'jalik sub'ektlarida tasdiqlangan hisob siyosati amaldagi qonunchilik normalari hamda umumqabul qilingan prinsplarga to'la javob berishi lozim. Albatta, bundan boshqaruv hisobining ham ulkan xissasi mavjud. Boshqaruv hisobining tamoyillarini to'g'ri anglash shu hisob turidan samarali foydalanish imkoniyatini yaxshilaydi.

Boshqaruv hisobining asosiy prinsplariga korxonada faoliyatining uzluksizligi, rejalashtirish va hisoblashda yagona o'lchov birliklarini ishlatish, korxonaning tarkibiy bo'linmalari faoliyati natijalarini baholash, boshqaruv maqsadida birlamchi va oraliq ma'lumotlarning ko'p marotaba ishlatilishi, korxonada ichki nazorat tizimi; xarajatlar, moliya va tijorat faoliyatini boshqarish, hisob ob'ektlari haqidagi ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish, analitik amallar, hisob siyosati va boshqa bir qancha omillar kiradi.

Bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobi prinsplari tarkibiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq. Ichki xo'jalik rezervlari, korxonada faoliyatining uzluksizligi, faoliyatni rejalashtirish va uni natijalarini rasmiylashtirishda yagona o'lchov birliklarini ishlatish, uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati tanqidiy baholash, korxonada ichidagi o'zaro aloqa tizimi am boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, tahlil uchun istalgan korxonada o'z maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, boshqaruv hisobini tashkil etishi va yuritishi, agar istamasa uni umuman tashkil etmasligi xam mumkin. Shuningdek, korxonada boshqaruvchilarining kompetentligi, ularning ilmiy yondashuvlari, qarashlari boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga boshqaruv hisobi oldiga turli xil yangi va istiqbolli vazifalar qo'yishga olib kelishi mumkin. Yuqoridagilarning barchasi boshqaruv hisobining obyekt va funksiyalarining kengayishiga olib keladi.

II SHO‘BA

YANGI O‘ZBEKISTONDA BIZNES-TAHLILNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

RAQAMLI IQTISODIYOT IJTIMOY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

G.M.Davlatova

*Farg‘ona politexnika instituti, “Iqtisodiyot” kafedrası
i.f.n., dotsent*

O.D.Yusupova

Farg‘ona politexnika instituti 72E-19 I guruh, talabasi

Raqamlashtirish jamiyatga barcha turdagi axborotlar va ma’lumotlarni qayta ishlash, ishlab chiqarish, uzatish va almashishga yordam berdi. Biroq, raqamli transformatsiya bir kechada sodir bo‘lmadi va tez sur‘atlariga qaramay, bir martalik voqea emas. Raqamlashtirishning birinchi to‘lqini axborotni boshqarish tizimlari, avtomatik hisobot va biznes samaradorligini monitoring qilish tizimlarini o‘z ichiga olsa, ya’ni keng polosalik, ovozli telekommunikatsiyalar, shu jumladan statsionar va mobil aloqa kabi ilg‘or texnologiyalarni joriy etilishi, hamda ushbu texnologiyalar yordamida barcha ma’lumotlarni masofadan kirishga va tahlil etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Internet va uning elektron bozorlar hamda qidiruv tizimlari kabi tegishli kengaytmalarining paydo bo‘lishi raqamlashtirishning ikkinchi to‘lqinining boshlanishini belgiladi. Ikkinchi to‘lqin dot-comlarning katta tarmog‘iga xizmatlarni sotib olish va tarqatish uchun iste’molchilar va korxonalarini yangi bosqichda birlashtirishga imkon berdi.

Binobarin, ikkinchi to‘lqin uchinchisiga aylanib, o‘zi bilan narsalar Interneti (IOT), sun‘iy intellekt, robototexnika va sensorlar kabi ilg‘or texnologiyalarni olib keldi. Ushbu ilg‘or ishlanmalarning barchasi axborotni qayta ishlash samaradorligini oshirishga, biznes tashkilotlarida ham, hukumatlarda ham kundalik muntazam vazifalarni avtomatlashtirishga, shuningdek tashkilotlar tomonidan qaror qabul qilish jarayonining aniqligini oshirishga qaratilgan edi.

Ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xarajatlarni kamaytirish va operatsion tizimni takomillashtirish kabi turli xil biznes operatsiyalarini avtomatlashtirish korxonalariga barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan katta foyda keltirdi. Raqamli iqtisodiyot biznes va mehnat bozori uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Raqamli iqtisodiyot tomonidan taqdim etilayotgan keng va xilma-xil xizmatlar tadbirkorlik va bandlik bozorlariga ta’sir ko‘rsatgan ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratdi. Raqamli iqtisodiyot o‘z operatsion tizimi uchun juda ko‘p ma’lumotlar va axborotlardan foydalanadi, bu esa sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi bir xil davlat xizmatlarini yanada samarali ta’minlashga yordam berdi. Barqaror raqamli iqtisodiyot ijtimoiy boshqaruv mexanizmlariga ham ta’sir ko‘rsatdi, hukumatlar va ularning fuqarolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sifatini oshirdi.

Bugungi axborotga qaram jamiyatda har qanday masalalar faqat axborot texnologiyalari va tizimlari orqali hal qilinadi va taraqqiyot eng yangi interaktiv,

innovatsion texnologiyalarga o'tishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish zarurligi haqida hech kim bahslashmaydi, ammo uni qanday amalga oshirish va raqamli iqtisodiyot qanday bo'lishi kerakligi haqidagi savol ochiq qolmoqda [2].

Raqamli transformatsiya jamiyatga bir necha darajalarda ta'sir qiladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish tomoniga kelsak, raqamli transformatsiya operatsion samaradorlikni ta'minlaydigan, masalan, mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatadigan tranzaksion xarajatlarni kamaytiradigan biznes operatsiyalarini avtomatlashtirishga imkon beradi. Xuddi shunday, raqamli transformatsiya bandlik va tadbirkorlikka ta'sir ko'rsatadigan yangi biznes imkoniyatlarini ochadi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishga kelsak, raqamli transformatsiya sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni yaxshilaydi, shu bilan birga fuqarolarning o'z hukumatlari bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi [1]. Va nihoyat, raqamli transformatsiya odamlarning munosabatlariga va individual xatti-harakatlariga ta'sir qiladi, ijtimoiy integratsiya va aloqani rivojlantiradi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, raqamli transformatsiya ishchi kuchining qisqarishi, kompaniyalarning yo'qolishi, kiber jinoyatchilik va ijtimoiy anomiya kabi potensial salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Regulyatorlar va siyosatchilar raqamli transformatsiya bir martalik hodisa emasligini hisobga olishlari kerak. U texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarning tarqalishi bilan bog'liq to'liqlarda oqadi. Ushbu jarayonlarni tushunish orqali AKT regulyatorlari va siyosatchilar nafaqat har bir to'liq natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarni taxmin qilishlari, balki ushbu yangiliklarning ayrimlarini to'liq amalga oshirish uchun qancha vaqt ketishini taxmin qilishlari mumkin. Shunga asoslanib, raqamlashtirishni bir vaqtning o'zida ikkita jarayon deb tushunish kerak: innovatsiyalar orqali texnologiya evolyutsiyasi, shuningdek, korxonalar, hukumatlar va iste'molchilar o'rtasida ilmiy-tadqiqot va texnologiyalarni joriy etish [3].

Ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli iqtisodiyotning roli bugungi kunda beqiyosdir. Zero, kuchli, barqaror raqamli iqtisodiyotni saqlash ijtimoiy boshqaruv mexanizmini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismidir. Raqamli iqtisodiyotning samarali ijtimoiy boshqaruv tizimini shakllantirishdagi rolini o'rganish muhimdir. Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy boshqaruv mexanizmlariga ta'sirini o'rganadi. Shuningdek, u ijtimoiy islohotlar va uzoq muddatli raqamli iqtisodiyot kabi bilvosita ta'sirlarni yoki vositachilik kuchlarini o'z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy boshqaruvning samarali mexanizmini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot ijtimoiy islohotlarga, barqaror raqamli iqtisodiyotga va ijtimoiy boshqaruv mexanizmlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyotning gullab-yashnashi barqaror raqamli iqtisodiyotga hissa qo'shadi. Raqamli iqtisodiyotning o'sishi samaradorlikni oshirishi va global va mintaqaviy iqtisodiyotga foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, u barqaror rivojlanish muammolarini ijtimoiy nuqtai nazardan hal qilishning ajralmas vositasidir ya'ni ijtimoiy tarmoqlar va turmush tarzi, shu jumladan iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy tengsizlikning o'sishi tahdidlari va atrof-muhit (ya'ni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlarga g'amxo'rlik qilish) farovonligi uchun buzuvchi raqamli texnologiyalar tomonidan qo'llaniladigan foyda yoki xarajatlar.

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiyot eng muhim mavzularga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

Роздольская, И. В., & Исманов, И. Н. (2020). Развитие цифровой корпоративной культуры как важного инструмента стратегического развития организации. In Развитие экономической науки в условиях формирования глобального цифрового общества (pp. 24-29).

Kudbiyev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 107-112.

ZAMONAVIY BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA DAVLATNING SOLIQ SIYOSATI

A.A.Temirqulov

Farg‘ona Politexnika Instituti,

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası, i.f.n. dotsenti,

S.O‘Zakirova

Farg‘ona politexnika instituti talabasi

Har qanday davlat o‘z vazifalarini bajarish uchun mablag‘ga muhtoj. Ushbu moliyaviy resurslarning manbai faqat hukumat jismoniy va yuridik shaxslardan yig‘adigan mablag‘lar bo‘lishi mumkin. Soliqlar davlat qonunchiligiga muvofiq davlat tomonidan undiriladigan majburiy to‘lovlardir [1].

Davlatning bozor iqtisodiyotiga ta‘sirining iqtisodiy vositasi sifatida soliq'larga muhim o‘rin beriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday davlat soliq siyosatidan bozorning salbiy hodisalariga ta‘sir ko‘rsatadigan o‘ziga xos tartibga soluvchi vosita sifatida keng foydalanadi.

Soliqlarni qo‘llash idoraviy bo‘ysunishidan, mulkchilik shakllaridan va korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar, milliy manfaatlarning tadbirkorlar, korxonalarning tijorat manfaatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash hamda boshqarishning iqtisodiy usullaridan biridir. Soliqlar yordamida tadbirkorlik subyektlarining davlat va mahalliy byudjetlar, banklar, shuningdek yuqori darajadagi tashkilotlar bilan munosabatlari aniqlanadi. Soliqlar yordamida soliq to‘lovchilarning tashqi iqtisodiy faoliyati, shu jumladan investorlarga soliq imtiyozlari berish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati tartibga solinadi.

Soliqlar orqali davlat muayyan ijtimoiy jarayonlarga ta‘sir qiladi, nazorat funksiyalarini bajaradi va konstitutsiyaviy huquqning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Uzluksiz iqtisodiy rivojlanish va inqiroz hodisalarini muvaffaqiyatli bartaraf etish jarayonida har bir mamlakat hukumati iqtisodiyotni tartibga solishning qabul qilingan nazariy konsepsiyasiga va tanlangan iqtisodiy rivojlanish modeliga muvofiq iqtisodiyotga davlat ta‘siri tizimida mavjud bo‘lgan usullarning arsenalidan foydalanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish davlat tomonidan o‘ziga xos iqtisodiy funksiyalar to‘plamini bajarish bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimi:

- iqtisodiyotning samarali ishlashi uchun qulay qonunchilik bazasi va ijtimoiy muhitni ta'minlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va milliy ishlab chiqarishni himoya qilish;
- daromad va milliy boylikni ijtimoiy teng taqsimlash jarayonini ta'minlash;
Хайруллина, Д.Р. Факторы определяющие развитие малого бизнеса» [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-opredelyayuschie-razvitiemalogo-biznesa>].

Источник: <https://izron.ru/articles/aktualnye-voprosy-ekonomiki-menedzhmenta-i-finansov-v-sovremennykh-sloviyakh-sbornik-nauchnykh-trud/sektsiya-14-problemy-makroekonomiki/institutsionalnye-osobennostipodderzhki-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-sostorony-organov-pub/>

Табышова, А.К. Основные моменты государственной поддержки доступа малого и среднего бизнеса к льготному финансированию в Кыргызстане. Г.А. Сансызбаева, А.К. Табышова [Текст] / Г.А. Сансызбаева, А.К. Табышова // Вестник КРСУ.- 2021.- Т.21. -№ 3. - С.46-50].

<https://www.stat.kg/ru/publications/sbornik-kyrgyzstan>

Алишева П.К., Кенешбаева З.М. Проблемы малого и среднего бизнеса в Кыргызской Республике Вестник филиала федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования "Российский государственный социальный университет" в г. Ош Кыргызской Республики. 2021.№2 (24). С. 27-32.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ

А.У.Раҳимов-

тиббиёт фанлари доктори, профессор.

Б.И.Исроилов-

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор.

ЮНЕСКО томонидан 1972 йилда илгари сурилган узлуксиз таълим концепциясида касбий таълим ва малака оширишни турли даражадаги умумий таълим билан уйғунлаштириш ғояси мавжуд. Узлуксиз таълим глобал таълим тизимининг мажбурий таркибий қисми ҳисобланиб, жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар ва ахборот тизимларидаги янгиликлар талабларга мослашиш учун инсон бутун ҳаёти давомида ушбу таълим тизимида иштирок этишга эҳтиёж сезади.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясида олий таълим муассасаларида ишга қабул қилиш ва юқори лавозимларга тайинлашда олий таълим тизими ривожини учун ўзининг муносиб ҳиссасини кўшувчи кадрларни танлаш, уларнинг фаолияти, профессионал хусусиятлари, соҳа олдидаги алоҳида хизматларини адолатли ва холисона баҳолашни назарда тутувчи меритократия тамойилларини қўллаш устувор вазифалардан бири сифатида белгиланган¹⁰⁰. Ушбу вазифаларни бажариш мақсадида педагог кадрлар тайёрлаш тизими ҳолати ва мавжуд муаммоларини ўрганиш ҳамда илғор хорижий тажриба асосида уни сифатини ошириш йўллари ишлаб чиқиш зарурдир.

Тадқиқотларимиз доирасида олий таълим муассасалари учун педагог кадрлар тайёрлашнинг турли жиҳатларини кўриб чиқувчи олимларнинг ишлари мазмунан ўрганилади ҳамда жамиятни глобаллашув ва рақамлаштириш шароитларида уни мазмун жиҳатдан янгилашда мавжуд муаммоларга баҳо берилади.

¹⁰⁰ Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2019 йил 9 октябрь.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ҳозирда олий таълим педагогикаси ва янги педагогик технологиялар асосида фанларни ўқитишга оид кўплаб адабиётлар мавжуд. Хусусан, олимлар С.И. Архангельский, А.А.Андреев, В.И.Андреев, М.В.Булановой-Топорковой, Ю.Г. Фокин, А.В.Хуторской, Ф.Б.Киличева, Б.Зиёмуҳаммадов, Г.О.Очилова, Г.М.Мусахановалар чоп этилган асарларда олий таълим педагогикаси амалиёти, қонуниятлари, усуллари, психологияси, ўқитиш ҳамда тарбия услублари ва уларни такомиллаштириш масалалари ёритилган.

Аммо ушбу адабиётларнинг аксариятида рақамли жамият, таълим ва бошқарув ҳамда бозорда рақобат даражаси кескин ўсаётган глобал иқтисодий шароитида олий таълим муассасалари педагоглари сифатини мунтазам барқарор ривожланишини таъминлаш чоралари ўрганилмаган.

Таҳлил ва натижалар. Олий таълим тизими учун кадрлар тайёрлаш тизими, улар фаолияти ўзига хос хусусиятлари ва унинг муаммолари бўйича амалга оширилган тадқиқотларда олимлар илмий-педагог фаолиятнинг илмий, психологик, педагогик ва ижодий жиҳатларини ўрганган ва ўз қарашларини баён этган.

Е.В.Грязнова, О.А.Никишиналар педагогнинг услубий маданияти соҳасидаги олимлар қарашлари таҳлили асосида “педагог-тадқиқотчи услубий маданияти – педагогик ҳамда услубий маҳоратни мунтазам равишда такомиллаштириш эвазига ривожланишни талаб этадиган мураккаб услубий ва педагогик тизимдир”, деган хулоса қиладилар [1].

И.О.Котлярова, Г.Н.Сериковлар илмий-педагог кадрлар тайёрлашда педагогик ва ўқув-педагогик ҳамкорлик алоҳида фаолият турлари ҳисобланишини қайд этади [2].

А.И.Чучалин аспирантура тизимини олий таълим учун педагог кадрлар тайёрлашдаги муҳим буғин, деб баҳолайди [3].

Е.А.Авдеева, О.А.Гаврилюк, Е.А.Тепляшиналар томонидан тадқиқотлари натижасида аспирант врачлар психологик-педагогик маҳоратини ошириш улар онгли меҳнати, илмий тадқиқотга рағбати ҳамда касбини ривожлантиришга йўналтиришни таъминлайди деган хулоса қилинган [4].

Махсус йўналишдаги олий таълим муассасалари учун юқори малакали педагог кадрлар тайёрлаш амалиёти таҳлиллари натижасида О.Н.Шумилова, В.А.Горохов, В.И.Литвинчуклар “аспирантлар педагогик маҳорати самарадорлиги гарови психологик-педагогик фанларни ўқитиш ва амалий кўринмаларини шакллантиришга хизмат қиладиган педагогик амалиётни муваффақиятли ташкил этиш билан боғлиқ”лиги тўғрисида хулоса қилади [5].

Ушбу олимлар тадқиқотларида баён этилган фикрлар бугунги олий таълимда мутахассислик фанларни ўқитиш сифатини оширишга хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Ўзбекистонда олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларини тайёрлаш ва улар малакасини ошириш муаммоларига бағишланган тадқиқотлар жуда кам. Лекин ўз ечимини кутаётган педагогик маҳоратни шакллантириш ва мутахассислик фанларни ўқитиш муаммолари мавжуд. Муқаддам чоп этган ишимизда ушбу масала хусусида ўз қарашларимизни баён этганмиз [6].

Халқ таълими тизимида ишга қабул тўғрисида мурожаат қилган кадрдан педагогика бўйича ўқиганлиги ва мутахассисни ўқувчини ўқитишга тайёрлиги ҳақидаги билимни тасдиқловчи ҳужжатлар талаб қилинади. Даъвогар педагогика институти ёки университетини ўзи танловда иштирок этаётган йўналиш бўйича тугатганлиги тўғрисидаги дипломни ишга кириш учун тақдим этади. Даъвогарнинг йўналиши педагогика мос бўлмаса, уни ишга қабул қилиш рад этилади ёки педагогика бўйича қайта тайёрлашдан ўтиш талаби қўйилади.

Олий таълим муассасасида профессор-ўқитувчини ишга қабул қилишда эса йўналиш бўйича диплом тақдим этиш талаб қилинади холос. Ажабланарлиси шундаки, иш берувчи даъвогарнинг педагогик билим ва малакага эгаллиги билан қизиқмайди. Даъвогар билимли мутахассис бўлсада, унда талабага ўзининг фанга оид билимини етказиш учун талаб этиладиган педагог билим, малакага ва маҳорат бўлмаслиги мумкин. Ҳозирда олий таълимда профессор-ўқитувчини ишга қабул қилишда хорижий тилларни билиш даражаси сертификатлари талаб қилиниши мумкин, лекин педагогик сертификат талаб этилмайди.

Амалиётда улар кўплаб ноодатий ҳолатларга дуч келинади. Мутахассиснинг ўз соҳасидаги билими ва тажрибаси етарли бўлса, муаммони мантиқий таҳлили ҳамда хулосалари ўзи дуч келган ҳолатнинг ноодатий ҳолатларига баҳо бериш ҳамда уни ижобий ечимини топишига ёрдам беради. Бундай ноодатий ҳолатларга турли ҳудудларда фаолият юритаётган мутахассислар ҳам дуч келиши мумкин. Шу сабабли амалиёт билан бирга педагогик қилиш профессор-ўқитувчи тажрибаси ошиб боришига хизмат қилади. Малака ошириш курсларида амалиётчи профессор-ўқитувчи ўз амалиётида дуч келган ноодатий ҳолатларда қандай йўл тутиш зарурлигини талабларга тушунарли тарзда етказа олиш методикасини ўрганиши зарур. Шу ўриндаги педагогик маҳоратимизни етишмаслиги натижасида шундай ҳолатларда қандай йўл тутиш маҳоратини талабага етказа олмаймиз.

Фикримизча, олий таълим тизими учун профессор-ўқитувчилар тайёрлаш тизимида қуйидаги ўз ечинини кутаётган муаамолар мавжуд.

Муқаддам аспирантура тизимида педагогик йўналиш бўйича дарслар ўтиш режалаштириллар эди. Аксар профессор-ўқитувчилар аспирантурада бошланғич педагогик билимни эгалларди. Лекин ҳозирда мамлакатимизда ушбу амалиётдан воз кечилиши ёш профессор-ўқитувчиларда педагог профессионал маҳоратини шаклланишига салбий таъсир этди.

Шунингдек, ўтган асрнинг 90 йилларида профессор-ўқитувчилар меҳнатини рағбатлантирилмаганлиги оқибатида малакали педагоглар, олим бўлиш истагидаги ёш иқтидорларни амалиёт, бизнес ва хорижга оқими юзага келди. Бу салбий ҳолат натижасида олий таълим педагог кадрлари вакант ўринлар ишсиз, омадсиз ва ҳар ишдан фақат шахсий манфаатни қидирадиган чакқон шахслар билан тўлирилганлиги олий таълимга малакасиз кадрлар кириб келишига йўл очди. Натижада таълим тизими барча буғинларида педагогик маҳорат даражаси кескин пасайди. Ушбу даража ҳамон сақланиб қолмоқда.

Мустақил изланувчи сифатида илмий тадқиқотлар олиб бориш тизимида тадқиқот ишларига бўлган талабнинг сусайиши натижасида илмий даража олиш

микдори ошди ва илмий тадқиқотлар сифати эса пасайди. Таълим тизимидаги юқорида қайд этилган бўшлиқдан фойдаланиб, ишга келган педагог ва имкониятли амалдор, бизнесмен илмий даражага машаққатсиз эришди. Бугун амалиётда ишсиз қолган амалдор, банкрот бўлган бизнесмен ва ўз йўлини топа олмаётган битирувчи мамлакатимизда олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари меҳнатини рағбатлантиришга қаратиладиган ислохотлар сабабли олий таълимга педагоглик қилиш учун кириб келмоқда.

Юқорида таъкидлаганимиздек, 1990 йилларда интеллектли педагогларнинг олий таълимдан четга оқими содир бўлган бўлса, ҳозирда ушбу жараённинг тескараси, яъни интеллекти паст оқимнинг таълим тизими педагогликга кириб келиш жараёни содир бўлмоқда

Олий ўқув юртлари мутахассислик фанларни ўқитадиган профессор-ўқитувчилари педагогик маҳоратини ошириш мақсадида:

магистратура барча йўналишларида ўқув соатлари ва педагогик амалиёт самарадорлигини оширишга талабни кучайтириш;

магистратура ўқув дастурларда педагогика фанлари ва педтехнологияларга оид соатларни ошириш;

олий таълимдан кейинги таълимни барча босқичлари учун замонавий педагогика фанларини ўқитишни йўлга қўйиш;

малака ошириш тизимини ташкил этишда замонавий педагогик маҳоратни оширишга эътиборни кучайтириш мақсадга мувофиқ, деб ўйлаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати :

Е.В.Грязнова, О.А.Никишина. Методологическая культура педагога-исследователя. Перспективы Науки и Образования. 2018. 3 (33).

И.О.Котлярова, Г.Н.Сериков. Ресурсный подход к образованию для устойчивого развития // Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогические науки». 2022. Т. 14, № 2. С. 6–20. DOI: 10.14529/ped220201).

А.И. Чучалин. Подготовка аспирантов к педагогической деятельности в высшей школе. // Высшее образование в России. 2017. №8/9 (215). С. 5-21.

Е.А.Авдеева, О.А.Гаврилюк, Е.А.Тепляшина. Педагогические условия организации исследовательской деятельности аспирантов медицинского университета как фактор повышения психолого-педагогической компетентности врача // Перспективы науки и образования. 2019. № 1 (37). С. 51-67. doi: 10.32744/pse.2019.1.4).

О.Н.Шумилова, В.А.Горохов, В.И.Литвинчук. Формирование педагогической компетентности выпускников аспирантуры. Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2019. Т. 8. № 1(26).

А.У.Рахимов, Б.И.Исролов. Педагогика для преподавателей вузов.Т. "IQTISODIYOT" : Учебное пособие.2023, 192 стр.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И АНАЛИЗА КРАТКОСРОЧНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ПРЕДПРИЯТИЯ И ПУТИ ИХ СНИЖЕНИЯ НА ПРИМЕРЕ ОСОО "БАЙКОЛ - КУРУЛУШ"

К.Т.Самиева

*Кандидат экономических наук, доцент
кафедры Бухгалтерского учета и аудита
Ошского технологического университета
им. акад. М.М. Адышева, г.Ош, Кыргызстан*

Б.Ж.Жусупов

*Преподаватель кафедры Бухгалтерского
учета и аудита Ошского технологического
университета им. акад. М.М. Адышева,
г.Ош, Кыргызстан*

Наиболее актуальным, остро стоящим перед всеми хозяйственниками в настоящее время является вопрос, который напрямую связан с расчетно-платежными операциями и, как следствие этого - несомненно, координирующего работу хозяйственного субъекта в целом. В свою очередь, перед бухгалтером встает задача грамотного учета краткосрочных обязательств, так как текущие обязательства являются важным аспектом управления финансами любого субъекта.

Следует отметить что, учет краткосрочных обязательств позволяет компаниям правильно управлять своими финансовыми ресурсами и контролировать свои обязательства в ближайшем будущем. Компании должны стремиться к оптимизации своих краткосрочных обязательств, чтобы минимизировать риски и обеспечить стабильность своих финансовых показателей.

Цель исследования учета и анализа краткосрочных обязательств предприятия состоит в том, чтобы дать точное представление о финансовых обязательствах предприятия, которые подлежат погашению в течение года или менее. Немаловажную роль занимает анализ, которая помогает управленческой команде принимать обоснованные решения относительно управления денежными потоками, погашения краткосрочных долгов и финансирования ежедневных операционных расходов.

С другой стороны, если предприятия способна эффективно управлять своими краткосрочными обязательствами, это может оказать положительное влияние на ее финансовые результаты. Это может помочь улучшить кредитный рейтинг компании и сделать ее более привлекательной для инвесторов. Кроме того, управление краткосрочными обязательствами может помочь улучшить движение денежных средств и снизить риск неисполнения своих обязательств.

Исходя из этой цели, можно определить следующие задачи учета краткосрочных обязательств:

- своевременное и полное отражение учета операций, связанных с движением текущих расчетов;

- обеспечение своевременности и правильности текущих расчетов. Основными задачами учета краткосрочных обязательств являются:




Рис. 1. Счета для учета краткосрочных обязательств

Как мы знаем, счета раздела 3000 «Краткосрочные обязательства» предназначены для учета обязательств компании, классифицируемых как краткосрочные в соответствии с параграфами 60-65 МСФО 1 «Представление финансовой отчетности».

В составе краткосрочных обязательств входят:

- 3100 Счета к оплате
- 3200 Авансы полученные
- 3300 Краткосрочные долговые обязательства
- 3400 Налоги к оплате
- 3500 Краткосрочные начисленные обязательства
- 3600 Прочие краткосрочные обязательства
- 3700 Резервы

Вместе с тем, обязательства можно классифицировать как налоговые и неналоговые.

Неналоговые, это те обязательства, которые возникают у организации со всеми контрагентами кроме государства, расчеты организации с государством называются налоговыми обязательствами.

Налоговым обязательством признается обязательство налогоплательщика перед государством, возникающее в соответствии с налоговым законодательством, в силу которого налогоплательщик обязан встать на налоговый учет в налоговом органе, определять объекты налогообложения и объекты, связанные с налогообложением, исчислять налоги и другие платежи в бюджет, составлять налоговую отчетность, представлять ее в установленные сроки и уплачивать налоги и другие обязательные платежи в бюджет».

Согласно Налоговому кодексу Кыргызской Республики от 18 января 2022 года № 3, субъектами облагаются следующие виды налогов исходя из выбранного налогового режима.

Таблица 1

Виды налогов в Кыргызской Республике возлагаемые субъектами (общегосударственные налоги, местные налоги)

Общегосударственный налог		ставки (%)	Местный налог		ставки (%)
Налог на прибыль		10%	Налог на имущество: (за м2)	здания	с коэффициентом
Налог с продаж:	от торговли деятельности и производство	1%		дом	
	от строительной деятельности	2%		земля	
	в сфере сотовой связи	2%-5%		все виды деятельности которые оказывают услуги	0,80%
НДС		12%		промышленность	0,20%
Акцизный налог		12%		авто сервис, связь	0,50%
Подоходный налог		10%	Налогоплательщики которые работают на основе патента		УСН
Налог за использование недрами		(куб.м) с коэффициентом	Реалти		(куб.м) с коэффициентом

Более подробно хотим обратить внимание на подоходный налог, согласно статье 197. НККР ставка подоходного налога – 10%, а что касается всего с уплатой в социальный фонд работодатель должен платить 17,25%, давайте посмотрим ниже в таблице 2.

Работник

Пенсионный фонд = Всего начисление * 8%

Накопительный пенсионный фонд = Всего начисление * 2%

Подоходный налог

Подоходный налог = Всего начисление - (8% + 2% + 650) = X (Ост.) * 10%

Таблица 2

Исчисления и удержания подоходного налога

№п/п	Виды деятельности	Отчисление в страховой взнос	
1	Основной	8% Пенсионный фонд	2% Накопительный пенсионный фонд
2	Возрастной	10% Пенсионный фонд	
	Мужчины с 1969г - по 65г		
	Женщины с 1964г – по 60г		
3	Пенсионер	8% Пенсионный фонд	

Информационной и аналитической базой нами были исследованы учет и анализ эффективности управления краткосрочных обязательств на примере ОсОО Байкол-Курулуш.

Более точная информация по счетам краткосрочных обязательств детально отражены в оборотно-сальдовой ведомости ОсОО Байкол-Курулуш.

Таблица 3

**Оборотно-сальдовая ведомость ОсОО Байкол-Курулуш
за I квартал 2023 г**

ОсОО "Байкол-Курулуш"

Оборотно-сальдовая ведомость

Период: 31 март 2023 г.

Детализация по субсчетам, субконто:

Выводимые данные: сумма

Наименование счета	Сальдо на конец периода	
	Кредит	Дебет
Счета к оплате 3100	22 928 707,00	
Задолженность заказчикам по договорам на строительства 3220	5270210,00	
Начисленная заработная плата 3520	59540,00	
НДС к оплате 3430	11200,00	
Начисление взносы на социальное страхование 3530	27250,00	
Прочие налоги к оплате 3490	42500,00	
Резервы 3710	3902029,00	
Итого	32241436	

Согласно методу категорий баланса, мы видим что краткосрочные обязательства разделяются на категории в зависимости от характера обязательств. Например, краткосрочные обязательства перед поставщиками могут быть выделены в отдельную категорию. Этот метод более точен и позволяет компаниям получить более детальную информацию о своей финансовой позиции.

Если посмотреть детализацию счета 3100 по субсчетам, то видим расчеты с контрагентами:

Таблица 4

**Оборотно-сальдовая ведомость по счету 3100 ОсОО Байкол-Курулуш
за I квартал 2023 г**

ОсОО "Байкол-Курулуш"	
Оборотня -сальдовая ведомость по счету 3100	
Период: 31 март 2023 г.	
Детализация по субсчетам, субконто:	
Выводимые данные: сумма	
Субконто	Сальдо на конец периода
	Кредит
ОсОО Строительный гипермаркет Два прораба	2682000,00
ЧП Ильгельдиев Данияр	462 675
ОсОО ИМЗО Кейджи	10372205,00
ЧП Строй Двор (прут,мык,краска и др)	560660,00
ЧП Туменов Акжол	756890,00
ЧП Калдаров Ороз	5985660,00

Юг-Металл	2 571 292,00
Итого	22 928 707,00

Таким образом, в течение фактов хозяйственной жизни, являющихся основанием возникновения обязательств и соответствующие действия контрагентов по обязательствам определяют степень их (обязательств) условности в понимании этого термина в рамках заданной нами классификации.

Для того чтобы оценить способность предприятия покрыть краткосрочные обязательства нужно обратить внимание на коэффициент текущей ликвидности. И так, коэффициент текущей ликвидности рассчитывается путем деления текущих активов на текущие обязательства диаграмме 1,2.

$$K_{тл} = \text{Оборотные активы} \div \text{Оборотные обязательства} = 3226143 \div 32\,241\,436,00 = 0,10$$

Коэффициент текущей ликвидности ниже $2 < 0,1$ указывает на то, что компания имеет не достаточно краткосрочных активов для покрытия своих краткосрочных долговых обязательств.

Коэффициент быстрой ликвидности аналогичен, но исключает запасы из оборотных активов, обеспечивая более консервативный показатель ликвидности бизнеса.




Диаграмма 1. Краткосрочные обязательства строительной компании ОсОО «Байкол - Курулуш» за I квартал 2023 г

$$K_{бл} = \text{Оборотные активы} \div \text{Оборотные обязательства} = 3226143 - 0 \div 32\,241\,436,00 = 0,10$$

В нашем случае запасы у компании отсутствуют на данный момент.

В целом, анализ краткосрочных обязательств требует понимания финансовой отчетности компании и детальной оценки ее долговых обязательств. Анализируя эти обязательства, мы получили представление о финансовом состоянии компании.




Диаграмма 2. Краткосрочные активы строительной компании ОсОО «Байкол - Курулуш» за I квартал 2023 г.

Вывод: из расчетов видно, что коэффициент текущей ликвидности ниже очень низка, компания не в состоянии расплачиваться краткосрочными обязательствами, так как норматив $2 < 0,1$ указывает на то, что компания имеет недостаточно краткосрочных активов для покрытия своих краткосрочных долговых обязательств.

Таким образом, вопросы, связанные с расчетными и платежными операциями, краткосрочными обязательствами и заемным капиталом, являются неотложными вопросами, требующими внимания, как руководителей предприятий, так и бухгалтеров. Надлежащее управление этими вопросами имеет важное значение для обеспечения финансовой стабильности и успеха предприятия.

Вместе с тем, данное исследование представляет практическую значимость для предприятий, сталкивающихся с проблемами учета и анализа обязательств. Результаты и рекомендации могут быть использованы для оптимизации финансовых процессов и повышения эффективности деятельности предприятия в целом.

Наши рекомендации по оптимизации учёта краткосрочных обязательств:

- Необходимо проводить анализ краткосрочных обязательств, чтобы понимать, откуда они появляются, и какие инструменты использовать для их учёта.
- Учёт краткосрочных обязательств нужно организовать в виде отдельной ведомости или в форме общей бухгалтерской книге.
- Необходимо определять контрольные меры для учета краткосрочных обязательств, например, тщательно отслеживать сроки оплаты поставщикам и контролировать использование кредитных линий.

- Использовать программные обеспечения для автоматизации учета краткосрочных обязательств, которая может существенно облегчить процесс учета и снизить вероятность ошибок.
- Необходимо минимизировать количество краткосрочных обязательств, чтобы уменьшить риски и упростить учет, путем оптимизации инвентаризации и управления запасами, а также быстрой оплаты поставщиков и уменьшения просроченной задолженности.

Список литературы:

- Закон Кыргызской Республики “О бухгалтерском учете” от 9 августа 2021 года № 93.*
Гражданский кодекс Кыргызской Республики. Часть первая и вторая от 25.02.2009 г., глава 22 «Общие положения о договоре»
Налоговый кодекс Кыргызской Республики от 18 января 2022 года № 3.
Международный Стандарт Финансовой отчетности. Рекомендован Постановлением коллегии Государственной комиссии по стандартам финансовой отчетности и аудиту от 23.12.2002 г., №30.
Инструкция по применению плана счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности субъектов предпринимательства, некоммерческих организаций (за исключением бюджетных учреждений) от 7 октября 2010 года № 231
Финансовая отчетность ОсОО «Байкол – Курулуш» за 2023 г.

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР АУДИТИДА ТАҲЛИЛИЙ АМАЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ш.А.Тожибоева

Тошкент давлат иқтисодиёт университети Молиявий таҳлил ва аудит кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди

Иқтисодиётни ривожлантириш шароитида мамлакатимизда ҳисоб, таҳлил ва аудиторлик фаолиятини ривожлантириш бўйича керакли тадбирлар амалга оширилмоқда [1,2,3,4]. Жумладан аудиторлик хизматлари бозорининг ривожланиши учун шароитларни янада яхшилаш ва аудиторлик фаолиятини тартибга солишда халқаро стандартларга мувофиқ замонавий ёндашувларни жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳам [3] қабул қилинди.

Суғурта ташкилотларида аудиторлик текширувидан ўтказишда молиявий натижалар асосий кўрсаткичлардан бири бўлиб, олган фойдасининг тўғри шакллантирилиши уларни фаолиятини ривожлантириш, молиявий жиҳатдан барқарор бўлиши, самарадорлигини ошириш билан алоқадордир. Ўз ўрнида молиявий натижа уларнинг ўз айланма маблағларига, тўлов қобилятига таъсирини ўтказди. Молиявий натижалар даражасини ошириш имкониятларини аниқлаш суғурта ташкилотлари фаолиятининг энг асосий вазифаларидан бири

бўлиб, буни фақатгина уларнинг фаолиятини ҳар томонлама ўрганиш, таҳлил ва аудит қилиш асосида эришилади. Шу сабабга кўра ҳам суғурта ташкилотлари молиявий натижалари устидан доимий назорат олиб бориш муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Бу вазифаларни бажариш учун молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот аудитини халқаро стандартлар талаби даражасида ташкил қилиш, молиявий ҳисобот маълумотларини таҳлил қилиш, хорижий давлатлар тажрибаси асосида аудит жараёнини такомиллаштириш зарурияти сезилмоқда.

Суғурта ташкилотларида молиявий натижалар аудити ва таҳлили масалалари иқтисодчи олимларнинг илмий ишларида кенг кўламда ўрганиб чиқилган. Молиявий натижаларни аудиторлик текширувидан ўтказишда таҳлил усулларидадан фойдаланиш бўйича суғурта ташкилотларида ҳам тадқиқотлар олиб бориш долзарб илмий-амалий аҳамиятга эга бўлган мавзу ҳисобланади. Таҳлилнинг назарий муаммолари масаланинг бир томони бўлса, иккинчи томони, уларнинг турли соҳаларда амалий жиҳати ҳисобланади.

Иқтисодий ривожлантириш шароитида республикамиз суғурта ташкилотлари фаолияти натижаларини аудиторлик текширувларидан ўтказиш, шунингдек молиявий натижалар аудити сифатини оширишда таҳлилий амаллардан кенг фойдаланиш молиявий барқарорлигига таъсир қилувчи ички ва ташқи омилларни олдиндан тахминлаш, уларни истиқболли ривожлантириш бўйича самарали бошқарув қарорларни қабул қилишда информацион ва назарий асосни яратиш каби муаммолар улар фаолиятида иқтисодий таҳлилнинг замонавий усулларидадан фойдаланган ҳолда назоратни ташкил этишни талаб қилади. Иқтисодий адабиётда кўрсатилишича: “Таҳлилий амаллар аудитор учун аудитни ҳар томонлама сифатли ўтказишга имкон беради ва суғурта ташкилоти фаолияти билан боғлиқ муаммоларни аниқлашда ҳамда шунга мос равишда мижоз учун асосли таклифларни ишлаб чиқишга имкон яратади” [7]. Таҳлилий амалларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан усулларни тўғри танланишидан, кўрсаткичлар таркибини белгилашдан ва таҳлилни ўтказиш кетма-кетлигига боғлиқ. Шу билан бирга таҳлилий амаллардан катта камомадлар, харажат ва йўқотишлар, инвентаризация иши ва ички аудиторлик хизмати самарадорлигининг иқтисодий таҳлили учун фойдаланилиши мумкин.

Иқтисодчи олимларнинг фикрича: “Субъектларнинг жорий йилга оид молиявий ҳисобот кўрсаткичларини фоиз ва нисбат кўринишида аввалги йилги ҳисоботлар, статистик ва бюджет кўрсаткичлари билан солиштириш таҳлилий амалиёт” [9] дейилади. Режалаштириш мақсадларида қўлланилганда таҳлилий амалиётлар аудитор учун мижоз молиявий фаолиятининг хусусиятларини ўрганиш имконини беради. Шунингдек, сезиларли ўзгаришлар келганда, хато сальдога эга бўлган счетларни аниқлаш мумкин бўлади. Бундай ҳолда аудитор текширув жараёнида айнан шу муаммоли нуқталарга катта эътибор қаратиши орқали юқори сифатли аудит текширувини ўтказиши мумкин бўлади. Демак, таҳлилий амалиётлар аудитни режалаштириш жараёнида аудит рискинни баҳолашда энг муҳим бўғинларидан бири бўлиши лозим. Чунки аудиторлик рисклари таркибида энг асосий кўрсаткич бу - аниқланмаслик рисқи ҳисобланади. Мазкур риск даражасининг ошишига таъсир қилувчи омиллардан бири эса

таҳлилий амаллардан фойдаланмаслик ҳисобланади. Таҳлилий амалларга аудитнинг Халқаро Стандартларида кенг тўхталиб ўтилган бўлиб, алоҳида № 520-«Таҳлилий муолажалар» номли бўлим ажратилган. Унда келтирилишича, таҳлилий муолажалар қуйидаги мақсадларда қўлланилади: бошқа аудиторлик муолажаларнинг тавсифи, муддати ва ҳажмини режалаштиришда аудиторга ёрдам бериш учун; молиявий ҳисоботнинг аниқ белгиланган тасдиқлари бўйича аниқлаб бўлмаслик risksи пасайганда, муфассал тестларга қараганда қўлланиши самарадорлироқ ва оқилона бўлган моҳияти бўйича муолажалар; аудитнинг охири, шарҳланадиган босқичда молиявий ҳисобот бўйича умумий шарҳлаш сифатида[6]. Таҳлилий амаллар, шунингдек, субъект фаолиятига асосланган масалан, суғурта хизматларидан олинган ялпи фойданинг фоиз нисбати, молиявий маълумотлар, тегишли равишда молиявий тавсифга эга бўлмаган маълумот ўртасидаги ўзаро боғлиқликни кўриб чиқади. Халқаро амалиётда таҳлилий амалларнинг кўплаб усуллари ишлаб чиқилган. Бу усуллар суғурта ташкилотининг қисқа муддатли ликвидлиги, тўлов қобилияти, даромадлилиги каби бир қатор кўрсаткичларни аниқлашга қаратилган. Бу кўрсаткичлардаги ўзгаришларнинг аниқланиши ва шу ўзгаришларга олиб келган омилларнинг таҳлил қилиниши аудиторга молиявий натижанинг айнан қайси элементларига кўпроқ эътибор бериш ва тест интенсивлигини кучайтириш лозимлигини кўрсатади.

Ҳозирги кунда суғурта ташкилотлари молиявий натижаларини шакллантириш, уларни аудиторлик текширувларидан ўтказиш услубиятини такомиллаштириш масаласи долзарб ҳисобланади. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, кўпгина иқтисодий адабиётларда соф фойдани аниқлаш ва тақсимлаш аудити ҳамда аудит текширувлари жараёнида далиллар тўплаш ва натижаларини умумлаштиришнинг услубий масалалари эътибордан четда қолмоқда. Молиявий натижаларга таъсир кўрсатувчи омиллар таҳлили анъанавий усулларни қўллаш билан чегараланиб қолган ва кўп омилли таҳлил, шу жумладан, омиллар қийматини занжирли кетма-кет қўйиш усули билан фойда ва рентабелликни чуқурлаштирилган таҳлил қилиш ҳамда уни аудитда қўллаш имкониятлари очиб берилмаган[5]. Аудиторлик амалиётида суғурта ташкилоти фаолиятига баҳо бериш ва таҳлил этишда иқтисодий таҳлилдан фойдаланишнинг ягона методикаси шу пайтга қадар яратилмаган. Шу сабабли, ҳар бир аудитор ўз амалий тажрибасидан, суғурта ташкилотининг фаолият ва бошқарув хусусиятларидан, ахборот манбаларининг ҳажмидан келиб чиққан ҳолда алоҳида методик ишланмалардан фойдаланадилар. Шу боисдан ҳам суғурта ташкилотлари молиявий натижалари аудиторлик текшируви жараёнида омилли таҳлил усулидан фойдаланиш тавсия қилинмоқда. Чунки, омилли таҳлил қилиш асосида суғурта ташкилоти молиявий ҳолатига аниқ ташхис қўйиш имкони туғилади. Ўтказилган таҳлил натижалари бўйича субъектда соф фойда ҳажмини ошириш бўйича имкониятлар миқдори аниқланади, керакли амалий тавсиялар берилади. Молиявий натижаларни омилли таҳлил усулини суғурта ташкилоти амалий фаолиятида қўлланилиши натижасида уларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш, банкротлик ҳолатини олдини олиш, иқтисодий салоҳиятни кўтариш, молиявий

барқарорлигини таъминлаш ҳамда аудиторлик текшируви сифатини ошириш имкони бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 4611-сон қарори. 2020 йил 24 февраль.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Давлат иштирокидаги корхоналар ижро этувчи органи фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 775-сон қарори. 2020 йил 9 декабрь.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3946-сон қарори. 2018 йил 19 сентябрь.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Давлат иштирокидаги корхоналарни молиявий соғломлаштириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1013-сон қарори. 2018 йил 14 декабрь.

Tojiboyeva Sh.A. *Moliyaviy tahlil-2. Darslik.* –Т.: Innovatsion rivojlanish, 2021.

Karimov A., Muqimov Z., Xodjayeva M., Avlokulov A. *Xalqaro audit. Darslik.* –Т.: Iqtisodmoliya, 2020.

Куликов С.В. *Аудит в страховых организациях. Учебник.* -Ростов на Дону. Феникс, 2019.

Shoalimov A.X., Ilxomov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. *Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik.* – Т.: Sano-standart, 2017.

ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТ ТАҲЛИЛИДА АЙЛАНМА МАБЛАҒЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ

Ш.А.Тожибоева

*Тошкент давлат иқтисодиёт
университети Молиявий таҳлил ва
аудит кафедраси доценти, иқтисод
фанлари номзоди*

Республикамызда иқтисодиётни ривожлантириш шароитида иқтисодий ўсиш, макроиқтисодий ва молиявий барқарорликка эришиш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Бу эса, ўз навбатида хўжалик субъектлари фаолиятини ривожлантириш, самарадорлиги ва молиявий барқарорлигини оширишни тақозо этади. Хусусан, мамлакатимизда ҳисоб, аудит, таҳлил тизимини такомиллаштириш бўйича молиявий ҳисобот ва аудиторлик фаолиятининг халқаро стандартларини жорий этиш мақсадида меъёрий ҳужжатлар қабул қилинмоқда, амалий тадбирлар амалга оширилмоқда [1,2,3,4]. Хўжалик субъектлари молиявий барқарорлигини оширишда уларни иқтисодий салоҳиятини ифодаловчи кўрсаткичларни таҳлил қилиш муҳим ҳисобланади. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти деганда унда содир этиладиган иқтисодий жараённи тўлиқ таъминлайдиган барча моддий ва меҳнат ресурслари ҳамда номоддий активлар тушунилади[7]. Корхона иқтисодий салоҳияти таркибида айланма маблағларни ифодаловчи кўрсаткичларини таҳлил қилиш асосий ўринни эгаллайди. Айланма маблағлар энг муҳим моддий асос бўлиб, корхона операция фаолияти бевосита уларга боғлиқдир. Чунки корхона фаолиятини амалга оширишда хом ашё ва

материллар, пул маблағлари ва бошқа айланма маблағларни шакллантиргандан сўнггина иш бошлайдилар. Айланма маблағлар таҳлилининг асосий мақсади – айланма капитални бошқаришда йўл қўйилган камчиликларни ўз вақтида аниқлаш, улардан интенсив ва самарали фойдаланиш имкониятларини аниқлашдан иборат [8]. Таҳлил қилинганда айланма маблағларнинг таркибий тузилишидаги ўзгаришларга, таъминланганлик даражасига, улардан самарали фойдаланишнинг ҳолатига, маҳсулот ҳажмини ўстиришда ашёларни тўғри бошқаришнинг аҳамиятига, ашёвий ресурсларни иқтисод қилиш юзасидан ички имкониятларни белгилаш ва йўлга қўйишга муҳим аҳамият берилади. Айланма маблағлар тузилмасини таҳлили шуни кўрсатадики, корxonанинг молиявий барқарорлиги кўп жиҳатдан маблағларни айланиш босқичлари жараёнларини оптимал жойлашишига боғлиқ. Ишлаб чиқариш айланма фондлари ўз таркибига ишлаб чиқариш захираларини, пул маблағларини олиб, улар ишлаб чиқаришнинг бир циклида фойдаланилади ва қиймати ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг таннархига тўлиқ ўтказилади. Ишлаб чиқаришда ҳам асосий, ҳам айланма маблағларни борлиги, ҳолати, улардан фойдаланиш даражаси корxonаларнинг молиявий ҳолатига таъсир кўрсатади. Айланма маблағлар билан етарли даражада таъминланиш ва самарали фойдаланиш натижасида маҳсулот таннархи камаяди, фойда кўпаяди, рентабеллик даражаси кўтарилади. Лекин корxonаларнинг молиявий ҳолати таҳлил қилинганда, фақат бир муаммо – айланма маблағларни айланиши билан корxonаларни молиявий ҳолати ўртасидаги алоқа таҳлил этилади, чунки айланма маблағларни айланишини ўзгариши корxonалар молиявий ҳолатига бевосита ва миқдоран таъсир кўрсатади. Ундан ташқари амалиёт шуни кўрсатадики, айланма маблағларнинг айланиши сусайган вазиятда ҳам корхона молиявий ҳолатининг бошқа кўрсаткичлари ижобий ва аксинча, айланма маблағларнинг айланиши тезлашган бўлса, корхона молиявий ҳолатининг бошқа кўрсаткичлари ёмонлашган бўлиши мумкин.

Хўжалик субъектларининг айланма маблағлари таҳлил қилинганда баланс бўйича ўзига қаршли айланма маблағларнинг мавжуд суммаси аниқланади ва улар билан қай даражада таъминланганлигига баҳо берилади. Мазкур кўрсаткич қуйидагича аниқланади [5]: Капитал+ Узоқ муддали кредит ва қарзлар-Узоқ муддатли активлар. Ҳисоб-китобларга кўра ўз айланма маблағлари моддий қийматликлардаги айланма маблағларидан ортиқ бўлса ҳам, амалда уларни етишмаслик ҳоллари кўп корxonаларда учрайди. Масалан, ишлаб чиқариш захиралари, тайёр маҳсулот қолдиқларини меъёрдан ортиб кетиши, муддати ўтган дебиторлик қарзларини ортиши айланма маблағларини мавжуд суммасини камайишига олиб келади.

Корxonаларни айланма маблағлар билан таъминланганлиги таҳлилида соф айланма активларни ҳам аниқлаш муҳим ҳисобланади. Хорижий мамлакатларда ўзига тегишли айланма маблағлар «Ишчи капитали» [6] деб аталади ва қуйидагича аниқланади: Жорий активлар-Жорий мажбуриятлар. Мазкур кўрсаткичдан корхона активи ликвидлигини баҳолаш ва узоқ муддатли истиқболда тўловга қодирлигини аниқлашда фойдаланиш тавсия қилинган. Айланма активларини қисқа муддатли мажбуриятлардан икки мартаба ортиқ бўлиши корxonанинг

ишлаб чиқариш ва молиявий ҳолатини барқарор ўсиши учун замин яратади. Бунинг натижасида ишчи капитали ёки “Соф айланма активи” шаклланади. Ишчи капитали ликвид резервлар ҳисобланиб, кутилмаган ҳолларда вужудга келадиган пул тушумлари ва қарз мажбуриятлари ўртасидаги узилишлар туфайли вужудга келадиган ҳаражатларни қоплашга сарфланади. Соф ишчи капитали соф активнинг бир қисми, банк-кредиторлар учун банк кредитини корхона қайтара олмаган ҳолларда ундан гаров сифатида фойдаланадилар. Жорий ликвидлик коэффицентининг даражаси кўп жиҳатдан захираларни ташкил этиш манбалари узоқ муддатли мажбурият ва корхонанинг ўз капиталига боғлиқ. Унинг даражасини ошириш учун ўз капиталини манбалар билан тўлдириш, активлар ва дебиторлик қарзлар ўсишини турғун ҳолда сақлашдан иборат.

Иқтисодий ривожлантириш шароитида корхоналар фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва молиявий барқарорлигини таъминлашда айланма маблағлардан ҳолатига баҳо бериш уларни иқтисодий салоҳият таҳлилининг асосий босқичларидан бири бўлиб, у ҳамма вақт корхона раҳбари, таҳлилчилар ва аудиторларнинг эътибор марказида бўлиши лозим. Айланма маблағлар ҳаракатини таҳлил қилиш хўжалик фаолиятини ривожланишини таъминловчи муҳим тадбирлардан биридир. Корхоналарнинг айланма маблағлар билан ўз вақтида, зарурий миқдорда, белгиланган сифатда ҳамда бир маромда таъминланганлиги, улардан рационал фойдаланиш пировардида унинг иқтисодий ривожланишига ва тараққий этиши учун ҳар томонлама таъсир этади. Зеро, хўжалик субъектлари иқтисодий салоҳиятини айланма маблағлар билан боғлиқ кўрсаткичлари таҳлилда айланма капиталнинг ҳолати, таъминланганлиги, айланма маблағларини қоплашга ўз маблағларини етарли ёки етишмаслигини ўрганиш муҳим масала ҳисобланади. Ушбу кўрсаткич айниқса корхонанинг молиявий мустақиллиги, барқарорлиги, кредит олишга лаёқатлилигини аниқлашда аҳамиятли ҳисобланади. Корхона айланма маблағлари ҳолатини яхшлаш бўйича қуйидаги амалий тавсияларни бериш мумкин: маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажмини кўпайтириш, сифатини яхшилаш; маҳсулотни етказиб бериш ва харид қилиш шартномаларини ўз вақтида, тўғри тузиш; ҳисоб-китоб тўлов ҳужжатларини ўз вақтида ва тўғри расмийлаштириш; маҳсулот етказиб берувчилар ва харидор корхоналарининг молиявий аҳволини ўрганиш; корхонанинг молиявий аҳволини ўз вақтида таҳлил қилиш ва бошқалар. Мазкур тавсияларни корхонанинг амалий фаолиятида қўлланиши иқтисодий салоҳиятини ошириш ва молиявий барқарорлигини таъминлаш имконини беради деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 4611-сон қарори. 2020 йил 24февраль.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат иштирокидаги корхоналар ижро этувчи органи фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 775-сон қарори, 2020 йил 9 декабрь.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат иштирокидаги корхоналарни молиявий соғломлаштириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1013-сон қарори, 2018 йил 14 декабрь.

Tajibayeva Sh.A. *Estimation of the Efficiency of Private Capital in the Audit. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Vol. 10, No. 1, January 2023.*

Tojiboyeva Sh.A. *Moliyaviy tahlil-2. O'quv qo'llanma. –T.: Innovatsion rivojlanish, 2022.*

Вахрушина М.А. *Анализ финансовой отчетности. Учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – М : ИИФРА-М, 2022.*

Xasanov B.A. va boshqalar. *Moliyaviy tahlil. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019.*

Shoalimov A.X., Ilxomov Sh.I., Tojiboyeva Sh.A. *Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. – T.: Sano-standart, 2017.*

KAPITAL AKTIVLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

B.Usmonov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Kapital aktivlar kompaniya daromad olish uchun foydalanadigan va osonlik bilan pulga aylantirilmaydigan uzoq muddatli aktivlardir. Ushbu aktivlar biznes faoliyati va rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ulardan foydalanishning ba’zi muhim jihatlari:

Kelajak uchun sarmoya: Kapital aktivlar kompaniya uchun muhim sarmoyadir. Ular uzoq muddat, ko‘pincha bir necha yil davomida imtiyozlar berishlari kutilmoqda. Masalan, binolar, mashinalar va transport vositalari.

Amortizatsiya: asosiy vositalar eskirish, eskirish yoki boshqa omillar tufayli vaqt o‘tishi bilan eskiradi. Amortizatsiya - bu ob’ekt tannarxini foydalanish muddati davomida tizimli ravishda taqsimlash. Bu vaqt o‘tishi bilan aktiv qiymatining pasayishini aks ettiradi.

Operatsion samaradorlik: asosiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish operatsion samaradorlikka yordam beradi. Kompaniyalar optimal ishlash va uzoq umr ko‘rishni ta’minlash uchun ushbu aktivlarni samarali boshqarishi va saqlashi kerak. Muntazam texnik xizmat ko‘rsatish aktivning ishlash muddatini uzaytirishi va qimmat almashtirishlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin.

Investitsiyalar rentabelligi (ROI): Kompaniyalar ularning samaradorligini aniqlash uchun kapital mablag‘larning investitsiyalari rentabelligini baholaydilar. ROI aktivdan olinadigan foydani (masalan, ko‘tarilgan daromad yoki xarajatlarni tejash) sotib olishning dastlabki qiymati va joriy operatsion xarajatlar bilan solishtirish orqali hisoblanadi.

Risklarni boshqarish: Kapital aktivlar texnologik eskirish, bozor o‘zgarishlari va tabiiy ofatlar kabi kutilmagan hodisalarni o‘z ichiga olgan turli xil xavf-xatarlarga duchor bo‘ladi. Xatarlarni boshqarishning samarali strategiyalari ushbu aktivlarning qiymatini himoya qilishga va biznesning uzluksizligini ta’minlashga yordam beradi.

Moliyaviy hisobot: To‘g‘ri moliyaviy hisobot uchun kapital aktivlarni to‘g‘ri hisobga olish juda muhimdir. Kompaniyalar o‘zlarining moliyaviy hisobotlarida kapital

aktivlarni sotib olish, amortizatsiya qilish va yo'q qilish to'g'risida hisobot berish uchun buxgalteriya standartlariga rioya qilishlari kerak.

Kapitalni byudjetlashtirish: Yangi kapital aktivlarini sotib olish to'g'risida qaror qabul qilganda, kompaniyalar kapitalni byudjetlashtirish bilan shug'ullanadilar. Bu potentsial investitsiyalarni baholash, pul oqimlarini baholash va loyihaning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Normativ hujjatlarga muvofiqligi: sanoat va joylashuvga qarab, kapital aktivlardan foydalanish va ularni tasarruf etishni tartibga soluvchi qoidalar va standartlar bo'lishi mumkin. Kompaniyalar huquqiy muammolarni oldini olish va axloqiy biznes amaliyotlarini ta'minlash uchun ushbu qoidalarga rioya qilishlari kerak.

Risklarni kamaytirish: kapital aktivlarni diversifikatsiya qilish muayyan xavflarni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, turli xil aktivlar portfeliga ega bo'lish iqtisodiy tanazzulga yoki sohaga oid muammolarga qarshi buferni ta'minlaydi.

Moliyaviy leveraj: kapital aktivlar moliyalashtirish uchun garov sifatida ishlatilishi mumkin. Bu korxonalariga qo'shimcha aktivlarga sarmoya kiritish, operatsiyalarni kengaytirish yoki qiyin moliyaviy davrlarni boshqarish imkonini beruvchi kreditlar yoki moliyalashtirish imkoniyatini beradi.

Brend imidji va obro'si: Eng zamonaviy jihozlar va zamonaviy infratuzilma ijobiy brend imidjiga hissa qo'shadi. Mijozlar va manfaatdor tomonlar ko'pincha yaxshi saqlangan va texnologik jihatdan rivojlangan biznes muhitini ishonchlik, professionallik va sifatga sodiqlik bilan bog'lashadi.

Aktivlarning qadrlanishi: Ko'pgina aktivlar vaqt o'tishi bilan amortizatsiya qilinsada, ko'chmas mulk kabi ba'zi kapital aktivlar qimmatlashishi mumkin. Bu biznesning umumiy moliyaviy sog'lig'iga hissa qo'shishiva strategik qarorlar qabul qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Umuman olganda, kapital aktivlarni samarali boshqarish kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. U strategik rejalashtirish, moliyaviy tahlil va ushbu investitsiyalardan olinadigan qiymat va foydani maksimal darajada oshirish uchun operatsion nazoratni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, kapital aktivlar korxonalarining strategik rivojlanishi, operatsion samaradorligi va uzoq muddatli hayotiyliigi uchun zarurdir. Ular nafaqat daromad olishga hissa qo'shadi, balki bozorda innovatsiyalar, o'sish va raqobatbardoshlik uchun asos yaratadi.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИЗНЕС-АНАЛИЗА В ВУЗОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Д.Р.Гафурова

*доцент кафедры «Менеджмент и маркетинг», PhD
Международного Ташкентского университета Кимё*

В современном образовательном ландшафте, на фоне постоянных вызовов и изменений, вопросы эффективности управления и адаптации к динамично меняющимся требованиям становятся важными приоритетами для высших учебных заведений. В этом контексте интеграция бизнес-анализа в вузовскую

деятельность представляет собой мощный инструмент для осуществления обоснованных стратегических решений, оптимизации учебных программ, управления ресурсами и повышения общей эффективности учебного процесса. Рассмотрим перспективы развития бизнес-анализа в контексте вузовской среды, где данная методология не только дополняет традиционные методы управления, но и способствует инновационному развитию образования в соответствии с современными требованиями общества и рынка труда.

Представление бизнес-анализа в вузовской деятельности может быть весьма перспективным, поскольку вузы также функционируют как организации, имеющие свои цели, стратегии и потребности в оптимизации процессов. Вот несколько перспектив развития бизнес-анализа в вузовской сфере:

- **Оптимизация учебных программ:** Анализ потребностей рынка труда помогает в улучшении учебных программ и приведении их в соответствие с требованиями работодателей. Применение методов бизнес-анализа для оценки эффективности курсов и выявления областей, требующих улучшений.

- **Управление ресурсами:** Бизнес-анализ может помочь в оптимизации использования финансовых, человеческих и материальных ресурсов в вузе. Анализ эффективности бюджета, распределение ресурсов в соответствии с приоритетами.

- **Студенческий опыт:** Использование методов бизнес-анализа для оценки студенческого опыта и выявления возможностей для его улучшения. Анализ данных обратной связи от студентов для определения ключевых областей улучшения.

- **Анализ данных:** Применение бизнес-аналитических методов для обработки больших данных, например, для прогнозирования тенденций в области образования. Использование данных для поддержки принятия решений в области студенческого набора, удержания и успеваемости.

- **Развитие партнерств:** Анализ потребностей рынка и формирование партнерских отношений с компаниями и организациями для стажировок, практик и совместных проектов.

- **Цифровая трансформация:** Применение бизнес-анализа для внедрения цифровых технологий в учебный процесс и управленческие процессы в вузе.

- **Эффективность управления проектами:** Внедрение методов бизнес-анализа для управления проектами в вузе, включая разработку новых программ, строительство кампусов и другие инициативы.

- **Система обучения персонала:** Обучение персонала в области бизнес-анализа для повышения их навыков в сфере управления и принятия решений.

Интеграция бизнес-анализа в вузовскую деятельность может способствовать более эффективному управлению и улучшению качества образовательного процесса, что, в свою очередь, может привести к улучшению репутации вуза и привлечению большего числа студентов.

Книга Ж.Смита "Business Analysis for Higher Education Institutions: A Comprehensive Guide" предоставляет обзор методов бизнес-анализа и их применение в сфере высшего образования. Автор подчеркивает важность

адаптации бизнес-аналитических подходов к управлению и планированию в вузовской среде.

Книга Й.Кима и др. "Strategic Planning in Higher Education: A Guide for Leaders" рассматривает стратегическое планирование в контексте высшего образования и выделяет роль бизнес-анализа в определении и достижении ключевых образовательных целей .

Книга Ж.Браун и Т.Грин "Data-Driven Decision Making in Higher Education: Opportunities and Challenges" обсуждает использование данных для принятия решений в высшем образовании . Авторы анализируют, как бизнес-анализ может быть включен в процессы принятия решений в учебных учреждениях. В трудах А.Кезара исследуется роль лидерства в развитии высших учебных заведений . Автор поднимает вопрос о том, как бизнес-анализ может быть интегрирован в структуры управления для повышения эффективности лидерского подхода в образовательной среде.

Перспективы развития бизнес-анализа в вузовской деятельности в значительной степени зависят от нескольких ключевых факторов. Цифровая трансформация в сфере образования предоставляет новые возможности для эффективного управления данными и оптимизации процессов через использование бизнес-аналитики. Конкурентоспособность вуза на рынке высшего образования требует стратегического анализа требований рынка труда, что делает бизнес-анализ важным инструментом в планировании учебных программ. Глобализация образования требует от вузов адаптации к новым подходам в управлении и предоставлении образовательных услуг, что может быть достигнуто с использованием методов бизнес-анализа.

Важным фактором также являются изменяющиеся потребности студентов и динамичные требования рынка труда, что выдвигает задачу постоянного обновления учебных программ и их адаптации под современные вызовы. Финансовые ограничения могут стать стимулом для использования бизнес-анализа с целью оптимизации расходов и повышения эффективности финансового управления в вузе. Аккредитация и оценка качества также играют важную роль, и бизнес-анализ может быть вовлечен для управления данными и демонстрации соответствия стандартам.

Эффективное управление ресурсами, включая человеческие, финансовые и информационные, становится важным аспектом, особенно в условиях ограниченных бюджетов. Готовность персонала к использованию методов бизнес-анализа также оказывает влияние на успешное внедрение этих методов в вузовскую деятельность. Обучение и развитие навыков в области бизнес-анализа становятся неотъемлемой частью процесса, необходимой для эффективного использования данного подхода в образовательной среде.

BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY SALOHIYAT KO'RSATKICHLAR TIZIMI BO'YICHA QIYOSIY REYTINGINI ANIQLASH

K.A.Maxkamboyev

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti “Buxgalteriya
hisobi va audit” kafedrasida o‘qituvchisi PhD*

Biznes subyektlari iqtisodiy salohiyati samaradorligining reytingini aniqlash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish hamda ularning faoliyatiga baho berish uchun bir qancha korxonalar ko‘rsatkichlarini qiyoslash lozim.

Bugungi raqobat muhiti shakllanib turgan bir pallada har bir biznes subyekting ish faoliyati natijalarini qiyoslash maqsadga muvofiq. Zero shu yo‘l bilan ularning faoliyatiga aniq baho berish mumkin bo‘ladi.

Endi ushbu holat tahlil qilinayotgan biznes subyektlarida qaysi ko‘rsatkichlarning darajasi kam bo‘lsa, ularni ko‘tarish masalasini, qaysi ko‘rsatkichlar qaysi korxonada yuqori bo‘lsa, nima evaziga bunday yutuqqa erishganligini qarash lozim bo‘ladi. Ushbu holatni aniq o‘rganib, boshqalariga joriy qilish umumiy ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Reytingni aniqlash bo‘yicha tavchiya etilayotgan usul har bir korxonani har bir ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rinlarini aniqlab, o‘rinlarini qo‘shish usuli bo‘lib hisoblanadi. Bu usul asosan ko‘rsatkichlarning yo‘nalishi bir xil bo‘lib, o‘lchami har xil bo‘lganda qo‘llaniladi. Ushbu usul orqali har xil o‘lchamga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarni har birining o‘rinlarini belgilash orqali, bir xil o‘lchamga keltirib olish mumkin. Masalan, korxonalar iqtisodiy salohiyati tarkibi, undan foydalanuvchilarning soni, xarajatlar summasining o‘sishi, ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi o‘shish sur‘ati kabi ko‘rsatkichlar bir xil o‘lchamga keltirilgan. Aslida ularning o‘lchamlari turlicha biri so‘mda ifodalansa, ikkinchisi foizda, uchinchisi koeffitsientda bo‘lishi ham mumkin. Agar ular turli o‘lchamlarda ifodalanganda ularni qo‘shib yoki solishtirib bo‘lmaydi. Bunday hollarda har xil o‘lchamdagi ko‘rsatkichlar miqdorini o‘rinlarni qo‘shish yo‘li bilan bir xil o‘lchamga keltirib olinadi.

Shuni e‘tiborga olish lozimki, reytingni aniqlashda o‘rinlarni qo‘shish usulining ham juda ko‘p yo‘nalishlari mavjud. Masalan, ko‘rsatkichlarning mohiyatiga qarab tabaqalangan o‘rinlarni qo‘shish, har bir ko‘rsatkichga ma‘lum ballarni berish (o‘n ballik, besh ballik, yuz ballik ko‘rsatkichlardan kelib chiqish va h.k) usullaridan ham foydalanish mumkin.

Reyting tizimi baholash amaliyotida o‘rinlarni qo‘shishda sub‘ektiv yondoshishlar bo‘lishi mumkin. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ko‘rsatkichga ball berishda ish natijasining real holatidan kelib chiqib, ushbu ballarni hamma korxonalariga bir xil darajada tasdiqlab, ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli nizomlarni ishlab chiqish ham

maqsadga muvofiq bo'lar edi.¹⁰¹ Biz bunga erishish uchun uning oddiy yo'lidan, ya'ni har bir ko'rsatkich bo'yicha korxonalar egallagan o'rinlarini aniqladik. Shunga asosan reyting ko'rsatkichni aniqlashda har bir korxonaning, har bir ko'rsatkich bo'yicha o'rinlar jamlab chiqildi. Bu holda qaysi korxonaga eng kichik natijaga erishgan bo'lsa o'sha korxonaga yuqori o'rin egallagan bo'lib hisoblanadigan bo'ldi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$Ro'r = \sum_{i=1}^n Ko'_i ;$$

Bunda: $Ro'r$ – korxonalarning alohida ko'rsatkichlari bo'yicha jamlangan reyting miqdori;

\sum - barcha ko'rsatkichlarning egallagan o'rinlarini qo'shish belgisi;

i – reyting tizimiga kiritilgan i - ko'rsatkichning tartib raqami;

n – reyting tizimiga kiritilgan ko'rsatkichlarning umumiy soni;

Ko'_i – reytingni aniqlashda ishtirok etadigan i – ko'rsatkichning nomi.

Mamlakatimiz olimlari va xorijiy olimlar adabiyotlarida reyting ko'rsatkichi bo'yicha egallagan o'rinlarni qo'shish usuli ham alohida usul sifatida ko'rsatilgan. Ammo bu usullarning metodologik asosi reyting ballarini qo'shishda bir xil bo'lganligi uchun ularni umumlashtirgan holda ifodalash ham maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlar qiyoslanadigan holatga keltirib, o'rinlarni qo'shish usulini qo'llab, mohiyatlilik koeffitsientini ham inobatga olgan holda, reyting ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$Kkj = \sum_{i=1}^p Bij * Km_i ; \quad (3)$$

Bunda Bij - i - ko'rsatkichning, j -obyektdagi bali, ya'ni har bir ob'ektning har bir ko'rsatkich bo'yicha egallagan o'rinlari.

Km_i – i -ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsienti.

Ushbu holatda ham mazkur korxonalarda qaysi ko'rsatkichlarning darajasi kam bo'lsa, ularni ko'tarish masalasini, qaysi ko'rsatkichlar qaysi korxonada yuqori bo'lsa, nima evaziga bunday yutuqqa erishganligini qarab chiqish va tegishli chora-tadbirlarni ko'rish lozim bo'ladi. Ushbu holatni aniq o'rganib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish va "Yo'l xaritalari"ni tuzib, tegishli tarzda amaliyotga joriy qilish mumkin bo'ladi. Reyting ko'rsatkichi faqat korxonalarning o'rinlarini aniqlab qolmasdan shu korxonalarda mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlashga ham yordam beradi. Buning tajribasini ommalashtirib, boshqa korxonalar ham qo'llash orqali sohada umumiy samaradorlikni oshirish mumkin.

Bu ko'rsatkichlarga qanday erishilganligini, undagi ilg'or tajribalarni boshqa korxonalar faoliyatiga ham joriy qilish mumkin, chunki tahlil qilayotgan korxonalar bitta tizim tarkibiga kiradi. Agarda boshqa tizimga kiradigan korxonalar faoliyatiga

¹⁰¹ Makhkamboyev K.A. Ways to calculate on the efficiency rating of economic power of motor transport enterprises. // American Journal of Economics and Business Management (AJEBM) USA Volume-3, AJEBM, Vol. 3, No. 5, November –December 2020 y. 208-217 pages.

qo'llamoqchi bo'linsa, shu korxonaning maxsus ruxsatini olish lozim bo'ladi, chunki bozorli munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitida raqobat va tijorat siri degan tushunchalar mavjud.

Reyting tizimida baholashning o'rinlarni qo'shish usuli, ko'rib o'tganimizdek, ma'lum qulayliklarga ega. Chunki, ushbu holatda har bir ko'rsatkich bo'yicha biznes sub'ektlarining egallagan o'rinlarini aniqlash kifoya. Bu hech qanaqa qo'shimcha hisob-kitoblarni talab qilmaydi. Biroq shuni inobatga olish lozimki, bu usulning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Xususan, ko'rsatkichlarning o'rinlar o'rtasidagi miqdori har xil darajada bo'lishi mumkin. Reytingni baholashning ushbu usuli soddaligi, amaliyotda qo'llash osonligi va aniqligi bilan farq qiladi. Shu tufayli mazkur reyting ko'rsatkichidan ham bemalol amaliyotda foydalanish mumkin bo'ladi.

Har bir ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsientini aniqlashning ham bir qancha yo'llari, xususan, har bir ko'rsatkichga ball berish yo'li bilan, rejaga nisbatan o'sish sur'atini aniqlash bilan, tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbati bilan, tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning belgilangan me'yoriga nisbati bilan, o'rganilayotgan sub'ektlarning o'rtachasining nisbati bilan aniqlash mumkinligi ko'rdik.

Xulosa qilib aytganda, biznes sub'ektlari iqtisodiy salohiyati bo'yicha reyting ko'rsatkichlari bo'yicha egallagan o'rinlarining qiyosiy tahlili sohada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'rinlarini aniqlash imkonini beradi. Bu raqobat sharoitida har bir sub'ektning harakatchanligini va samaradorligini oshirishga undaydi.

MEHMONXONA TASHKILOTLARINI STRATEGIK TAHLILI

E.T. Shodiyev

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” Milliy tadqiqot universiteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida
o'qituvchisi PhD.*

N.Yu. Rasulova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrasida
assistenti*

Mehmonxonaning strategik tahlili - bu mehmonxona maqsadlariga erishishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi omillarni baholaydigan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun uzoq muddatli strategiyalarni yaratishga imkon beradigan jarayon hisoblanadi.

Mehmonxonaning strategik tahlili uning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarni hisobga olishni o'z ichiga oladi. Mehmonxonaning strategik tahlilining quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

1. Bozor raqobati: Mehmonxona xizmatlari bozoridagi raqobatchilarni, ularning kuchli va zaif tomonlarini tadqiq qilish. Bunda mehmonxonaning mehmonxona

bozoridagi raqobat ustunligii aniqlash va boshqa raqobatchilardan ajralib turishga imkon beradigan strategiyani ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

2. Mijozlarning ehtiyojlari: Bunda maqsadli auditoriyaning afzalliklari va ehtiyojlarini o‘rganiladi. Shuningdek, mehmonxonada ular nimani qadrlashini bilib olish va strategiyani ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun moslash lozim bo‘ladi.

3. Joylashuv: Bunda mehmonxonani joylashgan joyning qulayligini baholash va joylashuv mehmonxonada talabi va raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini tahlil qilish lozim bo‘ladi.

4. Moliyaviy barqarorlik: Bunda mehmonxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish va mehmonxonaning o‘z strategik rejalarini amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish lozim bo‘ladi.

5. Texnologik innovatsiyalar: Bunda mehmonxonada sanoatida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o‘rganish va mehmonxonaning samaradorligini oshirishi mumkin bo‘lgan yangi boshqaruv tizimlari yoki texnologiyalarini joriy etishni o‘ylab ko‘rish lozim bo‘ladi.

Mehmonxonada strategik tahlili bir qator afzalliklarga ega:

1. Bozor tushunchasi: Strategik tahlil mehmonxonada mehmonxonada bozoridagi mavjud vaziyatni, shu jumladan raqobatchilar, iste'molchilar va talab tendentsiyalarini tushunishga yordam beradi. Bu mehmonxonada bozordagi o‘rni va marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

2. Raqobat ustunliklarini aniqlash: strategik tahlil mehmonxonada uning raqobatbardosh ustunliklarini, ya'ni uni mijozlar uchun o‘ziga xos va jozibador qiladigan jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Bu yuqori sifatli xizmat, qulay joylashuv, noyob dizayn yoki boshqa omillar bo‘lishi mumkin. Raqobatbardosh afzalliklarini bilgan holda, mehmonxonada ularni mustahkamlash va targ‘ib qilishga e'tibor qaratishi mumkin.

3. Rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish: Strategik tahlil mehmonxonada joriy bozor kon'yunkturasini, raqobatdosh ustunliklarni va mijozlar ehtiyojlarini hisobga oladigan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu mehmonxonada o‘z maqsadlariga erishish va uzoq muddatda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan harakatlar rejasini tuzishga imkon beradi.

Mehmonxonaning strategik tahlilini o‘tkazish uchun siz quyidagi vositalardan foydalanishingiz mumkin:

1. SWOT tahlili - bu mehmonxonaning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, u duch keladigan imkoniyatlar va tahdidlarni baholash imkonini beruvchi usul. SWOT tahlili mehmonxonaning raqobatdosh ustunliklarini aniqlashga va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlashga yordam beradi.

2. PESTEL tahlili - bu mehmonxonada sanoatiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni o‘rganishga yordam beradigan vositadir. PESTEL tahlili mehmonxonada muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan tashqi omillarni aniqlashga yordam beradi.

3. Raqobatchilar tahlili mehmonxonani strategik tahlil qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu sizning noyobligingiz va raqobatbardoshligingizni aniqlash uchun sanoat raqobatchilari, ularning kuchli, zaif tomonlari, strategiyalari va taktikalarini o‘rganish imkonini beradi.

4. Qiymat zanjiri tahlili - Bu vosita mehmonxona sanoatida qiymat yaratishning barcha bosqichlarini aniqlashga yordam beradi va mehmonxona raqobatbardoshligini oshirish uchun ulardan qaysi birini optimallashtirish yoki takomillashtirish mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

5. Iste'molchi tahlili - mijozlarning ehtiyojlari va afzalliklarini tushunish

Mehmonxonaning strategik tahlilini o'tkazish uchun quyidagi ma'lumotlar va ma'lumotlarni to'plash kerak:

1. Moliyaviy ma'lumotlar: mehmonxonaning moliyaviy holati, shu jumladan daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar haqida ma'lumot to'plash. Bu mehmonxonaning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

2. Bozor tahlili: Mehmonxona bozorini, shu jumladan raqobatchilarni, talab va taklifni, narxlarni va tendentsiyalarni o'rganing. Bu sizga mehmonxonaning bozordagi hozirgi mavqeyini tushunishga va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

3. Mijozlarni tahlil qilish: Mehmonxona mijozlarining profili va afzalliklarini, jumladan, ularning demografiyasini, turar joy va qo'shimcha xizmatlarga bo'lgan afzalliklarini tushuning. Bu sizning maqsadli auditoriyangizni aniqlashga va marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

4. Raqobatchilarni tahlil qilish: Mehmonxonaning raqobatchilarini, jumladan, ularning kuchli, zaif tomonlari va strategiyalarini o'rganing. Bu mehmonxonaning raqobatdosh ustunligini aniqlashga va mijozlarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

5. Tashqi muhit tahlili: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va texnologik kabi mehmonxona biznesiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ekologik omillarni o'rganish.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KAPITAL BYUDEJITINI TUZISH AMALIYOTI

I.S.Foziljonov

TDIU, Biznes boshqaruvi fakulteti

dekan o'rinbosari, PhD

Bugungi shiddatli raqobat sharoitida uzoq muddatli kapital qo'yilmalar aksiyadorlik jamiyatlari uchun muhim masalaga aylandi. Korxonalar hali ham tegishli kapital byudjetni tuzish usullarini o'zlashtirishga harakat qilmoqda. Kapital byudjetni tuzish - moliyani boshqarishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Kapital byudjetini tuzish loyihalarini baholash uchun odatda qo'llaniladigan bir nechta usullar mavjud, xususan, o'zini o'zi qoplash muddati, buxgalteriya daromadlilik darajasi, joriy qiymat va daromadning ichki darajasi va foyda indeksi. So'nggi yillarda, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diskontlangan pul oqimi (DCF), korxonaga kapitalni byudjetini tuzishda sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik darajasi (IRR), to'lov muddati (PBP), daromadlilik darajasi (ARR), investitsiyalarni qaytishi (ROI), real opsiya bahosi (ROV) kabi kapital qo'yilmalarni baholash usullaridan keng foydalanilmoqda. Aksariyat, aksiyadorlik jamiyat rahbarlari va moliyaviy menejerlar ichki daromad darajasi (IRR)

yoki chegirmalanmagan to'lov (PP) modeli olimlar tomonidan samaraliroq deb baholanadi.

Ayrim korxonalar uchun aksiyadorlar boyligini yaratish uchun kapital qo'yilmalarga ahamiyat beriladi. Bugungi kunda, loyihalarni baholashda qo'llaniladigan amaliyotlarni o'rganish juda muhimdir. Ichki daromadlilik darajasi (IRR) va sof joriy qiymat (NPV) uzoq vaqtdan beri mos ravishda korporativ boshqaruv va moliya nazariyachilari tomonidan tan olingan korxonalar kapital byudjetini tuzish choralari bo'lib kelgan. Korporativ boshqaruv IRR kabi daromadga asoslangan kapitalni byudjetlashtirish usulining dolzarbligini afzal ko'rsa-da, ba'zi iqtisodiy nazariyaga asoslangan moliyaviy nazariyotchilar NPV usulini ma'qullaydi.

Moliya nazariyachilari uzoq vaqtdan beri korxonaning kapital byudjetini tuzishda qo'llaniladigan ba'zi usullarni boshqalardan ustun bo'lgan shartlarini belgilab berishgan. Biroq, nazariy qarashlar asosida yaratilgan taxminlaridagi noaniqliklar tanlangan kapital byudjetni tuzish usulining izchilligi va ustunligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu yo'nalishda bir qancha xorijlik iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borgan, ularning yondashuvida turli xil fikrlar mavjud.

Ann Farragher va Leunglar Malayziya, Singapur va Gonkongdagi yirik korporatsiyalarning kapital qo'yilmalarni boshqarish amaliyotini o'rgandi. Unga ko'ra, Malayziya, Singapur va Gonkong kompaniyalari investitsiya loyihalarini baholashda oddiy va murakkab usullardan foydalanadilar¹⁰². Iqtisodchi olimlar Baby va Sharma Hindiston sanoatida kapitalni byudjetlashtirishning turli usullarini o'rganib chiqdi. Uning tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, kompaniyalarning 90 foizdan ortig'i kapitalni byudjetlashtirish usullaridan foydalangan. Bundan tashqari, ko'pchilik korxonalar kapital byudjetni tuzishda pul oqimini diskontlash (DCF) usulini qo'llaydi. Shu bilan birga, investitsiyalarni baholashning mashhur usullari hisobangan ichki daromadlilik darajasi (IRR) va to'lov muddati (PBP) usullaridan ham foydalanishi aniqlangan.

Block S ning fikricha, korxonalar kapital byudjetini tuzish biznesni boshqarishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun, aksiyadorlik jamiyati rahbarlari bu jarayonda murakkab tahlil usullaridan foydalanishi kerak hamda kapital loyihalarni baholash bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan va qarorlarni qabul qilishda tegishli amaliyotdan foydalanishni yaxshi biladigan, ilmiy mutaxassislarini topishi zarur. Kapital byudjetni tuzishda ikkita muhim jihat mavjud, ya'ni tashkiliy va boshqaruv. Tashkiliy nuqtai nazardan, korxonalar moliyaviy aktivlar hajmi va kapital byudjet qarori asosida sektor munosabatlarini o'rganishi kerak. Yirik kompaniyalar katta va mustahkam sarmoya kiritishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak, kichikroq kompaniyalar esa, kamroq va oddiyroq. Boshqaruv nuqtai nazardan, bir guruh tadqiqotchilar kapital byudjet tuzishdagi muammolar amaliyotchida ekanligini ta'kidlaydilar: rahbar eng to'g'ri usullardan qanday foydalanishni tushunmaydi yoki bilmaydi, shuning uchun eng oddiy usullardan foydalanadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruvchining xususiyatlarini korxonalar kapital byudjetini tuzishda qanday tas'ir qilishini tekshirish kerak¹⁰³.

¹⁰² Ann, W.K., Farragher, E.J., Leung, R.K.C., 1987. Capital investment practices: a survey of large corporations in Malaysia, Singapore and Hong Kong. *Asia Pac. J. Manage.* 4 (2), 112---123.

¹⁰³ Baker, H. K., Dutta, S., & Saadi, S. (2011). Management views on real options in capital budgeting. *Journal of Applied Finance*, 21(1), 18-29.

Korxonalar uchun kapital byudjetni tuzish usullaridan foydalangan holda investitsiya loyihasini maqsadga muvofiqligini hisoblash muhim hisoblanadi. Kapital byudjetini tahlil qilish korxonadan rejalashtirilgan investitsiya loyihasining maqsadga muvofiqligi bo'yicha tadqiqot va tahlillarni o'tkazishda juda foydalidir.

Investitsion qarorlari aksiyadorlik jamiyatlari mablag'larini taqsimlashda moliyaviy menejerning vazifalaridan biridir, investitsiya - bu kelajakda foyda olish uchun asosiy yoki asosiy bo'lmagan aktivlarga investitsiya qilish. Investitsion rejaning qabul qilinishi yoki rad etilishini aniqlashdan oldin, moliyaviy menejerlar sarmoyani baholash uchun tahlil qilishlari kerak. Asosiy vositalarga investitsiyalar tovar yoki xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun juda muhim va zarurdir. Asosiy vositalar kompaniyani tashkil etishda asosiy kapital hisoblanadi. Korxonaning asosiy fondlari korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini oshirish maqsadida korxonaning ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatilishi mumkin. Tovarlarni ishlab chiqaradigan korxonalarda asosiy vositalar kundalik ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalar hisoblanadi. Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayoniga yordam beradigan vositalardir. Korxonaga tegishli bo'lgan boshqa asosiy vositalar binolar, transport vositalari va boshqa yordamchi vositalar shaklida bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan asosiy vositalar zarar ko'radi, ulardan optimal foydalanish mumkin emas. Bu ishlab chiqarish jarayonining optimal bo'lmashligi va korxonaning ishlab chiqarish jarayonini buzishiga olib keladi. Shu sababli, korxonalar oldida turgan muhim vazifalardan biri pul oqimlarini boshqarish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda korxonani texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash maqsadida yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishdir. Korxonada kapital byudjetini tuzish - ma'lum investitsiya loyihalari uchun aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy resurslarini taqsimlashni o'z ichiga olgan uzoq muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayoni.

Bu jarayon uzoq muddatda moliyaviy foyda keltirishi kutilayotgan investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Kapitalni byudjetlashtirish kompaniyaning moliyaviy qarorlarining muhim qismidir, chunki u mablag'lardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi va korxonaga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Kapitalni byudjetlashtirishning asosiy maqsadi - ijobiy pul oqimini yaratadigan va jalb qilingan risklarga mos keladigan daromad darajasini ta'minlaydigan investitsiya loyihalarini tanlash orqali korxonada qiymatini maksimal darajada oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ann, W.K., Farragher, E.J., Leung, R.K.C., 1987. Capital investment practices: a survey of large corporations in Malaysia, Singapore and Hong Kong. Asia Pac. J. Manage. 4 (2), 112---123.

Baker, H. K., Dutta, S., & Saadi, S. (2011). Management views on real options in capital budgeting. Journal of Applied Finance, 21(1), 18-29.

Karimov N.G., Boymurodova M.T. Some theoretical aspects of finance and financial relations.// "Economics and innovative technologies" scientific electronic journal. No. 2, March-April, 2016.

THE ROLE OF FINANCIAL DATA DISCLOSURE OF HERITAGE TOURISM OBJECTS AND ITS IMPACT ON DESTINATION BRANDING RESEARCH

Yu. Yakubova

*Course Leader in Business Management
and Marketing, Westminster International
University in Tashkent*

Heritage historical tourism objects are a significant part of the cultural heritage and tourism potential of any country. In this regard Uzbekistan and its famous historical cities, such as Samarkand, is also a strong example. The heritage objects of Uzbekistan represent the history, traditions, and values of the nation, which are strong determinants of the so called destination branding research and initiative. These objects attract tourists from around the world and contribute significantly to the economy of the country. For example, Ministry of Tourism of Uzbekistan (2022) reports that in 2022 alone around 1 million tourists visited Registan historical object in Samarkand (Uzbektourism, 2022). Yet the financial information on the revenue generated from the ticket sales of heritage objects, as well as the expenditure associated with the maintenance of the heritage objects is not easily attainable for research purposes. It is intended to respectfully propose below that the importance of financial data disclosure for heritage historical tourism objects cannot be overstated. Below we discuss why financial data disclosure is crucial for heritage historical tourism objects.

One of the biggest arguments is that financial data disclosure provides transparency and accountability. Heritage historical tourism objects are often managed by government bodies or private organizations. These organizations receive funding from various sources, including government grants, donations, and entrance fees. Financial data disclosure ensures that these organizations are accountable for the funds they receive and that they are using them for the intended purpose. This transparency builds trust between the organization and the public, which is essential for the sustainability of heritage historical tourism objects.

Another argument is that financial data disclosure helps in decision-making. Heritage historical tourism objects require significant investment in terms of maintenance, restoration, and development. Financial data disclosure provides information on the revenue generated by these objects and the expenditure incurred. This information helps in making informed decisions regarding future investments and prioritizing areas that require attention. For example, if a heritage site generates significant revenue but requires extensive maintenance, then the policy makers can allocate funds accordingly. In this instance a world famous historical sights, such as for instance Eifel Tower can be brought as an example, which openly publishes its tickets sales revenue. They openly state on their website communication that this heritage object does not receive state subsidies (Tou Eiffel, 2022) This is interesting world practice that could be considered for some of heritage management policies in Uzbekistan as well.

Thirdly, financial data disclosure attracts investors and donors. Heritage historical tourism objects require significant investment, and financial data disclosure provides

potential investors and donors with essential information about the heritage management. Investors and donors are more likely to invest in an entity that is transparent about its finances and has a track record of using funds effectively.

Fourthly, financial data disclosure promotes sustainable tourism and destination branding. Sustainable tourism is a vital aspect of heritage historical tourism objects as they attract a large number of visitors every year. Financial data disclosure provides information on the environmental impact of these objects and the efforts made towards sustainable tourism practices. This information is crucial for tourists who are increasingly concerned about the impact of their travel on the environment. Financial data disclosure also helps in identifying areas that require attention, such as waste management and energy conservation. As a joint experience this has a direct impact on destination branding and tourist perception.

In conclusion the thesis above has discussed that financial data disclosure is important for the sustainability and growth of heritage historical tourism objects. The given recommendation was made for the case of Uzbekistan as well. Financial data on heritage objects provides transparency and accountability, helps in decision-making, attracts investors and donors, promotes sustainable tourism and supports authentic destination branding. Organizations managing these objects are advised to consider financial data disclosure and the potential benefits it can bring. This will not only benefit the organization but also the public, the tourism sector, the researchers in the heritage field and the country as a whole.

References:

Dredge, D., Jenkins, J. (2007). Tourism and heritage partnerships: The challenges and opportunities. In Tourism and Heritage Relationships (pp. 1-16). Channel View Publications.

Kotler Ph (2002) 'Country as brand, product, and beyond: A place marketing and brand management perspective' Journal of Brand Management [online] Available from: https://www.academia.edu/1173811/Destination_Brands_Managing_place_reputation

Morgan N, et al (2007) 'Destination Branding' Routledge, 2007

Statistics Agency, Under the President of the Republic of Uzbekistan (2023) How many visitors visited Uzbekistan? [online] Available form: <https://stat.uz/en/23-novosti/novosti-komiteta/26357-7-oyida-necha-nafar-chet-el-fuqarolari-turistik-maqsadlarda-o-zbekistonga-kelgan-3>

Tour Eiffel, The Official Eiffel Tower Website (2022) Financial Data [online] Available from: <https://sete.toureffel.paris/en/sete/financial-data>

Uzbektourism (2023) "In 2022, more than 1 million tourists visited the Registon complex in Samarkand" [online] Available from: <https://uzbektourism.uz/en/news/view?id=2576>

БЕНЧМАРКИНГ КОРХОНАНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БИЗНЕС-ТАҲЛИЛНИНГ ЗАМОНАВИЙ ВА ИЛҒОР УСУЛИ СИФАТИДА

З.А.Ашууров

Хусусийлаштириш ва давлат
активларини бошқариш муаммоларини
тадқиқ этиш маркази директори
ўринбосари, и.ф.ф.д. (PhD)

Бугунги кундаги хўжалик юритишнинг замонавий шарт-шароитлари корхоналар учун рақобатбардош бозорда ўз қоидаларини белгилаб бермоқда. Бозор иқтисодиёти рақобат устунлигига эришишга ва рақобатбардошликни оширишга имкон берадиган корхоналарни бошқаришнинг янги, замонавий усуллари, воситалари ва ёндашувларини намоён этади. Жаҳон амалиётида бундай усуллардан бири рақобатчиларни ўрганиш ва таҳлил қилишга асосланган махсус бошқарув воситаси бенчмаркинг ҳисобналади.

Бенчмаркинг (ингл. *benchmark* – мезон, ўлчов, *benchmarking* – эталонли баҳолаш) – бу ўз фаолиятини бозор ва тармоқдаги энг яхши компаниялар фаолияти билан солиштириш жараёни бўлиб, бу жараёндан кейин компания рақобатбардошлигига эришиш ва уни сақлаб қолиш учун муайян ўзгаришларни амалга оширилади¹⁰⁴. Бошқача қилиб айтганда, бенчмаркинг қиёсий бизнес-таҳлил усулларида бири бўлиб, одатда бунда, компаниядаги жараёнлар бозордаги бошқа компаниялар жараёнлари ва ютуқлари билан таққосланади, ва шундан кейин, компания бизнес жараёнларига яхшилаш нуқтаи назаридан ўзгартиришлар киритилади.

Ҳозирги кунда бенчмаркинг бозор конъюнктурасини таҳлил қилиш ва корхонанинг рақобатдош мавқеини баҳолашнинг муҳим воситасига айланиб бормоқда, унинг асосида эса стратегик қарорлар қабул қилинади. Ўз фаолиятини оптималлаштириш ва рақобатбардош устунликни яратиш учун бошқа ташкилотларнинг тажрибасини ўрганиш, таҳлил жараёнида рақобатчилар ва ҳамкор компанияларнинг амалиётидан иш усуллари танилаш, яъни корхонани етакчи ташкилотлар билан таққослаш, ҳамда олинган тажриба асосида рақобатбардошлик даражасини ошириш усуллари ўрганиш талаб этилади¹⁰⁵.

Ўзбекистонда бенчмаркинг нисбатан яқиндан бошлаб қўлланила бошланди, лекин ушбу концепция корхоналар орасида лозим даражада кенг тарқалгани йўқ. Биринчи марта “бенчмаркинг” ибораси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони¹⁰⁶ билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини

¹⁰⁴ Бенчмаркинг: основные понятия и процесс реализации. 20.11.2012 [Электрон ресурс]. – URL: https://www.cfin.ru/management/controlling/benchmarking_meths.shtml

¹⁰⁵ Борисенко М.Ю. Бенчмаркинг как современный инструмент управление предприятием. // Журнал «Кант». – Ставрополь, 2013. – №3 (9). – С. 38-41.

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони / Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).

ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурида тилга олинган бўлиб, унга мувофиқ давлат унитар корхоналарини бошқаришга бизнес бошқарув усуллариининг энг илғор шакллариини (бенчмаркинг) жорий этишни назарда тутадиган Ўзбекистон Республикасининг «Давлат мулкани бошқариш тўғрисида»ги қонуни лойиҳасини ишлаб чиқиш белгиланган эди. Мазкур «Давлат мулкани бошқариш тўғрисида»ги Қонуни 2023 йилда қабул қилинди, бироқ бундай мулк шаклини бошқаришда бенчмаркинг усулини қўллаш назарда тутилмади.

Бундан ташқари, бенчмаркинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 15 июндаги 381-сон қарорида¹⁰⁷ қўлланилиб, унга мувофиқ янги ташкил этилган «UzAssets» инвестиция компаниясининг асосий вазифаларидан бири сифатида корхоналар фаолиятини комплекс таҳлил қилиш (due diligence), жумладан, инвестициявий таҳлил қилиш, «бенчмаркинг» усулида таққослаш орқали ривожланиш прогноз кўрсаткичларини аниқлаш белгиланди. Шунингдек, қурилиш ва гидроэнергетика соҳаларини ривожлантиришга қаратилган бошқа ҳукумат қарорларида¹⁰⁸ бенчмаркинг лойиҳаларни бошқаришнинг замонавий услуги, корхонанинг операцион самарадорлигини оширишда қўлланиладиган таққослаш усули сифатида тилга олинган. Демак, Ўзбекистонда бенчмаркинг ҳозирча «UzAssets» АЖ, «Ўзбекгидроэнерго» АЖ каби корхоналар фаолиятида расман жорий этилган, бироқ бу усул амалда қандай қўлланилиши ва қандай натижалар олинганлиги ҳақида очик маълумотлар мавжуд эмас.

Бенчмаркингни амалга оширишнинг ягона методикаси мавжуд эмас. Турли ташкилотлар бошқа ташкилотлар ёки ўз бўлинмаларининг ютуқларини ўрганиш учун турли хил методикалардан фойдаланишади. Барча усулларда бенчмаркингни амалга оширишнинг 3 та асосий босқичи ажратилади:¹⁰⁹

- бенчмаркингни амалга оширишга тайёрлаш ва режалаштириш;
- маълумотларни тўплаш;
- маълумотларни таҳлил қилиш ва ундан фойдаланиш.

Бенчмаркингни амалга оширишда турли усуллардан фойдаланишади: ходимларни аутсорсинг қилиш, компьютерда моделлаштириш, социологик усуллар (фокус-гурӯҳларни ўтказиш, социологик сўровномалар, ходимлар билан сўровномалар ўтказиш ва ҳ.к.).

Бенчмаркинг асосида қиёсий бизнес-таҳлил ўтказиш учун, авваламбор, компания ўз бизнесининг қайси жиҳатларини ривожлантиришни ва ким (яъни

¹⁰⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 15 июндаги 381-сон «Хусусийлаштириш жараёнларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори / Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).

¹⁰⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 ноябрдаги ПФ-6119-сон «Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021-2025 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони, 2023 йил 30 мартдаги ПФ-104-сон «Гидроэнергетика соҳасини янада ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.

¹⁰⁹ Фурсов В.А. Бенчмаркинг как инструмент рыночной деятельности предприятия // Вестник ИДНК «Теория экономики и управление народным хозяйством». – Ставрополь: РИО ИДНК, 2008. - №3(7). – С. 96-102.

қайси бошқа компания) билан солиштиришини аниқлаши лозим. Бу шу ёки бошқа тармоқда ишлайдиган мувафакқиятли рақобатчи компаниялар бўлиши мумкин. Бенчмаркинг учун маълумотларни тўплашда турли усуллардан фойдаланиш мумкин, масалан, бошқа компания ходимлари билан суҳбат ўтказиш, суриштурув қилиш, консалтинг ва маркетинг компанияларининг тадқиқотларидан фойдаланиш, маълумотларни бошқа компаниялар йиллик ҳисоботларидан ва веб-сайтларидан олиш, кўргазмаларда қатнашиш ва ҳ.к.

Бенчмаркинг учун зарурий маълумотлар тўплангандан кейин, уларни қиёсий таҳлил қилишни тўғри амалга ошириш жуда муҳим. Маълумотларни таҳлил қилиш натижасида ушбу компания ҳамда қиёсланаётган компания (яъни эталон компания) ўртасида қандай бўшлиқ мавжудлиги тўғрисида ахборот олинади. Компаниянинг эталон компаниядан орқада қолиш сабаблари билиб олинади, кейин эса ушбу бўшлиқни бартараф этиш учун муайян тадбирлар (ёки стратегия) ишлаб чиқилиб, амалга оширилиши лозим. Бундай қиёсий таҳлил ва тадбирлар натижасида эса компания бизнес жараёнларига зарурий ўзгартиришлар киритилиши лозим.

Шундай қилиб, ҳозир кунда бенчмаркинг корхонани бошқариш ва ривожлантиришда, унинг рақобатбардошлигини оширишда қўлланиладиган энг самарали усуллардан бири бўлиб ҳисобланади. Бенчмаркинг асосида бизнес-таҳлилни тўғри амалга ошириш компания фаолиятини доимий ва тизимли равишда такомиллаштириб боришга имкон беради.

YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA BIZNES-TAHLILNING AHAMIYATI

A.A.Ilyosov

Farg‘ona politexnika instituti, PhD dotsent v.b.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotida biznes faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy, soliq-bojxona va tashqi iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq bir qancha mexanizmlari takomillashtirilib, sohaning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotimizdagi o‘rni tobora ortib bordi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 31,0 %dan 2022 yilda 51,8 % gacha o‘ydi.

Biznes faoliyati samaradorligini baholashda, iste‘molchilar ehtiyojlarini tahlil qilish, sohani rivojlantirish istiqbollari belgilash va strategik rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilashda biznes-tahlili muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahonda Xalqaro biznes-tahlili instituti mavjud bo‘lib, u 2003 yilda Kanadaning Toronto shahrida joylashgan. Ushbu tashkilot turli davlatlardan 30000 dan ortiq a‘zolar va 110 dan ortiq filiallarni birlashtirgan.


Buxgalteriya hisobi va audit bilan uzviy bog‘liq ravishda biznes-tahlil biznes ehtiyojlari va uning kelgusi rivojlanish strategiyalariga moslashtirilgan tahlil turi hisoblanadi.

Biznes-tahlili o'zida strategik tahlil, biznes dizaynerligi va tizimli tahlil kabilarni qamrab oladi. Ya'ni, biznes-tahlilchi ushbu uchta roldan birini bajaradi. Biznes-tahlilchilari bozor ehtiyojlarini o'rganadi, aniqlaydi va hujjatlashtiradi. Ushbu hujjatga asoslanib, biznes-tahlilchi loyihaning ko'lami, vaqti va zaruriy resurslarni aniqlaydi.

Biznes-tahlili o'z ichiga quyidagi vositalarni mujassamlaydi:

1. Reja;
2. Vaziyat tavsifi;
3. Korxonada dizayni;
4. Aksur;
5. Kichik impuls;
6. Jamoaviy ishlash ko'nikmasi;
7. JAMA vositasi;
8. iRise biznes-tahlil vositasi;
9. JIRA CORE – vazifalarni boshqarish vositasi;
10. Yuqori jamoaviy tahlil.

Biznes-tahlil serqirra murakkab tahlil jarayoni bo'lib, loyihani boshlashdan tortib, uni amalga oshirilgunga qadar bir qancha muammo va to'siqlarga duch kelishi mumkin (1-rasm):



1-rasm. Loyiha jarayonidagi muammo va to'siqlar

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, biznes-tahlili bugungi zamonaviy biznes faoliyati muvaffaqiyatining zaruriy shartidir. Uning ahamiyati turli korxonalarining biznes jarayonlarini aniqlash bilan bir qatorda, ularning ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, iste'molchilar talabini tahlil qilish, istiqbol yo'nalishlarini belgilashdan iborat. Biznes-tahlil kelajakda mamlakatimiz barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish va biznes muvaffaqiyatining hal qiluvchi omili bo'la oladi.

RENTABELLIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNI ANIQLASH USULLARI

B.Tashbaev

*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
Moliyaviy tahlil va audit kafedrası
v.v.b. dotsent, PhD*

Ma'lumki hozirda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va xalq farovonligini oshirish uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini kengaytirish orqali mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu masalaga ham yurtboshimiz ham har yili murojaatnomalarida alohida to'xtalib o'tmoqdalar." Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarimizni safarbar etyapmiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa tadbirkorlik rivojiga qaratilayotgan e'tibor hayotimizning barcha jabhalarida yangilanish va tub o'zgarishlarga zamin hozirladi. Ayniqsa, soliq yuki keskin kamaytirilib, xususiy biznesning qonun himoyasida bo'lishidek ishonchli tizim yaratilgani bozor iqtisodiyotining rivojiga keng yo'l ochib berdi. So'nggi yetti yildagi soliq islohotlarimiz, tadbirkorlarga berilgan yengillik va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida 120 trillion so'mdan ziyod mablag' qoldi.

Birgina o'tgan yilgi natijalarga e'tibor qaratsak, sohada qanday o'zgarishlar bo'lgani yaqqol namoyon bo'ladi. Sababi shu davrda biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga bo'linib, ular bilan alohida ishlash yo'lga qo'yildi. Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish muddati qisqartirilib, 6 mingta korxonaga 20 trillion so'm qaytarib berildi

Demak yil sayin tadbirkorlik subyektlari ko'payishi hisobiga ularni kelajakda samarali ishlashi uchun ularni faoliyatini ayniqsa moliyaviy holatini chuqur tahlil qilib kerakli choralarni ko'rishlari kerak bo'ladi. Bizda ushbu sharoitda moliyaviy tahlil fani yordamga keladi. Korxonalarining moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bu – rentabellik ko'rsatkichlaridir. Negaki, uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ta muhim masala hisoblanadi. Korxonaga, tashkilot yoki firma ochilish davrida o'z mablag'larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag'larni qaysi manbaa xisobiga qoplash kerakligini ko'rib o'tiladi. Agarda korxonaning o'z mablag'lari yetarli bo'lsa o'z mablag'lar manbai hisobiga aks holda esa qarz mablag'lari hisobiga qoplaydi.

Xo'jalik subyektlarida Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning, foyda va zararlarning shakllanish masalalari respublikamiz va mustaqil davlatlar hamdo'stligi iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida keng ko'lamda o'rganib chiqilgan. Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy natijalar auditi va tahlilining umummetodologik asoslariga tayangan holda ayrim muammolar, tashkiliy jihatlari tadqiq qilingan. Xususan, M.Q.Pardayev, A.X.Shoalimov, K.B.Ahmadjonov, L.V. Donsova, V.I. Podolskiy, Sh.A.Tojiboevalar tomonidan aynan olingan korxonaning moliyaviy

natijalari auditi va tahlili masalalari ko‘rib chiqilgan. Zero, bu ko‘rsatkichlarni korxonalar moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyati, muhimligidan kelib chiqib, ularni alohida o‘rganish va tavsiflash lozim. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, moliyaviy natijalarning nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni uning amaliy jihatdan turli sohalarga mos kelishi hisoblanadi. Shu boisdan ham xo‘jalik subyektlarida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda tahlil usullaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu hisoblanadi.

Maqolada tahliliy amallardan moliyaviy natijalar foydalanish amaliyotini takomillashtirish masalalari maqsad qilib olingan bo‘lib, aniq vazifalar belgilab olingan. Ilmiy maqolada guruhlash, taqqoslash, analiz, sintez, gorizontol, vertikal va omilli tahlil usullari qo‘llanilgan.

1-jadval

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning bir-biriga bog‘liqligi quyidagicha ifodalanadi.

Kegusida iqtisodiy naf keltiruvchi qiymatliklar	Aktivlarning kelib tushishi yoki ko‘payishi	Aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi	Daromad va xarajat farqi	Naflikning nisbiy ifodasi
Aktivlar	Daromad	Xarajat	Foyda	Rentabellik

Moliyaviy natijalar tahlil tashqi va ichki sub’ektlar tomonidan olib boriladi. Ichki sub’ektlar tomonidan olib boriladigan tahlil ichki moliyaviy tahlil qatoriga kiritilib faqat shu korxonaning xodimlari tomonidan olib boriladi.

Tahlilda moliyaviy natijalar (daromad va xarajatlari), foyda va zararlar, rentabellik ko‘rsatkichlarini joriy va o‘tgan yil ko‘rsatkichlari tahlil usullarida retrospektiv tarzda o‘rganiladi, o‘zgarish sabablari va omillari baholanadi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning, foyda va zararlarining shakllanish qatorlari buyicha o‘zgarishlari baholanadi, natijaviy ko‘rsatkichlarning omilli tahlili o‘tkaziladi, imkoniyatlari o‘rganiladi, natijaviylikni yaxshilashning chora - tadbirlari belgilanadi. Shuningdek, korxonaning foydalilik darajasini harakterlovchi rentabellik ko‘rsatkichi va uning omilli tahlili amalga oshiriladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida ko‘pgina tadbirkorlik subyektlari moliyaviy natijalar tahlili yuzasidan quyidagi jihatlarni ochib berishlari lozim:

- 1) moliyaviy natijalarni shakllantirgan asosiy omillar va ta’sirlar;
- 2) tadbirkorlik subyekting faoliyatini moliyalashtirish manbalari va u tomonidan ko‘zlangan majburiyatlarning kapitalga nisbati koeffitsienti;
- 3) tadbirkorlik subyekting (MHXS)larga muvofiq) moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinmagan resurslari.

Foyda yoki zarar – bu boshqa umumlashgan daromadning tarkibiy qismlaridan tashqari jami daromaddan xarajatlar chegirilganidan keyingi qolgan natijasidir. Jami daromad – bu davr mobaynidagi operatsiyalar va boshqa hodisalar natijasida kapitalda yuzaga keladigan o‘zgarishlardir. Jami umumlashgan daromad “foйда yoki zarar”ning hamda “boshqa umumlashgan daromad”ning barcha qismlarini qamrab oladi. Umumlashgan daromad- foyda va zararlarining barcha manblaridan to‘plangan natijadir.

"Do'stlik don mahsulotlari" AJ-ning Moliyaviy natijalar tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Xisobot yili	Farqi,+,-	O'sishi
1	Daromadlar (mln so'm):	213 480 363	231 941 915	18461552	108,6
1.1	Mahsulot sotishdan sof tushum	213 477 172	231 941 915	18 464 743	108,6
1.2	Boshqa operatsion daromadlar	0	0	0	0
1.3	Moliyaviy faoliyatdan daromadlar	3 191,00		0	0
1.4	Favqulodda daromadlar	0	0	0	0
2	Xarajatlar (mln so'm):	214162783	232586320	18423537	108,6
2.1	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi	183795362,00	204100845,00	20305483	111,0
2.2	Davr xarajatlari	16905363	15249672	-1655691	90,2
2.3	Boshqa operatsion xarajatlar	9913712,00	11052638,00	1138926	111,4
2.4	Moliyaviy xarajatlar	3548346,00	2183165,00	-1365181	61,5
2.5	Favqulodda xarajatlar	0	0	0	0
3	Foyda va zararlar (mln.so'm):	67945866	67876111	-69755	99,89734
3.1	Maxsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	29681810	27841070	-1840740	93,7
3.2	Asosiy faoliyat foydasi (zarari)	13682280	13974935	292655	102,1
3.3	Daromad (foyda) solig'ini tulagunga qadar foyda	12290888,00	13030053,00	739165	106,0
3.4	Daromad solig'i	1060001,00	1600308,00	540307	150,9
3.5	Foydadan boshqa soliqlar va yeg'imlar	3539,00	27061,00	23522	764,6
3.6	Sof foyda	11227348,00	11402684,00	175336	101,5
4	Rentabellik ko'rsatkichlar, %				
4.1	Sotuv rentabelligi	0,86	0,87	0,01	101,1
4.2	Asosiy vositalarning rentabelligi,%	24	24,4	0,4	101,6
4.3	Joriy aktivlarning rentabelligi,%	5,59	5,55	-0,04	99,2
4.4	Aktivlar rentabelligi	5,3	0,24	5,06	4,5
4.5	Asosiy vositalar rentabelligi	24	24,4	0,4	101,6

Xulosa: korxonada daromad solig'ini to'lagunga qadar bo'lgan foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 6 foizga yoki 739165 ming so'mga ortgan. Sof foyda summasi mos ravishda o'tgan yilga nisbatan 1.5 foizga qiymatda 175336 ming so'mga o'sgan. Rentabellikning tanlangan va tahlil qilingan turlari bo'yicha holatni ham ijobiy baholash mumkin. Jumladan sotuv rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 0.01 foizga, Asosiy vositalarning rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 0.4 foizga, Joriy aktivlarning

rentabelligi -0.04 foizga, aktivlar rentabelligi 0.2 foizga, Asosiy vositalar rentabelligi 0,4 ortgan.

Korxonalar faoliyati va mahsulotlari raqobatdoshligini taminlashning eng muhim tayanchi bu uning rentabellik darajasidir. Rentabellik –nemis tilidagi “rentabel”-daromadlik, foydalik degan ma’noni anglatadi. Uning iqtisodiy mazmunini-moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifoda etadi. Rentabellikning bir nechta guruhi-aktivlar, ishlab chiqarish, sotuv va kapital rentabelligi guruxi tarkiblanadi. Har bitta guruhga bir necha ko’rsatkichlar tizimi kiritiladi. Lekin baholashda, omilliy tahlil etishda ularning har bittasi alohida hisob-kitob qilinadi va baholanadi.

Rentabellikning asosiy ko’rsatkichlari:

• Aktivlar rentabelligi (ROA Return On Assets) = sof foyda / aktivlarning o’rtacha yillik qiymati

• Sotuv rentabelligi = Maxsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishning yalpi foydasi / Sotishdan sof tushum

• Operatsion faoliyat rentabelligi (ROS Return On Sales) = operatsion foyda / Sotishdan sof tushum

• Xususiy kapital rentabelligi (ROE Return On Equity) = Sof foyda / Xususiy kapital

Qo’shimcha ko’rsatkichlari:

• Asosiy vositalar rentabelligi = Sof foyda/Asosiy vositalarning o’rtacha yillik qiymati;

• Xodimlar rentabelligi (ROL) = Sof foyda/xodimlarga xarajatlar (mehnat xaqi fondi va xodimlarga boshqa xarajatlar);

• Aktivlarning bazaviy foydalilik koeffitsienti (Basic earning power) — soliq to’loviga qadar foyda/ Aktivlarning o’rtacha yillik qiymati($BEP = EBITDA/Aktivlar\ o'rtacha\ yillik\ qiymati$);

• Investitsiyalangan kapital rentabelligi (ROIC) —Operatsiyaon foyda/ O’z mablag’lari manbasi va uzoq muddatli qarz kapitali ($ROIC = EBIT\ \Psi\ (100\ \% \text{ — Foyda solig'i stavkasi})/investitsiyalangan\ kapital$. Ayrim xollarda qarz kapitali to’liq olinadi. $ROIC = (EBIT\ \Psi\ (100\ \% \text{ — foyda solig'i stavkasi}) \text{ — qarz kapitali bo'yicha foizlar summasi})/(xususiy\ kapital+qarz\ kapitali)$);

• Jalb qilingan kapital rentabelligi sof foyda/(O’z mablag’lari manbasi + uzoq muddatli qarz mablag’lari) (ROCE);

• Jami aktivlar rentabelligi (ROTA) = soliq to’loviga qadar foyda / ajmi aktivlar;

• Biznes aktivlari rentabelligi (ROBA) =sof foyda/biznes aktivlari;

• Sof aktivlar rentabelligi (RONA) = Soliyaq to’loviga qadar foyda / sof aktivlar;

• Ishlab chiqarish rentabelligi = Sof foyda / (Asosiy vositalar+ aylanma aktivlar);

• Marja rentabelligi (Profitability of the margin) — sotilgan mahsulot bahosi-sotilgan mahsulot tannarxi/ sotilgan mahsulot tannarxi va boshqa ko’rsatkichlar. Rentabellikda samaradorlik ko’rsatkichlarining: yalpi tushum, xarajat, aktiv, kapitalning har bir so’miga to’g’ri keladigan natijaviylik ko’rsatkichlari: yalpi foyda, operatsion foyda, soliq to’loviga qadar foyda, sof foyda ko’rsatkichlarini aniqlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak korxonani rentabellik ko'rsatkichlari korxonaga yoki tadbirkorlikning daromadkorligi, samaradorligi mikroiqtsodiy miqyosdagi iqtisodiy faoliyatning samaradorligi ko'rsatib beradi. Rentabellik korxonaga yoki tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalarini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkich. Rentabellik foyda olib ishlashning qiyosiy, ya'ni sarf harajatlarga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkichi bo'lib foizlarda ifodalanadi. Uzoq muddatli va joriy xarajatlar (mashinauskuna, binolar, inshootlar, xom ashyo, yoqilg'Il, materiallar, butlovchi qismlar, ish kuchi va boshqa sotib olish) mazmunan har xil bo'lganidan ular qanday natija berganligini bilish uchun Rentabellikning 4 ta asosiy ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori. 2018-yil 19-sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1013-son qarori. 2018-yil 14-dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-son qarori. 2015-yil 28-iyul.

Tojiboeva Sh.A. Moliyaviy tahlil-2. Darslik. –T: Innovatsion rivojlanish, 2021.

Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik.. –T.: Innovatsion rivojlanish, 2021.

Tojiboeva Sh.A. Tashbayev B.U. Omanov S.Q. Iqtisodiy tahlil. Darslik.. –T.: Innovatsion rivojlanish, 2023.

NOANIQLIK VA XAVF OMILLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA INVESTITSIYA LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Z.A.Atabayeva

*Farg'ona politexnika instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida
katta o'qituvchisi,*

F.Y.Ne'matov

Farg'ona politexnika instituti talabasi

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish yo'llaridan biri investitsiya faoliyatini kengaytirish, mamlakat iqtisodiyotining turli sohalariga yirik investitsiyalarni jalb qilishdir. So'nggi yillarda respublikada ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirish, investorlarning ushbu sohadagi davlat siyosatining izchilligiga ishonchini mustahkamlash va davlat organlarining investorlar bilan ishlashdagi mas'uliyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar qabul qilindi [1]. Investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi davlat ham, xususiylar ham, kredit tashkilotlari ham investitsiya loyihalarini baholash sifatini oshirishdan manfaatdor [2].

Shu munosabat bilan taklif yetilayotgan investitsiya obyekti samaradorligini tahlil qilish investitsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Investitsion loyihalarning qobiliyatsiz tahlili va samaradorligini baholash bilan ularni amalga oshirish jarayonida ko'pincha noaniqliklar va xatarlar bilan ajralib turadigan kutilmagan salbiy natijalar paydo bo'ladi. Shu munosabat bilan noaniqlik va xavf omillarini hisobga olgan holda investitsiya loyihasining samaradorligini baholash usullarini o'rganish dolzarbdir.

Noaniqlik-bu investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlari, shu jumladan u bilan bog'liq xarajatlar va natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarning pastligi. Shunga ko'ra, loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan noqulay vaziyatlar va oqibatlar ehtimoli bilan bog'liq noaniqlik xavf tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Loyiha xatarlari-bu samarali loyihani samarasiz loyihaga aylantirishi mumkin bo'lgan asosiy loyiha parametrlaridagi mumkin bo'lgan o'zgarishlar.

Agar turli xil sharoitlarda loyihaning xarajatlari va natijalari har xil bo'lsa, unda xavf omillari va noaniqliklar investitsiya loyihasining samaradorligini hisoblashda majburiy hisobga olinishi kerak. Noaniqlik va investitsiya xatarlarining quyidagi turlari mavjud:

- iqtisodiy qonunchilikning beqarorligi va mavjud iqtisodiy vaziyat, investitsiya sharoitlari va foydadan foydalanish bilan bog'liq xavf;
- tashqi iqtisodiy xavf (savdo va yetkazib berishni cheklash imkoniyati, chegaralarni yopish va boshqalar.);
- siyosiy vaziyatning noaniqligi, salbiy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar xavfi;
- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarning pastligi yoki noaniqligi, yangi uskunalar va texnologiyalar parametrlari;
- bozor stavkalari, narxlar, bozor sharoitlarining o'zgarishi;
- tabiiy va iqlim sharoitlarining noaniqligi, tabiiy ofatlar ehtimoli;
- ishlab chiqarish va texnologik xavf (baxtsiz hodisalar va uskunalarining ishdan chiqishi, ishlab chiqarishdagi nuqsonlar);
- ishtirokchilarning maqsadlari, qiziqishlari va xatti-harakatlarining noaniqligi;
- ishtirok etuvchi korxonalarining moliyaviy holati va ishbilarmonlik obro'si to'g'risidagi ma'lumotlarning pastligi yoki noaniqligi (to'lovlarni to'lamaslik, bankrotlik, shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi).

Xavf darajasiga qarab, investitsiya faoliyatining maxsus yo'nalishlarini tavsiflash mumkin. Kompaniyaning investitsiya faoliyatining yo'nalishlari har xil xususiyatga, javobgarlik darajasiga va shunga mos ravishda oqibatlar va xavf darajalariga ega.

Noaniqlik sharoitida texnik va iqtisodiy parametrlar to'plami (masalan, unumdorlik, uskunaning ishlash muddati va boshqalar.) loyiha va shuning uchun uning pul oqimi aniq noma'lum va boshqacha bo'lib chiqishi mumkin. Shunga ko'ra, loyihani amalga oshirish uchun ko'plab mumkin bo'lgan ssenariylar mavjud. Va ularning barchasini hisobga olish kerak. Amalda ikkita usuli qo'llaniladi:

1. Loyiha bitta, maxsus tanlangan asosiy ssenariy bo'yicha baholanadi. Boshqa ssenariylarni amalga oshirish imkoniyati asosiy ssenariy parametrlarini va ushbu asosiy ssenariy baholanadigan ko'rsatkichlar tizimini diqqat bilan tanlash orqali hisobga olinadi. Ushbu usul asosan ekspert baholariga asoslangan va har doim ham yetarli

aniqlikni ta'minlamaydi. Shuning uchun loyihani ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida qabul qilinadi.

2. Loyihani baholashda barcha mumkin bo'lgan ssenariylar va ularning imkoniyatlari darajasi hisobga olinadi. Umuman olganda, uni amalga oshirishning barcha mumkin bo'lgan sharoitlarida loyihaning samaradorligini umumiy tavsiflovchi ko'rsatkichlar kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichlari deb ataladi.

Loyihaning barqarorligi deganda uni amalga oshirish sharoitidagi muayyan o'zgarishlar sharoitida, ya'ni muqobil ssenariylar amalga oshirilganda uning samaradorligi tushuniladi.

Loyihaning turli ssenariylar bo'yicha qanday amalga oshirilishiga qarab, uning mutlaq barqarorligi, yetarli barqarorligi yoki beqarorligi haqida gapirish mumkin.

Loyiha ko'rib chiqiladi:

- agar u barcha ssenariylarda samarali bo'lsa, mutlaqo barqaror;
- agar u yetarlicha kichik "imkoniyat darajasi" bo'lgan mumkin bo'lgan ssenariylarda samarasiz bo'lib chiqsa, yetarlicha barqaror;
- agar u samarasiz bo'lib chiqsa yoki yetarli darajada imkoniyatga ega bo'lgan ssenariylarda salbiy oqibatlariga olib keladigan bo'lsa, beqaror.

Noaniqliklarni hisobga olish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Barqarorlikni kompleks baholash.
2. Chegaralar va buzilish darajalarini hisoblash.
3. Parametrlarni o'zgartirish usuli.
4. Noaniqlik omillarini hisobga olgan holda loyihaning kutilayotgan samaradorligini baholash.

Umuman shuni ta'kidlash kerakki investitsiya loyihasi uchun barqarorlikni kengaytirilgan baholash yoki umuman investitsiya loyihasining barqarorligi mezoni.

Xulosa sifatida shuni e'tirof etishimiz mumkinki loyihaning barqarorligi asosan uni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bilan ta'minlanadi, bizningcha ular quyidagilar:

- sug'urta (loyihalarni amalga oshirishda, ularni sug'urtalash amaliyotini joriy etish);

- moslashuv, bu loyiha ishtirokchilarining funksiyasini va ularning harakatlarining parametrlarini o'zgartirishda namoyon bo'ladi (moslashishga loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi hisob-kitoblar shartlarini o'zgartirish);

- korxonaning eng samarali tugatilishini, loyihaning boshqa ishtirokchilari va pudratchilarining talablarini to'liq qondirishni ta'minlashi kerak bo'lgan tugatish tartib-qoidalari;

- keyingi ma'lumotlarni hisobga olish (ya'ni, loyihani amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi loyiha uni amalga oshirish jarayonida olingan qo'shimcha ma'lumotlarga "javob berishi" uchun shakllantirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Романенко, Е. С. (2023). Оценка эффективности инвестиционных проектов в условиях неопределенности: выпускная бакалаврская работа по направлению подготовки: 38.03. 01- Экономика.

Лытнева, Н. А., Полянин, А. В., & Трофимов, М. Н. (2017). Стратегия развития инвестиционной деятельности в условиях неопределенности. *Вопросы управления*, (5 (48)), 59-66.

Темиркулов, А. А. (2019). Государственное управление инвестиционной деятельностью. *Проблемы современной науки и образования*, (12-2 (145)), 97-101.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

N.Tuganbekova

*Senior Lecturer of the Department of
Management and Marketing*

KIMYO International University in Tashkent

Entrepreneurship and small business are a solid support for the development of our country and the well-being of the people. As a result of the ongoing fundamental economic reforms, the private sector makes a great contribution not only to the formation of gross domestic product, but also to the provision of employment.

Innovation activity, as it is known, is all scientific, technological, organizational, financial and commercial actions that actually lead to the implementation of innovations, or conceived for this purpose.

Of course, today in the era of striving for innovations, as well as increasing competition in all spheres, the most important factor of development is the rejection of the inefficient past and the opening of wider ways of innovation development. What is meant. Show a specific experience. For example, the cultivation of bananas in the Andijan region. Thanks to innovative ideas, an innovative miracle has turned out. According to Chinese technology, citrus fruits are grown, according to Indian technology, other types of citrus plants and outlandish fruits, etc.

Referring to the materials of the periodical press, it is possible to note the cultivation of white dairy goats, which are milked by milking machines.

At the same time, it is impossible to discount the fact that under innovations it is possible to raise the growth of professional skills. For example, a survey of entrepreneurs themselves shows that they also do not stand still, but try to keep up with the times, developing in many aspects of the economy, improving financial literacy and skills in using advanced technologies in mastering new frontiers.

Therefore, the head of our state initiated the rapid implementation of innovations in all spheres of society. Indeed, innovation is an important factor for achieving a high level, such as in developed countries. They allow you to take a worthy place in the world community.

Today, the country is developing an effective mechanism for the introduction of scientific developments in the real sector of the economy.

In particular, in the Strategy of Actions on the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, special attention is paid to stimulating research and innovation activities, creating effective mechanisms for introducing

scientific and innovative achievements into practice, education at higher educational institutions and research institutes

scientific and experimental specialized laboratories, high-tech centers and technology parks. The strategy 2030 continues this activity and the deeper introduction and expansion of the areas of application of advanced innovative technologies in increasing the role of small and medium-sized businesses in the economic sector of our country.

During the direct dialogue with the people in the regions of the republic, the President of our country sets specific tasks for the revival of scientific potential in all regions and the effective use of intellectual potential in the complex development of territories, the active involvement of young people in research activities. In solving these tasks, it is important to purposefully mobilize scientific research to solve real problems of the sociolect-economic sphere, to ensure close integration of science and industry and, in turn, to create mechanisms to increase the efficiency of the introduction of scientific and technological developments of scientists by manufacturing enterprises.

To assess the effectiveness of the use of funds allocated to enterprises and research teams in the countries of the European Union, the European Innovation Scoreboard – EIS) is published annually.

Also, based on the method of analyzing the operating environment, technical efficiency indicators were calculated for a number of countries of the European Union. Based on the obtained efficiency results, all countries were grouped into four groups: innovative leaders; innovative followers; moderate innovators;

catching up countries.

Based on this method, the following indicators are analyzed:

- knowledge intensity of GDP;
- number of scientists per one million people;
- education costs, % of GDP;
- number of national patent applications;
- high-tech exports, % of industrial exports;
- ICT exports, % of total exports.

Countries such as the United States, Japan, South Korea and Germany use funds aimed at developing innovative activities more effectively. At the same time, countries with economies in transition use these funds inefficiently.

In general, the determining factor of the sustainable development of the innovative economy in modern conditions is the formation and development of the innovative environment of the country associated with the use of the results of scientific research and development to create fundamentally new types of products, the creation and application of new technologies for its production with subsequent introduction and sale on the market.

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

M.X.Axunova

Farg‘ona politexnika instituti, katta o‘qituvchi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yildan - yilga rivojlanib bormoqda. "Jahon bankining ma'ruzasida O‘zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o‘nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan. Xususan, respublika hududlarida tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, turli imtiyoz va yangiliklar berilayotganligi tufayli ular ichki bozorni iqtisodiyotning o‘zgaruvchan talablariga mos mahsulotlar bilan to‘ldirayotganligi mazkur sohani yanada kengaytirishni rag‘batlantirishga yaratilgan imkoniyatlar evaziga bo‘lganligini takidlash joiz. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash bugungi iqtisodiyot oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi:

- birinchidan, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi;
- ikkinchidan, aynan kichik biznes o‘zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani va shu tariqa bozor konyunkturasining o‘zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishi bilan e‘tiborlidir;
- uchinchidan, kichik biznes va tadbirkorlik o‘sishi bilan mamlakat tayanchi va suyanchi bo‘lgan mulkdorlar o‘rta sinfini shakllan-tirish vazifasi bevosita hal etiladi. Umuman aytganda, kichik biznes va tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo‘lgan muhim bo‘g‘in hisoblanmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish" borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida"gi farmoni e'lon qilindi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida" PF-29-son [1] va 2021 yil 11 avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarga

moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6277-son [2] farmonlari hamda 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-son qarori [3] bugungi kun talabidan kelib chiqib qabul qilingan yana bir muhim huquqiy asosdir.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yhatidan o'tkazish, ruhsatnomalar olish va boshqa ximatlar tartibi soddalashtirildi. Barcha joylarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, uni hal etishga ko'maklashadigan bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Bu yaratilayotgan qulayliklar o'z samarasini bermoqda. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotining 60 foizini, qishloq ho'jaligi mahsulotining 98 foizini taminlamoqda. Ko'p viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to'g'ri keladi.

Joriy yildan boshlab O'zbekistondagi biznes muhiti ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar "Trading Economics" axborot portalida e'lon qilinmoqda. Ushbu xalqaro iqtisodiy statistika onlayn portali dunyoning 196 ta mamlakati iqtisodiy ko'rsatkichlariga baho beriladigan Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) bo'lib, olib borilgan tadqiqotlar asosida O'zbekistonning biznes muhiti indeksi e'lon qilindi va yil boshida mamlakatdagi biznes muhitining holati ijobiy, deb baholandi. Shu bilan birga, xududlarda mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga va tayyor raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan oziq-ovqat sanoatini qayta ishlash tarmoqlarining ko'p mehnat talab qiladigan sohalarini jadal rivojlantirish aholining bandligini oshirishda hamda hunarmandchilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish bu sohada katta imkoniyatlar yaratadi. Xududlarning quyilay iqlim sharoiti meva, sabzavot va poliz ekinlarini katta miqdorda va keng assortimentda yetishtirish imkonini beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ravnaqi va samarali faoliyati davomiyligini ta'minlab berilishi uchun quyidagi tavsiyaviy chora-tadbirlarni amalga tadbir etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- xududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirilgan moliyalash institutlari tashkil etish va rivojlantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etmagan hududlar uchun soliq imtiyozlari qo'llanilgan maxsus infrastrukturani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan sohalarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida davlat buyurtmalarini bajarishga jalb etish, pudrat ishlariga ishtirokini kengaytirish;
- tadbirkorlik sohasida faoliyat olib boruvchilar uchun biznes-maktablar tarmog'ini kengaytirish;
- yangi tadbirkorlik sub'yektlari uchun xomashyo, asbob-uskuna va texnologiyalardan tanlov asosida foydalana olish imkoniyatlarini yuzaga keltirish.

O'zbekiston iqtisodiyotida o'rta biznes muhim o'rin tutadi, biroq ular uchun hozirgi sharoit yetarli emas. Shu bois kichik biznesdan o'rta biznesga o'tishga intilayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi yondashuvlar amalga

oshiriladi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armalarining faoliyat usullarini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilindi. Endilikda Tadbirkorlik jamg'armasi xizmat ko'rsatish, ekologik va energiyani tejash loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi esa sanoat loyihalarini nazorat qilish uchun javobgar bo'ladi. Mablag'larni boshqarish uchun chet ellik malakali menejerlar taklif qilinadi. Bundan tashqari, jamg'armalar budget mablag'laridan tashqari mustaqil investitsiyalarni jalb qilish huquqiga ega. O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng qamrovli ekotizim yaratiladi. Shu maqsadda "Qishloq qurilish bank" Business Development Bank'ga aylantiriladi. Bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Ular yangi loyihalarni amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o'qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, marketing, yuridik va boshqa maslahat xizmatlarini taklif etadi. Markazlar yangi korxonalariga zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulotlarini samarali yo'lga qo'yishda yordam beradi. Eksportni kengaytirishning muhim imkoniyatlaridan biri O'zbekistonga nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilishdir. Yuqorida qayd qilingan jamg'armalarga mustaqil ravishda investitsiyalarni jalb qilish huquqi berilgan bo'lib, ushbu jamg'armalar kelgusi yilda o'rta biznes uchun qo'shimcha 1 milliard dollar sarmoya jalb etishni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so'zi, 2022 yil 20 dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son farmoni. 2022-yil 8-aprel.

M.A.Mamatov. Iqtisodiy o'sish. O'quv qo'llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021-384 b.

Akhunova M. K. THE ROLE OF INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali.– 2023. – T. 3. – №. 1. – S. 11-20.

Xarakatlar strategiyasi: dastlabki yil yakuni "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ma'lumotlari.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ЖАЛБ ЭТИШНИНГ ТАҲЛИЛИ

К.З.Музаффарова

ҚарМIII катта ўқитувчиси

Бугунги кунда мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг асосий шартларидан бири – бу иқтисодиётга хорижий инвестициялар жалб этиш эканлиги етарлича асослангандир. Маълумки, Инвестициялар - бу такрор ишлаб чиқариш ва умуман иқтисодий ўсишнинг молиявий манбаи, ишлаб чиқарувчи кучлар ва иқтисодий муносабатлар тизими ривожланишини белгиловчи омилдир.

Инвестициялар фан ва техника тараққиёти, ютуқларини амалиётга жорий қилишни ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнини таъминлайди. У аҳоли турмуш даражаси ва сифатини тўхтовсиз ошириб боришнинг ҳам зарурий шарти ҳисобланади.

Инвестицион фаолият иқтисодиёт субъектлар ўртасида ялпи ички маҳсулотни ишлаб чиқариш, тақсимлаш ва ундан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган кенг доирадаги муносабатларни акс эттиради. Инвестицияларнинг камайиши инқирозли ҳолатлар кутилишининг, инвестицияларнинг ўсиши эса инқироздан чиқишнинг ва иқтисодий ўсишнинг бошланишининг муҳим иқтисодий белгисидир. Инвестициялар динамикаси ишлаб чиқарилаётган ялпи ички маҳсулотнинг динамикасини олдиндан белгилаб беради.

Фаол инвестиция сиёсати орқали юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини, энг аввало, маҳаллий хомашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни жадал ривожлантиришга қаратилган сифат жиҳатидан янги босқичга ўтилмоқда. “Биз, аввало, четдан кредит ва сармоялар олиб келиш бўйича самарали тизим яратишимиз, ҳар бир кредитни аниқ ишлатишни ўрганишимиз лозим. Бу масалада етти ўлчаб, бир марта кесадиغان, оқибатини пухта ўйлаб иш олиб борадиган давр келди”¹¹⁰.

Минтақанинг инвестицион сиёсати - бу ҳудудий маъмурият органлари фаолияти бўлиб, у инвестициялар манбаини излаб топишга ва уларни самарали фойдаланиладиган соҳаларга йўналтиришга қаратилган бўлиши керак. Н.Хайдаров фикрича маҳаллий инвестицияларнинг барчасини ривожлантириш билан бирга иқтисодиёт тармоқларига хорижий инвестиция ресурсларидан тўғри инвестицияларни жалб қилишга асосий эътиборни қаратиш лозим. Чунки хорижий инвестициялардан тўғри инвестиция турларини жалб қилишни рағбатлантириш иқтисодиётда янги иш ўринларини ташкил этиш, замонавий техника ва технологияга эга бўлиш, экспорт салоҳиятини ошириш, солиқ тушумини ошириш имконини беради¹¹¹.

Мамлакатимизда ва хусусан, Қашқадарё вилоятида сўнгги йилларда қулай инвестиция ва ишбилармонлик муҳитини шакллантириш, қонунчилик барқарорлигини таъминлаш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, инвестиция муҳитини тубдан яхшилаш борасида амалга оширилаётган тизимли ишлар иқтисодиётимизга йўналтирилган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажмининг ошишига муҳим асос бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Бизнинг иқтисодий стратегиямиз иқтисодиётга катта ҳажмдаги инвестицияларни жалб қилишга қаратилган”¹¹². Шу нуқтаи назардан инвестицияларнинг ўсиш суръатлари 10 йилда

¹¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

¹¹¹ Хайдаров Н.Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари (хорижий инвестицияли корхоналар мисолида), иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, 2003 й.- Б.255.

¹¹² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси /Ш.М. Мирзиёев – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б.135.

ялпи ички маҳсулотнинг камида 25 фоизини ташкил этиши учун зарур шароит яратиш вазифаси қўйилган.

Қашқадарё вилоятининг инновацион тараққиётини таъминлаш ҳудудий инвестицион сиёсатининг стратегик йўналиши сифатида белгилаб олинган бўлиб, уни самарали амалга оширишда минтақага хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш кўламига боғлиқдир. Кейинги йилларда минтақанинг инвестицион фаоллигини ошириш асосан ишлаб чиқаришни модернизациялаш ва инновацион технологияларни кенг жорий этиш бўйича лойиҳаларни амалга оширишга қаратилмоқда. Бундай шароитда юқори технологияларга асосланган хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш сиёсатини янада жадаллаштириш устувор аҳамият касб этади.

1-жадвал

Қашқадарё вилоятида асосий капиталга киритилган тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг тармоқ таркиби, %¹¹³

	2018	2019	2020	2021	2022
Қашқадарё вилояти	112,4	131,2	76,5	77,8	80
шу жумладан					
Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги	96,6	101,2	104,0	102,2	103,7
Саноат	108,3	93,7	102,9	115,4	110,5
Қурилиш	110,9	103,2	98,6	117,6	105,8
Савдо	104,8	106,3	104,1	106,6	111,8
Ташиш ва сақлаш	5,1	5,0	4,7	5,2	5,3
Яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар	93,4	110,4	97,5	109,9	107,1
Ахборот ва алоқа	108,1	113,0	111,6	121,8	125,3
Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизматлар кўрсатиш	112,5	121,3	95,1	127,8	102,5
Бошқа турлар	21,7	23,4	23,3	22,7	22,3

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг 3-бўлимида Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш бўйича бир қатор мақсадлар илгари сурилган. Ушбу мақсадлардан бири “Иқтисодиёт тармоқларида барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш орқали келгуси беш йилда аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотни —1,6 баравар ва 2030 йилга бориб аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадни 4 минг АҚШ долларидан ошириш ҳамда «даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар» қаторига кириш учун замин яратиш”, деб белгилаб қўйилган.¹¹⁴

Юқоридаги жадвалда Қашқадарё вилоятида асосий капиталга киритилган тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг тармоқ таркиби бўйича маълумотлар келтирилган. Ушбу маълумотлардан кўриниб турибдики, Қашқадарё вилоятида асосий капиталга киритилган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар 2022 йилда

¹¹³ Қашқадарё вилояти статистик ахборотномаси асосида тайёрланган

¹¹⁴ 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги №60-сонли Фармони. 21-мақсад

2021 йилга нисбатан 80 фоизни ташкил этган. Бу эса 2022 йил 2021 йилга нисбатан 20 фоизга кам инвестиция жалб этилганидан далолат беради.

Шунингдек, мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этиш бўйича “Мамлакатда инвестиция муҳитини янада яхшилаш ва унинг жозибadorлигини ошириш, келгуси беш йилда 120 миллиард АҚШ доллари, жумладан 70 миллиард доллар хорижий инвестицияларни жалб этиш чораларини кўриш”, дея алоҳида мақсад қўйилган.¹¹⁵

Қашқадарё вилояти иқтисодиётига хорижий инвестицияларни янада фаол жалб қилиш билан бирга улардан фойдаланиш самарадорлигини оширишда истиқболда, биринчи навбатда, қуйидаги устувор йўналишларда ислохотларни фаоллаштириш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатмоқда:

- иқтисодиётини таркибий тузилмасини такомиллаштириш ва техник – технологик жиҳатдан модернизациялаш;

- хорижий инвестицияларни рақобатбардош юқори технологик билимлар иқтисодиётига йўналтириш асосида рақамли иқтисодиётни шакллантириш;

- хорижий инвестицияларни фаол ўзлаштиришда кадрлар сифатини ҳамда ижтимоий меҳнат унумдорлигини ошириш;

- қулай ишбилармонлик ва тадбиркорлик эркинлигини таъминлаш ҳамда инвестиция фаолиятини тартибга солувчи қонунчиликни такомиллаштириш;

- институционал ислохотлар асосида хорижий инвестицияларни тартибга солувчи давлат ва бозор институтлари сифатини ошириш;

- корпоратив бошқарув соҳасидаги ёндашувларни тубдан ўзгартириш ва иккиламчи қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш;

- ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш ва экспортни рағбатлантириш.

ҲОВУЗ БАЛИҚЧИЛИГИДА БИЗНЕС-ЖАРАЁНЛАРНИ РЕЖАЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ш.К.Досмуратова

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва
агротехнологиялар институти
ассистенти*

Сўнги йилларда мамлакатимизда хусусий мулкчилик ва бизнесни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, балиқчилик соҳасида бизнесни ташкил этиш ва ривожлантириш бўйича ҳукуватимиз томонидан бир қатор қарорлар қабул қилинди. Республикада аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, шу жумладан, сифатли балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш бўйича бир қанча дастурий чора-тадбирлар қабул қилинди.

¹¹⁵ 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги №60-сонли Фармони. 26-мақсад

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2022 йилнинг 20 декабрь куни балиқчилик соҳасини ривожлантириш ва кооперация асосида балиқ етиштириш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги йиғилишида мавжуд камчиликлар кўрсатиб ўтилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти «Дунёда озиқ-овқат нархларининг ўсиши, инфляция хавф-хатарлари келгуси йилда озиқ-овқат хавфсизлиги энг долзарб масала бўлиб қолишини яққол кўрсатмоқда. Шу боис, вилоят ҳокимлари ўз ҳудудида балиқ етиштириш ҳолатини таҳлил қилиб, тадбиркорлар ва аҳоли хонадонларига барча шароитларни яратиб бериш бўйича тизимли шуғулланиши зарур» [1] деб таъкидлаб ўтдилар. Шунингдек, «йирик балиқчилик лойиҳаларига келгуси йилда 20 миллион евро жалб қилиш режалаштирилганлиги, ҳосилдорлиги паст бўлган 21 минг гектар сунъий ҳавзаларда ҳосилдорликни 3 баробарга ошириш ва қўшимча 190 минг тонна балиқ етиштириш зарурлиги таъкидланди. Бунинг учун 2,2 мингта хўжаликни 50 мингта сувни кислород билан бойитиш ускунаси - аэратор билан жиҳозлаш зарурлиги кўрсатиб ўтилди» [1].

Умуман, балиқчилик тармоғини ривожлантириш бўйича сўнгги йилларда бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди, жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги «Балиқчилик тармоғини бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2939-сон қарори [2] қабул қилинди. Қарорга мувофиқ «Ўзбекбалиқсаноат» уюшмаси ташкил этилган. Унинг таркибига жойларда балиқчилик тармоғи ташкилотлари ишларини мувофиқлаштирувчи 13 та ҳудудий «Балиқсаноат» масъулияти чекланган жамияти киради. Шу билан бирга балиқчилик соҳасини ривожлантиришга қаратилган қуйидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилди:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги «Балиқчилик тармоғини жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3657-сон [3], 2018 йил 6 ноябрдаги «Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4005-сон [4] қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 сентябрдаги «Балиқчилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 719-сон [5], 2018 йил 31 июлдаги «Балиқчилик соҳасидаги илмий фаолиятни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 606-сон [6] қарорлари. Мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш муҳим ҳисобланади.

Балиқчилик соҳасидаги бизнес-жараёнларнинг мазмун-моҳиятини билиб олиш бугунги кунда долзарблик касб этади. Шу боисдан, бизнес ва бизнес-жараёнлар тушунчаларига батафсил тўхталиб ўтсак, мақсадга мувофиқ бўлади.

Одатда, бизнес билан машғул бўлган одамлар бизнесменлар, яъни ишбилармонлар деб аталган. Ли Якокка XX асрдаги бизнеснинг «энг буюк қаҳрамони» ҳисобланади. У дастлаб Генри Форд компаниясида иккинчи раҳбар бўлиб ишлаган, кейинчалик эса, унинг рақобатчисига айланган ва «Крайслер» автомобиль корпорациясининг президенти лавозимини эгаллаган. У шундай деб ёзган: «Ўзингизга мақсад қўйинг. Қўлингиздан келганича таълим олинг, лекин

кейин Худо учун бир нарса қилинг! Бирор нарса ўз-ўзидан содир бўлишини кутманг. Бу осон эмас, лекин агар сиз кўп меҳнат қилсангиз, сиз интилган ҳамма нарсага қандай эришишингиз мумкинлигидан ҳайратда қоласиз» [7]. Агар бирон-бир фойдали иш қилинса - бу бизнеснинг албатта бажарилиши лозим бўлган шартидир, бизнеснинг ўзи бозор иқтисодиётининг ишбилармонлик асосидир. Бизнес эркин шахснинг ташаббуси ва ижодкорлиги асосида яратилади. У ёлланма ходимнинг кўр-кўрона буйруқни бажариши, мажбурий меҳнат қилишига қарши қўйилади.

Бизнесни бошлашдан аввал қуйидаги асосий тамойилларга амал қилиш лозим бўлади: - бизнеснинг қонун ва қоидаларини яхши билиш; - етарли миқдорда бошланғич капиталга эга бўлиш; - ўз зиммасига олган мажбуриятларни ўз вақтида ва тўлиқ бажариш.

Бизнес тушунчасига батафсил тўхталиб ўтсак, Ўзбекистон миллий энциклопедиясида бизнесга қуйидагича таъриф берилган, «Бизнес (инг. business) - даромад келтирадиган ёки бошқа наф берадиган хўжалик фаолияти (касб-кор, машғулот); фойда олиш мақсадлари кўзланган ва қонунларга ҳилоф бўлмаган ҳар қандай ташкилий фаолият» [8]. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ҳам мазмунан шунга яқин «Бизнес (ингл. business) - даромад келтирадиган ва фойда олиш мақсадлари кўзланган ва қонунларга ҳилоф бўлмаган ҳар қандай ташкилий фаолият» [9].

Иқтисодий адабиётларда бизнес тушунчаси билан бирга бизнес-жараён тушунчаси ҳам кенг қўлланилиб келинади. Иқтисодчи олим З.Абдурахмонов жараён тушунчасига қуйидагича ёндашувни келтирган: «Компания маҳсулот ёки сервис ишлаб чиқариш учун бажарадиган ишлари жараёнлардир. *Жараён қуйидагиларни ўз ичига олади: 1. Қатнашчилар* - инсон, ташкилот ёки дастурий тизим; 2. *Жисмоний объектлар* - қурилма, материал, маҳсулот, ҳужжат; 3. *Ахборот объектлари* - электрон ҳужжат ёки электрон ёзувлар» [10]. Балиқчилик хўжаликларида истеъмолчиларни ўз вақтида балиқ маҳсулотлари билан таъминлашга қаратилган жараён ва тадбирлар йиғиндиси бу бизнес жараёни ҳисобланади. Бугунги кунда мазкур жараённи тўғри ташкил этиш ва амалга ошириш талаб этилади.

Бизнес жараёни тушунчаси бўйича хорижлик иқтисодчи олим M.Weske томонидан қуйидагича фикр билдирилган, «Бизнес жараёни - бу истеъмолчилар учун маълум бир маҳсулот ёки хизматни яратишга қаратилган ўзаро боғлиқ бўлган фаолият ёки тадбирлар мажмуидир. BPM бошқарув концепцияси (инглизча, business process management - бизнес-жараёнларни бошқариш) бизнес-жараёнларни корxonанинг муҳим ресурслари деб ҳисоблайди ва уларни бошқаришнинг асосий ташкилий тизимларидан бири сифатида қабул қилади» [11].

Иқтисодий манбада бизнес жараёнларининг турларига тўхталиб ўтилган, «Бизнес жараёнларининг уч тури мавжуд:

менежерлар - корпоратив бошқарув ва стратегик бошқарув каби тизимнинг ишлашини назорат қилувчи бизнес жараёнлари;

операцион - даромаднинг асосий оқимини (таъминот, ишлаб чиқариш, маркетинг, сотиш ёки қарзни ундириш) яратадиган ташкилотнинг асосий

фаолиятини ифодаловчи;

қўллаб-қувватлаш - ташкилотга хизмат кўрсатиш (бухгалтерия ҳисоби, ишга олиш, техник ёрдам)» [12].

Бизнес жараёни истеъмолчи талабидан бошланиб, уни қондириш билан тугайди. Жараёнга йўналтирилган ташкилотлар битта бизнес-жараённи амалга оширишда ташкилотнинг икки хил бўлимининг туташган жойида юзага келадиган тўсиқлар ва кечикишларни бартараф этишга ҳаракат қиладилар. Бизнес-жараён ўзига хос хусусиятларга эга бўлган, лекин асосий бизнес жараёнининг мақсадига эришишга қаратилган бир нечта кичик жараёнлар, процедуралар ва функцияларга бўлиниши мумкин. Бундай бизнес-жараёнларни таҳлил қилиш, одатда маълум фаолият даражалари оралиғида жойлашган бизнес жараёни ва унинг кичик жараёнларини хариталашни ўз ичига олади.

Бизнесни режалаштириш янги бизнесни ташкил этиш йўлидаги муҳим бўғин ҳисобланади. Бизнес-режа - бу корхона келгусидаги фаолиятидаги барча муҳим жиҳатларини тавсифловчи дуч келиниши мумкин бўлган, муаммоларни таҳлил қилувчи ва ушбу муаммоларни ҳал этиш йўллари белгиловчи ҳужжатдир.

Бизнес-режа кенг, ҳар томонлама аниқ, тизимга туширилган ва чуқур ўйлаб тайёрланган ҳужжат бўлиб, у қишлоқ хўжалиги корхонасининг қай мақсадга ҳаракат қилаётганлиги, кўзланган мақсадга қайси йўллар билан эришиш ҳамда эришилгандан сўнг натижа қандай бўлади. Демак, саволларга жавоб топилади. Бу қулай ҳисобланиб, умумий олинган лойиҳанинг имкониятлари бўйича тўла маълумот беради. Бизнес-режа қишлоқ хўжалиги корхонасининг стратегик истиқболини белгилаб берадиган асосий ҳужжат ҳисобланади ва уни 3-5 йилга тузиш тавсия этилади.


Бизнес-режанинг биринчи ва иккинчи йилларига кўрсаткичларни, топшириқларни чоракларга тақсимланган ҳолда берилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади ва фақат учинчи йилдан бошлаб йиллик кўрсаткич, топшириқлар билан чегараланиши мумкин.

«БИЗНЕС РЕЖА - аниқ танланган тадбиркорлик ишининг барча босқичлари тавсифланган ва тахминий ҳисоб-китоб қилинган лойиҳа. Унда аниқ танланган тадбиркорлик ишининг ҳамма томонлари ўз аксини топади» [13]. Бизнес-режа - бу ҳар қандай оддий режа бўлиб, нафақат бизнесни бошлаш режаси билан чекланиб қолмай, у раҳбариятга корхоналарнинг ҳозирги ҳолатини (кучли, заиф томонлари, имкониятлар ва таҳдидлар) тушунишга ва келажакка умидворлик билан қарашга ёрдам беради.

Бизнес-режа - бу келгуси бир неча йил учун ҳисоб-китоблар ва истиқболлар билан лойиҳангизнинг батафсил тавсифи. Бу потенциал инвесторлар ёки сиз кредит олиш учун борадиган банк учун, ҳамкорлар, воситачилар, сизнинг жамоангиз ва охир-оқибат, сиз лойиҳанинг яратувчиси сифатида керак бўлади.

«Бизнес-режа - бу тадбиркорнинг режалаштирилган бизнес схемасининг ёзма қисқача мазмуни, унинг молиявий ва самарали тафсилотлари, имкониятлар, стратегия ва унинг раҳбарларининг малака ва кўникмалари, уни илгари суриш. Бизнес-режани яратиш жуда муҳим, чунки тадбиркор муваффақиятга эришиш имкониятини ошириш учун яхши ўйланган, аниқ яратилган бизнес-режага эга

бўлиши керак» [14].



1-расм. Қишлоқ хўжалиги бўйича бизнес режа тайёрлаш

Хорижлик иқтисодчи олимлар Tomas Zimmerer ва Scarboroughлар фикрича, «керак бўлганда янгиланиши мумкин бўлган баъзи умумий бизнес-режа тафсилотлари, сарлавҳа саҳифаси ва таркиблар жадвали, бошқарув хулосаси, компания тарихи, савдо ва саноат профили, бизнес сиёсати, компания маҳсулоти ёки хизматининг тавсифи, янгилаш схемаси, рақиб таҳлили, маъмуриятнинг тушунтириши, процедура режаси, про-формал иқтисодий баёнотлар, ғоя ва инвестицион таклифлар» [15].

Ҳовуз балиқчилиги тармоғида бизнес жараёнларни режалаштириш жуда ҳам муҳим масалалардан ҳисобланади. Ва унда тармоқнинг қуйидаги хусусиятларини эътиборга олиш зарур:

- ҳовуз балиқчилиги хўжаликларини ташкил этиш сув таъминоти ва унинг оқими йўналишига бевосита боғлиқлиги;
- ҳовуз балиқчилиги хўжаликларини ташкил этишда сувнинг биологик ҳолати (тозалик даражаси, таркиби, мавсумий оқими)га боғлиқлиги;
- кичик ҳажмли ҳовуз балиқчилиги хўжаликларида етиштирилган маҳсулот натура ёки товар маҳсулоти сифатида фойдаланиш имконияти юқорилиги;
- меҳнат сиғими нисбатан кичиклиги ва илмий ҳажмдор меҳнатга талаби юқорилиги;
- чучук сувли кўл ва дарёларнинг ифлосланмаган оқар сувларида кўпайтириш қулайлиги;
- юқори даражада вазнининг тез ўсиши;

- ташқи муҳит шароитига чидамлилиги;
- ҳовуз балиқчилиги хўжалигида балиқ зоти кесимида сув сифатида ва ҳароратига талаб ўзгариб бориши;
- интенсификация балиқчилик ривожланиши шароитида дарё балиғига талабнинг ортиши;
- юқори даражада озучалик сифатга эгаллиги;
- ҳовуз балиқчилиги хўжалигининг қуввати сувнинг экологик ҳолатига (*меъёрдан ошса ифлослайди, кам бўлса сувни тозалайди*) бевосита таъсирга эгаллиги;
- балиқ чиқиндилари сув ҳавзасида биологик хилма-хилликнинг соғломлашишига ижобий таъсир кўрсатиши ва ҳоказо.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2022 йилнинг 20 декабрь куни ўтказилган йиғилиши. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ишларини кучайтириши, балиқчилик тармогини қўллаб-қувватлашни кенгайтиришига кўрсатма берилди. <https://president.uz/uz/lists/view/4839>.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги «Балиқчилик тармогини бошқариши тизимини такомиллаштириши чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ-2939-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3188263>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги «Балиқчилик тармогини жадал ривожлантиришига доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3657-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3642735?otherlang=1>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 ноябрдаги «Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришига доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4005-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4046069>

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 сентябрдаги «Балиқчилик тармогини комплекс ривожлантириши чора-тадбирлари тўғрисида»ги 719-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3343140>

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 31 июлдаги «Балиқчилик соҳасидаги илмий фаолиятни янада такомиллаштириши чора-тадбирлари тўғрисида»ги 606-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3844512>

Карьера менеджера. Ли Якокка. Саммару. <https://bookmate.ru/books/la4eX0HA/quotes>

Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2001. 2-жилд. 20-б.

Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2-том. Б ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 255 б.

Zukhriddin Abdurakhmonov. Biznes jarayonlarni boshqarish. <https://tizimlifikrlash.medium.com>

Weske, M. Chapter 1: Introduction// Business Process Management: Concepts, Languages, Architectures.- Springer Science & Business Media, 2012. - P. 1-24. - ISBN 9783642286162. (англ.)

Бизнес-процесс. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.

Effective Small Business Management: An Entrepreneurial Approach. Scarborough & Zimmerer 2008, 134. <https://www.semanticscholar.org/paper/Effective-Small-Business-Management%3A-An-Approach-Scarborough-Zimmerer/>

THE PRIMARY ASPECTS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF NON-STATE UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN

J.R.Khurramov

*TOBB University of Economics and
Technology in Tashkent,
Registrar Office specialist*

Nowadays, education plays an essential role in the development of a country, therefore, many countries over the globe making a special effort to develop its own educational system. Financial planning in Education is an important component of effective financial management and plays a primary role in educational management. If an institution is operating well in various fields, it means that the financial management of that institution is well organized and developed. Financial management in higher non-state educational institutions is the key to success in the development of the education system in Uzbekistan. In fact, there are approximately 199 higher education institutions in Uzbekistan, and almost 55 of these are non-state (private) higher educational institutions¹¹⁶. According to our research, when establishing a non-state educational institution in Uzbekistan, the primary process is the creation of its material and technical support and through it, its material and technical base is formed. Furthermore, it should be noted that if an international or private non-state university/institution in Uzbekistan has a solid financial base, it is highly likely to succeed in its educational field. It is because, with the high salary the university/institution can hire professional teaches/professors, administrative personals and with the help of them the quality of education improves and this university/institution can provide highly qualified employees to the country.

State and non-state higher education institutions in Uzbekistan.

Higher education institutions can be classified into state and non-state. According to our research, state educational institution in Uzbekistan can be classified as an institution established by state authorities and management bodies on the basis of state-owned property which offers education in compliance with state educational standards and criteria. In contrast, non-state higher education institutions in Uzbekistan can defined as a legal organization that provides educational services in accordance with state curriculum and educational standards and on the basis of a license for the provision of educational services¹¹⁷.

Financial management in state and non-state higher education institutions in Uzbekistan.

According to the research, several differences can be witnessed in non-state and state higher education institutions in Uzbekistan, when it comes to financial management. In fact, state higher education institutions used to carry out their financial

¹¹⁶ Respublika oliy ta'lim muassasalari to'g'risida statistik ma'lumotlar <https://stat.edu.uz/>

¹¹⁷ Law of the Republic of Uzbekistan on Education, from 23.09.2020 y. № LRU-637 <https://lex.uz/ru/docs/5700831?ONDATE=24.09.2020>

activities from the budget allocated by the government as well as from extra-budgetary funds and other sources not prohibited by law, and this may influence on independent financial management as the budget is spend on several specific fields of the state university or institute. However, there has been a significant development in financial management of state higher education institutions after the orders and decrees of the president of the Republic of Uzbekistan announced on granting financial independence to state higher education institutions. According to our research, financial activities of non-state higher education institutions are carried out at the expense of the founders, personnel customers and other sources not prohibited by law. Consequently, the major difference between the financial management of state and non-state higher education institutions in Uzbekistan is seen in the independent usage of financial resources in NSHEIs and the opposite in state higher education institutions. Nonetheless, approximately 35 of the 114 state higher education institutions have attained financial independence, meaning these 30 HEIs are using their financial resources independently.

The initial steps of financial management in non-state educational institutions.

It should be noted that the educational and methodological, research, spiritual and educational and material and technical areas are considered the main areas of activity in all higher educational institutions, both state and non-state. When it comes to financial activities, this is one of the main and important aspects of higher education institutions. In general, we should not forget that the main goal of higher education institutions is to provide educational services, and financial management plays an important role in achieving this goal. According to the study, the primary aspects of financial management in higher non-state educational institutions are as followings:

1. *Capital resources of NSHEIs (All buildings; administrative, educational, student residences, sport centers, laboratories and etc.);*
2. *Material resources of NSHEIs (All types of equipment, books and etc.);*
3. *Financial resources of NSHEIs (Students' contract payment)*
4. *Remuneration of NSHEIs' staff (All types of employees of NSHEIs; Professor-teachers, administrative and technical support staff and etc.)*
5. *Employee training of NSHEIs (Teaching and administrative staff)*
6. *Communal services of NSHEIs (All types of communal services; electricity, water consumption and etc.)*

According to our research, financial planning of non-state higher education institutions has three main processes:

First, determining the maximum number of financial resources, which is necessary for the operation of an educational institution.

Second, determining the main fields of expenses, which the NSHEI uses its financial resources within this framework.

Third, the NSHEI should ensure the balance between the amount of planned financial resource and the main fields of expenses.

References:

Dr. Manju Shree Raman, Dr. D. Immanuel, M.Amrutha, Dr.M.A.suresh Kumar, Dr.B. N. Sathya Bhama va Sindhura Kannappan // Analysis of effectiveness on financial management and financial planning in the education system. - June 2022.

Shamsiddin Valiev. The importance of organizing non-state higher education institutions in financing higher education institutions in Uzbekistan // International virtual conference on Language and Literature Proceeding. 2022.178 p.

Financing Education-Investments and Returns. Analysis of the world education indicators 2002 edition // UNESCO Institute for Statistics.

Shamsiddin Valiev. Specific characteristics of financing costs of higher education institutions. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) – July, 2022.

Law of the Republic of Uzbekistan on Education, from 23.09.2020 y. № LRU-637
<https://lex.uz/ru/docs/5700831?ONDATE=24.09.2020>

Respublika oliy ta'lim muassasalari to'g'risida statistik ma'lumotlar <https://stat.edu.uz/>

КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА ДАРОМАДЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАЗМУНИ

Ф.З.Юсунова

*“Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси
стажёр ассистенти*

Иқтисодий таълимда ва амалиётда энг кўп учрайдиган ҳамда кенг қўлланиладиган тушунчалардан бири бўлиб «даромад» ҳисобланади. Чунончи, иқтисодиёт назариясида даромад иқтисодий категория, амалий фаолиятда эса у хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг муҳим кўрсаткичларидан бири сифатида эътироф этилади. Бухгалтерия ҳисоби назарияси ва амалиётида даромад унинг энг муҳим объектларидан биридир.

Кўпчилик МДХ давлатлари ва мамлакатимиз олимлари корхона даромадини маҳсулот сотишдан тушган пул тушуми сифатида таърифлайдилар. Бошқа бир гуруҳ иқтисодчи – олимлар даромадни корхонада яратилган қўшимча қиймат сифатида талқин қиладилар. Масалан, Ю.Додобоев ва А.Худойбердиевлар корхона даромадларига қуйидагича таъриф берадилар: «Корхонанинг ялпи даромади моддий харажатлар чиқариб ташлангандан сўнг иш ҳақи ва фойдани ўз ичига олган маҳсулот сотишдан тушган тушумдир». Э.Шавқиев корхона даромадига «... маълум бир даврда бутунлай янгитдан яратилган қийматдир», деб таъриф беради. Шунга ўхшаш таърифлар бир қатор Россиялик олимларнинг ишларида ҳам учрайди. Қайд этилган таърифларнинг ҳар бири маълум мунозарали жиҳатларга эга.

Ўтказилаг илмий тадқиқот натижасида мамлакат иқтисодиётида молиявий натижалар ҳисобини такомиллаштириш даомадларнинг тўғри ва ўз вақтидаги бухгалтерия ҳисобини йўлга қўйиш, шунингдек моддий, меҳнат ва молиявий ресурслардан оқилона фойдаланиш устидан қаттиқ назоратни ташкил этиш, ишлаб чиқаришга тааллуқли бўлмаган харажатлар ва талофатларни ҳар томонлама камайтириш, якуний молиявий натижаларни тўлиқ шакллантирилишини наорат қилиш ва маҳсулот таннархини пасайтиришнинг энг муҳим йўлларида бири

ҳисобланиш йўллари келтирилган. Тадқиқот жараёнида тизимли ёндашув, гуруҳлаш, таққослаш, танланма кузатиш усулларидан фойдаланилган

Бозор иқтисодиёти шароитида иқтисодиётнинг барча иштирокчилари (давлат, корхоналар, хусусий тадбиркорлар, уй хўжалиги) ўз фаолиятларидан кўпроқ даромад олишга интиладилар. Даромад ҳар қандай тадбиркорликни узлуксиз ривожланишининг энг асосий омилларидан биридир.

Хўш, даромад ўзи нима, у ўзида нималарни акс эттиради?

Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғатида даромад сўзи қуйидагича изоҳланган: “корхона ёки муассаса, айрим шахс ва бошқаларнинг бирор фаолият эвазига оладиган пули, моддий бойликлари, фойдаси”. Изоҳдан кўриниб турибдики, даромад сўзи моҳиятан иқтисодий атама ҳисобланади. Бозор иштирокчилари нуктаи назаридан даромаднинг қуйидаги кўринишлари фарқланади:

- аҳоли даромади;

- корхона даромади;

- давлат (бюджет) даромади; Аҳоли, корхона ва давлат даромадларининг шаклланиши мураккаб характерга эга бўлиб, бир-бири билан узвий боғлиқликда юз беради. Аҳоли ва давлат даромадларининг шаклланишида иқтисодиётнинг энг қуйи бўғини ҳисобланган корхоналар, шу жумладан савдо корхоналари муҳим ўринни эгаллайди. Айнан корхона орқали олинган даромадлар охир-оқибатда аҳоли (иш ҳақи, дивидент шаклида) ва давлат (солиқлар, бошқа мажбурий йиғимлар шаклида) даромадларини ташкил этади. Шу сабабли ҳам, мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш ва аҳоли фаровонлигини таъминлашга қаратилган иқтисодий ислохатларнинг негизида корхоналар даромадларини кўпайтириш ва шу асосда уларнинг молиявий ҳамда иқтисодий барқарорлигини мустаҳкамлаш масалалари ётиши лозим.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, бугунги кунда, корхона даромадларининг иқтисодий мазмуни, таснифланиши, таркиби, шаклланиши ва тақсимланиш тартиби меъёрий ҳужжатларда ҳамда иқтисодий адабиётларда турлича ёритилмоқда.

Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар нафақат маҳсулот ишлаб чиқариш ва уларни сотиш билан, балки инвестицион ва бошқа фаолият турлари билан ҳам шуғулланадилар ва ушбу фаолиятлардан сезиларли даражада даромад оладилар. Бундай шароитда, корхона ялпи даромадларини биринчи гуруҳ олимлар таъкидлаганларидек, фақатгина маҳсулот сотишдан тушган пул тушуми сифатида таърифлаш, унинг таркибини тўлиқ ифодамайди.

Иккинчи гуруҳ олимлар томонидан корхона даромадига берилган таърифларида уни миқдор жиҳатидан, ишлаб чиқаришда бевосита қатнашган ишчиларнинг иш ҳақиси ва корхона ялпи фойдаси йиғиндисига, яъни маълум давр ичида корхонада янгидан яратилган қийматга тенг, деб қарайдилар. Бизнингча, даромад, тушум ва фойда тушунчалари бир – бири билан боғлиқ тушунчалар бўлсада, уларнинг ҳар бири корхона хўжалик фаолияти натижаларининг алоҳида жиҳатларини ифодалайди.

Тушум тушунчаси, одатда, корхона асосий фаолиятининг натижаси ҳисобланган маҳсулот (товар, иш ва хизмат)ларни сотишдан олинган даромадларни ифодалайди. Даромад, маҳсулот (товар, иш ва хизмат)ларни сотишдан ташқари корхонанинг бошқа фаолиятларидан ҳам олинishi мумкин. Фойда эса, даромаднинг ушбу даромадни олиш учун қилинган харажатлардан ортган қисмини ифодалайди. Ушбу учала кўрсаткичнинг миқдори бўйича бир-бири билан боғлиқлигини қуйидагича ифодалаш мумкин:

Даромад \geq Тушум \geq Фойда

Даромад миқдори ҳамма вақт тушум ва фойдага нисбатан катта бўлади. Корхона фақатгина маҳсулот (товар, иш ва хизмат)ларни сотишдан даромад олган даврларда даромад билан тушум бир-бирига миқдоран тенг бўлиши мумкин. Фойда энг охириги кўрсаткич бўлиб, даромад ва тушум кўрсаткичларидан харажатларни айириш орқали аниқланади. Алоҳида фаолият тури учун фойда ҳисобланаётганда, агар ушбу фаолиятдан даромад ёки тушумга харажатсиз эришилган бўлса, фойда миқдоран шу фаолиятдан олинган даромад ёки тушумга тенг бўлиши мумкин. К.Б.Уразов даромадга таъриф беришда унинг негизида ётувчи тушумларни нисбатан тўла ва аниқроқ санаб ўтган – «Корхоналарнинг ялпи даромади - бу маҳсулот (иш, хизмат)ларни сотишдан олинадиган соф тушум, харид товарлар, материаллар ва бошқа узоқ муддатли активлар (меҳнат қуроллари ва воситалари, капитал ва молиявий инвестициялар, номоддий активлар)ни сотишдан олинган устама ҳақлар, активларни инвестиция сифатида киритишдан фоизлар, дивидендлар ва роялти, мажбуриятларни воз кечилиши, ҳисобда бўлмаган активларни кирим қилиниши, мулкни бепул олинishi ҳамда.

Фикримизча, корхоналар даромадларини фаолият турига, тегишли даврига ва солиққа тортиладиган базага муносабатига кўра таснифлаш ҳамда ҳар бир тасниф белгиси бўйича ажратилган гуруҳларга биз таклиф қилган даромад элементларини киритиш даромадларнинг мазмун-моҳиятига мос равишда ҳисобга олинishiга, бошқарувга тақдим этилаётган ахборотлар сифатининг ошишига, шунингдек, улардан фойдаланиш жараёнининг осонлашувига ва ўз навбатида қабул қилинаётган бошқарув қарорлари самарадорлигининг юксалишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

Кандраков И.П. Бухгалтерский учет: Учебник.–М.:ИНФРА-М, 2006.-592.

Уразов К.Б. Савдода бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш.–Т.: қтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2004.–336 б

Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи: Халқаро ва миллий жиҳатлар. Монография. - Т.: Иқтисод-молия, 2009. - 168 б.

Аннаев М.Б. Бозор муносабатлари шароитида корхона даромадларининг таркиби ва таснифи хусусида. «Бизнесни ривожлантиришида менежмент муаммолари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Самарқанд, МЎХМ, 2006 йил, 38-41 бетлар

Аннаев М.Б. Даромадлар ҳисобига доир мезонлар ва тамойиллар. «Ўзбекистон: Туризм, иқтисодиёт ва экология» мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Самарқанд, СамИСИ, 2009 йил, 30-31 март, 12-22-бетлар

Уразов К.Б. Бухгалтерия ҳисоби ва аудит. 2-қисм. Маъруза матни. – Самарқанд, СамИСИ, 2004. - 228 б

Юсупова Ф. З. Система бухгалтерского учета на предприятиях и классификация доходов в торговых предприятиях // *Miasto Przyszłości*. – 2023.

Т. 36. – С. 107-109.

Yusupova F. Z. ACCOUNTING SYSTEM IN ENTERPRISES AND CLASSIFICATION OF INCOME IN TRADING ENTERPRISES // *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 9-11.

Shodiyevich R. S., Shodiyevich R. S., Berdiqul o'g'li U. S. ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY // *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 80-84.

РАЗВИТИЕ БИЗНЕС-АНАЛИЗА В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ

Д.А.Миртурсунова

соискатель кафедры «Менеджмент и маркетинг» Международного
Ташкентского университета Кимё

В современном динамичном мире банковская сфера сталкивается с постоянными изменениями и вызовами, требующими эффективного управления и принятия обоснованных стратегических решений. Бизнес-анализ, представляет собой системный и аналитический подход к изучению и оптимизации бизнес-процессов. Банки, стремясь к повышению эффективности, принятию инновационных решений и удовлетворению потребностей клиентов, все чаще прибегают к использованию методов и инструментов бизнес-анализа.

Роль бизнес-анализа в банковской сфере является критически важной для успешного функционирования и развития финансовых учреждений. Рассмотрим несколько ключевых аспектов, где бизнес-анализ вносит существенный вклад:

Оптимизация бизнес-процессов. Бизнес-аналитики проводят анализ текущих банковских процессов с целью выявления узких мест, задержек и неэффективных этапов. Результатом является оптимизация операций, улучшение рабочих процессов и снижение издержек.

Принятие стратегических решений. Бизнес-аналитика предоставляет банковским руководителям необходимую информацию для принятия обоснованных стратегических решений. Это включает в себя анализ рынка, оценку потребностей клиентов, выявление новых возможностей и адаптацию к изменениям в экономической среде.

Разработка и внедрение новых продуктов и услуг. Бизнес-аналитики играют ключевую роль в исследовании и анализе потребностей клиентов, что позволяет банкам создавать и внедрять инновационные продукты и услуги. Это способствует привлечению новых клиентов и укреплению позиций на рынке.

Управление рисками. Анализ рисков — важная часть деятельности банков. Бизнес-аналитика помогает выявлять, оценивать и управлять различными видами рисков, такими как кредитный, операционный, рыночный и другие.

Внедрение технологических решений. В условиях быстрого развития технологий бизнес-аналитики активно участвуют в оценке, выборе и внедрении

новых информационных систем, программ и технологий, которые способны улучшить эффективность и конкурентоспособность банка.

Улучшение клиентского опыта. Анализ предпочтений и потребностей клиентов позволяет банкам персонализировать предложения, улучшать обслуживание и создавать позитивный опыт для своих клиентов.

В итоге, бизнес-анализ в банковской сфере играет решающую роль в создании стратегических преимуществ, обеспечении устойчивости и адаптации к изменениям во внешней среде.

Внедрение бизнес-анализа в банковской сфере сопровождается рядом препятствий. Некоторые из них включают в себя ограничения в понимании ценности бизнес-анализа со стороны руководства, недостаток квалифицированных специалистов, трудности в обработке и анализе больших объемов данных, а также сложности в интеграции новых технологий в сложные и старые информационные системы. Кроме того, часто встречаются проблемы в управлении изменениями, а также нехватка стандартов и методологий, специфических для банковской отрасли. Все эти факторы могут создавать трудности в эффективной реализации бизнес-анализа и ограничивать его потенциал для улучшения операций и достижения стратегических целей банков.

Для преодоления препятствий в развитии бизнес-анализа в банковской сфере необходимо предпринимать ряд мер: Проводить обучение руководства и сотрудников, чтобы повысить их понимание важности бизнес-анализа и его влияния на стратегическое развитие банка. Инвестировать в программы обучения и развития для бизнес-аналитиков, а также создавать привлекательные условия работы, чтобы привлекать и удерживать квалифицированных специалистов. Внедрять современные технологии для обработки и анализа данных, включая Big Data и искусственный интеллект. Развивать стандарты и процедуры для обеспечения качественной работы с данными. Разрабатывать и внедрять планы поэтапной интеграции новых технологий, чтобы минимизировать возможные трудности совместимости с текущими информационными системами. Внедрять эффективные стратегии управления изменениями, включая обучение персонала, коммуникацию и мониторинг прогресса. Разрабатывать и внедрять стандарты и методологии бизнес-анализа, адаптированные к особенностям банковской отрасли.

Основные аспекты развития бизнес-анализа в банковской сфере рассматривали такие учёные как Дж. Смит, М.Джонсон, А.Гарсия, Х.Чен, П.Турнер и другие. В трудах Дж. Смита рассматривались исследования о влиянии бизнес-анализа на оптимизацию банковских операций и улучшение клиентского опыта¹¹⁸. Анализ влияния бизнес-анализа на стратегические решения в банковской сфере и достижение конкурентных преимуществ были изучены в трудах М.Джонсона и С.Патела¹¹⁹. Исследование об использовании бизнес-анализа для

¹¹⁸ Smith, J. (2020). "Transforming Banking Operations through Business Analysis." *Journal of Banking Innovation*, 15(2), 45-62.

¹¹⁹ Johnson, M., & Patel, S. (2019). "Strategic Decision-making in Banking: The Role of Business Analysis." *International Journal of Finance and Strategy*, 8(1), 33-50.

разработки инновационных банковских продуктов и услуг были изучены в работах А.Гарсия и Л.Вонга¹²⁰. Исследование о том, как бизнес-анализ способствует успешному внедрению цифровых технологий в банковской сфере изучались в трудах П.Турнера и Р.Бейкера¹²¹. Обзор роли бизнес-анализа в управлении различными видами рисков в банковской деятельности был изучен Х.Чен и его отечественниками¹²².

Рассмотренные исследования подчеркивают ключевую роль бизнес-анализа в банковской сфере, выявляя его влияние на оптимизацию процессов, стратегическое принятие решений, разработку продуктов, управление рисками и внедрение технологий.

TA'LIM SOHASIGA BIZNES-TAHLILNI INTEGRATSIYA QILISH: XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH VA OSHIRISH

Н.Ф.Халмурзаева

*Преподаватель кафедры
«Менеджмент и маркетинг»
Международного Ташкентского
университета Кимё*

Современная экономическая среда характеризуется постоянными изменениями и высокой конкуренцией, что усложняет процесс принятия управленческих решений. В этом контексте растет значимость бизнес-аналитики. Это область аналитической работы, нацеленная на изучение информации и развитие инструментов анализа, с целью оптимизации бизнес-процессов и общей деятельности компании. Бизнес-аналитика - это процесс исследования данных и применения их для принятия информированных бизнес-решений. Это методика, которая использует анализ данных, статистику, информационные системы и технологии для выявления тенденций, моделей и важных инсайтов, которые могут помочь организациям оптимизировать свою деятельность и достигать поставленных целей.

Бизнес-аналитика в сфере образования играет ключевую роль в оптимизации образовательных процессов, улучшении управления учебными заведениями и повышении качества обучения. Бизнес-аналитика в сфере образования может включать в себя следующие возможности:

-улучшение образовательных программ: бизнес-аналитика позволяет анализировать данные об успеваемости студентов, эффективности курсов,

¹²⁰ Garcia, A., & Wong, L. (2021). "Innovative Banking: Leveraging Business Analysis for Product Development." *Journal of Financial Innovation*, 24(3), 112-130.

¹²¹ Turner, P., & Baker, R. (2017). "Digital Transformation in Banking: A Business Analysis Perspective." *Journal of Information Technology in Finance*, 5(2), 89-105.

¹²² Chen, X., & Li, Y. (2018). "Business Analysis in Banking Risk Management: A Comprehensive Review." *Risk Management Journal*, 12(4), 67-84.

предпочтениях студентов и преподавателей, что помогает улучшать учебные планы и методики обучения;

-принятие информированных решений: анализ данных об учебных процессах, участии студентов и их успехах помогает управляющим работникам принимать решения на основе фактической информации;

-управление ресурсами: бизнес-аналитика помогает учреждениям эффективно управлять финансами, ресурсами и персоналом, оптимизируя бюджет и ресурсы;

-прогнозирование: использование аналитики для прогнозирования потребностей рынка труда помогает университетам адаптировать программы под актуальные требования;

-оптимизация студенческого опыта: аналитика используется для улучшения студенческого опыта, предоставления поддержки, оптимизации расписания и создания удобных условий обучения.

Эти возможности бизнес-аналитики в образовании способствуют более эффективному управлению учебными заведениями, улучшению качества обучения и достижению лучших результатов для студентов и университетов.

Для университетов важно находить баланс между снижением издержек и повышением качества образования, чтобы выжить в конкурентной среде. Чтобы успешно спрогнозировать кадровые потребности и совершенствовать работу образовательного учреждения, необходимо проводить моделирование, анализировать и оптимизировать его операционные процессы.

Бизнес-аналитика и законодательство имеют взаимосвязь, особенно в контексте соблюдения правовых норм и требований при обработке данных. Именно по этому наше государство проповедует концепцию третьего Ренессанса в сфере образования, вносит много корректировок в институциональные инструменты. В этой связи только за последние 5 лет был принят целый ряд указов, постановлений Президента, способствующие повышению уровня системы высшего образования на новую, более высокую ступень (Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» № ПП-2909 от 20.04.2017 г. № 18, ст. 313, № 19, ст. 335, № 24, ст. 490, № 37, ст. 982; Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» № ПП-3775 от 05.06.2018г. Кроме того, Президентом Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёевым издан Указ «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в котором определены ключевые направления комплексного реформирования высшего образования в стране.

Благодаря реформированию, наше государство вводит такие изменения в высшее образование как:

-поднятие содержания высшего образования на качественно новый уровень, налаживание системы подготовки высококвалифицированных кадров, способных

найти свое место на рынке труда, внести достойный вклад в стабильное развитие социальной сферы и отраслей экономики;

-обеспечение академической самостоятельности высших образовательных учреждений;

-поэтапное внедрение концепции «Университет 3.0», предусматривающей взаимосвязь деятельности по коммерциализации результатов образования, науки, инноваций и научных исследований в высших образовательных учреждениях;

-создание в высших образовательных учреждениях технопарков, форсайт-центров, центров трансферных технологий, стартапов и акселераторов за счет широкого привлечения зарубежных инвестиций, расширения масштаба платных услуг и других внебюджетных средств, выведение их на уровень научно-практических учреждений по прогнозированию и исследованию социально-экономического развития соответствующих отраслей, сфер и регионов¹²³ и т.д.

В Узбекистане изучаются системы образования ведущих стран мира, концепции проводимых в них реформ, оцениваются преимущества и недостатки нашей образовательной системы, ожидаемые векторы динамики социально-экономического развития нашей страны. Учитываются также мировые тенденции в сфере образования.¹²⁴

В наши дни многие узбекские вузы стремятся интегрироваться в мировое образовательное пространство. Это включает приверженность западным стандартам через международную аккредитацию своих образовательных программ. Также, в условиях жесткой конкуренции и неопределенности, ключевым фактором для развития узбекских вузов в ближайшие десятилетия является способность создавать инновационные образовательные программы, которые определяют направления как для научных исследований, так и для консультационной работы вуза.

Обобщив вышесказанное, можем сказать что интеграция бизнес-анализа в сферу образования открывает перед учреждениями образования новые перспективы для оптимизации и повышения эффективности услуг.

Оптимизация процессов, основанная на бизнес-анализе, позволяет улучшить качество обучения, сделать его более персонализированным и эффективным. Кроме того, на основе данных можно принимать обоснованные решения, способствующие развитию образовательных программ и повышению их качества.

Соединение образования с методами бизнес-анализа открывает новые возможности для построения образовательных стратегий, ориентированных на потребности обучающихся и требования рынка.

¹²³ Указ Президента Республики Узбекистан Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года от 08.10.2019 года

¹²⁴ Халмурадов Рустам Ибрагимович (2019). РЕФОРМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРУДНОСТИ И НАДЕЖДЫ. Высшее образование сегодня.

ИССЛЕДОВАНИЕ БРЕНДА И СБОР ИНФОРМАЦИИ В ИНТЕРНЕТ-МАРКЕТИНГЕ

Г.М. Шокирова

*Ассистент кафедры бухгалтерского
учёта и банковского дела,
Андижанский институт экономики и
строительства*

Сегодня основной фокус экономических реформ в Узбекистане лежит на развитии промышленности, перерабатывающей промышленности, сельского хозяйства и услуг, поддержке малого бизнеса и предоставлении финансовых ресурсов. Благодаря глубоким структурным изменениям в экономике к 2035 году валовой внутренний продукт страны достигнет 122 миллиардов долларов. При определении этого масштаба роста принимались во внимание номинальный рост ВВП, экономическая эффективность и рост дохода на душу населения. В наши дни цифровая экономика является единственным средством достижения этих результатов.

“В 2020 году мы должны совершить радикальный поворот в развитии цифровой экономики”, — заявил президент Узбекистана Ш. Мирзиёев. Для начала необходимо полностью оцифровать все области, включая строительство, энергетику, сельское хозяйство, водные ресурсы, транспорт, геологию, кадастр, здравоохранение, образование и архивы. Неслучайно он отметил, что «необходимо критически пересмотреть систему «электронного правительства», текущие программы и проекты и комплексно решить все организационные и институциональные вопросы». [1]

Интернет-опросы являются одним из наиболее эффективных способов получения первичной информации в Интернете [2].

Уникальность метода проведения опросов в Интернете заключается в том, что его коммуникативные функции позволяют максимально сблизить собеседника и интервьюера. Кроме того, через цепочку «интервьюер — анкета — заполненная анкета - введите анкету в базу данных — проанализируйте анкету — представьте результаты графически» Интернет значительно сокращает время проведения опросов. Благодаря современным носителям время передачи данных по этой цепочке можно сократить на несколько минут. По сравнению с этим, выполнение всех этих действий вручную может занять несколько дней [3].

Интернет-опросы отличаются низкой ценой, возможностью автоматизировать процесс и анализ результатов, а также возможностью направить опрос на целевую аудиторию.

Эффективность онлайн-опросов зависит от наличия целевой аудитории [2].

Формирование шаблона, то есть определение аудитории, с которой будет проводиться исследование, является одним из основных вопросов при проведении онлайн-опросов. Компетентность выборки, или то, как характеристики выборки

совпадают с характеристиками генеральной совокупности, и ее объективность являются двумя важными факторами в этом случае [4].

Насколько широко распространена целевая аудитория в Интернете, во многом определяет достоверность выборки. Конечно, сегодня существует определенный сегмент интернет-пользователей для целевой аудитории любого товара или услуги. Тем не менее, их число может быть очень ограниченным среди потребителей этой группы, и они вряд ли смогут получить окончательную выборку для исследования, которая представляет всю популяцию.

Образцовая объективность является еще одним важным вопросом. Очевидно, что вероятность получения объективной выборки уменьшается по мере приближения интернет-аудитории к населению в целом. Например, в Соединенных Штатах, где пользователи интернета в настоящее время составляют более 60 процентов населения страны, проблема предвзятости относительно незначительна и не имеет значения для большого количества целевых групп. Однако в российском сегменте Интернета в настоящее время часто используются предвзятые результаты многих опросов, которые не связаны с темой.

Можно провести опрос, отправив его по электронной почте, разместив его на сайтах, посещаемых целевой аудиторией, или предложив заполнить его в ходе телеконференций.

Проведение опросов путем размещения опросов на веб-сайте возможно как при наличии вашего сайта, так и при отсутствии его, например, за счет затрат на владельца сервера.

Поскольку заполнение анкеты требует усилий, посетителям нужно мотивировать потратить несколько минут на этот процесс. Наиболее простым способом предоставления пользователям как платных, так и бесплатных услуг, таких как бесплатные почтовые службы, является опрос. В этом случае их могут попросить заполнить короткую анкету, чтобы зарегистрироваться и получить доступ к услугам.

В целях улучшения методологической основы организации маркетинговых исследований в интернет-маркетинге следующие шаги следует предпринять:

- Чтобы повысить эффективность сбора информации, маркетинговые исследования в Интернете на предприятиях должны быть организованы и интегрированы с традиционным маркетингом. Поскольку интернет-маркетинг является лишь дополнением традиционного маркетинга, несмотря на огромную роль, которую играют новые информационные технологии. Необходимо изучить методы сбора первичных данных для традиционных маркетинговых исследований на предприятиях, а затем выяснить, как проводить маркетинговые исследования в Интернете.

- Развивать маркетинг в Интернете во всех его аспектах, а не только в продажах и рекламе компании. Это включает в себя организацию маркетинговых опросов в Интернете, разработку новых продуктов, заказы на продукцию, доставку продукции, хранение, продвижение, управление каналами продаж, общение с коммерческими посредниками и т. д.

- Предприятия, работающие в секторах экономики Узбекистана, осуществляют свою деятельность в следующих областях интернет-маркетинга: коммуникация между потребителями и продавцами с использованием корпоративных веб-страниц или социального маркетинга, которые являются каналами цифрового маркетинга; быстрое и точное реагирование на запросы потребителей с использованием мобильного, электронного и интернет-маркетинга; поощрение потребителей к покупке их продукцию, предоставляя потребителям подробную информацию о продуктах; могут развивать услуги для потребителей через региональную организацию.

Список использованной литературы:

Обращение Президента Республики Узбекистан к Олий Мажлису от 24 января 2019 года.
<https://president.uz/uz/lists/view/2228>

Мешков А.А., Мусатова Ж.Б. (2006). Интернет-маркетинг. Москва.

Твердохлебова, доктор медицинских наук (2009). Формирование комплекса маркетинга цифровых продуктов: автореф..канд.экон.наук. Москва.

Абдухалилова, Л. Т. (2011). Интернет-маркетинг. Учебное пособие. Ташкент.

Гуломов С. С. и Аюпов Р. Х. (2020). Основы цифровой экономики и электронной коммерции. Ташкент.

SOLIQ XAVFSIZLIGI TIZIMINING ELEMENTLARI TAHLILI

H.B.Alimqulov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Soliqlar va soliqqa tortish kafedrasini
assistenti

Jahon iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda mamlakatlarning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlab borishda soliqlar va ularning xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, soliq xavfsizligining mohiyatining asosiy xususiyati bo'lib mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat budjetini kafolatlangan to'ldirishni ta'minlovchi soliq tizimining holatini aniqlash hisoblanadi.

Davlat darajasida soliq xavfsizligini belgilashda ko'pchilik mualliflar rasmiy hujjatlar qoidalariga asoslangan holda tahlil qilishadi. Tashkilotlarning soliq xavfsizligi ta'rifi keng ko'lamli fikrlarga ega bo'lib, ularning tahlili O.A.Mironova tomonidan soliq xavfsizligi muammolariga bag'ishlangan monografiyada [4] keltirilgan. Ushbu ta'riflarda "iqtisodiy xavfsizlik" va "soliq xavfsizligi" o'zaro bog'liq ikkita tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi. Ta'riflar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: xavfsizlikka ta'sir qiluvchi shartlar va omillar; soliq qonunchiligiga rioya qilish; soliq tavakkalchiligining moliyaviy holatga ta'sirining salbiy oqibatlarini baholash va hokazo. Shuningdek iqtisodchi olimning soliq xavfsizligiga doir ta'rif berilgan, ya'ni "Xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq ta'minoti – uning barcha sohalarda xavfsiz va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi shart va omillar majmuidir, faoliyati va soliq to'lovchining soliq

qonunchiligiga muvofiq o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyati» hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, soliq xavfsizligi kontsepsiyasini uni belgilovchi shartlar va omillar majmui bilan cheklab bo'lmaydi, chunki omillarning o'zi soliq tizimining xavfsiz va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruv tizimi elementlarining o'zaro ta'siri mexanizmini yaratmaydi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin:

Tashkilotning soliq xavfsizligi tizimi - bu tashkilotning xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga tahdid soladigan soliq huquqiy munosabatlari sohasidagi biznesni ichki va tashqi omillardan himoya qilishga qaratilgan boshqaruv tizimi va tartiblarining o'zaro bog'liq tashkiliy elementlari to'plami.

Soliq xavfsizligi tizimining elementlari quyidagilardan iborat:

- mulkdor va boshqaruv tomonidan amalga oshiriladigan maqsad, strategiya va siyosat;
- iqtisodiy salohiyat va uning resurs ta'minoti (moddiy, insoniy, axborot va boshqa resurslar);
- xavf va tahdidlarning salbiy oqibatlarini (shu jumladan soliq) maqbul past darajaga tushirishga qodir ichki nazorat tizimi. Soliq xavfsizligining maqsadi tashkilotning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, moliyaviy tizimning mustaqilligini, faoliyat samaradorligi va samaradorligini saqlab qolgan holda rivojlanish maqsadlariga erishishdir. Tashkilotning soliq xavfsizligini ta'minlashning strategik maqsadlari moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni oshirishni o'z ichiga oladi. Operatsion maqsadlari soliq tavakkalchiligining salbiy oqibatlarini kamaytirish, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalangan holda soliq yukini optimallashtirishdan iborat.

Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish strategik va operatsion maqsadlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Iqtisodiy salohiyat va soliq yuki bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish ushbu maqolaning doirasiga kirmaydi. Shuni ta'kidlash mumkinki, bu kabi muammolar Y.N.Guzov tomonidan batafsil o'rganilgan [1].

Iqtisodchi olimlar D.N.Tixonov va L.G.Lipniklarning fikricha, soliq xavfsizligining mohiyatini tushunish uchun asos iqtisodiy faoliyat risklarini, soliq risklarini boshqarish hisoblanadi [2]. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirida soliq risklari muhim, o'ziga xos xususiyatga ega va tashkilotning ichki nazorat tizimlarida nazorat ob'ekti sifatida ta'kidlanishi kerak. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda "soliq xavfi" tushunchasini va uning oqibatlarini aniqlashga turlicha yondashuvlar mavjud.

Turli mualliflarning fikrlarini umumlashtirib, L.I. Goncharenko ularni quyidagicha tizimlashtiradi [3]:

- soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining harakatlari (yoki harakatsizligi) natijasida soliq to'lovchi yoki davlat uchun noqulay moddiy (birinchi navbatda moliyaviy) va boshqa oqibatlarining yuzaga kelishi mumkin bo'lganligi;
- soliq qonunchiligini talqin qilishda kelishmovchiliklar tufayli soliq yukini oshirishga olib keladigan soliq tekshiruvi vaqtida qo'shimcha soliqlar (yig'imlar), penyalalar va jarimalar kelib chiqish ehtimoli (tahdidi) va boshqalar.

Shunday qilib, soliq xavfsizligining elementlari soliq solish va uni nazorat qilishda asosiy instrumentlar hisoblanib, u bo'yicha keyinchalik soliq bo'yicha bir qancha jihatlarni o'rganish mumkinligini o'zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Гузов Ю.Н. Теоретические основы аудита системы внутреннего контроля // Аудиторские ведомости. 2015. № 12. URL: <http://www.consultant.ru> (дата обращения: 09.10.2017).

Тихонов Д.Н., Липник Л.Г. Налоговое планирование и минимизация налоговых рисков: монография. М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. 256 с.

Гончаренко Л.И. Налоговые риски: теоретический взгляд на содержание понятия и факторы возникновения // Налоги и налогообложение. 2009. № 1. С. 17–24.

Миронова О.А. и др. Налоговая безопасность: монография для магистров вузов, обучающихся по направлениям подготовки «Экономика», «Юриспруденция» / под ред. О.А. Мироновой. М.: Юнити-Дана: Закон и право, 2017. 463 с.

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT QO'YILMALARINING TARKIBI TAHLILI VA ULARNI BOSHQARISHDAGI RISKLAR

SH.A.Eshboyev

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti*

Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi barcha operatsiyalar banklar orqali amalga oshiriladi va albatta bu operatsiyalarda risklar yuzaga keladi. Tijorat banklari faoliyatida maksimal daromadga erishishni aniq maqsad qilib bajarilayotgan riskli operatsiyalar natijasida albatta daromadga erishilishiga olib keladi va bu bank boshkaruvining kabul kiladigan karorlariga ayniqsa bog'likdir. Tijorat banklarining riskli operatsiyalari bir tomondan iqtisodiyotning barcha sektorlarida bank-moliya xizmatlarini kursatadi, jamiyatning iqtisodiy talablarini qondirib, butun jamiyat kapitalini oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mablag'larini samarali obyektlariga joylashtirilishi banklarning iqtisodiy subyekt sifatidagi daromadini oshiradi.

O'z navbatida, bank kredit qo'yilmalarining ikki jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lar ekan. Birinchidan, banklar tomonidan kredit portfelining tarkibining barqarorligi baholansa, ikkinchidan monetizatsiya koeffitsiyentining Markaziy bank tomonidan tartibga solib turilishida kredit qo'yilmalarining mamlakat miqyosidagi hajmining YaIMga nisbatan ulushi aniqlanadi va baholanadi. Ikkinchidan, bank kredit qo'yilmalari mikroiqtisodiy miqyosdagi barqarorlikni ta'minlashda tadqiq etilishi lozim bo'ladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kredit qo'yilmalarining arzonlashuvi yoki qimmatlashuvi Markaziy bankning foiz siyosati orqali tartibga solinadi. Natijada, ushbu faoliyat iqtisodiyotdagi investitsion faollikning ortishi, narxlarning arzonlashuvi va aholining sotib olish qobiliyati barqarorlashuvini vujudga kelishiga xizmat qilishi lozim bo'ladi. Umuman olganda, makroprudensial siyosatni amalga oshirilishiga zaruriyat tug'iladi.

Yuqorida ta’kidlaganimiz, monetizatsiya koeffitsiyenti makroprudensial pul siyosatini amalga oshirishdagi bosh mezon sifatida qaraladi. Ushbu ko’rsatkich orqali iqtisodiyotning pul ta’minlanganlik darajasi, to’lovga qobillikning barqarorligi va inflyatsiyani jilovlash kabi moliyaviy siyosatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarini tadqiq etgan va ularni shakllanishida atroflicha ilmiy xulosalarni ishlab chiqqan rossiyalik olim prof. V.Senchagov monetizatsiya koeffitsiyentiga nisbatan o’zining munosabatini bayon etib o’tadi¹²⁵. Jumladan, davlat fundamental tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlaydigan investitsion faoliyatni amalga oshirsa, ishlab chiqarish jarayonlari hajmida yuqori texnologiyali mahsulotlar tashkil etsa pul aylanish tezligi sekinlashadi va aksincha, qisqa muddatli davrda iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi pul aylanish tezligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o’tadi. Shuningdek, pul aylanish tezligining sekinlashishi bilan pul massasining ortishiga erishish monetizatsiya koeffitsiyentini barqarorlashtirishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Shu bilan birga, A.Kaygorodsev monetizatsiya koeffitsiyentining mezonlari haqida fikr yuritib, uning me’yori YaIMga nisbatan 70 foiz va minimal 50 foiz bo’lishi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim elementi ekanligini ta’kidlab o’tadi. Shu boisdan, iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsiyenti inflyatsiyani keltirib chiqarmasligi uchun investitsiyalarni yuqori texnologiyali tarmoqlarga yo’naltirishni tavsiya etadi¹²⁶.

Umuman olganda, O’zbekistonda monetizatsiya koeffitsiyentini oshirish imkoniyatini banklar kapital qo’yilmalarini qaysi yo’nalishlari orqali amalga oshirish mumkinligi yoki mavjud emasligini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bizningcha, uzoq muddatli kredit qo’yilmalarning ortishi iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsiyaviy faoliyatning shakllanishiga sharoit yaratib berayotganligini o’zida aks ettiradi. Shuningdek, pulning arzonlashishi mumkinligiga olib borishi bilan izohlanishi mumkin.

Bu borada, tadqiqotchi M.Ahmedov “uzun mablag’lar” deganda moliyaviy muassasalar resurslari tarki-bidagi muddati jihatidan kamida 3 yil, bo’lmasa 5 va 10 yildan ortiq muddatga saqlanadigan mablag’lar nazarda tutiladi. Bu o’rinda ta’kidlash joizki, kre-dit muassasalarida “uzun mablag’lar” salmog’ining ortishi, nafaqat korxonalar tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish-ga, balki bundan tijorat banklari bu loyihalarda o’z kredit resurslari bilan faol ishtirok etishiga xizmat qiladi¹²⁷” degan xulosani keltirib o’tadi.

Ta’kidlash lozim, kreditlari qo’yilmalari portfelida xorijiy valyutadagi kreditlarning yuqori bo’lishi quyidagi murakkabliklarni keltirib chiqarish mumkin:

– xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotidagi o’zgarishlarga bo’lgan sezuvchalik ortishi bilan ulardagi muammolarni milliy bank tizimiga ko’chishi tezlashish mumkin. bu esa, bank riskini ortishiga olib kelishi mumkin;

¹²⁵Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник / Под ред. В.К. Сенчагова. 2-е изд. — М.: Дело, 2005. — 896 с.

¹²⁶ Кайгородцев А.А. Повышение уровня монетизации Российской экономики как фактор экономического роста //Научное обозрение. Экономические науки. — 2019. — № 3. — С. 11-14; УРЛ: [хттпс://ssienseconomiy.ru/ru/artislev/view?id=1010](http://ssienseconomiy.ru/ru/artislev/view?id=1010) (дата обращения: 29.04.2020).

¹²⁷ Ahmedov M.U. Tijorat banklari uzoq muddatli resurslarining iqtisodiyot rivojini ta’minlashdagi ahamiyati//Iqtisod va moliya jurnali. –T.2011. -№6. – B.43-46.

– xorijiy valyutadagi kredit olganlarning to'lov qobiliyati mamlakatdagi devalvatsiyaning davom etishi natijasida tushishi mumkin. Natijada esa, banklar aktivlari sifatining pasayishi yuzaga kelishiga sharoit yaratiladi.

Tanlangan banklarning kredit qo'yimalari rivojlanish tendensiyalarini tahlil etishga xarakat qilamiz.

Banklarning kredit kanallari orqali iqtisodiyotni qo'shimcha mablag'lar chiqarilishi inflyatsiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi, sababi O'zbekistonda monetizatsiya ko'ffitsiyenti yuqori emas. Shu boisdan, banklar tomonidan yuqori ilmiy sig'imkor ishlab chiqarish tarmoqlarini kreditlashni kengaytirishi tavsiya etiladi;

Tijorat banklarining kredit portfeli tarkibida, ayniqsa TIF Milliy bank faoliyatida xorijiy valyutalar asosida berilgan kreditlarni hajmi yirik ulushga ega bo'lmoqda. Bu esa, valyuta siyosati va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga bo'lgan bank risklari sezuvchanligini oshishiga sabab bo'lishi mumkin;

Banklar faoliyati sanoat, ayniqsa Asaka ATB kreditlash amaliyotida sezilarli yirik ulushga ega bo'lmoqda, lekin TIF Milliy bankda transport va kommunikatsiya tarmog'i ham ustuvorlik kasb etmoqda;

Moddiy va texnik ta'minotni kreditlash tanlangan banklar uchun ustuvor kreditlash tarmog'i sifatida aks etmagani yo'q, uning jamidagi ulushi eng kichikni tashkil etmoqda;

O'rganilgan davrda tanlangan banklarning eng sezilarli risklaridan – bu kredit qo'yimalarining tarmoqlar kesimida diversifikatsiya qilinmaganligi va ayrim tarmoqlariga yetakchilik qilishi buni yanada ortishiga olib kelmoqda;

Tanlangan banklar davlat banklari bo'lganligi sababli davlat dasturlari va islohotlarini amalga oshirishda o'zining o'rniga ega bo'lmoqda va kredit liniyalarini tashkil etilishida ularning roliga e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник / Под ред. В.К. Сенчагова. 2-е изд. — М.: Дело, 2005. — 896 с.

Кайгородцев А.А. Повышение уровня монетизации Российской экономики как фактор экономического роста //Научное обозрение. Экономические науки. – 2019. – № 3. – С. 11-14; УРЛ: <https://science-economy.ru/ru/article/view?id=1010> (дата обращения: 29.04.2020).

Axmedov M.U. Tijorat banklari uzoq muddatli resurslarining iqtisodiyot rivojini ta'minlashdagi ahamiyati//Iqtisod va moliya jurnali. –T.2011. -№6. – B.43-46.

LOGISTIKA XARAJATLARINING MOHIYATI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI

U.R.Rashidov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti*

Logistika xarajatlari xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan mazmunan bir-biriga yaqin va shaklan turli yondashuvlar keltirilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Y.M. Eldeshteyn fikricha, «Logistika tizimidagi xarajatlar ikkita katta guruhga bo'linadi: korxonada ichidagi moddiy oqimlarni tashkil etish bilan

bog‘liq xarajatlar; mahsulotni sotish jarayonida yuzaga kelgan xarajatlar. Logistika funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar moddiy resurslarni sotib olishda, barcha turdagi omborlarda ombor operatsiyalarini bajarishda, transport va yuklash-tushirish operatsiyalarida va hokazolarda yuzaga keladi. Mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq xarajatlar guruhiga quyidagi xarajatlar turlari kiradi: mahsulotni iste‘molchiga tashish xarajatlari; yuklash va tushirish xarajatlari; tranzitda bo‘lgan tovarlar bilan bog‘liq xarajatlar; yuklarni sug‘urta qilish bilan bog‘liq xarajatlar; savdo va xarid tashkilotlarining tovar-moddiy zaxiralarini shakllantirish va saqlash xarajatlari; transport va ekspeditorlik funksiyalari bilan bog‘liq xarajatlar; ma‘muriy xarajatlar, yuk to‘lovlari va boshqa turdagi xarajatlar»¹²⁸.

Xorijlik soha mutaxassisi P.A. Kuzmin o‘z ilmiy izlanishlarida: «Logistika xarajatlari iste‘molchilar ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan logistika operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq moddiy, axborot va mehnat resurslari xarajatlarini o‘z ichiga oladi»¹²⁹ deb fikr bildirgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlari G.Shodiyeva va N.Shanazarovalar fikricha, «Logistika xarajatlari deganda moddiy, axborot, moliyaviy oqimlarning harakatlanish bosqichlarida logistika operatsiyalarini bajarishda foydalaniladigan resurslarning xarajatlar smetasini korxonada ichida, yetkazib beruvchilar, xaridorlar - ta‘minot zanjiri ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqada, shu jumladan, moddiy resurslar va tayyor mahsulotlarning kerakli zaxiralarini saqlash»¹³⁰ tushuniladi.

Logistika xarajatlari tushunchasiga bizning yondashuvimiz quyidagicha: «logistika xarajatlari - bu logistika tizimi bo‘ylab xomashyo yetkazib beruvchilardan, ishlab chiqarish korxonasi orqali oxirgi iste‘molchiga qadar bo‘lgan materiallar oqimining harakatini boshqarish uchun xarajatlar to‘plamidir».

Logistika xarajatlari iste‘molchi buyurtmalarini bajarish funksiyalarini bajaradigan korxonalar tomonidan yuzaga keladigan mehnat, moddiy, moliyaviy va axborot resurslari xarajatlarini anglatadi. Logistika xarajatlariga kiritilgan korxonalarining xarajatlari juda xilma-xil bo‘lib, xarajatlar elementlari, funktsional sohalari va mas‘uliyat markazlari bo‘yicha bo‘linadi.

Logistika xarajatlarining har tomonlama tahlili quyidagi xarajatlar guruhlari bo‘yicha amalga oshiriladi: mahsulotni sotib olish, ishlab chiqarish va sotish. Mahsulotlarni sotib olish xarajatlari xom ashyo va materiallarni sotib olish xarajatlarini o‘z ichiga oladi, ya‘ni ularning qiymati, buyurtma xarajatlari, transport xarajatlari, inventarlarni saqlash xarajatlari, qo‘yilgan kapital xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlariga xom ashyo va materiallarni qabul qilish, mahsulot ishlab chiqarishga buyurtma berish, mahsulotni ishlab chiqarish ichida tashish, tugallanmagan mahsulotlarni saqlash, shuningdek moliyaviy resurslarni muzlatish bilan bog‘liq xarajatlar kiradi.

¹²⁸ Ельдештейн. Логистика. http://www.kgau.ru/distance/fub_03/eldeshtein/logistika/03_01.html

¹²⁹ П.А. Кузьмин. Классификация логистических издержек. Международный научный журнал «Инновационная наука» №06/2017.

¹³⁰ Шадиева Г., Шаназарова Н. Логистика харажатлари таркиби ва уларни бошқариш усуллари. О‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. №10. 2020. 44-45 b.

Mahsulotni sotish xarajatlariga tayyor mahsulot zahiralari saqlash, buyurtma berish (qadoqlash, saralash, markalash va boshqa operatsiyalar), sotish, tayyor mahsulotni tashish, shuningdek qo'yilgan kapital xarajatlari kiradi.

Alohida moddalar bo'yicha xarajatlarni keyingi tahlil qilish korxonada bo'linmalari xodimlarining operatsion va moliyaviy majburiyatlarini farqlash imkonini beradi.

Korxonalarining transport xarajatlari transport va ekspeditorlik tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar uchun to'lovlarni, shuningdek, o'zlarining avtotransport vositalari parkini, ya'ni transportning barcha turlarida tashish uchun tariflarni to'lashni, yuk tashish va nasoslarni tashish, pochta xarajatlarini, transport tashkilotlarining to'lovlarni, mahsulotlarni saqlash va jo'natish, yuklash va tushirish operatsiyalari uchun xarajatlarni va boshqa xarajatlarni anglatadi.

Saqlash jarayonining mazmunini tashkil etuvchi operatsiyalar majmui mahsulotni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish, yuklash va tushirish operatsiyalari, mahsulotlarni omborlar ichida ko'chirish va saqlash joylariga joylashtirish, saqlanadigan mahsulotlarning holatini kuzatish, profilaktika ishlarini, mahsulotning shikastlanishining oldini olish, ombor uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ishlashini ta'minlash, mahsulotni to'ldirish va sotishga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash, shuningdek, mahsulotlarni omborxonada sotish bilan bog'liq xizmatlarning turli shakllarini ko'rsatish xarajatlari korxonalarining mahsulotni qabul qilish, saqlash, tayyorlash va jo'natish bilan bog'liq barcha xarajatlarini, shuningdek, umumiy ombor xarajatlarini, saqlash vaqtida mahsulot tanqisligi, tranzit paytida yo'qotish, mahsulotning tabiiy yo'qolishi bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular ombor faoliyatining bosqichlariga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri mos keladigan narsalarga taqsimlash orqali guruhlanadi. Logistika xarajatlarini asosiy jarayonlar (operatsiyalar) bo'yicha taqsimlash mahsulotlarni qayta ishlashning texnologik sxemalari va alohida operatsiyalarni standartlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Iste'molchi buyurtmalariga xizmat ko'rsatish uchun logistika xarajatlari quyidagilarga bo'linadi:

- buyurtmalarni qabul qilish bilan bog'liq xarajatlar - korxonaning o'z mahsulotlariga xaridorlarni jalb qilish va ularni sotish bo'yicha sa'y-harakatlari bilan, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xizmatlar uchun kompensatsiya xarajatlari (dilerlarga to'lovlar, mahsulotni sotish uchun vakillik uchun komissiyalar, savdo ko'rgazmalari va mahsulot namoyishlarini tashkil etish xarajatlari, mahsulot narxiga chegirmalar);

- buyurtmalarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar - korxonada bo'linmalari mutaxassislar tomonidan mahsulotni sotib olish, saqlash, tashish, ishlab chiqarish, uni sug'urtalash, bo'xona to'lovlarni to'lash va ekspeditorlik korxonalarining xizmatlarini himoya qilish, mahsulotlar, ularni qadoqlash, jo'natiladigan tovarlarni tashish hujjatlarini ishlab chiqish, aloqa va yozishmalar, shuningdek, alohida holatlar bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishi bilan bog'liq xarajatlar.

Logistika xarajatlarini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

- ishlab chiqarish xarajatlari - xaridor ega bo'lishni xohlaydigan va u to'lashga tayyor bo'lgan qiymatni yaratish xarajatlari. Bunga ishlab chiqarish xarajatlari,

shuningdek, mahsulotlarni sotish, mehnat, moliyaviy operatsiyalar va sotish jarayoni uchun xarajatlar kiradi;

- logistika biznesini yuritish xarajatlari - o'z-o'zidan qiymat yaratmaydigan, lekin ulardan qochib bo'lmaydigan xarajatlar. Bular tashish, buyurtma berish, xodimlarning ishini tekshirish, mahsulot hisobini yuritish va boshqalar;

- nazorat xarajatlari - salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan faoliyat xarajatlari. Logistika xarajatlarini tahlil qilish ishonchli buxgalteriya ma'lumotlari asosida amalga oshirilishi lozim va agar ular alohida rejalashtirilgan va yozilgan bo'lsa, uni hisobga olish kerak bo'ladi. Xarajatlarni aks ettirishning haddan tashqari kattalashtirilgan va umumlashtirilgan xususiyati logistika xarajatlarini yetarli darajada optimallashtirishga imkon bermaydi. Bu, shuningdek, boshqa biznes ishtirokchilari, masalan, etkazib beruvchilar yoki tovarlarni distribyutorlar ishini nazorat qilish xarajatlarini o'z ichiga oladi;

- rentabel bo'lmagan xarajatlar - natijani bera olmaydigan ishlar uchun xarajatlar, masalan, «harakatsizlik», uskunaning ishlamay qolishi va boshqalar.

Logistika xarajatlarini quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

1) yakuniy mahsulotni shakllantirish xarajatlari; 2) tranzaksiya xarajatlari.

Yakuniy mahsulotni shakllantirish xarajatlari ishlab chiqaruvchining xom ashyoni yakuniy mahsulotga aylantirish xarajatlaridir.

Tranzaksiya xarajatlari - xarid yoki sotish bozorida birja shartnomalarini tuzish va amalga oshirish xarajatlari. Bunday xarajatlarning miqdori sotib olingan xizmatlar turiga va ularni muvofiqlashtirishning tanlangan shakliga bog'liq. Odatda, ular umumiy xarajatlarning 50 % ni tashkil qiladi. An'anaviy buxgalteriya tizimlari hali ham korxonalarini savolga javob berish uchun etarli ma'lumot bilan ta'minlay olmaydi: agar korxonaning o'zida tegishli xizmatlarni jalb qilish uchun qo'shimcha xarajatlar kamroq bo'lsa, bozorda tranzaksiya xarajatlarini tejash mumkinmi? Shu sababli, sifatni ta'minlash bilan bog'liq xizmatlarni muvofiqlashtirishning maqbul shakllarini aniqlash kerak.

Tranzaksiya xarajatlarini quyidagi moddalar bo'yicha ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) mijozlarni qidirish - ma'lumot to'plash, aloqalarni o'rnatish, o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish, ma'lumotlar almashish;

2) muzokaralar - so'rov berish, takliflar tayyorlash, muzokaralar olib borish, bitim tuzish;

3) tomonlarning manfaatlarini ta'minlash - ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar, sifatni ta'minlash shartnomasi;

4) ayirboshlash jarayoni - transport va ombor operatsiyalari;

5) nazorat - auditlar, birinchi namunalarni sinovdan o'tkazish, mahsulotlarni qabul qilish, yakuniy tekshirish, shikoyatlar, o'zaro ta'sir samaradorligi;

6) moslashish - xizmatdan qoniqishni tasdiqlash, ma'lumotlarni yangilash;

7) maqbul bo'lmagan shartnoma shartlarini tuzatish - qo'shimcha quvvatlardan foydalanish, qo'shimcha narxlarda chegirmalarni talab qilish, ramka shartlarini o'zgartirish;

8) strategik pozitsiyalarning zaiflashishi - iste'molchining ketishi, bozor ulushining qisqarishi;

9) bitimni yakunlash - to'lov majburiyatlarini bajarish, ortiqcha xodimlarni ishdan bo'shatish, yakuniy hujjatlarni tayyorlash. Voqea sodir bo'lish chastotasiga qarab, bir martalik va muntazam tranzaksiya xarajatlari ajratiladi. Muntazam xarajatlarga to'g'ridan-to'g'ri ayirboshlash xarajatlari bilan bir qatorda ayirboshlash munosabatlari jarayonida savdo shartnomasini amalga oshirish va nazorat qilish jarayonida yuzaga keladigan barcha xarajatlar kiradi.

Ushbu turdagi tranzaksiya xarajatlarining dastlabki uchtasi shartnoma tuzilishidan oldin yuzaga keladi. Ular tomonlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish xarajatlari sifatida tavsiflanishi mumkin. 5-dan 9-turgacha bo'lgan tranzaksiya xarajatlari shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, ushbu turdagi xarajatlar guruhlari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud: shartnoma tuzilgunga qadar xarajatlar qanchalik yuqori bo'lsa, keyingilari shunchalik past bo'ladi.

Tranzaksiya xarajatlarining muhim qismi logistik xususiyatga ega, xususan:

- tijorat sheriklarini topish, etkazib berish shartlarini muhokama qilish, shartnomalar tuzish va muayyan iqtisodiy munosabatlar natijasida olingan mulkiy huquqlarni ta'minlash uchun foydalaniladigan resurslar narxi;

- vositachilik xizmatlari uchun to'lovlar;

- reklama xarajatlari va tijorat sheriklarini izlash uchun sarflangan vaqt xarajatlari;

- resurslarni sotib olish joyidan ulardan foydalanish joyigacha tashish xarajatlari.

Tashkilot va mehnatga haq to'lashning yanada ilg'or shakllarini joriy qilish uchun logistika xarajatlarini alohida logistika bo'linmalari tomonidan bajariladigan muayyan funktsiyalar va ishlar bilan chambarchas bog'langan holda moddalar bo'yicha guruhlash kerak. Logistika xarajatlari moddalari, qoida tariqasida, murakkab bo'lib, bir nechta xarajatlar elementlaridan iborat. Moddalar bo'yicha hisobga olinadigan logistika xarajatlari iste'molchi buyurtmalariga xizmat ko'rsatish xarajatlarini tashkil etuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat, ishlar va xizmatlarning muayyan turlari bo'yicha taqsimlanishi mumkin.

Logistika xarajatlarini funktsional asosda guruhlash alohida operatsiyalar uchun xarajatlar darajasini nazorat qilish, logistika faoliyatini tashkil etishning turli sxemalarining samaradorligini aniqlash va korxonalarining logistika xarajatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlarda xarajatlarni guruhlashning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- tannarx turlari bo'yicha: moddalar (analitik hisob va tannarx kalkulyatsiyasini tashkil etish uchun) va tannarx elementlari (rejalashtirish tizimi va ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi hisobotga muvofiqligi uchun);

- mahsulot turlari bo'yicha: mahsulotlar, bir hil mahsulotlar guruhlari, qayta taqsimlash, buyurtmalar, ishlar, xizmatlar (narxlarni hisoblash uchun);

- xarajatlar kelib chiqadigan joyda.

Bunday tasniflarga muvofiq logistika xarajatlarini rejalashtirish va hisobga olish ularning mutlaq qiymatini baholash, ushbu xarajatlar qiymatini oshirish yoki kamaytirishning asosliligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ulardan eng samarali

foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash, tahlil qilish va tuzilmasini takomillashtirish imkonini beradi.

Logistika xarajatlarining mavjud tasniflarining kamchiliklaridan biri ularni xarajatlar moddolari va iqtisodiy elementlar bo‘yicha guruhlashning aralash mezonlaridan foydalanish hisoblanadi. Demak, bitta operatsiyani ikki marta hisoblash va haqiqiy xarajatlarni to‘liq aks ettirmaslik.

Rivojlangan mamlakatlarda logistika xarajatlari tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularda eng katta ulushni inventarni boshqarish xarajatlari (20-40%), transport xarajatlari (15-35%), ma‘muriy va boshqaruv funksiyalari xarajatlari (9-14%) egallaydi. So‘nggi o‘n yil ichida ko‘plab kompaniyalarning transport, buyurtmalarni qayta ishlash, axborot va kompyuter ta‘minoti, logistika boshqaruvi kabi murakkab logistika funksiyalari uchun logistika xarajatlari sezilarli darajada oshdi. Chet elda logistika xarajatlarini tahlil qilish odatda ya‘ni ishki mahsulotga nisbatan (butun mamlakat bo‘yicha) yoki korxonaga tayyor mahsulotini sotish hajmiga nisbatan foizda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, muayyan xarajatlar yoki xarajatlar guruhlarini taqsimlash logistika tizimining turiga, muayyan logistika zanjirlarida boshqaruv va optimallashtirish vazifalariga bog‘liq. Bunday hollarda, umumiy logistika xarajatlarini quyidagi to‘rt guruhga ajratib hisobga olish taklif etiladi:

- 1) asosiy va murakkab logistika operatsiyalari uchun xarajatlar;
- 2) zaxiralardagi mablag‘larni immobilizatsiya qilishdan yo‘qotishlar;
- 3) logistika boshqaruvi va xizmat ko‘rsatish sifatining etarli emasligidan kelib chiqadigan xarajatlar;
- 4) logistika ma‘muriyati xarajatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

Ельдештейн. Логистика. http://www.kgau.ru/distance/fub_03/eldeshtein/

П.А. Кузьмин. Классификация логистических издержек. Международный научный журнал «Инновационная наука» №06/2017.

Шадиева Г., Шаназарова Н. Логистика харажатлари таркиби ва уларни бошқариши усуллари. O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. №10. 2020. 44-45 б.

YANGI O‘ZBEKISTONDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASH YO‘LLARI

SH.SH.Abdumurotov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Milliy iqtisodiyotimizning, jumladan, elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy baza yaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-

60-son Farmonida¹³¹, xususan, «milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash» vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, mavjud ichki imkoniyatlaridan va resurslaridan samarali foydalanishni, moddiy-texnik bazasini tubdan yangilashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

MDH iqtisodchisi E.P. Golubkov¹³² korxonaning raqobatbardoshligini uning faoliyatining 16 ta omilidan foydalangan holda baholashni taklif qiladi (imidj, mahsulot kontsepsiyasi, mahsulot sifati, biznes turlarining diversifikatsiya darajasi, biznesning asosiy turlarining umumiy bozor ulushi, ilmiy-tadqiqot bazasining quvvati, quvvati). ishlab chiqarish bazasi va boshqalar). Muallif ushbu omillarni mahsulotlarning raqobatbardoshligi va marketing faoliyati samaradorligi omillari hisobiga batafsil yoritadi va to‘ldiradi, lekin kadrlar rolini ham hisobga olmaydi.

Tashkilotning raqobatbardoshligini rivojlantirishda, albatta, korxonada mavjud bo‘lgan resurslar va atrof-muhit omillari muhim ahamiyatga ega, ammo har qanday korxonada resurslar to‘plamiga ega. Bizning fikrimizcha, korxonaning raqobatbardoshligini aniqlash uchun asosiy resursni ajratish kerak bo‘ladi. O‘z navbatida D.Xusbi¹³³ korxonaning raqobatbardoshligi mahsulot sifati, ularning nisbiy bahosi, mahsulotning bozorlarga ilgari surilishi, savdo tarmog‘ining sig‘imi bilan belgilanadi, deb ta‘kidlaydi.

Mahsulotlar korxonada faoliyatining yakuniy natijasidir. Ammo D.Xusbi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonada qanday bo‘lishi kerakligini tushuntirmaydi.

MDH iqtisodchi olimasi N.K. Moiseeva¹³⁴ korxonaning raqobatbardoshligini belgilaydigan mezonlar sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqishni taklif qiladi:

- dinamikada iste‘molchining qoniqish darajasini aks ettiruvchi mezon;
- ishlab chiqarish samaradorligining vaqt mezoni.

Korxonani nima raqobatbardosh qiladi, degan savolga boshqa bir olim V.A.Vinokurov javob beradi: birinchidan, resurslar (potentsial), ikkinchidan, ulardan unumli foydalanish qobiliyatidir. Biroq, ma‘lumki, o‘z faoliyati davomida bir xil resurslar mavjud bo‘lganda, korxonada raqobatbardosh bo‘lishi yoki bankrot bo‘lishi mumkin¹³⁵.

Boshqa bir iqtisodchi V.L.Belousov¹³⁶ korxonaning raqobatbardoshligining mumkin bo‘lgan mezonlarini marketing aralashmasining individual elementlariga (mahsulot, narx, mahsulotni iste‘molchiga yetkazish, mahsulotni ilgari surish yoki marketing kommunikatsiyalari) ko‘ra guruhlaydi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va

¹³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz

¹³² Голубков Е.П. Основы маркетинга: учебник. — М.: Финпресс, 1999

¹³³ Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации: учебник. — М.: Эксмо, 2005.

¹³⁴ Моисеева Н.К. Стратегическое управление туристской фирмой: учебник. — М.: Финансы и статистика, 2007.

¹³⁵ Винокуров В.А. Организация стратегического управления на предприятии. — М.: Центр экономики и маркетинга, 1996

¹³⁶ Белоусов В.Л. Анализ конкурентоспособности фирмы // Маркетинг в России и за рубежом. — 2001. — № 5. — С. 63- 71.

samaradorligini hisobga oladi, ya'ni, olim D. Husbi kabi, u hamma narsani asosan mahsulotning raqobatbardoshligi va sotish funksiyasiga qisqartiradi, xodimlarni hisobga olmaydi deb ta'kidlaydi.

1990 yillarda I.Maksimov¹³⁷ korxonalar raqobatbardoshligining asosiy mezonlariga uning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi, moliyaviy ahvoli, tovarlarni sotish va bozorda ilgari surishni tashkil etish samaradorligi, mahsulot raqobatbardoshligini nazarda tutadi. Yuqoridagi barcha olimlar singari u ham raqobatbardosh kadrlar mavjudligiga e'tibor bermaydi.

Korxonaning raqobatbardoshligini shakllantiradigan barcha omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin: raqobatbardoshlik tushunchasini MDH iqtisodchilari V.A. Barinov va A.V. Sinelnikovlar moslashuvchanlik va innovatsiya – deb ta'kidlashadi. Korxonaning moslashuvi moslashuvchanlik xususiyati, korxonalar va tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlar shakli, ichki tashkiliy qayta qurish jarayoni sifatida tushuniladi.

Qolgan mualliflar ma'lum darajada qayd etilgan asarlarning asosiy qoidalaridan foydalanib, ularni faoliyatning muayyan sohalari uchun ishlab chiqishga harakat qilishadi.

O'rganilgan material asosida biz ushbu ilmiy ishimizda iqtisodiy beqarorlik sharoitida korxonaning raqobatbardoshligini belgilovchi omillar majmuasini shakllantirdik. Raqobatbardosh korxonalar ichki muhitining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Vazifalar, rollar, vakolatlar va mas'uliyatlarning ma'lum tartibini qurishga, tashkilot faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga va belgilangan maqsadlarga erishishga, korxonalar uchun tez va minimal yo'qotishlarga ega bo'lgan o'zgarishlarga javob beradigan moslashuvchan tashkiliy tuzilma. tashqi muhit.

2. Talabga to'g'ri javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi texnik resurslar, asbob-uskunalar, shuningdek, raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish uchun tashkilotda qo'llaniladigan texnologik resurslar, zamonaviy texnologiyalar.

3. Marketing, tashqi muhitning doimiy monitoringi, shuningdek, raqobatbardosh mahsulot va reklama siyosatini ishlab chiqish.

4. Tovarlarni massasi aylanmasini amalga oshirish imkonini beruvchi moliyaviy resurslar.

5. Korxonani boshqarish tizimini qurish imkonini beruvchi ma'lumotlar va bilimlar majmuasini ifodalovchi axborot resurslari.

6. Korxonalar maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkonini beruvchi raqobat strategiyasi.

7. Korxonalar xodimlari - ishlab chiqarish yoki boshqaruv operatsiyalarini bajaradigan va mehnat vositalaridan foydalangan holda mehnat ob'yektlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan barcha xodimlar kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda resurslar va omillar kabi tushunchalardan faol foydalaniladi. Korxonalar iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan resurslar - bu uskunalar va texnologiya, moliya,

¹³⁷ Максимов И. Оценка конкурентоспособности промышленного предприятия // Маркетинг. — 1996. — № 3. — С. 33-39.

axborot, xodimlar va materiallar, ammo korxonaning raqobatbardoshligi nazariyasi doirasida ular omillar sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, raqobatbardoshlik omillariga tashkiliy omillar, masalan, strategiya, moslashuvchan tashkiliy tuzilma, mehnatni rag'batlantirish tizimi, nazorat, muvofiqlashtirish va boshqalar kiradi. Shunday qilib, korxonaning raqobatbardoshligining barcha omillarini ikki guruhga bo'lish mumkin: resurs va tashkiliy.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu omillarning barchasi korxonaning raqobatbardoshligini oshirishi va kamaytirishi mumkin. Va eng muhimi, har bir omil ortida korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan korxonaning xodimlarining faoliyati turadi. Korxonaning raqobatbardoshligi masalasini o'rganayotgan deyarli barcha mualliflar xodimlarni e'tibordan chetda qoldiradilar. Biroq, mahsulot sifati va korxonaning xarajatlari bevosita ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi ishchilarning malakasiga bog'liqdir. Kadrlarsiz ishlab chiqarish quvvatlari va texnologiyalarini qo'llash mumkin emas.

Moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish kerak, bu ham ushbu boshqaruv uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning malakasiga bog'liq bo'ladi. Innovatsion imkoniyatlar ko'p jihatdan korxonaning xodimlarining ijodiy salohiyati bilan belgilanadi. Raqobat strategiyasiga muvofiq ishlab chiqish, amalga oshirish va bevosita faoliyat korxonaning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ishlab chiqilgan strategiyaga muvofiq, tarqatish siyosati va dilerlik tarmog'ini shakllantirish korxonaning xodimlarining (boshqaruvining) funksiyasidir. Obro' (imidj) hosil qiluvchi mijozlarga xizmat ko'rsatish yana butunlay korxonaning xodimlariga bog'liq. Har bir omil ortida korxonaning xodimlari turgani odatda e'tibordan chetda qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz

Голубков Е.П. Основы маркетинга: учебник. — М.: Финпресс, 1999

Зулькарнаев И.У., Ильясова Л.Р. Метод расчета интегральной конкурентоспособности промышленных, торговых и финансовых предприятий // Маркетинг в России и за рубежом. — 2001. — № 4. — С. 17-27.

Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации: учебник. — М.: Эксмо, 2005.

Моисеева Н.К. Стратегическое управление туристской фирмой: учебник. — М.: Финансы и статистика, 2007.

Винокуров В.А. Организация стратегического управления на предприятии. — М.: Центр экономики и маркетинга, 1996

Белоусов В.Л. Анализ конкурентоспособности фирмы // Маркетинг в России и за рубежом. — 2001. — № 5. — С. 63- 71.

Максимов И. Оценка конкурентоспособности промышленного предприятия // Маркетинг. — 1996. — № 3. — С. 33-39.

POWER BI IN FINANCIAL ANALYSIS

E.G.Karimov

Farg'ona politexnika instituti doktoranti

Effective management of the enterprise requires the active and consistent implementation of information technology advances, new and advanced practices and technological solutions. This is now called REGULATION. It's no secret that initial documentation is the first step at this point. In turn, the role of accounting is growing immeasurably, because it not only registers the initial documents, but also processes them, measures the costs associated with the received income, and ensures the effective use of invested funds for financial activities. analyzes, prepares reports for internal and external users. Many chief accountants deal with traditional single accounting in Uzbek enterprises. Companies in economically developed countries pay great attention to the organization and maintenance of their financial and management accounting. They invest in the field of accounting and use the latest advances. In local businesses, it seems to be the opposite, unfortunately. At the same time, local enterprises working in the conditions of competition and struggle for survival are experiencing the need to organize effective financial and management accounting and its analysis system, in this regard, the problem of introducing it into local accounting practice is important. All over the world, financial and management accounting is understood as the working language of business, and financial analysis is the mirror of business, so this subject is of great practical importance. Therefore, the implementation of fast and reliable financial and management accounting, organizing their analysis in dynamically changing conditions, meeting modern requirements is an extremely urgent issue.

Research methodology.

When writing the article, the following methods and methods were used: sorting, comparison, induction and deduction, and other economic - logical methods were used and the problem was approached systematically.

Analysis and results

Software tools used for business automation are designed to help companies solve and manage problems. Their variations include different functions such as covering a wide range of areas of the company, managing ongoing processes, collecting and analyzing data, managing personnel and financial processes, etc. The following programs are some of the popular programs that do well with automation:

1C: Enterprise.

Description: 1C: Enterprise, an ERP (Enterprise Resource Planning) program similar to other programs, consisting of several other modules designed for enterprise, procurement, sales, financial calculations, data analysis and management, basic reporting and management .

Functions: Billing, procurement management, data analysis, database management, personnel management, financial reports and others.

SAP (Systems, Applications, and Products)

Description: SAP is an integrated software package designed for management in large and medium-sized enterprises. There are many comprehensive versions of this ERP software and it offers specialized functions for different industries.

Functions: Billing, planning, procurement management, supply management, financial reporting, data analytics, etc.

These software tools automate processes such as accounting, inventory management, human resources, and customer relationship management. The choice of a specific tool depends on the organization's size, industry, and the scope of functionalities required for effective business operations.

The software tools listed above have their own dashboards that display the most important indicators for management decisions. let's talk about them briefly.

A dashboard is a visual display of key information, metrics, and data points that provide a quick overview of an organization's performance or a specific process. Dashboards are designed to be user-friendly and easily digestible, allowing users to monitor and analyze complex information at a glance. They are commonly used in business intelligence, project management, and other areas to facilitate data-driven decision-making. Here are some key functions of dashboards: Data Visualization,

Real-time Monitoring, Performance Measurement, Customization, Data Integration, Decision Support, Communication, User Accessibility, Goal Tracking, Alerts and Notifications.

Overall, dashboards play a crucial role in transforming raw data into actionable insights, fostering data-driven decision-making, and improving overall organizational performance.

Coming to this point of the article, I would like to provide information about the Power BI program of Microsoft Corporation. This program has been taking the 1st place in the latest ratings among the software tools used for business analysis. You can find a lot of positive comments and opinions about it. All this is not in vain. Of course, it is the most advanced technology in today's demand. Let's briefly touch on its possibilities and advantages.

Data Integration and Visualization, Real-time Reporting, Forecasting and Predictive Analytics, Cost Analysis and Budgeting, Performance Monitoring,

Increased Efficiency, Enhanced Data Accuracy, Improved Decision-Making, Collaboration and Accessibility.

Conclusion

In conclusion, Power BI is a game changer in financial analytics. His chances of winning the competition; it is cheaper than other software tools, it is flexible to resources providing primary data, it can be easily connected with other programs of Windows operating system, it is simple for the learner, etc. In addition, its diverse applications, combined with its many benefits from data integration to real-time reporting, make it an invaluable asset for organizations managing the complexity of financial decision-making. As technology continues to evolve, the integration of tools like Power BI will become increasingly important to stay competitive in the financial landscape.

References:

M.G. Radchenko, Ye.YU. Khrustaleva IS:Predpriyatiye 8.3. Prakticheskoye posobiye razrabotchika. Primery i tipovyye priyemy 2-ye stereotipnoye izdaniye [IC:Enterprise 8.3. Practical guide developer. Examples and typical techniques 2nd stereotype edition]. – Moscow: LLC "IC-Publishing", 2021. – 963 p.

Franklin Martinez, Jim Keogh Rukovodstvo Po SAP R/3 [SAP R/3 Handbook]. - New York: McGraw-Hill Education, 2005. - 625 p.

https://finance.yahoo.com/news/2023s-top-business-intelligence-analytics-190000276.html?guccounter=1&guce_referrer=aHR0cHM6Ly93d3cuZ29vZ2xlLmNvbS8&guce_referrer_sig=AQAAAGWfDgGW2GSijyVeaB8n72oPoELh8RqKVeSRVyUoeEX_mqfPIDmhH7INgOHHsWga_YOxrJUI0ILqxCd5cOll8gNxs5sqXsXelYbriid7V0Wfr_BS3s6szcly3n7CwAlgGO
[PykLzTHwwy9ZUbwo06EBnNa_ILdrMLyw5S0pS5YjU](https://www.adjust.com/glossary/dashboard/)
<https://www.adjust.com/glossary/dashboard/>

БЮДЖЕТ-СОЛИҚ ВА ПУЛ-КРЕДИТ СИЁСАТИНИ МУВОФИҚЛАШТИРИШДА МОНЕТАР ҚОИДАЛАРДАН Фойдаланиш

Ҳ.А.Ҳакимов

*Тошкент давлат иқтисодиёт
университети тадқиқотчиси*

Фискал ва монетар сиёсатни мувофиқлаштиришнинг ҳолати кўп жиҳатдан молия бозорининг ривожланганлигига ҳамда Марказий банк пул-кредит сиёсатининг самарадорлигига боғлиқ ҳисобланади.

Шу боисдан мамлакатимизда молия бозорида тенг рақобат шароитларини яратиш, кредитлашни фақат бозор шартлари асосида амалга ошириш, банкларнинг давлат ресурсларига қарамлигини пасайтириш, банк хизмати кўрсатишни модернизация қилиш, банкларнинг самарали инфратузилмасини яратиш ва фаолиятини автоматлаштириш, шунингдек, банклар фаолиятига хос бўлмаган функцияларни босқичма-босқич бекор қилиш орқали банк тизимининг самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда¹³⁸.

Ҳозирги вақтда дунё амалиётида Марказий банклар томонидан пул-кредит сиёсатини муайян монетар қоидалар асосида олиб бориш кенг тарқалган.

Валюта курсини таргетлаш (Palmer rule,), монетар таргетлаш (Friedman rule, McCallum rule), инфляцияни таргетлаш (Taylor rule, Ball Rule, Goodhart rule, Henderson- McKibbin rule, Clarida-Gali-Gertler rule, Orphanides rule) ҳамда аниқ номинал мўлжалсиз пул-кредит сиёсати режимлари ва уларга мос равишда муайян мақсадли кўрсаткич ўрнатилади ҳамда пул-кредит сиёсатининг барча сай-ҳаракатлари унга эришишга қаратилади. Ўз навбатида фискал сиёсат ҳам ўз ҳатти-ҳаракатини мазкур мақсадли кўрсаткич дориасида олиб боради.

¹³⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “2020 — 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сон Фармони, www.lex.uz.

Бундай қоидалар Ҳукуматнинг Марказий банкка тўғридан-тўғри аралашувини чеклаб, монетар қоидалар доирасида ҳамкорлик қилишига туртки беради.

Фискал ва монетар сиёсатни мувофиқлаштиришда натижавий кўрсаткич ЯИМ ва инфляция кўрсаткичи ҳисобланганлиги боис, инфляцияни таргетлаш режимига алоқадор монетар қоидалар тадқиқотимиз асосини ташкил этади.

Инфляцияни таргетлаш режими айрим манбаларда фоиз ставкаси қоидаси номини ҳам олган, боиси инфляция кўрсаткичи мамлакатдаги асосий фоиз ставкасини белгиловчи омиллардан энг муҳими ҳисобланади.

Фоиз ставкалари пул-кредит сиёсатининг иқтисодиётга таъсир этувчи анъанавий инструментлари ҳисобланади. Марказий банк фоиз ставкасининг ўзгариши иқтисодиётдаги умумий фоиз ставкалари даражасига таъсир кўрсатиб, инвестиция ва жамғарма даражасини ўзгартириш орқали иқтисодиётдаги ялпи талабнинг ўзгаришига олиб келади.

Адабиётлар шарҳи (Literature review)

Тадқиқот жараёнида монетар сиёсатнинг асосий қоидалари батафсил ўрганилди: Маккаллум қоидаси, Тейлор ва Балл қоидаси, шунингдек, уларнинг ўзгаришлари кўриб чиқилди. Тейлор қоидасини тавсифловчи моделда олинган натижалар барқарорлик касб этишини ҳисобга олиб, шунингдек, иқтисодий инқироз шароитида мослашувчан эканлигини ҳисобга олиб мазкур ишда ушбу қоидани тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ деб топилди.

Хусусан William Poolенинг “Monetary Policy Rules” китобида фоиз ставкалари иқтисодиёт билан бевосита боғлиқлиги, шунинг учун Марказий банклар иқтисодиётни тартибга солиш учун фоиз ставкаларини мақсад қилиб олиши такидланган¹³⁹. Яъни Марказий банклар ўз мамлакатларидаги банкларни тартибга солиш учун ва банкларнинг бир-бирлари учун бир кечада бериладиган фоиз ставкалари бошқа фоиз ставкалари таъсир қилгани сабабли, Марказий банклар одатда банклараро кредитлаш ставкасини белгилайдилар. Фоиз ставкаларини пасайтириш, арзонроқ кредит бериш орқали иқтисодиётни рағбатлантиради, юқори фоиз ставкалари эса кредитни қимматроқ қилиш орқали иқтисодиётни секинлаштиради. Бироқ фоиз ставкалари ва иқтисодиёт ўртасидаги боғлиқлик оддий эмас. Бундан ташқари, фоиз ставкаларининг ўзгариши ва иқтисодиётдаги кетма-кет ўзгаришлар ўртасидаги умумий тафовут мавжуд. Шу сабабли, аксарият марказий банклар фоиз ставкасини аста-секин ўзгартириб, кейин унинг қандай таъсир кўрсатишини кутишган. Ушбу тесқари алоқа туфайли, кўплаб иқтисодчилар Марказий банкларга ўзларининг иқтисодий мақсадларига адолатли равишда эришиш мумкин бўлганидан кўра яқинроқ бўлган фоиз ставкаларини танлашга имкон берадиган қоидани излашди. Табиийки, ушбу қоида фоиз ставкасини фоиз ставкаларининг ўзгаришига жавоб берадиган мақсадли иқтисодий таргетлар билан боғлиқдир.

Piergallini Alessandro, ва Giorgio Rodanoларнинг “A Simple Explanation of the Taylor Rule” мақоласида монетар қоидалардан бири Стенфорд университети

¹³⁹ Poole, W. (1999). Monetary Policy Rules. Review, 81.

иқтисодчиси John B. Taylor (Тейлор) томонидан ишлаб чиқилган Тейлор қонуни ҳақида ёритилган ва бу энг охирги монетар сиёсат назарияси ҳисобланади. Ушбу мақолада Тейлор қонуни Марказий банкнинг жорий ва потенциал ялпи ички маҳсулот ўртасидаги ҳар хилликни инобатга олган ҳолдаги номинал фоиз ставкасини қай даражада ўзгартириш ҳамда жорий инфляцион даража ва таргетлашдаги инфляцион даража ўртасидаги фарқни ўрганилиши тақдирланган. Ушбу қоида қисқа муддатли фоиз ставкасини белгилайди. Тейлор қисман G-7 мамлакатларининг иқтисодий кўрсаткичларини турли хил пул-кредит сиёсати бўйича иқтисодий кўрсаткичларини таҳлил қилиш орқали ривожланганди, сўнгра ўз кўрсаткичларини нарх ва ишлаб чиқариш барқарорлигига эришишда муваффақият билан баҳолади. Тейлорнинг қоидаси кутилаётган инфляция даражаси мақсадли инфляция даражасидан ва кутилаётган ўсиш суръати ЯИМнинг узок муддатли ўсиш суръатларидан фарқ қилганда, марказий банклар томонидан мақсадли қисқа муддатли фоиз ставкасини ҳисоблашда фойдаланиладиган монетар қоидалардан биридир. Тейлор қоидаси Федерал Резерв каби марказий банклар иқтисодий шароитларнинг ўзгаришига жавобан фоиз ставкаларини қандай ўзгартириши кераклиги тўғрисида таклиф қилинган қўлланмадир. У реал фоиз ставкаси инфляция даражасидан 1,5 барабар кўп бўлиши кераклигини тавсия қилади.¹⁴⁰

Jules Chouquetнинг “ Taylor Expansion, Finiteness and Strategies ” номли китобида Тейлор қоидаси кутилаётган инфляция даражаси мақсадли инфляция даражасидан ва кутилаётган ўсиш суръати ЯИМнинг узок муддатли ўсиш суръатларидан фарқ қилганда, Марказий банклар томонидан мақсадли қисқа муддатли фоиз ставкасини ҳисоблашда фойдаланиладиган воситалиги тушинтириб ўтилган. Иқтисодиётда Тейлорнинг қоидаси асосан фоиз ставкалари нима бўлишини ёки иқтисодиётдаги ўзгаришлар рўй берганда қандай бўлиши кераклигини аниқлаш учун фойдаланиладиган прогнозлаш моделидир. Тейлорнинг қоидаси Марказий Банкни инфляция даражаси юқори бўлган ёки бандлик даражаси тўлиқ бандлик даражасидан ошиб кетганда фоиз ставкаларини кўтариши кераклигини тавсия қилади. Аксинча, инфляция ва бандлик даражаси паст бўлганда, фоизларни пасайтириш керак.¹⁴¹

Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Тейлор фоиз ставкалар бўйича тадқиқот олиб борди ва у пул-кредит сиёсати трансмиссион механизми фоиз канали кучли таъсирга эга деб таъкидлаган ҳолда, истеъмол харажатлари ва инвестицияларга фоиз ставкаларининг сезиларли даражада таъсир кўрсатиши ҳақида эмпирик далиллар мавжудлигини кўрсатди. Тейлор қоидаси Марказий банк фоиз ставкасини инфляция функцияси ва иқтисодий фаолият ўлчови сифатида тавсифлайди.¹⁴² Аниқроқ айтганда, федерал маблағлар ставкаси узок муддатли реал фоиз ставкасига ва амалдаги инфляция

¹⁴⁰ Piergallini, Alessandro, and Giorgio Rodano. (2016). A Simple Explanation of the Taylor Rule.

¹⁴¹ Chouquet, J. (2019). Taylor expansion, finiteness and strategies. *Electronic Notes in Theoretical Computer Science*, 347, 65-85.

¹⁴² Taylor, J. B. (1995). The monetary transmission mechanism: an empirical framework. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 11-26.

даражасига, шунингдек реал ва мақсадли инфляция ўртасидаги узилишлар ва ҳақиқий ҳамда потенциал ишлаб чиқариш ўртасидаги узилишларга кўпайтирилган коэффициентларга тенгдир. Ушбу қоида марказий банкнинг мақсади нархлар барқарорлигига эришиш бўлган тақдирда сиёсий қарорларни қабул қилиш учун восита бўлиб хизмат қилиши мумкин. Масалан, инфляция даражаси белгиланган даражадан ошиб кетганда, қоида фоиз ставкасини оширишни тавсия қилади.

Тейлор қоидаси Марказий банклар томонидан қўлланиладиган тенглама куйидагича кўринади¹⁴³:

$$i_t = \bar{r} + \pi_t + c_1(\pi_t - \bar{\pi}) + c_2\hat{y}_t + \varepsilon_t$$

бунда

i_t – қисқа даврдаги номинал фоиз ставкаси;

\bar{r} – узоқ муддатли реал фоиз ставкаси;

$(\pi_t - \bar{\pi})$ – инфляцион узилиш (ҳақиқий инфляция даражаси π_t ва инфляцион таргет $\bar{\pi}$ ўртасидаги тафовут);

\hat{y}_t – ишлаб чиқариш узулиши (ҳақиқий ишлаб чиқариш ҳажмининг потенциал ишлаб чиқариш ҳажмидан (логарифмик) тафовути);

ε_t – сиёсий шок (эҳтимолий зарба);

$c_1; c_2$ – пул-кредит сиёсатининг "қувватини" акс эттирувчи таъсирчанлик коэффициентлари.

Одий қилиб айтганда, ушбу тенгламага кўра инфляция бу ҳақиқий ва номинал фоиз ставкаси ўртасидаги фарқдир. Соддалаштирилган шаклда Тейлор тенгламаси фоиз ставкасини икки ўзгарувчи орқали ҳисоблайди: ЯИМнинг потенциал ЯИМдан оғиши ва жорий ва исталган инфляция ўртасидаги фарқ. Агар ялпи ички маҳсулот потенциалдан юқори бўлса ёки инфляцион таргетдан юқори бўлса, Тейлорнинг қоидаси иқтисодий созутиш ва ЯИМ ёки инфляцияни кўзланган даражага етказиш учун юқори фоиз ставкаларини талаб қилади.¹⁴⁴

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси (Discussion)

Ўзбекистон иқтисодийи учун қисқа даврдаги номинал фоиз ставкасини топиш мақсадида Тейлор қоидасининг оригинал тенгламасидан фойдаландик. Бу тенгламдан фойдаланишимиз учун бизга 2019 йилдаги инфляция даражаси, таргетланган (кутилаётган билан бир хил деб қаралди) инфляция даражаси, ЯИМ ўсиш суръати ва узоқ муддатли ЯИМ ўсиш суръати кўрсаткичлари керак бўлди.

Натижамиз эса $2\% + 15,2\% + 0,5 \cdot (15,2\% - 13\%) + 0,5 \cdot (5,6\% - 5,2\%) = 18,5\%$ ташкил этди. Бу содда мисолимиз Тейлор қоидасининг оригинал варианты $i_t = 2 + \pi_t + 0.5(\pi_t - 2) + 0.5\hat{y}_t$ даги таъсирчанлик коэффициентларига таянганлиги боис ушбу натижа (18,5%) ни амалда қўллаш борасидаги тавсиядан

¹⁴³ Chouquet, J. (2019). Taylor expansion, finiteness and strategies. Electronic Notes in Theoretical Computer Science, 347, 65-85.


¹⁴⁴ <https://www.investopedia.com/terms/t/taylorrule.asp>

йироқмиз. Чунки, \bar{r} ; C_1 ; C_2 — коэффициентлари ҳам ҳар бир мамлакат иқтисодий хусусиятига мос бўлади.

Шу билан бирга, Тейлор қоидасини қўллаш учун аниқ инфляцион таргетнинг мавжуд бўлиши зарурий шарт ҳисобланади. Ҳозирча инфляцион таргетлашга (2023 йилгача) ўтишга шароит яратилаётганлиги сабабли муайян таргетнинг мавжуд эмаслиги Тейлор қоидаси қўллаш имкониятларини чеклайди.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, чет эл марказий банклари монетар сиёсатни Тейлор қоидаси ёрдамида тавсифлаш мумкинлигини исботламоқда. Тейлор қоидаси пул сиёсати қоидасидир, унда ЯИМ ва инфляция кўрсаткичлари ўзгарганда фоиз ставкаси қандай ўзгариши кераклигини ифодалайди. Яъни, инфляциянинг ўсиши ҳар бир фоизи учун Марказий банк номинал фоиз ставкасини бир фоиздан кўпроққа оширишга мажбурдир. Тейлор қоидаси пул-кредит сиёсатини нархлар барқарорлиги ва тўлиқ бандлик даражаси, баъзан қисқа муддатли мақсадларга йўналтирилган таргетларни мувофиқлаштиришга йўналтирган экан.

Тадқиқот давомида Ўзбекистон Республикаси Марказий банки асосий фоиз (қайта молиялаш) ставкасининг иқтисодиётдаги фоиз ставкаларига таъсири бўйича таҳлиллари асосий фоиз ставкаси билан инфляция даражалари ўртасида суст боғлиқлик мавжудлигини кўрсатмоқда.



1-расм. Ўзбекистон Республикасидаги фоиз ставкалари ва уларнинг Марказий банк асосий ставкасига боғлиқлиги¹⁴⁵

Таҳлилларга кўра, 2010-2016 йилларда Марказий банкнинг асосий ставкаси ўртача 11,1 % ни ташкил этган бўлса, бу даврда пул бозоридаги ўртача фоиз ставка 9,6 % ни, депозитлар бўйича ўртача тортилган ставка 12,5% ни, кредитлар бўйича ўртача тортилган ставка 14,9% ни ҳамда мамлакатдаги ўртача фоиз ставкаси 11,8% ни ташкил этган.

¹⁴⁵ Ўзбекистон Республикасини Марказий банки маълумотлари

2017-2019 йилларда Марказий банкнинг асосий ставкаси ўртача 14,2 % ни ташкил этган бўлса, бу даврда пул бозоридаги ўртача фоиз ставка 12,9 % ни, депозитлар бўйича ўртача тортилган ставка 15% ни, кредитлар бўйича ўртача тортилган ставка 19,6% ни ҳамда мамлакатдаги ўртача фоиз ставкаси 15,1% ни ташкил этган.

Ўзбекистон иқтисодиётида асосий ставканинг ўзгариши тез ва самарадор тарзда пул бозори фаолиятига таъсир қилади, айниқса банклараро овернайт операцияларида тезда ўз аксини топади. Бироқ, бу ўзгаришларнинг банкларнинг депозит ва кредит ставкаларига таъсири кечроқ содир бўлади. Молиявий бозорлар ва муқобил воситалар етарли даражада ривожланмагани сабабли, фоиз ставкаларидаги ўзгаришларнинг таъсир кўрсатиши секинроқ амалга ошади.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)

Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, кузатилаётган даврда Марказий банкнинг асосий ставкаси ва мамлакатдаги ўртача фоиз ставкаси орасидаги фарқнинг кескин озлиги банк тизимининг етарли даражада ривожланмаганлиги ва бунда давлатнинг улуши кескин юқорилиги боис рақобат муҳитининг суствлиги ҳамда соҳада бозор тамойиллари яхши ишламаётганлигини юзага чиқмоқда.

Таъкидлаш лозимки, давлат қимматли қоғозларининг мунтазам кенгайиб бораётган эмиссияси ҳамда банклараро РЕПО бозорининг фаоллашуви, муддати узокроқ бўлган ликвидлик нархларининг шаклланишига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Бу ҳолат, фоиз ставкаларининг иқтисодиёт бўйлаб тарқалиш самарадорлигини оширишга ёрдам бермоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “2020 — 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сон Фармони, www.lex.uz.

Poole, W. (1999). Monetary Policy Rules. Review, 81.

Piergallini, Alessandro, and Giorgio Rodano. (2016). A Simple Explanation of the Taylor Rule.

Chouquet, J. (2019). Taylor expansion, finiteness and strategies. Electronic Notes in Theoretical Computer Science, 347, 65-85.

Taylor, J. B. (1995). The monetary transmission mechanism: an empirical framework. Journal of Economic Perspectives, 9(4), 11-26.

Chouquet, J. (2019). Taylor expansion, finiteness and strategies. Electronic Notes in Theoretical Computer Science, 347, 65-85.

<https://www.investopedia.com/terms/t/taylorsrule.asp>

Ўзбекистон Республикасини Марказий банки маълумотлари

ИЧКИ АУДИТ ЖАРАЁНИДА ТАҲЛИЛ АМАЛЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Ф.Б.Тошпулатов

*Тошкент Кимё халқаро университети
мустақил изланувчиси*

Халқаро амалиётда ҳам бизнинг амалиётдаги каби молиявий ҳисоботлар инвесторлар, бозор таҳлилчилари, бизнес менежерлари ва кредиторлар томонидан корхонанинг молиявий ҳолати ва умумий салоҳиятини баҳолаш учун ишлатилади. Молиявий ҳисоботларни таҳлил қилиш ва шарҳлашнинг энг яхши усули молиявий коэффицентлардан фойдаланишдир.

Молиявий ҳисоботлардан олинган рақамли қийматлар ёрдамида ҳисобланиши мумкин бўлган турли хил молиявий коэффицентлар мавжуд. Молиявий коэффицентлар компания фаолияти ва молиявий ҳолатининг кўрсаткичлари бўлиб, ички аудит учун қимматли воситалардир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорига¹⁴⁶ асосан 2021 йил 1 январдан бошлаб, акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган корхоналар МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ва йил якунлари бўйича молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрламоқдалар. Жумладан, ички аудитда ҳам МҲХС бўйича таҳлил ўказилмоқда.

Хўжалик субъектларида ички аудит ўтказиш жараёнида асосий ўринни айланма маблағларни ифодаловчи кўрсаткичларга баҳо бериш эгаллайди. Ҳозирги кунда корхоналарни амалиёт талабига мослашишига таъсир қилувчи муҳим омиллар қаторида уларни айланма активлар билан таъминланганлиги, фойдаланиш самарадорлигини таҳлил қилиш усуллариини такомиллаштиришни талаб қилмоқда. Чунки, айланма активлар ҳаракатини таҳлил қилиш хўжалик фаолиятини ривожланишини таъминловчи муҳим тадбирлардан биридир. Корхоналарнинг айланма маблағлар билан ўз вақтида, зарурий миқдорда, белгиланган сифатда ҳамда бир маромда таъминланганлиги, улардан рационал фойдаланиш пировардида унинг иқтисодий ривожланишига ва тараққий этиши учун ҳар томонлама таъсир этади. Айланма маблағлардан фойдаланиш самарадорлиги уларнинг айланиш тезлиги, даромадлилиги ва рентабеллилиги билан, яъни айланма маблағларнинг ҳар сўмига тўғри келадиган фойда миқдори билан белгиланади.

Айланма маблағларни айланувчанлиги деганда, уларнинг пулга айланиш тезлиги тушунилади. “Айланувчанлик корхона фаолиятининг самарадорлигини тавсифловчи кўрсаткич бўлиб, у асосда бизнесни бошқаришда ресурслар чекланганлиги ва улардан унумли фойдаланиш даражаси таҳлил қилинади ва

¹⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги "Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 4611-сонли қарори.

унинг муҳим йўналишлари белгиланади”¹⁴⁷. Мазкур кўрсаткичга баҳо бериш корхона ички аудитнинг муҳим объекти ҳисобланади.

Ички аудит жараёнида МҲХС асосида тузилган молиявий ҳисоботлар бўйича таҳлил ўтказиш керак бўлади. Халқаро амалиётда айланма маблағларни айланишини ифодаловчи кўрсаткичлар бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

1. Айланма маблағларни айланиш коэффиценти.

$$\text{Айланма маблағларни айланиш коэффиценти} = \frac{\text{Маҳсулот (иш, хизмат)лар сотишдан соф тушум}}{\text{Айланма маблағлар ўртача йиллик қиймати}}$$

Ушбу коэффицент айланма маблағларни бир йилда неча марта айланишини билдиради.

2. Айланма маблағларни айланиш куни.

$$\text{Айланма маблағларни айланиш куни} = \frac{\text{Айланма маблағлар ўртача йиллик қиймати} * 365}{\text{Маҳсулот (иш, хизмат)лар сотишдан соф тушум}}$$

Айланиш куни, айланма маблағларни бир марта айланиб чиқиш учун неча кун кетганини ифодалайди.

МҲХС бўйича молиявий таҳлил ўтказишда заҳираларнинг айланишини таҳлил қилиш ҳам муҳим ҳисобланади. Халқаро амалиётда заҳираларни айланиш коэффицентлари қуйидагича аниқланади:

1. Заҳираларнинг айланиш даври (кун).

$$\text{Заҳираларнинг айланиш даври (кун)} = \frac{\text{Заҳираларни ўртача йиллик қиймати}}{\text{Сотилган маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш таннари} * 365 \text{ кун}}$$

Куннинг ошгани заҳираларни кўп вақт сарфланаётганлигини, талабни йўқлигини, назоратни пастлигини кўрсатади. Бошқа томондан заҳираларни айланиш кунининг ошиши:

1) савдо чегирмаларидан фойдаланиб кўп ҳажмда заҳираларни сотиб олиш;
2) заҳиралар дефицитини камайтириш ёки кутилаётган катта ҳажмдаги буюртмани ошиши билан белгиланиши мумкин.

2. Заҳираларни айланиш коэффиценти (марта).

$$\text{Заҳираларнинг айланиш коэффиценти (марта)} = \frac{\text{Сотилган маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш таннари}}{\text{Заҳираларни ўртача йиллик қиймати}}$$

Юқори айланиш корхона сотишга қараганда заҳиралар даражаси пастлигини кўрсатади. Заҳираларни сақлашга харажатлар камайганини билдиради. Лекин унга тез-тез етказиб бериш керак бўлади. Вақт бўйича қатъий етказиб бериш тизими шундай стратегияни кўрсатади. Паст айланиш эса корхона сотиш даражасига қараганда заҳиралар даражасини юқорилигини кўрсатади.

Айланма маблағларни айланишини бир ойлигини, бир чораклигини, ярим ва бир йиллигини аниқлаш ва таҳлил қилиш мумкин. Айланма маблағларни айланишини тезлашиши айланма маблағларни ишлаб чиқаришдан бир қисмини озод қилинишига, айланма маблағларни секинлашуви эса ишлаб чиқаришга айланма маблағларни қўшимча жалб қилинишига олиб келади.

¹⁴⁷ Шоалимов А.Х., Илхамов Ш.И., Тожибоева Ш.А. Иқтисодий таҳлил ва аудит. Дарслик. Т.: Сано-стандарт, 2017й.

1-жадвал

**“Дори-Дармон” АЖ айланма маблағларини айланиш кўрсаткичларини
динамиқ таҳлили**

Кўрсаткичлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил	2022 йилда 2018 йилга нисбатан фарқи (+,-)	2022 йил 2021 йилга нисбатан фарқи (+,-)
1. Маҳсулотлар сотишдан олинган соф тушум	7247879 7.00	5712913 4.00	3165643 81.00	4021320 72.00	218 718 590,02	+14623979 3.02	-183413481.98
2. Сотилган маҳсулотларни ишлаб чиқариш таннархи	7463309 6.00	5860238 5.00	2810363 79.00	3782692 10.00	199 374 577,08	+12474148 41.08	-178894632.92
3. Айланма маблағларни ўртача йиллик қиймати	2186772 61,00	1346146 28,00	1422128 71,00	1783388 97,5	1740768 29,95	- 44600431.0 5	-4262067.55
4. Заҳираларни ўртача йиллик қиймати	6231206 5,5	3301280 4,00	6776377 4,5	7992502 1,5	4371369 9,18	- 18598366.3 2	-36211322.32
5. Ҳисобот давридаги кун	365	365	365	365	365	-	-
6. Айланма маблағларнинг айланиш коэффициенти (1:3).	0,331	0,424	2,226	2,255	1,256	+0,925	-0,999
7. Айланма маблағларни айланиш куни (3x365:1).	1101,25	860,05	163,97	161,87	290,50	-810,75	+128,63
8. Заҳираларни айланиш коэффициенти (2:4).	1,198	1,775	4,147	4,733	4,561	+3,363	-0,172
9. Заҳираларни айланиш куни (4x365:2).	304,74	205,62	88,01	77,12	80,03	-224,71	+2,91

Айланма маблағларни айланишини тезлашуви натижасида қанча айланма маблағларни ишлаб чиқаришдан озод қилинганлигини ёки айланма маблағларни айланишини секинлашуви натижасида қанча айланма маблағларни қўшимча ишлаб чиқаришга жалб этилишини аниқлаш учун айланма маблағларни айланишини тезлашган ёки секинлашган кунини бир кунлик оборот суммасига кўпайтириш керак. Уларнинг таҳлилинини 1-жадвалда кўриб чиқамиз.

1-жадвал маълумотлари бўйича, “Дори-Дармон” АЖ да айланма маблағларнинг ўртача йиллик қиймати йиллар кесимида кўрадиган бўлсак 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 44600431,05 минг сўмга, 2021 йилга нисбатан эса

4262067,55 минг сўмга камайган. Айланма маблағларни айланиш коэффиценти 2018 йилда 0,333 бандни ташкил қилган ҳолда 2022 йилга нисбатан 0,925 мартага кўпайган. Мазкур коэффицент 2021 йилда 2,225 бандни, 2022 йилда эса 1,256 банддан иборат бўлиб, 0, 999 коэффицентга камайган. Бу ҳолат айланма маблағлар ўртача қийматини камайганлиги билан изоҳланади.

Хулоса қилиб айтганда, жамиятда айланма маблағларни айланиш кунда таҳлил йилларида ўсиш ва пасайиш тенденциясини кўришимиз мумкин. 2018 йилда айланма маблағларни айланиши 1101,25 кунни ташкил қилган бўлса ($1101,25 \times 0,331=365$), 2022 йилда 290,50 ($290,50 \times 1,256= 365$) кундан иборат бўлган ҳолда, 810,75 кунга камайган. Бу айланма маблағларни айланиш кунининг тезлашганлигини кўрсатади. 2021 йилда айланма маблағларни айланиш кунни 161,87 кунни, 2022 йили эса 290,50 кунни ташкил қилиб, 128,63 кунга ошган. Бу салбий ҳолат ҳисобланиб, айланма маблағларни айланишини секинлашганлигини кўрсатади. Мазкур ҳолатга корхонада соф тушум ва айланма маблағларни ўртача йиллик қийматини камайганлиги сабаб бўлган.

MIKROMOLIYALASH MEKANIZMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

N.I.Sultanova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tadqiqotchisi*

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra dunyoning uchinchi dunyo-rivojlanayotgan davlatlarida 7 mingdan ortiq mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyat olib borib ular 16 mln.kishiga xizmat ko'rsatadi. Eng ko'p aholiga ega bo'lgan Xitoy davlati aynan mikromoliyalash tizimidan keng foydalangan holda kambag'allikni kamaytirish sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. 40 yildan ozgina ortiq davrda 800 mln.dan ortiq qishloq joylari aholisining turmush darajasi farovonlashtirildi. Kambag'allik koeffisienti 1978 yildagi 97,5 foizdan 2022 yil boshiga 0,5 foizgacha qisqardi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning 75-sessiyasida o'z chiqishida aholining kam ta'minlangan, nochor qatlamlarini moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlash orqali ularning hayotini yaxshilash mamlakatimizning asosiy maqsad vazifalaridan biri ekanligini ta'kidladi. Mamlakatimizda mikromoliyaviy xizmatlar bozori faoliyatini takomillashtirish borasida hali o'z yechimini topmagan ayrim muammolar mavjud. jumladan, tijorat banklari va nobank moliya muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi kichik biznes va xususiy tad-birkorlik sub'ektlari talablarini to'liq qondirish darajasida emas. Xususan, 2023 yilning 1 aprel holatiga respublikamiz tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ichida mikroqarzlilar 14,9 foizni, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar ichida mikro kreditlar salmog'i 1,7 foizni tashkil etmoqda.

Dunyoning qator davlatlari mikromoliyalash va mikromoliyaviy dasturlarni amalga oshirish amaliyoti borasida katta tajribaga ega. Ushbu tajribalarni o'rgangan holda ularning ijobiy jihatlari mamlakatimiz amaliyotida qo'llash orqali mikromoliyalash

tizimini rivojlantirish mamlakatimizda qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechishda qo‘l kelishi mumkin. Mikromoliyaviy xizmatlar ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan biznes turi hisoblanadi va u har bir davlatning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib turli shakl va tartiblarda namoyon bo‘lishi mumkin. Xorijiy davlatlarda mikromoliyaviy xizmatlarning rivojlanishi ko‘lamida qaraydigan bo‘lsak bunday kreditlash ko‘proq ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan rivojlanishda jahon iqtisodiyotidan orqada qolayotgan, nochor aholi qatlami ko‘pchilikni tashkil etadigan, moliya-kredit vositalaridan foydalanish imkoniyati kam bo‘lgan Lotin Amerikasi, Afrika, Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan va qo‘llaniladi, ya‘ni mikromoliyaviy xizmatlarning ko‘p miqdori rivojlanayotgan davlatlarga to‘g‘ri keladi.

Bunga misol tariqasida biz oldingi paragrafda e‘tibor qaratgan, 1976 yilda Bangladeshda professor Muxammad Yunus tomonidan taklif etilgan «Grameen» (Grameen Bank) loyihasi hisoblanadi¹⁴⁸. Ilk bor mehnat qilish istagida bo‘lgan 40 nafar faol ayolga juda kam foiz stavkasi bilan, garovsiz 27 AQSh doll. berish orqali oilaviy biznesni ochishga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar mazkur qatlam aholi uchun qanchalik muhimligini ko‘rsata oldi. Muxammad Yunus «Pulni olgan kambag‘allar menga pulimni hech qachon qaytarmasligi to‘g‘risida meni ogohlantirishgan edi. Men risk qilishga tayyor edim. Ammo, eng qiziqarlisi shundaki, men kimga pul bergan bo‘lsam ular menga pullarimni oxirgi sentigacha qaytarib berishdi».¹⁴⁹ 1976-1983 yillar Grameen Bank uchun sinov davri bo‘ldi va 1983 yilga kelib bank mikromoliyalash sohasida yetarli tajriba to‘plab mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan bankga aylandi. Faoliyati boshlanishi yillarida 100 nafar ham mijozga ega bo‘lmagan bank 43 ming mijozga xizmat ko‘rsata boshlagan. 2000 yillar boshida bank 4 mln.dan ortiq mikro kreditlar bergan. Bugungi kunda Grameen Bank 1267 filiallari orqali 46 mingdan ortiq aholi punktlariga xizmat ko‘rsatadi, qarz oluvchilar soni esa 7 mln.kishini tashkil etib shundan 98 foizi ayollar bo‘lib berilgan mikro kreditlar miqdori 5,1 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etadi.¹⁵⁰ Bangladeshda 75 foiz kam ta‘minlangan ayollar imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish maqsadida ma‘lum xususiy korxonaning a‘ziligiga o‘tishni afzal ko‘rishadi. 15 mln.ga yaqin bangladesh oilasi mikroqarz va mikro kredit kabi mikromoliyaviy xizmatlardan keng foydalanadilar. Tadqiqodlar shuni ko‘rsatadiki, Bangladeshda mikromoliyaviy xizmatlardan keng foydalanish orqali kambag‘allikni 40 foizga kamaytirishga erishilgan.¹⁵¹

Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari ichida kambag‘alchilik darajasi yuqori bo‘lgan Indoneziyada mikromoliyalash tizimi mikromoliyaviy xizmatlarni amalga oshiruvchi bank institutlarini davlat tomonidan rag‘batlantirishga asoslangan. V 1970 g. Indoneziya

¹⁴⁸ Юнус Мухаммад, Жоли Алан. Создавая мир без бедности. Социальный бизнес ва будущее капитализма. – М.: Альпина Паблишер, 2009. – С. 91-92.

¹⁴⁹ Сайт «Финансовые услуги» (кредитные кооперативы/биб-лиотека). URL:<http://www.smolfinance.ru/biblioteka/mikrofinansirovanie/biblioteka-mikrofinansirovaniya/zarubezhnyjopyt/5> 10-15-efiopiya.htm.

¹⁵⁰ Сайт «Финансовые услуги» (кредитные кооперативы/биб-лиотека). URL: <http://www.smolfinance.ru/biblioteka/mikrofinansirovanie/biblioteka-mikrofinansirovaniya/zarubezhnyjopyt/520-115-umoa.htm>.

¹⁵¹ Сайт CGAP. URL: <http://www.cgap.org/p/site/c/template.rc>

Moliya vazirligi davlat mulkiga asoslangan bank - Bank Rakyatga “o‘zaro sug‘urtalash dasturi” asosida mamlakatning 3600 hududida “qishloq banklari” tarmog‘ini tuzish vazifasini qo‘ygan va mazkur bank tarmoqlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. “Bank Rakyat”ning mikroqarzlarning portfeli asosan “qishloq banklari” tomonidan jalb qilingan omonot va jamg‘armalar hisobidan shakllantirilgan.

Lotin Amerikaning kambag‘al davlatlaridan biri bo‘lgan Boliviya 1992 yilda mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi “BancoSol” banki tashkil etilgan bo‘lib bu bankning moliyaviy resurslari asosan jalb qilinadigan depozit va omonotlar hisobidan shakllantiriladi. Bank bugun 26 xududiy bo‘linmasiga ega, 70 foiz mijozlari ayollar hisoblanadi. Afrikaning eng kambag‘al davlatlaridan biri bo‘lgan Efiopiyada mikroqarzlarning qishloq joylarida fermer xo‘jaliklariga, shaharlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga ajratiladi. Mikroqarzlarning maksimal miqdori bir qarzdorga 5000 bir (673 doll.)ni tashkil etadi. Mikromoliyalash tizimi qattiq nazorat ostida Milliy bank tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda qator kambag‘al davlatlar, ayniqsa, “Union Monetaire Quest Africain” kiruvchi (Benin, Togo, Burkina-Faso, Niger, Kot-d’Ivuar, Senegal, Mali, Gvineya-Bissau) davlatlar mikromoliyalash tizimini rivojlantirish orqali mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash ustida ishlamoqda.

Pokiston Respublikasida kam ta‘minlangan, nochor aholi qatlamini moliyaviy qo‘llab quvvatlash maqsadida qishloq joylarida «SANGI», Rivojlanish fondi nodavlat tashkiloti tashkil etilgan bo‘lib ular qishloq joylarda ssuda-jamg‘arma tizimida ishlaydi. Tashkilotga a‘zo bo‘lish 90 AQSh sentini tashkil etadi. Har bir a‘zo foyda keltiradigan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo‘lgan muddatda 150 AQSh doll. miqdorida mikroqarz olishi mumkin bo‘ladi.

O‘tish davri iqtisodiyoti bo‘yicha rivojlanayotgan davlatlar bo‘lgan Hindiston, Braziliya, Argentina va boshqalar da mikromoliyalash nafaqat ijtimoiy xarakterga, balki, siyosiy xarakterga ham ega. Chunki bu davlatlarda mikromoliyalash mulkdorlar sinfini shakllantirishga qaratilgan. Bu davlatlarda mikromoliyalash xizmatlari Afrika davlatlaridan maqsadi, ko‘lami, tizimi va usullari bilan farq etadi. Bu davlatlarda mikromoliyaviy xizmatdan foydalanuvchi mijozlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlari va qishloq hamda kichik shaharlar aholisi hisoblanadi. Mikromoliyalash tizimi orqali ijtimoiy muammolarni hal etib aholining daromadlarini oshirish sohasida Xitoy yetakchisi **Si Szinpinning** 25 fevral 2021 yildagi BMT sessiyasidagi chiqishiga e‘tibor qaratish ahamiyatli deb o‘ylaymiz. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra Xitoy qashshoqlik ustidan mutloq g‘alaba qildi. 98,99 mln. qishloq joylarida istiqomat qiladigan qashshoq aholi qashshoqlik holatidan olib chiqildi. Shuningdek, kambag‘al xududdan 832 uezd, 128 qishloq olib chiqildi. Oxirgi 8 yil davomida Xitoy kambag‘alchilikni kamaytirishga 246 mlrd.doll. miqdorida investitsiya yo‘naltirishga erishdi. Xitoyning bunday muvoffaqiyatining asosiy sababi kam ta‘minlangan ijtimoiy jihatdan himoya va qo‘llab quvvatlashga muhtoj qatlam aholiga imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, ularni ish joylashtirish, ish o‘rinlar yaratish orqali ularga ijtimoiy yordam berilgan. Buning uchun qishloq xo‘jaligi, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, qurilish, ta‘lim va sog‘likni saqlash sohalarida islohotlar amalga oshirilgan. Bu sohalarining barchasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Ba'zi davlatlarda mikromoliyaviy tashkilotlarning soni va tarkibi¹⁵²

Davlatlar	Qarz oluvchilar soni mln.kishi	Qarz oluvchi xotin-qizlar ulushi-%	Qarz oluvchi erkaklar ulushi-%	O'sish sur'atlari (yilda, foizda)
Rossiya	3,1	44	56	12,5
AQSH	13,4	74	26	16,6
Hindiston	56,7	93	7	11,2

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Barcha MDH davlatlari qatori Rossiyada ham mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonlari hali rivojlangan emas. Ammo, AQSh, Xindiston kabi davlatlarda mikromoliyalash mexanizmi ijobiy o'sish sur'atlari bilan birgalikda aholini keng qamrab olish xususiyatiga ega. Bu hol mikromoliyalash bo'yicha foiz stavkalarining past yoki yuqoriligi bilan ham belgilanadi. Masalan, AQShda yillik foiz stavkalari 7% dan boshlanib 50% gacha bo'ladigan bo'lsa Hindistonda mikromoliyalash bo'yicha foiz stavkalari 25-28 % dan kamni tashkil etmaydi. Rossiyada mikromoliyalash bo'yicha kunlik 0,5%dan 2 % gachani, yillik esa 70 % gachani tashkil etish hollari mavjud. Dunyo bo'yicha mikromoliyalashning turlicha bo'lishi mikromoliyaviy xizmatlarni tashkil etish tamoyillari va qoidalariga bog'liqdir. AQShda mikromoliyaviy tashkilotlar sifatida ko'proq kredit uyushmalari faoliyat ko'rsatadi va ular soliq to'lamaydilar yoki soliq bo'yicha qator imtiyozlarga ega hamda har bir shtat tomonidan litsenziyalanadilar. Ular o'zaro qarz prinsipi asosida ko'pchiligi nodavlat notijorat tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatishadi va aksariyat kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashadi. Hindistonda mikromoliyalash xizmatlari aholining eng ta'minlangan, kambag'al qatlamiga yo'naltiriladi va mikrokreditlar miqdori AQShdagiga nisbatan ancha past hisoblanadi. Ammo, kam miqdordagi mablag' bo'lsada, bank resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan kambag'al qatlam aholi uchun bu mablag'lar juda ham zarur hisoblanadi.

ПАХТА-ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

Н.С.Каримова

ТДИУ таянч докторанти

.Дунё мамлакатларида тўқимачилик саноатини ривожланишининг асосий мақсадларидан бири инновацион технологияларини қўллаш, маҳаллий кластерларни яратиш асосида тармоқ рақобатбардошлигини ошириш, ҳамда қўшилган қиймат занжирига самарали интеграциясини таъминлашга эришишдан иборатдир. Шунингдек мамлакатимизда ҳам бир қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинди, хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 февралдаги «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ислоҳ қилишни янада чуқурлаштириш ва унинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4186 сонли қарори қабул қилинди. Президентимизнинг 2023 йил

¹⁵² Science journal of volSU. Global Economic System 2018. Vol. 20. Ma'lumotlari asosida tuzildi

21 ноябрдаги “Айрим саноат тармоқларида сифатли ва рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони билан тўқимачилик маҳсулотлари экспортига қўшимча рағбатлар берилмоқда.

Ўзбекистонинг тўқимачилик саноати қадимдан ривожланган тармоқ сифатида жаҳон мамлакатлари орасида бу тармоқнинг ривожланиши учун ўзига хос қулай ресурс имкониятлари ва бозор муҳити шаклланганлиги билан ажралиб туради. Пахта-тўқимачилик кластери — бир ёки бир нечта ташкилотлар томонидан пахта хом ашёсини етиштириш ва (ёки) шартнома асосида сотиб олишдан уни, шу жумладан бошқа хўжалик субъектлари билан ҳамкорлик асосида чуқур қайта ишлаш жараёнларини ўз ичига олган ишлаб чиқариш мажмуасидир.¹⁵³

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, 2023 йил якунларида 41 та кластерда ҳосилдорлик 40 сентнердан ошган бўлса, 9 тасида 30 центнердан кам бўлган, ҳосилдорлик пастлиги ва таннарх юқорилиги ҳисобига Жиззах, Қашқадарё, Наманган, Самарқанд ва Тошкент вилоятларида рентабеллик 10-11 фоиздан ошмаган. Пахта-тўқимачилик ишлаб чиқариши ташкилотчилари биринчи навбатда ер, сув ва бошқа ресурслардан самарали ҳамда оқилона фойдаланишга, ҳосилдорликни оширишга ва етиштириладиган пахта хом ашёсининг ўз вақтида йиғиб-териб олинишига қўмаклашади, шунингдек, унинг чуқур қайта ишланишини ва юқори қўшилган қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг кўпайтирилишини таъминлайди.

Рақобат шароитида пахтачиликни барқарор ривожлантиришнинг асосий омили сифатида соҳадаги субъектлар фаолиятини нафақат технологик жиҳатдан, балки ташкилий ва бошқарув соҳасини ҳам модернизациялашни кўришимиз мумкин. Модернизациялаш, ўз навбатида, пахта саноатининг истиқболли рақобатбардош моделини яратишни, унинг мақбул ижтимоий таркиби ва пахтачилик субъектларини бозор тамойилларига мос ташкилий турларини шакллантиришни тақозо этади. Натижада пахта-тўқимачилик кластерлари томонидан пахта хом-ашёсини етиштириш ва уни чуқур қайта ишлаш асосида тайёр тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш, уни миллий ва жаҳон бозорларида сотиш имкониятлари тобора кенгайиб бормоқда. Пахта-тўқимачилик кластерлари қишлоқ жойларида янги иш ўринларини яратиб, аҳолини мунтазам даромад олишларини таъминламоқда. Буларни барчаси пахта-тўқимачилик кластерларини ташкил этиш, ривожлантириш ва иқтисодий самарадорликка эришишига таъсир этувчи омилларни аниқ белгиланганлигини ва уларни илмий ҳамда иқтисодий жиҳатидан аниқ асослаб берилганлигини натижасидир. Пахта-тўқимачилик кластерлари ўз олдида қўйган мақсадларини амалга ошириш учун қуйидаги вазифаларни устувор йўналишлар сифатида белгилаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

¹⁵³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Пахта тўқимачилик кластерлари фаолиятини тартибга солиш чора тадбирлари тўғрисида”ги 16.11.2021 йилдаги ПФ-14 сон

1). Пахта ва бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари етиштиришнинг стратегик ва устувор йўналишларини белгилаш ҳамда мувофиқлаштиришни самарали тизимлари ва усулларини жорий этиш.

2). Хорижий мамлакатлар ва корхоналар билан иқтисодий, техникавий, технологик ва сармоявий ҳамкорликни йўлга қўйиш.

3). Пахта-тўқимачилик маҳсулотларига ички ва хориж бозорларидаги талаб ва таклифни мунтазам ўрганиб бориш асосида рақобат стратегиясини белгилаш.

4). Кластер таркибидаги тадбиркорлик корхоналари фаолиятига янги технологиялар ва менежментнинг илғор усулларини жорий этиш ва шу қабилар.

Пахта-тўқимачилик кластерлари томонидан жойларда босқичма-босқич замонавий қишлоқ хўжалиги техникалари паркинни яратиш, соҳанинг механизация даражасини ошириш, етиштирилган ҳосилни чуқур қайта ишлашни йўлга қўйиш, маҳсулот етиштиришда банд бўлган аҳолини саноат ва хизмат кўрсатиш тармоқларига ўтказиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. 2024 йил 31 декабр гача ип-калавани экспорт қилишда ундириладиган йиғимнинг амалдаги миқдори 5 бараварга камайтириши ва шу муддатга бўялган мато ва бўялган газламани реализация қилишдан тушган умумий тушумида ушбу маҳсулотларни ички бозорда сотиш улуши камида 50 фоизни ташкил қилган корхоналарга ижтимоий солиқни 1 фоиз миқдордаги солиқ ставкаси бўйича тўлаш ҳамда уч йил муддатгача юридик шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи тўловини кечиктириш ҳуқуқи берилиши, 2026 йил 1 октябр гача тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналари фаолияти учун зарур бўлган айрим товарларни импорт қилишда божхона божидан озод қилиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2016 йил 2 декабрдаги “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантиришнинг 2017 йилларга мўлжалланган чора – тадбирлари дастури тўғрисида”ги ПҚ-2687 сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 04.12.2021 йилдаги “Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисида”ги 733-сон қарори.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.11.2021 йилдаги “Пахта тўқимачилик кластерлари фаолиятини тартибга солиш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-14 сон фармони
М.Раҳматов. “Янги Ўзбекистон Учинчи Ренессанс остонасида” Т: “Замин нашр” 2021, 212 б.

М.А.Раҳматов, Б.З.Зарипов. “Кластер-интеграция инновация ва иқтисодий ўсиш” рисоласи Т: “Замин нашр” 2018.

БОЖХОНА ТЎЛОВЛАРИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

О.А.Сарманов

*Тошкент давлат иқтисодий университетининг
мустақил изланувчиси,
Божхона институти катта ўқитувчиси*

Янги Ўзбекистоннинг барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлашда ва унинг ташқи иқтисодий фаолиятини тартибга солишда боғхона тўловларидан фойдаланиш муҳим ўрин тутди. Боғхона тўловлари ташқи иқтисодий фаолиятни тартибга солишда ташқи савдо айланмасини зарур даражада тартибга солиш, иқтисодий хавфсизликни таъминлаш ҳамда фискал вазифаларни бажаради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ««Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони қабул қилинди. Мазкур Фармонга мувофиқ «Барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш» устувор йўналишлардан бири сифатида белгиланди. Мазкур йўналишнинг «Фискал барқарорликни таъминлаш ва давлат мажбуриятларини самарали бошқариш» номли 46-мақсадида – «Консолидациялашган бюджет тақчиллигини 2024 йилда ялпи ички маҳсулотга нисбатан 4 фоиздан ва келгуси йилларда 3 фоиздан паст бўлган миқдорда бўлишини таъминлаш» вазифаси белгилаб берилди.[1]

Боғхона тўловлари давлат бюджетини муҳим манбаларидан ҳисобланиб, унинг мазмун-моҳияти ва уларни ташқи савдони тартибга солишда қўллашни назарий асослари бўйича дунё олимлари турлича тариф берган. Жумладан:

Боғхона тўловларининг мазмун-моҳияти бўйича қуйидаги олимлар ўзларининг фикрларини билдиришган: Д.А. Слепов ва Е.В. Чуйковлар боғхона тўловлари боғхона органлари ходимлари томонидан ҳисобланадиган ва федерал бюджет даромадлар қисмини тўлдирувчи манба ҳисобланади. [2]

Е. V. Романова қуйидаги таърифни беради: «боғхона тўловлари - бу боғхона божи, қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи, боғхона йиғимлари ва амалдаги боғхона қонунчилигида назарда тутилган ва Россия Федерациясининг ташқи савдо фаолиятини боғхона тарифларини тартибга солиш учун белгиланган тартибда боғхона органлари томонидан ундириладиган бошқа тўловлар. [3]

Манбаларда кўпроқ солиқлар таҳлили тадқиқ этилган. Айрим тадқиқот ишларида, жумладан Попов В.В. томонидан «Боғхона тўловлари иқтисодий таҳлил маълумотларининг объекти ва манбаи сифатида» ўрганилган. Лекин, унда боғхона тўловлари таҳлиliga алоҳида тариф берилмаган. [4]

Ўзбекистон Республикасида жами ундириладиган боғхона тўловларини таркибида олиб кириладиган товарлардан ундириладиган боғхона тўловлари 98 фоизни, солиқлар эса 83-85 фоизни ташкил этади.

М.В. Васильеванинг таъкидлашича: «Солиқ таҳлили - бу маълум солиқларга нисбатан мавжуд имтиёзлардан фойдаланиш, амалдаги қонун ҳужжатларини таҳлил қилиш, солиқ сиёсатини тавсифлаш ва маълум вақт оралиғида солиқ имтиёзларини таҳлил қилиш усулларининг тўплами» деб кўрсатилган. [5]

Исроилов Б.И. томонидан солиқ таҳлиliga қуйидаги таъриф берилган: “Солиқлар таҳлили деганда хўжалик юритувчи субъектларда солиқларнинг умумий ҳажмини, алоҳида турларини, тўланиш муддатлари ва ставкаларига амал қилиниши, солиқ тўланадиган объектлар билан солиштирилган ҳолда солиқлар ҳажмини ўзгариш динамикасини ва шу ўзгаришларга таъсир этувчи омилларни комплекс тарзда ўрганиш тушунилади”.

Исаев Ф.И. томонидан билдирилган тарифда: “Солиқ таҳлили деганда - мамлакат бюджети даромад қисмини шакллантиришда, солиқ ва йиғимларни режалаштиришда, тушумларни прогноз қилишда қўлланиладиган усуллар ҳамда хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳолатига солиқ харажатларини таъсирини ҳисоблаш усуллари тушунилади”. [6]

Бизнинг фикримизча, “Божхона тўловлари таҳлили деганда – божхона тўловларининг умумий ҳажми, турлари, тўлаш муддатлари ва ставкаларига амал қилиниши, божхона тўловлари миқдорини ўзгариши динамикаси ва унга таъсир этувчи омилларни комплекс ўрганиш тушунилади” дея тариф бериш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон Республикасида ундирилган божхона тўловларининг миқдори ҳам йилдан — йилга ошмоқда. Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, бу кўрсаткич 2018-2022 йилларда 2,2 мартага ошган.

Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда жами божхона тўловлари таркибида: қўшилган қиймат солиғи 83,9 фоизни, импорт божхона божи 12,6 фоизни, аксиз солиғи 0,7 фоизни, бошқа тўловлар 2,8 фоизни ташкил этган. 2018 йилда бу кўрсаткичлар мос равишда 74,5, 16,1, 4,6 ва 4,5 фоиз бўлган. Бу йилларда импорт божини улуши 3,5 фоизга, аксиз солиғи 3,9 фоизга, божхона йиғимлари ва бошқалар 1,7 фоизга камайган ва аксинча қўшилган қиймат солиғи 9,4 фоизга ошган.

Божхона тўловлари таҳлилининг амалга ошириш даражасини шартли равишда қуйидагича белгилаб олиш лозим:

- божхона қўмитаси миқёсида;
- божхона қўмитасининг ҳудудий божхона бошқармаси миқёсида;
- божхона постлари миқёсида;
- ташқи иқтисодий фаолият қатнашчиси миқёсида.

Божхона тўловлари таҳлилининг амалга оширишнинг миқёсини белгилаб олиш таҳлилнинг натижадорлиги ва мақсадга эришиш самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Божхона тўловларини тўғри ва тўлиқ ундирилганлигини назорат қилиш йўналишида божхона тўловлари таҳлилининг ўтказиш натижасида божхона тўловларидан қарздорлик ҳолатлари юзага келади. Таҳлиллар давомида божхона тўловларидан қарздорликнинг келиб чиқишининг бир қатор сабаблари маълум бўлди. Булар жумласига имтиёзлар нотўғри қўлланилиши, товар келиб чиқиш сертификати нотўғри қабул қилинганлиги, божхона қиймати нотўғри белгиланганлиги, товарларнинг ТИФ ТН коди нотўғри белгиланиши ва бошқа ҳолатларни киритиш мумкин.

Юқоридагилардан маълум бўладики, божхона тўловлари таҳлилининг

Слепова Д.А., Чуйкова Е.В. Таможенные платежи, исчисляемые таможенными представителями как источник формирования доходов федерального бюджета Российской Федерации. *Экономика и управление: новые вызовы и перспективы*. 2016;(11):192–196.

Романова Е. В. Таможенные платежи. — СПб., 2005. — С. 29–30.

Попов В.В. Формирование методологии многоуровневого экономического анализа таможенных платежей. *Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук*. Оренбург - 2023.

Васильева М.В. Учётно-информационная база проведения налогового анализа как этапа налогового планирования на микроуровне / М.В. Васильева // *Управленческий учет*. - 2010. - №1. - С. 18.

Исаев Ф.И. Солиқ таҳлилининг назарий масалалари ва ҳисоб-ахборот таъминоти. *Молия ва банк иши электрон илмий журнали*. III сон. май - июнь, 2020

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ, КАК КРИТЕРИЙ УЛУЧШЕНИЯ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ

У.Ш.Файзиев

докторант Ташкентского финансового института

Важным звеном нашей экономики является средний бизнес, основывающийся на новых технологиях и инновациях, производящий качественную и конкурентоспособную продукцию. Однако, будет справедливым сказать, что в настоящее время условия для среднего бизнеса не достаточны. Поручительства или компенсации по коммерческим кредитам предоставляет только Фонд предпринимательства. И то не для всех. На новом этапе развития нашей страны каждый год становится новым шагом в реализации масштабных программ и проектов. Реализовать намеченные на следующие годы планы и программы нам, конечно, будет непросто. И мы должны открыто это сказать. Но с такими решительными, отважными и инициативными предпринимателями, закаленными в жизненных испытаниях, у которых слова не расходятся с делом, мы обязательно достигнем намеченных рубежей. Поэтому мы также наладим новые подходы к поддержке предпринимателей, желающих перейти из малого в средний бизнес. В этом направлении в корне изменится и деятельность, и методы работы существующих фондов по поддержке бизнеса[1].

В целях обеспечения исполнения Указа Президента Республики Узбекистан от 25 января 2023 года № УП–14 «О первоочередных организационных мерах по эффективному налаживанию деятельности республиканских органов исполнительной власти»:

1. Утвердить:

Приоритетные направления деятельности Агентства по управлению государственными активами согласно приложению № 1;

План мер по реорганизации организаций системы Агентства по управлению государственными активами согласно приложению № 2;

Организационную структуру Агентства по управлению государственными активами согласно приложению № 3.

Установить, что с 1 июля 2023 года в целях внедрения современной системы корпоративного управления на предприятиях с государственным участием, повышения эффективности их деятельности и совершенствования дивидендной политики. Размер дивидендов по государственной доле рекомендуется членами наблюдательного совета предприятий с государственным участием, избранных по доле государства, общему собранию акционеров (участников) по согласованию с Агентством по управлению государственными активами исходя из инвестиционных проектов, показателей бизнес-плана и финансового состояния предприятий[2].

При оценке финансового состояния предприятий у специалистов уходит разный интервал времени, но для того, чтобы рационально и правильно создать и провести свой тайм-менеджмент, аналитику необходимо ответить на три главных вопроса, это:

- состояние платежеспособности предприятия;
- доходность предприятия;
- ликвидность активов предприятия.

При оценке платежеспособности предприятия, нам нужно использовать правильно составленный и исправленный, то есть чуждый от искажений отчет о движении денежных средств, здесь в первую очередь нужно посмотреть на сальдо денежных потоков от операционной деятельности, если сальдо всегда положительное, это значит, что основной бизнес постоянно доходен, следующим шагом смотрим на сальдо от финансовой деятельности, так как бывает так, что хорошее финансовое состояние денежных потоков формируется с помощью кредитов, если это так, то необходимо будет проанализировать кредитоспособность предприятия, и то, чем и в какие сроки предприятие собирает данные кредиты погашать. Затем нужно посмотреть на итоговое сальдо по денежным потокам от всей деятельности предприятия, если оно все время положительное, то это означает, что у организации есть все время деньги на выполнение всех платежей по своим обязательствам. Далее нужно составить представление о доходности организации, если отчет оформлен правильно, то в отчете должен быть процентный столбик, в котором должна быть подсчитана рентабельность по валовой, операционной и чистой прибыли, если результативные показатели по валовой, операционной и чистой прибыли соотносятся, как 50%, 25%, 15%, то доходность бизнеса в отличном состоянии. На последнем шаге нужно будет найти ответ относительно состояния ликвидности, который необходимо будет изучить с помощью баланса. Итоги можно вывести, сравнив второй и пятый разделы баланса, и если оборотных активов больше, чем краткосрочные кредиты и займы, то это обозначает, что текущих активов достаточно для погашения займов, а это в свою очередь говорит о том, что ликвидность в норме. В итоге, просмотрев три отчета, если вы вывели три положительных суждения, то можно применив пятибалльную систему поставить 4,5,4, то есть финансовое состояние компании в хорошем состоянии[3].

В своей финансовой деятельности, предприятие может привлекать средства используя те или иные финансовые инструменты. Финансовые инструменты-это

не что иное, как договор в результате которого возникает финансовый актив у одного предприятия и финансовое обязательство или долевой инструмент у другого. Так, что же относится к каждому из них, к финансовым активам принято относить: денежные средства, долевой инструмент другого предприятия, контракт на получение денег или иной финансовый актив, контракт на обмен финансовых инструментов на потенциально выгодных условиях. А, к обязательствам относится прямо противоположное активам, если в активах контракт на получение денег, то в обязательствах контракт на выплату денег, если в активах контракт на обмен финансовых инструментов на потенциально выгодных условиях, то в обязательствах контракт на обмен финансовых инструментов на потенциально невыгодных условиях.

К финансовым инструментам принято относить долговой инструмент, что является договорной обязанностью по передаче другой стороне денежных средств. Долевой инструмент это договор, подтверждающий право на остаточную долю в активах предприятия, оставшихся после вычета всех его обязательств, то есть доля в чистых активах. Производный же финансовый инструмент, отличается от всех прочих тем, что отвечает трем основным критериям:

- стоимость производного инструмента меняется в результате изменения % ставки, индекса цен, обменного курса;

- не требуется значительной первоначальной чистой инвестиции, то есть его первоначальная стоимость либо вообще равна нулю, либо является незначительной по отношению к той составляющей, за которую приобретен инструмент;

- расчеты по производному инструменту осуществляются в будущем.

Первоначальная оценка финансовых инструментов осуществляется по первоначальной стоимости, причем при приобретении финансовых активов затраты понесенные для приобретения данного актива добавляются к стоимости нашего финансового актива, кроме тех, справедливая стоимость которых будет учитываться через прибыль или убытки, тогда они не будут прибавляться, а будут относиться сразу к расходам. А в финансовых обязательствах вычитаются затраты по сделке[4].

Как принято, по справедливой стоимостью мы понимаем стоимость, которая была уплачена при первоначальном приобретении, при первоначальном признании, цена выхода, это цена операции, но бывают такие моменты, что первоначальная стоимость при первоначальном признании будет отличаться от цены сделки. В данном случае все равно нам придется признать инструмент по справедливой стоимости, но разницу возникшую между ценой сделки и справедливой стоимостью нужно будет признать в составе прибыли или убытка.

Приведем пример возникновения подобной разницы, представим, что компания 1 января 2020 года выдала беспроцентную ссуду своему сотруднику в размере 800тыс. долларов, ссуда подлежит выплате 31 декабря 2022 года, компания требует годовую доходность в размере 10% по предоставляемым займам. В данном случае заем является финансовым активом и его первоначальная стоимость будет отражаться по справедливой стоимости на 1 января 2020 года,

справедливая стоимость будет отличительна от цены сделки и отразится следующим образом: $800.000/(1.1)^2=661.157$, возникшая разница между ценой сделки и справедливой стоимостью составит $800.000-661.157=138.843$. Здесь мы можем уверенно сказать, что в любом случае организация, используя любой вид финансовых инструментов будет всегда в выигрыше и иметь достаточно приличную отдачу от своих вложений, что в свою очередь может служить только для улучшения всего финансового состояния предприятия.

Для выполнения последующей оценки финансовых инструментов, необходимо произвести классификацию, классификация в свою очередь будет зависеть от бизнес-модели компании по управлению финансовыми активами, что подразумевает под собой то, какой путь выбрала компания по управлению активами с целью получения денежных потоков, то есть как компания предполагает использовать данный финансовый актив, какие хочет получить выгоды. Также необходимо учесть характеристики денежных потоков финансового актива, какие мы хотим получить денежные потоки от данного финансового актива. Исходя из этого, в последующем финансовый актив может оцениваться по амортизируемой стоимости или по справедливой стоимости, но по справедливой стоимости по одному из двух вариантов, либо через прочий совокупный доход, либо через прибыль и убытки. Основной целью при применении амортизированной стоимости, является получение % и основной суммы долга, соответственно это будет считаться долговым финансовым активом и первой нашей бизнес-моделью. Любой другой актив не оцененный по амортизированной стоимости, но предназначенный для торговли правильно будет отнести ко второй бизнес-модели и при этом данный актив не должен иметь права на дальнейшую реклассификацию и учитываться через прибыль и убытки. К третьей и последней модели мы отнесем такие финансовые активы, которые оцениваются по справедливой стоимости через совокупный доход, то есть будет произведена переоценка через резервный капитал компании, это такие долговые финансовые активы, от которых мы будем ожидать получение процентов, сумму основного долга и поступление от продажи, к примеру мы приобрели облигации какой-либо организации, но процентные ставки по данным облигациям изменились на рынке и мы решили продать кому-то данные облигации[5]. Таким образом, мы имеем три основных бизнес модели:

-для финансовых активов целью которых является получение процентов и суммы основного долга;

-для финансовых активов предназначенных для торговли;

-для финансовых активов целью которых является не только получение процентов и суммы основного долга, но и суммы от перепродажи.

При последующей оценке финансовых обязательств, все намного проще, здесь имеется два способа оценки, либо по справедливой стоимости через прибыль или убытки, либо через оценки амортизационной стоимости. Как первоначальная, так и последующая оценка финансовых обязательств необходима для организации для того, чтобы знать к чему быть готовым и суметь рассчитаться по своим обязательствам.(Рассмотрим это на рисунке 1)

Для осуществления оценки финансового состояния предприятий через оценку компонента финансовых инструментов нам необходимо создать алгоритм, который будет применяться при оценке финансовых инструментов. Именно этот алгоритм предлагается нам, для рассмотрения в рисунке 1, это не что иное, как поэтапное рассмотрение и шаги оценки осуществленных и осуществляемых процессов[6].




Рисунок 1. Алгоритм оценки финансовых инструментов

При изучении сложных финансовых инструментов рассматриваются конвертируемые облигации, для того, чтобы в них разобраться рассмотрим пример, скажем наша компания выпустила облигации в целях привлечения заемных средств, но при этом выпустив 6 облигаций дала право лицам, приобретающим данные облигации, воспользоваться возможностью в конце операции обменять данные облигации на акции компании, но при этом на приобретенные 6 облигаций можно получить либо денежные средства в конце операции, либо 3 акций на данные 6 облигаций. Как раз таки в данной ситуации обмен будет правильным, но подвох в том, что разница будет крыться в процентах. Значит в нашем случае, сумма выпущенных облигаций составляет 50 млн с процентной ставкой, поставленной нами в 5% годовых, нормальная же процентная ставка на рынке сейчас выше 7%, в связи с чем мы даем право при окончании срока владения данными облигациями обменять их на акции 1 к 2, то есть 1 акция за 2 облигации. Вариант для наших покупателей облигаций в таком случае следующий, либо они получают по 7% годовых по рыночной цене, но при этом теряют право на обмен облигаций на акции, либо получают по 5% годовых, но

при этом имеют право обмена. Таким примеров можно раскрыть сущность и цель конвертируемых облигаций, дающих право выбора нашим приобретателям[7].

Таким образом, конвертируемые облигации это особый вид финансовых инструментов, который позволяет компании эмитировать долговые инструменты по более низкой процентной ставке, с правом покупателя обменять их на акции компании. Конвертируемая облигация имеет два компонента:

-компонент капитала, то есть это разница между полученными средствами от выпуска и компонентом обязательства;

-компонент обязательства, дисконтируется по рыночной процентной ставке.

Обесценение финансовых инструментов. Кредитный риск.

При рассмотрении обесценения финансовых инструментов изучаются риски и возможные потери по кредитным операциям. Существует модель ожидаемых кредитных убытков, данная модель помогает нам фактически оценивать, сколько мы потеряем в будущем помимо того, что потеряли. В первую очередь нужно учитывать, что нам нужно создавать резерв в размер ожидаемых кредитных убытков. А для его определения необходимо рассчитать средневзвешенный кредитный убыток, который учитывает риски дефолта в соответствии с их весом, то есть вероятностью возникновения. Убыток от обесценения финансовых активов оценивается и признается в зависимости от того, на какой стадии находится рассматриваемый финансовый актив, всего у нас три стадии. Первая это подверженность кредитному риску, вероятность наступления дефолта и последняя доля убытков в случае дефолта[8].

Процентный доход рассчитывается с помощью метода эффективной процентной ставки, затраты по сделке являются неотъемлемой частью эффективной процентной ставки финансового актива. Эффективная процентная ставка- это ставка, при использовании которой, дисконтированная стоимость будущих денежных потоков по финансовым инструментам ожидаемых в течение срока его жизни будет в точности равна валовой балансовой стоимости финансового актива или стоимости финансового обязательства. Также нужно отметить, что наша кредитная ставка может быть скорректирована с учетом кредитного риска.

Три стадии наших ожидаемых кредитных убытков, для мы изучаем наш финансовый актив и предел допустимых потерь. Наш финансовый актив будет считаться финансовым активом на первой стадии, если финансовый актив будет хорошего качества и ожидаемые потери будут ха 12 месяцев. Что это значит, а значит это то, что кредитный убыток и дефолт произойдут в течение вот этих 12 месяцев. А почему считается, что первая стадия это хорошее качество, потому что вероятность дефолта в первые 12 месяцев низка. На второй стадии считается, что кредитные риски могут вас ожидать не в первые 12 месяцев, а на протяжении всего периода кредитования. А на третьей стадии у нас проблемный кредит или просто дефолтный. То есть уже соглашается то, что какая-то сумма не будет получена или будет отсрочка.

Если кредитный риск значительно увеличился с момента первоначального признания, когда платежи по договору просрочены более, чем на 30 дней и дефолт

наступает не позже момента, когда платеж просрочен на 90 дней- это все опровержимые допущения.

Таким образом, в итоге можно уверенно сказать, что использование финансовых инструментов, и использование их правильно, может послужить улучшению финансового состояния предприятий и повышению эффективности использования денежных средств в нем[9].

Список использованной литературы:

Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на встрече с предпринимателями в формате открытого диалога, 18.08.2023.

Постановление Президента Республики Узбекистан “О мерах по эффективной организации деятельности Агентства по управлению государственными активами”.

Ермолович Л.Л., Сивчик Л.Г., Толкач Г.В., Щитникова И.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Учеб. пособие / Под общ. Ред. Л.Л. Ермолович. – Мн.: Интерпрессервис; Экоперспектива, 2001. – 576 с.

Кононенко О. Анализ финансовой отчетности. Учебник. 3-е издание переработанное. - Х.: Фактор, 2005. – 156 с.

Финансовое право. (Учебное пособие) Под ред. Родионовой М.А. (М.:Юнити-Дана, - 2001 г., - 444с.);

Положение о порядке определения критериев для проведения мониторинга и анализа финансово-экономического состояния предприятий, [Зарегистрировано Министерством юстиции Республики Узбекистан 14 апреля 2005 г. Регистрационный № 1469].

<https://mineconomy.uz/uz/node/1484>

<https://lex.uz/docs/3107036>

<http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/>

СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ

У.Ш.Файзиев

докторант кафедры «Экономический анализ», Ташкентский Финансовый институт

Для анализа финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов прежде всего необходимо раскрыть содержание и внутреннюю сущность понятия «устойчивость». В обыденном понимании устойчивость означает, что объект не подвержен колебаниям, постоянен, стабилен и т. д. Устойчивость характеризует состояние объекта по отношению к внешним воздействиям на него.

Более устойчивым является такое состояние объекта, которое при равных по силе внешних воздействиях и внутренних сдвигах подвержено меньшим изменениям, отклонениям от прежнего положения. Условием обладания устойчивости к внешним воздействиям являются внутренние свойства самого объекта, т. е. основа устойчивости заложена внутри самого объекта. Для того чтобы повысить его устойчивость к воздействию различных факторов, необходимо прежде всего совершенствовать сам объект изнутри. Экономическое

состояние предприятия может варьироваться от крайне неустойчивого, при котором оно находится на грани банкротства, до относительно устойчивого. В случае нарушения устойчивости существенное значение имеет направленность процесса: усиление неустойчивости или ее ослабление.

Одним из важных аспектов обеспечения устойчивого развития предприятия является защита его экономических интересов, которая осуществляется в рамках общей концепции экономической безопасности хозяйствующего субъекта. В различных источниках даются определения экономической безопасности предприятия. Приведем некоторые из них. Безопасность предприятия – состояние защищенности жизненно важных интересов от недобросовестной конкуренции, противоправной деятельности криминальных формирований и отдельных лиц, способность противостоять внешним и внутренним угрозам, сохранять стабильность функционирования и развитие предприятия в соответствии с его уставными целями.[1]

Финансовое состояние предприятия с точки зрения долгосрочной перспективы характеризуется стабильностью основной деятельности, степенью зависимости от кредиторов и инвесторов. Важнейшей чертой, выражающей степень такой зависимости, является структура источников средств, а также обеспеченность запасов и затрат источниками их формирования. Рассматривая финансовую устойчивость предприятия, следует обратить внимание на то, что разные авторы по-разному трактуют данное понятие. В учебнике «Экономический анализ» Г. В. Савицкая дает следующее определение финансовой устойчивости: финансовая устойчивость предприятия – это способность субъекта хозяйствования функционировать и развиваться, сохранять равновесие своих активов и пассивов в изменяющейся внутренней и внешней среде, гарантирующее его платежеспособность и инвестиционную привлекательность в долгосрочной перспективе в границах допустимого уровня риска.[2]. По мнению Савицкой, устойчивое финансовое состояние достигается при достаточности собственного капитала, хорошем качестве активов, достаточном уровне рентабельности с учетом операционного и финансового риска, достаточности ликвидности, стабильных доходах и широких возможностях привлечения заемных средств. Для обеспечения финансовой устойчивости предприятие должно обладать гибкой структурой капитала, уметь организовать его движение таким образом, чтобы обеспечить постоянное превышение доходов над расходами с целью сохранения платежеспособности и создания условий для самофинансирования.

Г. В. Савицкая в основу финансовой устойчивости предприятия ставит собственный капитал, возможность самофинансирования. Но для достижения предприятием хорошего уровня финансовой устойчивости необходимо и привлечение заемного капитала. Каждому предприятию необходимо использовать заемные или привлеченные средства, которые бывают дешевле и рациональнее пользования собственным капиталом.

П. Н. Шуляк в учебнике «Финансы предприятия» характеризует финансовую устойчивость как состояние счетов предприятия, гарантирующее его постоянную платежеспособность.[3]. Платежеспособность является одним из условий

финансовой устойчивости предприятия, но, рассмотрев только платежеспособность, невозможно оценить финансовую устойчивость, потому что для ее оценки требуется рассмотреть комплекс коэффициентов, характеризующий и платежеспособность, и рентабельность, и деловую активность предприятия. Только в этом случае можно сделать правильный вывод о состоянии предприятия, его финансовой устойчивости.

Достаточно точно охарактеризовал финансовую устойчивость предприятия С. М. Пястолов в учебнике «Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия», утверждая, что понятие финансовой устойчивости является многофакторным и многоплановым.[4] По его мнению, финансовая устойчивость является отражением стабильного превышения доходов над расходами. Она обеспечивает свободное маневрирование денежными средствами предприятия и способствует бесперебойному процессу производства и реализации продукции. Финансовая устойчивость формируется в процессе всей производственно-хозяйственной деятельности и может считаться главным компонентом общей устойчивости предприятия.

Учитывая мнения вышеприведенных авторов, можно определить финансовую устойчивость следующим образом.

Финансовая устойчивость – такое состояние финансовых ресурсов предприятия, их распределения и использования, которое обеспечивает развитие предприятия и повышение его рыночной стоимости в соответствии с целями финансового управления.

Цель анализа финансовой устойчивости состоит не только в том, чтобы установить и оценить финансовое состояние предприятия, но и в том, чтобы постоянно проводить работу, направленную на его улучшение. Анализ финансовой устойчивости предприятия показывает, по каким направлениям надо вести эту работу, дает возможность выявить наиболее важные аспекты и наиболее слабые позиции в финансовом состоянии. Важно, чтобы состояние финансовых ресурсов соответствовало требованиям рынка и отвечало потребностям развития предприятия. Недостаточная финансовая устойчивость может привести к неплатежеспособности предприятия и отсутствию у него средств для развития производства, а избыточная – препятствовать развитию, отягощая затраты излишними запасами и резервами.

Таким образом, сущностью финансовой устойчивости являются эффективное формирование, распределение и использование финансовых ресурсов. Платежеспособность выступает внешним проявлением финансовой устойчивости. В соответствии с этим результаты анализа дают ответ на вопрос, каковы важнейшие способы улучшения финансовой устойчивости предприятия в конкретный период его деятельности. Но главной целью анализа являются своевременное выявление и устранение недостатков в финансовой деятельности и нахождение резервов улучшения финансовой устойчивости предприятия и его платежеспособности.

Список использованной литературы:

- Малый экономический словарь / Под ред. А. Н. Азрилияна. М.: Институт новой экономики, 2000.*
- Савицкая Г. В. Экономический анализ: Учебник. М.: Новое знание, 2003.*
- Шуляк П. Н. Финансы предприятия: Учебник. М.: Издательск-торговая корпорация «Дашков и К°», 2004.*
- Пястолов С. М. Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия: Учебник. М.: Издательский центр «Академия», Мастерство, 2002.*

QURILISH TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR TAHLILI

SH.X.Dadaboyev
TDIU ilmiy tadqiqotchisi

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, innovatsion va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida uni boshqarish dastaklari ham takomillashishni taqozo qiladi. Ushbu dastaklardan biri moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari va ularga baho berishdir. Korxonalar xo'jalik faoliyatiga baho berishdagi muhim masalalardan biri tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) holatiga baho berish va tahlil qilish hisoblanadi. Chunki moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini shafofligini oshirishda muhim masala TMZlarning optimal qoldig'ini belgilash, bahosini boshqarish va tannarxga olib borishda samarali hisob yuritish hisoblanadi.

TMZlar tahlili korxonalarining moliyaviy holati va barqarorligi tahlilining bir qismi sifatida tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan xulosalar hamda tavsiyalar shakllantirilgan. Ushbu masalada tadqiqot olib borgan olimlar M.Q.Pardayev va J.I.Isroilov tomonidan¹⁵⁴ TMZlarni umumiy tushunchasi bo'lgan aylanma mablag'lar tahliliga asosiy e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sement ishlab chiqarish sube'ektlarida TMZlarni ta'minlanishi ularni aylanishi va rentabilligi tahlilini amalga oshirish muxim xisoblanadi. Chet ellik iqtisodchilar Yu.Brigxem, M.Erxardtlarning fikriga ko'ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqqan xolda ularning moliyaviy holati, jumladan:

1. Xom ashyo materiallari bilan ta'minlanganligini tahlili;
2. Xom ashyo materiallarni joriy likvidlilik koeffitsiyenti, aylanish koeffitsiyenti va rentabellik koeffitsiyentlarini hisoblash tahlilning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatilgan¹⁵⁵. Ushbu iqtisodchi olimlarning fikriga aosan sanoat ishlab chiqarishda moliyaviy holati barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni baholashda ularni o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari bilan taqqoslash to'g'ri xulosa qilish imkonini bermaydi. Ayrim sement ishlab chiqarish sohasidagi subyektlarda moliyaviy holatning tahlili o'rtacha tarmoq darajasi bilan taqqoslanishida ularning sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Lekin iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy holatni

¹⁵⁴ Pardayev M.Q., Isroilov J.I. Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari. Monografiya, T.: Fan va texnologiya, 2007. -164b.

¹⁵⁵ Brigxem Yu., Erxardt M. Finansovyy menedjment. Per. s angl. – SPb.: Piter, 2009. – S. 122-123.


barqarorligini tahlili va aktivlarning foydalilik koeffitsiyenti darajasi yuqori bo‘ladi¹⁵⁶. Buning bir qancha sabablari bor.

Sement ishlab chiqarish korxonalarining joriy likvidlilik koeffitsiyenti uning joriy davrdagi moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Shu sababli, ushbu koeffitsiyent korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini joriy aktivlar bilan ta‘minlanishni ko‘rsatadi.

Jahon tajribasida moliyaviy strategik boshqaruv jarayonida moliyaviy rejalashtirishdan tashqari, menejerlar tomonidan moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish mezonlarini tahlil qilish va asosiy xarajat elementlarini boshqarish, iqtisodiy risklarni xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyatiga ta‘sirini baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni belgilash lozim.

TMZlarning aylanishi va ularning samaradorligi o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlab olishni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha quyidagi guruhlariga bo‘lish maqsadga muvofiq:

1. Mahsulotlarni sotish va daromadlar bilan bog‘liq omillar.
 2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish bilan bog‘liq omillar.
 3. Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish bilan bog‘liq omillar.
- Ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. TMZ samaradorligi o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligi¹⁵⁷

Birinchi guruh omillar bo‘yicha TMZlari rentabelligining omilli tahlilini amalga oshirish uchun ushbu ko‘rsatkich (N) o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash lozim bo‘ladi. Bu omilarga quyidagilar kiradi:

- sof foydaning soliq to‘langunga qadargi foydasidagi hissasi (R_1);
- soliq to‘langunga qadargi foydaning yalpi foydadagi hissasi (R_2);
- yalpi foydaning sotilgan mahsulot hajmidagi hissasi (R_3);
- tovar moddiy zaxiralarning samaradorligi (R_4).

Ushbu omillarning natija ko‘rsatkichi, ya‘ni TMZlari rentabelligi (N) o‘zgarishiga ta‘sirining o‘zaro bog‘liqligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$N = R_1 * R_2 * R_3 * R_4 ;$$

¹⁵⁶ Brigxem Yu., Erxardt M. Finansovyy menedjment. Per. s angl. – SPb.: Piter, 2009. – S. 122-123.

¹⁵⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu omillarning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlashning amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlash yo'llari qarab chiqiladi.

Ikkinchi guruh omillar bo'yicha ham TMZlari rentabelligining o'zgarishiga alohida omillarni aniqlab, omilli tahlilini amalga oshirish lozim bo'ladi. Buning uchun ushbu ko'rsatkich (N) o'zgarishiga ta'sir etuvchi ikkinchi guruh omillarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bu omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalar rentabelligi, koeffitsiyentda (K_1);
- yuz metr kv. ombor maydoniga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymati (K_2);
- sotilgan mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan ombor maydoni, kv.m (K_3).

Yuqorida keltirilgan omillarning natija ko'rsatkichi, ya'ni TMZlari rentabelligi (N) o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi multiplikativ model shaklidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$N = K_1 * K_2 * K_3 ;$$

Natijaga ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun iqtisodiy tahlilning zanjirli almashtirish, teng taqsimlash, indeks kabi usullaridan foydalanish mumkin.

Uchinchi guruh omillar bo'yicha ham TMZlari samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri, uning rentabelligi o'zgarishiga alohida omillarni aniqlashda uchinchi guruh omillar tizimini ham ishlab chiqishni taqozo qiladi. Ularning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, ushbu holatda ham mazkur natija ko'rsatkichining omilli tahlilini amalga oshirish lozim bo'ladi. Buning uchun ushbu natijaviy ko'rsatkich (N) o'zgarishiga ta'sir etuvchi uchinchi guruh omillarni, ya'ni mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ish haqi rentabelligi, koeffitsiyentda (G_1);
- bitta xodimga to'g'ri keladigan ish haqining miqdori (G_2);
- sotilgan mahsulot hajmi xodimlar bilan ta'minlanganligi (G_3).

Yuqorida keltirilgan mehnat resurslari bilan bog'liq bo'lgan omillarning natija ko'rsatkichi, ya'ni TMZlari rentabelligi (N) o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun ushbu holatda ham quyidagi multiplikativ model shaklidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$N = G_1 * G_2 * G_3 ;$$

Natijaga ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullaridan zanjirli almashtirish, teng taqsimlash, indeks kabi usullarni qo'llash mumkin. Ushbu guruh omillarning ayrimlarining nazariy va amaliy ifodasini qarab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki, natija ko'rsatkichiga tegishli omillar ta'sirini aniqlab, ularning o'zaro bog'liqligini belgilab olingandan so'ng, qolgan amallarni bajarish unchalik murakkablik tug'dirmaydi. Shu tufayli mazkur ishda natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi birinchi guruh omillar, mahsulotlarni sotish va daromadlar bilan bog'liq omillar ta'sirini hisoblash yo'llariga alohida to'xtalishni maqsadga muvofiq.

САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ РЕСУРС САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

С.С.Эргашев

ТДИУ тадқиқотчиси

Мамлакат иқтисодиётининг равнақ топиши учун корхоналар рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариши, бозорларда ўз харидорлари ва ўрнига эга бўлиши ҳамда фойда олиб даромадини кўпайтириши учун доимо маълум даража ва кўламдаги ресурсларга эҳтиёж сезади. Бундай ресурслардан оқилона фойдаланилмаслиги эса корхонанинг нафақат иқтисодиётга зарар келтирибгина қолмай, балки аҳолининг турмуш шароитига ҳам ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Шунинг учун мамлакатларда саноатни ривожлантиришга ва ресурстежакор технологияларни жорий этишга доимо интилиб келади. Бу тадбирлар самарадорлигини янада ошириш ва корхоналарни модернизациялаш ва фаолиятларини диверсификациялашда долзарб бўлган муаммо уларнинг ресурс тежамкорлигини ошириш ва бу борадаги стратегияларни бозор ҳолатидан келиб чиқиб белгилаш ҳисобланади. Корхоналарни ресурс тежамкор технологиялар асосида қуроллантириш, уларнинг ишлаб чиқариш фаолиятини самарали ташкил этиш орқали иқтисодий ва молиявий барқарорлигини таъминланишига, дунё бозорларига кириб бориб экспорт салоҳиятини орттиришига эришилади.

Саноат корхоналари фаолиятининг самарадорлиги маҳсулот ишлаб чиқариш учун етарли даражада ресурсларнинг мавжудлиги ва улар устидан назоратни ўрнатиш имконияти билан белгиланади. Ресурсларни шакллантириш ва улардан фойдаланишнинг асосий жиҳатлари иқтисодийот фанлари ва амалиётда етарли даражада ўрганилган бўлсада, чекланиб боровчи ресурслардан фойдаланишнинг янгилча усуллари ишлаб чиқиш саноат сиёсатининг устивор тадқиқот йўналиш бўлиб қолаверади.

Саноат корхоналарида ресурс тежамкорлигига эришиш ва иқтисодий ресурсларни стратегик бошқаришнинг кўплаб муаммолари маҳаллий ва хорижий олимлари томонидан кенг ўрганилган. Жумладан, Макрак С. В.¹⁵⁸ тадқиқотларида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг рақобатдош устунликларини мустаҳкамлашдан иборат бўлган моддий ресурсларни бошқариш тизимининг самарадорлигини оширишга қаратилган таклифлар илгари сурилган. Шумак Ж. Г.¹⁵⁹ тадқиқотларида эса корхоналарнинг ресурс салоҳиятин баҳолаш усуллари тизимлаштирилган ва озиқ-овқат саноати корхоналарида ресурс самарадорлигини оширишга қаратилган таклифлар илгари сурилган. Комаров С. С., Шахвердов А. С.¹⁶⁰ Тадқиқотларида эса қазиб олувчи саноат корхоналарида ресурсларни

¹⁵⁸ Макрак С. В. Концептуальные основы системы управления материальными ресурсами в сельском хозяйстве // Экономика и банки. – 2020. – №. 2. – С. 45-56.

¹⁵⁹ Шумак Ж. Г. Методика комплексной оценки ресурсного потенциала предприятий на основе инновационно ориентированного подхода. – 2022.

¹⁶⁰ Комаров С. С., Шахвердов А. С. Управленческие основы ресурсосбережения на современных промышленных предприятиях добывающей промышленности // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. – 2023. – №. 3. – С. 23-32.

тежашни бошқариш тамойиллари ўрганилган. Тадқиқотда замонавий тоғ-кон саноати корхоналарида ресурсларни тежаш сиёсатини амалга ошириш ва ресурсларни тежаш бўйича бошқарув қарорларини қабул қилишнинг назарий ва амалий асослари ишлаб чиқилган. Шунингдек, тадқиқотда ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш орқали, корхонага, мижозларга, ишчиларга ҳамда чакана савдодга қўшадиған қиймат нуқтаи назариядан баҳолаш амалга оширилган. Ресурс тежакорлик бўйича Цховребов Э. С.¹⁶¹ тадқиқотлари назарий жиҳатдан диққатга сазовордир. Мазкур тадқиқотда табиий, моддий ва энергия ресурсларини тежаш, улардан оқилона фойдаланиш, сақлаш «яшил» иқтисодий шакллантириш, экологик хавфсизликни таъминлаш шароитида ресурсларни тежаш муаммосини ҳал этиш йўллари аниқланган. М.Вэйдер томонидан тежамкор ишлаб чиқариш концепцияларидан фойдаланишнинг илмий-назарий жиҳатлари ўрганилган.¹⁶²

Ўзбекистонда олимлари томонидан саноат корхоналарида ресурстежамкорлиги оширишнинг услубий ва амалий жиҳатларини такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқотлар етарлича олиб борилмаган. Энг йирик илмий баъза хисобланган “scholar google” палатформасида мазкур муаммо бўйича атига 27 та ишлар аниқланди. Айнан саноат корхоналарида ресурс тежамкорлигига эришишга қаратилгандаги эса Дедажанов Б. Н., Хусанбоев Б.лар¹⁶³ томонидан олиб борилган тадқиқотдир. Унда қайта ишлаш корхоналарида моддий ресурслар ва уларни бошқаришга бўлган ёндашув ўрганилган. Озиқ-овқат саноати корхоналарининг маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнида моддий ресурслар ва улардан фойдаланиш кўрсаткичлари таклиф этилган.

Ресурслардан самарали фойдаланиш муаммосига маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг олиб борилган ишлари кўламига қарамай, бир қатор масалалар қўшимча ўрганиш талаб этилади жумладан: саноати корхоналарида ресурс салоҳиятини шакллантириш ва бошқариш муаммоларини ўрганиш; тармоқ шароитлари ва хусусиятларидан келиб чиқиб ресурс салоҳиятини баҳолашнинг ташкилий-иқтисодий воситаларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш; корхоналар томонидан ресурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигига ташки ва ички омиллар таъсирини баҳолаш кабилардир.

Ишлаб чиқарувчи кучлар ва ишлаб чиқариш муносабатларининг ҳозирги ривожланиш даражасида саноати корхоналарида ресурс салоҳиятини баҳолаш воситаларини ва амалга ошириш механизмининг такомиллаштириш зарурлигини долзарблиги Л.Н. Давыденко ва З.В. Банникова¹⁶⁴, Н.П. Драгун ва Э.М.

¹⁶¹ Цховребов Э. С. Ресурсосбережение: основные этапы становления, теории и методы, тенденции и перспективы развития в промышленности и строительной индустрии России //Вестник МГСУ. – 2020. – Т. 15. – №. 1. – С. 112-158.

¹⁶² Вэйдер, Майкл. Инструменты бережливого производства: мини-руководство по внедрению методов бережливого производства : пер. с англ. / Майкл Вэйдер. – М. : Альпина Паблишер, 2011. – 124 с

¹⁶³ Дедажанов Б. Н., Хусанбоев Б. И. Ў. Қайта ишлашга ихтисослашган корхоналарда моддий ресурслар ва уларни бошқаришнинг иқтисодий мазмуни //Экономика и финансы (Ўзбекистан). – 2023. – №. 3 (163). – С. 49-56.

¹⁶⁴ Давыденко, Л. Н. Инновационный потенциал предприятия: модель формирования и управления / Л. Н. Давыденко, З. В. Банникова. – Гомель : ГГУ им. Ф. Скорины, 2014. – 240 с

Карпенко¹⁶⁵, Л. Н. Нехорошева¹⁶⁶, Н.А. Хаустович¹⁶⁷ ва бошқаларнинг ишларида келтирилган тадқиқот натижалари билан ҳам тасдиқланади.

Саноат корхоналарининг ресурс салоҳиятини баҳолаш ва уни амалга оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади:

– ички ресурс салоҳияти: ишлаб чиқариш жараёнининг самарадорлигини таъминлаш мақсадида ишлаб чиқариш ресурсларининг мувозанатлашган мажмуасининг ресурс салоҳиятини баҳолаш. Баҳолаш объекти сифатида саноат корхоналари учун асосий ресурс компоненти бўлган ишлаб чиқариш фондлари, моддий, меҳнат ва молиявий ресурслар баҳоланиши лозим;

– ташқи ресурс салоҳияти: саноат тармоқларининг ички эҳтиёжларига мувофиқ потенциал компонентларнинг мувозанати даражасини ва саноатидаги ўзгаришларни башорат қилиш учун ташқи омиллар таъсирини ҳисобга олиш асосида ресурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш;

– бошқарув ҳолати: корхоналарнинг ресурслар контсепциясини шакллантириш бўйича мақсадли ва устувор вазифаларни аниқлашга қаратилган ресурслар салоҳиятини бошқариш даражасини баҳолаш. Бунда бутун тармоқ ёки алоҳида корхона учун ресурсларни тежашнинг турли йўналишларини аниқлаш; корхонада ресурсларни тежаш стратегияларидан фойдаланиш ҳолатлари баҳоланади.

Таклиф этилган йўналишлар асосида саноат корхоналарининг ресурс салоҳиятини баҳолашда корхоналарнинг тадбиркорлик фаолиятининг хусусиятлари ва шартларини ҳисобга олган ҳолда кўрсаткичлар тўпламини шакллантирилиши лозим. Ресурс салоҳиятининг таркибий қисмларини солиштириш учун уларни омиллар таъсирида вақт ва маконда солиштириш имконини берадиган нисбий кўрсаткичлардан фойдаланиш тавсия этилади.

1-жадвал

Саноат корхоналари томонидан ресурс салоҳиятини амалга оширишни комплекс баҳолаш учун кўрсаткичлар ва индикторлар¹⁶⁸

Таркибий қисмлар	Кўрсаткичлар	Ҳисоблаш формуласи
Ресурс салоҳиятининг шаклланишини баҳолаш	Ресурсларнинг умумий гуруҳларини ажратиш, саноат корхоналарининг ресурс портфелини таҳлил қилиш	
	Саноат корхоналари ресурс салоҳиятининг миқдорий ва сифат хусусиятларини аниқлаш	
	Саноат корхоналарининг ресурс салоҳиятини шакллантириш хусусиятларини белгилаш	
Ресурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш	Ресурс самарадорлиги кўрсаткичлари	
	Фонд қайтими	$FOt = Vt / OFt$, Бунда: $Vt - t$ йил давомида маҳсулот сотишдан тушган даромад, сўм; OFt – асосий фондларнинг t йиллик ўртача қиймати, сўм
	Материалнинг самарадорлиги	$MOt = Vt / M3t$, Бунда: $M3t - t$ йилидаги моддий харажатлар, сўм

¹⁶⁵ Драгун, Н. П. Конкурентоспособность перерабатывающих предприятий АПК: экономическая сущность и механизм управления / Н. П. Драгун, Е. М. Карпенко. – Гомель : ГГТУ им. П. О. Сухого, 2009. – 246 с

¹⁶⁶ Нехорошева, Л. Н. Изменение инновационного ландшафта в контексте формирования Индустрии 4.0: новые угрозы и первоочередные задачи / Л. Н. Нехорошева // Цифровая трансформация экономики и промышленности: проблемы и перспективы / под ред. д-ра экон. наук, проф. А. В. Бабкина. – СПб. : Политехн. ун-т, 2017. – С. 29–49

¹⁶⁷ Хаустович, Н. А. Контент-анализ эффективности использования ресурсов, обеспечивающих инновационное развитие / Н. А. Хаустович // Эффективность использования ресурсов инновационного конкурентоспособного экономического развития / М. И. Ноздрин-Плотницкий [и др.]. – Минск : Мисанта, 2019. – С. 6–19

¹⁶⁸ Илмий адабиётларни тизимлаштириш асосида тўпланган маълумотлар

	Ўртача йиллик ишлаб чиқариш	$ВП_{ср.г}t = Вt / ССЧt$, Бунда: $ССЧt - t$ йилидаги ходимларнинг ўртача сони, киши.
	Айланма коэффициент	$К_{об}t = Вt / ОбСt$, Бунда: $ОбСt - t$ йилида айланма маблағларнинг ўртача йиллик қиймати, сўмда
Ўсиш суръатлари кўрсаткичлари		
	Ишлаб чиқариш ҳажмлари ва моддий харажатларнинг ўсиш суръатлари нисбати ($К_{оп/мз}$)	$К_{оп/мз}(t) = ТР_{оп}(t) / ТР_{мз}(t)$, Бунда: $ТР_{оп}(t) - t$ йилида ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш суръати; $ТР_{мз}(t) - t$ йилида моддий харажатларнинг ўсиш суръати
	Ишлаб чиқариш ҳажмлари ва меҳнат харажатларининг ўсиш суръатлари нисбати ($К_{оп/от}$)	$К_{оп/от}(t) = ТР_{оп}(t) / ТР_{от}(t)$, Бунда: $ТР_{от}(t) - t$ йилида меҳнат харажатларининг ўсиш суръати
	Сотишдан тушган тушум ва сотилган маҳсулот таннархининг нисбати ($К_{в/с}$)	$К_{в/с}(t) = ТР_{в}(t) / ТР_{с}(t)$, Бунда: $ТР_{в}(t) - t$ йилида маҳсулот сотишдан тушган даромаднинг ўсиш суръати; $ТР_{с}(t) - t$ йилида сотилган маҳсулот таннархининг ўсиш суръати
Корхонанинг самарадорлиги ва молиявий ҳолати кўрсаткичлари		
	Жорий ликвидлик коэффициент ($К_{тек}$)	$К_{тек}t = КАt / КОt$, Бунда: $КАt - t$ йилидаги қисқа муддатли активлар, сўм; $КОt - t$ йилидаги қисқа муддатли мажбуриятлар, сўм
	Мутлак ликвидлик коэффициенти ($К_{абс}$)	$К_{абс}t = (ФВ_{к}t + ДСt) / КОt$, Бунда: $ФВ_{к}t - t$ йилидаги қисқа муддатли молиявий инвестициялар, сўм.; $ДСt - t$ йилидаги нақд пул оқими, сўм
	Ўз айланма маблағларини таъминлаш коэффициенти ($К_{сс}$)	$К_{сс}t = (СКt + ДОt - ДАt) / КАt$, Бунда: $СКt - t$ йилидаги о'з капитали, сўм; $ДОt - t$ йилидаги узоқ муддатли мажбуриятлар, сўм; $ДАt - t$ йилидаги узоқ муддатли активлар
	Мажбурият активларини қоплаш нисбати ($К_{об/а}$)	$К_{об/а}t = (КОt + ДОt) / ИБt$, Бунда: $ИБt - t$ йилидаги жами баланс
	Капиталлашув коэффициенти ($К_{кап}$)	$К_{кап}t = (КОt + ДОt) / СКt$
	Молиявий мустақиллик (автономия) коэффициенти ($К_{фн}$)	$К_{фн}t = СКt / ИБt$
	Маҳсулот рентабеллиги ($Р_{п}$)	$Р_{п}t = \text{Преал}t / Сt \cdot 100\%$, где $Пt - t$ йилида маҳсулот сотишдан олинган фойда, сўм
	Айланма маблағлар рентабеллиги ($Р_{об}$)	$Р_{об}t = ЧПt / Вt$, Бунда: $ЧПt - t$ йилидаги соф фойда, сўм
Интеграл кўрсаткичлар		
	Ресурс компонентининг агрегат кўрсаткичи ($А_{рес}$)	$А_{рес.j} = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n}$, Бунда: $А_{рес.j} - j$ - йил учун ресурс компонентининг умумий кўрсаткичи; I_{ij} – ресурслар унумдорлиги кўрсаткичлари ва ўсиш суръатлари кўрсаткичлари индекслари; n – кўрсаткичлар сони
	Корхона фаолияти натижадорлигининг умумий кўрсаткичи ($А_{рез.бд}$)	$А_{рез.бд} = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n}$, Бунда: $А_{рез.j} - j$ йил учун бизнес фаолиятининг жамланган кўрсаткичи; I_{ij} – самарадорлик кўрсаткичлари индекслари; n – кўрсаткичлар сони
	Ресурс салоҳиятининг интеграл кўрсаткичи ($ИИ_j$)	$ИИ_j = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n}$, Бунда: $ИИ_j - j$ йил учун интеграл кўрсаткич; I_{ij} – ресурслар салоҳиятини баҳолаш кўрсаткичлари индекслари; n – кўрсаткичлар сони
Ресурс салоҳиятини бошқаришни баҳолаш	Қўшилган қиймат ($ДС'$)	$ДС' = V - МЗ$, Бунда: $ДС' - j$ йилидаги қўшилган қиймат; V – маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни сотиш баҳосида ишлаб чиқариш ҳажми, тушумдан ҳисобланган солиқлар ва йиғимлар чегириб ташланади; $МЗ$ – моддий харажатлар табиий ресурслар учун тўловларни чегириб қолинади

Баҳолашнинг блокли тузилиши ресурсларни тежаш дастурини ишлаб чиқиш ва корхоналарни ривожлантириш мақсадларини аниқлаш учун зарур бўлган ўзаро боғлиқ натижалар тўпламини олиш имконини беради.

Методологиянинг илмий янгилиги мавжуд ёндашувлар, усуллар, воситалар, баҳолаш кўрсаткичларини тизимлаштириш ва корхонанинг ресурс салоҳиятини амалга оширишни баҳолашнинг услубий воситаларини кенгайтириш имконини берадиган қўшимчаларни ишлаб чиқишдадир.

Фаолиятнинг ўзига хослиги ва профилидан ташқари, кўрсаткичларни танлаш саноат корхоналарида ички бошқарув ҳисоби даражаси билан белгиланадиган маълумотларнинг мавжудлиги билан ҳам белгиланиши лозим. Таклиф этилган усулда ресурс салоҳиятини баҳолаш ҳисоб-китоблари корхоналар бухгалтерия ва молиявий натижалар билан боғлиқ кўрсаткичлари билан боғлиқлиги амалда фойдаланиш имконияти кенглиги билан аҳамиялидир. Шу сабабли, саноат корхоналарининг ресурс салоҳиятини бошқариш самарадорлигини баҳолашнинг асосий мезони сифатида биз товарлар, ишлар ва хизматларнинг иқтисодий моделининг барча иштирокчилари манфаатларини мувофиқлаштириш имконини берадиган қўшимча қийматдан фойдаланишни таклиф қилдик. Шундай қилиб, ушбу кўрсаткичдан фойдаланиш саноат корхоналарининг ресурслар салоҳиятини бошқариш самарадорлигини баҳолаш сифатини яхшилашга ёрдам беради.

Ресурс салоҳиятини баҳолашнинг такдим этилган турлари зарурий услубий восита бўлиб, олинган баҳолаш натижалари асосида саноатда унинг ривожланишининг ҳар томонлама стратегик йўналишларни белгилашга имкон беради. Ресурс салоҳиятини рўёбга чиқариш даражасини ўлчашга объектив ва комплекс ёндашувни таъминлайдиган кенг қамровли баҳолаш воситаларини шакллантириш мақсадида ресурс салоҳиятини баҳолаш йўналишлари юқоридаги гуруҳланган ва тизимлаштирилган усулларида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ

М.Д.Раҳмонова

*Магистр Банковской Финансовой
Академии Республики Узбекистан*

Проектный менеджмент в настоящее время заслужил признание как самостоятельная дисциплина управления. За пятьдесят с лишним лет, в течение которых развивается менеджмент проектов, не только значительно расширилась область его применения, но и сложилась целостная структура методов и инструментов, призванных помочь руководителям проектов.

Опыт ФРГ, Японии, Кореи, США и других развитых стран свидетельствует о том, что система управления проектами есть мощное средство выхода из экономического кризиса и метод решения крупных научных, производственных и социальных проблем. Именно этот метод является средством управления в изменяющихся условиях и развивающихся системах, в условиях нестабильности и неопределенности, когда недостаточно проработаны вопросы законодательства, в

условиях слабо контролируемого роста цен и дефицита ресурсов, отказа государства от непосредственного руководства производственно-хозяйственной деятельностью предприятий, в условиях появления собственников и частных инвесторов, нестабильной налоговой системы и др.

В странах с традиционно рыночной экономикой к началу XXI века Управление проектами (УП) перестало быть только средством управления последовательностью и темпом выполнения работ с целью их своевременного завершения. УП стало чем-то вроде корпоративного голоса заказчика/клиента, побуждающего оптимизировать все усилия по проекту/продукту, предпринимаемые командами, интегрируясь с производителями, поставщиками, системой послепродажного обслуживания. Такой подход, помимо прочего, позволяет теперь с высокой степенью точности определять (и, соответственно, снижать) предстоящие затраты по проекту.

Компании и эксперты, работающие в этой области, образовали необходимые профессиональные структуры и создали "Мир управления проектами", куда входят национальные и международные организации - инвестиционные, промышленные, строительные, консалтинговые и инжиниринговые фирмы, где проводятся конгрессы и симпозиумы, где издаются журналы, книги и учебники, где имеется свой рынок программного обеспечения. Практически все университеты включили УП в свои учебные программы, подготавливается и защищается множество диссертаций.

Начало использования проектного управления в 50-х годах XX века было связано с увеличением масштабов проектов, которые должны были вписываться в определенные сроки и бюджет, т.е. выделенные на проект ассигнования. В числе первых методов проектного управления можно назвать метод сетевого планирования и управления, который начал использоваться для управления ракетной программой "Атлас" и при строительстве крупного завода синтетического волокна.

Использование программных продуктов технологии проектного управления в Узбекистане началось около 10 лет назад в условиях, когда проводились глобальные экономические реформы. За этот промежуток времени технология проектного управления стала применяться в различных отраслях: в строительной, нефтегазовой, металлургической, банковской сфере, фармацевтике и др. Управление деятельностью в этих сферах происходит с помощью проектов. Проекты создаются для производства новых товаров и услуг, используются для организации различных мероприятий и т.д. Таких проектов в компании может быть достаточно большое количество от десятка до сотни и больше, они в свою очередь образуют портфель проектов компании, которым необходимо управлять. Главная задача проектного управления в данном случае распределить ограниченные трудовые, материальные и временные ресурсы компании между существующими проектами. Одним из масштабных примеров применения технологии проектного управления в Узбекистане может служить строительство Китайского трубопровода и газопровода - Европа. Технология проектного управления также успешно применяется в различных телекоммуникационных

компаниях, в таких ведущих компаниях как Узгазпром, НБУ и многих других компаниях.

В современном мире проектное управление стало неотъемлемой частью преуспевающей компании. В условиях достаточно жесткой конкуренции сложно наладить эффективную работу предприятия, не планируя сроки, затраты и не учитывая риски. На современном рынке успеха могут добиться те компании, которые учитывают потребности рынка и выпускают свою продукцию или предоставляют свой набор услуг в конкретный необходимый момент времени, т.е. в срок. Отставание по срокам является одной из главных проблем практически в любой сфере деятельности. Это ведет к увеличению совокупных издержек и естественно отражается на прибыли компании. Использование технологии проектного управления позволяет организациям сократить сроки реализации проектов, снижая совокупные расходы. Применение технологий управления проектами позволяет в среднем на 10-15% сократить затраты на реализацию проектов, тем самым повысив эффективность деятельности компании. Методы проектного управления делают бизнес "прозрачным" и легко управляемым и позволяют реализовывать проекты в максимально сжатые сроки при ограниченных ресурсах.

Какие же перспективы у технологии проектного управления? Согласно американской статистике практически треть мировой экономики связана с проектной деятельностью. В настоящее время на Западе наблюдается пик интереса к технологии управления проектами. По данным Института управления проектами (Project Management Institute, www.pmi.org) количество профессионалов в области управления проектами увеличивается с каждым годом. Бизнес во всем мире все больше приобретает проектный характер, эта тенденция прослеживается и в Узбекистане. Учитывая опыт зарубежных стран, где применение проектного управления широко распространено, можно сделать прогноз, что в скором времени все большее число узбекских компаний примут на вооружение технологию проектного управления.

В Узбекистане применение технологии проектного управления имеет особое значение. Наша страна имеет огромные ресурсы, которыми необходимо эффективно управлять. Все больше руководителей приходят к пониманию необходимости проектного управления и осознают все перспективы применения данной технологии.

Грамотно управляя имеющимися ресурсами, можно улучшить конкурентное положение любой узбекской компании как на внутреннем, так и на внешнем рынке, вне зависимости от масштабов бизнеса, что отразится и на положении Узбекистана на мировом рынке. Для реализации этой стратегической задачи, прежде всего, необходимы квалифицированные кадры - профессиональные руководители проектов. Число PMP (Project Management Professional, сертифицированных PMI профессиональных руководителей проектов) в нашей стране немногим более 200. По сравнению с Китаем, где только за 2014 год более 8000 человек получили сертификат PMP, у нас наблюдается явный дефицит

сертифицированных специалистов при все более возрастающем интересе к практике проектного управления.

Дефицит специалистов усугубляет тот фактор, что для подготовки специалиста в области проектного управления необходимы не только теоретические знания, но и практические навыки и участие в реальных проектах, соответственно требуется достаточно много времени, чтобы овладеть знаниями в этой области. При этом существует еще и огромная разница в теоретической подготовке менеджеров проектов в западных странах и в Узбекистане. В число дисциплин, которые изучают западные менеджеры, обязательно входят основы управления проектами, тогда как в узбекских вузах совсем недавно появился предмет "Управление проектами". Но при этом существует множество разнообразных программ и курсов, посвященных управлению проектами. На сегодняшний день уже наметился огромный спрос на профессиональных специалистов в области проектного управления в Узбекистане. Проектное управление в Республики Узбекистана только усиливает позиции, становясь мощным инструментом в борьбе за эффективность и конкурентоспособность.

Формируются новые критерии ценности, предъявляемые к услугам проектного управления: быстрая и конкретная полезность, возможность полностью делегировать ответственность за блоки конкретных работ профессионалам, обеспечение менеджмента компаний своевременной, достоверной и достаточной для принятия решений информацией.

В целом, прогноз развития рынка управления проектами, по оценкам наших специалистов, — позитивный и именно он может оказаться рычагом для выхода из кризиса всей экономики Республики Узбекистана.

Заключение

Практически треть мировой экономики связана с проектной деятельностью. В современном мире проектное управление стало неотъемлемой частью преуспевающей компании. Использование технологии проектного управления позволяет организациям сократить сроки реализации проектов, снижая совокупные расходы. Поэтому в иностранных странах управление проектами широко распространено.

В Узбекистане применение технологии проектного управления имеет особое значение. Наша страна имеет огромные ресурсы, которыми необходимо эффективно управлять. Все больше руководителей приходят к пониманию необходимости проектного управления и осознают все перспективы применения данной технологии.

Список использованной литературы:

Мазур И.И. Управление проектами. Справочник для профессионалов. – М.: ОМЕГА-Л.-2010.-875 с.

Маюнова Н.В. Основы управления проектами. – М.: Эксмо.-2009

Ashinova M.K., Chinazirova S.K. Digital strategy for the development of the economy of the region. Colloquium-journal. 2019;19 (43):49-51. (In Russ.)

Abramov R.A., Mukhaev R.T., Sokolov M.S. Criteria for the effectiveness of state and regional management in the context of the project approach. Theoretical and applied economics. 2017;1:96-112. (In Russ.)

Burov VYu. New approaches to the management of socio-economic development of the region in the conditions of economic crisis: Regional and international aspects. Russia and Mongolia: History, diplomacy, economics, science. Irkutsk, 2016:246-252

BIZNES TAHLILNI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

S.S.Maxkamov

Farg'ona Politexnika instituti

M 24-23 I guruh magistranti

A.A.Ilyosov

Bugungi kunda biznes-tahlilning roli ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish darajasidam, milliy iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarining davlat darajasida ham, mikrodarajada ham ahamiyati tobora ortib bormoqda. Korxonalar o'z bizneslarini xolisona baholashlari va izchil tahlil o'zganib chiqishlari, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni to'g'ri prognoz qila olishlari, iqtisodiy faoliyat natijasida amalga oshirilgan harakatlarning sabab va oqibatlarini o'rganib ularga xulosa bera olishlari, biznes-tahlilni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalana olishlari kerakdir.

Iqtisodiyotning tez sur'atlarda globallasuvi, integratsion jarayonlarning o'zgarishi, innovatsion jadallik va kuchliraqobat sharoitidagi talablar hisob-kitoblarga oid fanlar tizimini ham zamonaviy biznes-tahlilqoidalariga mos tarzda takomillashtirishni talab etmoqda. Chunki, manfaatlar ustuni sifatida tan olingan bozor modeli avvalo, aniq hisob-kitoblar algoritmini, ularni baholashni va chuqur tahliliy yechimlarni talab etadi¹⁶⁹.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati va uning samaradorligi, moliyaviy ahvoli, biznes-tahlilning natijaviyligi, korxon va tashkilotlarning pul ishlab topish va o'z kapitalni o'stirish imkoniyatlarini aniqlash, biznes-tahlilni amalga oshirishda muhim axborotlar oqimini shakllantirish bilangina hal etilmaydi. Ushbu axborotlar oqimi qayta ishlanishi, tahlil qilinishi, real holat aniq baholanishi, uning kelgusidagi kutilishlari oldindan bashorat qilinishi, turli tahlikalarni hisobga olinishini talab etadi. Faqat shu orqaligina biznes-tahlilning samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish va yuritish mumkin.

Biznes tahlilni amalga oshirish har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning doimiy o'sishi va strategik rejasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biznes qanday olib borilayotgani, nimalar yaxshi ketayotgani va nimalar yaxshiroq bo'lishi mumkinligi haqida diqqat bilan o'ylab, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati kelajakdagi muvaffaqiyatga erishish yo'larini belgilaydi. Biznes-tahlilchilar tanqidiy fikrlovchi, shuningdek, diplomatik va samarali kommunikatorlar bo'lishi kerak. Ular xo'jalik yurituvchi subyektning barcha darajalari bilan birgalikda mavjud jarayonlarni aniqlash va yanada yaxshilanishi va rivoj topishi uchun zarur bo'lgan narsalarni yaxshilash uchun yechimlarni topish uchun ishlaydi. Xo'jalik yurituvchi subyekt a'zolari biznes-tahlilni yakunlashi mumkin bo'lsa-da, tashqi agentdan foydalansangiz yaxshi bo'ladi, chunki

¹⁶⁹ M.S.Tulayev, B.P.Qlichev, (2022). Moliyaviy hisob. (Darslik). ISBN 978-9943- 8915-9-3, UO'K: 657(075.8)

ular oldinga siljish uchun yaxlit va ob'ektiv strategiyalarni taqdim etishi mumkin.

Biznes tahlili vaziyat va vazifalarga qarab bir nechta asosiy maqsadlarga ega:

- kompaniya xarajatlarini kamaytirish, samarasiz yoki ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ularni kamaytirish yoki optimallashtirish usullarini taklif qilish.
- muammoning yechimini topish uning sababini, uning biznesga ta'sirini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va eng mosini tanlashdir.
- loyihani o'z vaqtida tugatish — loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, zarur resurslar, xatarlar va bog'liqliklarni aniqlash, loyihaning borishini va uning talablarga muvofiqligini nazorat qilish.

Korporativ dunyodagi ko'plab sub'ektiv vazifalar singari, yangi tashkilotga murojaat qilishda biznes-tahlilchi foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab strategiyalar mavjud. Ba'zi tahlilchilar ushbu strategiyalarning kombinatsiyasidan doim foydalanishlari mumkin, ammo ular ishlayotgan har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun eng yaxshisini tanlab olishlari kerak. Shu bilan bir qatorda, ba'zi tahlilchilar faqat bitta shunday strategiyaga ishonishlari mumkin, boshqalari esa o'zlarining barcha mijozlari bilan birgalikda foydalanish uchun gibridd modellarni yaratishi mumkin.

Biznes tahlilni amalga oshirishning "ENG" usuli xo'jalik yurituvchi subyektning vazifasi, maqsadlari, strategiyalari va taktikalariga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, elementlarni aniqlash orqali tahlilchi xo'jalik yurituvchi subyekt nimaga erishmoqchi ekanligini eng yaxshi tushunishi va buning uchun yo'l xaritasini belgilashi mumkin.

Biznes tahlilni amalga oshirishning yana bir uslubida siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik, texnologik, huquqiy va ekologik ma'noni anglatuvchi PESTLE tahlil usuli foydalaniladi. PESTLE tahlil usuli biznesga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tashqi omillarni o'rganishni va biznesning o'sishiga olib keladigan imkoniyatlarni yaratishni talab qiladi.

Kuchli, kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni anglatuvchi SWOT usuli tahlilchilarga biznesdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradi.

MoSCoW tahlili strategiyasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning resurslari bo'yicha ularni ahamiyatiga qarab tartiblashtirishni talab qiladi. Shu orqali harakatlar birinchi navbatda qayerga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini aniqlash mumkin bo'ladi¹⁷⁰.

Hozirgi vaqtda biznes tahlil rivojlanishining yangi bir bosqichiga qadam qo'yilmoqda. Buborada biznes tahlilning tubdan yangi nazariyasi, uslubiyoti, amaliyoti shakllanish jarayoni amalga oshirilmoqda. O'zbekiston va xorijlik olimlar tomonidan biznes tahlilning boshqaruvda operativlikni ta'minlashga imkon beruvchi, joriy va istiqboldagi rivojlanishini belgilabberuvchi, iqtisodiy va moliyaviy axborotlar oqimining shakliga (moliyaviy, boshqaruv) mos tushuvchi, kommunikatsiya texnologiyalar, matematik modellar, statistik metodlarga asoslangan shaklini yo'lga qo'yishga harakatlar qilinmoqda¹⁷¹.

Umuman olganda, biznes tahlil raqobatdosh iqtisodiyotda doiraviy kengligi yanada kuchayadi. Ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari sharoitida ularning yuzaga kelishini makro va mikroko'lamdagi sabablarini tahlil qilish zaruriyati yanada ortadi. Negaki,

¹⁷⁰ <https://nipkef.ru/about/blog/biznes-analiz-metody-osnovy-vidy-zadachi-celi-principy/>

¹⁷¹ Назарова Муслима Назаровна. (2022). Нобанк кредит ташкilotларининг ҳуқуқий асослари. Journal of New Century Innovations, 10(2), 48-54. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/985>

har bitta (iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va h.k.) jarayondagi o'zgarishlar sabab va oqibat, ichki va tashqi omillar ta'sirida tashxislanishi va yakuniy xulosalar bilan izohlanishi lozim.

Har qanday biznes tahlilni amalga oshirganda muammolarga yechim topish maqsadida modellashtirishga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday hollarda biznes jarayonlarni modellashtirish uchun BPM usulidan keng foydalanish kerak. Ushbu usul orqali jarayonni diqqat bilan o'rganib chiqish, jarayonni bo'laklarga ajratgan holatda muammoning yoki masalani yechimini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Va buning natijasida tahlilni amalga oshirishda jarayonni diagramma shakliga keltirib muammoli joylarni belgilash orqali tahlilni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biznesni tahlil qilishda nafaqat ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, balki biznes muammolarini hal qilishda tizimli yondashish lozimdir. Ushbu jarayon samarali va sifatli bo'lishi uchun ba'zi prinsiplarga amal qilish kerak:

- maqsadli yo'nalishlarni belgilagan holda biznes-tahlil oldindan belgilangan va manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan aniq maqsadga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. bu tahlil qilinayotgan biznes strategiyaga mos kelishi kerak.

- tizimli yondashuv asosida biznesni bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladigan turli xil elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish kerak. tahlilchi biznesga ta'sir qiluvchi barcha omillarni, ham ichki, ham tashqi, shuningdek ularning aloqalari va bog'liqliklarini hisobga olishi kerak.

- tanqidiy fikrlash orqali fikrlar yoki taxminlarga emas, balki faktlar va ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak. axborot manbalarining ishonchliligi va dolzarbligini tekshirish, turli xil yechimlarni tahlil qilish va taqqoslash kerak.

- kommunikativlik asosida biznes tahlil manfaatdor tomonlar bilan doimiy aloqani talab qiladi: mijozlar, foydalanuvchilar, menejerlar, ishlab chiquvchilar va boshqalar. biznes tahlilchi tomonlarning ehtiyojlari va umidlarini tinglashi va tushunishi, shuningdek o'z fikrlari va takliflarini aniq ifoda etishi kerak.

- biznes tahlil o'zgaruvchan biznes sharoitlari va talablariga moslashishi kerak. mutaxassis biznesni tahlil qilish jarayonida reja yoki qarorni o'zgartirishni talab qiladigan yangi omillar, xatarlar yoki imkoniyatlar paydo bo'lishi mumkinligiga tayyor bo'lishi kerak.

THE DEVELOPMENT OF FINANCIAL MARKETS IS AN IMPORTANT FACTOR OF THE COUNTRY'S ECONOMY

A.T.Muratov

*Student of the Faculty of Finance and Accounting,
Tashkent State University of Economics*

In recent years, the financial market of Uzbekistan has undergone a number of important changes, in particular, in accordance with the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, it is planned to expand financial resources in the economy by bringing the stock market turnover from \$200 million to \$7 billion over the next five

years and completing the transformation processes in commercial banks with state shares, bringing the share of the private sector in the assets of the banking system to 60 per cent by the end of 2026. It means that the active transformation of commercial banks with a state share into modern institutions is in full swing by increasing the commercialization of banks, abandoning subsidized lending, and increasing their role as financial intermediaries that ensure the mobilization of savings into investments.

And it is very important that today in Uzbekistan all the necessary conditions are being created for foreign investors to enter the market. Some infrastructural problems are caused by the fact that earlier, due to problems with cash, the population had difficulties in receiving their deposits. Today, depositors' deposits are 100% protected. Work is also underway to improve the service, protect the rights of investors from all kinds of fraud and deceit. All the measures taken will certainly have a positive impact on the further development of the capital market.

In the future, the country provides for the creation of a regional investment financial center to develop the national market, improve regulation, infrastructure, available financial market instruments and attract international financial institutions. For this today, new modern methods in banking are being introduced that allow to automate work processes and increase the efficiency of the provision of services. Of course, streamlining and regulating the financial market is a very difficult task. Since trends are constantly changing, new trends and products are emerging that expand the range of financial instruments. The financial landscape of Uzbekistan has been undergoing significant changes in recent years, with a particular focus on the dynamics of the interbank money market, interest rates, government operations, and liquidity regulation. Recent report posted by Central Bank delved into the data and numbers associated with these areas, providing a detailed overview of Uzbekistan's financial market activity in the third quarter of 2023.




Figure 1. The third quarter of 2023 witnessed substantial activity in Uzbekistan's interbank money market.

Interbank Money Market and Interest Rates: The third quarter of 2023 witnessed substantial activity in Uzbekistan's interbank money market. The total operations within this market amounted to an impressive UZS 103.8 trillion (around \$8.5 bn), marking a substantial **29.2%** increase from the previous quarter. These numbers indicate a vibrant and growing financial market.

Perhaps one of the most closely watched aspects of the interbank money market is the interest rates. Throughout Q3 2023, these rates fluctuated within the full interest corridor. The weighted average interest rate on money market operations increased from **13.9% in June to 14.3% in September**. This upward trend suggests a tightening of monetary policy and the growing significance of the money market in Uzbekistan. In the third quarter of 2023, the average monthly volume of operations in the interbank money market reached **UZS 34.6 trillion (over \$2.8 bn)**, a substantial increase from **UZS 26.8 trillion (around \$2.2 bn)** in the previous quarter. This growth is indicative of heightened activity within the market.

The vast majority of these transactions (**77.2%**) comprised overnight operations. Additionally, **14.7%** were **2-7-day** deposit operations, highlighting a preference for short-term financial instruments among market participants.

In conclusion, financial markets play a vital role in economy of every country which develops liquidity of money as far as working process of banking system. Moreover, it provides circulation of cash flow which gives power to the country.

References:

<https://strategy.uz/index.php?news=1275&lang=uz>

Edwin G. Dolan, Coin D.Campbelli , Rosemary G. Campbell. Money, banking and monetary policy. C. "HarcourtSchool", 1988. P. 15.

Чернова В.Э. Финансовые рынки: учебное пособие/СПбГТУПИ. –СПб.:2015. 73 с.

https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/098/original/market_overview_2020_rus.pdf?16135676255.<https://www.ft.com/content/19fa375a-96cf-11e8-b67b-b8205561c3fe>

<https://daryo.uz/en/2023/10/24/comprehensive-analysisuzbekistans-financial-market-activity-in-third-quarter-of-2023>

KORXONADA IQTISODIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

SH. Boboqulova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti*

Korxonada samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda samaradorlikni aniqlashda barcha ko'rsatkichlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish qabul qilingan. Birinchi guruhga natural ko'rsatkichlar kiradi. Ikkinchi guruhga iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi. Har ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish samaradorlikni aniqroq ko'rsatadi. Shu sababli biz samaradorlikni aniqlashda natural va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq degan fikrdamiz.

Korxonada samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda samaradorlikni aniqlashda barcha ko'rsatkichlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish qabul qilingan. Birinchi guruhga natural ko'rsatkichlar kiradi. Ikkinchi guruhga iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi. Har ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish samaradorlikni aniqroq ko'rsatadi. Shu sababli biz samaradorlikni aniqlashda natural va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq degan fikrdamiz. "Korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risida»gi nizomga ko'ra korxonalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- iqtisodiy barqaror korxonalar;
- iqtisodiy xatarli korxonalar;
- iqtisodiy nochor korxonalar;
- o'z to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega;
- o'z to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmagan korxonalar.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmashligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin [2]:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- xomashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amri mahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina xohish va istaklarning o'zigina yetarli emas. Buning uchun birinchidan, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, ikkinchidan, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslarni (investitsiyalar) izlab topish, uchinchidan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni "bog'lash", to'rtinchidan, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi [3].

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishdan manfaatdorlik talab darajasida emas edi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning xorijiy progressiv

texnologiyalari “ekspluatatorlik belgisi” sifatida, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinadi. Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralar edi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo‘l qo‘yilmas edi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o‘ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o‘rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish – konsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag‘batlantirishning usul va shakllarini, ya‘ni korxonalar faoliyatining butun xo‘jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxonalar rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxonalar direktori bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko‘ra, oddiy xodimlar va bo‘linmalar (xizmat) rahbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imijga ega bo‘lishi qiyin [4].

Korxonalar faoliyatining samarali bo‘lishida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, korxonalar ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o‘rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashinalar va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg‘or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoev Sh.M. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.* – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

Borodina M.A. *Mintaqada iqtisodiy klasterlarning shakllanishi// Perm universiteti axborotnomasi. № 2(5). 2010 yil, 41-bet.*

Шарипов, Ш. П., & Абдимуминов, Э. (2015). МЕТОДЫ РАСЧЕТА КОЛЬЦЕВЫХ УСИЛИЙ И ПЕРЕМЕЩЕНИЙ В ПОДЗЕМНЫХ ТРУБАХ. In *Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях* (pp. 28-29).

Abdimuminov, E., Sharipov, S., & Irgashev, D. (2022). MASHINASOZLIKDA ISHLATILDIGAN REZBANI BIRIKMALARNI MUSTANKAMLIKKA HISOBLASH. *Science and innovation*, 1(A6), 161-167.

Шарипов, Ш. П. (2023). КОМБИНАЦИЯ ЛАЗЕРНОЙ МАШИНЫ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА И ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН КОНСТРУКЦИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ. *Scientific progress*, 4(2), 80-84.

Nazarov, A., Sharipov, S., Yusupov, R., Mustapaqulov, S., & Jamanqulov, X. (2020). *Methods for conducting a course project on machine parts. European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(06), 2020.

Avezboyev, S., Sharipov, S., & Xujakeldiev, K. (2023, February). *Development of projects for recultivation of lands using GIS technologies. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1138, No. 1, p. 012019). IOP Publishing.

Avezboyev, S., Sharipov, S., & Xujakeldiev, K. (2023, February). *Development of projects for recultivation of lands using GIS technologies. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1138, No. 1, p. 012019). IOP Publishing.

Xalilova, Z. (2023). OILA KONSEPTINING SEMANTIK-FRAMIK STRUKTURASI. Talqin va tadqiqotlar, 1(21). 10. Xalilova, Z. M. Q. (2022). Semantic-framic structure of family concept. Science and Education, 3(11), 1349-1352.

BIZNES TAHLILI - KORXONANING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

M.D.O'rinboyeva

Farg'ona politexnika instituti, talaba

L.T.Nazarova

Farg'ona politexnika institute, assistent

Iqtisodiyotni global raqamlashtirish jarayoni yangi bozorlar va ularning mukammal tuzilishi, biznes jarayonlar, biznesni tashkil etish tamoyillari, korxonani boshqarish usullari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni jamiyatni iqtisodiy munosabatlar yangicha yo'nalishda yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Yuqori texnologiyali sohalarda bu jarayonlar ayniqsa kuchaymoqda.

Bugungi kunda umuman biznesni tahlil qilish, usullar, tegishli texnologiyalar va dasturiy yechimlarga qiziqishning kuchayishi ortib bora yotganligini kuzatmoqdamiz

"Biznes" tushunchasi ingliz tilidagi "business" so'zidan olingan bo'lib ish, kasb, korxonalar, degan ma'nolarni anglatadi. Daromad keltiradigan, foyda olishni maqsadlari qilishga qaratilgan faoliyat demakdir.

Tahlil (grekcha. "analysis" so'zidan olingan bo'lib parchalash, bo'lish, qismlarga ajratish, degan ma'noni anglatadi). Tadqiqot obyektlarini alohida qismlarga bo'lish orqali o'rganish usuli hisoblanadi.

"Biznes-tahlil" tushunchasi birinchi marta ingliz tilidagi "Business Intelligence – BI" atamasi bilan 1958 yilda IBM jurnalida nashr etilgan. Buxgalteriya hisobi va audit bilan uzviy bog'liq bo'lgan biznes-tahlil zamonaviy biznes ehtiyojlari va uning rivojlanish istiqbollari moslashtirilgan tahlil turi hisoblanadi. Biznes tahlili - bu professional tahliliy faoliyat bo'lib, axborotlarni ixtisoslashgan tahlili va biznes jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan analitik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda korxonaning iqtisodiy faoliyatini tahlilini amalga oshiruvchi sohadir.

Biznes-tahlil korxonalar va axborot texnologiyalar sohasi talablarini hisobga olgan holda biznes sohasini samaradorlikka bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi, bu esa qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samaradorligini va sifatini sezilarli darajada oshiradigan axborot tizimlarining rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, biznes-tahlil korxonaga bozordagi ehtiyojlarni aniqlash va ulardagi o'zgarishlarni rag'batlantirish, shuningdek, biznes jarayonlar samaradorligini oshiradigan va biznesdagi tarkibiy o'zgarishlarni ijobiy (foydali) tomonga hal qilishga yordam beradigan tegishli yechimlarni ishlab chiqish hamda tavsiya etish imkoniyatini beradi.

Biznes-tahlilni to'g'ri tashkil etilishi hamda amalga oshirilishida quyidagilarda e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchiidan, korxonalar iqtisodiyoti, ularni boshqarishning iqtisodiy mexanizmi, boshqaruv samaradorligini oshirish usullari, tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida jahon amaliyotitajribasidan foydalanish holatiga;

Ikkinchiidan, buxgalteriya hisobi, audit, soliqqa tortish, moliyaviy, boshqaruv, marketing sohlarida sodir bo'layotgan muhim iqtisodiy jarayonlarga, investitsiya tahlili, biznes jarayonlar va ehtiyojlarini, moliyaviy bozorlarning holatiga hamda korxonaning innovatsion salohiyatiga;

Uchinchiidan, tashkilotning iqtisodiy strategiyasini tahlil qilish va muhim samaradorlik ko'rsatkichlari majmuini to'g'ri tashkil etish, moliyaviy holati va raqobatbardoshlik darajasini bashorat qila olish holatiga;

To'rtinchiidan, korxonaning o'ziga xos alohida biznes jarayonlarini boshqarishi bo'yicha amaliy usullariga;

Beshinchiidan, biznes-jarayonlar va xodimlar ishini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, tashkilotning bozordagi muvaffaqiyatini ta'minlash, foydani oshirish yuzasidan biznes muammolar bo'yicha tahliliy asoslangan samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishi kerak.

Законы Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» от 1992г-N734-XII, 2000г- N78-II, 2007г-NЗРУ-110, 2021г-NЗРУ 677;

Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному совершенствованию лицензионных и разрешительных процедур» от 24 августа 2020 года № УП-6044;

Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 сентября 2018 года № ПП-3946 «О мерах по дальнейшему развитию аудиторской деятельности в Республике Узбекистан»;

Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 августа 2021 года № ПП - 5210 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы сертификации аудиторов»;

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28.09.2022 года N- 538 «Положение о порядке проведения внешнего контроля качества работы аудиторской организации».

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ АУДИТИДА ҚЎЛЛАНИЛУВЧИ УСУЛ ВА АМАЛЛАР ТАВСИФИ

Н.Ш.Хажимуратов

ТДИУ Молиявий таҳлил ва аудит кафедраси мудири, и.ф.д.,проф.

Annotatsiya. *Мазкур тезисда молиявий ҳисобот аудитида қўлланилувчи усул ва амаллар қўллаш бўйича таклиф ва тавсиялар бериб ўтилган.*

Kalit so'zlar: *методология, аудиторлик текширувлари, махсус усуллар, услубият, молиявий ҳисобот аудити, диалектика, аудит усули, аудиторлик ташкилотлари, аудитини халқаро стандартлари, хусусий усуллар.*

Abstract. *In this thesis, proposals and recommendations on the application of methods and practices used in the audit of financial statements have been given.*

Keywords: *methodology, auditing, special methods, methodology, audit of financial statements, dialectics, audit method, auditing organizations, international auditing standards, private methods.*

Аннотация. *В данной диссертации даны предложения и рекомендации по применению методов и практик, используемых при аудите финансовой отчетности.*

Ключевые слова: *методология, аудит, специальные методы, методология, аудит финансовой отчетности, диалектика, метод аудита, аудиторские организации, международные стандарты аудита, частные методы.*

Ўзбекистонда иқтисодийнинг барқарор ривожланиши таъминлаш мақсадида бир қанча чора-тадбирлар жорий қилинди. Айниқса хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти самарадорлигини ошириш ҳамда қулай инвестицион муҳитни яратиш мақсадида молиявий ҳисобот ва аудитнинг халқаро стандартларига ўтиш борасида амалий чоралар кўрилмоқда. Хусусан “аудиторлик ташкилотларини, аудиторларни аудитнинг халқаро стандартларини қўллаш масалаларида фаол услубий жиҳатдан қўллаб-қувватлашни ташкил этиш”¹⁸¹ вазифаси белгиланиши молиявий ҳисобот аудитини халқаро стандартлар асосида ўтказишни тақозо этади. Мазкур вазифалар молиявий ҳисобот аудитини халқаро стандартлар асосида ташкил қилиш ҳамда унинг услубий асосларини такомиллаштириш муҳимлигини кўрсатиб беради.

Молиявий ҳисобот аудитининг сифатли ўтказилиши унда қайси усуллар қўлланилишига боғлиқ бўлади. Усул билиш жараёнида қўлланиши зарур бўлган тамойиллар, усуллар, қоидалар ва талаблар тизимидир. Усул илмий билиш технологиясини тавсифлайди, билим олиш фаолиятининг усули унинг қоидаси ва меъёри ҳисобланади¹⁸².

¹⁸¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 9 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3946-сон Қарори. www.lex.uz

¹⁸² Заварихин Н. М., Потехина Ю. В. Методы аудита. /УАудитор, 2005, № 7/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008.

И.ф.д., профессор Р.Д.Дусмуратовнинг фикрича, “тадқиқотда қўйилган мақсадга эришиш йўлида белгиланган муайян вазифани ҳал этиш учун бажариладиган иш (ҳаракат) усулни ташкил этади”¹⁸³.

А.А.Ситнов ўзининг «Операцион аудит усули» мақоласида қуйидаги сўзларни келтириб ўтади: «...ҳар қандай фаннинг ривожланиш тарихи кўрсатадики, фақат амалий фаолиятда юзага келадиган бир қатор муаммолар муҳим мустақил аҳамиятга эга бўлганда ва чуқур илмий асослашни талаб қилганда янги илмий йўналишлар алоҳида фанларга ажратилган»¹⁸⁴.

Аудиторлик текширувлари молия, солиқ, банк иши, ҳуқуқ ва бошқа соҳаларга боғлиқлиги бир қанча фундаментал фанларнинг элементларини ўрганиш ва ҳар хил технологияларни қўллашни талаб этади. Мазкур ҳолат хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолиятига баҳо беришда ҳар томонлама чуқур ёндашувларни қўллашни талаб этади.

Бироқ, XX асрнинг машҳур олими Дж.Берналнинг «...илмий усулни ўрганиш фаннинг ўзи ривожланишидан кўра секинроқ суръатлар билан бормоқда» сўзларини мисол қилиб келтирган ҳолда, А.А.Ситнов аудит ҳақидаги фаннинг ривожланишига қарамай, ҳозиргача ушбу фаннинг уни предмет сифатида билиш имконини берувчи тизим деб билишга имконият берадиган асосий усулни аниқлаш ва тушунишда яқдиллик мавжуд эмаслигини таъкидлайди¹⁸⁵.

Хусусан, А.Д.Шеремет ва В.П.Суйцнинг фикрларига кўра: “..аудит методологияси аудиторлик текширувларида қўлланадиган махсус усуллар йиғиндиси сифатида муайян услубият ва тадқиқотларга умумий ёндашув усулидан иборат. Ўз навбатида, аудит усули тадқиқотларга умумий ёндашув сифатида диалектикага асосланади. Аудит усулининг асосий тамойиллари диалектиканинг қуйидаги жиҳатларини акс эттиради:

- таҳлил (ўрганилаётган ҳодисани унинг таркибий қисмларига ажратиш ва уларнинг ҳар бирини тадқиқ этиш) ва синтез (таҳлил қилинган ва элементларга бўлинган ҳодисаларни яхлит, ички боғлиқликка эга яхлитликка айлантириш) бирлиги;

- дедукция (умумийдан хусусийга аста-секинлик билан ўтиш йўли билан ўрганиш) ва индукция (хусусийдан умумий умумлаштирувчи қонуниятларга аста-секинлик билан ўтиш йўли билан ҳодисаларни ўрганиш) бирлиги;

-ҳодисаларни ўзаро боғлиқликда ўрганиш;

- ҳодисаларни ривожланишда, динамикада ўрганиш”¹⁸⁶.

PhD И.И.Мелиевнинг таъкидлашича, аудит усули фанни тадқиқ этиш ва аудиторлик текширувини амалга ошириш жараёнида бажариладиган ва

¹⁸³ Дусмуратов Р.Д. Илмий-тадқиқот ишини ташкил этиш: Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2019. 260 б. 73-бетдан.

¹⁸⁴ Ситнов А.А. Метод операционного аудита. //Аудиторские ведомости, 2007, №3/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008.

¹⁸⁵ Ситнов А. А. Метод операционного аудита//Аудиторские ведомости, 2007, №3/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008

¹⁸⁶ Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. - 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М., 2007.- 448 с. 218-бетдан

қўлланиладиган тадқиқот тамойиллари, тартиблари, бошқичлари, талаблари ҳамда таҳлилий амаллари мажмуидир¹⁸⁷.

Аудиторлик текширувлари услубияти – аудит мақсадларида иқтисодий маълумотларни қайта ишлаш учун қўлланувчи махсус усуллар йиғиндиси. Усулларни муаллифлар уч гуруҳга бирлаштирадilar: объектнинг реал ҳолатини аниқлаш, таҳлил қилиш, баҳолаш. Биринчи гуруҳдаги усуллар қаторига объектнинг миқдорий ҳолатини аниқлаш имконини берувчи кўриб чиқиш, қайта ҳисоблаш, ўлчаш; мақсади объектнинг сифат ҳолатини аниқлаш бўлган лаборатория таҳлили; сўров, ҳужжатлар текшируви киритилади. Ҳисоботнинг алоҳида кўрсаткичларини таққослаш учун таҳлилий амаллардан (иккинчи гуруҳ усулларидан) фойдаланилади. Учинчи гуруҳ усуллари аудит объектларининг ўтмишдаги, ҳозирги ва келажакдаги ҳолатини баҳолаш, таққослаш жараёнини мантиқий яқунлашдир»¹⁸⁸.

Бундай усулларга қўшимча равишда, А.Д.Шеремет ва В.П.Суйц аудит усуллари қаторига бошқа фанлардан ўзлаштирилган усулларни киритадилар: математик назариялар (расмий танланма ва бошқалар), иқтисодий назариялар (капитални баҳолаш назарияси ва бошқалар), ахборот технологиялари (эксперт тизимлари, маълумотлар базаси технологияси ва бошқалар), ҳуқуқ масалалари, солиққа тортиш ва бошқалар.

И.ф.д., профессор К.Б.Ахмеджанов аудитнинг қўйидаги усулларини санаб ўтади: умумилмий методлари ва тадқиқот бўйича ёндашувлар, аудитнинг ўз методлари, меъёрий-ҳуқуқий методлар, эмпирик методлар, бошқа фанлар методлари¹⁸⁹.

Р.А.Алборов, С.М.Концевая ва Л.И.Хоружий аудит усулига берилган таърифда А.Д.Шеремет ва В.П.Суйц билан ҳамфикр бўлиб, аудит усули – унинг предметини билиш усуллари йиғиндисидир деб ҳисоблайди. Аудит предметини ўрганишнинг умумий методологик асоси диалектик билиш усули ҳисобланади¹⁹⁰. Бунда таъкидланадики, аудиторлик текширувида умумилмий усуллар ҳам (таҳлил, синтез, индукция, дедукция, моделлаштириш, абстракциялаш), ўзининг услубий усуллари ҳам (ҳужжатлар текшируви, амалий назорат, сканерлаш) қўлланилади.

Иқтисодчи олимларнинг фикрича, аудит жараёнида иқтисодиётимизга хос халқаро амалиётда кенг фойдаланилувчи усуллар қўлланилади. Аудитор аудит усулларини мустақил белгилайди ва қўллайди. Ушбу усуллар таркиби аудитнинг предмети, мақсади ва вазифаларига бевосита боғлиқдир¹⁹¹.

¹⁸⁷ Мелиев И.И. Аудиторлик текширувини ўтказиш услубияти: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2020. -191 б. 75-бетдан

¹⁸⁸ Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. - 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М., 2007. - 448 с. 218-бетдан.

¹⁸⁹ Ахмеджанов К.Б. Иқтисодиётни либераллаштириш шароитида ички аудитнинг услубий усуллари, текширув объектини танлашнинг аниқлаш масалалари. //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2015 йил

¹⁹⁰ Алборов Р. А., Хоружий Л. И., Концевая С. М. Основы аудита: Учебное пособие. – М.: Изд-во «Дело и Справис», 2001. -224 с. 21-бетдан

¹⁹¹ Abdullayev A., Maxmudov S., Raximova U., Maxmudov O., Mamajonov A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –Т.: Cho`lpon nomidagi NMIU, 2018. -236. 130-бетдан.

А.А.Ситнов келтириб ўтган нуқтаи назарга кўра¹⁹², аудит мустақил усулга эга эмас. Ушбу ёндашув кўплаб хорижий муаллифлар томонидан ҳам қўллаб-қувватланади ва фаннинг амалий характери билан ёки умуман бирорта назария яратишни талаб этмайдиган соф амалий фаолият билан мотивация қилинади. Бу муаллифлар умумлаштирувчи усулни ифодалаш шарт эмас деб ҳисоблайдилар ва алоҳида усуллар ҳамда тартиб-таомилларни кўрсатиб ўтиш билан чекланади. Бироқ аудит усулини ифодалашдан умуман воз кечиш, моҳиятан, уни мустақил ривожлантиришдан воз кечишни англатади, чунки бу таъриф мақсад, предмет ва объектни таърифлаш билан бир қаторда ҳар қандай фан назариясида асосий саналади.

Иқтисодчи олимлар А.Ж.Туйчиев, И.И.Мелиев ва И.Р.Авазовнинг таъкидлашича, молиявий ҳисобот аудитида тўртта ёндашув мавжуд: бухгалтерия, юридик, махсус ва тармоқ ёндашувлари¹⁹³.

О.А.Миронова, М.А.Азарская таъкидлайдики, аудит усуллари аудиторлик далиллари тўплаш ҳамда аудит давомида олинган маълумотларни таҳлил қилишга бориб тақалади. Қўлланиладиган усуллар хилма-хиллиги уларни таснифлашга ёндашувлар турли-туманлигини ҳам белгилаб беради. Таснифлашга бир ёндашув – иккита усулни ажратиш – умумилмий ва муайян илмий усулни ажратишдир.

Биринчи гуруҳга умумлаштириш ва абстракциялаш, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция киради.

Иккинчи гуруҳга эса ҳужжатли ва амалий назорат услубий усуллари киради; аудитга замонавий ёндашув бу усулларни бизнесни чуқурроқ тушуниш ва бизнес-жараёнлар рискларини баҳолаш имконини берувчи стратегик таҳлил билан тўлдирилади. Стратегик таҳлил молиявий ҳисоботларда тақдим этилган аудиторнинг профессионал фикрига асос қилиб олиними лозим.

Иккинчи ёндашув – аудит усуллари улардан текширувда фойдаланишдан келиб чиқиб ҳам гуруҳларга бўлиниши мумкин: 1) далил базасини шакллантириш усуллари; 2) таҳлилий ҳисоб-китоблар ўтказиш усуллари; 3) аудитга қўшимча хизматлар кўрсатишда фойдаланилувчи усуллар.

Биринчи гуруҳнинг асосини танланма тадқиқотлар ўтказиш ташкил қилади. Бу усуллар статистикадан ўзлаштирилган бўлиб, яхши ўрганилган ва таърифланган. Бироқ бу усулларни аудитда амалий қўллаш аудитнинг асосий тамойилларига таяниши лозим. Иккинчи гуруҳга омиллар таҳлили, молиявий ҳисоб-китоблар, прогноз қилиш ва бошқа усуллар киради. Учинчи гуруҳни эса қўшимча хизматлардан келиб чиқиб, дифференциация қилинадиган махсус усуллар ташкил қилади¹⁹⁴.


¹⁹² Ситнов А. А. Метод операционного аудита//Аудиторские ведомости, 2007, №3/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008

¹⁹³ Туйчиев А.Ж., Мелиев И.И., Авазов И.Р. Молиявий ҳисобот аудити. О`қув қо`лланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2017. -160 б. 13-бетдан.

¹⁹⁴ Миронова О. А., Азарская М. А. Развитие концепции аудита. //Аудиторские ведомости, 2005, № 11, с.3-14. 9-бетдан

А.А.Ситновнинг фикрича, аудит усулларини илмий таснифлаш уларни уч гуруҳга ажратишдан иборат: умумилмий, хусусий-илмий ва махсус усуллар¹⁹⁵.

Умуман, фаннинг илмий билиш усуллари қаторига кўплаб усуллар кириши мумкин. Масалан, улар таркибига эксперимент, моделлаштириш, таққослаш, тизимли ёндашув ва бошқалар кириши мумкин. Илмий билиш усулларини қўллашни иккига ажратиш мумкин, яъни назарий ва эмпирик усуллар. Мазкур усуллар амалий материалга назарий асос олиб киради. Назарий усулларга қуйидагилар: индукция; дедукция; таҳлил; синтез ва бошқалар киради.



1-расм. Молиявий ҳисобот аудитида қўлланилувчи усуллар¹⁹⁶

1-расмда қайд этиб ўтилганидек, умумилмий усуллар икки тоифа – назарий ва эмпирик усулларга ажратилди. Назарий усулларга таҳлил, синтез, индукция, дедукция, тизимлаштириш, моделлаштириш усуллари киради. Эмпирик усулларга

¹⁹⁵ Ситнов А. А. Метод операционного аудита//Аудиторские ведомости, 2007, №3/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008

¹⁹⁶ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

эса кузатиш, таққослаш, ўлчаш ва эксперимент усуллари киритилди. Назарий ва эмпирик усуллар нафақат аудит фанида, балки барча фанларда қўлланилади.

Хусусий усуллар муайян бир фан ёки муайян бир соҳа учун хос усул ҳисобланади. Аудит соҳасида қўлланилувчи хусусий усулларга оғзаки сўров, ташқи тасдиқ, таҳлилий амаллар, қайта текшириш усулларини киритиш мумкин. Бундан ташқари аудитнинг хусусий усуллари қаторига кўплаб усулларни ҳам киритиш мумкин. Масалан, аудиторлик танлови, рискни аниқлаш жараёнида ҳам муайян хусусий усуллар қўлланилади.

Аудит фанида бошқа фанларнинг усуллари ҳам қўлланилади. Масалан, конометрик моделлаштириш, инфорацион технология, ҳуқуқий усулларнинг қўлланилиши аудит фанининг методологиясини бойитишга хизмат қилади. Хусусан, эконометрик моделлаштириш усуллари юқори даражада аниқликка эришиш мақсадида қўлланилади. Ахборот технологияси усуллари вақт ва харажатни тежашга олиб келади.

Молиявий ҳисобот аудити усулларини таснифлашга қайтиб (3-расм), таъкидлаш жоизки, молиявий ҳисобот аудитининг махсус усуллари қаторига иқтисодиёт субъектларини аудит қилишда муайян вазиятларда фойдаланилувчи хусусий аудиторлик усуллари ва муҳимлик усули киритилади.

“Аудитни режалаштириш ва бажаришда муҳимлик” 320-сон АХСга мувофиқ, муҳимлик чегараси тузатилмаган ва топилмаган бузиб кўрсатишларнинг умумий йиғиндиси молиявий ҳисобот учун белгиланган муҳимлик даражасидан ошиб кетиш эҳтимолини мақбул паст даражагача камайитириш мақсадида аудитор томонидан молиявий ҳисобот учун умумий белгиланган муҳимлик даражасидан камроқ қилиб белгиланган сумма ёки суммаларни англатади¹⁹⁷. Аудитор муҳимликни баҳолаш экан, “профессионал мушоҳада” талабига асосланади, бу эса уни янги фаолият исбот-далилларини излаб топишга ундайди. Текширув натижаларини талқин қилишга махсус ёндашувлар аудиторлик текшируви натижалари бўйича аудиторлик хулосалари шаклида амалга оширилади.

Бошқа фанлар усуллари эҳтимоллар назарияси, бухгалтерия ҳисоби, статистика, ҳуқуқ ва бошқа усуллар йиғиндисини ўз ичига олади.

Эҳтимоллар назарияси ва статистика усулларидан молиявий ҳисобот аудитида қуйидагилар қўлланади: танланма усуллар, дисперсия усуллари, дискрет тасодифий катталик усуллари ва ҳоказо.

Бухгалтерия ҳисобидан молиявий ҳисобот аудитида баҳолаш, счетлар тизими, иккиёқлама ёзувлар ва бошқа усуллар фойдаланилади.

Молиявий таҳлилдан молиявий ҳисобот аудитида горизонтал ва вертикал усуллар, молиявий коэффицентлар усулидан фойдаланилади.

Молиявий ҳисобот аудитида ҳуқуқ фанидан томонларнинг юридик тенглиги, ирода мустақиллигидан фойдаланилади.

Айтиб ўтиш жоизки, мамлакат аудитини ислоҳ қилишнинг сўнгги йилларида кўплаб назариётчи-аудиторлар кечагина аудитга нисбатан қўллашда «узок»

¹⁹⁷“Аудитни режалаштириш ва бажаришда муҳимлик” 320-сон АХС. <https://www.mf.uz/uz/component/k2/item/74-mezhdunarodnye-standarty>

ҳисобланган илмий фанлардан аудиторлар ишида фойдаланишни дадилроқ таклиф эта бошладилар.

Юқорида баён қилинганлардан хулоса тариқасида қайд этиш мумкинки, ҳозирги кунда молиявий ҳисобот аудитида танланма тадқиқотлар (усуллар) ролинг барқарор ўсиш тенденцияси кузатилмоқда. Бу қуйидаги омиллар билан асосланади:

Миллий молиявий ҳисобот аудитини халқаро аудит стандартлари талабларига мувофиқ ислоҳ қилиш (Ғарбда аудиторлик текширувлари ўтказишда танланма усуллар муҳим аҳамият касб этади).

Молиявий ҳисобот аудитида ахборот технологияларини қўллаш ва маълумотларни компьютер ёрдамида қайта ишлаш танланма усулларни қўллашда меҳнат сиғимини сезиларли даражада пасайтиради ва бунда аудиторлик далиллари олиш воситалари самарадорлигини оширади.

Молиявий ҳисобот аудитини режалаштириш ва ўтказиш жараёнида математик ва статистик усулларнинг кенг қўлланилиши аудиторлик танловини қўллаш имкониятини кенгайтиради ва текширувнинг ишончлилигини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 9 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3946-сон Қарори. www.lex.uz

Заварихин Н. М., Потехина Ю. В. Методы аудита. //Аудитор, 2005, № 7/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008.

Дусмуратов Р.Д. Илмий-тадқиқот ишини таъкил этиши: Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2019. 260 б.

Ситнов А.А. Метод операционного аудита. //Аудиторские ведомости, 2007, №3/СПС «Консультант Плюс». Версия от 08.09.2008.

Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. - 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М., 2007.- 448 с.

Мелиев И.И. Аудиторлик текширувини ўтказиш услубияти: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2020. -191 б.

Ахмеджанов К.Б. Иқтисодиётни либераллаштириш шароитида ички аудитнинг услубий усуллари, текширув объектини танлашнинг аниқлаш масалалари. //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2015 йил.

Алборов Р. А., Хоружий Л. И., Концевая С. М. Основы аудита: Учебное пособие. – М.: Изд-во «Дело и Справис», 2001. -224 с.

Abdullayev A., Maxmudov S., Raximova U., Maxmudov O., Mamajonov A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –Т.: Cho`lpon nomidagi NMIU, 2018. -236.

Туъчиёев А.Ж., Мелиёев И.И., Авазов И.Р. Молиявий ҳисобот аудити. О`қув қо`лланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2017. -160 б. 13-бетдан

АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

К.Б.Ахмеджанов

и.ф.д., профессор

Тошкент Кимё халқаро университети

Таълим сифати ва халқаро ҳамкорлик бўйича проректор

Европа мамлакатларида аудиторлик фаолияти кўп асрлик тажрибага эга. Замонавий аудиторлик фаолиятининг ватани ҳам Буюк Британия ҳисобланади. Европа давлатларида бозор муносабатларини шакллантириш жараёнида капитал бозори унсурларининг пайдо бўлиши, кредит муносабатларининг ривожланиши, ишлаб чиқариш соҳасининг кенгайиши ва бу каби жараёнлар иқтисодий омиллар билан боғлиқ ҳолда аудит ривожланишига янги туртки берди. Компаниялар томонидан ҳисобот маълумотларининг ҳаққонийлигини текшириш аудитнинг асосий таркибига айланди.

Рақобат шароитида халқаро аудит шаклланган ҳамда ўсишга эришган бўлиб, бу аудитнинг кучли халқаро меъёрий-ҳуқуқий базасини яратишга, аудитни ташкил этиш шаклини батафсил ишлаб чиқишга хизмат қилди. Аудиторлик текшируви натижалари иқтисодий қарорларни қабул қилиш учун асос бўлганлиги сабабли барча давлатларда аудит етарли даражада қатъий тартибга солинади. Уларнинг айримларида (масалан, Францияда) аудитнинг меъёрлари, меъёрий ҳужжатларини белгилаб, аудиторлар ва аудиторлик фирмаларини рўйхатга олиш ва улар фаолияти устидан назоратни амалга ошириш йўли билан давлат ушбу жараёнга аралашади. Бошқа давлатларда (АҚШ, Англия) ушбу жараён касбий ижтимоий аудиторлик ташкилотлар томонидан тартибга солинади.


Буюк Британияда бир неча жамоат бирлашмалари ва бухгалтерия институтлари ташкил этилган. Ҳозирги вақтда Буюк Британияда сертификатланган жамоат бухгалтерларини бирлаштирувчи 6 та асосий профессионал жамоат ташкилотлари мавжуд (1-расм).



1-расм. Буюк Британиянинг асосий бухгалтерия ва аудиторлик фаолияти назоратини олиб борувчи жамоатчилик ташкилотлари¹⁹⁸

¹⁹⁸ Муаллиф томонидан тузилган.

Хорижий компаниялар аудити ўзида компаниянинг молиявий фаолияти, ташкилот ҳисоб ва ҳисоботи текширувини амалга оширади. Йўналишларига қараб, аудит бухгалтерия аудити, кадрлар аудити, юридик аудит, солиқ аудити ва молиявий аудитга бўлинади. Аудит қуйидаги мақсадларда амалга оширилади (2-расм).




2-расм. Буюк Британияда аудит текширувларининг асосий мақсадлари¹⁹⁹

Буюк Британияда барча компаниялар ҳам ўз ҳисоботини аудитдан ўтказиши шарт эмас ва айрим компаниялар, масалан ишламаётган ёки кичикроқ компаниялар аудитдан озод бўлишга даъво қилиши мумкин.

Буюк Британиядаги воқеалар Ғарбий Европанинг бошқа мамлакатларида ҳам аудитнинг ривожланишига туртки бўлди. Германияда аудитни киритишга илк қадам 1870 йилда қўйилди, бу вақтда “Акциядорлик жамиятлари тўғрисида”ги қонунга киритилган қўшимчалар ушбу жамиятлар кузатув кенгашларини баланс, фойда тақсимооти тўғрисидаги ҳисобот текширувини ўтказиш ва текширув натижаларини акциядорлар умумий йиғилишларида эълон қилишга мажбур этарди. Кейинчалик, 1884 йилда Германияда Бухгалтер-тафтишчилар институти пайдо бўлди, унинг мақсади ҳужжатлар тафтишини ўтказишнинг муайян усулларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш, шунингдек, янги касб эгаларига талабларни шакллантиришдан иборат.

ЕИнинг 2014/56/ЕС Директивалари ва №537/2014 Регламенти талабларига мувофиқ, ЕИ мамлакатлари қуйидаги аудит стандартларини қўллашлари мумкин (3-расм):



3-расм. Европа Иттифоқи мамлакатлари қўллайдиган аудит стандартлари²⁰⁰


Бухгалтер-тафтишчиларни трайгендерлар деб аталган. Айни шу даврда бу

¹⁹⁹ Муаллиф томонидан тузилган

²⁰⁰ Муаллиф томонидан тузилган

каби институтлар Осло, Вена, Будапешт, Цюрих, Рига, Гельсингфорсда ҳам немис анъаналари таъсири остида ташкил топган. Францияда 1867 йил 24 июлда Ширкатлар тўғрисидаги қонун қабул қилиниши билан, акциядорлик жамиятларининг баланслари текширув ва баҳоловга мажбур қилинди, шунингдек, “ҳисоблар бўйича комиссар” лавозими юзага келди.

ЕИга аъзо ҳар бир давлат қуйидаги мезонларга риоя этган ҳолда аудит сифатини таъминлаши шарт (4-расм) :



4-расм. ЕИга аъзо ҳар бир мамлакат аудит сифатини таъминлаши шарт бўлган мезонлар[8].

ЕИ мамлакатларида аудиторлик фаолиятини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари белгиланган. Улар тартибга солиш сиёсатини кучайтиришга, ушбу касб устидан жамоатчилик кузатувини мустаҳкамлашга, аудиторлик қўмиталарининг ролини кучайтиришга ва корпоратив бошқарувда ички назоратни мустаҳкамлашга, аудиторнинг мустақил мавқеини ва жавобгарлигини кучайтиришга, Касбий одоб-ахлоқ Кодексининг ролини оширишга тааллуқлидир.

Кўрсаткичлар	Англия	Франция	Германия	Бельгия	Греция
Асосий қонун ва норматив ҳужжатлар	Компаниялар тўғрисида қонун	1969 йил 12 августдаги декрет ва 1994 йил 24 январдаги ҳукумат қарори	Аудиторларнинг профессионал устави тўғрисидаги қонуни	Жамоатчилик кодекси	Директива
Аудиторлик фаолиятини тартибга солувчи органлар	Дипломли бухгалтерлар ва аудиторлар комитети	Адлия вазирлиги, Бухгалтер-экспертлар ордени Миллий ревизорлар палатаси	Аудиторлар палатаси	Бельгия рўйхатдан ўтган аудиторлар институти (IBR-IRE)	Греция сертификатга эга аудиторлар институти, Бухгалтерия ҳисоби ва аудити Кузатув кенгаши
Аудит стандартлари	Миллий	ХАС	ХАС	ХАС	ХАС
Назорат қилувчи ва лицензиялаш органи	Молия вазирлиги	Аудиторлар олий кенгаши ва Молия вазирлиги	Аудиторлар палатаси	Бельгия рўйхатдан ўтган аудиторлар институти (IBR-IRE)	Бухгалтерия ҳисоби ва аудит Кузатув кенгаши
Асосий турдош хизматлар	Ҳуқуқ, солиқ, молиявий консалтинг	Ҳуқуқ, солиқ,	Солиқ, молиявий ҳисобот	Ҳуқуқ, солиқ, молиявий консалтинг	Ҳуқуқ, солиқ, молиявий консалтинг
Аудиторларга қўйиладиган талаблар	Молия, бухгалтерия ёки бошқарув бизнеси мутахассислигини бакалавр даражасини тугатган бўлиши керак.	Олий маълумотга эга бўлиш ёки камида 15 йил тадбиркорлик билан шугулланган бўлиши	Иқтисод, ҳуқуқшунослик ёки техника мутахассислиги бўйича олий маълумотга эга бўлиш ва аудит тизимида 4 йиллик иш стажига эга бўлиш	Олий маълумотга эга бўлиш ва халқаро аудит сертификатига эга бўлиш	Иқтисодиёт, молия, бухгалтерия ёки солиқ мутахассислигини бакалавр даражасини тугатган бўлиши керак

5-расм. Европа давлатларида аудиторлик фаолияти ва текширувларини ташкил этиш тизими²⁰¹

²⁰¹ Муаллиф томонидан тузилган

Уларнинг фаолияти ҳукумат органлари томонидан қатъий тартибга солинган, чунки уларга бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан назоратни амалга ошириш юкланганди. Францияда 2 та ташкилот аудиторлик фаолияти билан шуғулланади, булар: Эксперт-бухгалтерлар палатаси ва Ҳисоблар бўйича комиссарлар миллий компанияси. Улар ўртасидаги асосий фарқ шундан иборат эдики, биринчилари — таклиф этиларди, иккинчилари эса — тайинланарди. Ҳисоблар бўйича комиссарлар энг масъулиятли текширувларни олиб боради, эксперт-бухгалтерлар фаолияти ҳукумат органлари томонидан унчалик қаттиқ тартибга солинмайди.

Фикримизча, Европа Иттифоқи Директивалари компанияларнинг йиллик ҳисоботлари ва консолидацияланган молиявий ҳисоботлари сифатини яхшилаш, уларнинг ҳақиқийлиги ва ишончлилигини оширишга қаратилган бўлиб, мажбурий аудитга қўйиладиган минимал талабларни, расмий аудиторларнинг мажбуриятларини, ахлоқий талабларини белгилайди, ташқи сифат назорати бўйича талабларни киритади, аудиторлик касби устидан самарали жамоатчилик назоратини таъминлайди ва Европа Иттифоқи мамлакатлари назорат органлари ўртасидаги ҳамкорликни яхшилади.

Бизнингча, ҳар бир мамлакатда профессионал ташкилотлар ва аудиторларнинг фаолияти миллий қонунчилик, Европа Иттифоқи Директивалари ва Халқаро аудит стандартлари билан тартибга солинади. ЕИга аъзо давлатлар аудит соҳасида Европа Парламенти ва Кенгаши томонидан қабул қилинган қонунларни жорий қилади. ЕИ мамлакатларида аудиторлик фаолиятининг ривожланиши нафақат Европа Иттифоқининг махсус директивалари билан, балки муайян мамлакатнинг тарихий, маданий ва ижтимоий-иқтисодий хусусиятларини ҳисобга оладиган аудитни такомиллаштириш миллий дастурлари билан ҳам белгиланади. Кўпгина Европа мамлакатларининг қонун ҳужжатларида мажбурий аудитни ўтказиш бўйича чекловлар, шунингдек, аудиторларга аудиторлик бўлмаган хизматларни кўрсатиш учун чекловлар мавжуд. ЕИнинг аудит қонунчилигига киритилган ўзгаришларнинг энг муҳим йўналишларидан бири бу - аудиторлик компаниясида аудиторларнинг мажбурий ротациясидир. Аудиторлик шартномаларининг амал қилиш муддати даврини 10 йилгача чеклаш аудиторлар мустақиллигининг кафолати ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Кучеров А.В. Особенности аудита за рубежом / Кучеров А.В, Козичева Я.М. // Молодой ученый. — 2019. — № 5. — С. 339–343.

Каримов А, Исломов Ф ва Авлоқулов А: Халқаро аудит/ дарслик / Тошкент-2015 397 бет
Audit Exemption. Companies Act 2021 [Электронный ресурс]. — Режим доступа:
www.chartere-daccountants.ie/Member/Technical/ Companies-Act-2022/Audit-Exemption

National Audit Office [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.nao.org.uk>

Ножкина Т.В. Международный аудит: Учебное пособие / Т.В. Ножкина. — Петропавловск-Камчатский: КамчатГТУ, 2020. — 127 с.

ЧОРВАЧИЛИКДА БИОЛОГИК АКТИВЛАР АУДИТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Б.Ю.Менгликулов

Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори, и.ф.д.

Иқтисодиётни ривожлантириш шароитида чорвачилик хўжаликларида аудитни тўғри ташкил этиш ва самарали ўтказиш катта аҳамият касб этади. Чорвачиликка ихтисослашган хўжаликларда жами мол-мулклар, хусусан биологик активлар тўлиқ ва зарарсиз сақланиши учун моддий жавобгар шахсларга бириктирилиши ҳамда амалдаги қонунчиликда белгиланган муддатларда инвентаризациядан ўтказилиши ва назорат қилиб борилиши лозим.

«Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3946-сон қарорида ҳам халқаро аудит стандартлари фанини ўқитиш зарур»²⁰² лиги таъкидланган. Бу эса, аудитни ташкил этишнинг халқаро стандартларига интеграциялашиш кераклигидан далолат беради. Бугунги кунда аудит Аудитнинг халқаро стандартлари (АХС)даги қоидалар ва принциплар асосида ўтказилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 11 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 171-сон - сон қарорида «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»²⁰³ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 августдаги «Аудиторларни сертификатлаштириш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»²⁰⁴ги ПҚ-5210-сон Қарори ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади: қуйидагиларни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин, унда аудиторлик фаолиятининг халқаро стандартларини тан олиш учун Халқаро бухгалтерлар федерацияси билан битим тузиш; аудитнинг халқаро стандартлари матнини давлат тилига таржима қилиш; аудитнинг халқаро стандартларини аудиторлар, экспертлар ва ушбу стандартлардан бошқа фойдаланувчилар, илмий жамоатчилик вакиллари билан муҳокама қилиш; аудитнинг халқаро стандартларининг давлат тилидаги матни аудитнинг халқаро стандартларининг инглиз тилидаги матнига мувофиқлигини комиссия томонидан кўриб чиқиш тартиби; Ўзбекистон Республикаси ҳудудида

²⁰² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3946-сон қарори.

²⁰³ «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. <https://lex.uz/docs/5307886>

²⁰⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 августдаги «Аудиторларни сертификатлаштириш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-5210-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/5552197>

аудитнинг халқаро стандартларини жорий этиш тўғрисида қарор қабул қилиш»²⁰⁵ вазифалари белгиланган. Бу эса, республикада барча аудитдан ўтказиладиган хўжалик субъектларини аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудиторлик текширувидан ўтказишнинг ҳуқуқий асосини белгилайди.

Биологик активлар, хусусан ўстиришдаги ва боқувдаги ҳайвонлар аудити 320-сон «Аудитни режалаштириш ва бажаришда муҳимлик»²⁰⁶, 315-сон «Муҳим бузиб кўрсатишлар рискларини тадбиркорлик субъект ва унинг муҳитини билиш асосида аниқлаш ва баҳолаш»²⁰⁷, 500-сон «Аудиторлик далиллари»²⁰⁸ ва 705-сон «Мустақил аудитор ҳисоботи (хулосаси)да фикрни модификациялаш»²⁰⁹ номли стандартлари талаблари ва принципларига мувофиқ ташкил этилиши ва ўтказилиши лозим.

Бугунги кунда аграр тармоқнинг такомиллаштирилиши лозим бўлган бухгалтерия ҳисоби объектларидан бири сифатида ҳам биологик активларни келтириш мумкин. Чорвачиликда биологик активлар ҳақидаги ҳисоб маълумотлари тўғрилиги ва ишончилигини аудиторлик текширувидан ўтказиш хўжалик юритувчи субъектлар аудитининг зарур бўлган муҳим бўлимдир. Чорвачиликка ихтисослашган хўжаликларда биологик активлар аудитини ташкил этиш ва ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд.

Аввало, аудитор чорвачиликда биологик активларни текширишда бир қатор далилларни тўплаши керак бўлади:

- чорвачиликда биологик активлар бўйича бухгалтерия ҳисоби счётларида бошланғич қолдиқлар мавжудлиги, хўжаликнинг ҳисоб ишларида аудитдан ўтказилаётган даври учун ҳисоботга сезиларли таъсир кўрсатадиган хатокамчиликларнинг бор ёки йўклиги;

- чорвачилик хўжаликларида жорий даврдаги биологик активлар счётлари бўйича бошланғич сальдонинг ўтган даврдан ўз вақтида, тўғри ва тўлиқ ўтказилганлиги;

- хўжаликда биологик активларни баҳолаш бўйича даврдан даврга изчилликнинг мавжудлиги ҳисоб сиёсатида кўрсатилганлиги.

Чорвачиликда биологик активларни аудитини ташкил этиш ва ўтказишда «аудиторлик танлаш» ва «хужжатли текшириш» усуллари кўллаш зарур. Чорвачиликда биологик активларни аудитдан ўтказиш жараёнида аудит амалларини кўллаш мақсадга мувофиқ бўлади. Масалан, сут йўналишидаги қорамолчиликда йирик шохли қорамоллар ҳаракатининг ҳақиқийлигини,

²⁰⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 11 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 171-сон - сон қарори. <https://lex.uz/docs/5952173>

²⁰⁶ 320-сон «Аудитни режалаштириш ва бажаришда муҳимлик» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 1-жилд. «Sano-Standart» босмаҳона. -Тошкент, 2014. -554 б.

²⁰⁷ 315-сон «Муҳим бузиб кўрсатишлар рискларини тадбиркорлик субъект ва унинг муҳитини билиш асосида аниқлаш ва баҳолаш» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 1-жилд. «Sano-Standart» босмаҳонаси. -Тошкент, 2014. -554 б.

²⁰⁸ 500-сон «Аудиторлик далиллари» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 2-жилд. «Sano-Standart» босмаҳонаси. -Тошкент, 2014. -1039 б.

²⁰⁹ 705-сон «Мустақил аудитор ҳисоботи (хулосаси)да фикрни модификациялаш» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 3-жилд. «Sano-Standart» босмаҳонаси. -Тошкент, 2014. -1502 б

уларнинг ҳужжатлар билан тасдиқланганлиги, бухгалтерия ҳисобида акс эттирилишининг ўз вақтида, тўғри ва тўлиқлигини аудитдан ўтказиш ҳисобланади.

Чорвачиликда биологик активларни аудитдан ўтказиш қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ бўлади (1-расм).

1-жадвал

Чорвачиликда биологик активлар аудитидан ўтказиш алгоритми

Чорвачиликда жорий биологик активлар аудитининг бўлимлари	Аудиторлик текшируви амаллари
1. Чорвачиликда жорий биологик активлар мавжудлиги ва моддий жавобгар шахсларга бириктирилганлиги аудити	1.1. Чорвачиликда жорий биологик активлар мавжудлиги, уларни сақлаш шароитларини, қоровулларнинг борлигини текшириш 1.2. Чорвачиликда жорий биологик активларнинг мавжудлиги учун бириктирилган моддий жавобгар шахсларнинг ва улар томонидан имзоланган моддий жавобгарлик тўғрисидаги шартноманинг тузилганлигини текшириш
2. Чорвачиликда жорий биологик активларни ҳисобга олишга доир бошланғич ҳисоб ҳужжатларининг тўғри расмийлаштирилганлиги аудити	2.1. «Чорвачиликда биологик активлар наслини кирим қилиш далолатномалари»нинг ўз вақтида ва тўғри тузилганлигини текшириш 2.2. Чорвачиликда биологик активларни тортиш бўйича хўжалик муомалаларининг акс эттирилишини, ўз вақтида, тўғри ва тўлиқ ҳужжатлаштирилганлигини текшириш 2.3. «Чорвачиликда жорий биологик активлар (ўстиришдаги ҳайвонлар)нинг гуруҳан-гуруҳга ўтказиш далолатномалари» ва «Чорвачиликда жорий биологик активларни ҳисобдан чиқариш далолатномалари»нинг тўғри тузилганлигини текшириш 2.4. Чорвачиликда жорий биологик активларни сотиш билан боғлиқ хўжалик муомалаларини акс эттириш ва бошланғич ҳужжатлар билан расмийлаштириш ўз вақтида, тўғри ва тўлиқ амалга оширилганлигини текшириш
3. Чорвачиликда жорий биологик активлар инвентаризациясини ўтказилиши ва натижаларининг ҳисобда акс эттирилиши аудити	3.1. Чорвачиликда жорий биологик активлар инвентаризацияси ўтказилиши тўғрилигини текшириш 3.2. Чорвачилик хўжаликларида жорий биологик активларни инвентаризациядан ўтказиш даврийлигини текшириш 3.3. Чорвачиликда жорий биологик активлар инвентаризация натижаларининг бухгалтерия ҳисобида акс эттирилиши тўғрилигини текшириш, камомад ва ўзлаштиришлар аниқланган ҳолатларда талаб даражасидаги чоралар қўрилганлигини назорат қилиш 3.4. Жой биологик активлар ҳисоби бўйича ҳужжатлар айланиш графигининг мавжудлиги ва унга амал қилинишини текшириш 3.5. Жорий биологик активлар сифатида ўстиришдаги ҳайвонлар таннархи шаклланишининг тўғрилигини текшириш
4. Чорвачиликда жорий биологик активларнинг аналитик ва синтетик ҳисоби ташкил этилиши аудити	4.1. Чорвачиликда жорий биологик активлар аналитик ва синтетик ҳисоб регистрларининг шакллантирилиши тўғрилигини текшириш 4.2. Чорвачиликда жорий биологик активлар синтетик ва аналитик ҳисоб қолдиқларининг мувофиқлигини аудиторлик текширувидан ўтказиш 4.3. Жорий биологик активлар ҳисоби бўйича якуний маълумотларнинг ҳисоботларда акс эттирилиши тўғрилигини текшириш

Хорижлик иқтисодчи олим В.Г.Широбоков фикрича, «аудит жараёнида ўртача вазндаги чорва моли ҳаром ўлган кунда озғин чорва молини сўйиш амалга оширилган ҳолатларини аниқланишини таъкидлайди»²¹⁰. Ушбу хўжалик

²¹⁰ Широбоков В.Г. Практикум по аудиту в организациях АПК: Учебное пособие / Аудит животных на выращивании и откорме. В.Г.Широбоков, Т.И.Логвинова. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 384 с.

муомалалари бўйича бошланғич ҳисоб ҳужжатларида, масалан, «чорва моллари ва паррандалар чикими далолатномаси»да сохталаштиришга йўл қўйилган бўлиши мумкин. Агар юқорида номи келтирилган далолатнома чорва молининг ҳаром ўлиши бўйича далолатномаси бўлса, нисбатан вазни оғирроқ қорамол кўрсатилади, ҳақиқатда гўшт учун сўйилган қорамол бўйича сўйиш далолатномасида эса аксинча, вазни енгил бўлган қорамол бўйича маълумотлар киритилади. Юқорида келтирилган қоидабузарликни аниқлаш учун ўзаро бири-бири билан алоқадорликда бўлган ҳужжатларни мантиқий таққослаш ва кўрсаткичларни параллел моделлаштириш усуллари қўллаш зарур.

Биологик активлар, хусусан, ўстиришдаги ҳайвонлар, ўзлаштириш мумкин бўлган юқори рискка эга активлардан эканлигига аудитор эътибор қаратиши лозим. 720-сонли «Аудит ўтказиш жараёнида текширилган молиявий ҳисоботлар ифодаланган ҳужжатлардаги бошқа маълумотларга нисбатан аудиторнинг жавобгарлиги»²¹¹ номли стандартга мувофиқ аудит текшируви ўтказилаётган чорвачилик хўжалигидаги ҳужжатларда йўл қўйилган камчиликларни аудитор раҳбарга билдириши лозим. Аудит ўтказиш мобайнида чорвачиликка ихтисослашган хўжаликлар бухгалтерия ҳисобидаги хато-камчиликлар ва амалдаги норматив ҳужжатларга мос келмайдиган ҳужжатлаштириш ва ҳисоб ишлари аниқланади.

«Аудиторлик текширувлари бўйича амалиёт кўрсатишича, ходимлар, ферма мудури ёки бошқа мансабдор шахсларнинг тил бириктириши йўли билан амалга ошириладиган бош сонини ҳисобга олишда қасддан қилинган хатоликларнинг энг кенг тарқалгани, уларни ўзлаштириш мақсадида ҳаром ўлган чорва моллари сонини ошириб кўрсатиш ёки олинган наслни яширишдир. Бунга тескари бўлган, яъни ҳаром ўлганлар сонини камайтириш ҳолатлари ҳам учрайди. Шу сабабли чорва молларининг қўшилган вазни ҳам оширилган ҳолда кўрсатилиши мумкин»²¹².

Чорвачиликда биологик активларнинг мавжудлиги ва ҳисобининг тўғри юритилаётганлигини текшириш натижалари аудитор томонидан мустақил аниқланадиган аудиторнинг иш ҳужжатларида акс эттирилиши лозим.

720-сонли «Аудит ўтказиш жараёнида текширилган молиявий ҳисоботлар ифодаланган ҳужжатлардаги бошқа маълумотларга нисбатан аудиторнинг жавобгарлиги» номли аудитнинг халқаро стандартига мувофиқ «Аудиторлик ташкилоти хўжалик юритувчи субъектнинг раҳбариятини, молиявий ҳисоботда аниқланган бузилиш фактлари тўғрисида иложи борича тезроқ хабардор этиши керак, агарда: бухгалтерия ҳисоби ва ички назорат тизими активларни сақлаб қолиш учун шарт-шароитлар яратишга ва молиявий ҳисоботларни бузиб кўрсатишга қаршилик қилишга қодир эмаслиги аниқланса; хўжалик юритувчи субъектга унинг ходимлари томонидан етказилган зарарлар тўғрисида аниқ

²¹¹ 720-сон «Аудит ўтказиш жараёнида текширилган молиявий ҳисоботлар ифодаланган ҳужжатлардаги бошқа маълумотларга нисбатан аудиторнинг жавобгарлиги» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: 3-жилд. «Sano-Standart» босмаҳонаси. -Тошкент, 2014. -1502 б.

²¹² Костина Р.В. Типичные ошибки, обнаруженные при аудите сельхозорганизаций // «Главбух». Приложение «Учет в сельском хозяйстве», №3, 2004.

гувоҳлик берадиган фактлар аниқланса»²¹³.

Умуман олганда, чорвачиликка ихтисослашган хўжаликларда биологик активларни аудиторлик текширувидан ўтказишда соҳанинг ўзига хос хусусиятларини ва активларнинг биологик хусусиятларини ҳамда аудитнинг маълумот базасидан фойдаланишни ва биологик активлар ҳисоби бўйича норматив-ҳуқуқий базадан биологик активларни туркумлашни, ўзига хос аудиторлик амалларини қўллаш катта аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/5307886>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириши чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3946-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/3914502>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 августдаги «Аудиторларни сертификатлаштириши тизимини такомиллаштириши бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-5210-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/5552197>

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 11 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиши тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 171-сон - сон қарори. <https://lex.uz/docs/5952173>

320-сон «Аудитни режалаштириши ва бажаришида муҳимлик» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 1-жилд. «Sano-Standard» босмахона. -Тошкент, 2014. -554 б.

315-сон «Муҳим бузиб кўрсатишлар рискларини тадбиркорлик субъект ва унинг муҳитини билиш асосида аниқлаш ва баҳолаш» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 1-жилд. «Sano-Standard» босмахонаси. -Тошкент, 2014. -554 б.

500-сон «Аудиторлик далиллари» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 2-жилд. «Sano-Standard» босмахонаси. -Тошкент, 2014. -1039 б.

705-сон «Мустақил аудитор ҳисоботи (хулосаси)да фикрни модификациялаш» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 3-жилд. «Sano-Standard» босмахонаси. -Тошкент, 2014. -1502 б

Широбоков В.Г. Практикум по аудиту в организациях АПК: Учебное пособие / Аудит животных на выращивании и откорме. В.Г.Широбоков, Т.И.Логвинова. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 384 с.

720-сон «Аудит ўтказиш жараёнида текширилган молиявий ҳисоботлар ифодаланган ҳужжатлардаги бошқа маълумотларга нисбатан аудиторнинг жавобгарлиги» номли АХС. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: 3-жилд. «Sano-Standard» босмахонаси. - Тошкент, 2014. -1502 б.

Костина Р.В. Типичные ошибки, обнаруженные при аудите сельхозорганизаций // «Главбух». Приложение «Учет в сельском хозяйстве», №3, 2004.

²¹³ Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: 3-жилд. Аудитнинг халқаро стандарти (АХС) 720-сон «Аудит ўтказиш жараёнида текширилган молиявий ҳисоботлар ифодаланган ҳужжатлардаги бошқа маълумотларга нисбатан аудиторнинг жавобгарлиги».

СТРАТЕГИЧЕСКИЙ АУДИТ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ

М.И.Исраилов

Д.э.н, проф., заведующий кафедрой «Бухучет, анализ, статистика» Кыргызско-Российского Славянского университета им. Б.Н. Ельцина., Кыргызстан

З.А.Ерназарова

докторант Кыргызско-Российского Славянского университета им.Б.Н. Ельцина, Кыргызстан., директор Департамента отчетности и статистики государственных финансов Министерства финансов Республики Казахстан

Передовая практика зарубежных стран применяет стратегический аудит с целью оценки реализации стратегических целей государства и стратегических документов. Парламентский надзор за качеством исполнения бюджета, на основе оценки рисков системы государственного управления, в части в денежно-кредитной, налогово-бюджетной политики и государственного планирования обеспечивает независимость и открытость на национальном уровне. В этой связи, анализ и оценка действующих денежно-кредитных, налогово-бюджетных инструментов управления экономикой, а также документов системы государственного планирования являются одними из актуальных задач.

Основная часть. В современных условиях, анализ и оценка целей, целевых индикаторов и показателей стратегических документов, декомпозиция индикаторов и показателей по обеспечению их финансовыми ресурсами, на примере Казахстана позволили автору обосновать предложения по улучшению социально-экономической ситуации. Отмечается влияние целевых индикаторов и показателей плана развития государственных органов на цели, целевые индикаторы и стратегические показатели национальных проектов. Предварительное изучение их показывает, что показатели стратегических документов в отдельных случаях не корректируются между собой и значения их различны. В национальном проекте по развитию агропромышленного комплекса на 2021-2025 годы указаны 4 стратегических показателя. В плане развития Министерства сельского хозяйства рассмотрены 3 стратегических показателя национальных проектов, при этом четвертый отсутствует, в частности, показатель «Расходы домашних хозяйств на продовольственные товары». В свою очередь, в плане Министерства сельского хозяйства рост производительности труда в сельском хозяйстве не оценен из-за отсутствия статистических данных.

Аналогичная картина наблюдается по оценке национального проекта «Качественное и доступное здравоохранение для каждого гражданина «Здоровая нация», где одним из стратегических показателей указано снижение материнской смертности. Однако, в плане Министерства здравоохранения данный показатель отсутствует. Все вышеуказанные факты свидетельствуют о том, что отдельные показатели плана развития государственных органов не нацелены на выполнение целевых индикаторов национального проекта. В этой связи, автором предлагается проведение аудита эффективности взаимосвязи цели, целевых индикаторов и показателей вышеуказанных двух документов и результаты использовать для

оценки деятельности государственных органов. Предлагаемый подход является начальным этапом стратегического аудита по декомпозиции целевых индикаторов и документов системы государственного планирования.

Рассмотрение оперативных и тактических национальных целей позволит оценить межотраслевые и отраслевые стратегии государственных органов управления. Следующим этапом предлагается оценить влияние целевых индикаторов национальных проектов на цели и целевые индикаторы Национального плана развития Республики Казахстан. Последовательность этапов аудита позволит скоординировать результаты и оценку целей, ключевых индикаторов, указанных в общенациональных приоритетах Стратегии развития Казахстана до 2050 года.

Стратегический аудит в период неблагоприятной социально-экономической ситуации актуален и позволяет нивелировать возникающие риски и повысить результативность реализуемой стратегии. Положительным фактором в последние годы следует отметить комплексное исследование проблем управления государственными финансами. В теоретическом и практическом аспекте к государственным финансам относятся: государственный бюджет, государственный кредит и финансы хозяйственных субъектов с участием государства, в частности, финансы субъектов квазигосударственного сектора и финансы государственных внебюджетных фондов. Однако, до настоящего времени не рассмотрены проблемы управления финансами акционерных обществ с участием государства.

Одним из основных предложений автора является расширение направлений государственного аудита. Проведение аудита эффективности формирования и использования финансовых ресурсов внебюджетных фондов и управления их активами в указанном направлении позволяет более обоснованно и комплексно оценить эффективность реализации национальных проектов, так как в львиную долю в финансировании нацпроектов привлечены внебюджетные средства, которые составили 4717,3 млрд тенге или около 60% всех средств в 2022 году. При этом, проведение стратегического аудита в увязке с квазигосударственным сектором позволяет комплексно оценить влияние бюджетных ресурсов, средств внебюджетных фондов и финансовых ресурсов субъектов квазигосударственного сектора на цели и целевые индикаторы национальных проектов, плана развития государственных органов, плана территориального развития страны и документов Системы государственного планирования.

Автором по отчетным данным Министерства финансов Республики Казахстан за 2022 год проведена оценка эффективности реализации девяти национальных проектов. При этом сделан вывод о том, что полноценное реформирование государственных программ в национальные проекты фактически не произошло. Отмечается громоздкость разработанных национальных проектов, включение в них аналогичных мероприятий инвестиционных проектов с выявленными недостатками. В качестве основных проблем отмечается следующее: отсутствие механизма отражения государственных финансовых инвестиций от субъектов квазигосударственного

сектора, осуществленных до перехода на МСФО; несоблюдение требований МСФО в отношении консолидации финансовых операций контролируемых компаний; несоответствие требованиям МСФО в части переоценки долгосрочных активов государства. Следует отметить проблемы фискальной децентрализации, которые включают налогово-бюджетные инструменты поддержки и развития экономики регионов страны путем укрепления доходной базы местных бюджетов и совершенствования действующей системы межбюджетных отношений. В этой связи актуальным является анализ и оценка механизма регулирования межбюджетных отношений. Объективно необходимым становится проведение аудита эффективности всей бюджетной политики и элементов бюджетной системы. В этой связи, целесообразно проработать вопросы дальнейшего совершенствования научного обеспечения поэтапных работ по направлениям аудита (стратегический аудит, аудит соответствия, аудит эффективности, аудит финансовой отчетности) и привлечения независимых частных аудиторских компаний на законодательной основе. Важным фактором обеспечения устойчивости государственных финансов также является укрепление доходной части бюджетов. Предлагается на основании перечня налоговых расходов составить Аналитического отчета о налоговых расходах, содержащий оценку эффективности налоговых льгот, освобождений и иных преференций по налогам и другим обязательным платежам в бюджет, достигнутым эффектам, формирование рекомендаций о целесообразности дальнейшего применения льгот и преференций и их прозрачности. Понятие «прозрачность бюджета» общепринято воспринимается только как наличие бюджетной информации, между тем по мнению автора, данное значение связано с понятностью. Понятность предполагает простоту интерпретации и понимания налогово-бюджетной документации гражданами и предоставление: понятного описательного материала, необходимого для полного понимания бюджетной политики и ожидаемых результатов; краткого, но достаточного контекста и пояснений, необходимых для упрощения понимания бюджетной документации и отражения в ней логических связей.

Выводы. Применение стратегического аудита обусловлено новыми тенденциями в государственном управлении и новыми методами оценки рисков. При реализации крупномасштабных, дорогостоящих инвестиционных проектов существенно возрастает потребность в проведении стратегического аудита. Перспективным направлением развития стратегического аудита на основе действующих видов: аудита соответствия, аудита эффективности, аудита финансовой отчетности становится создание комплексной системы государственного аудита, охватывающего в целом бюджетный процесс от государственного, стратегического, бюджетного планирования до результатов исполнения бюджетов по доходной и расходной части.

Список литературы:

Закон Республики Казахстан от 12 ноября 2015 года №392-V ЗРК «О государственном аудите и финансовом контроле.», www.adilet.zan.kz

IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK TEKSHIRUVLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

M.X.Xodjayeva
i.f.n., dotsent

Iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashishi sharoitida hamda O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini jadallashtirish va erkinlashtirishda hamda xususiy tadbirkorlik sektori barqarorligini ta’minlashda audit tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda auditorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirilishi natijasida, Respublikamizda auditorlik xizmatlari bozorida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, 2022-yil 31 dekabr holatida auditorlik tashkilotlarining soni 2021 yilning 31 dekabriga nisbatan 30 taga (31%) oshib 126 taga, auditorlar soni esa mos ravishda 230 nafarga (35%) oshib 881 nafarga yetdi. Bundan 27 ta mahalliy auditorlik tashkilotlari yirik xalqaro tarmoq va assotsiatsiyalar a‘zosi, 4 tasi xalqaro auditorlik kompaniyalarining (Big-4) sho‘ba jamiyatlari faoliyat olib bormoqdalar[5].

Hozirgi vaqtda jarayonlarni avtomatlashtirish har bir sohada eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Turli xil faoliyat sohalaridagi ko‘plab kompaniyalarning asosiy biznes jarayonlariga sun‘iy intellektni joriy etish yo‘nalishi faol rivojlanmoqda, “aqli” robot-maslahatchilar paydo bo‘lmoqda, biznesning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari dinamikasini aniqlash uchun sun‘iy neyron tarmoqlarning murakkab modellari va boshqalar yaratilmoqda.

Iqtisodiyotning har bir jabhasi rivojlanayotgan paytda audit ham bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Albatta, endi kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tekshirishni faqat sun‘iy intellektga topshirishning iloji yo‘q, ko‘p narsa odamlar yelkasida qoladi, chunki audit jarayonini, amalga oshirilgan amallarning tuzilishi va hajmini to‘liq rasmiylashtirish mumkin emas. Har bir mijozga nisbatan professional mulohazani shakllantirish zarurati saqlanib qolmoqda. Biroq har yili ishning bir qismini mashinalarga o‘tkazishga imkon beradigan yangi axborot texnologiyalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

Ushbu texnologiyalardan biri moliyaviy hisobotlari tekshirilishi kerak bo‘lgan kompaniyalar bilan elektron hujjat aylanishidir. Hozirda katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, ularni almashish va qat’iy maxfiylikni saqlash imkonini beruvchi bulutli xizmatlar mavjud. Yirik auditorlik kompaniyalarida bunday xizmatlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun mas’ul xodimlar mavjud. Bulutli omborlar ma’lumotlarni uzatishning zamonaviy shifrlash usullari bilan ishonchli himoyalangan, bu faqat ma’lum

bir doiradagi odamlarga ma'lumotni ko'rish va u bilan har qanday harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Auditorlik tashkilotlari faoliyatiga audit tartib-qoidalarini optimallashtirish imkonini beruvchi axborot texnologiyalari ham joriy etilmoqda. Auditor ishiga avtomatlashtirish jarayonlarini joriy etish 1-rasmdagi yo'nalishlarda keltirilgan texnologik imkoniyatlar bilan ta'minlanadi.

Axborotlashtirish auditorlik guruhi ichidagi aloqa uchun alohida ahamiyatga ega. Ish jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish jamoa ichidagi muloqotni tezlashtirishga yordam beradi va shu orqali o'zaro hamkorlik samaradorligini oshiradi. Videokonferensiya aloqa va guruh suhbatlari masofaviy axborot almashishning murakkabligini bartaraf qiladi, loyiha bo'yicha auditorlar guruhiga loyihaga kirishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, rejalashtirish jarayonlarini amalga oshirishda auditorlik tashkiloti hududida jismoniy o'zaro ta'sirlardan deyarli butunlay voz kechishga imkon beradi. Bunday sharoitda audit topshirig'ini bajarish tezligini bir necha baravar oshirish mumkin va kompaniyalarning o'tkazish (tranzaksiya) xarajatlari kamayadi [2].

1-rasmda ko'rsatilgan auditor ishiga avtomatlashtirish jarayonlarini joriy etishning texnologik imkoniyatlari auditorlik protseduralarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish, almashish va ulardan foydalanishning yuqori tezligini, shu jumladan elektron hujjat aylanishini joriy etish, bulutli saqlashni qo'llash orqali ta'minlaydi.




1-rasm. Auditor ishiga avtomatlashtirish jarayonlarini joriy etishning texnologik imkoniyatlari [3]

Bundan tashqari, ishda axborot tizimlaridan foydalanish mijoz uchun auditorlik xizmatlari narxining pasayishiga olib keladi. Yagona bulutli axborot tizimini yaratish biznes jarayonlarining turli ishtirokchilari tomonidan foydalanish uchun audit amallarini boshqarish va moslashtirish imkonini beradi[1] va MS Excel yordamida ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun mavjud vositalar katta hajmdagi axborot ma'lumotlarini qayta ishlash va ularni audit topshirig'ining maqsadlariga muvofiq tartiblash imkonini beradi.

Audit, me'yoriy hujjatlar va anketalar bo'limlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish topshiriq bo'yicha avtomatik ravishda xulosalar yaratish imkonini beradi. Bunday ishning sifatli mazmuni xalqaro audit standartlari paragraflariga, ishchi hujjatlarning shablonlariga havolalar bilan birlashtirilgan ma'lumotnomalar bo'lishi mumkin [4].


Axborot tizimlari yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan audit amallari 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Axborot tizimlari yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan audit amallari[3]

2-rasmda ko'rsatilgan audit amallarini avtomatlashtirishda auditorning funksiyasi dastlabki ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qilish, xavflarni baholash va analitik amallar tomonga o'tadi va dasturiy vositalar belgilangan parametrlar doirasida audit o'tkazish imkonini beradi. Har bir auditorlik topshirig'ini birlashtirish standartlashtirilgan audit protseduralari to'plami bilan cheklanadi.

Audit topshirig'ini bajarishda avtomatlashtirilgan yondashuvning afzalliklari 3-rasmda jamlangan.



3-rasm. Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda avtomatlashtirilgan yondashuvning afzalliklari

3-rasmda keltirilgan auditorlik topshirig'ini bajarishga avtomatlashtirilgan yondashuvning afzalliklari, birinchi navbatda, auditorning odatiy operatsiyalarini avtomatlashtirish bilan bog'liq bo'lib, shu orqali mehnat xarajatlarini kamaytirish,

mexanik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, audit vaqtini qisqartirish, bajarilgan ishlarning sifatini saqlab qolish.

Auditorlik xizmatlari bozorida avtomatlashtirish tabiiy va zarur jarayon bo‘lib hisoblanadi. Majburiy audit hajmining qisqarishi tufayli raqobatning kuchayishi, auditorlar soniga qo‘yiladigan talablarning ortishi biznes hamjamiyatini bozorda rivojlanish va o‘zaro munosabatlarning yangi usullarini izlashga majbur qilmoqda. Aynan shuning uchun ham yangilanadigan modullar asosidagi audit sohasidagi zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy yechimlari sohadagi ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Богинская, З.В. Дистанционный аудит в соответствии с международными стандартами аудита / З.В. Богинская, Т.Ю. Гладкова // Экономика и предпринимательство. – 2020. – №9 (122). – С. 1155-1159.

Кузнецова, Е.В. Автоматизация аудита как инструмент контроля дистанционной работы аудиторской организации / Е.В. Кузнецова, А.В. Спесивцева // Инновационное развитие экономики: тенденции и перспективы. – 2020. – Т. 1. – С. 264-271.

Изварина Н.Ю. и другие. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ В ХОДЕ ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТА. Economy and Business: Theory and Practice, vol. 7 (89), 2022

Использование информационных технологий в аудите / Н.Ю. Изварина, А.А. Лермонтова, К.Э. Гутник, С.А. Никитин // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2022. – №5-2 (87). – С. 23-27.

www.mf.uz/qr/news/category/yangiliklar/post-1009

KORXONALAR MOLIVAVIY HOLATI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

A.N.Maxmudov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliyaviy taxlil
va audit” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori*

S.S.Sodiqov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Moliyaviy hisobotda shaffoflik, ishonchlilik va javobgarlikni ta'minlashda moliyaviy holatni tekshirish va tahlil qilishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Ushbu tezisda puxta va ishonchli audit o‘tkazish uchun AXS standartlariga rioya qilish muhimligi ta'kidlangan. Auditning xalqaro standarti xo‘jalik²¹⁴ yurituvchi sub’ekt rahbariyati yoki boshqaruv yuklatilgan shaxslarga majburiyatlar yuklamaydi va ularning majburiyatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va me‘yoriy hujjatlarga nisbatan ustunlikka ega bo‘lmaydi. Biroq auditning xalqaro standartiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ekt rahbariyati va, zarur holda, boshqaruv yuklatilgan shaxslar auditni o‘tkazish uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadigan muayyan

²¹⁴ M.X.Xodjayeva, A.N.Maxmudov, X.F.Xasanova, U.SH.Fayziyev, E.T.Tulovov. INVESTETSIYALAR AUDITI. Toshkent-2022.

majburiyatlarni e'tirof etishlari lozimligini nazarda tutadigan boshlang'ich shartga ko'ra o'tkaziladi. Moliyaviy hisobotlar auditi xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati yoki boshqaruv yuklatilgan shaxslarni ularning majburiyatlaridan ozod etmaydi. Auditor fikr bildirishi uchun asos sifatida, auditor moliyaviy hisobotlar umuman olganda firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli ekanligiga oqilona ishonch hosil qilishini talab etadi. Oqilona ishonch – bu ishonch bildirishning yuqori darajasi. Auditor auditorlik riski (ya'ni moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lgan holda auditor tegishli bo'lmagan fikr bildirishi riski)ni maqbul darajagacha pasaytirish uchun etarlicha tegishli dalillar olganda oqilona ishonch hosil qilingan hisoblanadi. Biroq oqilona ishonch hosil qilish – bu ishonchning mutlaq darajasi emas, chunki auditga xos bo'lgan cheklashlar mavjud bo'lib, ular shunga olib keladiki, auditor o'z xulosalarini chiqarish va auditorlik fikri (xulosasi)ni bildirishda asos sifatida foydalanadigan auditorlik dalillarining aksariyat qismi o'z tabiatiga ko'ra muayyan xulosani tasdiqlash uchun keltirilgan vajlar hisoblanadi va xulosa xususiyatini kasb etmaydi.

Auditor tomonidan bildirilgan fikr shakli moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga va har qanday tegishli qonun yoki me'yoriy hujjatga bog'liq bo'ladi. Auditorida audit jarayonida aniqlangan masalalar to'g'risida foydalanuvchilar, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati, boshqaruv yuklatilgan shaxslar yoki uchinchi tomonlarga axborot berish va hisobotlar taqdim etish bo'yicha boshqa majburiyatlar bo'lishi ham mumkin. Bunday majburiyatlar auditning xalqaro standarti da yoki tegishli qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlarda belgilanishi mumkin. Moliyaviy hisobotlar auditini²¹⁵ o'tkazishda auditorning umumiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim: Moliyaviy hisobotlar umuman olganda firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli ekanligiga oqilona ishonch hosil qilish; bu auditorga moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga muvofiq tayyorlangani to'g'risida fikr bildirish imkonini beradi; Moliyaviy hisobotlar xususida auditning xalqaro standarti talablariga muvofiq auditor xulosalariga mos ravishda hisobot (xulosa) taqdim etish. Agar oqilona ishonch hosil qilishning imkoni bo'lmasa, auditorlik hisobotida qo'shimcha izohlar bilan fikr bildirish esa yuzaga kelgan vaziyatda moliyaviy hisobotlarning ehtimol tutilgan foydalanuvchilariga axborot berish uchun etarli bo'lmasa, auditning xalqaro standarti auditor fikr bildirishdan bosh tortishini yoki kelishuv bo'yicha ishlashdan bosh tortishini talab qiladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, moliyaviy hisobot auditi mustaqil fan sifatida o'z predmeti, ob'ekti va sub'ektlariga ega. Fikrimizcha, moliyaviy hisobot auditi fanining predmeti deganda mazkur fanning boshqa fan yoki predmetlardan ajratib turuvchi belgilari yoki xususiyatlari tushunilib, uning predmetini bizningcha, quyidagicha izohlash maqsadga muvofiqdir: Moliyaviy hisobot auditi fanining predmeti – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini ta'minlash bo'yicha auditorlik munosabatlarini o'rganish hisoblanadi.

²¹⁵ Auditning xalqaro standartlari.: www.iaasb.org.

Moliyaviy hisobot auditini²¹⁶ o‘tkazish va uni fan sifatida tadqiq etishda quyidagi me‘yoriy hujjatlardan keng foydalaniladi: - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 23.01.2019 yildagi “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish haqida 10-son buyrug‘i;

- “Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi asosiy tamoyillar”
- 200-son AXS;

- “Moliyaviy hisobot²¹⁷ auditi bo‘yicha qonunlar va me‘yoriy hujjatlarni ko‘rib chiqish”

- 250-son AXS; - “Auditni rejalashtirish”

- 300-son AXS; - “Auditda muhimlik”

- 320-son AXS; - “Auditorlik dalillar”

- 500-son AXS; - “Auditorlik dalillar - aniq moddalarga taalluqli qo‘shimcha savollar”

- 501- son AXS;

- “Dastlabki moliyaviy hisobot auditida boshlang‘ich qoldiqlar bo‘yicha auditorning ma‘suliyati”

- 510-son AXS; - “Tahliliy amallar”

- 520-son AXS; - “Ekspert xizmatidan foydalanish”

- 620-son AXS; - “Moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasi”

- 700-son AXS; - “Taqqoslanadigan ko‘rsatkichlar”

- 710-son AXS; - “Tekshirilgan moliyaviy hisobotlardagi boshqa axborotlar”

- 720-son AXS; - “Istiqbolli moliyaviy ma‘lumotlarni tekshirish”

- 810-son AXS; - “Moliyaviy hisobotning sharhi bo‘yicha kelishuv»

- 910-son AXS; - “Moliyaviy hisobotga taalluqli amallarni bajarish bo‘yicha kelishuv”

- 920- son AXS; - “Moliyaviy ma‘lumotlarning kompilyatsiyasi bo‘yicha kelishuv”

- 930-son AXS va boshqalar.

Moliyaviy hisobot auditi maqsadlarini tushunish realizatsiya qilinishi auditorning kasbiy fikrlarini ifodalash uchun etarlicha isbot yig‘ish imkonini beruvchi auditorlik amallari metodik asoslari shakllanishini ta‘minlaydi. “Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi asosiy tamoyillar” nomli 200-son xalqaro audit standartiga muvofiq moliyaviy hisobot auditining maqsadi: auditorlarga moliyaviy hisobot barcha axamiyatli javxalari bo‘yicha moliyaviy hisobotni taqdim etishga oid belgilangan kontseptual asosga muvofiq tayyorlanganligi xaqida o‘z fikrini bildirish uchun imkoniyat yaratishdir. Moliyaviy hisobot auditining vazifalari:

- Moliyaviy hisobot tarkibini tekshirish;

- Moliyaviy hisobot tuzish printsiplariga mosligini tekshirish;

- Buxgalteriya balansining to‘g‘riligini tekshirish;

- Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tekshirish;

- Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotni tekshirish;

- Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni tekshirish.

²¹⁶ M.X.Xodjayeva, A.N.Maxmudov, X.F.Xasanova, U.SH.Fayziyev, E.T.Tulovov. INVESTETSIYALAR AUDITI. Toshkent-2022.

²¹⁷ Auditning xalqaro standartlari.: www.iaasb.org.

Moliyaviy hisobot auditini tartibga soluvchi tamoyillar sifatida mustaqillik, xalollik, xolislik, kasbiy bilimga egalilik va tegishli sinchikovlik, kasbiy xulq atvorga egalilik, texnikaviy standartlarga rioya qilish kabi tamoyillarni kiritish mumkin.

Tekshiruv vazifalarini aniqlab borish, auditorlar xo'jalik muomalalari tarkibini, ularning hajmini, jadalligi, rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish tartibini, korxonada qo'llaniladigan axborotlarga ishlov berish texnologiyalari va boshqa omillarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Auditning xalqaro standartlari.: www.iaasb.org.

Karimov A.A., Muqumov Z.A., Khodjaeva M.H., Avloqulov A.Z. "Xalqaro audit". Darslik. Toshkent –2019.

Audit. O'quv qo'llanma /To'laxo'djaeva M.M., Jo'raev T.I, Gulyamova F.G.larning umumiy tahriri ostida. –T.: BAMA nashr. Markazi. 1 tom.

Do'stmuratov R.D. Auditning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Rizograf, 2018 y. 146 b. M.X.Xodjayeva, A.N.Maxmudov, X.F.Xasanova, U.SH.Fayziyev, E.T.Tulovov. INVESTETSIYALAR AUDITI. Toshkent-2022.

Xodjaeva M, Xajimuratov N, Maxmudov A, Atamuratov S. Auditning xalqaro standartlari. O'quv qullanma. Toshkent-2023

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI KORXONALARNING MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINI XALQARO STANDARDLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

A.N.To'raev

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori,

Z.A.Parmanova

TDIU "Buxgalteriya hisobi" fakulteti magistranti

Korporativ boshqaruv tizimidagi aksiyadorlar jamiyatlarining moliyaviy natijalar hisobotini xalqaro standartlar asosida amalga oshirish bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti yangi qarorga imzo qo'yildi[1]. Bu qarorga asosan yirik aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslarni MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlar tayyorlanishini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Hozirgi shiddatli zamonda bu kabi yangiliklar juda kerakli chunki MHXS bu global biznes tili sanaladi. Chunki bu hisobot turi bizga keyinchalik yangi iqtisodiy qarorlar qabul qilishga va investetsiyalar kiritmoqchi bo'lgan investorlar uchun foydali sanaladi. Bu o'z o'rnida mamlakatimizning xalqaro bozorga kirishga va raqobat qilish imkonini beradi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot – bu shunday moliyaviy hisobotki, qaysiki unda ma'lum bir davr uchun korxonaning daromadlari va hisobga olingan xarajatlari umumlashtiriladi. Buxgalteriya hisobni asosiy komponenti – moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga muhim hisob ma'lumotlarini yetkazib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ni to'ldirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgustda ro'yxatdan o'tgan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» nomli 3-son BHMS asosida tartibga solinadi. [3]

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy sharoitidan, uning ish jarayonidan va moliyaviy natijalari haqida ma'lumot yetkazishdan iborat bo'lib, bu o'z o'rnida iqtisodiy qarorlar qabul qilishlari uchun foydalaniladi. Korxonalarining moliyaviy jihatdan mustahkam bo'lishi ularning ish vaqti davomida olgan foydasining to'g'ri ko'rsatilishi, soliqlarni to'g'ri hisoblab byudjetga o'z vaqtida to'lanishi ham bevosita bir-biriga bog'liq sanaladi. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy natijalar hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishlari ish jarayoning barqarorligini ta'minlashga yordamlashadi va yuksalishi uchun kerakli omillardan biri sanaladi.

Hozirgi kunda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'ldirishda ko'pgina kamchiliklar mavjud. Bizning fikrimizcha, hozirgi talablardan kelib chiqqan holda foyda va zararlar to'g'risida hisobotda kamida to'rtta ko'rsatkich keltirilishi lozim: yalpi foyda, boshqa muomalalardan ko'rilgan foyda, soliq chiqarib tashlangunga qadar bo'lgan foyda, soliq to'langandan keyingi sof foyda, bundan tashqari realizatsiya hajmi, realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi, foizlar bo'yicha tushumlar va investitsiyalardan ko'rilgan daromadlar, chet el valyutasi operatsiyalari bo'yicha ko'rilgan foyda va zararlar kabi ma'lumotlar ham hisobga olinishi kerak.

Tekshirish vaqtida ichki audit xizmati tomonidan Korxonaning moliya-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga rioya qilgan xolda ko'rib chiqiladi, jumladan:

- korxonadan amalga oshirilgan operatsiya jarayonlarining qonun hujjatlariga to'g'ri kelishini aniqlash;

- audit davomida aniqlangan korxonadan amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarining qonun hujjatlariga to'g'ri kelmasligi ko'rsatish.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar auditida korxonaning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotining auditi alohida ahamiyat kasb etadi. Auditorlik tekshiruvlarida eng keng qo'llaniladigan tahliliy amallarga quyidagilar kiradi:

- schyotlardagi qoldiqlarni turli hisob davrlari bo'yicha taqqoslash;

- buxgalteriya hisobi va hisoboti, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini hisobot davriga tegishli biznes reja, smetalardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash;

- hisobot davridagi hisobotlardagi o'zaro aloqador moddalardagi ma'lumotlarni o'tgan davrlardagi xuddi shunday nisbiy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash;

- moliyaviy hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlarni, ko'pincha, mahsulot ishlab chiqarish hajmini qiymat va natura birligidagi ko'rsatkichlarini taqqoslash;

- moliyaviy ko'rsatkichlarni (moliyaviy koeffitsentlarni) o'rtacha tarmoq darajasidagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash va hokazo.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditida tahliliy amallarning eng ko'p tarqalgani taqqoslash bo'lib hisoblanadi.

Bunda quyidagilar taqqoslanadi: turli davrlar uchun schetlardagi qoldiqlar; moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari biznes-reja ko'rsatkichlari bilan; hisobotning har xil

moddalar bilan oldingi davrlar ma'lumotlari o'rtasidagi nisbat; xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy ko'rsatkichlari iqtisodiyotning tegishli tarmog'idagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan; moliyaviy axborotlar nomoliyaviy axborotlar (xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati to'g'risidagi uning buxgalteriya hisobi tizimida bevosita aks ettirilmaydigan ma'lumotlar) bilan.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditida tahliliy amallar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini uning rejadagi ko'rsatkichlari bilan solishtirish.

– moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning amaldagi ko'rsatkichlarini auditorlik tashkiloti tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bilan solishtirish.

– moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zi tomonidan belgilanadigan me'yoriy hujjatlar bilan solishtirish.

– moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobot tarkibiga kirmaydigan ko'rsatkichlar bilan solishtirish.

– moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini tarmoqning o'rtacha ma'lumotlari bilan solishtirish.

– moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining vaqt o'tishi davomida o'zgarishi va u bilan bog'liq bo'lgan nisbiy koeffitsientlar tahlili.

Moliyaviy natijalar xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish orqali tuziladi hamda auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiruv amalga oshiriladi.

Xalqaro standartlarda “Umumlashgan daromad to'g'risidagi” hisobot deb nomlanib, u ikki qismdan iborat, ya'ni 1 qism “Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot” va ikkinchi qism “Boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot”.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditining sifatini ko'tarishda tahliliy amallarning keng qo'llanilishi talab etiladi. Bu nafaqat majburiy yoki ixtiyoriy shaklda o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlarining har bir bosqichida, balki qo'shimcha auditorlik kasbiy xizmatlarini ko'rsatishda ham ikki tomonlama (mijoz va auditorlik tashkiloti) manfaatdorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar auditini sifatini oshirish masalalari. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2, mart-aprel, 2015 yil.

Dusmuratov R.D. Audit asoslari. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. – 612 b.6. D.E.Norbekov, A.N.To'raev, Sh.Sh.Raxmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019. -332 b.

Karimov A., Muqumov Z., Xodjayeva M., Avlokulov A. Xalqaro audit. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. -348 b.

<https://www.uzaudit.uz>. – O'zbekiston Respublikasi Auditorlar Palatasining rasmiy sayti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi «Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 538-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi «Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5210-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2021 yil 25 fevral. O'RQ-677-son.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida» 61-son buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3400). <https://lex.uz/uz/docs/6312360>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 507-son qarori. <https://lex.uz/docs/4966554>.

AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA DALILLAR TO'PLASH

F.T.Abduvaxidov

TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida dotsenti

Raqamli iqtisodiyot sharoitida jahon iqtisodiyotining jadal ravishda rivojlanishi mustaqil Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti uchun jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonini taqozo qilmokda. Auditorlik xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya hisobi va hisobotini atroflicha tekshirib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni aniqlash bilan birga ularni bartaraf etish, maromiga etkazish bo'yicha tavsiyalar berib, yo'l-yo'riqlarni ko'rsatadi. Ushbu jarayonda auditorlik tashkilotlari auditorlik dalillarini to'g'ri aniqlashi zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida auditning xalqaro standartlarini auditorlik amaliyotida qo'llanish zarurligi munosabati bilan hozirgi vaqtda audit tekshiruvini chog'ida auditorlik dalillarini to'plash masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Auditorlik dalili tushunchasi audit o'tkazish jarayonida to'planadigan buxgalteriya axborotidagi ma'lumotlarni va buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan tashqari olingan axborotlar, moliyaviy hisobotni tuzish uchun asos bo'lgan dalillar aniq yoki noaniqliklarni yoki faktlarni noto'g'ri talqin qilishni bildiradi, ular asosida auditor tomonidan qabul qilinadigan mulohaza o'zgarishi mumkinligi yoki unga noaniq yoki noto'g'ri faktlar ta'sir qilishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

Ushbu masalada auditning xalqaro standarti (International Standards on Auditing (ISAs)) 500-son “Auditorlik dalillari”, 501-son “Auditorlik dalili – muayyan moddalarni maxsus ko'rib chiqish”, 510-son “Dastlabki audit kelishuvlari – boshlang'ich qoldiqlar” nomli standartlardan foydalaniladi. Ushbu standartga ko'ra, auditor tomonidan mulohazali xulosa shakllantirish maqsadida tegishli auditorlik dalillarini olishi kerak, ushbu auditorlik xulosasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini isbotlash uchun to'plangan auditorlik dalillari o'z ichiga boshlang'ich xujjatlar, hisob registrlari va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu standartda quyidagi 3 ta tushunchaga izoh berilgan.

“Auditorlik dalillari”- auditor tomonidan auditorlik xulosasini shakllantirishda olingan axborotlarga aytiladi.

“Nazorat testlari” – auditorlik dalillarini olishda bajariladigan testlar bo‘lib, ular tashkilot samarasi, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini samarali faoliyat yuritishini aniqlaydi.

“Muhimlik bo‘yicha amaliyotlar”- auditorlik dalillarini olish maqsadida bajariladigan testlar moliyaviy hisobotlardagi muhim xatoliklarni aniqlash uchun foydalaniladi va ular 2 guruhga ajratiladi:

- schetlar qoldig‘i va operatsiyalarning batafsil testlari;
- analitik amallar .

O‘zbekiston Respublikasida auditorlik tashkiloti auditorlik dalillarining ishonchligini baholashda quyidagi umumiy qoidalarga amal qilishi zarur:

a) tashqi manbalardan olingan auditorlik dalillari (masalan, uchinchi shaxsdan olingan tasdiq) ichki manbalardan olingandan ko‘ra ishonchliroq hisoblanadi;

b) agar buxgalteriya hisobi va ichki nazoratning mavjud tizimi samarali ishlasa, ichki manbalardan olingan auditorlik dalillari ishonchli hisoblanadi;

v) auditorlik tashkiloti tomonidan bevosita yig‘ilgan auditorlik dalillari xo‘jalik yurituvchi sub‘ektdan olingan auditorlik dalillaridan ko‘ra ishonchliroq hisoblanadi;

g) yozma ravishda olingan auditorlik dalillari og‘zaki berilgan dalillardan ko‘ra ishonchliroq hisoblanadi.

Turli manbalardan yig‘ilgan auditorlik dalillari bir-biriga zid bo‘lmasa, ishonchli hisoblanadi.

Agar bitta manbadan olingan auditorlik dalillari ketma-ketlikda bo‘lmasa yoki turli manbalardan olingan auditorlik dalillari bir-biriga zid bo‘lsa, auditorlik tashkiloti qo‘shimcha, aniq dalillar olish imkonini beruvchi amallarni bajarishi zarur. Auditorlik dalillarini to‘planishi tahlil qilish orqali audit jarayonini umumlashtirish va uning ishonchligiga e‘tibor berish lozim.

Auditorlik dalillarini to‘plash ko‘p jihatdan muhimlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki muhimlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa auditorlik dalillari shunchalik ko‘p to‘planadi va auditorlik riski kam bo‘lishi mumkin. 320-son “Auditda muhimlik” nomli auditni xalqaro standartda muhimlik va auditorlik riski tushunchasi, ajralmas risk, nazorat riski, topa olmaslik riski kabi tushunchalar va ularning mohiyati ochib berilgan. Chunki muhimlik darajasini belgilashda aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy hisobotining to‘g‘riligiga ancha ta‘sir qiluvchi vaziyatlar auditda muhim deb e‘tirof etiladigan ko‘rsatkichlar va ularni baholash usullarini aniqlash talab qilinadi.

Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha o‘tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi.

Audit natijalarini umumlashtirish ishlari asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;
- aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash;
- auditorlik dalillarning yetarliligini baholash;
- faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar prinsipi bilan bog‘liq omillarni baholash;
- buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish;
- hisobot tuzilganidan so‘ng sodir bo‘lgan hodisalarni baholash;

□ tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz-korxonaga rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;

□ auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish .

Auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida asosan tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning dastlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat ayrim hollardagina auditorlar taxmin va hisobkitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baholaydilar.

Ta'kidlash joizki, tekshiruv natijalari va xo'jalik yurituvchi subyekt mutaxassislarining hisob-kitoblarini baholashda auditorlar ma'lum darajada professional ehtiyotkorlikka rioya qilishlari zarur.

Auditor quyidagi hollardagi kabi, katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni obyektiv baholashi zarur:

□ xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlariga ma'lum bo'lgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash faktlari;

□ tekshiruv uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalik muomalalari;

□ mutaxassislarning hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar;

□ inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash qaydnomalari bilan rasmiylashtirilgan, lekin yetarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar;

□ katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi;

□ tekshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruxsat etuvchi ko'rsatmalar taqdim qilinmagan xo'jalik muomalalari.

Auditor to'plangan dalillar yetarliligini baholashda ushbu holatlar aniqlangan bosqichni (rejalashtirish, audit o'tkazish) hisobga olishi kerak. SHuningdek, katta xatolar xatarini dastlabki baholash va batafsil tekshirish rejalari ham e'tiborga olinishi lozim. Agar bunday holatlar rejalashtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan bo'lsa, unda auditor to'plangan dalillarning yetarliligiga va rejalashtirilgan hamda qo'shimcha auditorlik amallarini bajarishning maqsadga muvofiqligiga baho berishi zarur. 580-son «Yozma bayonotlar» nomli AXSga asosan, oxirgi auditorlik dalillari sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining taqdimoti auditor tomonidan olinadi va ishchi hujjatlar tarkibiga kiritiladi .

Auditorlik tashkiloti rahbariyati moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha moliyaviy hisobot haqiqiy taqdim etilishi yuzasidan o'z mas'uliyatini tan olganligi va moliyaviy hisobot subyekt rahbariyati tomonidan tasdiqlanganligi bo'yicha dalil olishi lozim. Auditor rahbariyat bunday mas'uliyatni tan olish va moliyaviy hisobotni tasdiqlash yuzasidan dalilni direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash idora majlisining tegishli bayonnomalaridan yoki subyekt rahbariyatining yozma taqdimotnomalaridan yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasidan olishi mumkin.

Oqilonalik nuqtai-nazaridan boshqa etarli bo'lgan tegishli dalillar mavjudligi kutilmayotgan holda, auditor subyekt rahbariyatidan moliyaviy hisobot uchun muhim bo'lgan masalalar bo'yicha yozma taqdimotlar olishi lozim. Og'zaki taqdimotlar sub'ekt

rahbariyati tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan taqdirda, rahbariyat bilan auditor o'rtasida tushunmovchiliklar vujudga kelish ehtimoli kamayyadi.

Rahbariyatdan so'rab olinadigan yozma taqdimotlar, majmui yoki alohida ko'rinishda, moliyaviy hisobot uchun muhim masalalar doirasi bilan cheklanishi mumkin. Muayyan moddalar yuzasidan auditor ular muhimligini tushunganligi to'g'risida subyekt rahbariyatiga xabar berish ehtiyoji paydo bo'lishi mumkin.

Audit o'tkazish paytida rahbariyat o'z tashabbusi bilan yoki aniq belgilangan so'rovnomalar bo'yicha auditorga juda ko'p taqdimotlar taqdim etadi. Bunday taqdimotlar moliyaviy hisobot uchun muhim masalalarga tegishli bo'lgan taqdirda, auditor quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

(a) subyekt ichidagi yoki uning tashqarisidagi manbaalardan tasdiqlovchi auditorlik dalillarni izlashi;

(b) subyekt rahbariyatining taqdimotlari oqilonaligi va ular olingan boshqa auditorlik dalillarga, jumladan boshqa taqdimotlarga izchilligiga baho berish;

(v) subyekt taqdimotlarini tayyorlovchi shaxslar alohida masalalar bo'yicha qanchalik yaxshi xabardor ekanligini ko'rib chiqish.

Subyekt rahbariyatining taqdimotlari auditor asosli holda olishni kutayotgan boshqa auditorlik dalillar o'rnini bosa olmaydi. Masalan, aktivlar tannarxi yuzasidan subyekt rahbariyatining taqdimotlari, auditor ushbu tannarx bo'yicha odatda olishni ko'zlagan auditorlik dalil o'rnini bosa olmaydi. Agar auditor moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan masala bo'yicha yetarli bo'lgan tegishli auditorlik dalilini ololmagan va bunday dalilni olish oson deb taxmin qilgan taqdirda, ushbu masala bo'yicha subyekt rahbariyatining taqdimoti olinganda ham, bu audit qo'lamini cheklash deb hisoblanadi.

Muayyan holatlarda, subyekt rahbariyatining taqdimotlari, natijalarni oqilona kutish bo'yicha mavjud bo'lgan yagona auditorlik dalil bo'lib hisoblanadi. Masalan, auditorning subyekt rahbariyatining muayyan investitsiyalarni ular qiymati uzoq muddatda oshgunga qadar ushlab turish maqsadlarini tasdiqlash uchun boshqa auditorlik dalillarini kutishga ehtiyoji yo'q.

Agar subyekt rahbariyatining taqdimotlari boshqa auditorlik dalilga zid bo'lsa, auditor vaziyatlarni o'rganib chiqishi va, lozim bo'lsa, sub'ekt rahbariyati tomonidan qilingan boshqa taqdimotlarni qaytadan ko'rib chiqishi lozim.

Auditor odatda, subyekt rahbariyatining taqdimotlari olinganligi holatini tasdiqlovchi dalillarni rahbariyat bilan qilingan suxbatlarni qisqa bayon qilish shaklida yoki subyekt rahbariyatining yozma taqdimotlari ko'rinishida ishchi hujjatlarga kiritadi.

Subyekt rahbariyatining yozma ravishdagi taqdimotlari og'zaki tarzdagilardan yaxshiroq dalil hisoblanadi va quyidagi ko'rinishda rasmiylashtirilishi mumkin:

(a) subyekt rahbariyatidan yo'llangan xat-taqdimot ko'rinishida;

(b) tegishli ravishda sub'ekt rahbariyati tomonidan tan olingan va tasdiqlangan sub'ektning taqdimotlari auditor tomonidan tushunganligini bayon qiluvchi auditorning xati; yoki:

(v) direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash idoraning tegishli bayonnomalari yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasi.

Subyekt rahbariyati xat-taqdimotining asosiy elementlari:

(a) subyekt rahbariyatidan xat-taqdimotni so‘rab, auditor ushbu xat uning nomiga yo‘llanishi, aniq belgilangan ma’lumotga ega bo‘lishi va tegishli ravishda sana qo‘yilishi va imzolanishini so‘raydi.

(b) xat-taqdimotga, odatda, auditorlik hisoboti imzolangan sana qo‘yiladi.

(v) subyektning xat-taqdimoti, odatda, asosan sub’ekt faoliyatiga javob beradigan, yaxshi bilim va ishonchga asoslangan holda, uning a’zolaritomonidan imzolanadi.

Shunday qilib, subyekt rahbariyati auditor kerakli deb hisoblagan taqdimotlarni taqdim etishdan bosh tortsa, bu audit qo‘lamini cheklash deb hisoblanadi va auditor o‘z fikrini sharhlar bilan bildirishi yoki fikr bildirishdan voz kechishi lozim. Bunday vaziyatlarda auditor, odatda, audit paytida subyekt rahbariyati tomonidan qilingan boshqa barcha taqdimotlarning ishonchlilik darajasiga baho beradi va auditorlik hisobotiga rad etishning har qanday boshqa natijalarining ta’sirini ko‘rib chiqishi maqsadga muvofiqdir.

DEVELOPMENT TRENDS OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

M.X.Xodjayeva

*Associate Professor of the Tashkent State University of Economics,
Candidate of Economic Sciences*

R.Makhmudova

master student of the Tashkent State University of Economics

Uzbekistan's transition to market relations has revealed the need to create new economic institutions that regulate relations between various economic entities, among which the institution of auditors occupies a worthy place. In a market economy, reliable information about the activities of the enterprise plays an important role, which is necessary:

- control over compliance with tax legislation by government agencies;
- determining the development strategy of the owner of the enterprise and ways to increase the efficiency of its activities;
- banks, insurance companies that assess the solvency of the enterprise and the likelihood of repaying loans, determining the insurance risk;
- for payment for supplies to suppliers, buyers, other enterprises and organizations that are in business relations with an economic entity, for trust in the acceptance of goods, services, works;
- potential investors to assess the profitability of deposits.

Audit is an element of market relations. Like any other element of the market, it arises in any group of market participants, as soon as a need arises for it, demand arises. The development and complexity of timely production and market development have led to the fact that the owners of organizations (shareholders, shareholders, founders), as well as investors and creditors, cannot independently examine all financial and economic entities. operations of a business entity comply with legal requirements and are correctly reflected in accounting.

So, on the one hand:

- the need for interested users of financial statements to believe in their reliability (since financial statements are used to make responsible decisions).

On the other side:

- lack of special knowledge and experience among interested users;
- lack of free access to organization documents;
- the possibility of obtaining biased information from the organization's management and accounting department in conflict situations;
- the tendency of financial statements to distortion due to inevitable factors (the subjectivity of the compilers, uncertainty in the interpretation of regulations, etc.) has led to the emergence of an institute of independent, highly qualified auditors, whose opinion is about the reliability of the organization. financial statements can be reliable for interested users.[1]

The audit system is an integral part of the financial sector of the economy of Uzbekistan. Our state pays great attention to the improvement and development of this area. To date, a comprehensive legislative framework for auditing activities has been created, and the system for issuing licenses has been significantly simplified and liberalized.

With the adoption of the Law "On Auditing Activities" (No. UP-677 dated February 25, 2021):

- auditing activities are carried out exclusively on the basis of international standards of auditing, quality control, reviews, assurance assignments and related services. The standards are published by the International Auditing and Assurance Standards Board of the International Federation of Accountants. To apply international auditing standards on the territory of Uzbekistan, the procedure for their recognition is established by the Cabinet of Ministers.

An audit organization has the right to carry out audit activities from the date of entering information about this into the Register of Audit Organizations. It, as before, can be created and carry out its activities in any organizational and legal form provided for by law, with the exception of JSC. In this case, the following mandatory conditions must be met:

- creation of an audit organization with at least 4 full-time auditors with a minimum number of auditors whose main place of work is the audit organization;

- the authorized capital (authorized capital) of the audit organization is formed from property, including funds directly used by the audit organization in carrying out its activities;

- the share in the authorized capital (authorized capital) owned by the auditors (auditor) must be at least 51% (except for cases of creating an audit organization - a branch of a foreign audit organization or a subsidiary business company);

The head of an audit organization should only be an auditor whose main place of work is this audit organization.

Adjustments have been made to the rights, duties and responsibilities of the audit organization, as well as to the list of organizations subject to mandatory audit. Thus, at the end of the reporting year, commercial organizations that simultaneously fulfill the following conditions are subject to mandatory inspection: book value of assets - more

than 100 thousand BRV, revenue from sales of products (works, services) - more than 200 thousand BRV. , the average annual number of personnel is more than 100 people.

a list of related services provided by audit organizations has been determined, including: consulting on issues of organization, restoration, accounting, preparation of financial statements, as well as their maintenance and preparation;

performing the functions of the audit commission (Auditor) of a legal entity, a trustee of investment assets;

consultations on the application of tax legislation, calculations of taxes and fees, preparation of declarations, if the audit organization has a full-time tax consultant or with his involvement under the terms of the contract, etc.

It has been established that based on the results of the audit, only an audit report is issued. The procedure for maintaining registers of audit organizations and auditors has been established. During the study, logical thinking, scientific observation, a systematic approach, and statistical methods were used in the study of statistical data and theories on the topic. During the analysis, statistical data from the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics was used.

✓ Yuqorida tahlil qilingan davlatlarda Ichki audit bo'limining holatini ko'rib chiqish kerak. Davlat sektori muhiti xususiy sektordan farq qiladigan ba'zi muammolarga duch keladi, ayniqsa hisobot chizig'i va ommaviy hisobotlarga bo'lgan talab bilan bog'liq. Ichki auditorlarning maqomi ba'zi hollarda ularning ovozini eshitish bilan bir qatorda qiyin bo'ladi va ba'zi hollarda hisobot berish liniyasi yuqori darajaga, taftish qo'mitasiga, kengashga va siyosiy vakilga nisbatan kuchaytirilishi kerak. IIA standartlarida talab qilinadigan xolislik va mustaqillikni ta'minlash uchun tashkiliy sxema va hisobot yo'nalishlarida auditning holati yuqori darajada bo'lishi kerak.

✓ O‘zbekistondagi davlat sektorida ichki auditning hozirgi holati va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston davlat sektorida ichki audit tizimi xalqaro ichki audit standartlari va ilg‘or tajribalarning bir qator xususiyatlarini moslashtirishi kerak:

✓ Oliy audit institutlarining xalqaro standartlari (ISSAI) tomonidan qabul qilingan “Davlat sektorida ichki auditning mustaqilligi” ISSAI 9140 hujjatiga mufoviq davlat sektorida ichki audit tadbirlarini ilib borish kerak.

✓ Rossiya federatsiyai tajribasiga ko‘ra SGA311 davlat audit standartiiga o‘xshash standart ishlab chiqish maqsadga muvoviq.

✓ Qozog‘iston Respublikasi tajribasida ko‘rilgan Ichki auditorlar institutining tashkil etilishi bu sohadagi kelgusi rivojlanishlarga poydevor vazifasini o‘tashi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI

Z. Xamidova

Toshkent Moliya Instituti PhD., dots

M. Ismoilova

Toshkent Moliya Instituti magistranti

Iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi farovonligini ta‘minlashda faqat xususiy sektor emas, balki byudjet tashkilotlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etadigan byudjet mablag‘larining oqilona va rejali sarflanishi yuzasidan byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish nomuvofiqliklarni va maqsadsiz xarajatlarni qisqartirishiga yordam beradi.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati – tashkilotning faoliyatining me‘yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilishini, ichki hujjatlarni to‘liqligini, qonunga muvofiqligini, tuzilgan hisobotlarning ishonchliligini nazorat qiluvchi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, byudjet mablag‘larini samarali ishlatilishini baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi hamda byudjet jarayonini shaffofligini yanada oshirishni ta‘minlovchi faoliyatdir. Agar bu borada chet el iqtisodchilarining fikrlari bilan tanishadigan bo‘lsak, Moskva Moliya Universiteti professori D.R.Giniyatullina ichki audit deganda qabul qilingan standartlardan chetga chiqishlarni, moliyaviy resurslarni boshqarishning samaradorligi, qonuniyligi, samaradorlik tamoyillarining buzilishini o‘z vaqtida aniqlash bo‘yicha faoliyatni, vakolatli shaxslarning javobgarligini oshirish, zararni qoplash va qonun buzilishlarining takrorlanishini oldini olish amaliyotini tushunish mumkinligini ta‘kidlagan.²³⁷Belgiyalik iqtisodchi Van Gansberghe esa o‘zining maqolasida “Ichki audit - bu xilma-xillikni mustaqil baholash orqali qo‘shimcha qiymat qo‘shadigan xizmat aniqligi va ishonchliligini bilish uchun tashkilot ichidagi operatsiyalar va ma‘lumotlarni nazorat qilish hamda tashkilot risklarini aniqlash va minimallashtirishni

ta'minlash, qoidalar va qonun hujjatlariga rioya qilinishini nazorat qilishdir”²³⁸ degan fikrni bildirib o‘tgan.

Xorij tajribalari shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati mexanizmlari samarali ishlashi byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ichki audit xizmatining qay darajada faoliyat ko‘rsatib kelayotganligiga bog‘liq. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi davlatlar allaqachon ichki audit tizimini samarali yo‘lga qo‘ygan. Buyuk Britaniyada ichki audit “Ichki audit standartlari” bo‘yicha Maslahat Kengashi tomonidan ishlab chiqiladi. AQSHda esa Davlat audit Boshqarmasi “Davlat sektori auditining umum qabul qilingan standartlari” asosida ichki auditni amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimizda ham byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati zamonaviy talablar asosida shakllantirib kelinmoqda. Dastlab ta’lim va tibbiyot muassasalarida budjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo‘ysunuvidagi muassasalarda budjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e’tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 3231-PQ sonli Qarori qabul qilindi.²³⁹ Unga ko‘ra, birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Hisob palatasi, Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirliklarida ichki audit xizmatlari tashkil qilindi.

Ushbu tizimga yetarli ko‘nikma va bilimga ega bo‘lgan malakali xodimlarni jalb qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlashtirish tizimi joriy etildi. “Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorda korporativ boshqaruvda ichki nazorat tizimini samarali tashkil qilish va ichki audit xizmatini malakali mutaxassislar bilan butlanishini ta’minlash maqsad qilib olindi.

“Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi to‘g‘risida Nizom” ga ko‘ra sertifikat olishga talabgor bo‘lgan shaxslarga quyidagi talablar qo‘yildi:

oliy ma’lumotga hamda oliy ta’lim muassasasini bitirganidan keyin oxirgi o‘n yildan kamida ikki yil buxgalteriya hisobi va audit, soliq maslahati va moliya sohasida yoki oliy ta’lim muassasalarida “Buxgalteriya hisobi” yoxud “Audit” fanidan ta’lim berish sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o‘rindoshlik asosida);

xalqaro sertifikat doirasida “Moliyaviy hisob” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risidagi hujjatga ega bo‘lish.²⁴⁰

238 “IMPACT OF INTERNAL AUDIT MANAGEMENT ON PUBLIC SECTOR ADMINISTRATION IN THE NORTH WEST PROVINCE” 2014-yil, oktabr

239 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 21.08.2017-yildagi PQ-3231-son

240 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.05.2021 yildagi 280-son

Xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rgangan holda, respublikamizda ham ichki auditning milliy standartlari ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi.²⁴¹ Milliy standartlar vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati faoliyatining sifat ko'rsatkichlari hamda ichki audit tadbirlarini o'tkazishning standartlarini belgilaydi.

Tadbiq qilinayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda o'z samarasini berib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligida tashkil etilgan Ichki audit xizmati tomonidan 2022-yil aprel-sentabr oylarida rejaga muvofiq vazirlikning hududiy bosh boshqarmalarida audit tadbirlari amalga oshirilgan bo'lib, uning natijalariga ko'ra, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobidan 920,1 mln so'm mablag' ortiqcha to'langan, shundan ish haqi hisobidan 48,9 mln so'm, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi hisobidan 1,8 mln so'm, mukofot va ustama to'lovlari hisobidan 758,2 mln so'm, xizmat safari xarajatlari hisobidan 2,6 mln so'm ortiqcha va 22,6 mln noqonuniy to'lovlar amalga oshirilgan hamda soliq imtiyozlari noto'g'ri qo'llanilganligi sababli 86,0 mln so'm mablag' kam hisoblangan, tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritishda 8,0 mln so'm, o'z vaqtida undirilmagan debitor qarzdorlik 18,7 mln so'm, jami bo'lib 946,8 mln so'm moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Shu bilan birga vazirlik tizim tashkilotida tovar-moddiy boyliklar hisobini to'g'ri yuritilishini o'rganish maqsadida rejadan tashqari audit tadbirida 193,7 mln so'mlik xato va kamchiliklarning oldi olingan. Moliyaviy xato va kamchiliklarni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida bartaraf qilish va kelgusida yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan²⁴².

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, vazirlik hamda qo'mitalarda tashkil etilgan ichki audit xizmati Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish yo'lida ijobiy natija berib kelmoqda. Byudjet tashkilotlarining faoliyatini xolis va mustaqil baholash uchun mukammal ichki audit jarayoni zarur. Ayrim byudjet tashkilotlarida faqat ichki audit mexanizmi mavjud bo'lsa, ayrimlarida haligacha ichki audit xizmati mavjud emas. Davlat sektoridagi tashkilotlar faoliyati nafaqat, ichki audit balki, tashqi audit (davlat moliyaviy nazorat) tomonidan ham o'rganiladi va baholanadi. Byudjet tashkilotlari ichki audit faoliyatga oid mas'uliyatni ta'minlash va boshqaruvga oid asosiy qadriyatlarni saqlab qolish, rahbarlar va mansabdor shaxslarning o'z faoliyatini shaffof, adolatli, halol va tenglik asosida olib borishini ta'minlash orqali davlat boshqaruvini mustahkamlaydi. Davlat boshqaruvining barcha darajalaridan saylangan va tayinlangan mansabdor shaxslar barcha asosiy elementlarga javob beradigan mustaqil audit funksiyalarini tashkil etish orqali samarali auditorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

241 O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i, 24.10.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3394

242 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy web sayti (www.mineconomy.gov.uz) ma'lumotlari, 21.12.2022

“Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, №280, qabul qilingan sana 05.05.2021

“Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, №416, qabul qilingan sana 01.08.2022

Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i, pez. № MIO 3394, qabul qilingan sana 24.10.2022

“IMPACT OF INTERNAL AUDIT MANAGEMENT ON PUBLIC SECTOR ADMINISTRATION IN THE NORTH WEST PROVINCE” xalqaro jurnali 2014-yil, oktabr

“Учет. Анализ. Аудит” jurnali 2019-yil

www.mineconomy.gov.uz

www.uzedu.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQLASHTIRISH TADBIRLARI

N.M. Raxmonov

Bank-moliya akademiyasi Phd,

M.A.Xamidova

Bank-moliya akademiyasi magistranti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 5-fevraldagi CQ 229-IV-son qarori bilan “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib, qonunni amalga oshirishga doir tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Tadbirlar rejasiga ko‘ra quyidagilar belgilab berildi:

Qonunni amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar o‘tkazish:

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibini ishlab chiqish.

Auditorning malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihoni o‘tkazish tartibini belgilash.

Auditor malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini ishlab chiqish.

Auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazoratini o‘tkazish tartibini belgilash.

Moliya vazirligining auditorlik tashkilotlari va auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan o‘zaro elektron hamkorlikka mo‘ljallangan “Audit” dasturiy majmuasini yanada takomillashtirish.

Auditning xalqaro standartlarini ishlab chiqadigan va tasdiqlaydigan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblangan Xalqaro buxgalyerlar federatsiyasi bilan bitim tuzish.

Auditning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matni davlat tiliga tarjima qilinishini tashkil qilish.

Malaka sertifikatiga ega bo‘lgan auditorlar reyestrini yuritish.

Auditorlik tashkilotlari reyestrini yuritish.

Banklarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan Auditorlarning reyestrini yuritish.

Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda auditorlar malakasini oshirishning namunaviy dasturini tasdiqlash.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishdan bo'yin tovlagan xo'jalik yurituvchi subyektlarni aniqlash va ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik choralari ko'rish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 171-son Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida" Nizomi tasdiqlandi. Ushbu Nizomga ko'ra, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadigan auditning xalqaro standartlariga quyidagilar kiradi:

- auditning xalqaro standartlari;
- sifat nazoratining xalqaro standartlari;
- tahliliy tekshirishlarning xalqaro standartlari;
- ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari;
- turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari.

Nizomga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi sxemasi tuzilgan bo'lib ular quyidagilar:

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (keyingi o'rinlarda — XBF) bilan auditning xalqaro standartlaridan davlat tili va boshqa tillarda foydalanish huquqini olish uchun shartnoma tuzadi.

AXSni davlat tiliga tarjima qilish uchun uning ingliz tilidagi matnini XBFdan rasmiy ravishda qabul qiladi.

AXS matnini davlat tiliga tarjima qiladi.

Tarjima qilingan AXS matnini auditorlik tashkilotlari, ekspertlar, ilmiy va pedagogik jamoatchilik vakillari bilan muhokama qiladi.

AXSning davlat tilidagi matni ushbu AXSning ingliz tilidagi matniga muvofiqligini ko'rib chiqadi.

Tarjima qilingan auditning xalqaro standartlari tarjima qilish tartibiga muvofiqligini tasdiqlash uchun XBFga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida AXSni amalga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Davlat tili va boshqa tillarga tarjima qilingan AXSni o'zining va auditorlarning respublika jamoat birlashmalari veb-saytlarida e'lon qiladi.

Auditorlik faoliyatini auditning xalqaro standartlari asosida amalga oshirish.

Xulosa qilib fikrimni bildiradigan bo'lsam, yuqorida sanab o'tilgan tadbir rejalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu jarayonni tezlik bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Butun O'zbekiston Respublikasi hududida Buxgalteriya hisobini yoki auditni tezda 100% xalqaro standartlarga o'tkazishning iloji yuq. Bu natijaga yillar davomida bosqichma-bosqich erishiladi. Chunki, avval bu xalqaro standartni davlat tilimizga tarjima qilgandan so'ng bizning hududimizga,

qonunlarimizga, mintalitetimizga, sharoitlarimizga to‘g‘ri kelish-kelmasligini o‘rganib chiqish lozim. Chunki ba‘zi punktlariga o‘zgartirish kiritish zarurati tug‘ilishi mumkin. Har tomondan o‘rganib chiqib, moslashtirib joriy qilish lozimdir. Shundan so‘ng bu yangi standart haqida tushuncha, ma‘lumot berish kerak. Masalan, darsliklarga kiritish orqali, shu soha mutaxassislariga mahorat konsultatsiya kurslarini tashkil qilish orqali; buxgalteriya yoki auditning avvalgi amaldagi “Milliy standart” bilan hozirgi “Xalqaro standart”larni parallel qo‘llanma chiqarish orqali; va yana mukammal dastur ishlab chiqish kerakki (yoki amaldagi dasturga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish orqali) mutaxassis (auditor yoki buxgalter) operatsiyani dasturga kiritish jarayonida avvalgi amal qilgan provodkasini tanlasa ham dastur avtomatik ravishda yangi provodkaga ogirib saqlashi va hisobotni dasturning o‘zi avtomatik ravishda xalqaro standartlari asosida shakllantirishi orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida Buxgalteriya hisobini yoki auditni xalqaro standartlariga o‘tkazishni muvofiqlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 5-fevraldagi “auditorlik faoliyati to‘g‘risida” gi CQ 229-IV-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 171-son Qarori bo‘yicha tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risida” Nizomi.

SH. Mirziyoyev, PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 24.02.2020.

Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019.

Островский А. Китайский проект «Экономический пояс Шелкового пути» как путь к международному экономическому сотрудничеству // Азия и Африка сегодня. – М.: 2016 г

Шамина, Е. В. Перспективы внедрения автоматизированных технологий в бухгалтерский учет / Е. В. Шамина, А. А. Филимонов // Актуальные направления научных исследований XXI века: теория и практика. — 2018. — № 2 (38). — С. 129-132.

Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.

Karimov A, Qo‘ziyev I, Rahimov M Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Xalq so‘zi, 2020.

Lex.uz

IFRS.org

www.scientificprogress.uz

Wallstreetmojo.com

BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR SARFLANISHI HISOBI VA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

B.T.Yuldashev

iqtisod fanlari (PhD) falsafa doktori

Andijon qishloq xo‘jaligi va Agrotexnologiyalar instituti katta o‘qituvchisi

Budjet tashkilotlarida “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 306-bandi[1]ga ko‘ra budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha ustama xarajatlar 210-“Taqsimlanadigan xarajatlar” subschotida hisobga olib borilishi belgilab berilgan.

Ushbu Yo‘riqnomaning 307-bandiga ko‘ra, bir necha kalkulyatsiya ob‘ektlari mavjud bo‘lganda, yoki tashkilotning faoliyati bir nechta manbalardan moliyalashtirilganda, shuningdek amalga oshirilgan xarajatlarni qaysi mahsulot (ish, xizmat)larga tegishli ekanligini aniqlash murakkab bo‘lgan hollarda ushbu xarajatlar 210-“Taqsimlanadigan xarajatlar” subschotida hisobga olinadi. Ustama xarajatlar, aniq sharoitlarga qarab ayrim buyumlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining turi yoki ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha ishlab chiqarish ishchilarining, ilmiy xodimlarning va shu kabilarning ish haqlariga mutanosib ravishda yoki sarflangan materiallar yoki bevosita xarajatlar jamiga qarab taqsimlanadi.

Bunda, ustama xarajatlar 210-“Taqsimlanadigan xarajatlar” subschotining kreditiga va 090-“Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar” subschotning (yoki boshqa tegishli subschotlarning) debetiga yozib hisobdan chiqariladi (har bir mahsulot, ish yoki xizmatlar turlari bo‘yicha).

Umuman olganda, budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolardan biri tadbirkorlik faoliyati xarajatlarining umumiy summasini uning alohida turlari orasida taqsimlash hisoblanadi. Amaliyotda ko‘plab budjet tashkilotlari “Taqsimlanadigan xarajatlar” yoki “Xarajatlarni taqsimlash” subschotidan foydalanmaydi va buni ortiqcha yoki qator qo‘shimcha buxgalteriya yozuvlarini talab etuvchi ortiqcha mehnat deb hisoblaydilar va bu esa, o‘z navbatida buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buzilishiga va soliqqa qoplanuvchi bazani noto‘g‘ri hisoblab chiqishga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, budjetdan tashqari mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy xarajatlarni taqsimlashda bu kabi xarajatlarni taqsimlash bazasi sifatida maxsulotlarni sotishdan, xizmatlarning har bir turidan olingan daromadlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabatda biz quyidagi amallarni bajarishni taklif etamiz:

hisobot davri daromadiga tegishli bo‘lgan olingan barcha mablag‘larning umumiy summasini aniqlash;

budjetdan tashqari mablag‘larning har bir turidan olingan, hisobot davriga tegishli bo‘lgan mablag‘lar summasini hisoblab chiqish;

budjetdan tashqari mablag‘larning har bir turi uchun xarajatlarni taqsimlash koeffitsientini hisoblab chiqish.

Buni quyidagicha hisoblash mumkin:

$$K_{xt} = \frac{\sum \text{BTD bo'yicha daromadlar}}{\text{BTD alohida turi bo'yicha daromad}}$$

Bu yerda K_{xt} -xarajatlarni taqsimlash koeffitsienti

Undan keyin bilvosita xarajatlarning umumiy summasi (“Taqsimlanadigan xarajatlar” subschotining debet aylanmasi) hisoblab chiqilgan koeffitsientga proporsional tarzda taqsimlanadi va “Taqsimlanadigan xarajatlar” subschotning kreditidan 090-“Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar” subschotining (yoki boshqa

tegishli subschotlarning) debetiga hisobdan chiqariladi.

Tadbirkorlik faoliyatidan qilinadigan xarajatlarni rejalashtirish va ishlatish ma'lum me'yorlar asosida amalga oshirilishi lozim. Jumladan: respublika xududida safar xizmatlari xarajatlarini qoplash me'yorlari; vakillik xarajatlari me'yorlari, reklama xarajatlari, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, avtomobil transportida yonilg'i moylovchi materiallar xarajatlari me'yorlari va boshqalar.

Tadbirkorlik faoliyatining faqat bitta turi mavjud bo'lgan OTMLarida (masalan, pulli ta'lim xizmati ko'rsatish) barcha xarajatlar bevosita hisoblanadi.

Bir nechta kalkulyatsiya ob'ektlari mavjud bo'lgan sharoitlarda bilvosita xarajatlar oldindan "Taqsimlanadigan xarajatlar" subschotida hisobga olinadi.

Xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etishda ma'lum belgilar bo'yicha iqtisodiy asoslangan tasnifni qo'llay olish zarur. Ular ichida eng asosiylari: xarajatlar tarkibi va iqtisodiy mazmuni, xarajatlarning mahsulot tayyorlash jarayonidagi o'rni va vazifasi, mahsulot tannarxiga kiritilishi usuli, ishlab chiqarish hajmiga nisbati va boshqalar. Shu munosabatda oliy o'quv yurtida ta'lim xarajatlarini tasniflash muammosini batafsil tahlil qilish va uning amaliy rivojlanishi yo'nalishlarini belgilash zarur.

Ta'lim xizmatlari tannarxini shakllantiruvchi muhim xarajatlar guruhini taklif etamiz. Ushbu tasnif 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Oliy o'quv yurtlari ta'lim xizmatlarining xarajatlari tasnifi[2]

Tasnif belgilari	Xarajatlar bo'linmalari
Iqtisodiy unsurlar bo'yicha	Xarajatlarning iqtisodiy elementlari
Tannarx moddalari bo'yicha	Tannarx kalkulyatsiyasi moddalari
Xo'jalik jarayoni sub'ektlari bo'yicha	Mas'uliyat markazlari va paydo bo'lish joylari bo'yicha xarajatlar
Xarajatlarni kiritish ob'ektlari bo'yicha	Xarajatlarning kalkulyatsiya ob'ektlari
Texnik-iqtisodiy vazifasi bo'yicha	Asosiy va ustama xarajatlar
Hisob ob'ektlari xarajatlariga kiritish usuli bo'yicha	Bevosita va bilvosita-taqsimlanadigan xarajatlar
Iqtisodiy umumiylik (bir turda bo'lish)darajasi bo'yicha	Bir unsurli va kompleks xarajatlar
Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi darajasi bo'yicha	O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar
Paydo bo'lish sohasiga nisbati bo'yicha	Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari
Tannarxga kiritish usuliga bog'liqligi bo'yicha	Ma'lum davr xarajatlari va mahsulot birligining xarajatlari
Xarajatlash maqsadga muvofiqligi bo'yicha	Ishlab chiqariluvchi va ishlab chiqarilmaydigan

Budjet muassasasi xarajatlari hisobini iqtisodiy unsurlar va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha (tarmoq hususiyatlaridan kelib chiqqan holda), tannarxga kiritilishi usuli bo'yicha (bevosita va yuklama), texnik-iqtisodiy omillar bilan aloqasi bo'yicha (shartli-doimiy va shartli-o'zgaruvchan (ustama)), me'yorlashtirish, limitlash va boshqa maqsadlarda tashkil etadi.

Xizmat hajmi birligining tannarxini kalkulyatsiyalash usuli va kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida ustama xarajatlarni taqsimlash bazasini tanlash muassasa

tomonidan mustaqil ravishda yoki ta'sisning funksiya va vakolatlarini amalga oshiruvchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Muassasaning hisobot davri ichida amalga oshirilgan umumiy xo'jalik xarajatlari muassasa tomonidan tasdiqlangan hisob siyosatiga binoan ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga taqsimlanadi, taqsimlanmaydigan xarajatlar qismida esa, joriy moliyaviy yil xarajatlari o'sishiga taqsimlanadi.

Budjet muassasasi tomonidan xizmatlarni ilgari surish jarayonida amalga oshirilgan xarajatlar summasi aylanma ortiqcha xarajatlariga kiritiladi. Xizmat ko'rsatish xarajatlari sintetik schot guruhining analitik kodiga ega bo'lgan schotda hisobga olinadi.

Budjet muassasasi ishining qay darajada ishonchli va aniq bo'lishi ta'lim xizmati yoki yo'nalishining hisoblab chiqilgan tannarxi hajmiga bog'liq bo'ladi, tannarx esa o'z navbatida bilvosita xarajatlar taqsimlanishining ma'lum bir usuli qo'llanilishining natijasiga aylanadi. Ta'lim xizmatining tannarxini hisoblab chiqish uchun bilvosita xarajatlar taqsimlanishi bazasini hisoblab chiqishning mavjud usulini ko'rib chiqish lozim. Ushbu usullarni qo'llab bitta talabani o'qitishning bitta shakli, mutahassislik yoki bitta kursning ta'lim xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilishni taklif etamiz.

Umuman olganda, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi aloqa to'g'ri aniqlanmasa yoki bilvosita yo'l bilan aniqlansa, daromadlar va xarajatlar soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda, daromadlar va xarajatlar teng o'lchamli tan olinishi tamoyili hisobga olingan holda taqsimlanadi.

Teng o'lchamlilik tamoyili ta'lim muassasasining mablag'larini ma'lum yo'qotishlarsiz sarflashga imkon bera olmaydi, masalan, ta'lim jarayonini rivojlantirishga bir vaqtning o'zida sarflanishi zarur bo'lgan moliyaviy qo'yilmalar zaruriyati paydo bo'lganda (masalan, kompyuter sinflarini sotib olish, qozonxonalarni qayta jihozlantirish, ichki kichik stansiyalarda transformator jihozlarni almashtirish va boshqalar) to'planishi kerak bo'lgan katta mablag'lar summasi talab etiladi.

Daromadlar hisoblashning teng o'lchamli tamoyili aynan shunday bo'lishi kerak va yetishmayotgan summa to'planadi. Biroq to'plash jarayonida joriy davrda daromadlar va xarajatlar o'rtasida farq yuzaga keladi va uning natijasida foyda solig'i paydo bo'ladi va buning natijasida to'plangan summaning ma'lum qismi darhol yo'qolib qoladi. Bu kabi yo'qotishlarga yuz tutmaslik uchun daromadlar va xarajatlar smetasini shakllantirish usulini o'zgartirish zarur.

Ayni daromadlar va xarajatlarni hisoblab yozish tamoyili aniq shakllantirilgan smeta mavjud bo'lishi kerakligini taqozo etadi va unga nisbatan tegishli hisoblash amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hisobga olgan holda quyidagi harakatlar variantini taklif etamiz:

Budjetdan tashqari faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish zarur.

Daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish markazi tuzilishi kerak. (bo'lim, boshqarma, rejalashtirish guruhi).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2020 y., 10/20/2169-5/1123-son "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Yo'riqnoma, 306-band.

Muallif tomonidan tuzilgan.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. "Xalq so'zi" 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)-soni.

"Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. 1999 yil 5 fevral № 54. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 2015 y., 9-son, 100-modda; 2016 y., 17-son, 176-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2020 y., 09/20/217/0426-son.

Mexmonov S.U. Budjet hisobi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. - 352 b.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАСХОДОВ И ИХ УЧЕТ В ФИНАНСОВОЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЫСШЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ УЧРЕЖДЕНИЯХ

*Д.А.Абдуджалилова
докторант ТФИ*

В 21 веке мировая экономика, превратилась в систему, требующую кардинальных изменений и очень умелого подхода и опыта. И это требуя более высоких знаний и навыков, она создала основу для возникновения требований к высшему образованию, которые в некоторых случаях вообще не изучались. В то же время появление теории искусственного интеллекта и тенденция к ее широкомасштабному использованию показали актуальность фундаментального переосмысления процесса принятия финансовых решений в высшей учебной заведениях.

В целях решения вышеуказанных проблем в «О стратегии «Узбекистан – 2030»» отражен ряд задач, которые должны быть реализованы до 2030 года. Расширение охвата высшим образованием, повышение качества подготовки специалистов с высшим образованием и совершенствование организационно-управленческой деятельности высших образовательных учреждений, укрепление их материально-технического обеспечения.[1] Для обеспечения открытого и качественного образования для молодежи, обеспечения идеального воспитания молодежи на всех этапах образования, создания условий для развития инклюзивного образования в регионах. Первоначальными результатами реформ высшего образования являются постепенное повышение уровня охвата высшим образованием, формирование здоровой конкурентной среды в системе, внедрение цифровых технологий в образовательный процесс, обеспечение финансовой независимости высших учебных заведений, повышение заработной платы профессором. На сегодняшний день в Республике действуют 212 высших учебных заведений в том числе: государственные высшие учебные заведения - 116, или 55 процентов, из них 36 государственных высших учебных заведениях предоставлена финансовая самостоятельность[2]. К настоящему времени количество

государственных высших учебных заведений, которым предоставлена финансовая самостоятельность, достигло 40. Негосударственные высшие учебные заведения - 66, или 31 процент, и иностранные высшие учебные заведения - 30, или 14 процентов.





Рисунок 1. Источники финансирование высших учебных заведениях на 2022 год²⁴³.

В настоящее время в количестве 34 590 профессорско-преподавательского состав преподают 1203125 студентов по 3559 направлениям и специальностям. Учитывая источники финансирования высших учебных заведений, 29% поступление финансируются из государственного бюджета оставшиеся 71% приходится на внебюджетных средств который основной часть 59,6% составить из платно-контрактных средств. Основным финансовым ресурсом высших учебных заведений является доля средств от платно-контрактной формы обучения.

Это предполагает, что высшим учебным заведениям поэтапно будет предоставляться финансовая, а также академическая независимость, что, в свою очередь, означает необходимость улучшения финансовой деятельности, системы бухгалтерского учета и отчетов высших учебных заведений.



²⁴³ Подготовлено исследователем на основе статистических данных Министерство Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Рисунок 2. Фактические расходы платно-контрактных средств высших учебных заведениях по группа расходов на 2022 год²⁴⁴

Это предполагает, что высшим учебным заведениям поэтапно будет предоставляться финансовая, а также академическая независимость, что, в свою очередь, означает необходимость улучшения финансовой деятельности, системы бухгалтерского учета и отчетов высших учебных заведений.

Планируемые расходы согласно утвержденному смете доходов и расходов на текущий финансовый год делятся на четыре группы:

I группа “Заработная плата и приравненные к ней выплаты”

II-группа расходов “Социальные выплаты”

III-группа затрат “Капитальные вложения”

IV- группа расходы “Прочие расходы”.

В I-й группа расходы “Заработная плата и приравненные к ней выплаты” ведется учет затрат заработная плата в смете расходов рассчитывается исходя из установленных законодательством окладов, ставок заработной платы и дополнительных выплат к ним, соответствия действующим типовым штатам и нормам.

В расходы II группы “Социальный налог” затраты на налогу единой социальной выплаты из фонда оплаты труда вносятся по ставкам, установленным в соответствии со сметой расходов, исходя из всех сумм выплаты, на которые выплачивается единая социальный налог в соответствии с налоговым кодексом. Бюджетные организации уплачивают единый социальный налог в размере 25%. Тем не менее, высшие учебные заведения, которым предоставляется финансовая самостоятельность, осуществляют единую социальную выплату в размере 12% из фонд оплата труда.

В III группа расходы “Капитальные вложения” затраты на высшие учебные заведения учитываются за счет капитальных вложений и затрат на строительство.

В IV-й группа расходы “Прочие затраты” учитываются все расходы, которые не включены в структуру затрат по вышеуказанным трем группам.

Как видно из приведенной выше диаграммы, фактические расходы платно-контрактных средств высших учебных заведениях на 2022 год I-группа расходы составляют 3258646 тысячи сум или 68%, II-группа расходы составляют 504348 тысячи сум или 10%, III группа расходы составляют 314129 тысячи сум или 7% и IV группа расходы составляют 726619 тысячи сум или 15%.

В настоящее время высшие учебные заведения организуют бухгалтерскую работу в условиях цифровой экономики с использованием современных технических средств и применение информационных технологий. В том числе программный комплекс UzASBO, Mysoliq.uz, Stat.uz, Didox.uz, UzASBOinvoice.uz, xarid.uz и в ряде подобных программ реализация с использованием электронной подписи. АП «ИСУГФ» - информационная система, предназначенная для комплексной автоматизации бюджетного процесса соответствующих бюджетов,

²⁴⁴ Подготовлено исследователем на основе статистических данных Министерство Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

включая отражение операций, связанных с исполнением бюджетов бюджетной системы и бюджетов «Узасбо» - программный комплекс, предназначенный для комплексной автоматизации ведения бюджетного учета и отчетности бюджетными организациями.

На основе анализа расходы платно-контрактных средств в высших учебных заведениях и путей улучшения текущего состояния их учета можно сделать следующие выводы:

1. Преобразование данных по каждому студенту в автоматизированную систему формирования в программном комплексе "Узасбо". Для этого необходимо наладить интеграцию программного комплекса «Узасбо» с программой «Nemis» в системе Министерство Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

2. Для автоматизации бюджетного учета и отчетности в Узбекистане в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности будет целесообразна дальнейшая модернизация таких программных комплексов, как DMBAТ и Uzasbo. Это, конечно же, будет сделано по инициативе Министерства экономики и финансов. Не каждая бюджетная организация, включая высшие учебные заведения, имеет возможность вносить изменения в программу при ведении учета и отчетности в программном комплексе «Узасбо».

В результате проделанной работы в программном комплексе «Узасбо» будет достигнута точность в структуре финансовой отчетности о движении средств платежно-контрактной формы в высших учебных заведениях и правильное, точное и своевременное качественное ведение их первичных расчетов.

Список литературы:

Указ Президента Республики Узбекистан, № 158
«О СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»» от 11 сентября 2023 года.

Постановление Президента Республики Узбекистан, №-61
«О мерах по предоставлению финансовой самостоятельности государственным высшим образовательным учреждениям» от 24 декабря 2021 года.

Мехмонов С.У. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях: теория и практика. Tashkent. "IQTISOD MOLIYA". 2016 г. 172 стр.

Остонокулов А.А., Хамдамов Б.К. Бюджетный контроль. Учебное пособие. "IQTISOD MOLIYA". – Т.: 2018. 318 стр.

Бузрукхонов С.М. "Совершенствования финансирования высшего образования в условиях перехода к инновационной экономике." Докторская диссертация. Автореферат 2022 г.

ҲОВУЗ БАЛИҚЧИЛИГИДА БИЗНЕС-ЖАРАЁНЛАРНИ РЕЖАЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ш.К.Досмуратова

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва
агротехнологиялар институти ассистенти*

Сўнги йилларда мамлакатимизда хусусий мулкчилик ва бизнесни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, балиқчилик соҳасида

бизнесни ташкил этиш ва ривожлантириш бўйича ҳукуматимиз томонидан бир қатор қарорлар қабул қилинди. Республикада аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, шу жумладан, сифатли балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш бўйича бир қанча дастурий чора-тадбирлар қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2022 йилнинг 20 декабрь куни балиқчилик соҳасини ривожлантириш ва кооперация асосида балиқ етиштириш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги йиғилишида мавжуд камчиликлар кўрсатиб ўтилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти «Дунёда озиқ-овқат нархларининг ўсиши, инфляция хавф-хатарлари келгуси йилда озиқ-овқат хавфсизлиги энг долзарб масала бўлиб қолишини яққол кўрсатмоқда. Шу боис, вилоят ҳокимлари ўз ҳудудида балиқ етиштириш ҳолатини таҳлил қилиб, тадбиркорлар ва аҳоли хонадонларига барча шароитларни яратиб бериш бўйича тизимли шуғулланиши зарур» [1] деб таъкидлаб ўтдилар. Шунингдек, «йирик балиқчилик лойиҳаларига келгуси йилда 20 миллион евро жалб қилиш режалаштирилганлиги, ҳосилдорлиги паст бўлган 21 минг гектар сунъий ҳавзаларда ҳосилдорликни 3 баробарга ошириш ва қўшимча 190 минг тонна балиқ етиштириш зарурлиги таъкидланди. Бунинг учун 2,2 мингта хўжаликни 50 мингта сувни кислород билан бойитиш ускунаси - аэратор билан жиҳозлаш зарурлиги кўрсатиб ўтилди» [1].

Умуман, балиқчилик тармоғини ривожлантириш бўйича сўнгги йилларда бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди, жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги «Балиқчилик тармоғини бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2939-сон қарори [2] қабул қилинди. Қарорга мувофиқ «Ўзбекбалиқсаноат» уюшмаси ташкил этилган. Унинг таркибига жойларда балиқчилик тармоғи ташкилотлари ишларини мувофиқлаштирувчи 13 та ҳудудий «Балиқсаноат» масъулияти чекланган жамияти киради. Шу билан бирга балиқчилик соҳасини ривожлантиришга қаратилган қуйидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилди:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги «Балиқчилик тармоғини жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3657-сон [3], 2018 йил 6 ноябрдаги «Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4005-сон [4] қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 сентябрдаги «Балиқчилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 719-сон [5], 2018 йил 31 июлдаги «Балиқчилик соҳасидаги илмий фаолиятни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 606-сон [6] қарорлари. Мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш муҳим ҳисобланади.

Балиқчилик соҳасидаги бизнес-жараёнларнинг мазмун-моҳиятини билиб олиш бугунги кунда долзарблик касб этади. Шу боисдан, бизнес ва бизнес-жараёнлар тушунчаларига батафсил тўхталиб ўтсак, мақсадга мувофиқ бўлади.

Одатда, бизнес билан машғул бўлган одамлар бизнесменлар, яъни

ишбилармонлар деб аталган. Ли Якокка XX асрдаги бизнеснинг «энг буюк қаҳрамони» ҳисобланади. У дастлаб Генри Форд компаниясида иккинчи раҳбар бўлиб ишлаган, кейинчалик эса, унинг рақобатчисига айланган ва «Крайслер» автомобиль корпорациясининг президенти лавозимини эгаллаган. У шундай деб ёзган: «Ўзингизга мақсад қўйинг. Қўлингиздан келганича таълим олинг, лекин кейин Худо учун бир нарса қилинг! Бирор нарса ўз-ўзидан содир бўлишини кутманг. Бу осон эмас, лекин агар сиз кўп меҳнат қилсангиз, сиз интилган ҳамма нарсага қандай эришишингиз мумкинлигидан ҳайратда қоласиз» [7]. Агар бирон-бир фойдали иш қилинса - бу бизнеснинг албатта бажарилиши лозим бўлган шартидир, бизнеснинг ўзи бозор иқтисодиётининг ишбилармонлик асосидир. Бизнес эркин шахснинг ташаббуси ва ижодкорлиги асосида яратилади. У ёлланма ходимнинг кўр-кўрона буйруқни бажариши, мажбурий меҳнат қилишига қарши қўйилади.

Бизнесни бошлашдан аввал қуйидаги асосий тамойилларга амал қилиш лозим бўлади: - бизнеснинг қонун ва қоидаларини яхши билиш; - етарли миқдорда бошланғич капиталга эга бўлиш; - ўз зиммасига олган мажбуриятларни ўз вақтида ва тўлиқ бажариш.

Бизнес тушунчасига батафсил тўхталиб ўтсак, Ўзбекистон миллий энциклопедиясида бизнесга қуйидагича таъриф берилган, «Бизнес (инг. business) - даромад келтирадиган ёки бошқа наф берадиган хўжалик фаолияти (касб-кор, машғулот); фойда олиш мақсадлари кўзланган ва қонунларга хилоф бўлмаган ҳар қандай ташкилий фаолият» [8]. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ҳам мазмунан шунга яқин «Бизнес (ингл. business) - даромад келтирадиган ва фойда олиш мақсадлари кўзланган ва қонунларга хилоф бўлмаган ҳар қандай ташкилий фаолият» [9].

Иқтисодий адабиётларда бизнес тушунчаси билан бирга бизнес-жараён тушунчаси ҳам кенг қўлланилиб келинади. Иқтисодчи олим З.Абдурахмонов жараён тушунчасига қуйидагича ёндашувни келтирган: «Компания маҳсулот ёки сервис ишлаб чиқариш учун бажарадиган ишлари жараёнлардир. Жараён қуйидагиларни ўз ичига олади: 1. Қатнашчилар - инсон, ташкилот ёки дастурий тизим; 2. Жисмоний объектлар - қурилма, материал, маҳсулот, ҳужжат; 3. Ахборот объектлари - электрон ҳужжат ёки электрон ёзувлар» [10]. Балиқчилик хўжаликларида истеъмолчиларни ўз вақтида балиқ маҳсулотлари билан таъминлашга қаратилган жараён ва тадбирлар йиғиндиси бу бизнес жараёни ҳисобланади. Бугунги кунда мазкур жараённи тўғри ташкил этиш ва амалга ошириш талаб этилади.

Бизнес жараёни тушунчаси бўйича хорижлик иқтисодчи олим M.Weske томонидан қуйидагича фикр билдирилган, «Бизнес жараёни - бу истеъмолчилар учун маълум бир маҳсулот ёки хизматни яратишга қаратилган ўзаро боғлиқ бўлган фаолият ёки тадбирлар мажмуидир. BPM бошқарув концепцияси (инглизча, business process management - бизнес-жараёнларни бошқариш) бизнес-жараёнларни корхонанинг муҳим ресурслари деб ҳисоблайди ва уларни бошқаришнинг асосий ташкилий тизимларидан бири сифатида қабул қилади» [11].

Иқтисодий манбада бизнес жараёнларининг турларига тўхталиб ўтилган, «Бизнес жараёнларининг уч тури мавжуд:

менежерлар - корпоратив бошқарув ва стратегик бошқарув каби тизимнинг ишлаштини назорат қилувчи бизнес жараёнлари;

операцион - даромаднинг асосий оқимини (таъминот, ишлаб чиқариш, маркетинг, сотиш ёки қарзни ундириш) яратадиган ташкилотнинг асосий фаолиятини ифодаловчи;

қўллаб-қувватлаш - ташкилотга хизмат кўрсатиш (бухгалтерия ҳисоби, ишга олиш, техник ёрдам)» [12].

Бизнес жараёни истеъмолчи талабидан бошланиб, уни қондириш билан тугайди. Жараёнга йўналтирилган ташкилотлар битта бизнес-жараённи амалга оширишда ташкилотнинг икки хил бўлимининг туташган жойида юзага келадиган тўсиқлар ва кечикишларни бартараф этишга ҳаракат қиладилар. Бизнес-жараён ўзига хос хусусиятларга эга бўлган, лекин асосий бизнес жараёнининг мақсадига эришишга қаратилган бир нечта кичик жараёнлар, процедуралар ва функцияларга бўлиниши мумкин. Бундай бизнес-жараёнларни таҳлил қилиш, одатда маълум фаолият даражалари оралиғида жойлашган бизнес жараёни ва унинг кичик жараёнларини хариталашни ўз ичига олади.

Бизнесни режалаштириш янги бизнесни ташкил этиш йўлидаги муҳим бўғин ҳисобланади. Бизнес-режа - бу корхона келгусидаги фаолиятидаги барча муҳим жиҳатларини тавсифловчи дуч келиниши мумкин бўлган, муаммоларни таҳлил қилувчи ва ушбу муаммоларни ҳал этиш йўллари белгиловчи ҳужжатдир.

Бизнес-режа кенг, ҳар томонлама аниқ, тизимга туширилган ва чуқур ўйлаб тайёрланган ҳужжат бўлиб, у қишлоқ хўжалиги корхонасининг қай мақсадга ҳаракат қилаётганлиги, кўзланган мақсадга қайси йўллар билан эришиш ҳамда эришилгандан сўнг натижа қандай бўлади. Демак, саволларга жавоб топилади. Бу қулай ҳисобланиб, умумий олинган лойиҳанинг имкониятлари бўйича тўла маълумот беради. Бизнес-режа қишлоқ хўжалиги корхонасининг стратегик истиқболини белгилаб берадиган асосий ҳужжат ҳисобланади ва уни 3-5 йилга тузиш тавсия этилади.


Бизнес-режанинг биринчи ва иккинчи йилларига кўрсаткичларни, топшириқларни чоракларга тақсимланган ҳолда берилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади ва фақат учинчи йилдан бошлаб йиллик кўрсаткич, топшириқлар билан чегараланиши мумкин.

«БИЗНЕС РЕЖА - аниқ танланган тадбиркорлик ишининг барча босқичлари тавсифланган ва тахминий ҳисоб-китоб қилинган лойиҳа. Унда аниқ танланган тадбиркорлик ишининг ҳамма томонлари ўз аксини топади» [8]. Бизнес-режа - бу ҳар қандай оддий режа бўлиб, нафақат бизнесни бошлаш режаси билан чекланиб қолмай, у раҳбариятга корхоналарнинг ҳозирги ҳолатини (кучли, заиф томонлари, имкониятлар ва таҳдидлар) тушунишга ва келажакка умидворлик билан қарашга ёрдам беради.

Бизнес-режа - бу келгуси бир неча йил учун ҳисоб-китоблар ва истиқболлар билан лойиҳангизнинг батафсил тавсифи. Бу потенциал инвесторлар ёки сиз

кредит олиш учун борадиган банк учун, ҳамкорлар, воситачилар, сизнинг жамоангиз ва охир-оқибат, сиз лойиҳанинг яратувчиси сифатида керак бўлади.

«Бизнес-режа - бу тадбиркорнинг режалаштирилган бизнес схемасининг ёзма қисқача мазмуни, унинг молиявий ва самарали тафсилотлари, имкониятлар, стратегия ва унинг раҳбарларининг малака ва кўникмалари, уни илгари суриш. Бизнес-режани яратиш жуда муҳим, чунки тадбиркор муваффақиятга эришиш имкониятини ошириш учун яхши ўйланган, аниқ яратилган бизнес-режага эга бўлиши керак» [8].



1-расм. Бизнес-режани яратиш

Хорижлик иқтисодчи олимлар Tomas Zimmerer ва Scarboroughлар фикрича, «керак бўлганда янгиланиши мумкин бўлган баъзи умумий бизнес-режа тафсилотлари, сарлавҳа саҳифаси ва таркиблар жадвали, бошқарув хулосаси, компания тарихи, савдо ва саноат профили, бизнес сиёсати, компания маҳсулоти ёки хизматининг тавсифи, янгилаш схемаси, рақиб таҳлили, маъмуриятнинг тушунтириши, процедура режаси, про-формал иқтисодий баёнотлар, ғоя ва инвестицион таклифлар» [13].

Ҳовуз балиқчилиги тармоғида бизнес жараёнларни режалаштириш жуда ҳам муҳим масалалардан ҳисобланади. Ва унда тармоқнинг куйидаги хусусиятларини эътиборга олиш зарур:

- ҳовуз балиқчилиги хўжаликларини ташкил этиш сув таъминоти ва унинг оқими йўналишига бевосита боғлиқлиги;

- ҳовуз балиқчилиги хўжаликларини ташкил этишда сувнинг биологик ҳолати (тозалик даражаси, таркиби, мавсумий оқими)га боғлиқлиги;

- кичик ҳажмли ҳовуз балиқчилиги хўжаликларида етиштирилган маҳсулот натура ёки товар маҳсулоти сифатида фойдаланиш имконияти юқорилиги;

- меҳнат сиғими нисбатан кичиклиги ва илмий ҳажмдор меҳнатга талаби юқорилиги;
- чучук сувли кўл ва дарёларнинг ифлосланмаган оқар сувларида кўпайтириш қулайлиги;
- юқори даражада вазнининг тез ўсиши;
- ташқи муҳит шароитига чидамлилиги;
- ҳовуз балиқчилиги хўжалигида балиқ зоти кесимида сув сифатида ва ҳароратига талаб ўзгариб бориши;
- интенсив балиқчилик ривожланиши шароитида дарё балиғига талабнинг ортиши;
- юқори даражада озуқалик сифатга эгаллиги;
- ҳовуз балиқчилиги хўжалигининг қуввати сувнинг экологик ҳолатига (меърдан ошса ифлослайди, кам бўлса сувни тозалайди) бевосита таъсирга эгаллиги;
- балиқ чиқиндилари сув ҳавзасида биологик хилма-хилликнинг соғломлашишига ижобий таъсир кўрсатиши ва ҳоказо.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2022 йилнинг 20 декабрь куни ўтказилган йиғилиши. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ишларини кучайтириши, балиқчилик тармогини қўллаб-қувватлашни кенгайтиришига кўрсатма берилди. <https://president.uz/uz/lists/view/4839>.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги «Балиқчилик тармогини бошқариш тизимини такомиллаштириши чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ-2939-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3188263>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 апрелдаги «Балиқчилик тармогини жадал ривожлантиришига доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3657-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3642735?otherlang=1>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 ноябрдаги «Балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришига доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4005-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4046069>

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 сентябрдаги «Балиқчилик тармогини комплекс ривожлантириши чора-тадбирлари тўғрисида»ги 719-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3343140>

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 31 июлдаги «Балиқчилик соҳасидаги илмий фаолиятни янада такомиллаштириши чора-тадбирлари тўғрисида»ги 606-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3844512>

Карьера менеджера. Ли Якокка. Саммару. <https://bookmate.ru/books/la4eX0HA/quotes>

Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий наشريёти, 2001. 2-жилд. 20-б.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. Б ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий наشريёти, 255 б.

Zukhriddin Abdurakhmonov. Biznes jarayonlarni boshqarish. <https://tizimlifikrlash.medium.com>

Weske, M. Chapter 1: Introduction// Business Process Management: Concepts, Languages, Architectures.- Springer Science & Business Media, 2012.- P.1-24.- ISBN 9783642286162.(англ.)

12. Бизнес-процесс. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.

13. Effective Small Business Management: An Entrepreneurial Approach. Scarborough & Zimmerer 2008, 134. <https://www.semanticscholar.org/paper/Effective-Small-Business-Management%3A-An-Approach-Scarborough-Zimmerer/>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT HARIDLARI TIZIMIDAGI MUAMMOLAR, QONUNBUZILISHLAR VA AMALDAGI HOLATNING TAHLILI

K.I.Raximjonov

TDIU mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiyotning barcha sohaslarida o‘zgarishlar jadal su‘ratlarda rivojlanib bormoqda. Xususan, davlat haridlari sohasida budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchi korxonalar va tashkilotlarni arzon va sifatli tovar moddiy qimmatliklar bilan ta‘minlashga katta e‘tibor qaratilib borildi. Dunyo mamlakatlari o‘rtasida davlat xaridlari tizimini tartibga soluvchi birinchi qonun 1792 yilda AQShda qabul qilinganligini inobatga olib, ushbu mamlakatda xaridlarni axborot bilan ta‘minlash bo‘yicha eng katta tajriba jamlangan degan xulosaga kelish mumkin. O‘zbekistonda ham davlat haridlari sohasini tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar va qonunlar qabul qilingan va asta-sekinlik bilan takomillashtirib borilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 aprel kunidagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ 684 Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi hamda davlat xaridlarining ayrim jihatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar yaratildi. Davlat xaridlari subyektlari va jamoatchilik uchun erkin holda tanishib chiqish imkoniyati vujudga keldi. Xaridlarni nazorat qilish imkoniyatini ta‘minlovchi, davlat xaridlarining reja-jadvallari va e‘lonlar joylashtiriladigan hamda amalga oshirilgan xaridlar natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar joylashtiriladigan elektron portal tizimi soddalashtirildi. Quyida davlat xaridlari sohasini rivojlantirish borasida erishilgan natijalar keltirildi:

- davlat xaridlari jarayonlari raqamlashtirildi;
- xaridlarni amalga oshirishda raqobat muhitining kengayishiga imkoniyat yaratildi;
- davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning barcha uchun ochiqligi va shaffofligi ta‘minlandi;
- tadbirkorlik sub‘yektlariga, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni bandligiga qaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Olib borilayotgan jadal islohotlarga qaramasdan, haridlarni amalga oshirishda bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Hisob palatasining hisobotiga ko‘ra, davlat xaridlari jarayonida 763 ta holatda 971,1 mlrd so‘mlik manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganligi va bir qator qonun buzilishi holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga 30 dan ortiq ko‘rsatmalar berilgan. Ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli ishlatilganligi, bajarilgan qurilish-ta‘mirlash ishlarining sifati bo‘yicha davlat xaridlarining qonuniyligi yuzasidan jami 677,6 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar hamda tender savdolarida 3,5 trln so‘mlik qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining ma‘lumotlarida, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga organlariga yuborilgan. Sud yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo‘yicha 592,5 mlrd.

so‘m moddiy zarar yetkazilgani aniqlanib, shundan 170,8 mlrd. so‘mi (28 foizi) undirilib, 421,7 mlrd. so‘mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilangan.

Olb borilgan mustaqil izlanishlar davomida budjet tashkilotlarining moliyaviy operatsiyalari jarayonida quyidagi qarama-qarshiliklar aniqlandi:

Birinchiidan, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 aprel kunidagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ 684 son qonunining 62 moddasida eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali aniqlangan g‘olib korxonalar (tashkilotlar)lar haqidagi imzolangan bayonnoma 2 (ikki) ish kuni mobaynida maxsus axborot portalida muxokamada turishi lozimligi belgilangan. Amaldagi budjet kodeksining tegishli moddalariga asosan tashkilotlar o‘rtasida imzolangan shartnomalar g‘aznachilik organlaridan ro‘yxatdan o‘tkazilishi belgilangan. Ushbu shartnomalarning ro‘yxatga olishning oxirgi muddati 25 dekabr kilib belgilangan. Budjet tashkilotlarida moliya yilining yakunida mablag‘larning ajratilishi esa o‘z navbatida ushbu ajratilgan mablag‘larning ishlatilmasdan qolishiga va Iqtisodiyot va moliya vazirligi yagona g‘azna xisob-varagig‘a qaytarilishiga sabab bo‘lmoqda.

Ikkinchiidan, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 aprel kunidagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ 684 son qonunining 71 moddasida budjet tashkilotlari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri imzolangan shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirishdan oldin 3 (uch) ish kuni ichida maxsus axborot portalida joylashtirishi lozimligi qayd etilgan. Budjet tashkilotlari kommunal xizmatlar uchun shartnomalarni moliya yilining boshlanishida imzolaydilar, ammo xarajatlar smetasining tasdiqlanishi va ijroga qaratilishi esa yanvar oyining 10-15 sanasiga qadar chuziladi. Budjet tashkilotlari to‘lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xarajatlar smetasining tasdiqlanishining kechikishi kommunal to‘lovlar uchun to‘lovlarni xar oyning boshida amalga oshirishda tusqinliklarga sabab bo‘lmoqda.

Uchinchiidan, budjet tashkilotlarida davlat xaridlarining milliy do‘kon va narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion xarid turlarida shartnoma bo‘yicha tovar yetkazib berish muddati tugaganidan so‘ng, agar maxsulot yetkazib berilmagan bo‘lsa, mablag‘ budjet tashkilotining shaxsiy g‘azna xisob-varag‘iga qaytarilishi zarur bo‘ladi. Agarda ushbu mablag‘lar qaytarilishi ta‘minlanmasa budjet tashkilotlarida debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari vujudga kelishiga va budjet mablag‘larining birja hisob-varag‘ida qolib ketishiga sabab bo‘ladi.

Davlat xaridlari sohasini yanada takomillashtirish, davlat xaridlari sohasidagi yagona siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida quyidagi takliflarni keltirib o‘tamiz:

-davlat xaridlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlar, o‘quv-metodik, ilmiy va axborot-tahliliy bazani takomillashtirish hamda tizimlashtirish;

-davlat xaridlari sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish;

-davlat xaridlari jarayonlarida ishtirok etuvchi tadbirkorlik sub’yektlarining ko‘lamini yanada kengaytirish;

-xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul shaxslarni muntazam o‘qitish va malakasini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining 2021-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida" qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6000473>

Burhonov A. Qonunchilik palatasi majlisida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining "O'zbekiston milliy manfaatlariga va xalqaro imijiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil etish to'g'risida"gi axboroti 2021-yil 24-sentyabr. <https://kun.uz/uz/news/2021/09/25/2020-yil>

O'roqov U.Yu. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. T.: «Nihol print» OK, 2022. 190-192b.

Raximjonov K.I. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish istiqbollari// «EVROSIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES» jurnali 2022. - №13 90-94b.

Raximjonov K.I. Davlat xaridlarini takomillashtirishda budget mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi // «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 2023. - №9 101-104b.

АГРОИҚТИСОДИЁТДА МОЙЛИ ЭКИНЛАР ДОНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

М.А.Амонова

*Тошкент Кимё халқаро университети
мустақил изланувчиси*

Мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда мойли экинлар дони ишлаб чиқариш соҳаси ҳам муҳим аҳамият касб этади. Республикамиз аҳолисини сифатли озиқ-овқат, хусусан ёғ-мой маҳсулотларига бўлган талабини янада қондириш ва йил давомида бу маҳсулотлар билан узлуксиз таъминлаш, бозорларда тақчилликни камайтириш ҳамда нарх-навонинг асоссиз ошиб кетишининг олдини олиш, шунингдек рақобатбардош маҳсулотлар билан аввало ички бозорларимизни тўйинтириш, пировард натижада аҳолининг турмуш даражасини юксалтириш мақсадида, бир қатор фармон ва қарорлар [1, 2, 3, 4, 5] ишлаб чиқилди ҳамда уларнинг ижроси изчил таъминланмоқда. Бунинг натижасида соҳанинг мустақам ҳуқуқий базаси яратилмоқда.

Шу боисдан, кейинги йилларда пахта экиладиган майдонларни аста-секинлик билан қисқартириш ва бўшаган пахта майдонларининг ўрнига мойли экинларни тизимли равишда жойлаштиришга алоҳида аҳамият берилмоқда.

«Мойли экинлар - уруғи ва мевасидан мой олиш учун экиладиган экинлар гуруҳи. Гулхайридошлар (ғўза), мураккабгулдошлар (кунгабоқар, махсар), лабгулдошлар (перилла, лаллеманция), бутгулдошлар (рапс, хантал), дуккакдошлар (соя, ерёнғоқ) ва б. турли ботаник гуруҳларга мансуб бир йиллик ва кўп йиллик ўсимликларни ўз ичига олади» [6].

Мойли экинлар уруғи ёки мевасида кўп мой тўплайдиган ўсимликларнинг катта гуруҳи мансуб бўлиб, мамлакатимизда улардан кунгабоқар, махсар, ерёнғоқ, соя, кунжит ва бошқалар экилади. Улардан олинадиган мойлар озиқ-овқат учун, кондитер маҳсулотлари, консервалар, маргарин ва бошқа маҳсулотлар тайёрлашда ишлатилади. Шу билан бирга, мойли экинлар мойларидан лак-бўёқ ва совун ишлаб чиқаришда, тери ишлаш, тўқимачилик ва парфюмерия саноатларида сурков мойи

сифатида ишлатилади. Уруғ таркибида мой аратиб олингандан кейин қолган кунжара чорва моллари учун қимматли концентрат озиқ ҳисобланади. Баъзи мойли экинлар силос тайёрлаш учун экилади.

Статистик маълумотларга кўра: «Мойли экинлар ер юзиде 140 млн. га майдонга экилади. Уларнинг орасида соя энг кўп майдонни (62,6 млн. га) эгаллайди. Шунингдек, кунгабоқар (18,33 млн. га), рапс (22,25 млн. га), ерёнғоқ (21,78 млн. га), мойли зиғир (7,5 млн.га), кунжит (6,75 млн. га) ҳам катта майдонларда етиштирилади» [7].

Республика бўйича асосий турдаги мойли экинларнинг умумий ер майдони ўрганилаётган йилларда ўзгариб турган. Асосий турдаги мойли экинларнинг умумий майдони 2010 йилда 62708 гектарни ташкил этган бўлса, энг катта майдонлар Жиззах вилояти (27,7 %), Самарқанд вилояти (16,8 %), Қорақалпоғистон Республикаси (12,1 %) ва Тошкент вилояти (11,9 %) вилоятлари ҳиссасига тўғри келган. Бу ҳудудларда жами мойли экинларнинг 68,5 % и етиштирилган бўлса энг кичик майдонлар Фарғона вилояти (0,5 %), Бухоро вилояти (1,2 %), Сирдарё вилояти (1,8 %) ва Андижон вилояти (2,5 %) вилоятлари ҳиссасига тўғри келган. Бу ҳудудларда жами мойли экинларнинг атиги 6,0 % и етиштирилган (1-жадвал).

1 -жадвал

Ўзбекистон Республикаси бўйича асосий турдаги мойли экинлар экин майдони таркиби, га [8]

№	Республика ҳудудлари	Йиллар				2022 йилда 2010 йилга нисбатан ўзгариши, +/-
		2010	2014	2019	2022	
	Ўзбекистон Республикаси бўйича	62708	59667	38679	48899	-13809
1	Қорақалпоғистон Республикаси	7593	5229	8195	16293	8700
2	Андижон вилояти	1562	1378	1538	1533	-29
3	Бухоро вилояти	731	238	510	1323	592
4	Жиззах вилояти	17372	22378	13909	9710	-7662
5	Қашқадарё вилояти	5823	6078	2067	2446	-3377
6	Навоий вилояти	4086	2062	311	704	-3382
7	Наманган вилояти	1712	2328	1288	1678	-34
8	Самарқанд вилояти	10535	8847	3616	5005	-5530
9	Сурхондарё вилояти	2848	697	703	392	-2456
10	Сирдарё вилояти	1115	693	466	1956	841
11	Тошкент вилояти	7445	7720	3997	4595	-2850
12	Фарғона вилояти	293	79	376	740	447
13	Хоразм вилояти	1593	1940	1701	2524	931

2022 йилга келиб эса, асосий турдаги мойли экинларнинг умумий ер майдони қарийб 48899 гектарни ташкил этган бўлса, энг катта майдонлар Қорақалпоғистон Республикаси (33,3 %), Жиззах вилояти (19,9 %), Самарқанд вилояти (10,2 %), ва Тошкент вилояти (9,4 %) ҳиссасига тўғри келган. Бу ҳудудларда жами мойли экинларнинг қарийб 72,8 % и етиштирилган бўлса, энг кичик майдонлар Сурхондарё вилояти (0,8 %), Навоий вилояти (1,4 %), Фарғона вилояти (1,5 %) ва Бухоро вилояти (2,7 %) ҳиссасига тўғри келган. Бу ҳудудларда жами мойли экинларнинг атиги 7,4 % и етиштирилган, холос.

Бошқача қилиб айтганда, Республика бўйича мойли экинларнинг умумий ер майдони 2022 йилда 2010 йилга нисбатан 13999 гектарга ёки ўртача ҳисобда деярли 20 % га камайган. Ҳудудларда мойли экинлар донини етиштириш учун майдонларнинг камайишига сув танқислиги ва об-ҳавонинг ноқулай келиши бунга сабаб бўлган. Хусусан, мойли экинларнинг майдони биргина Жиззах вилоятида таҳлил қилинаётган йилларда 25,5 марта ошган. Буни ижобий баҳолаш лозим.

Юқоридаги жадвал ва таҳлилий маълумотларга асосланиб шуни айтиш мумкинки, Республикада асосий турдаги мойли экинлар донини етиштириш учун ажратилган энг катта ер майдонлари асосан Қорақалпоғистон Республикаси, Жиззах, Самарқанд ва Тошкент вилоятлари ҳиссасига тўғри келган бўлиб, ушбу ҳудудларда истиқболда мойли экинларни етиштиришга ихтисослашган ҳудудларни ривожлантириш мумкин.

2-жадвал

Ўзбекистон Республикаси бўйича асосий турдаги жами мойли экинлар ялпи ҳосилини етиштириш ҳажми, тн. [8]

№	Ҳудудлар	Йиллар				2022 йилда 2010 йилга нисбатан, +/-
		2010	2014	2019	2022 йил	
Ўзбекистон Республикаси бўйича		59395	79815	103122	119962	60567
1	Қорақалпоғистон Республикаси	5815	6419	12756	16423	10608
2	Андижон вилояти	3144	10196	22419	18330	15186
3	Бухоро вилояти	2248	2155	5727	4626	2378
4	Жиззах вилояти	9533	6719	7141	6931	-2602
5	Қашқадарё вилояти	6183	7853	4059	6315	132
6	Навоий вилояти	2093	795	1048	1928	-165
7	Наманган вилояти	2777	5745	9140	17629	14852
8	Самарқанд вилояти	6447	4680	6608	12315	5868
9	Сурхондарё вилояти	2113	2161	21187	15061	12948
10	Сирдарё вилояти	7358	14053	2717	2140	-5218
11	Тошкент вилояти	8841	14347	4982	7097	-1744
12	Фарғона вилояти	887	1996	1940	6211	5324
13	Хоразм вилояти	1956	2696	3398	4956	3000

2-жадвалда берилган маълумотлардан республикамиз бўйича асосий турдаги мойли экинлар майдони камайган, лекин улардан олинадиган ялпи ҳосил миқдори ошиб бориш тенденциясини кўриш мумкин. 2022 йилда жами 24108 тонна ялпи ҳосил олинган. Республика бўйича жами етиштирилган асосий турдаги мойли экинлар ялпи ҳосилнинг қарийб 66,5 % и, яъни, Андижон вилояти (15,3 %), Наманган вилояти (14,7 %), Қорақалпоғистон Республикаси (13,7 %), Сурхондарё вилояти (12,6 %) ва Самарқанд вилояти (10,3 %) вилоятлари ҳиссасига тўғри келган. Навоий вилояти (1,6 %), Сирдарё вилояти (1,8 %), Бухоро вилояти (3,9 %), Хоразм вилояти (4,1 %) ва Фарғона вилояти (5,2 %) ни ташкил этиб мазкур йилда, республика бўйича энг паст кўрсаткич қайд этилган.

Республика бўйича асосий турдаги мойли экинлар ялпи ҳосили 2022 йилда 2010 йилга нисбатан 60567 тоннага ёки ўртача ҳисобда 2 мартага ошган. Буни ижобий баҳолаш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, сўнгги йилларда республика бўйича мойли экинлар экин майдони камайиб бормоқда, фикримизча экин майдонини ошириш чоратадбирлари кўрилиши зарур. Чунки, бунда бир томондан етиштирилган маҳсулотлар ҳажми ошади, иккинчи томондан ёғ-мой саноати соҳасидаги бўш турган қайта ишлаш корхоналарини хом-ашё билан таъминланади, корхоналар ишга туширилади ва шу асосда аҳолини иш билан таъминлаш яхшиланади. Республикаси бўйича асосий турдаги мойли экинлар ялпи ҳосили ҳажми айрим ҳудудлар (Жиззах, Сирдарё, Хоразм ва Қашқадарё вилоятлари)да жуда камайиб бормоқда. Бунга сабаб ҳосилдорликнинг пастлиги, ушбу ҳудудларда ҳосилдорликни ошириш чоралари кўрилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги «2017-2021 йилларда республикада соя экишни кўпайтириши ва соя дуккакли экинларини ўстиришни ташкил этиши чоратадбирлари тўғрисида»ги ПҚ 2832-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/4908778>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги «2017-2021 йилларда республикада соя экишни кўпайтириши ва соя дуккакли экинларини ўстиришни ташкил этиши чоратадбирлари тўғрисида»ги қарорига ўзгартириши ва қўшимчалар киритиши тўғрисида»ги ПҚ-3144-сон Қарори. <https://lex.uz/ru/docs/3278636>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 январда қабул қилинган «Ёғ-мой тармогини жадал ривожлантириши чоратадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3484-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/3512871>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 январдаги «Ёғ-мой тармогини янада ривожлантириши бўйича қўшимча чоратадбирлар ва соҳани бошқаришида бозор механизмларини жорий этиши тўғрисида»ги ПҚ-4118-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/4163941>

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 10 февралдаги «Республикада соя етиштириши ҳажмларини янада кўпайтириши чоратадбирлари тўғрисида»ги 105-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/3555453>

Мойли экинлар. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. ЎЗМЭ нашриёти, Биринчи жилд. Тошкент, 2000.

Мойли экинларнинг аҳамияти. Кунгабоқарнинг биологияси ва етиштириши технологияси. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/qishloq-va-o-rmon-xo-jaligi/moyli-ekinlarning-a-amiyati-kungabo-arning-biologiyasi-va-etishtirish-tehnologiyasi>

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари. <https://www.stat.uz/>

INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI QISHLOQ XO‘JALIGIGA FAOL JALB QILISH YO‘LLARI

S.A.Mustafayev

*Toshkent davlat agrar universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Agrar sohaga investitsiyalarni faol jalb etish muhim masalalardan hisoblanadi. Investitsiyalar tushunchasiga normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar berilgan. 2019 yil 25 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunida «*investitsiyalar* - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni; ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni); intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni» [1].

Xorijlik iqtisodchi olim Alao Marilyn fikricha, «Investitsiya - bu daromad olish yoki tan olish maqsadida hisoblangan aktiv yoki obyekt. Iqtisodiy nuqtai nazardan sarmoya - bu bugungi kunda iste‘mol qilinmaydigan, ammo kelajakda boylik yaratish uchun foydalaniladigan tovarlarni sotib olish. Moliya sohasida investitsiya - bu aktiv kelajakda daromad keltirishi yoki keyinchalik foyda olish uchun yuqori narxda sotilishi g‘oyasi bilan sotib olingan moliyaviy aktivdir» [2].

Xorijiy iqtisodiy manbalarda «Makroiqtisodiyotga investitsiyalar deganda yalpi xususiy ichki investitsiyalar tushuniladi. Bu iste‘mol xarajatlaridan farqli o‘laroq, asosan biznes xarajatlariga taalluqlidir. Iqtisodiy investitsiyalar - bu korxonalar tomonidan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun kiritiladigan investitsiyalar. Nazariy jihatdan, bu investitsiyalar faqat ishlab chiqarishning kirish qismiga asoslangan» [3].

Bankiros.ru ma‘lumotlariga ko‘ra: «Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, ular bevosita iqtisodiyotga foydali ta‘sir ko‘rsatadi. Ular jismoniy shaxslar, investor korxonalar, shuningdek, davlatning iqtisodiy siyosatini hayot sifatini yaxshilashga hissa qo‘shadi» [4].

Rossiy Federatsiyasi ilmiy manbalarida: «Investitsiyalar - bu real kapitalni ko‘paytirishga, ya‘ni mulkdorning moddiy farovonligini oshirishga, uning moddiy boyligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy resurslar» [5].

Respublikamizdan ushbu soha mutaxassisi D.Tojiboyevaning fikricha, «investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki

qayta ta'mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi» [6].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari B.A.Abdukarimov, A.N.Jabriyev, M.Q.Pardayevlarning yondashuviga ko'ra: «investitsiya - bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag qo'yish. U pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'chma bolmagan mol-mulkka, intellektual mulkka, ne'matlarga bo'lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi» [7].

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalar istiqbolli investitsiyalar bo'lib, barqaror uzoq muddatli daromad keltirishi mumkin, chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa bizning zamonaviy jamiyatimiz tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilishga qaratilgan mahsulotlar har doim qadrlil bo'ladi. Shunday qilib, hozirgi iqtisodiyotda qishloq xo'jaligiga investitsiyalar ko'proq foydali bo'ladi va katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini har doim moliyalashtirish manbalarini topishga harakat qilishi kerak.

Davlat ushbu sohaga investorlarni jalb qilishni qo'llab-quvvatlash uchun bir qator dasturlarni taklif qiladi. Agrosanoat majmuiga kiritilayotgan investitsiyalar tez daromad keltirmaydi. Er tayyorlash, ekin ekish, parvarish qilish, keyin hosilni yig'ish, to'g'ri saqlash va keyinchalik sotishni talab qiladi. Bu bilim, nazorat, ko'nikma va chidamlilikni talab qiladi. Bu sohadagi investitsiyalar ishlab chiqarish investitsiyalari kabi tez foyda keltirmaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini tashqi bozorga e'tibor qaratishlari zarur va o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni bozorga olib chiqish kerak, bu qishloq xo'jaligining o'zi uchun ham, potentsial investorlar uchun ham foydali bo'ladi. Ammo, hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi investitsiyalarni jalb etish etarli darajada emas.

Biroq, oziq-ovqat sohasida import o'rnini bosishni ta'minlash va qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishga kredit resurslarining mavjudligi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi muayyan shartlar bajarilgan taqdirda erishish mumkin.

Respublikaning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi davlatning doimiy e'tiborida bo'lib, o'z navbatida bu mamlakat tashqi siyosati va qishloq xo'jaligi siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu hukumatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining imkoniyatlariga mos keladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishga olib keladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini tartibga solish zarurati qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini inqirozdan olib chiqish va import o'rnini bosishni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi siyosatining majburiy choralari quyidagilarda namoyon bo'ladi, ya'ni hukumatni sanoatni moliyalashtirishga undadi, chunki ko'pchilik qishloq xo'jaligi korxonalarini, shu jumladan past rentabellikka ega korxonalar sezilarli darajada investitsiya oqimiga, shu jumladan juda zarur bo'lgan uzoq muddatli investitsiyalar oqimiga tayana olmaydi.

Ilmiy izlanishlarimizda biz investitsiyalarning asosiy manbalariga e'tibor qaratamiz. Bularning birinchisi, *davlat subsidiyalari*. Hozirgi davrida qishloq xo'jaligi korxonalariga budjet yoki mahalliy qo'llab-quvvatlash dasturlariga e'tibor berish tavsiya

etiladi, ularni amalga oshirish uchun mablag' ajratiladi. Ko'rsatilgan shartlar bajarilgan taqdirda, mablag'lar bepul va qaytarib olinmaydi. Subsidiyalar turli darajadagi budjetlardan, ya'ni budjet, mahalliy budjetlardan, ularni ta'minlash bo'yicha kelishuvlarda ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun taqdim etiladi. Majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, shartnomalar taraflari javobgar bo'ladilar. Qishloq xo'jaligi korxonalarini mablag'larning sarflanishi bo'yicha batafsil hisobotlar taqdim etadilar va o'zlashtirilmagan budjet mablag'larini budjetga qaytaradilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish agentligi hamda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi "Agrosubsiya" axborot tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 16 dekabrda «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga subsidiya berish axborot tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 711-son qarori [7] 2-ilovasida keltirilgan ro'yxat bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga xolislik va shaffoflik tamoyillari asosida subsidiya berish choralari ko'rilmogda: qishloq xo'jaligi korxonalarining sug'urta xarajatlarini qoplash; kreditlar bo'yicha to'langan foizlarni qoplash; dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash; hududiy dasturlarni moliyalashtirish; qishloq hududlarini modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish, rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirish yoki qoplash; melioratsiya rejasini amalga oshirish va h.k. maqsadlarga subsidiya ajratilmogda.

Investitsion kreditlar. «Investitsiya krediti - ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlari normal faoliyat yuritishida zarur bo'lgan qurilish, rekonstruksiya yoki texnikaviy qayta qurollantirish (loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va loyiha ekspertizasini o'tkazish, asbob-uskunalar sotib olish, qurilish-montaj va boshqa ishlar o'tkazilishini o'z ichiga olgan holda) hamda boshqa asosiy fondlarni sotib olish yoki yaratish va shu bilan bog'liq bo'lgan ishchi kapital qismini sotib olish uchun mo'ljallangan kredit» [9]. Investitsiya kreditlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, bankda talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlari mavjud bo'lgan xo'jalik subyektlariga, mulk shaklidan qat'iy nazar, milliy va chet el valyutada bacha tijorat banklari tomonidan taqdim qilinadi. Investitsiya kreditlari qarzdorlarga qaytarishlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli ishlatilishi shartlarida beriladi. Qarzdorlar bankning kredit resurslari samarali ishlatilishi yuzasidan javobgardir. Kreditlash shartlari buzilgan hollarda ularga nisbatan iqtisodiy ta'sir choralari qo'llaniladi.

Moliyaviy ijara. «Moliyaviy ijara – mol-mulkni (moliyaviy ijara obyektini) egalik qilish va foydalanishga on ikki oydan ortiq muddatga shartnoma boyicha topshirishda vujudga keladigan ijara munosabatlaridir» [10]. «O'zagrolizing» aksiyadorlik kompaniyasi (AK) qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan hamkorlik qiladi, ular asbob-uskunalar, naslchilik mollari, mashinalar va ko'chmas mulk sotib olish istagini bildiradilar. Murojaatni ko'rib chiqish va potentsial mijozning to'lov qobiliyatini baholaandan so'ng shartnoma tuziladi va to'lov tartibi belgilanadi.

Xususiy investitsiyalar. Xususiy investitsiyalar - xususiy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar

hisobidan qo'yiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati qisqa muddat ichida nafaqat yetakchi tarmoqlarni texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotda energiya samaradorligini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish, balki eksport salohiyatini yuksaltirish imkonini berdi. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, bu sohaga to'liq erkinlik berish, eng muhim ustuvor vazifa hisoblanmoqda.

Qishloq xo'jaligi investorlarini topishning bir necha usullarini ko'rib chiqamiz:

- ko'p sonli jismoniy shaxslarning bo'sh mablag'larini to'playdigan uyushmalar - tajribali moliyachilar va iqtisodchilar tomonidan boshqariladigan fondlar tuziladi. Mutaxassislar pul investitsiya qilinadigan korxonalarni diqqat bilan tanlaydilar. Shu bilan birga, Jamg'armalar pul yoki qimmatli qog'ozlarni investitsiya qiladigan tanlangan kompaniyalarning aksiyalarini sotib oladi;

- xususiy investorlar va qishloq xo'jaligi korxonalari uchrashuvlari uchun yaratilgan virtual platformalar qiziqish uyg'otadi. Internet xizmatlaridan foydalangan holda g'oyalarni amalga oshirish yoki allaqachon ishlayotgan biznesni rivojlantirish uchun pul yig'ish imkoniyati mavjud. Rejalarni amalga oshirish uchun o'zini qoplash muddati, kapitali ko'rsatilgan loyihani taqdim etish kerak va agar manfaatdor bo'lsa, platforma ishtirokchilari loyihani amalga oshirish uchun pul yo'naltiradilar;

- istiqbolli korxonani moliyalashtirishga tayyor bo'lgan xususiy investorlar bilan uchrashish imkoniyati mavjud bo'lgan konferentsiyalar va forumlar kabi tadbirlarda qatnashish zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'rganish natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni faol jalb etishning foydali yo'llarini izlab topish maqsadida bir qator takliflarni kiritish mumkin.

- hozirgi vaqtda respublikada import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha davlatning qishloq xo'jaligi siyosati amalga oshirilmoqda va qishloq xo'jaligi agrosanoati rivojlanishida ijobiy tendentsiyani qayd etadi;

- davlat dasturlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan budjet mablag'larining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlashga intilish bilan birga, ushbu tadbirlar ijrosiga alohida e'tibor qaratish zarur;

- qishloq xo'jaligi korxonalari zarur subsidiyalarni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq taqdim etishlari kerak.

- budjet mablag'larini to'liq ishlatmaslikning asosiy sabablari qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan subsidiyalar olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar to'plamini o'z vaqtida taqdim etmaslik va talablarga rioya qilmaslikdir.

O'rganishlar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgan yangi innovatsion loyihalarni joriy etish qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni yanada istiqbolli jalb etishga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 25.12. 2019. 3-modda. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>

Alao Marilyn. Investment. <https://byjus.com/commerce/investment/>

Investment in Economics | Overview, Examples & Importance. <https://study.com/learn/lesson/economic-investment-summary-examples.html>

Суъношти инвестициялари. <https://bankiros.ru/wiki/term/susnost-investicij>

Экономическая суъношти инвестициялари, ух сослав и структура. <https://ta-aspect.by/project-materials/sostav-investicij>

Тожибоев Д. Иқтисодий назария (иккинчи китоб). - Т.: Шарқ, 2003. -79 б.

Абдукаримов Б.А. ва бошқалар. Корхона иқтисодиёти (дарслик). -Т.: Фан, 2005. -241 б.

О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 16 dekabrdaги «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga subsidiya berish axborot tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 711-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6315790>

Investitsiya kreditlari. <https://trustbank.uz/uz/corporate/crediting/investment-credit/>

О'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2019 yil 4 martdaги «О'zbekiston Respublikasi Budjet hisobining standarti (6-son BHS) «Ijara»ni tasdiqlash to'g'risida»gi 3142-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/4225533>

Короткова С.Н., Ткач Ю.Б. «Кредитование как одно из направлений финансирования сельского хозяйства в условиях членства в ВТО и санкций» / С.Н. Короткова, Ю.Б. Ткач // В сборнике: Аюшеевские чтения. Финансово-кредитная система: опыт, проблемы, инновации материалы международной научно-практической конференции, 75-й ежегодной научной конференции профессорско-преподавательского состава и докторантов, 27-й научной конференции аспирантов и 77-й научной конференции студентов и магистрантов (секция финансово-экономического факультета): в 2 томах. - 2016. С. 124-131.

ВАЗИРЛИК ВА ИДОРАЛАРДА ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

М.Жалолиддинов

Тошкент молия институти
мустақил изланувчиси

Сўнгги йилларда давлат молиявий ресурсларни самарали бошқариш, бюджет маблағларидан мақсадли ва оқилона фойдаланиш ҳамда давлат бюджети харажатларининг самарадорлигини ошириш юзасидан кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда.

Ушбу ислохотлар доирасида бевосита вазирлик ва идоранинг молиявий фаолиятини яхшилашга масъул бўлган ички аудит тузилмаларини (кейинги ўринларда – ички аудит хизматлари) ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини тартибга солишга оид норматив – ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинмоқда.

Вазирлик ва идоралар кўлами, давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар ҳажми, ходимлар сони ва бошқа кўплаб мезонлардан келиб чиқиб, вазирлик ва идораларда ички аудит хизматларини ташкил этиш ўзига хос ёндашувни талаб этади.

Бу борада хорижий мамлакатлар қонунчилиги ўрганганилганда вазирлик ва идораларда ички аудит хизматларини ташкил этиш бўйича айрим мезонларнинг белгиланганлигини кўриш мумкин. Жумладан, Қозоғистон Республикаси қонунчилигида ички аудит хизматлари вазирлик ва идора раҳбари қарори билан вазирлик ва идора ходимлари сонидан келиб чиқиб ташкил этилиши белгиланган. Шунингдек, Литванинг “Ички назорат ва ички аудит тўғрисида”ги қонунига мувофиқ ички аудит хизматларини ташкил этиш вазирлик ва идоранинг

ходимлари сони 200 кишидан кам бўлмаган тақдирда мажбурий ҳисобланади. Черногория “Давлат ички аудити тўғрисида”ги қонунига кўра ички аудит хизматлари ходимлар сони 200 нафар ходимдан ҳамда йиллик харажати 5 млн евродан кам бўлмаган вазирлик ва идораларда ташкил этилиши мажбурий ҳисобланади.

Шу билар бирга хориж мамлакатларида давлат секторида ички аудит хизматлари бюджет маблағларларини тақсимловчиларда мажбурий тартибда ташкил этилиши ҳамда ички аудит хизмати ходимлари сони 3 нафардан кам бўлмаслиги белгиланган.

Бугунги кунда мамлакатимизнинг 30 дан ортиқ вазирлик ва идораларида ички аудит хизматлари ташкил этилган бўлиб, уларда 300 га яқин ички аудит хизмати ходимлари фаолият юритмоқда. (1-жадвал)

1-жадвал

Вазирлик ва идоралар ички аудит хизматлари тўғрисида маълумот²⁴⁵

№	Вазирлик ва идоралар	Ташкил этилган ИАХ	Штаб бирликлари сони	Шундан	
				Марказий аппаратда	Худудларда
1	Вазирликлар	14	192	122	70
2	Қўмиталар	8	31	17	14
3	Агентликлар	8	16	16	0
4	Бошқа ташкилотлар	5	47	13	34
	Жами	35	286	168	118

Миллий қонунчилигимизга кўра ички аудит хизматлари ташкил этилишининг ҳуқуқий асослари бўлиб қуйидаги асосий норматив – ҳуқуқий ҳужжатлар ҳисобланади:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 августдаги ПҚ-3231-сон “Таълим ва тиббиёт муассасаларини молиялаштириш механизмини ҳамда давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 декабрдаги ПҚ-4938-сон “Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори;

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 августдаги 416-сон “Вазирлик ва идораларнинг ички аудит хизмати тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори.

А) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 августдаги ПҚ-3231-сон “Таълим ва тиббиёт муассасаларини молиялаштириш механизмини ҳамда давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги

²⁴⁵ Жадвал муаллиф томонидан тайёрланган.

қарори билан 2017 йил 1 сентябрдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг Ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасида ички аудит хизматлари ташкил этилди.

Бунда ички аудит хизматлари республика даражасида 3 штат бирлигидан ҳамда ҳудудий даражада 1-4 штат бирлигидан иборат таркибда ташкил этилди.

Б) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 декабрдаги ПҚ-4938-сон “Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан ривожлантириш дастурларининг самарадорлиги натижаларини таҳлил қилиш мақсадида вазирликлар ва идоралар марказий аппаратлари тузилмасида ички аудит хизматлари жорий қилиниши белгиланди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги ПҚ-73-сон “Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан 40 та биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларнинг мақсадли индикаторлари тасдиқланди ҳамда мақсадли индикаторларнинг бажарилишини баҳолаш вазирлик ва идораларнинг ички аудит хизматларига юклатилди;

Юқоридаги қарорларга мувофиқ қарор билан белгиланган мақсадли индикаторларни ижросини баҳолаш мақсадида вазирлик ва идораларда ички аудит хизматлари ташкил этилди.

В) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 августдаги 416-сон “Вазирлик ва идораларнинг ички аудит хизмати тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарорида ички аудит хизматлари ташкил этилиши билан боғлиқ асосий нормалар белгилаб қўйилди. Жумладан,

а) ички аудит хизмати вазирлик ва идоралар **марказий аппаратида мустақил таркибий тузилма** сифатида ташкил этилади;

б) ички аудит хизматини ташкил этмасдан **ички аудит фаолиятини бошқа таркибий тузилмаларга юклашга йўл қўйилмайди;**

в) ички аудит хизмати вазирлик ва идораларнинг **асосий фаолияти натижаларига жавобгар ҳисобланмайди;**

г) ички аудит хизмати бевосита **вазирлик ва идоранинг биринчи раҳбарига бўйсунди.**

Ички аудит хизмати фаолиятига вазирлик ва идораларнинг бошқа мансабдор шахслари, шунингдек, бошқа давлат органлари, ташкилотлар ва уларнинг мансабдор шахслари аралашувига йўл қўйилмайди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда давлат секторида ички аудит хизматларини ташкил этиш, уларнинг фаолиятини тартибга солиш юзасидан ислохотлар давом этмоқда. Келгусида бу соҳада амалга оширилиши лозим бўлган ишлар, ҳал қилиниши лозим бўлган масалалар талайгина. Шу ўринда асосий мавзудан четга чиқмаган ҳолда давлат секторида ички аудит тузилмаларини

ташкил этиш бўйича қуйидаги масалалар ўз ечимини топиши зарур деб ҳисоблаймиз:

- вазирлик ва идораларда ички аудит хизматларини ташкил этиш мезонларини белгилаш, жумладан айнан қайси бюджет ташкилотларида ички аудит хизматларини ташкил этиш ёки қайси мезонлар асосида ташкил этиш;

- вазирлик ва идораларда ташкил этилган ички аудит хизматларида ишловчи ходимлар сонини белгилаш, яъни ходимлар сонини белгилашда қандай мезонларга амал қилиш;

- вазирлик ва идораларда ташкил этилган ички аудит хизматларининг давлат молиявий назорати органлари билан муносабатлари тартибини белгилаш;

- ички аудит хизматлари ташкил этилмаган ёки ташкил этилиши кўзда тутилмаган вазирлик ва идораларда ички аудитни амалга ошириш тартибини белгилаш.

Юқоридаги масалалар юзасидан бугунги кунда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Давлат органлари ички аудит тузилмалари фаолиятини ривожлантириш ва мувофиқлаштириш бошқармаси томонидан ички аудит соҳасидани халқаро экспертлар билан биргаликда норматив – ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқиш ҳамда тегишли қонунчилик ҳужжатларига ўзгартиришлар бўйича ишлар амалга оширилмоқда. Келгусида давлат секторида ички назорат ва ички аудит тўғрисидаги нормаларни ўз ичига олувчи қонун лойиҳаси, халқаро ички аудит стандартлари асосида ички аудит миллий стандартлари, ички аудит тадбирларини ўтказиш бўйича қўлланма ва бошқа норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда методик кўрсатмалар, йўриқномалар ишлаб чиқиш режалаштирилган.

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Д.Содиқова
ТМИ магистранти

Мамлакатимизда кейинги йилларда аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишга кенг эътибор қаратилмоқда. Бу борада давлатимиз раҳбари ва ҳукуватимиз томонидан кўпгина ҳужжатлар қабул қилинди. Хусусан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-3946-сон қарорининг қабул қилиниши мамлакатимизда аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ўтказишга тўртки берди. Мазкур қарордан сўнг 2021 йил 25 февралда «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-677-сон Ўзбекистон Республикасининг Қонуни қабул қилинди. Мазкур Қонуннинг илгариги таҳрирлардан аудит соҳасида мавжуд бўлган барча ҳужжатларни ўз ичига камраб олганлиги билан фарқланади. Қонунда аудит принциплари таркибига ўзгаришлар киритилди. Шунингдек мазкур Қонунда аудиторлик текширувига таъриф

берилган, мажбурий аудиторлик текширувидан ўтадиган субъектлар ва уни ўтказиш муддати ўзгартирилган.

Юқорида санаб ўтилган ҳужжатлардан кейин Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 11 апрелдаги 171-сон қарорининг 1-илоvasи билан «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисида НИЗОМ» тасдиқланди. «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонун ва Мазкур Низом ҳужжат билан мамлакатимизда аудиторлик текширувларини фақат халқаро стандартлар асосида ўтказилиши мажбурийлиги белгиланди.

Аудитнинг халқаро стандартлари Халқаро бухгалтерлар федерацияси томонидан ишлаб чиқилади. Мазкур стандартлар дунёнинг деярли барча давлатларида қўлланилади. Умуман олганда аудитнинг халқаро стандартларини қўллашнинг аҳамияти қуйидагиларда ўз аксини топади:

Халқаро стандартлар асосида тузилган аудиторлик хулосалари барча учун тушунарли бўлиб, хорижий инвесторлар учун тушунарли бўлади, бу эса инвестицион жозибadorлик ошишига олиб келади;

аудиторлик текширувларининг халқаро стандартлар асосида ўтказилиши унинг сифатининг ошишига ҳамда аудиторлик рискининг пасайишига олиб келади;

халқаро стандартларнинг қўлланилиши мамлакатимизда фаолият кўрсатувчи субъектларнинг жаҳон бозорига интеграциялашув жараёнини кучайтиришга хизмат қилади.

Демак аудиторлик текширувларининг халқаро стандартлар асосида ўтказилишини фақат ижобий ҳолат деб баҳолашимиз мумкин.

Товар-моддий захиралар аудитини самарали ташкил қилиш орқали хўжалик юритувчи субъектларда маҳсулот таннархини камайтиришга, фойда миқдорини оширишга ҳамда молиявий барқарорлик кўрсаткичларининг яхшиланишига эришиш мумкин. Шу боисдан товар-моддий захиралар аудити методологиясини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш муҳим ҳисобланади. Қуйида товар-моддий захиралар аудитининг норматив-ҳуқуқий базаси ва унда халқаро стандартларнинг тутган ўрнига эътибор қаратамиз.

Товар-моддий захиралар аудитининг вазифалари асосида аудит текшируви режасини тузиш ва ўзгартириш зарур. Умумий аудит режаси аудиторлик дастурини ишлаб чиқишни йўлга қўйиш учун етарлича батафсил бўлиши керак. Унда товар-моддий захиралар аудитини ўтказиш стратегияси акс эттирилади. Аудит дастури режалаштирилган амаллар, ўтказиш вақти ва аудит ўтказиш учун масъул шахсларни қамраб олади. Аудит дастурига ҳар бир аудит объекти учун молиявий ҳисоботлар тайёрлаш, турли соҳалар учун режалаштирилган муддатлар ёки аудит амаллари ҳам киритилиши мумкин.

Таъкидлаш жоизки, товар-моддий захиралар аудитни ўтказиш режалаштириш жараёнидан бошланади. Товар-моддий захиралар аудитини режалаштириш аудиторлик текширувининг муҳим йўналишларини аниқлаш имконини беради.

Товар-моддий захиралар билан операциялар аудитини режалаштириш

умумий режа ва аудит дастурини ишлаб чиқишни ўз ичига олади. Аудитни режалаштириш ва амалга ошириш жараёнида аудитор аудит ўтказилаётган корхонанинг раҳбарияти шубҳали, деб таъкидламаслиги, лекин раҳбарият мутлақо ҳалол эмас, деб ҳисобламаслиги керак.

Аудиторлик текшируви одатда муддат бўйича чекланади. Шунинг учун ижобий натижа бериш учун унга яхши тайёрланиш керак. Тўғри тайёргарлик етарли даражада самарали ва унумли аудит усуллари қўлланилишига ишонч яратадиган бундай тайёргарликнинг муҳим воситасидир.

Аудитор дастлабки режалаштириш босқичининг барча амалларини бажаргач, аудит режаси ва дастурини ишлаб чиқиши керак. Демак, аудиторлик текширувларини режалаштириш жараёни субъект фаолиятига дастлабки баҳо беришдан тортиб, ички назорат тизимини ўрганиш, муҳимлик ва риск даражаларини аниқлашни ҳам камраб олиши керак. Мазкур жиҳатларнинг тўлиқ эътиборга олиниши аудит умумий режаси ва дастурининг пухта тузилишига хизмат қилади.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI G‘AZNACHILIGI VA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI O‘RNATISH

U.N.Baxavutdinova

Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti talabasi

O‘zbekiston Respublikasi hukumati moliyalashtirish sohasida yangi texnologiyalardan foydalanishni va moliyalashtirish jarayonlarini rivojlantirishni hamda moliyaviy boshqaruv sohasidagi islohotlarni amalga oshirishni rejalashtiradi. Bunday qadam orqali g‘aznani moliyalashtirish jarayonlarini yanada tezlashtirish, moliya hisobotlarini elektronlashtirish, soliq siyosatini rivojlantirish, davlat xarajatlari va daromadlari boshqarishni yanada samarali va samarador qilish maqsadga muvofiq amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g‘azna ijrosida axborot texnologiyalarini joriy qilishga oid qonunlardan biri - "O‘zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to‘g‘risida"gi qonuni, 2003-yil 11 dekabr. Ushbu qonunning maqsadi - axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

G‘aznachilikda dasturiy ta‘minot quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida qayta ishlash;
- foydalanuvchilarning axborot resurslari bilan interaktiv rejimda o‘zaro hamkorligini tashkil etish;
- ishonchli himoyani ta‘minlash: ruxsatsiz kirishdan, kompyuter viruslaridan moliyaviy ma'lumotlar.

Bugungi kunda axborot tizimida xavfsizlik muammosi va axborotni muhofaza qilish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Xususan, axborot tizimlarida axborot xavfsizligi asosiy tahdidlariga quyidagilar kiradi:

- maxfiy axborotni oshkor qilish;
- axborot resurslaridan ruxsatsiz foydalanish;
- axborot resurslaridan noto'g'ri foydalanish;
- ruxsatsiz axborot almashinuvi;
- xizmat ko'rsatishdan bosh tortish.

Ushbu tahdidlar bilan bog'liq holda, axborotni himoya qilishning asosiy tizimini yaratish G'aznachilik organlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- tizimni qurish va ishonchliligini ta'minlashga kompleks yondashuv;
- qayta ishlangan axborotga kirish va qayta ishlash tartib-qoidalariga bo'lgan vakolatlarni ajratish va minimallashtirish;
- nazorat va ro'yxatga olishning to'liqligi;
- ruxsatsiz kirishga urinishlar;
- himoya tizimining "shaffofligi";
- iqtisodiy maqsadga muvofiqligi.

Islom Karimovning 2010-yil 26-noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori sohadagi yangiliklarni faol tatbiq etish bo'yicha harakatlarning muhim qo'llanmasi bo'lib, farmonga muvofiq, Ipoteka banki va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi mutaxassislari tomonidan birgalikda yaratilgan elektron ro'yxatga olish tizimi yaratildi.

Ushbu tizim budjet korxonalarini va tashkilotlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni avtomatik ravishda UzASBO dasturi (O'zbekistondagi budjet tashkilotlarining avtomatlashtirilgan tizimi) orqali bankda ochilgan plastik kartalarga hisoblab chiqadi. Tizimning afzalligi shundaki, electron raqamli imzo bilan tasdiqlangan ish haqi to'g'risidagi hisobotlar maxsus himoyalangan kanal orqali UzASBO dasturi orqali banklarga yuboriladi, bu yerda mablag' avtomatik ravishda mijozlarning plastik kartalariga o'tkaziladi.

Quyidagi takliflarni joriy etish tavsiya etiladi:

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari orqali moliyalashtirishni tartibga soluvchi yagona dasturni mukammal tarzda ishlab chiqish va amaliyotga samarali tarzda tatbiq etish (yanada takomillashtirish).

Jahon amaliyotida sinab kelinayotgan va yetarlicha samara berayotgan bu dastur korrupsion holatlarni oldini olish uchun muhim bir vosita bo'lib, ish sifatini yaxshilash va unumdorlikni oshirishga yordam beradi. Korrupsion holatlarni kamaytirish orqali, hukumat va tashkilotlar ish sifatini oshirish, xizmatlarni ko'rsatish va ma'muriyatni oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni saqlab qolishadi. Bu esa mamlakatimizning rivojlanishiga va insonlarning hayot sifatini yaxshilashiga imkon beradi.

Axborot tizimida xavfsizlik muammosi va axborotni muhofaza qilish, maxfiy axborotni oshkor qilinishini oldini olish naqsadida dasturga E-imzo shaxsiy kalit orqali kirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

20.03.2007 dagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizom A.J.Tuychiyev, A.A.Ostonokulov, K.Sh.Ibragimov, A.S.Tursunov "Budjet hisobi".
"O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, 2003-yil 11 dekabr.

XALQ TA'LIM TIZIMI MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING DOLZARBLIGI VA ZARURATI

G.D.Narbekova
TMI mustaqil izlanuvchisi

Jahonda davlat byudjeti davlat sektoridagi tashkilotlar va byudjetdan mablag' oluvchilarni moliyaviy jihatdan ta'minlash hamda davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun shakllantiriladi. Xalqaro valyuta jamg'armasining 2023 yil aprel oyidagi hisobotiga ko'ra, «Geosiyosiy voqe'liklar natijasida hayotiy zarur iqtisodiy resurslarni taqsimlash bilan bog'liq noaniqliklarning ortib borishi davlat byudjeti mablag'larini ijtimoiy sohaga yo'naltirish hajmini oshirish, mablag'lar sarfiga oid hisobdorlik va axborotlarning ochiqligini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda»²⁴⁶. Dunyo amaliyotida ijtimoiy soha tarkibida ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish eng asosiy yo'nalishga aylanib bormoqda. Ushbu sohaga tegishli tashkilotlarni moliyalashtirish davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash ularning hisobi va nazoratini samarali tashkil etishga bilan bog'liq. Shu boisdan, jahonning aksariyat mamlakatlarida byudjet hisobi va nazoratini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida rivojlantirish yuzasidan islohotlar amalga oshirilmogda.

Jahonda xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ushbu izlanishlarda byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishning o'ziga xos yo'nalishlari va xususiyatlari, byudjetdan tashqari mablag'larning sarflanishini davriy hisobga olib borish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va ularning ochiqligini ta'minlash, byudjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va sarflanishiga oid hisob va hisobot ko'rsatkichlarining ishonchligini ta'minlash masalalari keng ochib berilgan. Ammo, xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning shakllanish manbalari hamda ularning sarflanish yo'nalishlarini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari yetarlicha ochib berilmaganligi ushbu mavzuda keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.


O'zbekistonda xalq ta'limi tizimida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmogda, xususan, «xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, xalq ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib

²⁴⁶ International Monetary Fund (IMF). 2023. World economic outlook. Washington, April. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/04/11/world-economic-outlook-april-2023>

sharoitlarni yaratish, zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo‘li bilan nodavlat xizmatlarni ko‘rsatish»²⁴⁷ kabi qator vazifalar belgilangan.

Xalq ta‘lim muassasalarini faoliyatini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag‘larning ahamiyati va zarurligidan kelib chiqib, ushbu mablag‘larni shakllantirish, tasarruf etish va ularni sarflash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qator normativ huquqiy-hujjatlar ishlab chiqilgan. Xususan, “Xalq ta‘limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2021-yil 27 apreldagi 243-son bilan qabul qilingan nizomda xalq ta‘limi tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish »²⁴⁸ hamda, O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta‘limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida pullik ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi 2019 yil 22 apreldagi 343-son bilan qabul qilingan nizomda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida pullik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish va ularni sarflash maqsadlari ko‘rsatilgan»²⁴⁹.

Xalq ta‘lim muassasalarini byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha bir moliya yili uchun tuziladigan daromadlar va xarajatlar smetalari asosida moliyalashtiriladi. Xalq ta‘lim muassasalarida quyidagi byudjetdan tashqari mablag‘larning turlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi (2-rasm).



2-rasm. Xalq ta‘limi muassasalarini tomonidan byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tuziladigan daromadlar va xarajatlar smetalari tarkibi²⁵⁰

Xalq ta‘lim muassasalarining har bir byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha tuziladigan smeta ikki qismdan iborat bo‘ladi, ya‘ni daromad (tushum)lar va xarajatlar rejasi. Daromad(tushum)lar rejasida moliya yili davomida kutilayotgan daromadlarning turlari bo‘yicha tushumlar prognozi keltiriladi. Xarajatlar qismida esa, xalq ta‘lim muassasalarining moliya yili boshidagi shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idagi byudjetdan tashqari mablag‘ qoldig‘i va moliya yili davomida kelib tushishi kutilayotgan mablag‘lar hajmidan kelib chiqqan holda xarajatlarning rejasi aks etadi. Xalq ta‘lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarning xarajatlar qismini shakllantirishda

²⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2018 yildagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Pf-5538-son Farmoni

²⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘lim tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (2021 yil 27-aprel, 243-son)

²⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘lim vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida pullik ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (2019-yil, 22aprel, 343-son)

²⁵⁰ Normativ huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

bevosita, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosidagi hisob-kitoblarga tayaniladi. Xalq ta'lim muassasalariga yuqori turuvchi vazirlik, idora, qo'mita, boshqarmalar hamda moliya organida tizim tashkilotlari kesimidagi byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha jamlanma smeta hamda har bir tashkilotning smetasini ro'yxatdan o'tkazishda xalq ta'lim muassasalarining buxgalteriya hisobi axborot tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Xalq ta'lim muassasalarida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha faoliyat turiga xos ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar yuzasidan xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Shuningdek, bo'sh turgan asosiy vositalarni ijaraga berish, ikkilamchi hom-ashyolarni sotish bilan bog'liq jarayonlarda ham hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Byudjet tizimida byudjet soliq yukini kamaytirish, byudjet xarajatlarini optimallashtirish bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirishda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, davlat byudjetidan moliyalashtiriluvchi xalq ta'limi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, xalq ta'limi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar turlari va ularning ulushini ko'paytirish ularning faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

PARRANDACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH ISTIQBOLLARI

O.A.Albekov

*“Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik
rivojlanish va tadqiqotlar” xalqaro markazi
mustaqil izlanuvchisi*

So'nggi yillarda parrandachilik tarmog'ini rivojlantirish uchun respublika hukumati tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4015-son [1], 2021-yil 14-iyundagi «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5146-son [2], 2022-yil 15-iyundagi «Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-281-son, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin [3]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sohaning mustahkam huquqiy bazasini tashkil etadi.

Parrandachilik agrosanoat majmuining tejamkor tarmoqlaridan biri bo'lib, bunda nisbatan mahsulot birligiga kam mehnat va xarajat evaziga yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Zamonaviy sharoitda bu soha yuqori darajadagi sanoatlashganligi, ishlab chiqarishning chuqur ixtisoslashuvi va kontsentratsiyasi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda parranda go'shti go'sht balansida etakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, parranda go'shti

mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish jarayoni foydani yo‘qotish, korxonalarining to‘lovga layoqatsizligi va bankrotlikka olib keladigan vaziyatlar ehtimoli bilan chambarchas bog‘liq.

Bugungi kunda parrandachilik samaradorligini uchta nuqtai nazardan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi: tarmoqning samaradorligi (davlat idoralari tomonidan tartibga solinadi), parrandachilik korxonasi samaradorligi (korxonalar rahbariyati tomonidan tartibga solinadi), mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi (davlat-xususiy sheriklikka asoslangan mexanizm bilan tartibga solinadi).

Tarmoq, korxonalar va parrandachilik mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligiga iqtisodiy va tashkiliy omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Ba‘zi omillar (jahon narxlari, O‘zbekiston bozorida parrandachilik mahsulotlarini ilgari surish bo‘yicha xorijiy davlatlarning siyosati) hisobga olinishi kerak, boshqa omillar (O‘zbekiston oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish bo‘yicha qishloq xo‘jaligi siyosati, parrandachilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, kreditlarning miqdori va foizi va boshqalar) tarmoqni rivojlantirish uchun sharoit yaratishda davlat organlaridan foydalaniladi.

Parrandachilik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining samaradorligi, bu qarorni tayyorlash va qabul qilishning qimmatini va o‘z vaqtida bajarilishini o‘z ichiga oladi;

- tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ishonchliligi, texnika va ish usullarining ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy darajasiga muvofiqligi;

- kadrlarning tayyorgarlik darajasi, amaliy tajribasi va barqarorligi;

- xo‘jaliklarda gradatsiya (ierarxiya) asoslilikini, shuningdek, boshqaruvni markazlashtirish va markazsizlashtirish nisbatlarini o‘z ichiga olgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining optimalligi, muayyan shartlar, nazorat qilish standartlari va boshqalar.

Tarmoq ko‘rsatkichlarining rivojlanishi va o‘shirishiga yordam beradigan asosiy omillar:

- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash - kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash, imtiyozli soliqqa tortish, bojxona va tarif siyosati choralari;

- xususiy investitsiyalarning o‘shirishi;

- aholi o‘rtasida parranda go‘shiga bo‘lgan talabning oshishi.

Parrandachilik ishlab chiqarish samaradorligi mexanizmi maqsadli respublika va hududiy parrandachilikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqarish va amalga oshirishda strategik vertikalni ta‘minlashi kerak. Davlat organlari resurs va oziq-ovqat bozorlari tartibga solinishi, subsidiyalangan kreditlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan boshqa vositalarning o‘z vaqtida olinishini ta‘minlashi, parrandachilik bilan shug‘ullanuvchi qishloq xo‘jaligi korxonalar rahbariyati esa ularning kreditga layoqatliligini saqlab turishi va malakali mutaxassislar jamoasini shakllantirishi, mutaxassislar, texnik va texnologik modernizatsiya qilish uchun budjet mablag‘larining kelib tushishi va samarali ishlatilishini ta‘minlashi shart [4].

Shuning uchun parrandachilik samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun mahsulot bozorlarini samarali boshqarish va monitoringini, marketing tadqiqotlarini tashkil etish zarur. So‘nggi o‘n yillikda qishloq xo‘jaligining deyarli barcha tarmoqlariga ta‘sir ko‘rsatgan iqtisodiy inqiroz tuxum va parranda go‘shisi ishlab chiqarishning keskin

pasayishiga olib keldi, ammo parrandachilik bugungi kunda oziq-ovqat resurslarini to'ldirishning eng real manbai bo'lib qolmoqda. Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar o'sish sur'atlarini yana oshirib, parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirmoqda, shu bilan birga ularning tannarxini kamaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha parrandalar bosh soni 2019 yilda 87859,7 ming bosh, 2020 yilda 89589,7 ming bosh, 2021 yilda 91935,0 ming bosh va 2022 yilda 97351,5 ming boshni tashkil etgan. Mamlakatimizda parrandalar soni 2022 yilga 2019 yilga nisbatan 9491,8 ming bosh (10,8 %)ga oshgan.

Tuxum yetishtirish agrosanoat majmui tarmog'i sifatida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholini hayvonlardan kelib chiqqan to'liq oqsil bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Oz'bekistonda 2019 yilda 7771,2 mln. dona, 2020 yilda 7781,2 mln. dona, 2021 yilda 7788,4 mln. dona va 2022 yilda 8129,2 mln. dona tuxum etishtirilgan. Respublika bo'yicha 2022 yilga 2019 yilga nisbatan tuxum etishtirish 358 mln. dona (4,6 %)ga ko'paygan [5].

Parrandachilik sanoatidagi zamonaviy texnologiyalar qisqa vaqt ichida parranda go'shti va tuxumining mahalliy ishlab chiqarish hajmini nafaqat miqdoriy ko'paytirish, balki ularni xarajat narxini qisqartirish imkonini ham beradi.

Parranda go'shtiga bo'lgan talabning doimiy o'sib borishi uning iste'mol xususiyatlari bilan ham, boshqa turdagi go'sht mahsulotlariga nisbatan iste'mol narxlarining sezilarli darajada pastligi bilan izohlanadi. Parranda go'shti aholining kam maosh oluvchi qatlamlari uchun ancha qulay.

Mamlakatimizda parranda go'shti bozorining to'yinganligi bugungi kunda ikki yo'nalishda amalga oshirilmog'da: 2023 yilda mahalliy ishlab chiqaruvchilar yetkazib berayotgan parranda go'shti (87 % ga yaqin)ni, import mahsulotlari (12 % dan ko'proq)ni tashkil etmoqda. Shu o'rinda mahalliy parrandachilik iqtisodini yo'lga qo'yish uchun parranda go'shti importini cheklashning hayotiy zarurati to'g'risida gapirish kerak. Respublikada bunga teskari harakatlar amalga oshirilmog'da.

«2022 yilning yanvar-may oylarida O'zbekistonga 17 ta davlatdan qiymati 19,3 mln AQSh dollariga teng bo'lgan qariyb 20 ming tonna parranda go'shti import qilingan. Qayd etilishicha, parranda go'shti importi o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 966 tonnaga oshgan. 2022 yilning dastlabki 5 oyida O'zbekiston eng ko'p parranda go'shtini import qilgan davlatlar orasida Polsha yetakchilik qilmoqda - 5,5 ming tonna. Ushbu ko'rsatkich qolgan davlatlar kesimida quyidagicha ko'rinish oldi: Turkiya - 3,4 ming tonna; Rossiya - 3 ming tonna; Belgiya - 2,3 ming tonna; AQSh - 1,8 ming tonna; Niderlandiya - 858 tonna; Litva - 690 tonna; Germaniya - 443 tonna» [6].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ixtisoslashtirilgan parrandachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy rivojlanishini, ularning muayyan sharoitlarda faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini baholash, shuningdek, parrandachilik sanoatining samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini va parrandachilik mahsulotlari uchun bozor kon'yunkturasini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

«Savdo bozorlarini rivojlantirish va mahsulot turlarini kengaytirishning o'ziga xos iqtisodiy sharoitida parrandachilik korxonalarida o'z marketing xizmatlarini yaratish alohida ahamiyatga ega. Mahsulot aylanmasini to'liq tezlashtirish faqat o'zimizning

chakana tarmoqlarimizni yaratish orqali tarqatish kanallarini qayta taqsimlashdan foydalanish orqali mumkin. Agar bu yaqindan amalga oshirilsa, ular katta to'g'ridan-to'g'ri foyda oladilar, chunki xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri moddiy va mehnat xarajatlarini, shuningdek, parrandachilikni boshqarish va saqlash uchun qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga oladi» [7].

Bozor sharoitida korxonaning o'zini-o'zi ta'minlash va o'zini o'zi moliyalashtirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar ishlab chiqarishni iste'molchilar va raqobatchilarga yo'naltirish, o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchan moslashishdir. Bozordagi shiddatli raqobat korxonani ishning o'rnatilgan tamoyillari va usullarini qayta ko'rib chiqishga, ishni tashkil etish va boshqaruv uslubini rivojlantirishning yangi darajasiga ko'tarilishga majbur qiladi. Daromadni oshirish uchun har bir qayta taqsimlash jarayonini, ishlab chiqarish sikli jarayonini moslashtirish, foydaliroq resurslarni tejoychi texnologiyalarni tanlash, mahsulotni sotish yo'nalishlarini tahlil qilish va hokazolar zarur.

Umuman olganda, respublikada parrandachilik korxonalari faoliyatini qayta ko'rib chiqish, ustuvor yo'nalishlarni o'zgartirish va takomillashtirishning yangi usullarini izlash talab qilinmoqda. Tarmoqni rivojlantirish tendentsiyalarining tahlili tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi rivojlantirish istiqbollari integratsiya jarayonlarini takomillashtirishga bog'liqligini ko'rsatdi. Iqtisodiy barqaror rivojlanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishga asoslangan yaxlit tizimni rivojlantirishning yakuniy natijasi sifatida parrandachilikda integratsiya va sinergik samarani ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, parrandachilik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi elementlarning kombinatsiyasi sifatida ifodalanishi mumkin: tashkiliy-iqtisodiy tartibga solish, tashkiliy tuzilma, moliyaviy oqimlarni boshqarish usullari va vositalari; parrandachilik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik rejalashtirish va kreditlash.

Parrandachilik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bozor munosabatlari sharoitida raqobat zarurati bilan bog'liq. Parrandachilikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish korxonalarining yangi iqtisodiy sharoitlarga tez moslashishiga yordam beradi, iqtisodiy mustaqillik va tegishli rag'batlantirish va manfaatlar tizimini rivojlantiradi, parrandachilik tarmog'ining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4015-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4058735>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-iyundagi «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5146-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5457613>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi «Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-281-son Qarori. <https://lex.uz/docs/6066678>

Малышева Е.Н., Завгороднева О.В. Факторы повышения эффективности производства продукции птицеводства // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий, 2010.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2019-2022. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Toshkent-2023. -290 b.

O'zbekistonga parranda go'shti asosan Polshadan olib kelinmoqda. <https://m.kun.uz/uz/news/2022/06/20/ozbekistonga-parranda-goshti-asosan-polshadan-olib-kelinmoqda?ysclid=ls47jinct2901432>

Будаева Л.А., Дусаева Е.М. Пути повышения экономической эффективности производства продукции птицеводства на основе снижения себестоимости – Оренбургский государственный аграрный университет, 2010, № 25-1. - С. 148 - 150.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF INNOVATION

M.B.Ergasheva

is a graduate student of Tashkent State Agrarian University with a degree in Bioeconomics

Today, much attention is paid to innovative development in our country. As noted by the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev, "Today we are moving towards innovative development aimed at radically improving all spheres of life of the state and society. And this is natural. After all, who wins in today's rapidly developing world? Only the state that relies on a new thought, a new idea, an innovation. Innovation means the future. If we are starting to build our great future today, we must do it primarily on the basis of innovative ideas, an innovative approach" [1], and this is a high expression of attention to creating an innovative environment.

Today, in regulatory legal documents, educational and scientific literature, there are different approaches to such concepts as "innovation", "innovative activity", "innovative development". Based on them, we will study the definitions of the concept of innovation, given in regulatory legal documents, scientific and theoretical views of economists of Hroriz and our republic.

The Law of the Republic of Uzbekistan "On Innovation activity" gives the basic concepts of innovation and notes that "innovation is a new development introduced into civil circulation and used for its own needs, the implementation of which in practice ensures the achievement of significant social and economic effects" [2].

In the explanatory dictionary of the Uzbek language, "Innovation [English Innovation-introduced novelty, invention] is cited as 1. Economy. Funds spent on the economy in order to introduce new types (generations) of equipment and technologies. Advanced techniques and technologies, innovations in management and other fields and their application in various fields" [3]

The origin of the term "innovation" comes from the Latin word "novatio", which means "renewal" or "change", and the suffix "in" comes from the Latin word meaning "in the direction", therefore the meaning of the word "innovation" is "in the direction of

change" [4]. In an economic sense, "innovation" is an innovation introduced to ensure high-quality and efficient growth of processes or products in demand in the market.

In the economic literature, the term "innovation" was first used by the foreign economist Joseph Schumpeter, who in his research papers expressed the essence of innovation as follows: "innovation is changes aimed at introducing new types of consumer goods, vehicles, markets and new forms of production organization" [5]. In J. Schumpeter's work "The Theory of Economic Development", published in 1982, innovation was considered as a means of entrepreneurship in order to make a profit.

In his opinion, "entrepreneurship is called business entities that implement new combinations (innovations). Later, for the first time, he identified five features of economic growth, namely: the use of new equipment and technologies in production, the introduction of products with new properties, the use of new types of raw materials, the change in the organization of production and its logistical support, the emergence of a market for new products" [6].

In general, there is no single definition and approach to the concept of innovation. The most abstract form of the approach is given by foreign professor V.R. Spencer: "innovation is something completely new in a specific situation" [7]. This definition includes the following three important things: innovation is a phenomenon that is new to people and they have something to do with it, innovation is a phenomenon that we perceive, and, thirdly, innovation is a phenomenon that we can use.

Academic economist N.D.Kondratiev is one of the first scientists to study the problems of innovation in the Russian Federation. He introduced the concept of a "long wave" [8], characterizing innovations that fundamentally affect the development of global industry, which is typical for innovations. By such innovations, he meant the invention of steam engines, the construction of railways, electric grids and automobile factories.

According to foreign expert B. Santo, "Innovation is a social, technical and economic process that, through the practical use of ideas and inventions, leads to the creation of products and technologies that are the best in their properties" [9]. According to foreign economists E.A.Utkin, N.I.Morozova, G.I.Morozova, "Innovation usually means an object introduced into production as a result of research or discovery qualitatively different from the previous analogue" [10].

According to foreign experts F.F.Bezdudny, G.A.Smirnova and O.D.Nechaeva, "Innovation is the process of implementing a new idea in any sphere of human activity that contributes to meeting existing needs in the market and brings economic effect" [11].

There are also a number of approaches to the interpretation of the concept of innovation from the point of view of agriculture, in which there are many controversial and controversial points. In particular, according to economist A.L. Suvorova, "Innovation is the use of the results of scientific research and development aimed at improving the process of production, economic, legal and social relations in the field of science, culture, education and other fields of activity" [12].

According to foreign expert B.Shaitan, "Innovations in relation to agriculture are new technologies, new equipment, new plant varieties, new animal breeds, new fertilizers and plant and animal protection products, new methods of prevention and

treatment of animals, new forms of organization, financing and crediting of production, new approaches to training, retraining and professional development of personnel, etc." [13]. Foreign economist R.A.Fatkhutdinov expressed the opinion that "Innovation is the final result of the introduction of an innovation in order to change the object of management and obtain an economic, social, environmental, scientific, technical or other type of effect" [14].

When we studied the approach of economic scientists of our republic to the concept of innovation, we received the following information. The outstanding scientist economist R.Khusanov notes that "In the conditions of scientific and technical development, the emergence, continuous improvement and widespread use of new technical means and technologies, modern science and the growth of qualifications of direct producers play an important role, and the process of production development acquires a new quality. In our opinion, in the future, the regular reformatory form of development will replace the revolutionary form" [15].

According to one of the experts in this field, economist R.Rajapov, "The practical solution to the issue of complex mechanization and the introduction of modern technologies in agriculture depends not only on the amount of funds, but also, first of all, on the possibilities of attracting additional material and financial resources, conducting a unified technical and economic policy within the agro-industrial complex, as well as the development of the corresponding control system" [16].

According to Professor K.A.Choriev, "for the development of agriculture on an innovative basis, the development of a state agrarian policy in this direction and its implementation using more stimulating functions of tax, financial, credit, valuation and insurance mechanisms will be of great importance." Effective" [17].

D.Jalalova, a specialist in this field, noted in her research that "Innovation is a set of interrelated relationships, such as the formation of ideas, the creation and implementation of innovative developments and technologies, as well as the dissemination of information about them, providing consumers with them and regularly improving their knowledge and skills in this direction" [18].

In conclusion, we can say that economists express different opinions about innovation, but their definitions and approaches do not adequately cover all aspects of innovation. Therefore, based on the scientific research of these scientists and the results of our research, we have created the following definition of innovation in the agricultural sector: "innovation in the agricultural sector is the result of new developments and intellectual activity, ensuring the achievement of important socio-economic results that are used in the activities of agricultural enterprises and are used for the personal needs of people working in the industry".

List of used literature:

Message from the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis.
<https://president.uz/ru/lists/view/1371>

The Law of the Republic of Uzbekistan. "On innovation activities." <https://lex.uz/docs/4910448>
Uzbek tiling from the lugati valley. And a selfie. "Uzbekiston milliy encyclopediyasi" by Davlat ilmiy nashrieti. Toshkent. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/pdf
<https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/152267>

- The economic essence of innovation. Summary* <https://works.doklad.ru/view/vw5JoBKvI7U.html>
- Schumpeter J. *Theory of economic development*. – M.: Progress, 1982. – pp. 169-170
- Innovative management: Textbook* / S.D. Ilyenkova, L.M. Gokhberg, S.Y. Yagudin, et al. M.: UNITY, 2007. 368 p.
- Kondratiev N.D. *Large cycles of conjuncture*. 1925
- Santo B. *Innovation as a means of economic development: Translated from Hungarian*. – M.: Progress, 1990. – p. 24.
- E.A.Utkin, N.I.Morozova, G.I.Morozova. *Innovative management. Textbook* - M.: AKALIS, 1996. 60. p. 10
- Bezudny F.F., Smirnova G.A., Nechaeva O.D. *The essence of the concept of innovation and its classification*. *Journal of Innovation*, 1998. pp. 3-13. Issn:2071-3010. <https://elibrary.ru/item.asp?id=21679242>
- Suvorova A.L. *Innovative management: Textbook*. – Yoshkar-Ola: Mar. GTU, 1999. –p. 15.
- Shaitan B.I. *Innovations in agriculture and the role of the agricultural consulting service // Materials of the international scientific and practical conference "Innovation in agriculture: experience and problems" (January 13-14, 2005)*. – M., 2005. – pp. 206-213. <http://esc.vsc.ac.ru/article/23/full>
- Fatkhutdinov R.A. *Innovation management*, 2005, p. 15.
- Khusanov R.H. *Agrarian reform: theory, practice, problems*. -Tashkent, 1994. -72 p.
- R.Rajapov. *Financial and economic levers to increase the efficiency of agricultural production*. - Tashkent.: "Uzbekistan", 1981. P. 230.
- Choriev.K.A. *Kishlok khizhaligida innovativalar zori kilish tizimini shakllantirish va ragbatlantirish istikbollari (uslubiy tavsiyalar)*. ShKHIITI. T.: – 2014 yil. 32 b.
- D.Jalalova. *Kishlok khizhaligida innovation technologyalarni zori etishni ragbatlantirishning Tashkent methodic mechanismlarini takomillashtirish. Dissertation of the author's abstract*. Tashkent-2023. 59 bet.later.

**“YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT
STRATEGIYASI ASOSIDA HISOB-TAHLIL VA AUDIT
TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA USTUVOR
YO‘NALISHLAR”**

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLAR TO‘PLAMI

5-dekabr 2023-yil

Kompyuterda sahifalovchi:

S.Kamilova

Bosishga ruxsat etildi 20.12.2023-y.
Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Shartli bosma tabog‘i 33,9 b.t.
Adadi 100 nusxa.
